

G'. ABDURAHMONOV, SH. SHUKUROV, Q. MAHMUDOV

# **O‘ZBEK TILINING TARIXIY GRAMMATIKASI**

**FONETIKA, MORFOLOGIYA VA SINTAKSIS**

*Ўzbekiston Respublikasi Oliy va o'rtta maxsus ta'lim vazirligi  
tasdiqlagan*

Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari  
bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik

**O‘ZBEKISTON FAYLASUFLARI MILLIY  
JAMIYATI NASHRIYOTI  
TOSHKENT**

**2000**

**81.20 ‘zb A15**

**Abdurahmonov G‘.**

O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi: Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakultetlari bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik / G ‘. Abdurahmonov, Sh. Shukurov, Q. Mahmudov. T .: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2000. - 528 b.

**I. Shukurov Sh. II. Mahmudov Q.**

**BBK81.2 Uzb—923**

Darslikning «Kirish», «Sintaksis», «Jadvallar\*», «Testlar», «Tekshirish uchun savollar», «Tayanch tushunchalar», «Mustaqil ish mavzulari», «Tahlil uchun matnlar\*», «Lug‘atlar» qism ini akademik G ‘.A. Abdurahmonov, «Fonetika\* bo‘limini professor Q.Mahmudov, «Morfologiya\* qismini professor Sh.Shukurov yozgan.

Mas’ul muharrirlar:

O‘z FA akademigi A. Rustamov,

O‘z FA akademigi G ‘. Abdurahmonov

[www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi

## MUALLIFLARDAN

Ushbu darslik turkiy (o‘zbek) tili yozma yodgorliklar tilining tahlili asosida yozildi. Ma’lumki, o‘zbek tiliga oid yozma yodgorliklar lingvistik tomondan kam o‘rganilgan, ularning ko‘pchiligi bo‘yicha ilmiy-tanqidiy matnlar yaratilmagan, ayrimlarining esa, hatto, ommaviy nashri ham yuzaga kelgan emas. Bu hol o‘zbek tili tarixi bo‘yicha darslik va qo‘llanmalar yaratish ishida ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Bundan tashqari, XIII—XIV asrlar davomida O‘rta Osiyoda, ayniqsa, Xorazm va Oltin O‘rda xonligi hududida yaratilgan manbalarning alohida adabiy tilni tashkil etishi masalasi hozirgacha munozarali bo‘lib kelmoqda. Bu hududda yaratilgan adabiyotlarda mahalliy sheva (urug‘) tili xususiyati bo‘lsa ham, ular yagona o‘zbek adabiy tilini tashkil etadilar. Shuning uchun ham bu manbalardan to‘la foydalanildi.

Izohlanayotgan til hodisalari qadimgi turkiy yodgorliklar, ya’ni O‘rxun-Enasoy matnlariga hamda “Devonu lug‘atit-turk” va “Qutadg‘u bilig” asarlarining tili bilan qiyoslab borildi. Qadimgi turkiy yodgorliklar tili hozirgi zamon o‘quvchisiga to‘la tushunarli bo‘lmaganligi sababli bu manbalardan keltirilgan misollarning hozirgi o‘zbek tiliga tavsifi ham berildi.

Yozma yodgorliklardan keltirilgan misollar, ayrim hollardan tashqari, tadrijiy tartibda bo‘lib, har bir misolning manbai ko‘rsatib o‘tildi.

Darsning amaliy qismi uchun «Testlar», «Tekshirish uchun savollar», «Tayanch tushunchalar», «Mustaqil ish mavzulari», «Tahlil uchun matnlar» berildi.

Darslikning qo‘lyozmasiga taqriz yozgan va uning muhokamasida ishtirok etgan barcha olimlarga qimmatli maslahatlari uchun mualliflar chuqur minnatdorchilik bildiradilar.

Darslik bo‘yicha taklif, tuzatish va mulohazalarni nashriyotga yoki Toshkent Davlat sharqshunoslik institutiga yuborilishini iltimos qilamiz.

## TRANSKRIPSION BELGILAR

### Unlilar uchun

- a — til orqa, lablanmagan, keng.
- ä — til oldi, lablanmagan, o'рта-keng.
- e — til oldi, lablanmagan, o'рта-keng.
- i — til oldi, lablanmagan, tor.
- ı — til orqa, lablanmagan, tor.
- o — til orqa, lablangan, o'рта-keng.
- ö — til oldi, lablangan, o'рта-keng.
- u — til orqa, lablangan, tor.
- ü — til oldi, lablangan, tor.

ā — orqa qator o'рта-keng unli bo'lib, fors-tojik va XIV asrdan boshlab o'zbek adabiy tilidagi so'zlarda qo'llanadi.

Arabcha so'zlardagi til o'рта, qisqa (a) unlisi va forscha-tojikcha so'zlardagi til oldi, qisqa (a) unlisi (a) orqali berildi (masalan, *amal, qalam, shahar, safar*).

### Undoshlar uchun

ŋ (ng) — portlovchi, burun tovushi, sonor — (masalan, *miŋ, meŋ, keŋ*);

j — til oldi, jarangli, qorishiq undosh — (masalan, *juft, jumla*) va til oldi, jarangli, sirg'aluvchi (masalan, *jurnal*);

j̣ — til oldi, jarangli, sirg'aluvchi undosh — (masalan, *ajdar, ajun*).

sh — til oldi, jarangsiz, sirg'aluvchi;

ch — til oldi, jarangsiz, qorishiq;

g' — chuqur til orqa, jarangli.

Boshqa undoshlar uchun hozirgi o'zbek alfavitida mavjud bo'lgan quyidagi belgilar qo'llandi: b, v, g, d, z, y, k, l, m, n, p, r, s, t, f, x, ch, sh, ', q, g', h.

Arab va fors so'zlarida ishlatiladigan ث (se), ص (sod), ض (zod), ط (to), ظ (zo) undoshlari uchun odatdagi (s), (z), (t) belgilari olindi.

Tish aro jarangli ذ undoshi belgisi uchun d olindi.

## SHARTLI QISQARTMALAR

### Foydalanilgan adabiy asarlar

- Abushqa** — Lugʻati Abushqa (V.V. Velyaminov-Zernov nashri: SPb., 1868).
- Amiriy** — Yusuf Amiriy. Bang va chogʻir orasinda munozara (Qoʻlyozma, Britaniya muzeyi, Add. 7914).
- BV** — Vosifiy. Badoe ul vaqoe (Dilovor tarjimasii. Qoʻlyozma, OʻzFA Sharqshunoslik instituti, inv. № 3344).
- BN** — Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma (N.I. Ilminskiy nashri, Kazan, 1857).
- Bobur** — Bobur. Devon (A.N.Samoylovich nashri, Petrograd, 1917).
- Gulxaniy** — Gulxaniy. Zarbulmasal (F. Isʻhoqov nashri, Toshkent, 1976).
- DN** — Yusuf Amiriy. Dahnoma (Qoʻlyozma, Britaniya muzeyi, Add. 7914).
- KT, kt** — Kultegin shaʼniga qoʻyilgan katta yodnoma.
- KT, keh** — Kultegin, kichik yodnoma.
- LN** — Xoʻjandiy. Latofatnoma (Qoʻlyozma, Britaniya muzeyi, Add. 7914).
- Lutfiy** — Lutfiy. Devon (Qoʻlyozma, Britaniya muzeyi, Add. 7914).
- MK yoki DLT** — Mahmud Koshgʻariy. Devonu lugʻatit-turk (S. M. Mutallibov nashri, Toshkent, 1960, 1961, 1963).
- MN** — Xorazmiy. Muhabbatnoma (Qoʻlyozma, Britaniya muzeyi, Add. 7914).
- Munis** — Shermuhammad Munis. Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi Yu.Yusupov, Toshkent, 1957).
- Muqimiy** — Muqimiy. Asarlar toʻplami. Ikki tomlik (Nashrga tayyorlovchi Gʻ. Karimov, Toshkent, 1960).
- Navoiy, LT** — Alisher Navoiy. Lisonut tayr (Ilmiy-tanqidiy

- matn. Tayyorlovchi Sharafiddin Eshonxo‘jayev, Toshkent, 1965).
- Navoiy, MA** — Mezonu‘l evzon (Tanqidiy matn. Tayyorlovchi Prof. dr. Eraslan, Anqara, 1993).
- Navoiy, ML** — Alisher Navoiy. Muhokamat-ul lug‘atayn. (M.Quatremere nashri, Parij, 1841).
- Navoiy, MN** — Alisher Navoiy. Majolisun nafaos (Ilmiy-tanqidiy matn. Tayyorlovchi S.G‘aniyeva, Toshkent, 1961).
- Navoiy, Msh** — Alisher Navoiy. Munshaot (Qo‘lyozma: M. E. Saltikov-Shchedrin nomidagi Sankt-Peterburg Davlat kutubxonasi, X-55).
- Navoiy, MQ** — Alisher Navoiy. Mahbub-ul qulub (Tanqidiy matn. Tayyorlovchi A. N. Kononov, M. —L., 1948).
- Navoiy, SI** — Alisher Navoiy. Saddi Iskandariy (Porso Shamsiyev nashri, Toshkent, 1961).
- Navoiy, SS** — Alisher Navoiy. Sab‘ayi sayyor (Ilmiy-tanqidiy matn. Tayyorlovchi Porso Shamsiyev, Toshkent, 1956).
- Navoiy, FK** — Alisher Navoiy. Favoidul kibar (Qo‘lyozma, Sharqshunoslik instituti, inv. №774).
- Navoiy, FSH** — Alisher Navoiy. Farhod va Shirin (Tanqidiy matn. Tayyorlovchi Porso Shamsiyev, Toshkent, 1963).
- Navoiy, CHD** — Alisher Navoiy. Chor devon (Qo‘lyozma, Sharqshunoslik instituti, inv. №677).
- Navoiy, G‘S** — Alisher Navoiy. G‘aroyibus-sig‘ar. (Qo‘lyozma, Sharqshunoslik instituti, inv. №790).
- Navoiy, HA** — Alisher Navoiy. Hayratul-abror (Ilmiy-tanqidiy matn. Tayyorlovchi Porso Shamsiyev, Toshkent, 1970).
- NF** — Mahmud Ali. Nahjul farodis (Ya.Ekman nashri, Anqara, 1956).
- Atoiy** — Atoiy. Devon (Qo‘lyozma: Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo‘limi, V-2456).

- PDP** — Малов С.У. Памятники древнетюркской письменности. М. Л., 1951.
- Sakkokiy** — Sakkokiy. Devon (Qo'lyozma, Britaniya muzeyi, Add. 2079).
- Sanglah** — Mirza Mehdiyxon. Sanglah (J.Klosson nashri, London, 1960).
- Saroyi** — Sayfi Saroyi. Guliston bit-turkiy (H.Usmonov va Z.Maqsudovalar nashri, Qozon, 1980).
- Suvr** — Suvraprabhasa ("Oltun yoniq"dan). (Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. М. —Л., 1951).
- Tafsir** — O'rta Osiyo tafsiri (Qo'lyozma, Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi, S-197).
- TVG** — Turkiston viloyatining gazetii.
- TN** — To'tinoma (Qo'lyozma, Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi, S-172/II).
- Toj.** — Tojyuquq sha'niga qo'yilgan yodnoma (Малов С. Е. Памятники древнетюркской письменности. М. —Л., 1951).
- TT** — Turfan matnlari (V. Bang va A. Gaben nashrlari, Berlin, 1929, 1930, 1931, 1934, 1954, 958, 1959).
- FI** — Munis va Ogahiy. Firdavsul iqbol (Qo'lyozma, Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi, S-571).
- Furqat** — Furqat. Tanlangan asarlar. Ikki tomlik (Nashrga tayyorlovchi Xolid Rasul, Toshkent, 1959).
- XSH** — Qutb. Xisrav va Shirin (A. Zayonchkovskiy nashri, Varshava, 1954).
- SHN** — Muhammad Solih. Shayboniynoma (T. M. Melioranskiy nashri, SPb., 1908).
- SH.tar.** — Abulg'ozii Bahodirxon. Shajarai tarokima (A. N. Kononov nashri, M. -L., 1958).
- SH.turk** — Abulg'ozii Bahodirxon. Shajarai turk (N. Rumyansev nashri, Kazan, 1925).
- Yaqiniy** — Yaqiniy. O'q (va) yoy orasinda munozara (Qo'lyozma, Britaniya muzeyi, Add. 7914).

- O'N** — O'g'uznoma (A. M. Sherbak nashri, M., 1959).
- O'rx.-En.** — O'rxun-Enasoy yodgorliklari (Malov S. E. Памятники древнетюркской письменности. М. — Л., 1951). 2. Енисейская письменность тюрков. М. -Л., 1952; 3. (Malov S. E. Памятники древнетюркской письменности Монголии и Киргизии. М. -Л., 1959).
- Qad. uyg'.** — Qadimgi uyg'ur tili yodgorliklari ("Oltun yoruq", "Irg bitig", "Tishastvistik", "Xuastuanift" kabi qadimgi uyg'ur yozuvidagi obidalar).
- QA** Rabg'uziy. Qissasul anbiyo. (Qo'lyozma, Sharqshunoslik instituti).
- QB** — Yusuf Xos Hojib. Qutadg'u bilig (1. Qo'lyozma, Sharqshunoslik instituti, inv № 1809 (Namangan nusxasi); 2. Q. Karimov nashri, Toshkent, 1971).
- QR** — Qissasi Rabg'uziy (Qo'lyozma, Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi, S-245).
- Haydar** — Haydar Xorazmiy. Mahzanul asror (Qo'lyozma, Britaniya muzeyi, Add. 7914).
- Huvaydo** — Huvaydo. Devon (Litografik nashr, Toshkent, 1913).
- HH** — Ahmad Yugnakiy. Hibatul haqoyiq (1. Rashid Rahmatiy Arat nashri, Istanbul, 1952; Q. Mahmudov nashri, Toshkent, 1972).



## KIRISH

---

O'zbek tili tarixiy grammatikasi, fonetikasi va leksikologiyasi hozirgi zamon o'zbek tilining grammatik qurilishi, tovush tizimining taraqqiyoti va lug'at tarkibining tarixiy takomilini o'rganadi.

Tarixiy grammatika til tarixi fanining bir qismidir. Til tarixi fanining qolgan barcha sohaları til tarixining boshqa tomonlarini tekshiradi. Masalan, adabiy til tarixi bahsi turli davrlarda yaratilgan adabiy asarlarning tilini va bu adabiy til tarixining tadrijiy taraqqiyotini o'rganadi; eski o'zbek adabiy tili va qadimgi turkiy til sohaları hozirgi o'zbek adabiy tili uchun asos bo'lgan davrlardagi adabiy asarlar tilini tekshiradi.

Tarixiy grammatika boshqa fanlar — shevashunoslik, o'zbek xalqi tarixi va etnografiyasi, adabiyot tarixi fanlar bilan bog'lanadi, ya'ni tarixiy grammatikada grammatik qurilish va so'z shakllarining taraqqiyotini xalq tarixi bilan, adabiy til an'analari va adabiy til tarixi bilan, hozirgi zamon shevalari xususiyatlari bilan bog'lanadi, ana shu materiallarga asoslanadi. Xalq tarixida ro'y bergan o'zgarishlar tilga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Avvalo, bu ta'sir tilning leksik tarkibida ko'rinib, so'ngra tilning boshqa sohalariga — fonetika va grammatikasiga o'tadi.

Tarixiy grammatika uchun asosiy manba sifatida yozma yodgorliklar, hozirgi zamon sheva xususiyatlari va qardosh turkiy tillarni qiyosiy o'rganish materiallari xizmat qiladi. Tarixiy grammatika qadimgi davrdan tortib, hozirgacha bo'lgan yozma manbalarning tilini tahlil qilish va bir davr yozma manbaining til xususiyatlarini boshqa davr yozma manbalari til xususiyatlariga qiyoslash yo'li bilan til taraqqiyoti qonuniyatlarini aniqlaydi va tilning tadrijiy taraqqiyotini belgilaydi. Hozirgi zamon sheva xususiyatlarini o'rganish ham til tarixini, tarixiy grammatika masalalarini o'rganishda katta manba bo'ladi, chunki tilning ayrim eski, arxaik shakllari shevalarda saqlanib qoladi. Bu shakllarni boshqa turkiy tillardagi ayni shakllar bilan qiyoslab, tarixiy taraqqiyot yo'lini kuzatish mumkin.

Tilning tarixiy taraqqiyotini o'rganishda qardosh turkiy tillarning materiallari katta yordam beradi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bir

turkiy tilda arxaiklashib, tamom qo'llanishdan chiqqan shakl boshqa turkiy tilda saqlanishi mumkin. Ana shu saqlangan shaklga qarab, uning tarixiy taraqqiyot yo'lini aniqlash mumkin bo'ladi. Biror turkiy til tarixini boshqa qardosh turkiy tillar tarixi bilan qiyoslab o'rganish tarixiy grammatikaning zaruriy vazifalaridan biridir.

### **Turkiy xalqlarning, xususan, o'zbek xalqining etnogenezi va tilining shakllanishi**

Har bir xalq tilining shakllanishi shu tilda so'zlashuvchi xalqning kelib chiqish tarixi bilan bevosita bog'liqdir.

Turkiy, xususan, o'zbek xalqining etnogenezini aniqlash tarixchilar, etnograflar, arxeologlar, tilshunoslar va adabiyotshunoslar shunga o'xshash soha olimlarining birgalikda ish olib borishlarini talab qiladi. Masalan, hozirgi zamon O'rta va Markaziy Osiyo xalqlarining etnogenezini bilish — shu hududda qadimda yashagan xalqlar — saklar (skiflar), massagetlar, sug'dlar, kushonlar (yoki toxarlar), xunlar hamda boshqa qo'shni xalqlarning tarixini o'rganish bilan bog'liqdir.

Har bir xalqning shakllanishi uning ijtimoiy tuzumi, madaniyati, tili va ongining shakllanishi bilan belgilanadi.

Turkiy xalqlarning genezisi va tilining shakllanishini aniqlashda eng murakkab muammo O'rta va Markaziy Osiyoning eng qadimgi tarixini va bu hududda istiqomat qilgan qadimgi etnik guruhlar, ularning qaysi bir tilda so'zlashganini aniqlash masalasidir.

Bu sohada asosiy manbalar — qadimgi eron, yunon, xitoy, arab tillarida yozilgan yodnomalar, arxeologik qazilmalar hamda hozirgi zamon sheva materiallaridir. Mavjud turkiy yozma yodgorliklarning eng eskilari VII–X asrlarga oiddir.

Manbalardan ma'lum bo'ladiki, eng qadimgi (meloddan avvalgi III–I minginchi yillar) O'rta Osiyoning aholisi skiflar, xorazmliklar, saklar, massagetlar, sug'dlar, qang'li (qang'uy)lar bo'lgan. Amu va Sirdaryoning quyi oqimida massagetlar, Qozog'iston va Sharqiy Turkistonda saklar, Xorazm vohasida xorazmliklar yashagan. Toshkent, Farg'ona, Sug'dning katta qismida turkiyzabon deb

taxmin qilingan etnik guruhlar — qang‘uy (yoki qang‘li) urug‘lari yashagan va ular **Qang‘uy (Qang‘a) davlatini** tashkil etganlar.

Turkiy urug‘larning mustahkamlanishida ishtirok etgan ikkinchi qatlam Markaziy Xitoydan ko‘chib kelgan yuechji (kushon yoki toxarlar) va xunlar (milodgacha I minginchi yillar) hamda eftalit urug‘lari bo‘ldi. Kushonlar **Kushon davlatini** (I–IV asrlar), eftalitlar **Eftalit davlatini** tuzdilar (V–VI asrlar). Eroniy va turkiy tilda so‘zlashuvchi bu davlatlar Baqtriya, Sug‘d, Xorazm, Parfiya, Marg‘iyona, Choch (Shosh), Parkana o‘lkalarida barpo bo‘ldi. V–VIII asrlar mobaynida sharqdan ko‘chib kelgan turkiy urug‘lar mahalliy turkiy urug‘larning mustahkamlanishida va sug‘d hamda xorazmcha so‘zlashuvchi urug‘larning turklashishida katta rol o‘ynadilar.

Ashyoviy dalillar, qadimgi bitiglar O‘rta Osiyo xalqlari orasida zardusht dini ta‘limoti tarqalgani, amaldagi oromiy yoki mixxtat yozuvic‘an sug‘d va xorazm yozuvi shakllanganini ko‘rsatadi. So‘nggi ikki yozuv VII asrlargacha qo‘llanib keldi.

O‘rta Osiyoda Kushon davlatining yemirilishi bilan uning vorisi va davomchisi sifatida Eftalit davlati barpo bo‘ldi (V–VI asrlar). Eftalitlar xunlar bilan aralashib, ularning tilida (turkiy tilda) so‘zlashganlar.

VII–VIII asrlar **turk xoqonligi davridir**. Bu xoqonlik O‘rta va Markaziy Osiyo, Mo‘g‘uliston va Qozog‘istonni o‘z ichiga oldi. Ma‘lumki, turk xoqonligi keyinroq, 588-yili ikki qismga bo‘linib ketdi: Sharqiy xoqonlik (Mo‘g‘uliston) va G‘arbiy xoqonlik (Yettisuv viloyati). G‘arbiy xoqonlik qarluq, xalaj, qang‘li, turgesh, chigil, o‘g‘uz urug‘ birlashmalaridan iborat edi. Keyinroq g‘arbiy xoqonlik ham yemirilib, tarkibidagi o‘g‘uz va qarluqlar ajralib chiqib, alohida o‘z davlatlarini tashkil etdilar.

Bu davrda Movarounnahr, Xorazm va Xurosonga shimol va sharqdan turkiy qabilalarning kirib kelishi davom etadi. 745-yili Sharqiy turk xoqonligi uyg‘urlar tomonidan yemirildi, **uyg‘ur davlati** paydo bo‘ldi. Bu davlat 840-yilgacha davr surdi, so‘ngra uyg‘ur davlati Sibirdan kelgan xakaslar (qirg‘izlar) tomonidan yemirilib, **qirg‘izlar davlati** hukmron bo‘lib qoldi. Uyg‘urlarning bir qismi

qarluqlarga qo'shildi, ikkinchi qismi Tibetga ko'chdi, qolgani Oltoyda qolib, boshqa turkiy urug'lar bilan qo'shilib ketdi.

Ma'lumki, VIII asr boshlarida O'rta Osiyoni arablar bosib oldi. Bu davrda mahalliy zardushtiy, buddizm, otashparastlik, ko'p xudolilik dinlari o'rnini islom dini egalladi. Arab tili fan va rasmiy davlat tili bo'lib qoldi, arab yozuvi joriy bo'la boshladi.

IX—X asrlar davomida O'rta Osiyo somoniylar davlati qo'l ostida bo'ldi. Bu davrda arab hukmronligi tugatilsa ham, islom dini va aqidalari saqlandi, tobora singib bordi, arab tili fan tili sifatida qo'llansa ham, rasmiy davlat tili fors-tojik tili edi, so'zlashuv tili — turkiy til bo'lgan. Mahalliy turkiy va fors-tojik urug'larining o'zaro aloqasi va qo'shilish jarayoni kuchaydi. Ikki tillilik rivoj topdi. Bu vaqtga kelib arab alifbosi o'zlashib, sug'd, xorazm va pahlaviy yozuvi qo'llanishdan to'xtadi, uyg'ur (to'g'rirog'i, turkiy) yozuvi esa XIII—XIV asrgacha ishlatilib kelindi. Buyuk Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Abu Ali ibn Sino, Al-Xorazmiy, Al-Farg'oniy, Al-Forobiy, Beruniylar shu davrda yashadilar va o'lmas asarlar yaratdilar. Olim va shoirlarga Abu Abbos Ma'mun (999—1016-yillari halif edi) homiylik qildi, mashhur "Ma'mun kutubxonasi" va "Ma'mun akademiyasi" ("Baytul hikma") tashkil bo'ldi.

Umuman, VIII—X asrlarda O'rta Osiyoning sharqiy qismida, janubida, Yettisuvda qarluq, chigil, yag'mo, to'xsi, uyg'ur, o'g'uz, qipchoqlar kabi turkiy urug'lardan iborat bo'lgan konfederatsiyalar tashkil topdi. Bu urug'lar ichida nufuzlisi qarluq urug'lari edi.

Ular Qarluq davlatini barpo qildilar. X asr oxirlarida o'g'uzlar Xorazmni egalladilar.

Buxoroning janubiy qismlarida ular turkman-saljuqiylar nomi bilan yuritilardi. Bu davrda turkiy urug'larning ko'p qismi Yettisuv vohasida joylashgan edi. Qarluqlar Turkmaniston hududida, chigillar Issiqko'lda, yag'molar Issiqko'lning janubida istiqomat qilganlar. Yettisuv vohasidagi konfederatsiyada dam qarluqlar, dam chigillar, dam arg'ular hukmronlik qilardi.

X—XII asrlar qoraxoniylar davlati hukm surgan davrdir. Bu davlat somoniylar davlati o'rnida paydo bo'ldi. Ammo XI asr o'rtalarida qoraxoniylar davlati ikki qismga ajraldi: biri — Sharqiy davlat (markazi — Balasag'un, keyinroq — Koshg'ar), ikkinchisi — G'ar-

biy davlat (markazi — O‘zgand, keyinroq Samarqand). Sharqiy davlatga — Sharqiy Turkiston, Yettisuv, Shosh, Farg‘ona, Sug‘d kirs, G‘arbiy davlatga — Afg‘oniston, Shimoliy Eron, keyinchalik Xorazm o‘lkasi kirdi. Bu vaqtga kelib turkiy qabilalar yanada birlashdi, turkiy tilning mavqei ko‘tarildi. Qoraxoniylar davlatini asoslagan urug‘lar qarluqlar, yag‘molar va chigillar edi. XI asrda Qoraxoniylar davlati bilan barobar G‘aznada **g‘aznaviylar davlati** tuzildi va 1017-yili Xorazm ham shu davlatga qo‘shib olindi.

Qoraxoniylar davlatida arab tili ilmiy va diniy til bo‘lib qoldi, fors-tojik tili rasmiy va adabiy til bo‘lsa-da, turkiy tilda ham rasmiy hujjatlar tuzildi. Yusuf Xos Hojibning 645 misradan iborat “Qutadg‘u bilig” asari, Ahmad Yugnakiyning nazm bilan yozilgan “Hibatul-haqoyiq” asari turkiy tilda yozildi. Bu hol XII asrda o‘zbek adabiy tilining ham shakllana borganidan darak beradi.

XI—XII asrlarda Xorazmga turkiy urug‘larning ko‘plab kelishi tufayli, mahalliy eronzabon Xorazm tilining mavqei pasayib, turkiy tilga o‘tish va turklashish jarayoni kuchaydi.

XII asr boshlarida etnik tarkibi haligacha noaniq bo‘lgan ko‘chmanchi “qora xitoylar” O‘rta Osiyoni bosib olsa ham, katta o‘lpon (soliqlar) berish sharti bilan o‘z yurtlariga qaytdilar.

O‘rta Osiyo xalqlari XIII asrning birinchi yarmi (1219-yil)dan to XIV asrning ikkinchi yarmigacha (1370-yilgacha) **mo‘g‘ullar** asoratida bo‘ldilar. XIV asrning ikkinchi yarmidan XV asrning ikkinchi yarmigacha hokimiyat **temuriylar** qo‘lida bo‘ldi. Temur davlati mo‘g‘ullar vayron qilgan davlatni tikladi, katta hududda mutloq hokimiyat o‘rnatdi.

O‘rta Osiyoda hukm surgan arablar, forslar, mo‘g‘ullar mahalliy urug‘ va qabilalarning etnik tarkibiga va tiliga biror keskin ta‘sir ko‘rsata olmadilar, faqat ma‘lum davrlarda arab tili ilmiy til, fors tili rasmiy va qisman adabiy til sifatida qo‘llanildi. XIV—XV asrlarda mo‘g‘ul urug‘lari (joleyir, barlas, qavchin, arlat, alchin, duglat, ming, sulduz, mang‘it, qo‘ng‘irot, nayman va b.)ning turkiy urug‘lari bilan aralashuvi va turklashish jarayoni kuchaydi.

Bu davrda o‘zbek adabiy tilining va o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni tugallandi va fan, madaniyat va adabiyot taraqqiy etdi.

Oltin O‘rda inqirozga uchragach (XIV asr boshlari), shuning-

dek, temuriylar davlatining ichki inqirozi davrida Dashti qipchoqning sharqiy qismida (Volga daryosining sharq tomoni va Sirdaryoning shimolidagi, hozirgi Qozog‘iston va Sibirning g‘arbi-janubiy qismi) XV asrning 20-yillari “**Ko‘chmanchi o‘zbeklar davlati**” vujudga keldi. Bu davlat o‘zbek, qozoq va mo‘g‘ul urug‘laridan (tang‘ut, qo‘ng‘irot, durman, nayman, xitoy, uyg‘ur, qarluq, uyshin, mang‘it kabi) tarkib topgan edi. Bu urug‘lar umumiy bir nom bilan “o‘zbek” deb atalardi. Bu davlatning asoschisi Abulxayrxon (1428—1468) bo‘lib, davlat 40 yil hukm surdi. Abulxayrxonning nevarasi **Muhammad Shayboniy (1450—1510)** XV asr boshlarida temuriylar saltanatiga barham berdi, ko‘chmanchilar mahalliy urug‘larga singib, hududdagi turkiy aholi ham sekin-sekin “o‘zbek” deb nomlana boshladi.

“**O‘zbek**” atamasi eskidan ma‘lum. Bu nomni shaxs nomi sifatida Nisaviy Juvayniy va Rashididdin (XIII asr) asarlarida qo‘llanadi. Oltin O‘rda xoni Jujining o‘g‘li ham O‘zbekxon edi. Ildezdilar sulolasidan bo‘lmish Ozarbayjon otabeklaridan biri O‘zbek nomi bilan atalardi, Xorazmshoh Muhammad (1200—1220) amirlaridan birining ham ismi O‘zbek edi. Shunisi muhimki, Dashti qipchoqdagi “o‘zbek” qabilalari Oltin O‘rda xoni O‘zbekxon qo‘lida bo‘lmagan. “O‘zbek” atamasi vengerlarda ham martaba, ham unvon sifatida qo‘llanadi. (“Qushbegi”, “Otabegi” kabi)<sup>1</sup>. Shunisi muhimki, To‘xtamish qo‘shinlarida ham, Chingizxon askarlari ichida ham turkiy, xususan, o‘zbek qabilalari bo‘lgan.

XVI—XIX asrlar davomida o‘zbek urug‘larining tojik, qozoq, qirg‘iz, qoraqalpoq, turkman urug‘lari bilan etnik va madaniy aralashuvi yanada tezlashadi. Ayrim o‘zbek va tojikzabon urug‘ va qabilalarning qo‘shilish jarayoni jadallashadi. Dashti qipchoqdan ko‘chmanchi qabilalarning ko‘chib kelishi davom etadi, qipchoq va qoraqalpoq urug‘lari Zarafshon va Farg‘ona vodiysiga, qozoqlar Toshkent vodiysiga joylasha boshlaydi.

1559-yili shayboniylar sulolasidan bo‘lmish Abdulmo‘min

---

<sup>1</sup> “Turk” atamasi etnik ma‘nodagina emas, bir necha qabilalarning siyosiy birlashmasi ma‘nosida ham qo‘llangan. S. P. Tolstov ta‘biricha, “turk” — yosh, uylanmagan yigit ma‘nosini ham anglatgan.

vafotidan so'ng hokimiyat yangi, astraxonliklar (ashtarxoniylar) sulolasiga o'tdi. Hokimiyatni Boqi Muhammad egalladi. Hokimiyat markazi Buxoro edi. Bu davrda ayrim urug' va qabilalar nufuzli o'rin olishga harakat qildilar. Sirdaryo atroflarida keneges urug'i, Amudaryo atrofida qatag'on, Samarqand va Farg'onada ming urug'i, Movarounnahr g'arbida mang'itlar va qo'ng'irotlilar hokimiyat uchun kurashdilar. Natijada Buxoroda mang'itlar, Xivada qo'ng'irotlilar, Qo'qonda ming urug'lari hokimiyatni egalladilar. Shunday qilib, yagona ashtarxoniylar sulolasi barham topib, Qo'qon, Xiva xonliklari va Buxoro amirligi tuzildi. Bu davlat birlashmalari 90 dan ortiq qabila va urug'lardan tarkib topgan bo'lsa-da, hammasi asosan qarluq urug'idan bo'lib, madaniyati bir xil, tili — o'zbek tili edi (ayrim urug'larda ba'zi sheva xususiyatlari saqlangan). Samarqand va Buxoro aholisi o'zbek va tojik tilida so'zlashar edi.

O'rta Osiyo va Qozog'iston o'lkalarining yer osti va yer usti boyliklari, bozori, arzon ishchi kuchi ko'pdan beri Rossiya hukumatini qiziqtirib kelar edi. Bu o'lkani zabt etishga bo'lgan harakat Petr I zamonidan boshlandi. XVIII asrning boshidayoq rus kazaklari Qozog'istonning shimoliga ko'chirilib, Orenburg, Ural va Sibir harbiy okruglari tuzildi, harbiy istehkom va qal'alar qurildi. Shayboniylar davridayoq mahalliy hokimiyat bilan Rossiya savdo aloqalari o'rnatgan edi: mahalliy hukumat va xonliklar paxta, ipak, jun, gilam, qorako'l, meva yuborar, Rossiyadan esa metall, metall buyumlari, yog'och, taxta olardi.

O'rta Osiyoni ochiqdan-ochiq bosib olish 1852-yili Oqmachit (Perovskiy, keyinroq Qizil O'rda) shahrini zabt etishdan boshlandi. 1860-yili To'qmoq va Pishpak (Beshkek), 1861-yili Yangi Qo'rg'on, 1864-yili Chimkent bo'ysundirildi. 1865-yili Toshkent bosib olindi. Buxoro amiri Rossiya bilan sulh tuzishga majbur bo'lib, bir qancha yerlaridan mahrum bo'ldi. Bosib olingan yerlarda Turkiston general-gubernatorligi tashkil bo'ldi. 1872-yili Xiva xonligi tor-mor qilingach, Xiva xoni "Butunrossiya imperatorining itoatkor xizmatchisi" bo'lganini bo'yniga olib, shartnomaga qo'l qo'ydi, Rossiyaning itoatkor vassali bo'lib qoldi.

1875-yili Qo'qon xonligi ham mag'lubiyatga uchrab, Farg'ona viloyati general-gubernatori M.D. Skobelevga qaram bo'lib qoldi.

Qozog'istonga kelsak, qozoqlarning kichik juz urug'i 1730-yili, o'rta juz urug'i 1735-yili, katta juz urug'i 1847-yili rus fuqaroligiga o'tkazilgan edi.

Shuni qayd etish lozimki, qadimgi sak, massaget, sug'd, xorazm va mahalliy turkiy urug'lar, shuningdek, keyingi davrlarda qo'shilgan etnik guruhlar faqat o'zbek, turk yoki qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, uyg'ur va boshqa turkiy xalqlarining emas, qo'shni tojik xalqining ham shakllanishiga asos bo'ldi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, turli turkiy xalqlar tarkibida bir xil urug' va qabilalar ham ishtirok etishi mumkin. Masalan, o'zbek va qozoq xalqi tarkibida qipchoq, joloyir, nayman, qatag'on kabi urug'lar mavjud. Binobarin, bu xalqlar tilida ana shu urug'larga xos til xususiyatlari bo'lsa, ular keyingi davrdagi o'zaro aloqa mahsuli deb qaralmasligi kerak.

Xullas, O'rta Osiyoda va Qozog'iston hududida hukumatlarining o'zgarishi etnik tarkibni o'zgarishiga olib kelmadi. Katta o'rinni (Markaziy Osiyo, Janubiy Sibir, Qozog'iston, Oltoy, O'rta Osiyo, Sharqiy Turkiston)ni egallagan turklar hokimiyatidagi etnik guruhlarining tili, odati, kiyimi, madaniyati bir-biriga yaqin bo'lib qolaverdi. Har bir xoqonlikni barqaror etnik guruhlar tashkil etdi. Bu etnik guruhlar nufuzli biron urug' nomi bilan yuritilsa ham, bunday urug'lar tarkibida ko'plab boshqa urug'lar ham bo'lgan. Masalan, qarluq urug' birlashmasi ichida chigillar (asosan, Movarounnahrda), yag'mo (Ila daryosi havzasidan Koshg'argacha bo'lgan hududda) yashagan. Ayniqsa, uyg'ur urug' birlashmalari turli turkiy urug'larni o'z tarkibiga birlashtirishi bilan ajralib turar edi. Shuning uchun ham qadimgi urug' birlashmalarining bunday umumiy nomigagina qarab, hozirgi zamon turkiy xalqlarining tarixini shu urug' birlashmalariga nisbat berib bo'lmaydi. Masalan, qadimgi uyg'ur nomi bilan yuritilgan etnik guruhlar, uyg'ur madaniy va yozma yodnomalari faqat hozirgi zamon uyg'urlariga taalluqli bo'lmay, bu etnik guruhni tashkil etgan boshqa turkiyabon urug' va qabilalarga ham oiddir<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ilmiy adabiyotda Markaziy Osiyoda milodgacha yashagan turli turkiy urug'larni uyg'urlar deb nomlangan (qarang: A. M. Щербак, Грамматический очерк языка тюркских текстов X—XIII вв. из восточного Туркестана, Москва-Ленинград, 1962, стр.13).



XI asrga kelib, O'rta Osiyoda turli katta va nufuzli turkiy urug'lar — o'g'uzlar janubni, qarluq va uyg'urlar sharqni, qipchoqlar g'arbni (Yenisey bilan Volga daryosi oralig'ini) egallagan edilar. Bu urug' nomlari shartli bo'lib, har birining tarkibida o'nlab mayda urug' va qabilalar bo'lgan.

Ma'lum davrlarda ayrim urug' va qabilalar birinchi o'ringa o'tadi. Davlat ishlari ana shu nufuzli urug' tilida olib boriladi, asarlar yoziladi<sup>1</sup>.

Ma'lumki, umumxalq og'zaki tili adabiy tilning shakllanishidan oldinroq yuzaga kelgan. Bunda nufuzli bir yoki bir necha qabila yoki urug' tili umumxalq tili sifatida qabul qilinadi. Shu bilan birga og'zaki so'zlashuv tili sifatida shevalar ham saqlanadi.

Har bir davrdagi siyosiy hokimiyat (qang'uy, kushon, eftalit davlatlari, turk xoqonligi, qoraxoniylar davlati va b.) turli etnik guruhlarni jipslashtirdi, ularning tilini yaqinlashtirdi. Umumxalq tilining yoyilishiga va turli etnik guruhlar tomonidan uni o'zlashtirilishiga sabab bo'ldi.

Shunisi xarakterliki, VI—X asrlar davomida davlatlar tez-tez o'zgarib turishiga qaramay, bu davrda yaratilgan yozma yodgorliklar tilining bir xil bo'lishi umumxalq tilining qanchalik barqaror bo'lganini ko'rsatadi.

Har bir davrda, har bir xoqonlik yoki davlatda biron urug' yoki urug'lar birlashmasi hukmron bo'lgan. Kushonlar davrida kushonlar va qang'uylar (yoki qang'lilar) hokim bo'lsa, g'arbiy turk xoqonligida qarluq, qang'li, turgesh, chigil, uyg'ur urug'lari ko'pchilikni tashkil etgan; bular ichida asosiy urug' qarluqlar edi. Qoraxoniylar davlatida asosiy o'rinni qarluq, chigil, uyg'urlar egallaydi.

Mahmud Koshg'ariy qipchoq, o'g'uz, uyg'ur tillarini bir-biridan farqlaydi, bu davrda chigillar qarluq urug'lari birlashmasiga kirib, unga singiy boshlagan. M.Koshg'ariy o'g'uz, yag'mo, tuxsi tillarini nozik va to'g'ri til deb biladi, ammo uningcha, eng to'g'ri til (adabiy til demoqchi) xoqoniy tilidir (Bartold fikricha, bu til — yag'mo tilidir)<sup>2</sup>.

IX—X asrlarga kelib, Shosh (Choch), Farg'ona, Sharqiy Tur-

<sup>1</sup> Ibn Muhannaning aytishicha, qang'li tilida maxsus lingvistik asar yaratilgan.

<sup>2</sup> Mahmud Koshg'ariy. Turkiy so'zlar devoni. I tom, 66-bet.

V-6878/1

kistonning g'arbiy qismida qang'li, o'g'uz, qarluq, chigil, qipchoq urug'larining uyushishi natijasida ayrim turkiy xalqlarning, jumladan, o'zbek xalqining shakllanishiga zamin hozirlandi.

Shunday qilib, o'zbek xalqi O'rta Osiyo va Qozog'istonning sak, massaget, qang'uy (qang'li), sug'd, Xorazm va boshqa etnik guruhlarining keyingi davrlarida bu hududga ko'chib kelgan turkiy urug' va qabilalarning qo'shilishidan shakllandi, bu jarayon XIII asrga kelib tugallandi. Umumo'zbek (turkiy-o'zbek) tilining shakllanishi ham ana shu davrga — XIII asrga to'g'ri kelib, boshqa turkiy tillardan ajralib chiqish jarayoni esa XI—XIII asrlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi zamon o'zbek xalqining etnik tarkibi va shevalari ham o'zbek tilining shakllanishidagi bu murakkab tarixiy jarayonni tasdiqlaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tili uchta sheva guruhidan tashkil topgan bo'lib, bular — janubi-sharqiy, janubi-g'arbiy va shimoli-g'arbiy guruhlardan iborat. Bu shevalar qarluq, qipchoq, o'g'uz til xususiyatlarini o'zida aks ettiradi.

### **O'zbek xalqi va tilining shakllanishi**

Turkiy tillarning bizga ma'lum bo'lgan qadimgi yozma yodgorligi — toshga, sopol, yog'och va terilarga yozilgan bitiklar (Kultegin, To'nyuquq bitiklari, tangalar, rasmiy hujjatlar (qarang: С.Е.Малов. Памятники древнетюркской письменности, М - L, 1951) VII—VIII asrlarga oid bo'lib, ularning til xususiyati bu davrga kelib, bir qolipga tushgan umumturkiy yozuv tilining shakllanganidan dalolat beradi. Bunday ishlangan, bir qolipga tushgan yozuv tilining shakllanishi bir necha asrlar avval bo'lgan edi, deyishimizga asos bor.

Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari, Yusuf Xos Hojibning o'lmas "Qutadg'u bilig"dek falsafiy-didaktik dostoni, XII—XIII asrlarda yozilgan Ahmad Yugnakiyning "Hibatul haqoyiq" asari, "O'g'uznoma" kabi yozma yodnomalar faqat o'zbek xalqininggina emas, bu asarlar bitilgan davrda O'rta va Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan barcha turkiy xalqlar (turk, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur, qoraqalpoq va b.)ning ham qadimgi yozma yod-

gorliklari deb bilish kerak. Shunday ekan, XI yoki XII asrlarda o'zbek xalqi va uning tili, boshqa asosiy turkiy xalqlari va tillari bilan barobar shakllana boshlagan edi.

XI—XIV asrga kelib, siyosiy va ijtimoiy parokandalik (Qoraxoniylar davlatining ikkiga bo'linishi va b.) tufayli adabiy tilning ikkinchi shevasi shakllandi: biri — Sirdaryo quyi oqimi, Xorazm, Ozarbayjon, Qrim, Misrda tarqalgan *y* lashuvchi **qipchoq-o'g'iz** guruhi, **ikkinchisi** — Movarounnahrda shakllangan *j-a-z* lovchi **qorliq, o'g'iz-qipchoq** shevasi. Har ikki sheva XV asrda Navoiy asarlarida mukammallashtirilgan yagona eski o'zbek adabiy tiliga asos bo'ldi. Har ikki adabiy tilning asosi — qoraxoniylar davrida shakllangan **eski turkiy til** deb tushunish kerak.

XIV asrda Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy kabi buyuk shoir, yozuvchi va mashhur olimlarning xizmatlari tufayli boyigan umumo'zbek xalq tili XV asrda Alisher Navoiy tomonidan mukammal adabiy til darajasiga ko'tarildi. Arab va tojik (fors) tillarini mukammal bilgan, tojik (fors) tilida “Foniy” taxallusi bilan devon tuzgan Alisher Navoiy shu tillarning fazilatlarini o'zbek (turk) tiliga singdirib, o'zbek (turk) tilining boy imkoniyatlari va nozik tomonlarini nazariy jihatdan isbotlab<sup>1</sup>, o'zi ham shu tilda buyuk asarlar yaratib<sup>2</sup>, eski o'zbek adabiy tilini mukammallashtirdi va shunday yuksak pog'onaga ko'tardiki, bu til butun O'rta Osiyo, Qozog'iston, Ozarbayjon va boshqa o'lkalarda ijod qiluvchi shoir va yozuvchilarga namuna bo'ldi va bir necha asrlargacha shu uslubda, shu adabiy tilda asarlar yaratildi.

XV asr o'zbek adabiy tili va adabiyoti sharqshunoslar va turkiyshunoslar orasida “chig'atoy tili”, “chig'atoy adabiyoti” deb yuritilib kelinadi. Ma'lumki, Chingizxon ikkinchi o'g'li Chig'atoyga O'rta Osiyoning Olmaliqdan to Amudaryoga qadar bo'lgan yerini bo'lib bergan edi. Bu yerlar Chig'atoy yurti, Chig'atoy eli deb nomlangan. Bu davrda va undan keyin yaratilgan adabiyot ham, adabiy til ham shunga nisbat berib kelindi. Shuning uchun, o'zbek (turkiy) tilida yaratilgan adabiyotni va shakllangan adabiy

<sup>1</sup> Alisher Navoiy. Muhokamatul lug'atayn, Uzgoslitizdat, Toshkent, 1940.

<sup>2</sup> Alisher Navoiy, Mukammal asarlar to'plami, «Fan» nashriyoti, 2000–2003-yillar.

tilni mo'g'ul millatidan bo'lmish Chig'atoyga bog'lash to'g'ri bo'lmaydi.

Sharqshunos V.V. Radlov "chig'atoy" tilini sun'iy til deb biladi<sup>1</sup>. A.M. Sherbak fikriga ko'ra, "chig'atoy tili" biror shevaga asoslangan so'zlashuv tili bo'lib, adabiy tildan farqlanib turgan va XV asrga kelib, bu til mumtoz til shaklini olgan<sup>2</sup>.

Alisher Navoiy ham o'z tilini turkiy til deydi. Navoiy tili haqida Bobur yozar ekan, bu til Andijon shevasiga yaqin til deb izohlaydi: "Ening lafzi qalam birla rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bavujudkim Hirida nash'u namo topibdur, bu til biladur"<sup>3</sup>. Boburning bu fikriga V.V.Radlov qo'shilmaydi, ko'rsatilgan asarida eski o'zbek adabiy tilini (uni V.V.Radlov "Вос-точный тюркский или джигатайский язык" deb nomlaydi) sun'iy bir til deb biladi<sup>4</sup>.

Haqiqatan ham Alisher Navoiy asarlarini tushunish uchun ma'lum bir tayyorgarlik kerak. Navoiy asarlaridagi butun so'zlar-ning 55 foizi o'zbekcha (turkiy), 20 foizi arabcha, 19 foizi — fors-tojikchadir<sup>5</sup>.

Alisher Navoiy asarlarining hozirgi zamon o'zbek tiliga munosabati haqida gap borganda quyidagi holatlarni inobatga olish kerak:

I. Navoiy zamoni bilan hozirgi davr orasida 557 yildan ortiq vaqt o'tdi. Bu vaqt ichida ko'p o'zbekcha (turkiy) so'zlar arxaiklashdi, iste'moldan chiqdi, ko'p arab va fors-tojik so'zlari va iboralari o'zbekcha so'z va iboralar bilan almashtirildi yoki buning aksi bo'ldi:

a) "Navoiy asarlari lug'ati"ning birgina "A" harfida quyidagi-

<sup>1</sup> Radlov V.V. Ярлыки Темура Кутлуга и Тохтамыша, ЗВО РАО, т. III, вып. 2, 1888, стр. 2.

<sup>2</sup> А. М. Щербак. Грамматика староузбекского языка, стр. 13.

<sup>3</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur. "Boburnoma". 1-qism, O'zbekiston Davlat nashriyoti, Toshkent, 1948-y., 18-bet. A.M.Sherbak ham bu fikrni tasdiqlaydi: A.M.Щербак. Грамматика староузбекского языка, стр.13.

<sup>4</sup> Radlov V.V. Ko'rsatilgan asar.

<sup>5</sup> Qiyos uchun: Lutfiyda — 71, 16, 9 foiz, Sakkokiyda — 69, 15, 15 foiz, Husayniyda — 60, 17, 16 foiz. Бахрам Вафаев. Лексика произведений Алишера Навои, АДЛ, Ташкент, 1989 г., стр. 12.

cha o'zbekcha (turkiy) so'zlar arab yoki fors (tojik) so'zlari bilan almashdi yoxud uning o'rniga boshqa o'zbekcha (turkiy) so'zlar qo'llandi: *Abushqa* — er, qari kishi; *ayolg'u* — musiqa asbobining bir turi; *ayoq* — qadah, kosa; *ayoqchi* — kosagul (may quyuvchi), *ayilmoq* — hushyor bo'lmoq; *aldaramoq* — sarosima bo'lmoq; *aliq* — yem-hashak; *anif* — qo'pol, o'chakuvchi; *artilmoq* — oshib o'tmoq; *atlas* — tekis va b.;

b) arabcha so'zlar o'rnida o'zbekcha (turkiy) yoki fors-tojikcha so'zlar ishlatildi: *abas* — bekor; *abd* — qul; *abkom* — soqov, gung; *abus* — xunuk va b.;

d) fors-tojik so'zlari o'rniga arabcha yoki fors-tojikcha so'zlar bilan almashdi: *abr* — bulut; *abrishim* — ipak; *abru* — qosh; *amrud* — nok va b<sup>1</sup>.

2. Navoiy asarlari tili ikki va uch tilli Xuroson aholisi uchun o'z davrida tushunarli edi: “...Mir Alisher Navoiyning musannafati bavujudkim Hirida nash'u namo topibdur bu til biladur”<sup>2</sup>.

3. Alisher Navoiy o'zbek adabiy tilini yuqori pog'onaga ko'tarmoqchi edi. Shu maqsadda u arab va fors-tojik tillarining eng yaxshi xususiyatlaridan foydalanadi, o'zbek tilining boy imkoniyatlarini ishga soladi.

Alisher Navoiy yaratgan adabiy til uslubi ko'p turkiy yozuvchi va shoirlar uchun namuna bo'ldi, hatto nasriy asarga xos uslubi XIX asrgacha saqlandi (Furqatning nasriy asarlariga qarang).

O'zbek adabiy tilini so'zlashuv (xalq) tiliga yaqinlashtirish namunalarini XVII asrdan boshlab Abul G'ozil Bahodirxon, Turdiy, Gulxaniy asarlarida ko'ramiz.

XIX asrning ikkinchi yarmida chor Rossiyasi tomonidan O'rta Osiyoni zabt qilinishi bilan (rus-tuzem maktablarning ochilishi, iqtisodiy talonchilik, siyosiy hokimiyatning ruslar qo'lida bo'lishi va h.) va yangi gazeta-jurnallarning nashr etilishi munosabati bilan ko'plab rus va baynalmilal so'z va iboralar o'zbek tiliga (so'zla-

<sup>1</sup> Navoiy asarlari lug'ati, tuzuvchilar P.Shamsiyev va S.Ibrohimov, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1972-yil, 20–70-betlar.

<sup>2</sup> Bobur. “Boburnoma”. Toshkent, 1989-y., 6-bet.

shuv va adabiy tilga) kirib kela boshladi. Bu jarayon ayniqsa, XX asrning 20-yillaridan tezlashdi. Agar 1922-yili o‘zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy atamalarning 0,9 foizi rus-baynalmilal atamalar bo‘lsa, 1980-yillarga kelib 20 foizni tashkil etdi.

Aniq fanlar bo‘yicha esa rus-baynalmilal atamalar 70–80 foizga, kimyo fanida esa 90–95 foizga borib qoldi.

Faqat O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan o‘zbek tiliga davlat tili maqomi (statusi)ning berilishi o‘zbek tilining kamsitilishiga chek qo‘ydi, uning ijtimoiy mavqeini ko‘tardi.

### **Turkiy tillar, xususan, o‘zbek tilining o‘rganilishi**

Turkiy xalqlar va ularning tilini o‘rganishga qiziqish juda qadimdan boshlangan. Mahmud Koshg‘ariy o‘zining “Devonu lug‘atit-turk” asarida (1073–1074) O‘rta Osiyodagi turli turkiy urug‘larning tilini chuqur tahlil qiladi. Keyingi davrlarda turkiy tillarning lug‘atlari tuziladi. Bu lug‘atlarda shu tillarning grammatik, fonetik, leksik tahlili ham beriladi. Ana shunday olimlardan biri Xorazmning Zamaxshar qishlog‘ida 1075-yili tug‘ilgan Zamaxshariy (1075–1144)dir. U “Muqaddamat-ul-adab” nomli arabcha-forscha-turkcha lug‘at tuzadi. Mo‘g‘ullar davrida noma‘lum muallif tomonidan bu lug‘at mo‘g‘ulcha so‘zlar bilan to‘ldiriladi. XIII–XIV asrlar mobaynida turkcha-arabcha, turkcha-forscha tarjima lug‘atlari ko‘plab tuziladi: “Kitabi majmu-u-tarjimon turkiy va ajamiy va mo‘g‘oliiy” (1245-yil); “Kitob-ul-idrak li-lison-al-atrok” (muallifi — Asiriddin Abu Hayyon, 1256–1345-yillar); “Xiliat-ul inson va xalibat-ul lison” (muallifi — Jamoliddin ibn Muxanna, Ozarbayjonda XIII asr oxiri — XIV asr boshlarida yozilgan); “Kitabu bulg‘at-al mushtaq fil lug‘ati at turk va-l-qifchoq” (Jamoliddin at-Turkiy, XIV asr o‘rtalarida Suriyada yozilgan); “Kitobu-at tuhfatu-uz zakiyatu fil lug‘ati at turkiya” (XV asrda Misrda yozilgan) va boshqalar.

Alisher Navoiy buyuk shoirgina bo‘lib qolmay, tilshunos olim ham edi. U o‘zining bu masalaga bag‘ishlangan “Muhokamatul-lug‘atayn” (1499-yili yozilgan) asarida eski o‘zbek adabiy tili (turkiy) bilan fors tilini chuqur tahlil qilib beradi.

Alisher Navoiydan soʻng uning asarlarini izohlashga bagʻishlangan turli lugʻatlar yoziladi. Toliʼ Imoniy Xiraviyning “Badoe-al-lugʻat”i (XV asr oxiri), “Abushqa”(XVI asr I-yarmida yozilgan “Chigʻatoycha-turkcha lugʻat”), “Lugʻati turkiy” (Fazlullaxon tomonidan XVII asrning ikkinchi yarmida tuzilgan, eski oʻzbek tilining lugʻati va grammatikasiga oid), “Kelurnoma” (XVII asr oxirida Muhammad Yaqub Chingiy tomonidan tuzilgan), “Sangloh” (Mirza Mehdixon tomonidan 1760-yili yozib tugatilgan chigʻatoycha-forscha lugʻat; bu lugʻatning muqaddimasida eski oʻzbek tilining grammatikasi tahlil qilinib, u “Maboni-ul-lugʻat” deb nomlanadi). Bulardan tashqari, eski oʻzbek tili lugʻati va grammatikasiga oid Muhammad Rizo Xoksor (1798—1799), Fath Alixon Kojariy (1857—1858), shayx Sulaymon Buxoriy va boshqalarning asarlari bor. Eski oʻzbek adabiy tili davriga oid A.M. Sherbakning ishlari ham maʼlum.

Rossiyada turkiy xalqlar va ularning tillariga boʻlgan qiziqish Rossiya Fanlar akademiyasi tashkil etilgan vaqtlardan oq boshlangan. XIX asr boshlarida Moskva, Qozon, Xarkov, Peterburg universitetlarida Sharq tillari kafedralari tashkil etildi. 1854—55-yillarda Peterburg universiteti qoshida Sharq tillari fakulteti ochildi. Tatar tilining birinchi grammatikasi Iosif Giganov tomonidan 1801-yili Peterburgda nashr etildi.

A.Kazimbek turkiy tillar grammatikasini (1839), O.Betling yoqut tili grammatikasini (1851) yozdi, I.N.Berezin eski oʻzbek tili yodnomalari xrestomatiyasini (1857) tuzdi.

N.I.Ilminskiy XVI asr eski oʻzbek adabiy tili yodnomasi “Bo-burnoma”ning (1865), G.Vamberi shu davr yodnomasi boʻlmish “Shayboniynoma”ning (1885) til xususiyatlariga oid tekshirish olib bordi. Oʻrta Osiyo turkiy tillarining tarixini, qadimgi run va uygʻur yodnomalari, “Qutadgʻu bilig”ni oʻrganish va eʼlon qilishda, turkiy tillarning qiyosiy lugʻatini tuzishda V.V. Radlov (1837—1918), qadimgi yodnomalarni nashr qilish va til tarixini hamda hozirgi turkiy tillarni oʻrganishda N.F.Katanov, P.M.Melioranskiy, S.E.Malovlar ilmiy ishlar olib bordilar.

XX asrning 20-yillariga qadar rus va gʻarb turkiyshunoslari, asosan, qadimgi va eski yozma yodgorliklarni eʼlon qildilar va til tarixini oʻrgandilar. Biroq bu bosqichda turkiy tillarni oʻrganish,

asosan, umumiy tarzda bo'lib, biror aniq turkiy tillar ustida ilmiy ish olib borish kamdan-kam amalga oshirildi. O'zbek tili ham alohida ilmiy-tekshirish manbai bo'lmay, bu til amaliy maqsadlarda o'rganildi, xolos. (Masalan, Is'hoqxonto'ra Ibratning besh tillik lug'ati (1901-y.); Mulla Muhammadamin Karimxo'janing arab tili grammatikasi asosida yozilgan «Turkcha qoida» (1913-y.); В.П.Наливкин. Руководство к практическому изучению сартовского языка, Самарканд, 1889; Н.П.Остроумов. Этимология сартовского языка, Ташкент, 1910 va boshqalar.)

XX asrning 20-yillaridan so'ng turkiy tillarni, xususan, o'zbek tilini o'rganish keng avj olib ketdi. Fitrat, G'ozzi Olim Yunusov, Elbek, A. Zohiriy va boshqalar). Turkiy tilda so'zlashuvchi barcha respublika va viloyatlarning Fanlar akademiyalarida va oliy o'quv yurtlarida turkiy tillar yozma yodgorliklarini e'lon qilish, tahlil etishda, hozirgi zamon turkiy tillar va ularning shevalarini o'rganish bilan yuzlab milliy mutaxassislar shug'ullanmoqdalar. O'zbekistonda ham hozirgi kunda oliy o'quv yurtlarining o'zbek tili kafedralarida, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida, Moskva, Sankt-Peterburg va boshqa shaharlardagi ilmiy-tekshirish institutlarida, chet ellarda o'zbek tili har tomonlama chuqur o'rganilmoqda.

### **Turkiy tillar va ularning tasnifi**

Turkiy tillar oilasiga 70 ga yaqin tillar kirib, bu tillarda 200 mln.ga yaqin kishi so'zlashadi<sup>1</sup>. Turkiy xalqlar mustaqil turk jumhuriyatlarida, Rossiya, Ruminiya, Polsha, Turkiya, Bolgariya, Yugoslaviya, Eron, Qoshg'ar (Sharqiy Turkiston), g'arbi-shimoliy Xitoy kabi mamlakatlarda joylashgan, turkiy xalqlarning vakillarini dunyoning hamma mamlakat va o'fkalarida uchratish mumkin.

Fonetik, grammatik, leksik tomondan yaqin turgan tillarni

---

<sup>1</sup> 1992-yil 4–8-mayda Turkiyaning Anqara shahrida bo'lib o'tgan Qurultoy ma'lumotlari (“Turkiston” gazetasi, 16.05.92).



olimlar **ural-oltoy va oltoy tillari oilalari** guruhiga tasnif etadilar. **Ural-oltoy tillari** oilasiga quyidagi tillar kiradi:

- I. Fin-ugor tillari.
- II. Turkiy tillar.
- III. Mo'g'ul tillari.
- IV. Koreya tili.
- V. Yapon tili.
- VI. Tungus-manjur tillari.

Bu nazariyaning asoschilari — R.Rask, V.Shott, M.A.Kastren, O.Betling, V.Tomsenlardir. Bu nazariyaga ko'p turkiyshunos olimlar qo'shilmaydi (Yu.Nemet, R.Ramsted, E.D.Polivanov, A.Sherbak, V.Kotvich va b.).

**Oltoy tillari** oilasi tasnifiga quyidagi tillar kiritilgan:

1. Turkiy.
2. Mo'g'ul.
3. Koreya.
4. Yapon.
5. Tungus-manjur.

Turkiy tillar oilasi nazariyasiga ko'ra, turkiy tillarni tasnif qilishda ba'zi olimlar **geografik** o'rinlashishni asos qilib oladilar. Masalan, V.V.Radlov turkiy tillarni to'rt guruhga bo'ladi:

1) Sharqiy guruh — bunga oltoy, chulim turklari, qaragas, xakas, sho'r, tuva va yenisey turklari tillari kiradi;

2) G'arbiy guruh — Sibir tatarlari, qirg'iz, qozoq, boshqird, qoraqalpoq tillari;

3) O'rta Osiyo guruhi — uyg'ur, o'zbek tillari;

4) Janubiy guruh — turkman, ozarbayjon, turk tillari; yoqut tili esa alohida guruhni tashkil etadi.

F.E.Korsh, I.Bensig, K.Menges, V.A.Bogoroditskiy, G.Ramstedt tasniflari ham geografik (joylashish) asosida bo'lib, tillar bir-biridan ayrim xususiyatlari bilangina farqlanadi.

A.N.Samoylovich turkiy tillarni **fonetik** xususiyatlariga ko'ra tasnif qiladi:

1) *R* guruhi. Bu guruhga qadimgi bulg'or, hozirgi chuvash tillari kiradi. Bu tillarda boshqa turkiy tillardagi *y* (qadimgi *ɣ* — *d/z*) tovushi *r* bo'lib talaffuz etiladi: *oyoq* — *ura*.

Boshqa fonetik xususiyatlari: *taxar* (to‘qqiz), *pul* (bol), *tau*//  
tu (tog‘), *sari* (sariq), *qalan* (qolgan).

2) *D* guruhi. Bunga uyg‘ur va shimoli-sharqiy turkiy tillar kiradi. Bu tillarda “y” tovushi *d* tarzida (O‘rxun-Enasoy yodnomalari, qaragas, salar, tuva, qadimgi turkiy tillari) yoki *z/t* tarzida (yoqut tili) talaffuz qilinadi.

Boshqa fonetik xususiyatlari: *toquz*, *pol*, *tag‘*, *sarig‘*, *qalan*.

3) *Tau* guruhi (tog‘ so‘zini *tau* deb talaffuz qilinishiga ko‘ra). Bu guruhga shimoli-g‘arbdagi turkiy tillar — altay, qirg‘iz, qumiq, qarachay-balqar, qarayim, tatar, boshqird, qozoq, no‘g‘ay tillari kiradi. Boshqa fonetik xususiyatlari: *tog‘uz*, *ayaq*, *bol*-//*bul*-, *tau*, *sari*, *qalg‘an*.

4) *Tag‘liq* guruhi (*tag‘liq* deb talaffuz qilinishiga ko‘ra). Bu guruhga janubi-sharqdagi turkiy tillar — eski o‘zbek tili, hozirgi uyg‘ur va o‘zbek tillari kiradi. Boshqa fonetik xususiyatlari: *tog‘uz*//  
*toqqis*, *ayaq*, *bol*, *tag‘*, *sarig‘*, *qalg‘an*// *qalgan*.

5) *Tag‘li* guruh (*tag‘li* deb talaffuz qilinishiga ko‘ra). Bu guruhga Xorazm o‘zbeklari, qipchoq-turkman tillari kiradi: *doquz*, *ayaq*, *bol*, *tag‘*, *sari*, *qalg‘an*.

6) *O‘l* guruhi (*bo‘l*- fe‘li *o‘l*- deb talaffuz qilinishiga ko‘ra). Bu guruhni janubi-g‘arbdagi turkiy tillar tashkil etadi (ozarbayjon, turk, gagauz tillari).

Boshqa fonetik xususiyatlari: *doquz*, *ayaq*, *dag‘*, *sari*, *qalan*<sup>1</sup>.

N.A.Baskakov va boshqa olimlar turkiy tillarni etnik tarkibiga ko‘ra tasnif qiladilar. Bu tasnifga ko‘ra, turkiy tillar sharqiy va g‘arbiy turkiy tillarga bo‘linadi.

Turkiy tillarning sharqiy guruhiga qadimgi uyg‘ur, tuva, tofalar (karagas), yoqut, xakas, sho‘r, chulem, altay, qirg‘iz, Oltoy tillari kiradi. O‘zbek tili tarixi bilan bevosita aloqador bo‘lgan g‘arbiy tarmoq turkiy tillar quyidagicha guruhlariga bo‘linadi:

1) *O‘g‘uz guruhi* (yoki janubiy va janubi-g‘arbiy guruh).

Bu guruhga turkman, gagauz, ozarbayjon, turk tillari kiradi. O‘g‘uz guruhiga kirgan tillarning asosiy xususiyatlari:

<sup>1</sup> Самойлович А.Н. Некоторые дополнения к классификации турецких языков, Петербург. 1922.

- a) soʻz oxiridagi *g, gʻ* tovushlari saqlanadi: *beg, dagʻ*;
- b) soʻz boshidagi *t, k, q* tovushlari jaranglilashadi: *til — dil, kor — gʻor*;

d) *boʻl* — oʻrnida *oʻl* — shakli ishlatiladi;

e) tushum kelishi *-i*, qaratqich kelishi *-in* shaklida qoʻllanadi, joʻnalish kelishigining *-a, ya* shakllari bor;

f) singarmoniya, asosan, saqlanadi;

j) sifatdoshning *-asi, -mish, -an* shakllari qoʻllanadi va boshqalar.

2) **Qipchoq guruhi** yoki gʻarbiy va shimoli-gʻarbiy guruhi.

Bu guruhga tatar, boshqird, qarayim, qumiq, qoraqalpoq, qozoq, qirgʻiz, altay, noʻgʻay tillari kiradi. Qipchoq guruhiga mansub turkiy tillarning baʼzi umumiy xususiyatlari:

a) unlilar 8—9 gacha boradi (*a — ä, ı — i, u — ü, o — ø, e*);

b) *t, k* tovushlari soʻz boshida jaranglashmaydi (*til, kel*);

d) *q* tovushi *x* ga, baʼzi oʻrinlarda *y* tovushi *j* ga oʻtadi;

e) *ç > sh, sh > s*: *qash* soʻzi *qach* oʻrnida, *qis* soʻzi *qish* oʻrnida (qozoq, qoraqalpoq tilida).

3) **Qarluq guruhi** yoki Oʻrta Osiyo guruhi.

Bu guruhga oʻzbek va hozirgi uygʻur tillari kiradi. Qarluq guruhiga kiruvchi tillarning asosiy xususiyatlari:

a) tillar va shevalararo unlilar miqdori 6 tadan 9 tagacha oʻzgarib turadi;

b) *p, t, k, q* tovushlari ikki unli oʻrtasida jarangsizligini saqlay oladi;

d) soʻz oxirida *j, gʻ, g* undoshlari saqlanadi yoki *q* undoshi *k* ga oʻtadi;

e) *q* va *k* fonemalari farqlanadi;

f) *-gʻan* qoʻshimchali sifatdosh juda keng qoʻllanadi;

j) qaratqich kelishigining qoʻshimchasi toʻliq *-niy* shaklida qoʻllanadi.

4) **Bulgʻor guruhi**.

Bu guruhga chuvash tili va oʻlik bulgʻor tillari kiradi. Barcha turkiy tillardan oʻzining fonetik-morfologik xususiyatlari bilan keskin farqlanadi.

## O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalasi

Turkshunos olimlar o'zbek tili tarixini turlicha davrlashtiradilar. N.A. Baskakov turkiy tillarni quyidagicha davrlashtiradi:

1. Oltoy davri (eramizgacha).
2. Xun davri (V asrgacha).
3. Qadimgi turk davri (V—X asrlar).
4. O'rta turk davri (X—XV asrlar).
5. Yangi turk davri (XV—XX asrgacha).
6. Eng yangi davr (XX asrlar)<sup>1</sup>.

S.E.Malov o'zbek adabiy tili tarixini uch davrga bo'ladi: uyg'ur davri, chig'atoy davri va hozirgi o'zbek adabiy tili. Bu davrlashtirishga ko'ra, hozirgi o'zbek adabiy tili chig'atoy adabiy tilidan, bu til esa, o'z navbatida, uyg'ur adabiy tilidan kelib chiqadi. S.E.Malov bu tillar taraqqiyotini uch bosqichga bo'ladi:

1-bosqich. Turkiy tillarning *d*-lashish bosqichi. Bu bosqichda so'z oxiri va o'rtasidagi hozirgi *y* tovushi *d* tarzida talaffuz qilindi. Bu tilga run va qadimgi uyg'ur yozuvida ma'lum bo'lgan yodnomalar tili kiradi.

2-bosqich. O'tkinchi davr. Bu davrda *d*-lovchi tillar *y*-lashga o'tadi: *qadin*>*qayin*, *adaq*>*ayaq*, *ke $\ddot{d}$ in*>*keyin* kabi. Bu xususiyat oldin jonli tilda ro'y berib, keyinroq yozma adabiy tilga ko'chadi.

3-bosqich. Til batamom *y*-lashishga o'tgan bosqich. Bu davrda arab alifbosi asosiy yozuv bo'lib qoladi. Tilga, ayniqsa, uning adabiy shakllariga g'arbiy (o'g'uz) guruh tillarining ta'siri kuchayadi<sup>2</sup>.

A.N. Samoylovich o'zbek tili tarixini quyidagi davrlarga bo'ladi:

1-davr: qoraxoniylar davri adabiy tili (X—XI asrlar). Bu davr adabiy tilini qoraxoniylar davrida yozilgan adabiy asarlar tili tashkil etadi.

2-davr: o'g'uz-qipchoq adabiy tili davri (XII—XIV asrlar). Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmda shakllangan adabiy til bu davr tilini tashkil etadi.

<sup>1</sup> Баскаков Н.А. Введение в изучения тюркских языков. М., 1962, стр. 148—183.

<sup>2</sup> Малов.С.Е. Язык желтых уйгуров, Алма-Ата, 1957, стр. 6.

3-davr: Oʻrta Osiyo turkiy adabiy tili davri (XIV—XX asrlar). Bu davr tilini XIV asrdan XX asr boshlarigacha yozilgan asarlar tili tashkil etadi. A.N.Samoylovich hozirgi zamon oʻzbek adabiy tilini uchinchi davr adabiy tilining davomi deb tushuntiradi<sup>1</sup>.

A.K.Borovkov bu davrlashtirishni baʼzi oʻzgartishlar bilan qabul qiladi<sup>2</sup>.

A.M.Sherbak oʻzbek tili tarixida quyidagi bosqichlarni belgilaydi:

1) birinchi bosqich — oʻzbek adabiy tilining eng qadimgi davri (X—XIII asrlar); 2) ikkinchi bosqich — oʻzbek adabiy tilining oʻrta — “chigʻatoy” tili davri (XIV—XVII asrlar); 3) uchinchi, “yangi” bohqich (XVII—XVIII asrlar); 4) eng yangi bosqich (XIX asrdan boshlanadi)<sup>3</sup>.

O.Usmonov oʻzbek tili tarixini quyidagicha davrlashtiradi:

- 1) qadimgi tugyu tili (VI—IX asrlar);
- 2) qadimgi oʻzbek tili (IX—XII asrlar);
- 3) eski oʻzbek tilining ilk davri (XIII—XIV);
- 4) eski oʻzbek tili (XIV—XIX);
- 5) hozirgi zamon oʻzbek adabiy tili.

Oʻzbek adabiy tili tarixini davrlashtirishda ikki masala yoddan koʻtarilmasligi kerak. Birinchidan, oʻzbek tili tarixini oʻzbek xalqi shakllana boshlagan davrdangina (XI—XII asrlar) boshlash notoʻgʻridir. Chunki XIV asrga kelib shakllangan oʻzbek tili uzoq yillik tarixiy taraqqiyot mahsuli boʻlib, bu davrga qadar oʻzbek tilining shakllanishida asos boʻlgan qadimgi turkiy qabila va urugʻ tillar qoʻllanar edi. Ikkinchidan, qadimgi va Oʻrta Osiyo (VII—XII asrlar) turkiy tilni qadimgi yoki eski oʻzbek tili deb atab, faqat oʻzbek tiliga nisbat berish ham oʻrinsizdir. Sababi, VII—XIII

<sup>1</sup> Самойлович А.Н. К истории литературного среднеазиатско-турецкого языка, Сб. “Мир-Али-Шир”. Л., 1928, с.1–23.

<sup>2</sup> Боровков А.К. Очерки истории узбекского языка, Ученые записки ИВАН СССР, XVI, М.-Л., 1958, с.213–214.

<sup>3</sup> Щербак А.М. Грамматический очерк тюркских текстов X–XIII вв. из Восточного Туркестана, Москва-Ленинград. 1961. Грамматика староузбекского языка. Москва-Ленинград. 1962.

<sup>4</sup> Oʻrta Osiyo Davlat universiteti asarlari. Oʻzbek tili va adabiyoti masalalari, Toshkent, 1957.

asrlardagi turkiy qabila va urug' tillari faqat o'zbek tili uchungina emas, balki boshqa turkiy tillar (uyg'ur, turkman, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq va boshqalar) uchun ham asos bo'lgan.

O'zbek adabiy tili tarixida quyidagi davrlar ajralib turadi:

I. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha bo'lgan davr tili).

II. Qadimgi turkiy adabiy til (VII asrdan X asrgacha bo'lgan davr tili).

III. O'rta Osiyo adabiy tili (XI—XIV asrlargacha).

IV. Eski o'zbek adabiy tili (XIV—XVII asrlargacha).

V. Yangi o'zbek adabiy tili (XVII—XX asr boshlari).

VI. Hozirgi o'zbek adabiy tili (XX asrning 30-yillari).

**I bosqich.** *Eng qadimgi turkiy tilni* O'rta Osiyo hududida yashagan eng qadimgi sak va massaget qabilalari tili, ularga xun va yue-chji hamda boshqa turkiy qabila va urug'lar tilining aralashuvidan hosil bo'lgan til tashkil etadi. Bu tillarga oid birorta matn (yozma yodgorlik) qolgan emas, ammo bu urug' tillari hozirgi zamon turkiy tillarining, jumladan, o'zbek tilining shakllanishiga asos bo'lgan. Keyingi davrdagi turkiy tillar ana shu mahalliy tillar bilan aralashib ketgan. Qadimgi turkiy tilni o'rgangan akademik A.N. Konnov va S.G. Klyashgorniy bu tilning mukammalligini qayd etib, bunday tilning shakllanishi miloddan avval boshlanganini ko'rsatib o'tadilar. «Devonu lug'atit-turk»da keltirilgan she'riy parchalar ham miloddan oldingi davrda boy og'zaki adabiyot bo'lganini isbotlaydi.

**II bosqich.** *Qadimgi turkiy adabiy til* — turk xoqonligi barpo bo'lgandan (VI asr), to qoraxoniylar davrigacha (X asr) bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrdan run, uyg'ur, sug'd, moniy, braxman yozuvlarida yozilgan yodgorliklar hozirgacha yetib kelgan. Bu yodgorliklar toshlarga, sopollarga, yog'ochlarga, terilarga yozilgan. Ana shunday yozma yodnomalardan eng mashhuri Kultegin (731) va Tojyuquq (712—716) sha'niga qo'yilgan tosh yozmadir. Toshga yozilgan bu yodnomalar O'rxun daryosi yonidan (Mo'g'uliston) topilgani uchun O'rxun yodnomalari yoki yozuviga ko'ra, turk-run yodnomalari deyiladi. Yodnomalar XVIII asrning ikkinchi yarmida topilgan. Bunday yodnomalar keyinroq boshqa yerlardan ham (Yenisey daryosi bo'ylari, Talas vodiysi, O'rta Osiyo, hatto

Vengeriyada) ko‘plab topildi. Run yozuvlarining sirini V. Tomsen (1893) va V. Radlov ochishga muvaffaq bo‘ldi (1894).

Qadimgi turkiy til o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu til *q*-lovchi til hisoblanib, morfologik tomondan ham alohida xususiyatga ega bo‘lgan. Chunonchi, tushum kelishigi *-g’/-g* qo‘shimchasiga, jo‘nalish kelishigi esa *-g’aru/-g’ari* shakliga ham ega bo‘lgan, hozirgi chiqish kelishigi qo‘shimchasi qo‘llanmagan. Sifatdosh va ravishdoshning o‘ziga xos shakllari ishlatilgan (*-duq*, *-g’ma*, *-u*, *-ta* va boshqalar), shart fe‘li *-sar* shaklida bo‘lgan va hokazo. Shunday bo‘lsa-da, O‘rxun-Enasoy yodnomalari tili ko‘p jihatdan hozirgi zamon turkiy tillariga yaqin turadi.

**III bosqich.** *O‘rta Osiyo adabiy tili.* Til taraqqiyotining bu bosqichi qoraxoniylar davlati barpo bo‘lish davri bilan boshlanadi (XI–XIII asrlar).

Bu bosqichda o‘zbek xalqi va umum tilining shakllanishiga zamin tayyorlana boshlaydi. Boshqa qardosh turkiy xalq va tillarining shakllanishi ham shu davrga to‘g‘ri keladi.

Qoraxoniylar sulolasi davrida Movarounnahr va Qashqarda qarluq-uyg‘ur va qisman qipchoq-o‘g‘uz urug‘ tillari xususiyatini o‘z ichiga olgan turkiy adabiy til mavjud edi. Bu adabiy tilda “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘atit-turk”, “Hibatul haqoyiq”, Yassaviyning “Hikmatlar”i, “Tafsir”, “O‘g‘uznoma”, Rabg‘uziyning “Qissas-ul anbiyo”si kabi asarlar yozilgan.

“Qutadg‘u bilig” falsafiy didaktik xarakterdagi asar bo‘lib, Qoshg‘arda Yusuf Xos Hojib tomonidan 1069–1970-yillari yozib tugatilgan. Hozir bu asarning uch nusxasi mavjuddir (Farg‘ona va Qohira nusxalari arab yozuvida, Vena nusxasi uyg‘ur yozuvida). Bu asar qarluq tili xususiyatlarini ko‘proq aks ettiradi.

“Devonu lug‘atit-turk” asari Mahmud Koshg‘ariy tomonidan 1073–74-yillari yozib tugallanadi. Koshg‘ariy bu asarida o‘z zamonasidagi turkiy urug‘ tillarining xususiyatlari, joylanishi haqida ma‘lumot beradi, tasnifini va ularning boy lug‘atini tuzadi.

Yassaviy “Hikmatlar”ining hozirgi nusxasi til jihatdan juda o‘zgartirib yuborilgan, o‘z davrining til xususiyatini aks ettirmaydi. Yassaviy hozirgi Turkiston shahri yonida (Yassada) yashab, 1166-yili vafot etgan, deb taxmin qilindi.

“Hibatul haqoyiq” asari XII asrlarda Ahmad Yugnakiy tomonidan yozilgan. Ushbu risolaning tili, bir tomondan, eski turkiy tilga, ba’zi xususiyatlari bilan eski o‘zbek tiliga yaqin turadi.

Garchi “O‘g‘uznoma” X asrda yozilgan bo‘lsa-da, bu asarning tili “Hibatul haqoyiq”ning tiliga nisbatan eskiroqdir. Shuning uchun ham bu asar mo‘g‘ullargacha bo‘lgan davrda yaratilgan, deb taxmin qilinadi. Asar qipchoq, qang‘li, qarluq tili xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi.

“Qissas-ul anbiyo” asari Qarshiga yaqin Raboti o‘g‘uz degan joyda qozi Burhoniddin o‘g‘li Nasriddin Rabg‘uziy tomonidan 1310-yili yozilgan.

Bu davrga oid yozma manbalarning yana biri “Tafsir”dir. “Tafsir”ning bir necha nusxasi ma’lum. Bu nusxalardan biri Qarshidan topilgan. A.K.Borovkovning fikricha, asar til jihatdan turli turk urug‘larining til xususiyatini ifodalaydi (olim qo‘lyozmani taxminan XII–XIII asrlarga oid deb biladi).

**IV bosqich.** *Eski o‘zbek adabiy tili (XIV asrdan XVII asrgacha).* XIII asrga kelib, o‘zbek adabiy tili yanada mukammallashadi. Shu bilan birga, yozma adabiyotning kam tarqalganligi tufayli unda sheva xususiyatlari ham saqlanib qoldi va ular adabiy asarlarda ham ma’lum darajada o‘z aksini topdi. Farg‘ona va Movarounnahrda yozilgan adabiy asarlar tili bilan Xorazmda yozilgan adabiy asarlar tili o‘rtasida ma’lum darajada sheva farqlari sezilib turdi. Eski o‘zbek tili shakllana boshlagan davrda (XII asr), adabiy asarlarda, ayniqsa, urug‘ tillarining xususiyatlari yaqqol ko‘rinar edi. Movarounnahr, Farg‘ona va Xorazmda qarluq-uyg‘ur, uyg‘ur-o‘g‘uz va qipchoq sheva guruhlarining xususiyatlari saqlanishi bilan birga, ba’zi asarlarda bu farqlar aralash holda ham ko‘rinadi. Masalan, “Muhabbatnoma” va “Taashshuqnoma”da o‘g‘uz sheva xususiyatlari, “Xusrav va Shirin”da qipchoq sheva xususiyati o‘z aksini topgan bo‘lsa, XVI asrga oid “Boburnoma”da bu shevalarning xususiyatlari aralash holda qo‘llanadi. Demak, bu davrga kelib, mavjud sheva xususiyatlarini o‘z ichiga qamrab olgan umumiy adabiy tilni shakllantirishga intilish kuchaya boradi va umumiy o‘zbek adabiy tili shakllanadi. Adabiy til sohasida ro‘y bergan bu yo‘nalish (tendensiya), shubhasiz, jonli tilda bo‘layotgan jarayonni aks ettirar edi.



Ma'lumki, XII asr boshlarida Xorazm davlatining mavqei tobora ko'tarilib, mustahkamlanib boradi va u butun Movarounnahrni o'z tasarrufiga oladi. Xorazm fan, madaniyat va adabiyot markaziga aylanadi. Mo'g'ullar hukmronligi davrida ham (XIII asrdan XIV asrning birinchi yarmigacha) bu harakat davom etadi. Bu davrda Xorazm Oltin O'rda xonligi tarkibiga kirgan edi. XIII asr oxiriga kelib esa Oltin O'rda xonligi tarkibidagi Xorazm yerlari, butun Rus va bulg'or yerlari, Dashti qipchoq, Qrim, Qozon, Astraxan alohida xonliklarga bo'linib ketadi.

XIII—XIV asrlar mobaynida Oltin O'rdada va Xorazmda o'ziga xos adabiy markaz vujudga keladi. Bu yerda yozilgan asarlar til jihatdan ko'proq qipchoq-o'g'uz urug' tillari xususiyatini o'zida ifodalaydi. O'g'uz urug'lari ko'pchilikni tashkil etib, ular Sirdaryoning quyi oqimi va Xorazmda joylashgan edi. Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si, Qutbning "Xusrav va Shirin" asari, diniy xarakterdagi "Rohatul qulub", "Najhul farodis", Alining "Qissayi Yusuf"i (XIII asrda Xorazmda yozilgan), To'xtamish va Temur Qutluq yorliqlari Oltin O'rda adabiy tilini shakllantiradi. Bu asarlar Oltin O'rda xonligining Urganch, Soray, Sig'naq kabi o'sha davrning eng ilg'or ilmiy-ijodiy markazlarida yaratilgan edi.

Oltin O'rda adabiy tiliga oid asarlarning ayrimlari Misrda va Suriyada mamluklar davrida yaratildi. Qipchoq tili xususiyatlarini ko'proq o'zida aks ettirgan Sayfi Saroyining "Guliston" tarjimasi va she'rlari, turli turkcha-arabcha va arabcha-turkcha lug'atlar shular jumlasidandir.

Oltin O'rda adabiy tili qoraxoniylar davridagi adabiy til bilan bog'langan bo'lib, uning davomi hisoblanadi. Bu ikki adabiy til orasidagi farq — asarlarning yaratilish o'rni va Oltin O'rda tili-ning ko'proq o'g'uz va qisman qipchoq tillari xususiyatlarini o'zida aks ettirishidir. Bu davrda Movarounnahrda — Buxoro, Samarqand va shu hududdagi boshqa shahar va qishloqlarda ham eski adabiy til (Qoraxoniylar davri adabiy tili) an'analari davom etib, Durbek, Lutfiy, Sakkokiy kabi shoirlar ijod etadi. Ular yaratgan adabiy asarlar ko'proq qarluq-uyg'ur tili xususiyatlarini aks ettiradi. Bu dialektal xususiyatlar asta-sekin yo'qola bordi va XV asrga kelib yagona, umumiy adabiy til asosiy o'rinni egalladi.

## O'zbek adabiy tilining asosiy yozma manbalari

Eski o'zbek adabiy tili yozma manbalarga boy bo'lib, ular Movarounnahr va Oltin O'rda hududida yaratilgan. Ularning ayrimlarini ko'rsatamiz:

**Xorazmiyning** "Muhabbatnoma" asari 1353-yilda yozib tugatilgan bo'lib, til jihatdan o'g'uz tili xususiyatlarini ham aks ettiradi.

**Sidi Ahmadning** "Taashshuqnoma"si tuzilish jihatdan "Muhabbatnoma"ga yaqin turadi. Bu asar 1435-yili yozilgan. Uning muallifi Sidi Ahmad esa Mironshohning o'g'li deb taxmin qilindi. Asarda qipchoq xususiyatlari kamroq uchraydi.

**Aliyning** "Qissayi Yusuf" asari XIII asrda yozilgan bo'lib, unda o'g'uz-qipchoq tili xususiyatlari aks etadi. Asar O'rta Osiyoda yozilgan, deb taxmin qilinadi.

**Qutbning** "Xusrav va Shirin" asari 1340-yili Oltin O'rda xonlaridan O'zbekxon o'g'li Tinibekka atab yozilgan. Til jihatdan o'g'uz-qipchoq til xususiyatlarini ifodalaydi. Asar Nizomiy tomonidan yozilgan shu nomdagi dostonning turkiylashtirilgan tarjimasini edi.

**Sayfi Saroiyning** "Gulistoni bit-turkiy" asari 1391-yili Misrda yoziladi. Asar qipchoq-o'g'uz tili xususiyatlarini aks ettiradi. Mazkur asar Sa'diyning "Guliston" asari tarjimasidir.

Navoiygacha bo'lgan shoirlar:

**Durbek.** XIV asrning ikkinchi yarmida ijod etgan. Uning "Yusuf va Zulayho" asari (asar Balxda yozilgan deb taxmin qilinadi) bizgacha yetib kelgan.

**Lutfiy.** XIV asr oxiri va XV asr o'rtalarida Hirotda yashagan va ijod etgan, ayrim g'azallari va "Gulu Navro'z" dostoni bizga yetib kelgan.

**Atoiy.** XV asrning birinchi yarmida ijod etgan. Go'zal g'azallari bilan mashhur.

**Sakkokiy.** XV asrning boshlarida Movarounnahrda (asosan, Samarqandda) ijod etgan. Badiiy va mazmun jihatdan mukammal ajoyib g'azallari bilan mashhur bo'lgan.

**Yaqiniy.** XV asrning birinchi yarmida Hirotda ijod etgan, uning "O'q-yoyning munozarasi" asari bizga ma'lum.

**Ahmadiy.** XV asrda ijod etib, “Sozlar munozarasi” asari bizgacha yetib kelgan.

**Yusuf Amiriy.** XV asrning boshlarida Hirotda, Shohruhning o‘g‘li Boysung‘ur Mirzo saroyida ijod etgan. Uning devoni, “Dah-noma” (1429–30), “Bangu chog‘ir munozarasi” asarlari bizga ma‘lum.

**Mir Haydar.** XV asr boshlarida “Telba” taxallusi bilan ijod etgan. Uning “Mahzanul asror” asari bizgacha yetib kelgan.

**Xo‘jandiy.** XIV asr oxiri va XV asr boshlarida Xo‘jandda (taxallusiga ko‘ra, asl ismi esa ma‘lum emas) ijod etgan. “Latofatnoma” asari bilan mashhurdir.

**Husayniy.** Temuriylar sulolasidan bo‘lmish Abulg‘oziy Husayn Boyqaroning taxallusidir (1438–39-yili tug‘ilib, 1469–1506-yillarda Xurosonda hukmronlik qildi). Uning devonlari bizgacha yetib kelgan.

XIV asr oxiri – XV asr boshlarida ijod etgan shoirlardan yana Javhariy, Qambar o‘g‘li, Qosim, Mansur baxshi, Gadoiy, Mir Sayid, Haydar Xorazmiy va boshqalarni ko‘rsatish mumkin.

Shunisi muhimki, Navoiygacha bo‘lgan bu shoirlarning asarlarida eski turkiy til an‘analari davom ettirilishi bilan birga, jonli til xususiyatlari ko‘proq o‘rin egallaydi.

## **XV, XVI va XVII asr boshlaridagi adabiy til**

XV asrning ikkinchi yarmi Alisher Navoiy va uning zamondoshlari yaratgan adabiy asarlar tili bilan xarakterlanadi. Alisher Navoiy o‘zbek adabiy tilini mukammallashtirish va yuqori pog‘onaga ko‘tarishga muvofiq bo‘ldi. Hozirgi kunda Alisher Navoiyning 30 dan ortiq ilmiy, adabiy, tarixiy asarlari ma‘lum<sup>1</sup>.

XV asrning birinchi yarmida diniy mazmundagi bir qancha nasriy asarlar ham yaratildi. Bular “Siraju-l-qulub” (1432-yili Yazd shahrida Mansur baxshi tomonidan tuzilgan, uyg‘ur yozuvida yozilgan). “Me’rojnomasi” (1436-yili Malik baxshi tomonidan tu-

---

<sup>1</sup> A.М.Щербак. Грамматика староузбекского языка, стр.13.

zilgan). “Tazkirayi avliyo” (Mansur baxshi tuzgan), “Baxtiyornoma” (ikki nusxasi ma’lum, 1435-yili ko‘chirilgan) va boshqalar.

Bu asarlarning tili sodda va jonli tilga juda yaqin bo‘lib, eski o‘zbek tilining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan. Eski o‘zbek adabiy tili avval qoraxoniylar davrida, keyinroq Oltin O‘rda va Movarounnahrda qo‘llangan adabiy tilning davomi, uning yangi, taraqqiy qilgan shakli edi. Eski o‘zbek adabiy tili mahalliy turkiy va qisman eron urug‘lari tili, qipchoq va o‘g‘uz tillarining ta’siri va aralashishi natijasida shakllandi. Eski o‘zbek adabiy tili butun O‘rta Osiyoda, Qozog‘iston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Tatariston, Boshqirdiston, Qashqar, Hirotgacha yoyiladi. Ko‘plab yozuvchi va shoirlar XIX asrga qadar eski o‘zbek adabiy tili an‘analari asosida ijod qilib keldilar. Bu davr adabiy tili an‘analari, ayniqsa nasriy asarlarda, qisman nazmda uzoq asrlargacha davom etdi.

Eski o‘zbek adabiy tilini ba’zi sharqshunoslar “chig‘atoy tili” deb ham yuritadilar. Mo‘g‘ullar davrida Movarounnahr va Mo‘g‘uliston (Sharqiy Turkiston va Yettisuv hududi) Chingizxonning o‘g‘li Chig‘atoyga qarashli bo‘lib, Chig‘atoy ulusi deb nomlanar edi. XIII asrning oxirida bu ulus Movarounnahr va Mo‘g‘ulistonga bo‘linib ketadi. Shu tarixiy sababga ko‘ra, bu katta hududga yoyilgan adabiy til ayrim olimlar tomonidan “chig‘atoy tili” deb yuritilgan, ammo bu hududdagi adabiy tilning Chig‘atoyga, mo‘g‘ullarga va ularning tiliga hech qanday aloqasi yo‘q. Bu hududda yashagan aholi o‘z davrida “chig‘atoy ulusi” deb nomlangan ekan, bu hududda yashab ijod etgan yozuvchi va shoirlarning tili “chig‘atoy tili” deb nomlangan, zotan o‘sha davr yozuvchi va shoirlari (Sakkokiy, Lutfiy, Atoiy, Alisher Navoiy) o‘z tillarini turkiy deb nomlaganlar.

**Navoiy, Bobur** va ularning izdoshlari eski o‘zbek adabiy tilining takamuliga asos soldilar. Alisher Navoiy (1441—1501) asarlarida eski o‘zbek adabiy tilini mukammallashtirdi, yuqori bosqichga ko‘tardi. Navoiy juda katta adabiy va ilmiy meros qoldirdi. Uning “Xazoyin ul-maoniy” va “Xamsa” nomli nazmiy asarlari, “Mahbub ul-qulub”, “Xamsat ul-mutahayyirin”, “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Vaqfiyya”, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Holoti pahlavon Muhammad” kabi o‘nlab nasriy asarlari bizga

ma'lum. Bu asarlarida Navoiy eski o'zbek adabiy tilini kamolotga yetkazdi. Alisher Navoiydan keyin uning an'analari izdoshlari tomonidan bu jarayon davom ettirildi.

**Zahiriddin Muhammad Bobur** (1483—1530) o'zining tarjimai holiga oid asari "Boburnoma" bilan mashhur. Bu nasriy asar til va uslub jihatdan yuksak saviyadadir. Bundan tashqari, Bobur o'zining latif va go'zal g'azallari bilan mashhurdir.

**Muhammad Solih** XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asr boshlarida yashab ijod etgan, uning "Shayboniynoma" asari 1510-yilda yozib tugatilgan. Asar nazm yo'li bilan yozilgan bo'lishiga qaramay, tili sodda va hozirgi zamon tiliga ancha yaqin. Asar tilida ba'zi sheva xususiyatlari ham aks etgan.

**Majlisiyning** (XVI asrning birinchi yarmida Xorazmda ijod etgan) "Qissayi Sayfulmulk" dostoni, **Abdulahob xo'ja o'g'li Poshoxojaning** (taxallusi — Xoja, XVI asrda ijod etgan) "Gulzor" va "Miftohul adl" asarlari eski o'zbek tili an'alarini o'zida aks ettirgan.

Eski o'zbek tili O'rta Osiyo adabiy tilining bevosita davomidir. O'rta Osiyo adabiy tilidagi asosiy xususiyatlar eski o'zbek tilida davom etadi. Shu bilan birga, ba'zi til xususiyatlari eski o'zbek tilida o'zgaradi. Bu hol til taraqqiyoti tufayli ro'y beradigan tabiiy va qonuniy hodisadir. Masalan, eski o'zbek tilida ***d*** tovushi, asosan ***y*** bilan almashadi; shart fe'lining qo'shimchasi ***-sar*** tamoman ***-sa*** shakliga o'tadi; kelishik affikslaridan oldin qo'llanadigan ***n*** (***ininda***) tovushi eski o'zbek tilida kam uchraydi; sonning ***to'rtinch***, ***beshinch*** shakllari ishlatiladi; tushum kelishigining ***-ig'/-ig*** shakli, jo'nalish kelishigining ***-g'aru/-garu*** shakli, vosita kelishigi qo'shimchasi tamoman qo'llanmaydi; ravishdosh va sifatdoshning qadimgi shakllari iste'moldan chiqadi; yangi ko'makchilar qo'llaniladi (***ko'ra***, ***yarasha*** va boshqalar); harakat nomining ***-moq*** shakli kamroq qo'llanib, uning o'rnida ***-ish*** shakli ko'proq ishlatila boshlaydi va boshqalar.

**V bosqich.** *Yangi o'zbek adabiy tili (XVII—XX asr boshlari).*

Bu davr Alisher Navoiy asos solgan adabiy tilni so'zlashuv tiliga yaqinlashtirish g'oyasi va harakati bilan ajralib turadi. Eski o'zbek tili an'analari Gulxaniy, Abulg'azi Bahodirxon asarlarida

o'zgara boshlaydi. Ayniqsa, Abulg'oziy Bahodirxonning (1603—1664) “Shajarai tarokima”, “Shajarai turk” asarlarining tili jonli so'zlashuv tiliga yaqindir. “Turklarga turkona aytmoq kerak, — deb yozgan edi XVII asrda ijod etgan Abulg'oziy Bahodirxon, — to alarning barchasi fahm qilg'aylar bizning aytgan so'zimizni”. U o'zining “Shajarai tarokima” va “Shajarai turk” asarlarini ana shunday ravon tilda yozdi.

Shunday qilib, XVII—XVIII asr adiblarining asarlarida *yangi o'zbek adabiy tili* shakllandi.

XVIII va XIX asrlarning ikkinchi yarmiga kelib, nasriy asarlar tiligina emas, nazmiy asarlar tili ham jonli tilga yaqinlashadi. Umar Baqoiy, Majlisiy, Mashrab, Huvaydo, Nishotiy, Gulxaniy, Fazliy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy kabi shoirlarning asarlari ana shular jumlasidandir.

Bu vaqtga kelib, adabiyotning yangi shakl va janrlari, mahalliy matbuot va teatr kelib chiqadi.

Ammo Turkistonda nashr qilinadigan gazeta, jurnal va ayrim kitoblar tilida o'zbek xalqiga tushunarsiz bo'lgan shakllar, so'zlar, birikmalar qo'llana boshlandi. Shuning uchun ham XIX asrning oxiri, ayniqsa XX asrning boshlarida gazeta, jurnallarning tili turk, ozarbayjon yoki tatar tili xususiyatlarini o'zida aks ettirgan chalkash bir ahvolda edi. Oktabr inqilobidan keyin o'zbek adabiy tilini bir me'yorga keltirish harakati kuchaydi. Ammo, 20-yillarda ham adabiy til masalasi uzil-kesil hal bo'lmadi. Adabiy til sifatida jonli tildan uzoq bo'lgan eski o'zbek tili (“chig'atoy tili”)ni qabul qilish yoki adabiy tilni jonli tilga yaqinlashtirmoqchi bo'lib, uni sheva tiliga aylantirish an'analari yoxud yangi so'z, shakl va birikmalar yasab, tilni sun'iy lashtirish harakatlari bo'ldi<sup>1</sup>. Faqat 30-yillarga kelib, xalq ommasiga tushunarli bo'lgan, eski o'zbek tili an'alarining va sheva xususiyatlarining ommaga tushunarli bo'lgan eng yaxshi tomonlarini o'ziga singdirgan hozirgi o'zbek tili shakllandi.

---

<sup>1</sup> Qarag: Боровков А.К. Узбекский литературный язык в период 1905–1917 гг. Учпедгиз, Ташкент, 1941 г.

**VI bosqich.** *Hozirgi o'zbek adabiy tili XX asr boshlaridan shakllana boshladi.* Abdurauf Fitrat, Abdulla Avloniy, Ashurali Zohiriy va boshqa olimlar o'zbek adabiy tilining nazariy asoslarini yaratdilar, turli lug'atlar tuzdilar. Bu davrda murakkab boy o'zbek shevalarini G'ozim Olim, E.D.Polivanov kabi olimlar chuqur o'rgandilar<sup>1</sup>. O'zbek adabiy tili me'yorlarini belgilashda A. Fitrat, A. Qodiriy, O. Usmon, A. Cho'lpon, U. Nosir va boshqalar badiiy asarlarining til xususiyatlariga ham asos solindi. XIX asrning ikkinchi yarmida yozilgan Muhammad Karimxo'janing «Turkcha qoidalari», Is'hoqxon Ibratning «Lug'at»i, V. Nalivkin, N. Ostroumov va boshqa olimlarning sari (o'zbekcha, turkcha) tili bo'yicha yozgan qo'llanmalari, XX asrning 20-yillari yozilgan A. Fitratning «Sarf» va «Nahv» asarlari va A. Zohiriy, Sh. Rahimiy, Q. Ramazon, Sh. Zunnun, Elbeklarning o'zbek tili haqidagi risola va maqolalari hamda XIX–XX asr matbuot tili adabiy tilning shakllanishida katta hissa qo'shdi.

XX asrning 30-yillariga kelib hozirgi o'zbek adabiy tilining qoidalari shakllanib, bir qator darslik, qo'llanmalar, lug'atlar, maqolalar nashr etildi va yagona qoida-qonunlarga asoslangan o'zbek adabiy tili maktablar va oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshladi. Bu davrdan boshlab o'zbek tili tarixi, shevalari va boshqa sohalar bo'yicha ham bir qator monografiya, ilmiy maqolalar nashr etildi, o'zbek tilining hamma sohalar bo'yicha tilshunos olimlar shakllandi.

## I. Tekshirish uchun savollar

1. Adabiy til tarixi fanining maqsad va vazifalari, o'rganish uchun adabiyotlar.

2. Adabiy til tarixini davrlashtirish va bu davrlarning muddatlari.

3. O'zbek, umuman, turkiy tillarni o'rganishda va davrlashtirishda A. Radlov, A.M. Sherbak, E. Fozilov fikrlari.

---

<sup>1</sup>Qarang: Shoabdurahmonov Sh. O'zbek adabiy tili va o'zbek xalq shevalari, «Fan» nashr., Toshkent, 1962. Решетов В.В. Узбекский язык, Учпедгиз, Ташкент, 1959 г. Введение, стр. 15–20.

4. O'zbek xalqi va tilini shakllantirishda ishtirok etgan qabila va urug'lar.

5. O'zbek adabiy tilini shakllantirishda Alisher Navoiygacha bo'lgan adiblar.

6. Alisher Navoiyning o'zbek adabiy tilini shakllantirishdagi xizmatlari.

7. O'zbek adabiy tilini shakllantirishda ishtirok etgan O'рта Osiyo, eski o'zbek, yangi o'zbek adabiy tili adiblari.

## II. Tayanch tushunchalar

1. Adabiy til tarixi va tili tarixi.

Til, sheva, lahja. O'zbek adabiy til tarixi. Qadimgi turkiy adabiy til. O'рта Osiyo turkiy adabiy tili, hozirgi o'zbek adabiy tili. Tillar tasnifi.

2. O'zbek tilining dunyo tillari va turkiy tillar tasnifidagi o'rni.

### Lug'at

Quyidagi so'zlarning ma'nosini ta'riflang:

Amir Temur	—	Qāzāq	—
Bobur	—	Suzoq	—
davrlashtirish	—	tasnif	—
Eftalit	—	Türk Haqānligi	—
Jungariya	—	türkdesh	—
Kushān	—	Türkman	—
manba'	—	Umar Shayx	—
matn	—	Uyg'ur	—
Mo'g'ul	—	uz	—
Navoiy	—	Yettisuv	—
O'zgan	—	Shaybāniy	—
O'g'uz	—	Sherbak	—
O'zbek	—		
qangli	—		
qarluq	—		
qipchāq	—		
Qora xitāy	—		
Qirg'iz	—		



# FONETIKA

---

## TOVUSHLAR TIZIMINING TARAQQIYOTI

Turkiy tillarning unli tovushlar tizimi asrlar davomida tadrijiy yo'llar bilan rivojlandi. Jumladan, o'zbek tilida unli tovushlarning taraqqiyoti diaxronik jihatdan umumturkiy xususiyat kasb etgan, sinxronik tomondan esa ba'zi bir ayrimliklarga ega. Shunga ko'ra, qadimgi va eski turkiy, eski o'zbek hamda hozirgi o'zbek tillari tarixida ba'zi unli va undosh tovushlarda yuz bergan ayrim fonetik jarayonlar ustida to'xtalib o'tamiz.

O'zbek tilida orqa qator ochiq keng *o/ā/* unlisining paydo bo'lish tarixi uzoq zamonlarga borib taqaladi, eski turkiy til davrida *-o/ā/* unlisi mustaqil tovush tarzida mavjud emas edi, shuningdek, bu tovushning paydo bo'lishi uchun ba'zi turkiy so'zlarda zamin bor edi. Jumladan, *qalin, qattiq* kabi turkiy so'zlar boshida qo'sh alif yoki alif madda bilan ifodalangan cho'ziq etimologik *ā* tovushi hamda chuqur til orqa *q, g'* va spirant *x* undoshi yonida kelgan etimologik *a* tovushi orqa qator ochiq keng *o/ā/* unlisining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan fonetik hodisalardan biridir.

Ikkinchidan, fors-tojik tilidan *oftob, osmon, dono, obod, otash, bog', bodom, ozod, bozor* kabi so'zlarning turkiy tillar leksik qatlamiga o'zlashishi ham ochiq keng *o/a:/* tovushining yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Uchinchidan, arab tilidan *oxir, olim, osor, olloh, ulamo, umaro, fozil-fuzalo, qodir, zohir* kabi juda ko'p so'zlar turkiy tillar tarkibiga kirgan, bu so'zlarni talaffuz qilish muammosi paydo bo'lgan. Shuningdek, arab tilidan *sano, balo, qori, ato* kabi so'zlar ham qabul qilingan. Xuddi shunga o'xshash, turkiy *sana* (MK, III, 290 fe'l), *bala* (MK, III, 250), *qari* (kekxa) (MK, III, 242), *ata* (HH, 251) kabi so'zlar orasida ma'no farqlash zarurati ham paydo bo'lgan edi. Bu fonetik zarurat ham ochiq keng *o/ā/* tovushining paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Arabcha so'zlar tarkibidagi cho'ziq *ā* unlisi turkiy tillarda qo'llangan etimologik cho'ziq *ā* tovushiga yaqin talaffuz qilingan, fors-tojik tillariga oid *o/ā/* unlisi

*ton (ovoz)* soʻzidagi ochiq keng *o/ā/* tovushidan talaffuz oʻrni va usuliga koʻra ham farqlanadi.

Toʻrtinchidan, nazm bilan bitilgan qadimgi yozma manbalarda aruz vazni talabiga binoan *qara>qara:*, *ara>ara:*, *tagʻa>tagʻa:*, *adaq>ada:* kabi soʻzlarda choʻziqlik paydo boʻlishi ham -*o/a:/* unlisining turgʻunlashishiga sabab boʻlgan.

Eski oʻzbek tilida turkiy soʻzlarda Toli Iman Hiraviyning maʼlumotiga qaraganda, turkiy soʻzlarda etimologik choʻziq *a:* hamda orqa qator keng *a* tovushlari saqlanganligi maʼlum boʻladi<sup>1</sup>. Shuningdek, eski oʻzbek tilida paydo boʻlgan orqa qator ochiq keng *o/ā/* unlisi etimologik orqa qator keng *a* tovushiga nisbatan fonetik variant vazifasini bajargan. Sheʼriy asarlarda esa vazn talabiga koʻra sifat jihatdan etimologik *a* tovushidan farqlangan.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida sifat hamda talaffuz jihatdan fors-tojik tillariga xos *oftob*, *osmon*, *dono* soʻzlaridagi *o/ā/* tovushi nisbatan turkiy soʻzlarga xos *o/a:/* unlisiga toʻla oʻxshamasa ham, analogiya hodisasi orqali orqa qator lablanmagan ochiq keng *o/a:/* unlisi paydo boʻldi.

Arab tiliga xos *a:ʼlm* (hh, 242), *a:ʼxr* (hh, 249), *baya:n* (Taf, 68 a), *ulama:* (Taf, 9 a) kabi soʻzlarda qoʻllangan choʻziq *a:* tovushi turkiy etimologik choʻziq *a:* unlisiga yaqin talaffuz qilingan. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida analogiya hodisasiga koʻra, orqa qator lablanmagan ochiq keng *o/a:/* fonemasiga aylandi.

Turkiy tillar davrida qoʻllangan: *a:sh*, *a:q*, *a:ch*, *a:ltm* kabi soʻzlar tarkibidagi etimologik choʻziq *a:* unlisi hamda chuqur til orqa *q*, *gʻ* va spirant *x* undoshlari yonida kelgan etimologik *a* tovushi *qar*, *qazan*, *qara*, *qaz/gʻaz*, *agʻdi*, *agʻiz*, *aqir>agʻir* kabi soʻzlarda, shuningdek, *batqaq*, *qayraq*, *qatqalaq*, *taraq*, *tarqaq*, *yapraq* kabi soʻzlarning oxirgi boʻgʻinidagi etimologik *a:* tovushi analogiya qonuniga muvofiq, orqa qator ochiq keng *o/a:/* unlisiga oʻtgan.

<sup>1</sup> Боровков А.К. Бадаи-ал-лугат, Тали Имани Гератского к сочинениям Алишера Навои, М., 1961.

Analogiya qonuniga ko'ra, *art, tart, bar, tar, tap, bal, balta* kabi so'zlar tarkibida ham orqa qator keng *a* tovushi orqali qator lablanmagan ochiq keng *o/a:/* tovushi paydo bo'lgan. Shuningdek, hozirgi o'zbek adabiy tilida turkiy hamda fors-tojik, arab tillaridan o'zlashgan so'zlarda ma'no farqlash darajasiga yetgan.

Turkiy yozma manbalarda old qator keng *a* old qator to'liqsiz keng *e*, old qator o'rta keng *e* hamda old qator tor *i* tovushlari tarixiy dialektal hodisa tarzida rivojlangan. Shuningdek, harfiy jihatdan to'la bo'lmasa ham, yozuv shakllari orqali ifodalangan *//e//i//e//e* fonetik hodisalari yuz bergan. O'rxun-Enasoy yozma manbalarida *er* (Toj, 25) — kishi, botir; *yegirmi* (KT, II) — yigirma; *edgu* (KT, kch, 3) — ezgu kabi so'zlarning birinchi bo'g'ini old qator keng *e* unlisi qo'llangan, XI—XIV asr yozma obidalarida esa fonetik zaruratga ko'ra *-e* unlisi to'liqsiz keng *e* tovushiga o'tgan (*d>e*). Shuningdek, qadimgi turkiy til yozma manbalaridagi *yir* (Toj, 60) — *yer, ti* (KT kt, 7) *-de* kabi turkiy so'zlarda old qator tor *i* tovushi tarixiy dialektal hodisa tarzida old qator to'liqsiz *e* unliga aylangan: *i>e* kabi: *yir* (Toj, 60)>*yer* (MK, III, 156) *er, ti* (KT, kch. 7), *de* (hh, 261) *de*.

Eski o'zbek hamda hozirgi o'zbek tili davrida *ä>e, i>e* fonetik hodisasi qisman o'zgarishga uchragan yoki *ä>e, i>e>e* kabi fonetik hodisalar sodir bo'lgan. Bu fonetik hodisa: *idi>idi<iye egä*, (Nav, XV, T., 84) *yegirmi>yegirmi* (Sh.tar. 9) *yigirme* kabi so'zlarda o'z ifodasini topgan.

Ba'zi undosh tovushlar ham qadimgi va eski turkiy hamda eski o'zbek tili davrlariga oid yozma manbalarda turli fonetik hodisalarga uchrab, tadrijiy yo'l bilan rivojlanib, hozirgi o'zbek tili davriga yetib keldi.

Qadimgi turkiy til davriga xos *d* undoshi so'zlarning o'rtasida, oxirida fonetik o'zgarishlarga uchrab, eski turkiy til davriga kelib jarangli sirg'aluvchi-portlovchi *d* tovushiga o'tdi, *d* tovushi eski turkiy til davri uchun yangi tovush, bu tovush bir guruh turkiy tillarda qo'llandi, XI—XIV asr uchun xarakterli tovushga aylandi. Shuningdek, ba'zi turkiy so'zlarda *d* undoshi saqlandi, yana bir guruh turkiy so'zlarda fonetik zaruratga ko'ra, sirg'aluvchi sonor

y tovushiga o'tdi yoki **d > ḍ > z > y** fonetik hodisasi yuz berdi. Yana bir guruh turkiy so'zlarda **ḍ** tovushi jarangli sirg'aluvchi oddiy **z** undoshiga o'tdi: **d > ḍ > z** undoshlarining tadrijiy rivojlanishi yuz berdi: **qod** (To'n, 2) // **qod** (Taf, 80 a) > **qoz** (MK, III, 444) > **qoy** (fe'l); **aqad** (KT, kch, 47) // **adaq** (HH, 228) // **adaq** (O'n, 2) > **adaq** (QBN, 30 b) // **adaq** (QR, 24 a) > **adaq** (MK, 1, 60) > **ayaq** (MK, 1, 112) // **ayaq** (Taf, 1066) **ayaq > ayoq** kabi **ḍ** undoshi eski o'zbek hamda hozirgi o'zbek tilida asosan sonor **y** undoshiga o'tgan. Shuningdek, **ḍ** tovushli holat **ezgu, qoziq, qozon** kabi so'zlarda rudiment (qoldiq) tarzida uchraydi.

Hozirgi qardosh turkiy tillarda **d > ḍ > z > y** fonetik hodisasi sinxronik holat kasb etib, **r, t, z, y** undoshlari tarzida iste'mol qilinmoqda: hur, qos, qoy-qo'y; taran, tot, toz, tos-to'ymoq; atax, azak, azaq, ayaq-ayoq kabi.

Qadimgi turkiy til davridan so'ng X—XIV asrlardagi turkiy yozma obidalarda **b, g', g** undoshlarining fonetik o'zgarishlarga uchrashi orqali bir guruh so'zlarning o'rtasida, oxirida jarangli sirg'aluvchi lab-tish **-w** tovushi paydo bo'lgan, bu tovush arab yozuviga xos bir va uch nuqtali fe (ف/ف) orqali ifodalangan, **b > w > v > y; g' > w > v > y; g > w > v > y** kabi fonetik jarayon yuz bergan: **ab** (Toq, 30) > **ew** (QBN, 162) > **ev** (Sh.Tar. 19) **uy; yalg'adi** (MK, III, 321) > **yalwadi** (MK, 1, 321) > **yalvadi > yaladi; sog'ul** (Taf, 98 b) > **soyul** (Taf, 45 b) **to'sil.; yag'ı** (Sh.Tar. 49) > **yav** (Sh.Tar. 42) **yov; kegür** (QBN, 90 a) > **kewür** (Taf, 17 b) > **keiür** (QR, 8 a) **kirit, yubor** kabi. Shuningdek, **w** tovushi eski o'zbek tili yozma manbalarida lab-lab **v** undoshi bilan qo'shilib ketdi yoki sonor **y** tovushiga aylandi, **ew** (NF, 360) > **ev** (III.Tar. 19) > **uy**, hozirgi o'zbek tilida ham bu fonetik jarayon **yov, yovuz, uy** kabi so'zlarda uchraydi.

Turkiy tillar tarixida burun tovushi sonor **η** undoshi singlarmonizm qonuniga ko'ra, so'zlarning qalin yoki ingichka talaffuziga muvofiq, til orqa qator hamda til oldi qator xususiyatga ega bo'lgan. Bundan tashqari, sonor **η** undoshi **mejiz, kejrii, kejül, berij, ishläij, sezläijiz** kabi misollarda ingichka talaffuzli mustaqil fonema hisoblangan. Shuningdek, **qojuz** (MK, III, 375), **qaluy**

(MK, III, 382), *taŋ* (MK, III, 367) kabi turkiy soʻzlarda sonor undoshi qalin aytiluvchi mustaqil fonema vazifasini bajargan.

Qalin talaffuzli soʻzlar joʻnalish kelishigi bilan turlanganda *n* va *gʻ* undoshlari qoʻshilib, qalin aytiluvchi qarishiq *ŋ* – sonorini hosil qilgan. *Muŋa* (HH, 177), *aŋa* (XX, 178). Ingichka aytiluvchi soʻzlar joʻnalish kelishigi bilan kelganda *ŋ* va *g* undoshlari qoʻshilib, ingichka talaffuzli qarishiq *ŋ* sonori paydo boʻlgan: *meyä* (HH, 179), *seyä* (HH, 180).

Sonor *ŋ* undoshining har ikki yoki qalin va ingichka hamda qarishiq variantlarining nazal holatga oʻtishini koʻrsatuvchi misollar uchraydi. Turkiy yozma manbalarda *ŋ* > *n* + *gʻ* > *gʻ* kabi fonetik hodisalar sodir boʻlgan: *yalyuz* (Taf, 18 a) > *yalgʻuz* (Taf, 27 b, OʻN, 7) *yolgʻiz*; *toŋa* (QBN, 27 a) > *togʻa* (QBN, 17 a) *toʻngʻa*, *botir*; *yanan* (MK, III, 386) > *yagʻan* (HH, 224) *fil* kabi. Hozirgi oʻzbek tilida *ŋ* sonorining nazal holatga oʻtgan shakllari mavjud: *mayız* > *magʻız* > *mayiz*; *mäyiz* > *mägiz* > *meyä* > *miya*; *barsaŋız* > *barsägiz* *borsayiz* kabi misollarda qoʻllanilmoqda.

Oʻrxun-Enasoy yozma manbalarida jarangli hamda sonor undoshlardan soʻng jarangsiz tovushlarni qoʻllash xarakterli xususiyat kasb etgan: *anta* (KT, kt, 2) *u yerda*, *qilintuqda* (KT, kch, 1) yaratilganda, *adirlıltı* (Toŋ, 2) ayrildi. Jarangsiz portlovchi *t* undoshi eski turkiy til davriga oʻtganda, sonor tovushlardan soʻng jarangli holatga oʻtish yuz bera boshlagan: *alqıntı* (Toŋ, 3) > *alqındı* (MK, I, 255) tugadi, oʻldi; *ärti* (KCh, 4) > *erdi* (MK, I, 177) – edi. Eski oʻzbek tili davrida sonordan soʻng *t* tovushining *d* undoshiga oʻtishi kuchaygan: *bürtüg* (Toŋ, 6) > *berdi* (MK, I, 195) > *berdi* (Sh.tar., 14-b) — *berdi*; *boltu* (KT, kch, 7) > *boldı* (MK, I, 195) > *boldı* (Sh.turk, 14 b) *boʻldı*. Hozirgi oʻzbek tilida sonordan soʻng *t* undoshi oʻrnida jarangli *d* tovushini qoʻllash xarakterlidir: *olti*, *qayt*, *toʻrt* kabi soʻzlarda qadimgi turkiy tilga xos xususiyat saqlanib qolgan.

## Unlilar

Qadimgi turkiy, eski turkiy va eski oʻzbek tilida unlilar singarmonizm qonuniga rioya qilgan. Qadimgi turkiyda sakkizta

unli tovush bor: *a, o, u, ı* unililari orqa qator; *ä, ø, ü, i* unililari esa old qator tovushlardan iborat. Eski turkiy til (XI—XIV asrlar) yozma obidalarida to‘qqizta unli tovush: *a, ā, ä, e, o, o, u, ü, ı, i* va eski o‘zbek tili (XV—XIX asrlar) yozma manbalarida ham o‘nta unli tovush: *a, ā(o), ä, e, o, ø, u, ü, ı, i* mavjud. Eski turkiy hamda eski o‘zbek tili yozma manbalariga arab, fors-tojik so‘zlari o‘zlashgan, bu so‘zlar tarkibidagi unililar turkiy til qonunlariga moslashgan.

*a* unlisi qadimgi o‘rxun va uyg‘ur yozuvida maxsus harflar, arab yozuvida alif (ا), fatha, hoyi havvaz bilan ifodalangan. Bu orqa qator lablanmagan keng tovush qattiq aytiluvchi turkiy so‘zlarning barcha holatida uchraydi: *qag‘an* (KT, kch, 35) — *xoqon*; *atli g‘* (Suvr, 4) — *otli*; *buqa* (To‘n, 6) — *buqa*; *aba* (MK, 1, 113) — *ora*; *başlag‘* (QBN, 31 b) — *bo‘ş*; *yarat* (HH, 7) — *yarat*; *ach* (Nav., HA, 73); *alar* (Nav., MQ, 19); *yı g‘ach* (Gulx., 19). *A* unlisi singarmonizmli o‘zbek tili shevalarida ham *qaysi, tamg‘a, targ‘il, qo‘chqor, qutqar, maqta* kabi so‘zlarda saqlangan. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida etimologik *a* unlisi: turkiy so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida *qaysar, qamchi, qaymoq, qaychi* kabi so‘zlarda qo‘llanmoqda.

*ä* unlisi o‘rxun va uyg‘ur yozuvarlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda alif (ا), fatha ( َ ), ba‘zan hoyi havvaz orqali ifodalangan. Bu old qator lablanmagan keng tovush qadimgi turkiy til yozma obidalarida turkiy so‘zlarning barcha pozitsiyasida; eski turkiy hamda eski o‘zbek tili yozma yodgorliklarida birinchi bo‘g‘indan keyingi pozitsiyalarda uchraydi. *ä* unlisi barcha davrlarga oid yozma manbalarda yumshoq talaffuzli so‘zlar bilan birga keladi: *ädgü* (KT, kch, 6) — *ezgu*; *yär* (To‘n, 11) — *yer*; *birgärü* (KTM, 3) — *janub*; *ärdemlig* (Irb, 1 b) — *fazilatli*; *ekägün* (QBN 65 b) — *ikkovi*; *kölikü* (MK, 1, 419) — *ko‘lanka*; *emgäk* (HH, 166) — *mehnat*; *menü* (TF, 29 a) — *tepa*; *bergün* (Nav., MN, 128); *mevü* (BN, 289).

Arab, fors-tojik tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tarkibida ochiq keng lablanmagan *ā* unlisi qo‘llangan: *āftüb, āsmān, āli m, ulamā* kabi.

*e* unlisi eski turkiyga xos bo‘lib, uyg‘ur va arab yozuvlarida alif-u *yo* harflari bilan ifodalangan, old qator lablanmagan to‘liqsiz keng tovush, turkiy so‘zlarning kuchli holatda, ya‘ni birinchi bo‘g‘inda mavjud. *e* unlisi yumshoq aytiluvchi so‘zlar tarkibida uchraydi: *menzät* (QBN, 35 b) – *o‘xshat*; *etmük* (MK, 1, 127) – *non*; *erigsük* (HH, 17) – *qo‘rqmas*; *egri* (Rabg‘., 5 a) – *egri*.

XV–XIX asrlarga oid yozma manbalar tilida to‘liqsiz keng *e* tovushi biroz torayib, o‘rta keng *e* fonemasiga aylangan: *etmük* (Tf, 99 a) > *etmük* (BAL, 173); *ew* (MK, 1, 73) > *ev* (Nav., HA, 66) kabi.

*e* fonemasi alif *-u, yo*, kasra orqali ifodalangan, old qator, lablanmagan o‘rta keng tovush, turkiy so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida keladi. Eski o‘zbek hamda hozirgi o‘zbek tili uchun xarakterli bo‘lib, yumshoq o‘zakli so‘zlarning birinchi bo‘g‘inida uchraydi: *erkän* (Nav., HS, 75); *esrük* (Nav., MQ, 38); *nechä* (Tar., 24); *kechti* (Muq., 1, 243). O‘zbek tili shevalarida ham *e* unlisi hamda uning fonetik ko‘rinishlari mavjud. *E* tovushi *e‘län, ehsän, mezbän* kabi o‘zlashgan so‘zlar tarkibida ham bor.

Bir guruh turkiy tillarda so‘zlarning keyingi holatlarida ham *e* unlisining fonetik muqobillari uchraydi<sup>1</sup>. Ba‘zi turkiy tillarda *e* unlisi old qator lablanmagan tor *i* tovushiga aylangan<sup>2</sup>.

*O* unlisi o‘rxun uyg‘ur yozuvida maxsus harf, eski turkiy, eski o‘zbek tili yozma obidalarida alif vov (و), vov (و), damma (ـ) ba‘zan alif damma (و) orqali ifodalangan. *O* unlisi orqa qator, lablangan o‘rta keng, turkiy so‘zlarning boshida uchraydi: *og‘ush* (KT, kt, 1) – *urug‘*; *yol* (Tonj, 16) – *yo‘l*; *otachi* (Xrist., 34) – *tabib*; *yog‘un* (QBN, 177 b) – *yo‘g‘on*; *oz* (MK, 1, 48) – *o‘zg‘in*; *yoq* (HH, 34) – *yo‘q*; *orman* (O‘n, 12) – *o‘rmon*; *oq* (Yaqin, 315 a); *oxshar* (Sh.tar., 21).

*Ö* unlisi o‘rxun va uyg‘ur yozuvlarida maxsus harflari bilan yozilgan, arab xati bilan bitilgan manbalarda alif vov (و), vov (و), damma(ـ), ba‘zan alif damma (ـ) orqali ifodalangan, qadimgi turkiy

<sup>1</sup> Шепѣак А.М. Ko‘rsatilgan asar, 151–155-betlar.

<sup>2</sup> Shu asar, 151–155-betlar.

yozma manbalarda old qator lablangan keng tovush, XI—XIX asr yozma obidalarida old qator lablangan, oʻrta keng unli; turkiy soʻzlarning asosiy holatida uchraydi: *oʻjre* (Toʻq, 6) — *sharqqa*; *kək* (Irbq, 98) — *koʻk*; *tərt* (Suvr, 6) — *toʻrt*; *oʻgdachi*; (QBN, 82 b) — *maqtoʻvchi*; *bəkdi* (MK, II, 26) — *boʻkdi*; *oʻzga* (Tf, 80 b) — *oʻzga*; *oʻz* (Nf, 144) — *oʻz*; *kəz* (Lutf., 159 b); *oʻlmək* (Nav., MQ, 150); *kəjül* (SHN, 3). Tarixan *oʻtmək* (MK, II. 312), *etmək* (TF, 99 a) — *non*; *kəpäläk* (NAL, 327); *käpäläk* (Muq., II, 354) kabi soʻzlarda *o*, *ä* unilarning parallel qoʻllanishi mavjud.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida *o* unlisi hamda *o* tovushi yozuvda farqlanmasa ham, talaffuzda oʻz oʻrni bor.

U unlisi oʻrxun va uygʻur yozuvlarida maxsus harflar bilan ifodalangan, arab yozuvidagi obidalarda alif damma (◌), alif vov, vov (◌) hamda damma (◌) orqali ifodalangan; orqa qator lablangan tor tovush, turkiy soʻzlarning barcha pozitsiyalarida uchraydi; qattiq aytiluvchi unli va undoshlar, uygʻunlashuvchi (indifferent) undoshlar asosida tuzilgan soʻzlar tarkibida keladi: *ulgʻartdim* (Toʻq, 53) — *ulgʻaytirdim*; *qush* (Irbq, 4) — *qush*; *urtim* (KTM, 11) — *yozdim*; *qut* (QBN, 67 a) — *qut*; *umundum* (MK, I, 213) — *umid qildim*; *bu* (HH, 236) — *bu*; *anut* (Tf, 4 b) — *tuza*; *ushbu* (Nav., HA, 4); *qilsun* (Ahmad, 322 a); *tutul* (Lutf., 160 a). U undoshi oʻzlashgan *qusur*, *muqim*, *musiqiy* kabi soʻzlarda qattiq talaffuzga moyil boʻlgan: *kutubxona*, *maktub*, *mushkul* kabi soʻzlar tarkibida *k* undoshi mavjud, shunga koʻra, yumshoq aytilgan.

Hozirgi oʻzbek tili shevalarida ham *u* unlisining talaffuzi bir guruh soʻzlarda saqlangan. Oʻzbek adabiy tilida *bu*, *u*, *ur*, *urugʻ*, *urgʻu*, *orun*, *qavurma*, *qavun*, *quvur*, *ulgʻ* kabi soʻzlarda *u* unlisi qattiq talaffuz etiladi; *uzum*, *butun*, *tuz*, *tutun* kabi soʻzlarda *ü* unlisi va *u* tovushi birikuv hodisasiga uchrab, uygʻunlashgan holatda talaffuz qilinmoqda.

Ü unlisi oʻrxun va uygʻur yozuvlarida maxsus harflar bilan yozilgan, arab xatidagi yozma yodgorliklarda alif vov (◌), vov (◌), damma (◌), baʼzan alif damma (◌) orqali ifodalangan; old qator lablangan tor tovush, turkiy soʻzlarning barcha holatlarida, yumshoq talaffuzli unli va undoshlar hamda shaklan uygʻunla-



shuvchi undoshlar bilan birga keladi: *sü* (Irbq, 84) – *qo‘şin; ilgärü* (Ktb, 2) – *oldinda, üch* (Manx, 87) – *uch; tükäti* (KTM, 1) – *tugal; ügürlüg* (MK, 1, 167) – *uyurli; küchlüg* (MK, 1, 194) – *kuchli; türlüg* (HH, 58) – *turli; üchün* (Rabg‘., 6 a) – *uchun; keltürgüchi* (XSH, 68) – *keltiruvchi*. Tarixiy dialektal hodisa sifatida asosiy holatda *ü* unlisi *ø* tovushi bilan ham talaffuz qilingan: *ünüp//önüp* (Xrs, 51) – *unub; üküş//öküş* (QBN, 13 b) – *ko‘p; kümiş//* (O‘n, 21) – *kumush*. *Ü* unlisi eski o‘zbek tili yozma manbalarida ham talaffuz jihatdan o‘zgarishga uchramagan: *bükülgün* (Yaqin, 315 a); *üchün* (Ahmad, 328 a); *yüklün* (Nav., HA); *yüz* (III. Tar., 4).

Singarmonizm qonuni saqlangan o‘zbek tili shevalarida *ü* unlisi talaffuz jihatdan yozma manbalar tiliga yaqin turadi: *bütün, üchün, ülüş, külgü, küt* kabi.

*I* unlisi o‘rxun va uyg‘ur xatida maxsus harflari bilan berilgan, arab xatidagi yozma obidalarda yo (  $\text{ع}$  ), alif (  $\text{ا}$  ) ba‘zan alif kasra orqali bitilgan; orqa qator lablanmagan tor; *ı* unlisi qattiq aytiluvchi turkiy so‘zlarning barcha o‘rinlarida uchraydi, qattiq talaffuzli unli va undoshlar bilan birga keladi: *ıdmıs* (KT, kch, 7) *yuborgan; yışg‘aru* (Tonj, 15) – *o‘rmonga; yıta* (Irbq, 21) – *yilda, sıg‘ıt* (Suvr, 5) – *yig‘i; ınanchsız* (QBN, 30 b) – *ınonchsız; ısrıdı* (MK, 1, 188) – *qopdı; çıqar* (HH, 9) – *chiqar; qırıq* (O‘n, 11) – *qırq; yarlıqı* (Rabg‘., 100 a) – *yorlig‘i*. Eski turkiy til yozma manbalarida o‘zlashgan so‘zlar tarkibidagi *ı* unlisi turkiy til qonunlariga moslashib *i* tovushiga yaqin talaffuz qilish hollari uchraydi: *ıbadat* (HH, 199) – *ibodat, axır* (XSH, 85 a) – *oxır; batıl* (NF, 10 b) – *botıl* kabi. *I* unlisi eski o‘zbek tili yozma manbalarida qattiq aytiluvchi turkiy so‘zlarda saqlangan: *qın* (Lutf., 160 a); *qaysı* (Nav., MQ, 133); *qırq* (Nav., FSH, 207). *I* hamda *i* tovushlarida vazn talabi, tarixiy dialektal xususiyatlar orqali birikuv hodisasi yuz berib, o‘zlashgan so‘zlarda oraliq talaffuz paydo bo‘la boshlagan: *tari qat//tariqat, haqı qat//haqiqat, ılhām//ilhām, ıltıjā//iltijā, ısbāt//ısbāt* kabi. Shuningdek, ma‘no farqlash, vazn talabiga rioya qilish uchun *ı* unlisining cho‘ziqroq *ı://i:* variantlari hosil bo‘lgan: *tari q//tari;q; ya:rı//yari; xalı//xalı; qın//qı:n* kabi.

Hozirgi o‘zbek tili shevalarida qattiq aytiluvchi *t* unlisi *turnaq*, *qattiq*, *qıynaq*, *yatiq*, *tıqın*, *yaqın*, *qıl*, *qıyıq* kabi so‘zlarda saqlangan. O‘zbek adabiy tilida ham *t* unlisi turkiy so‘zlar tarkibidagi *q*, *g*, *x* undoshlari bilan yondosh kelganda qattiq talaffuz qilinadi, boshqa holatlarda *t* tovushining oraliq talaffuzi qo‘llanadi.

*I* unlisi o‘rxun va uyg‘ur yozuvlarida esa maxsus harflari orqali ifodalangan, arab yozuvidagi yozma obidalarda alifyo (ﻍ), yo (ﻍ), ba‘zan alif kasra orqali bitilgan. Bu old qator lablanmagan tor tovush, yumshoq aytiluvchi turkiy so‘zlarning barcha o‘rinlarida keladi: *ichraki* (KT, kt, 2) – *qaram*; *bilsär* (Toj, 6) – *bilsa*; (Manx, 42) – *tarbiyaladik*; *iglä* (Suvt, 4) – *kasal bo‘l*; *böri* (Irbq, 40) – *bo‘ri*; *isig* (QBN, 25 a) – *issiq*; *ichmāk* (MK, 1, 127) – *bir turli po‘stin*; *bir* (HH, 7) – *bir*; *igtilämäklik* (Tf, 17 b) – *tarbiyalash*; *tilä* (MN, 291 b) *tila*; *bildi* (Dahn, 80), *bizniñ* (BN, 177), *birigä* (Nav., HA, 6); *tilini* (Sh. tar., 14).

Tarkibida *k*, *g* tovushlari qo‘llangan o‘zlashgan so‘zlarda *-i* unlisi yumshoq aytilishga moyil bo‘lgan: *kibr* (HH, 145) – *kibr*; *ikräm* (NF, 56 a) – *ikrom*; *kilid* (NF, 124 b) – *kalit*.

O‘zbek tili shevalarida *i* unlisi *ilgäk*, *biläk*, *tiläk*, *ildiz*, *ilik*, *tikän* kabi so‘zlarda yumshoq talaffuzini saqlagan. Bir guruh o‘zlashgan so‘zlarning barcha holatlarida *i* unlisi oraliq holatida talaffuz qilingan: *insan* // *ınsan*; *ilaj* // *ıljaj*; *hisab* // *hısab*; *injener* // *ınjener*; *instruktor* // *ınstruktor* kabi.

## Undoshlar

O‘rxun-Enasoy yozma manbalarida bir guruh undoshlar til orqa hamda til oldi qator variantlari alohida harflar bilan ifodalangan. Shuning uchun ular quyidagicha harfiy ifoda bilan beriladi: *b* (1), *b* (2), *g*, *d* (1), *d* (2), *z*, *k*, *q*, *g*, *p*, *m*, *n* (1), *n* (2), *l* (1), *l* (2), *r* (1), *r* (2), *y* (1), *y* (2), *s* (1), *s* (2), *t* (1), *t* (2), *ş*, *x*, *ch*, *s*, *nt*, *nch*, *lt*.

Eski turkiy til yozma manbalarida quyidagi undosh tovushlar uchraydi: *b*, *w*, *v*, *d*, *g*, *z*, *d*, *k*, *q*, *g*, *m*, *n*, *y*, *j*, *p*, *s*, *l*, *r*, *y*, *s*, *t*, *ş*, *ch*, *j*, *h*, *x*, *f*.

Eski o‘zbek tili yozma manbalarida esa tubandagi undosh to-

vushlar bor: *b, v, d, g, z, d, k, q, g', m, n, η, j, p, l, r, y, s, t, s, ch, j, h, x, f*. Ko'rsatilgan yozma manbalar tiliga arab, fors-tojik so'zlari o'zlashgan, bu so'zlar tarkibidagi undosh tovushlar turkiy til qonunlariga moslashgan.

### Jarangsiz undoshlar

*p* undoshi o'rxun va uyg'ur yozuvlarida maxsus harflari bilan yozilgan, arab xati bilan bitilgan manbalarda *pe* ( پ ) harfi orqali ifodalangan. Bu jarangsiz portlovchi lab-lab tovush, turkiy so'zlarning barcha holatlarida uchraydi: *qapig'qa* (KT, kt, 4) – *qopqaga*; *kälipän* (KT, kch, 11) – *kelib*; *qopmish* (Toj, 17) – *turgan*; *alp* (Toj, 10) – *alp*; *push* (Suvt, 622) – *achchiqlan*; *qop* (KT, kt, 9) – *ko'p*. Eski turkiy yozma manbalarida ham *p* tovushi talaffuz, holati jihatdan qadimgi turkiy tildan farqsiz: *pusug'chi* (QBN, 46 b) – *pisuvchi*; *tapa* (Tf, 97 b) – *tomon*. Shuningdek, ko'rsatilgan davr yozma manbalarida o'zlashgan so'zlarda ham *p* undoshi bor: *pak* (Tf, 88 a) – *pok*; *pand* (HH., 147) – *pand*. Eski va hozirgi o'zbek tilida ham *p* undoshi sifat, holat jihatdan o'zgar-magan.

*T* undoshi O'rxun-Enasoy yozma manbalarida qattiq aytiluvchi va yumshoq talaffuzli so'zlarda maxsus harf orqali ifodalangan; qadimgi uyg'ur yozuvida esa qattiq, yumshoq *t* undoshi uchun bir xildagi belgilar qo'llangan; arab yozuvidagi manbalarda esa ( ت ) *te*, ba'zan ( ط ) itqi orqali ifodalangan, jarangsiz portlovchi tovush, turkiy so'zlarning barcha holatlarida uchraydi, ayniqsa qadimgi turkiy tilda jarangli hamda sonorlar bilan yondosh kelishi xarakterli: *lt, nt, rt, mt, td, tl, tm* kabi. *og'linta* (KT, kch, 1) – *avlodidan*; *atlig'*, (Toj, 4) – *otliq*; *tort* (KT, kch, 2) – *to'rt* (KT, kch, 2), *ertim* (Yen, 1, 2) – *edim*; *yultuz* (Xns, 10) – *yulduz*.

Eski turkiy tilda ham *t* undoshining qattiq, yumshoq talaffuzi saqlansa ham, arab yozuvida bir xil belgi ( ت ) bilan yozilgan; *t* undoshi turkiy so'zlarda, jarangli hamda sonorlar bilan yondosh kelish (*nt, lt, rt, mt yoki tn, tl, tr, tm*) hollari qisman saqlangan.

Eski o'zbek tili yozma manbalarida *t* undoshining talaffuzi va holati eski turkiy tildan farqlanmaydi, hozirgi o'zbek adabiy tilida

**t** undoshi holat jihatdan eski o'zbek tilidan farqlanmasa ham, talaffuzda qattiq, yumshoqlik birikuv (konvergensiya) hodisasiga uchragan.

**S** undoshi O'rxun-Enasoy yozma manbalarida qalin va ingichka; qadimgi uyg'ur yozuvida maxsus harf orqali ifodalangan; arab yozuvidagi manbalarda esa sin (س) bilan yozilgan; jarangsiz sirg'aluvchi tovush: *batsıq* (KT, kt, 2) – *g'arb, sünüsdimiz* (Toñ, 16) – *urishdik; turgesh* (Toñ, 21) – geogr. nom; *sab* (KT, kt, 2) – *so'z, kengash*.

Eski turkiy, eski o'zbek tili yozma obidalarida ham **s** undoshi-ning talaffuz holat xususiyati o'zgarmagan: *sozlä* (QBN, 44 a) – *so'zla; ısig'* (O'n, 33) – *issiq; qısqa* (Tf, 122 b) – *qisqa; yas* (MK, III, 174) – *ziyon, ulusu* (NAL, 546); *sekiz* (Nav., HM, 9). Sin (س), sod (ص), sa (س) undoshlari o'zlashgan so'zlarda uchrasa ham turkiy **s** orqali talaffuz qilingan: *salam* (QBN, 8 b) – *salom; sim* (HH, 121) – *kumush; xasta* (TF, 114 b) – *xasta; muxlis* (BAL, 91); *sanā* (NAL, 546).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida **s** undoshi holati jihatdan yozma manbalar tilidan farqlanmaydi, talaffuz tomondan qattiq va yumshoqlikka nisbatan o'zgargan, o'zbek tilining singarmonizmli shevalarida esa ohangdoshlik qonuniga ko'ra kombinator variant-larga ega.

**Q** undoshi o'rxun va uyg'ur yozuvlarida maxsus harflar bilan yozilgan, arab yozuvidagi manbalarda qof orqali ifodalangan, jarangsiz portlovchi, chuqur tilorqa tovush, turkiy so'zlarning barcha holatida qo'llangan; qattiq aytiluvchi unli, undoshlar va uyg'unlashuvchi undoshlar bilan birga uchraydi: *qag'an* (KT, kch, 1) – *xoqon; toquz* (KT, kch, 3) – *to'qqiz, alqıntı* (Toñ, 3) – *surildi; qorqmısh* (Irbq, 3) – *qo'rqan; yablaq* (Irbq, 14) – *juda; bashqundılar* (Suvr, 17) – o'rgandilar.

Eski turkiy, eski va hozirgi o'zbek tillarida **q** undoshi pozitsiyasi, talaffuzi jihatdan o'zgarmagan.

**K** undoshi o'rxun va uyg'ur yozuvlarida maxsus harflar, arab yozuvidagi yozma manbalarda kof harfi bilan ifodalangan. Bu jarangsiz, portlovchi sayoz tilorqa tovush, yumshoq aytiluvchi

turkiy soʻzlarning barcha holatida uchraydi; *k* undoshi jarangli undoshlar, sonorlar hamda jarangsiz tovushlar bilan yondosh kelgan: *tükäti* (KTM, 1) – *tugal*; *türk* (KT, kch, 3) – *turk*; *älimkä* (Yen, 2) – *elimga*; *ichüqdük* (Toñ, 3) – *qaram boʻlgan*; *kolkä* (Irbq, 33) – *koʻlga*; *kün* (suvr, 5) – *kun* (sutka); *ichkü* (Suvr, 5) – *ichimlik*; *yäkkä* (Manx, 64) – *shaytonga*.

Eski turkiy, eski va hozirgi oʻzbek tillarida ham *k* undoshi talaffuz, holat jihatdan oʻzgarmagan.

*Ch* undoshi oʻrxun xatida uygʻur yozuvida maxsus harflar bilan yozilgan, arab yozuvidagi manbalarda chim ( چ ) orqali ifodalangan; affrikat, jarangsiz, qorishiq tovush; turkiy soʻzlarning barcha holatlarida uchraydi, barcha unli, undoshlar bilan yondosh keladi: *chigʻan* (KT, kch, 10) – *yoʻqsil*; *yärchi* (Toñ, 23) – *yoʻl koʻrsatuvchi*; *igʻachqa* (Irbq, 19) – *yogʻochga*; *uchuq* (Toñ, 8) – *yirtqich qush*; *chogʻluq* (Suvr, 607) – *choʻgʻli*; *üch* (KT, kch, 4) – *uch* (son).

Keyingi davrlarda *ch* undoshi talaffuz va pozitsiya jihatdan oʻzgarmagan.

*Sh* undoshi oʻrxun yozuvida, uygʻur xatida maxsus harflar orqali yozilgan, arab xati bilan bitilgan manbalarda shin ( ش ) orqali ifodalangan, jarangsiz sirgʻaluvchi tovush, qattiq, yumshoq aytiluvchi turkiy soʻzlarning barcha holatida uchraydi, tanglay ohangdoshligiga nisbatan shaklan oraliq undoshdir: *shad* (KT, kch, 17) – *shad* (mansab); *ashsiz* (KT, kch, 26) – *ohsiz*; *tashra* (KT, kch, 26) – *toshida*; *örtänmish* (Irbq, 14) – *oʻrtangan*; *bashu nqi* (Suvr, 11) – *oldingi*. *Sh* undoshi sono: hamda jarangli tovushlar bilan birga kelib undosh tovushlar birikmasini hosil qilgan: *qachmish* (Msh, 3) – *qochdi*, *bashda* (Moʻgʻ, 25) – *choʻqqida*; *yimshaq* (KT, kch, 5) – *yumshoq*.

Keyingi davrlarda ham *sh* undoshi talaffuz, holati jihatdan farqlanmagan.

*X* undoshi qadimgi uygʻur yozma manbalarida ayrim turkiy soʻzlarning baʼzi oʻrinlarida uchraydi, asosan, oʻzlashgan soʻzlar tarkibida: maxsus belgi bilan ifodalangan, jarangsiz boʻgʻiz tovush, *q*, *gʻ* undoshlarining fonetik oʻzgarishga uchrashi orqali paydo

bo'lgan, turkiy tillar uchun yangi tovush, turkiy so'zlarning oxirida, o'zlashgan so'zlarning o'z qonunlariga muvofiq holda uchraydi: *saqi nti x* (Manx, 6) – *o'ylagan*. O'zlashgan so'zlar: *Xiradis* (Xrs, 2) – *Iso unvoni*; *Msixa* (Xrs, 14) – *Iso unvoni*; *burqan* (Manx, 66) > *burxan* (Manx, 58) – *but* kabi. Eski turkiy til yozma manba *x* undoshining qo'llanishi kengayib, qattiq talaffuzli turkiy so'zlarning anlaut, inlaut, ikki unli orasida uchray boshlagan: *xayu* (MK, III, 237) – *qaysi*; *xanda* (MK, III, 238) – *qayerda*; *xam* (Tf, 57 a) – *shaman*; *xali* (HH, 113) – *agar*; *yaxshu* (QBN, 1 b) – *yaxshi*; *oxshag'* (MK, I, 136) – *o'xshash*, *gulxaq* (MK, I, 364) – *quloq*; *axi* (HH, 130) – *saxiy*. Shuningdek, o'zlashgan so'zlar tarkibida ham *x* undoshi mavjud: *xabar* (Tf, 18 b) – *xabar*; *xana* (Tf, 143 b) – *xona*; *xarj* (Rabg'., 24 b) – *xarj*.

Eski o'zbek tili yozma manbalarida *x* undoshining talaffuzi o'zgarmagan va turkiy so'zlarning boshi, o'rtasi, ba'zan oxirgi holatlarida keladi: *axtar* (Lutf., 162 b); *uyxisindin* (Lutf., 204 b); *xan* (SHN, 29); *yaxshu* (Nav., HA, 4); *saxlasa* (BN, 63); *choh* (Furq., I, 99). O'zlashgan so'zlar tarkibida ham *x* undoshi uchraydi: *xali* (Lutf, 162 a), *xar* (Bob., Muxt, 154); *xilafat* (Nav., MQ, 2); *xitā b* (Nav., LT, 97).

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *x* undoshi turkiy hamda o'zlashgan so'zlarning barcha holatlarida mavjud

*H* undoshi eski turkiy va eski o'zbek tili yozma manbalarida hoyi havvaz (  $\Delta$  ), hoyi xuti (  $\zeta$  ) orqali ifodalangan, jarangsiz bo'g'iz tovushi, ba'zi qattiq, yumshoq o'zakli turkiy so'zlarning boshida paydo bo'lgan; XI asr boshlarida *h* undoshining paydo bo'lishi tarixiy-qabilaviy til hodisasi sifatida sodir bo'lgan; turkiy til uchun yangi tovush, shunga ko'ra, oraliq tovush tarzida talaffuz qilingan: *hata* (MK, I, 68) – *ota*; *hana* (MK, I, 68) – *ona*; *hech-hech* (MK, II, 326) – *undov so'z*. O'zlashgan so'zlarning ma'lum holatlarida ham *h* undoshi uchraydi: *rahat* (QBN, 8 b) – *rohat*; *ilaha* (QBN, 9 a) – *iloha*; *ham* (HH, 9) – *ham*. *Ibrahim* (Rabg'., 25 a) – *Ibrohim*. Eski o'zbek tili yozma manbalarida ham bir qator yumshoq aytiluvchi turkiy so'zlarning boshida *h* undoshi so'z boshida iste'mol etilgan: *hidlik* (Sakk., 56); *höküz*

(Furq., II, 15). Bu misollarga qaraganda eski o‘zbek tili davrida **h** undoshi turkiy so‘zlarda yumshoq talaffuz etilishidan darak beradi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham **h** undoshi oraliq talaffuz qilinadi.

**F** undoshi fo (ف) harfi orqali ifodalangan, lab-lab, jarangsiz spirant tovush, eski turkiy til yozma manbalarida o‘zlashgan so‘zlar tarkibida barcha holatlarda uchraydi: *fazl* (HH, II) – *fazl*; *safiya* (HH, 71) – *ahmoq*; *tavfiq* (Rabg‘, 7 a) – *ko‘mak*; *farq* (Tf, 48 a) – *farq*; *faylasuf* (QBN, 114 a) – *faylasuf*. Eski o‘zbek tili davrida ham **f** tovushi o‘zlashgan so‘zlar tarkibida, ba‘zan turkiy so‘zlar tarkibida ham keladi: *tufraq* (Lutf., 26 b), *falakiyat* (Nav., HA, II); *iltifat* (Lutf., 160 b); *dilfikar* (Bob., Muxt, 159); *safa* (Nav., LT, 98). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham o‘zlashgan so‘zlar tarkibida uchraydi, o‘zbek tili shevalarida jarangsiz portlovchi **p** tovushiga yaqin talaffuz qilinadi.

### Jarangli undoshlar

**B** undoshi o‘rxun yozma manbalarida tanglay uyg‘unligiga ko‘ra, qattiq aytiluvchi so‘zlar uchun **b**, yumshoq talaffuzli so‘zlarda maxsus belgilar, qadimgi uyg‘ur yozma manbalarida ham maxsus harf qo‘llangan; arab yozuvidagi manbalarda be (ب) harfi bilan ifodalangan, lab-lab jarangli portlovchi tovush. **B** undoshi turkiy so‘zlarning xarakteriga ko‘ra, unli, undosh tovushlar bilan yondosh kelgan: *budunim* (KT, kch, 1) – *elim*, *sabi* (KT, kch, 5) – *so‘zi*; *baglär* (KT, kch, 2) – *beklar*; *butlug‘* (Manx, 33) – *oyoqli*; *tobün* (Suvr, 8) – *quyi*; *kobrük* (Suvr, 16) – *ko‘prik*.

Eski turkiy, eski va hozirgi o‘zbek tillarida ham **b** undoshi talaffuz va holati tomondan o‘zgarishga uchramagan.

**W** undoshi qadimgi turkiy tili yozma manbalarida iste‘mol etilgan, maxsus belgisi orqali ifodalangan, arab yozuvidagi manbalarda (و) harflari orqali berilgan. Bu jarangli lab-tish tovushi, **b**, **g‘**, **g** undoshlarining fonetik o‘zgarishi orqali paydo bo‘lgan, turkiy so‘zlar o‘rtasi, oxirida uchraydi, X–XIV asrlar uchun xarakterli undosh: *saw* (Manx, 45) – *so‘z*; *owkasi* (Xrs, 72) – *achchig‘i*; *aw* (Suvr, 4) – *uy*; *sawgülig* (Suvr, 616) – *sevgili*; *suwin* (Suvr, 617) – *suvini*. Eski turkiy til yozma manbalarida

lab-tish -w undoshining turkiy soʻzlarda uchrashi kengaygan: *yawuz* (QBN, 126 b) – *yovuz*; *tewsi* (MK, 1, 399) – *dasturxon*; *ewrüsä* (Tf, 82 a) – *oʻgirilsa*; *ew* (MK, 1, 73) – *uy*; *suw* (XIII, 24) – *suv*; *tewä* (Rabgʻ, 31 a) – *tuya*; *tawuq* (NF, 428) – *tovuq*.

V undoshi eski turkiy til yozma manbalarida qoʻllana boshlagan, arab yozuvidagi manbalarda vov (و) orqali, uygʻur yozuvida (و) belgisi bilan ifodalangan, jarangli lab-lab tovush, turkiy soʻzlarning oʻrtasi va oxirida uchraydi. Mahmud Koshgʻariyning koʻrsatishicha, v undoshi dastlab oʻgʻuz qabila tilida paydo boʻlgan. V undoshi *b*, *w*, *gʻ*, *g* tovushlarining fonetik oʻzgarishi orqali urchigan, turkiy soʻzlarning tabiatiga koʻra talaffuz qilingan: *yalavach* (QBN, 100 a) – *elchi*; *uvut* (MK, I, III) – *uyat*; *qovdilar* (Rabgʻ., 7 b) – *quvdilar*; *suv* (Tf, 62 b) – *suv*; *tavar* (HH, 93) – *tovar*. Shu bilan birga, eski turkiy til yozma manbalariga oʻzlashgan soʻzlar tarkibida v undoshi uchraydi: *vafa* (HH, 194) – *vafo*; *saval* (Rabgʻ, 4 a) – *savol*; *javab* (Rabgʻ, 6 a) – *javob*. Eski oʻzbek tili yozma manbalarida ham v undoshi talaffuz, holat jihatdan farqlanmaydi: *avuch* (Lutf., 159 b); *suv* (Lutf., 166 a); *biräv* (Nav., LT, 67); *chavchi* (Yaqin, 314 b); *kivüräli* (SHN, 33). Hozirgi oʻzbek tilining singarmonizmli shevalarida ham lab-lab v undoshi bir qator soʻzlarda maʼlum darajada qattiq-yumshoqlik uygʻunligiga rioya qilgan. Oʻzbek adabiy tilida esa v undoshi turkiy, oʻzlashgan soʻzlarda birikuv hodisasiga uchragan.

Gʻ undoshi oʻrxun va uygʻur yozuvida maxsus harflari, arab yozuvidagi manbalarda gʻayn (غ) harfi orqali ifodalangan. Bu jarangli chuqur tilorqa, sirgʻaluvchi tovush; qattiq aytiluvchi turkiy soʻzlarning inlaut, auslaut pozitsiyasida kelgan. Gʻ undoshi sonor, jarangli, jarangsiz undoshlar hamda orqa qator unlilar bilan yondosh holda uchraydi: *yagʻutr* (KT, kt, 5) – *yaqinlashtiradi*; *yagʻru* (KT, kt, 5) – *yaqin*; *qapigʻqa* (KT, kch, 8) – *qopqaga*; *bogʻzi* (Tonj, 8) – *boʻgʻzi*; *yadagʻ* (Tonj, 4) – *yayov*; *sıgʻta* (Suvr, 620) – *yigʻla*. Eski turkiy va eski oʻzbek tillarida ham gʻ undoshi talaffuz, holat jihatdan qadimgi turkiy til davridan farqlanmaydi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida gʻ talaffuz, holat jihatdan qadimgi turkiy til davridan farqlanmaydi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida gʻ



undoshi ba'zan turkiy so'zlarning boshida ham uchraydi: *qaz* > *g'oz*; *qor* > *g'or* (*qo'r* > *g'o'r*), *g'ijim*.

**G** undoshi o'rxun va uyg'ur xatida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda kof orqali ifodalangan, jarangli sirg'aluvchi sayoz tilorqa tovush, yumshoq talaffuz qilinuvchi so'zlarning o'rtasi va oxirida uchraydi. Sonor, jarangli, jarangsiz undoshlar hamda old qator unlilar bilan birga keladi: *bängü* (KT, kt, 11) – *mangu*; *ärig* (KT, kt, 13) – *bekat*; *bogü* (KT, kch, 3) – *dono*; *üchägü* (Toj, 12) – *uchovi*; *otügkä* (Irbq, 29) – *ibodatga*; *tägüktä* (Suvr, 6) – *yetganda*.

Eski turkiy va eski o'zbek tillarida ham – *g* undoshining talaffuz xususiyati o'zgarmagan, lekin o'zlashgan so'zlarning boshida ham uchraydi: *gohür* (HH, 215), *güzaf* (Tf, 30 b).

**D** undoshi o'rxun yozuvida yumshoq so'zlarda qattiq so'zlarda maxsus harflari, arab yozuvidagi manbalarda dol ( د ) orqali ifodalangan. Bu jarangli, portlovchi tovush, turkiy so'zlarning inlaut pozitsiyasida, eski turkiy, eski o'zbek tili yozma obidalarida qisman so'z boshi va oxirida uchraydi: *büdü* (KT, kch, 11) – *xalq*; *buluñdag'ı* (KT, kch, 2) – *tomondagi*; *bahqdaqı* (KT, kch, 12) – *shahardagi*; *bod* (Toj, 4) – *bo'y*; *adg'ır* (Irbq, 86) – *ayg'ır*; *odkä* (KT, kch, 1) – *taxtga*; *oddü* (Suvr, 7) – *paytda*.

Eski turkiy til yozma manbalarida ham *d* undoshi qattiq, yumshoq talaffuzi saqlangan, holati jihatdan sonor va jarangli undoshlar bilan yondosh kelishi kengaygan: *dewä* (MK, III, 245) – *tuya*; *edük* (QBN, 32 a) – *qimmatli tosh*; *deñiz* (HH, 194) – *dengiz*; *dam* (Tf, 38 b) – *devor*; *kökdin* (Rabg', 3 a) – *ko'kdan*; *and* (Tf, 58 a) – *ond*; *süd* (Tf, 28 a) – *sut*. Bu davr yozma manbalariga o'zlashgan so'zlar tarkibida ham *d* tovushi uchraydi: *dost* (Tf, 88 b) – *do'st*; *dastur* (Rabg', 24 a) – *ruxsat*; *xushnud* (Nf, 85) – *xushnud*; *dard* (MN, 298 b) – *dard*.

Eski o'zbek tili davrida ham *d* undoshi talaffuz jihatdan o'zgarishga uchramagan, qarluq, chigil qabila tiliga xos belgilar ma'lum darajada kuchaygan, shuningdek, o'zlashgan so'zlar tarkibida ham *d* undoshi mavjud: *dag'ı* (Nav., FSH, 192); *deb* (Nav., FSH, 214); *dudaqın* (Lutf., 169 a); *anda* (SHN, 4); *öd* (Sakk,

434); *ajdād* (Nav., FSH, 84); *faryād* (Lutf., 225 b); *dil* (Bob., Muxt, 174); *darvish* (Nav., LT, 86).

*d* undoshi eski turkiy til davriga oid arab yozuvidagi manbalarda zol ( ذ ) orqali, uyg'ur yozuvida esa maxsus ʻ belgisi bilan ifodalangan, jarangli tish-tanglay tovushi, turkiy soʻzlarning xarakteriga koʻra, soʻz oʻrtasi va oxirida keladi, bu undosh *d* tovushi asosida paydo boʻlgan, XI—XIV asr turkiy yozma manbalar tili uchun xosdir: *kükdiz* (QBN, 97 a) – *saqla*; *badram* (MK, 1, 227) – *bayram*; *budı* (MK, III, 443) – *sovuq yedi*; *edzgüliü* (Tf, 3 a) – *ezgulik*; *bod* (MK, III, 132) – *boʻy*.

Eski oʻzbek tili yozma manbalarida *d* undoshi oʻzgarishga uchrab, *z*, *y* (*z > y*) undoshlariga oʻtgan.

*Z* undoshi qadimgi turkiy yozma manbalarida maxsus belgilari orqali ifodalangan, jarangli, sirgʻaluvchi tovush, turkiy soʻzlarning oʻrtasi, oxirida mavjud, shaklan uygʻunlashuvchi, tovushlar ohangdoshligiga koʻra talaffuzda farqlangan: *azu* (KT, kch, 10) – *ammo*; *tüz* (KT, kch, 3) – *inoq*; *qazgʻanur-män* (KT, kch, 9) – *erishaman*; *ügüzkü* (Tonj, 18) – *daryoga*; *barzun* (Tonj, 31) – *borsin*; *qaz* (Suvr, 4) – *gʻoz*.

Eski turkiy til yozma manbalarida ham *z* undoshi talaffuzi hamda holati jihatdan oʻzgarmagan, *z* undoshi tish-tanglay *z* tovushi hisobiga ham kengaygan. Shuningdek, barcha unli, undosh tovushlar bilan yonma-yon qoʻllangan, *z* undoshi baʼzi turkiy soʻzlar uchraydi: *zab-zab* (MK, 1, 309) – *tez-tez*; *zaq-zaq* (MK, 1, 321) – undov soʻz; *bezän* (QBN, 10 a) – *bezan*; *kezzin* (QBN, 11 a) – *kez*; *yuztı* (MK, III, 439) – *uchirdi*; *yüz* (Rabgʻ, 2 a) – *yuz*. Oʻzlashgan soʻzlarda ham *z* undoshi qoʻllangan: *zar* (HH, 121) – *zar*; *rāz* (Tf, 14 a) – *sir*; *uzr* (Rabgʻ, 7 b) – *uzr*.

Eski oʻzbek tili yozma manbalarida *z* undoshining talaffuzi va holatida oʻzgarish yuz bermagan, turkiy soʻzlarning oʻrtasida keladi.

*J* undoshi arab yozuvidagi manbalarda jim ( ج ) harfi, uygʻur xatida esa maxsus ʻ belgisi orqali ifodalangan. Eski turkiy til yozma manbalarida oʻzlashgan soʻzlar tarkibida uchraydi, jarangli, affrikat tovush: *jafā* (QBN, 32 a) – *jafo*; *hajīb* (QBN, 24 b) – *hojib*; *ranj* (HH, 232) – *ranj*; *jādu* (Tf, 38 b) – *jodu*; *javāb* (Rabgʻ, 6 a) – *javob*. Eski oʻzbek tili davrida ham *j* undoshi oʻzlashgan soʻzla-

riga xos: *jahān* (Nav., HA, 48); *jan* (III. Tar, 7); *ranj* (Nav., FSH, 85); *juldur* (Muq, I, 51). Shuningdek, turkiy soʻzlarda taqlidiyat qonuni asosida affrikat **ch** undoshi *j*(چ) tovushiga oʻtgan: *jar* (NAL, 221); *jarchi* (NAL, 222); *jiba* (NAL, 224); *jilav* (NAL, 225) kabi.

Hozirgi oʻzbek tilining jilovchi shevalarida *y* oʻrnida, shuningdek, adabiy tilda ham **j** undoshi *jarchi*, *jar*, *jingalak* kabi soʻzlarda uchraydi.

**J**undoshi qadimgi uygʻur yozma manbalarida oʻzlashgan soʻzlarda maxsus belgi, arab yozuvidagi manbalarda **j** (ج) harfi orqali yozilgan, jarangli, sirgʻaluvchi tovush: *ajun* (Suvr, 611) – *dunyo*. Eski turkiy til yozma manbalarida taqlidiyat qonuniga koʻra, **j** tovushi turkiy soʻzlarning boshida, oʻrtasida, oxirida paydo boʻlgan: *jagladi* (MK, III, 388) – *sharilladi*; *qorujin* (MK, I, 469) – *qoʻrgʻoshin*; *chojüldi* (MK, II, 151) – *choʻzildi*; *erinj* (MK, I, 152) – *farovonlik*. Oʻzlashgan soʻzlarda: *ajdaha* (Tf, 30 a) // *ajdarhā* (Tf, 30 b) – *ajdar* kabi. Eski oʻzbek tili davrida ham **j** undoshi, asosan, oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi: *mujgān* (NAL, 404); *ajdahā* (Nav., CHD, 91 b); *gajdum* (NAL, 154); *vajgun* (Furq., II, 165).

Hozirgi oʻzbek tilida ham **j** undoshi, asosan, *mujgon*, *ajdar*, *jurnal*, *ekipaj*, *montaj* kabi oʻzlashgan soʻzlarda uchraydi.

## Sonorlar

Qadimgi turkiy hamda eski turkiy til yozma manbalarida **y**, **l**, **r**, **m**, **n**, **ŋ** sonor tovushlari qoʻllangan.

**Y**sonori Oʻrxun-Enasoy yozma manbalarida soʻzlarning qattiq-yumshoqlik xususiyatiga koʻra **q**, qadimgi uygʻur yozuvida > belgilari, arab yozuvidagi manbalarda چ orqali ifodalangan, jarangli sirgʻaluvchi tovush, turkiy soʻzlarning barcha holatida mavjud, **y** sonori oʻzining xarakteriga koʻra, qattiq, yumshoq aytiluvchi unli, undoshlar bilan yondosh uchraydi: *yāmā* (KT, kch, 3) – *yana*; *yuyqa* (Toʻj, 13) – *nozik*; *bay* (KT, kt, 10) – *boy*; *aygʻuchisi* (Toʻj, 21) – *kengashchisi*; *buyruqi* (Sujd, 3) – *buyrugʻi*; *birāyā* (Toʻj, 7) – *janub*; *aytuqta* (Suvr, 10) – *aytganda*; *ayigʻ* (Xns, 67) – *yovuz*.

Keyingi davrlarda ham **y** sonorining artikulatsiyasi, pozitsiyasi oʻzgarmagan.

*L* sonori O'rxun-Enasoy yozma manbalarida so'zlarning ohangdoshligiga ko'ra, qadimgi uyg'ur yozuvi obidalarida maxsus belgilar, arab yozuvidagi manbalarda lom ( ل ) harfi orqali berilgan, *I* sonori sirg'aluvchi til yon tovush; turkiy so'zlarning xarakteriga ko'ra, so'z boshida uchramaydi, o'rtasida va oxirida mavjud: *olurtim* (KT, kch, 1) – *o'tirdim*; *altim* (Mo'g', 24) – *oldim*, *bolg'aq* (Mo'g', 29) – *qo'zg'olon*; *alp* (KT, kch, 7) – *alp*; *iltä* (KT, kch, 3) – *elda*; *ärklig* (Toj, 13) – *hukmron*; *yig'ilmush* (Suvr, 5) – *yig'ilgan*. Eski turkiy til yozma manbalarida *I* undoshining talaffuz xususiyati o'zgarishga uchramagan, ayrim so'zlarda *I* sonori so'z boshida qo'llangan: *yel+achin>yelachin>lachin* (MK, 1, 388) – *lochin*; *yalag'an>lag'un* (MK, III, 258) – *yog'och tovoq*; *ala* (MK, 1, 110) – *ola*; *sozlä* (QBN, 30 a) – *so'zla*; *tügäl* (HH, 40) – *tugal*; *og'ul* (Rabg', 25 a) – *o'g'il*. Ko'rsatilgan davr yozma obidalarga o'zlashgan so'zlar tarkibida ham *I* undoshi uchraydi: *lashkar* (Tf, 22 b) – *lashkar*; *a'qil* (HH, 24) – *aql*; *xislat* (Rabg', 11 b) – *xislat*.

*L* sonori eski o'zbek va hozirgi o'zbek tilida ham talaffuz, holat jihatdan o'zgarishga uchramagan.

*R* sonori o'rxun guruh yozma manbalarda tanglay ohangdoshligiga ko'ra, qadimgi uyg'ur yozuvi obidalarida maxsus belgilar bilan, arab yozuvidagi manbalarda re ( ر ) harfi orqali ifodalangan; sirg'aluvchi tiloldi tovush, turkiy so'zlarning boshida uchramaydi, so'zlarning xarakteriga muvofiq, unli, undoshlar bilan birga keladi: *qurig'aru* (KT, kch, 2) – *g'arbgä*; *yirg'aru* (KT, kch, 2) – *shimolga*; *olurtim* (Mo'g', 2) – *o'tirdim*; *körti* (KT, kch, 19) – *qaradi*, *ichräki* (Manx, 34) – *qaram*; *yaltrıqlıg'* (Suvr, II) – *yaltiroq*.

*R* sonori talaffuz hamda pozitsiyasi jihatdan keyingi davrlarda ham o'zgarishsiz qolgan.

*M* sonori o'rxun va uyg'ur xatida maxsus harflar, arab yozuvidagi manbalarda mim ( م ) harfi orqali ifodalangan, sirg'aluvchi burun tovushi, turkiy so'zlarning barcha o'rinlarida uchraydi, barcha unli va undoshlar bilan yondosh kelgan: *man* (KT, kt, 11) – *men*; *almis* (KT, kch, 2) – *olgan*; *ölitmis* (Toj, 3) –

*o'ldirgan; kümüşh* (Toj, 48) – *kumush; qaqum* (Irqb, 90) – *otam; ashmişh* (Suvr, 607) – *oshgan*. Bu tovush keyingi davrlarda talaffuzi va holati jihatdan o'zgarishga uchramagan.

*N*sonori o'rxun yozuvida qattiq talaffuzli so'zlarda va yumshoq aytiluvchi so'zlarda qo'llangan, uyg'ur yozuvida maxsus harf, arab yozuvidagi manbalarda nun harfi orqali ifodalangan, sirg'aluvchi burun tovush, turkiy so'zlarning barcha o'rinlarida uchraydi: *nāñ* (KT, kt, 8) – *narsa; kün* (KT, kch, 4) – *quyosh; binip* (KT, kch, 15) – *minib; ancha* (KT, kt, 5) – *ancha; tonlig'* (Manx, 51) – *kiyimli*. Keyingi davrlarda *n* sonorining talaffuzi, holati qadimgi turkiy til davriga nisbatan o'zgarmagan.

*N*sonori o'rxun va uyg'ur xatida maxsus harflar bilan yozilgan, arab yozuvidagi manbalarda nun-u kof harflari bilan ifodalangan. Bu sirg'aluvchi burun tovushi, turkiy so'zlarning asosiy, oxirgi holatlarida keladi: *buñsüz* (KT, kch, 5) – *muñsiz; yañılsar* (KT, kch, 6) – *yanglishsa, biñ* (Toj, 14) – *miñ; oñdün* (To'n, 29) – *sharqdan; koñlünchä* (Toj, 32) – *ko'nglingcha; oñrä* (Manx, 73) – *ilgari; toñuz* (Suvr, 6) – *to'ng'iz*. Keyingi davrlarda ham *ñ* sonorining holati, talaffuzi qadimgi turkiy tilga nisbatan o'zgarmagan.

**ñ:** *añıg'* (KT, kch, 5) – *yovuz; qıtañ* (KT, kt, 4) – qabila nomi; *qoñ* (TT, 9) – *qo'y*. Eski turkiy til davrida ham *ñ* tovushi mavjud bo'lgan, bu davrda ham qattiq o'zakli so'zlarda uchraydi: *qañda* (MK, 1, 395) – *qayerda; qañda* (Tf. 136 a) – *qayerda; qoñ* (MK, III, 154) – *qo'y; chıg'añ* (MK, I, 67) – *yo'qsil*.

**ñ** tovushi eski o'zbek tili yozma manbalarida rudiment holatida uchraydi: *qañda* (Lutf., 184 b); *qañı* (Nav., FSH, 206; Bob., Muxt., 128). Hozirgi o'zbek tilida ham *qani, qanday, qancha* kabi so'zlardagi *n* undoshi *ñ* tovushining rudimenti hisoblanadi.

Eski turkiy hamda eski o'zbek tili davrlarida o'zlashgan so'zlar tarkibida ayn va hamza belgilari uchraydi, ayn va hamza talaffuzi so'z boshida aniq emas, so'z o'rtasi va oxirida bo'g'iz portlovchisi kabi talaffuz qilingan: *man'* (Nav., HA, 11); *vage'* (BN, 210); *qal'alar* (Sh. tar. 21); *jazā'* (Shohid, 80 a); *ma'vā* (Shohid, 17 a).

## Qo'sh undoshlar

Qadimgi turkiy til yozma manbalarida qo'sh undoshlar maxsus belgilar, qadimgi uyg'ur hamda arab yozuvidagi manbalarda har qaysi qorishiq undosh tovush mustaqil harflarga (l+t), (n+t), (n+ch), (n+y) ajratib berilgan. Bu qorishiq undoshlar turkiy so'zlarning inlaut va auslaut pozitsiyasida uchraydi.

*lt:* *qiltm* (KT, kch, 10) – *qildim*; *boltu* (KT, kch, 7) – *bo'ldi*; *altuzdi* (KT, kch. 38) – *oldirdi*; *yolta* (Toʻn, 16) – *yo'lda*; *boltachu* (Mo'g'. 38) – *bo'lg'usi*;

*nt:* *shantuj* (KT, kt, 3) – geogr. nom; *alqintig'* (KT, kt, 9) – *surilding*, *bunta* (KT, kt, 10) – *bu yerda*; *qanlantu* (Toʻn, 2) – *xonlik bo'ldi*; *anta* (Mo'g', 31) – *u yerda*; *käntü* (KT, kch, 23) – *o'z*; *yüküntür* (KT, kch, 15) – *yukintir*;

*nch:* *ancha* (KT, kch, 5) – *ancha*; *adınchıg'* (KT, kt, 12) – *maxsus*; *ärinch* (KT, kch, 3) – *ekan*; *torüsinchä* (KT, kch, 13) – *qonunicha*; *sanchdi* (KT, kch, 36) – *sanchdi*; *yinchä* (Toʻn, 13) – *nozık*; *unch* (Toʻn, 24) – *mumkin*, *üchinch* (Mo'g', 3) – *uchinchi*.

## FONETIK HODISALAR

### Singarmonizm

Qadimgi turkiy, eski turkiy, eski o'zbek tili singarmonizm qonuniga asoslangan, singarmonizm qonuni tanglay va lab ohangdoshlikdan iborat. Bundan tashqari, assimilatsiya hamda dissimilatsiya hodisasi orqali undoshlar ohangdoshligi ham vujudga kelgan.

Tanglay ohangdoshligi so'zlarning o'zagi yoki birinchi bo'g'inidan oxirigacha qattiq yoki yumshoq talaffuz qilish hodisasidir.

Lab ohangdoshligi esa turkiy so'zlarning birinchi bo'g'inida lablangan unli bo'lsa, shu so'zlarning keyingi holatlarida lablangan unliarning kelishidan iborat.

Undosh tovushlar garmoniyasi qadimgi turkiy til davridan eski turkiy hamda eski o'zbek tili davrlariga o'tgan sayin kengayib borgan.

Qadimgi turkiy til yozma manbalarida singarmonizm qonuni-ning qattiq-yumshoqlik ohangdoshligi to'la ustunlikka ega, lab garmoniyasi ham mavjud bo'lgan, undoshlar ohangdoshligi amalda bo'lgan.

Eski o'zbek tilining oxirgi davrlariga oid yozma manbalarda turkiy so'zlarning tarkibidagi ba'zi unli tovushlarda qattiq, yumshoq talaffuz oraliq holatga o'tishi orqali singarmonizm qonuni buzila boshlagan: *keltürg'an* (Sh. tar, 10), *yarag'lik* (Gulx., 25) – *ichma-g'um* (Furq., 1, 35), *özg'ag'a* (Furq., 1, 30).

Turkiy yozma manbalarga o'zlashgan so'zlar ko'pincha qattiq talaffuzga moyil bo'lgan: *safarg'a* (Tf, 47 a), *vafāsizlıq* (Nav., MN, 308 a), *jāning'a* (XIII, 78 a), *mavjudg'a* (Nav., MN, 5), *firaqing'a* (Nav., HA, 107), *haramıg'a* (Muq., 1, 40), *sultanıg'a* (Furq., 1, 27). Shu bilan birga, bir guruh o'zlashgan so'zlar yumshoq aytilishga moyil: *kāfirlik* (Tf, 37 b), *la'natga* (Rabg'., 5 b), *falakkä* (Lutf., 22), *pāyasigä* (Nav., MN, 5), *tavuslārgä* (Muq., 1, 44), *xastalik* (Furq., 1, 36).

### Unlilar tizimidagi fonetik hodisalar

**A, u** unlilari qadimgi turkiy, eski turkiy va eski o'zbek tili yozma manbalarida birinchi bo'g'ında moslashgan.

Eski turkiy: *anlar* (Tf, 45 b) // *unlar* (Tf, 24 b) - *ular*.

Eski o'zbek: *alar* (Nav., MQ, 19) // *ular* (Lutf., 17 b); *anlar* (Sh. tar, 5) *unlar* (Dahn, 81); *qavla* (KT, 24 b) // *quvla* (Furq., 30).

Eski turkiy yozma manbalarda ayrim o'rinlarda orqa qator **-a** hamda lablangan orqa qator o'rta keng **-o** unlilari moslashgan: *bashlag'* (MK, 1, 429) // *boshlag'* (QBN, 164 b) – *bo'sh, erkin; qawurmach* (MK, 1, 454) // *qog'urmach* (MK, 1, 454) – *qovurmoch*.

**E, o, u, ü** unlilari XI–XIV asrlarga oid ba'zi yozma manbalarda turkiy so'zlarning birinchi bo'g'inida mos holda uchraydi: *etmāk* (Tf, 99 a) // *otmāk* (MK, II, 312) – *non; erüj* (Rabg'., 25 a) // *orüj* (Rabg'., 4 a) – *oq; ew* (MK, I, 73) // *üw* (MK, 1, 109) – *uy; sech* (QBN, 34 b) // *such* (MK, II, 139) – *och; sechük* (Tf, 39 a) // *chüchüg* (Tf, 65 a) – *chuchuk*.

*E, e, ü* unililari eski o'zbek tili yozma manbalarida turkiy so'zlarning birinchi bo'g'inida moslashgan: *degül* (Nav., HA, 6) // *dügül* (Lutf., 94); *etmāk* (BAL, 173) // *otmāk* (Nav., HA, 99); *echkü* (Nal. 710) // *ochkü* (Nav., Tm, 202); *ev* (Nav., HA, 66) // *üy* (Nav., MQ, 46); *esrük* (Nav., MK, 38) // *üsruk* (NAL. 626).

*O, o* unililari eski turkiy til yozma manbalarida tarixiy dialektal hodisa sifatida asosiy holatda ba'zan moslashgan: *köp* (QBN, 193) // *qop* (MK, 1, 465) // *köp* (MK, 1, 183) – *ko'p*; *opmaq* (MK, 1, 183) // (MK, 1, 176) – *o'pmaq*; *yorg'* (Tf, 11 b) // *yörug* (Tf, 7 a) – *yo'riq*.

*U, ü* unililari mosligi ba'zan tarixiy-qabilaviy til hodisasi tarzida uchraydi: *süchüg'* (Tf, 65 a) // *süchük* (Rabg'., 4 a) – *chuchuk*; *buyurduqum* (Tf, 124 a) // *büyürmäk* (MK, III, 202) – *buyurganim*; *buyurmoq*.

*ü, i, ı* unililari mosligi ba'zan eski turkiy til yozma manbalarida tarixiy-qabilaviy til sifatida yuz bergan: *yün* (MK, 1, 465) // *yin* (MK, 1, 306) – *yung*; *ündä* (QBN, 149 a) // *indä* (QBN, 158 b) – *inda*; *ishqa* (Tf, 6 a) // *ishkä* (Tf, 28 b) – *ishga*; *bıchaq* (DTS, 104) // *bichäk* (MK, 1, 356) – *pichoq*.

### Tushish hodisasi

Qadimgi turkiy, eski turkiy yozma manbalarida orqa qator *a, u, ü, ı* unililari urg'u, prosodik, grammatik zaruratlar orqali turkiy so'zlarning boshida, oxirgi holatlarida tushish hodisasiga uchragan: *ag'ızı* (Suvr, 624) > *ag'zi* (Manx, 87) – *og'zi*, *og'zini*; *qarın* (Irbq, 10) > *qarmi* (Irbq, 10) – *qorni*; *ag'ına* (Suvr, 601) > *ag'na* (KT, 58) – *ag'ana*; *buyuruq* (KT, 1) > *buyruq* (Suvr, 3) – *mansab*; *og'ul* (KTu, 52) > *og'lı* (Toñ, 44) – *o'g'li*; *ülüg* (QBN, 53 a) > *ülgi* (QBN, 51 a) – *ulushi*; *køjülümüz* (Manx, 83, 88) > *køjliñche* (Toñ, 327) – *ko'ñlimiz*, *ko'ñlingcha*; *korüglüg* (Irbq, 27) > *kørklüg* (Suvr, 608) – *ko'rklik*; *tonja* (MK, III, 379) > *tonj* (QBN, 86 b) – *bahodir*; *qılıq* > *qılqı* (QBN, 8 b) – *qilig'i*; *tulum* (MK, 1, 221) > *tulmun* (MK, 1, 192) – *quini*; *buđun* (QBN, 82 a) > *buđı* (QBN, 44 a) – *elini*; *tatg'ı* > *tatg'ı* (HH. 53) – *totig'i*; *achıl* > *achlur* (Tf, 87 a) – *ochiladi*.



## Undoshlar tizimidagi fonetik hodisalar

Qadimgi turkiy, eski turkiy, eski o'zbek tillarida undosh tovushlarda ham fonetik hodisalar sodir bo'lgan, bir guruh fonetik hodisalar qadimgi turkiy til davriga xos, ikkinchi bir guruh fonetik hodisalar eski turkiy til yozma manbalari uchun xos; uchinchilari eski o'zbek hamda hozirgi o'zbek tiliga xos. Qadimgi turkiy, eski turkiy, eski o'zbek tillari uchun mushtarak fonetik hodisalar ham mavjud.

**Moslashuv:** *p//b*: *apa* (KT, kch, 19) // *aba* (Suvr, 614); *apa* (MK, I, 113) // *aba* (QBN, 76 a) – *ota-ona*; *avlod*; *tapan* (NAL, 611) // *taban* (NAL, 581) – *tovon*; *palchiq* (NAL, 511) // *balchiq* (Tf, 18 b) – *balchiq*, *p//m*: *tapa* (Tf, 97) > *tomon*.

**T//b**: *etmak* (MK, I, 129) // *ebmak* (MK, I, 126) – *non*.

**T//d**: *tam* (Tf, 7 b) // *dam* (Tf, 9 b) – *devor*; *ota* (SS, 6) // *oda* (Tf, 45 a) – *ota*.

**T//ch**: *chatir* (MK, I, 385) // *chachir* (MK, I, 385) – *chodir*; *alt* (Tf, 11 a) // *alch* (Tf, 135 a) – *ost*; *tashqarun* (O'N, 33) // *chashqarun* (O'N, 35) – *tashqari*; *avut* (MK, I, III) // *avuch* (Lutf., 159 b) – *hovuch*.

**T//k**: *otmak* (MK, II, 312) // *okmak* (Rabg', 81 b) – *non*.

**T//d**: *yinatti* (MK, II, 368) // *yenatti* (MK, II, 368) – *tuzaldi*, *eratti* (MK, I, 215) // *eratti* (MK, I, 215) – *erlar safiga o'tdi*; *qatg'u* (HH, 213) // *qazg'u* (QBN, 8 b) – *qayg'u*.

**T//y**: *qatg'u* (HH, 213) // *qayg'uluq* (Tf, 65 b) – *qayg'u*; *qayg'uli*; *etgü* (HH, 187) // *eygü* (Tf, 68 a) – *ezgu*; *qot* (HH, 74) // *qoy* (Rabg'. 25 a) – *qo'y* (fe'l).

**T//z**: *ketin* (HH, 179) // *kezin* (Rabg', 4 a) – *keyin*.

**T//s**: *qutqi* (MK, I, 403) // *qusqi* (QBN, 85 a) – *muloyim*.

**T//l**: *koktashdi* (MK, II, 261) // *koklashdi* (MK, II, 261) – *chirmashishdi*.

**S//z**: *bolsun* (KT, kch, II) // *bolzun* (Iraqb, 57) – *bo'lsin*, *sandiwach* (MK, I, 481) // *zanduvach* (XSH, 14 b) – *bulbul*; *a:z* (MK, III, 365) // *as* (MK, I, 109) – *po'stin*; *qaz* (MK, III, 165) // *qas* (MK, III, 365) – *po'stloq*.

**S//y:** *süch* (MK, II, 21) // *sech* (QBN, 18 b) // *yech* (QBN, 34 a) // *yech* (Tf. 143 a) – *yech*; *sig'ta* (MK, III, 291) // *yig'la* (Sh. tar, 12) – *yig'la*.

**S//ch:** *saw* (MK, I, 122) // *chaw* (MK, I, 80; QBN, 10 b) – *so'z*; *xabar*; *sech* (QBN, 18 b) // *chech* (QBN, 181 b) – *yech*; *soj* (O'N, 37) // *choj* (O'N, 41) – *chap*.

**S//d:** *is* (NAL, 280) // *yid* (HH, 209) – *hid*.

**S//sh:** *kisi* (MK, I, 318) // *kishi* (QBN, 87 a) – *xotin*; *ulus* (Tf, 6 b) // *ulush* (MK, I, 94) – *ulus*; *Santurj* (Toj, 18) // *Shanturj* (KT, kch, 3) – geogr. nom; *tas* (Suvr, 6) // *tash* (KT, kch, II) – *tosh*.

**S//l:** *ısrıq* (MK, I, 125) // *ilrük* (MK, I, 129) – *isiriq*; *astun* (MK, I, 133) // *altın* (MK, I, 133) – *ost*.

**K//g:** *yuqaru* (HH, 51) // *yügarü* (KT, kch, II; Suvr, 151) – *yuqori*.

**Q//k:** *qop* (Mo'g', HA, 12) // *köp* (MK, I, 309) – *ko'p*; *oq* (Toj, 42) // *ök* (Tf, 28 b) – *yuklama*; *aqa* (O'N, 37) // *äkä* (MK, I, 116) – *egachi*, *tug'ishganlar*; *qavaq* (Tf, 103 a) // *köväk* (BN, 93) – *kovak*.

**Q//ch:** *qaqach* (MK, II, 328) // *qachach* (MK, II, 328) – *qaqach*.

**K//d:** *edä* (Suvr, 554) // *ädä* (MK, I, 116) – *opa*.

**K//b:** *ökmäk* (Rabg', 81 b) // *ermäk* (MK, I, 126) – *non*.

**K//ch:** *ekä* (MK, I, 116) // *echä* (MK, I, 114) – *opa*.

**Ch//d:** *ikinch* (Tf, 38 a) // *ikindi* (MK, I, 158) – *ikkinchi*.

**Ch//y:** *chamg'ur* (MK, I, 425) // *yamg'ur* (MK, III, 45) – *yomg'ir*, *chug'du* (MK, I, 67) // *yug'du* (MK, I, 67) – *tuyaning uzun yungi*.

**Ch//sh:** *chag'ıladı* (MK, III, 338) // *shag'ıladı* (MK, III, 338) – *sharilladi*; *chachır* (MK, I, 385) // *chachır* (MK, I, 385) – *chodir*, *nechä* (Tf, 10 a) // *neshä* (Tf, 47 a) – *necha*; *chopan* (Sakk, 65) // *shuban* (NAL, 702) – *cho'pon*.

**Ch//z:** *qovuch* (MK, III, 178) // *qovuz* (MK, III, 178) – *duo*.

**Ch//r:** *yalawach* (MK, II, 334) // *yalawar* (MK, II, 334) – *elchi*.

**Ch//j:** *chag'ıladı* (MK, III, 338) // *jag'ıladı* (MK, III, 338) –

*sharilladi, achun* (HH, 106) // *ajun* (QBN, 10 a) – *dunyo; erinch* (MK, I, 152) // *erinj* (MK, I, 152) – *farog'at*.

**Sh//z:** *keshür* (MK, I, 405) // *kezür* (MK, I, 405) – *sabzi*.

**B//m:** *bän* (Toñ, 37) // *men* (MK, I, 325; QBN, 8 b); *ben* (MK, I, 325) // *men* (Tf, 8 b) – *men; bunj* (KT, kch, 3) // *munj* (QBN, 7) – *qayg'u; binj* (Toñ, 16) // *munj* (Tf, 136 b) – *ming; benjä* (Furq., 1, 31) // *menjä* (Lutf., GN, 8) – *o'xshat*.

**B//g':** *sub* (KT, kch, 19; Toñ, 27) // *sug'* (O'N, 13) – *suv*.

**B//f:** *burxan* (MK, I, 329; Tf, 38 a) // *furxan* (MK, I, 329) – *but; tubraq* (Sakk., 43) // *tufraq* (Nav., HA, 18) – *tuproq*.

**W//m:** *ewät* (MK, I, 85) // *emet* (MK, I, 85) – *yuklama; yawishg'u* (MK, III, 55) // *yumushg'u* (MK, III, 55) – *mevali tog' daraxti*.

**W//p:** *yavshan* (MK, III, 44) // *yapchan* (MK, III, 44) // *yavshan*.

**G'//g:** *dag'ul* (MK, III, 167) // *tegül* (MK, III, 167) – *tugul; ıstıg'* (Tf, 136 a) // *isig* (Tf, 141 b) – *issiq*.

**D//l:** *kökätti* (MK, II, 379) // *köklätti* (MK, II, 379) – *ko'klatdi; bag'dadı* (MK, III, 292) // *bag'ladı* (MK, III, 307) – *bog'ladi; qımırda* (Nav., ML, 108) – *qimirla*.

**D//g:** *idi* (Lutf., 145) // *egä* (Sh. tar, 3) – *ega*.

**L//n:** *il* (MK, I, 185) // *in* (MK, I, 276) // *in* (Rabg', 3 b) – *tush; yaldi* (MK, III, 72) // *yandı* (MK, III, 72) – *(o't) yondi*.

**J//y:** *juhud* (Nav., Tm, 205) // *yahudiy* (MK, II, 23) – *yahudiy*.

**M//n:** *ıtır* (MK, I, 120) // *ınır* (MK, I, 120) – *yorug'lik*.

**O'tish hodisasi.** **T>d:** *ti* (Toñ, 5) > *de* (QBN, 4; HH, 61) – *de; tägrä* (TT, 2) > *degrä* (Tf, 100 a) – *tevarak; tün* (KT, 6) > *dün* (Tf, 9 b) – *tun; taqi* (Suvr, 609) > *daqi* (MK, II, 227) – *yana; süt* (QBN, 211 a) > *süd* (Tf, 28 a) – *sut; qarıntash* (Sh. tar, 43) > *qarındash* (NAL, 730) – *qarindosh; telbä* (Lutf., 139) > *delbä* (Lutf., 105) – *telba*.

**S>z:** *masjid* > *mazgid* (Tf, 39 a).

**Q>g':** *yoq* (Toñ, 59) > *yog'latayın* (Toñ, 31) – *yo'qotay; qısqa* (QBN, 19 b) > *qısg'a* (QBN, 41 a) – *qisqa; chaqur* (Tf, 102 b) > *chag'ur* (Tf, 91 a) – *chaqir; aqa* (Sh. tar, 46) > *ag'a* (Gulx.,

17) – og‘a.

**Q>x:** *qag‘an* (KT, 16) > *xaqun* (QBN, 10 a) – *xoqon, qam* (QBN, 45 a) > *xam* (Tf, 57 a) – *shaman; qiz* (Toj, 40) > *xiz* (MK, III, 238 a) – *qiz; qush* (Irbq, 64) > *xush* (Tf, 39 b) – *qush; qulqaq* (MK, I, 364) > *qulxaq* (MK, I, 364) – *quloq; aqi* (MK, I, 116) > *axi* (NAL, 67) – *saxiy; choq* (Gulx., 28) > *chox* (Furq., I, 109) – *ko‘p, juda*.

**Q>v:** *taqag‘u* (MK, I, 417) // *taquq* (Sh. tar, 30) > *tavug‘* (Nav., HA, 133) – *tovuq*.

**K>g>w:** *kikür* > *kigür* (KT, kch, 23; Suvr, 12) > *kiwür* (Tf, 17 b; Rabg‘., 11 b) – *kirit*.

**K>g>y:** *kikür* > *kigür* (Uyg‘, 17; QBN, 90 b) > *kiyür* (Rabg‘., 8 a) – *kirit; eshkäk* (MK, I, 134) > *eshgäk* > *eshyäk* (MK, I, 454) – *eshak; küchäk* (QBN, 115 b) > *küchäg* > *küchäy* (QBN, 144 a) – *zilm*.

**K>sh:** *ülük* (TT, 29) // (MK, I, 93) > *ülüş* (QBN, 50 b) // (Sh. tar, 33) – *ulush*.

**K>h:** *üki* (MK, I, 175) > *ühi* (MK, I, 175) – *ukki*.

**K>j:** *özkend* (MK, I, 122) > *özjend* (MK, I, 122) – *o‘zgan*.

**B>w>v>y:** *äb* (KT, kch, 41) > *ew* (Manx, 109) > *ew* (MK, I, 73) > *ev* (MK, I, 68) > *ev* (Nav., HA, 66; Sh. tar, 8) > *üy* (Nav., HA, 34) – *uy; ab* (Kt, kch, 9) > *aw* > *av* (Tf, 26 b) – *ov; säb* (Irbq, 46) > *sew* > *sev* (MK, I, 282) – *sev; ubut* (HH, 209) > *uwut* (MK, I, 85) – *uyat; qabaq* (MK, I, 363) > *qavaq* (Tf, 103 a) – *qovoq; ebrä* (Tf, 143 a) > *ewrä* (Tf, 9 a) > *eyrä* (Tf, 7 a) – *qayta*.

**B>m:** *bu* (QBN, 48 b) > *mundaq* (Sh. tar, 36) – *bunday; kelbät* (QBN, 60 b) > *kelmät* (Nav., MK, 38) – *qomat (kelbat)*.

**W>v:** *tawar* (MK, I, 343) > *tavar* (MK, I, 343; Sh. tar, 37) – *tovar*.

**V>y:** *avmaq* (Sh. tar, 34) > *aymaq* (Sh. tar, 34) – *aymoq; evrül-mäk* (NAL, 706) > *eyrül* (Nav., Msh, 213) – *o‘girilmoq*.

**G‘<w:** *yag‘uq* (KT, 7) > *yawuq* (Rabg‘, 5 a) – *yaqin; qog‘ur-mach* (MK, I, 454) > *qawurmach* (MK, I, 454) – *qovurmoch; yalg‘adi* (MK, III, 321) > *yalwadi* (MK, III, 321) – *yaladi*.

**G‘>v:** *qag‘ut* (MK, III, 178) > *qavut* (MK, III, 178) – *yangi*

*tuqqan xotinlar ovqati; qag'un* (MK, 1, 388) > *qavun* (TAS, 113) – *qovun*.

**G' > y:** *sog'ul* (Tf, 98 b) > *soyul* (Tf, 45 b) – *qayt*.

**G' > x:** *sig'da* (MK, II, 379) > *sixta* (MK, II, 379) – *yig'la*; *og'sha* (Tf, 66 a) > *oxsha* (Rabg', 24 b) – *o'xsha*; *bag'ishla* (KT, 12 a) > *baxishla* (Furq., II, 139) – *bag'ishla*; *og'sha* (Manx, III, 18) > *oxsha* (Tf, 10 b) – *o'xsha*.

**G > y:** *yegävüz* (Tf, 70 b) – *yeymiz*; *yeyälim* (Tf, 10 b) – *yeylik*; *bөгü* (MK, III, 154) > *bөy* (MK, III, 154) – *bir turli o'rgimchak*; *yegäsi* (XSh, 1, 514) > *yeyäsi* (Tf, 64 b) – *yeydigan*.

**G > j:** *gulabchi* (XSH, 243) – *gulobchi* > *julab* (XSH, 161) – *gulob*; *Andigän* (HK, 246 a) > *Andijan* (Nav., XII, 90).

**G > v:** *birägü* (Tf, 28 b) > *biräv* (Sh.tar., 35) – *birov*; *üchägu* (Tf, 28 b) > *üchäv* (Nav., Msh, 189) – *uchov*; *küdägü* (QBN, 9 a) > *küyäv* (Muq, II, 5) – *kuyov*.

**G > y:** *iglä* (MK, 1, 283) > *iylä* (Sakk, 55) – *og'ri*, *kasallan*.

**D > d:** *qod* (Toñ, 2) > *qod* (Tf, 25 b) – *qo'y* (fe'l); *adaq* (KT, kch, 47) > *azaq* (Rabg', 24 a) – *oyoq*; *edgü* (KT, kch, 6) > *edgü* (QBN, 15 b) – *ezgu*.

**D > y:** *tod* (KTm, 8) > *toy* (Tf, 18 a) – *to'ygin*; *adaq* (Mo'g', 30) > *ayaq* (Rabg', 11 b) – *oyoq*; *ud* (O'N, 2) > *uy* (Sh. tar, 40) – *sigir*, *qoramol*.

**D > z:** *qadash* (Tf, 18 a) > *qadash* (Tf, 146 a) – *og'a-ini*; *od* (QBN, 7 b) > *öz* (MK, III, 207) – *zamon*.

**D > y:** *bedük* (MK, 1, 119) > *beyük* (Tf, 51 a) – *buyuk*; *bod* (MK, III, 132) > *boy* (Tf, 138 a) – *bo'y*; *kidiz* (MK, 1, 347) > *kiyiz* (Nav., MN, 14) – *kigiz*.

**D > y:** *yadg'uq* (MK, III, 34) > *yayg'uq* (MK, III, 35) – *baytal emchagining uchi*; *ödlä* (MK, 1, 137) > *öylä* (MK, 1, 137) – *tush payti*; *idi* (Nav., HA, 57) > *eyä* (Lutf, 149) – *ega*.

**Z > j:** *täzik* (DTS, 543) > *täjik* (QBN, 17 a) – *tojik*; *chöz* (DTS, 155) > *chöjai* (MK, III, 16) – *cho'zdi*; *ag'uz* (MK, 1, 88) > *ag'uj* (MK, 1, 88) – *og'iz* (sut mahsuloti).

**Y > g:** *eygü* (Tf, 83 a) > *egä* (Nav., HS, 84) – *ega*.

**L > sh:** *telük* (Mo'g', 12) > *teshük* (NF, 11 b) – *teshik*; *tөлäk* (Tf, 146 b) > *teshäk* (Tf, 28 a) – *to'shak*, *makon*; *kölikä* (MK,

III, 189) > *kəshigä* (MK, III, 189) – *ko'lanka, ko'shk.*

**M>n:** *payg'ambar* (Tf, 45 a) > *payg'anbar* (Tf, 46 b) – *payg'ambar; emdi* (Nav., HA, 35) – *endi.*

**R>z:** *qutur* (Suvr, 11) > *qutuz* (MK, I, 346) – *quturgan; bildürdi* (MK, II, 204) > *bildüzdü* (MK, II, 235) – *bildirdi; körtär* (Tf. 38 b) *kөztär* (Tf, 58 b) – *ko'rsat.*

**Ñ>y:** *añig'* (KT, kch, 3) > *ayig'* (Suvr, 6) – *buzilish; qoñ* (KT, kch, 12) > *qoñ* (Suvr, 6) – *qo'y (hayvon); qıtañ* (KT, kch, 5) > *qıtay* (KT, kch, 5) – *etnik nom; chıg'añ* (MK, I, 67) > *chıg'ay* (QBN, 18 a) – *yo'qsil.*

**Ñ>n:** *qañ* (Suvr, 624; MK, I, 395) > *qanda* (Lutf, 184 b) – *qayerda.*

**D>k:** *üstän* (QBN, 86 b) > *üstäk* (QBN, 76 a) – *ustun; bälüñ* (Tf, 87 b) > *belük* (Tf, 142 a) – *bo'liq.*

**D>g':** *yalñuz* (QBN, 46 a) > *yalg'uz* (Tf, 27 b) – *yolg'iz; toña* (QBN, 27 a) > *ıog'a* (QBN, 17 a) – *bahodir; yañan* (MK, III, 386) > *yag'an* (HH, 224) – *fil.*

**D>n:** *siñuq* (MK, III, 376) > *sınuq* (MK, III, 376) – *siniq; köñük* (İrqb, 87) > *kөñük* (İrqb, 88) – *ariq; otuñ* (Uyg', 118; Tf, 37 a) > *otuñ* (Tf, 38 b) – *o'tin.*

**D>g:** *kөzñü* (MK, III, 389) > *kөzgi* (Rabg', 53 a) – *ko'zgu.*

**D>y:** *kөñluk* (Nav., HA. 81) > *kөyläk.*

**Metateza hodisasi. P~r:** *tupraq* (Sakk., 21) ~ *turpaq* (Sh. tar, 7) – *tuproq; kiprik* (Amir II, 75) ~ *kirpik* (Muq., I, 77) – *kiprik.*

**T~r:** *otra* (MK, I, 196) ~ *otra* (Tf, 58, a), *otru* (MK, I, 147) > *ortu* (MK, I, 145) – *o'rtä; qutruldi* (MK, II, 272) ~ *qurtuldi* (MK, II, 271) – *qutuldi.*

**Q~r:** *aqrun* (NF, 192 b) ~ *arqun* (SS, 71) – *sekin.*

**Sh~n:** *qoshni* (MK, I, 408) ~ *qonshu* (MK, I, 408) – *qo'shni.*

**F~r:** *tufraq* (Nav., MK, 2) ~ *turfaq* (Sh. tar, 7) – *tuproq.*

**G~d:** *ag'duq* (MK, I, 125) ~ *adg'uq* (MK, I, 125) – *yot, notanish; bug'day* (MK, III, 258) ~ *budg'ay* (MK, III, 258) – *bug'doy.*

**G~A:** *qarg'ilach* (MK, I, 479) ~ *qarlıg'ach* (MK, I, 479) – *qaldirg'och.*

**G'~m:** *yag'mur* (MK, 1, 425)~ *yamg'ur* (MK, III, 45) // *chamg'ur* (MK, 1, 425) – *yomg'ir*.

**G~r:** *øgrät* (MK, 1, 260; Tf, 22 a)~ *ørgäd* (Tf, 2 a)~ *øgrät* (NAL, 717; Sakk., 24) – *o'rgat* ~ *øgrän* (Lutf, 94) – *o'rgan*.

**D~r:** *ødiräk* (Suvr, 4)~ *ørdäk* (MK, 1, 128) – *o'rdak*.

**Y~r:** *Sayram* (MK, III, 191) ~ *Saryam* (MK, III, 191) – geog. nom.

**M~r:** *samursaq* (MK, 1, 480)~ *sarmusaq* (MK, 1, 480) – *sarimsaq*.

**N~sh:** *qonshu* (NAL, 748) – *qo'shni*.

**Geminatsiya hodisasi. T>tt:** *yeti* (Tf, 52 a)>*yetti* (MK, III, 33) – *yetti*; *otuz* (Tf, 26 b) > *ottuz* (MK, 1, 159) – *o'ttiz*; *yeti* > *yetti* (Ahmad, 322 b) // (Nav., HA, 29) – *yetti*; *otuz* > *ottuz* (Sh. tar, 4) – *o'ttiz*.

**S>ss:** *esiz* (Tf, 11 a)> *essiz* (MK, 1, 160) – *yovuz*, *uyatsiz*; *ısisg'* (Tf, 136 a)>*ıssig'* (Tf, 38 b)//*isig* (Tf, 141 b)> *issig* (Tf, 38 b) – *issiq*.

**Q>qq:** *toquz*>*toqquz* (Lutf, 178; Nav., HA, 97) – *to'qqiz*.

**K>kk:** *eki* (MK, 1, 151)>*ekki* (MK, 1, 191) – *ikki*; *ekiz* > *ekviz* (MK, 1, 160) – *egiz*; *tikän* (MK, 1, 381)> *tikkän* (MK, 1, 381) – *tikan*.

**Ch>chch:** *achıg'* > *achchıg'* (Sakk., 59; Lutf, 40) // *achchi* (III. tar, 76) // *achchiq* (Gulx., 24) – *achchiq*.

**Sh>shsh:** *eshäk* (Nav., Tm, 186; Ogah, 35) > *eshshäk* (Muq., II, 63) – *eshak*; *ushaq* > *ushshaq* (Sakk., 42) – *ushoq*.

**L>ll:** *elik*>*ellik* (MK, 1, 160; Tf, 160 a) // *elli* (Tf, 99 a) – *ellik*.

**R>rr:** *arig'* (MK, 1, 95) > *arrıg'* (MK, 1, 160) – *toza*; *ıra* > *ırra* (MK, 1, 74) – *ızza*.

**Tushish hodisasi. Q>o:** *achuq* (MK, 1, 95) > *achu* (QBN, 7 b) – *ochiq*; *yazuqluq* (Tf, 60 b) > *yazuqlu* (Tf, 73 a) – *gunohkor*.

**K>o:** *ellik* (MK, 1, 160) > *elli* (Tf, 99 a) – *ellik*.

**Ch>o:** *chewrül* (QBN, 32 b)> *ewrül* (QBN, 32 b) – *o'giril*; *chumchuq* (MK, 1, 69) > *chomuq* (MK, 1, 69) – *bir turli qarg'a*.

**B>o:** *bekäch* (MK, 1, 339) > *ekuch* (MK, 1, 86) – *bekach*.

**G'>o:** *tamug'* (DTS, 531)>*tamu* (Manx, 72) – *do'zax*.

**Proteza hodisasi.** *X:* *amır* (MK, 1, 136) > *xamır* (MK, 1, 136) – *amir*. *H:* *öküz* (Ogah, 191) > *höküz* (Furq., II, 15) – *ho'kiz*; *id* (BAL, 52) > *hidlik* (Sakk, 56) – *hidli*.

**Assimilyatsiya hodisasi.** *T>tt:* *attı* (MK, 1, 181) – *otdi*; *yarattı* (QBN, 8 b) – *yaratdi*; *sattı* (HH, 119) – *sotdi*; *qattım* (Nav., MQ, 6) – *qo'shdim*.

*Q>qq:* *oqqa* (Mch, 11) – *o'qqa*; *uqqalı* (Mo'g', 22) – *uqqani*; *yoqqıshdıımız* (KT, kch, 32) – *yo'qotdik*; *baqqın* (Lutf., 114) – *boggin*; *qulagga* (Nav., MQ, 36) – *quloqqa*.

*K>kk:* *kökkä* (Lutf., 31) – *ko'kka*.

*G'>g'g':* *ag'g'ıl* (Tf, 47 b) – *ko'tarilgan*; *yıg'g'an* (Tf, 99 b) – *tiygan*; *tog'g'an* (Rabg', 25 a) – *tuqqan*.

*L>ll:* *allıma* (Nav., HA, 97); *allında* (Sakk, 55), *allıda* (Ogah., 19).

**Tortilish.** *Ay:* *azlayur>aslur* (HH, 100) – *ozayadi*; *äk:* *bechänäk* (MK, 1, 450) > *bechän* (MK, 1, 450) – *qabila nomi*; *en:* *qowushg'umän>qovushg'um* (QBN, 222 a) – *qovushaman*; *bilgämän* > *bilgäm* (QBN, 214 a) – *bilaman*; *qılsa-men* > *qılsam* (Tf, 133 b) – *qılsam*. *Er:* *ne ermiş* > *nemish* (QBN, 64 a; HH, 144) – *nima ekan*; *bolur erdi* > *bolurdi* (Tf, 67 a) – *bo'lur edi*; *ınar. qochınar* (MK, III, 112) > *qoch* (MK, 1, 311) – *qo'chqor*. *Ig:* *keligsädım* (MK, III, 300) > *kelsädım* (MK, III, 300) – *kelishni istadım*. *Un:* *qoyun* (O'n, 41) > *qoy* (Rabg', 24 b) – *qo'y*. *Ug':* *qurug'* (MK, III, 134) > *qur* (Tf, 118 b) – *quruq*. *Iq:* *chıbıq* (MK, 1, 309) > *chıb* (MK, 1, 309) – *chıbiq*. *Bir:* *tün birlä* > *tunlä* (MK, III, 96) – *tunin*. *Gi:* *yigi* (MK, III, 31) > *yi* (MK, III, 31) – *zich*. *Gu:* *bilgölüg* > *billüg* (O'n, 33) – *bilgulik*. *Dı:* *sandırışdı* (MK, II, 248) > *sanrushdı* (MK, II, 248) – *aljishdı*. *Zi:* *kezin* (Tf, 9 b) > *ken* (QBN, 220 a) – *keyin*; *Ke:* *ne keräk* > *neräk* (HH, 157) – *nega kerak*. *Le:* *sözlägäli* > *sözgäli* (MK, III, 159) – *so'zlagani*; *Ma:* *bursumaq* (MK, III, 423) > *borsuq* (MK, III, 423) – *bo'rsiq*; *Nu:* *qazınuq* (MK, III, 393) > *qazuq* (Tf, 133 a) – *qoziq*. *Rug':* *qorug'jin* (MK, 1, 469) > *qoshun* (MK, 1, 468) – *qo'rg'oshin*. *G'a:* *qag'ar* (O'n, 27) > *qar* (MK, III, 162) – *qor*.



## I. Tekshirish uchun savollar

1. Qadimgi turkiy tilda unlilar uchun necha harf qo'llangan?
2. *ā* (*āta*) fonemasining shakllanishi.
3. *ə* va *ü*, *x* va *h* tovushlarining adabiy til tarixida va hozirgi adabiy tilda qo'llanishi.
4. Eski turkiy va eski o'zbek adabiy tilida undoshlar qiyosiy tasnifi.
5. Qadimiy turkiy tilda burun undoshlari.
6. So'z boshida va oxirida qator undoshlarning qo'llanish tarixi.
7. Singarmoniya va uning adabiy til davrlari bo'yicha buzilish o'rinlari.
8. Unli va undosh tovushlarda fonetik hodisalar.
9. *W*, *d* undoshlarining o'zgarishi.

## II. Tayanch tushunchalar

*Fonetika, fonetik hodisa va qonuniyat tushunchasi. Unli va undoshlar. Ularning paydo bo'lish o'rni, usuli va lablarning ishtirokiga ko'ra o'rni.*

*Vokalizm va konsonantizm. Jarangli va jarangsiz undoshlar, til oldi, til o'rti, til orqa, bo'g'iz, lab, burun undoshlari. Artikulatsion o'rin, usul.*

*Tovushlarning kombinator variantlari. Unli va undoshlar singarmoniyasi. Fonetik hodisalar: proteza, metateza, singarmoniya, jarangsizlanish, assimilatsiya, dissimilatsiya, tovush tushishi, tovush o'zgarishi, reduksiya. Ohang, diftong, urg'u, bo'g'in, transkripsiya, orfografiya, orfoepiya. Tovushlarda ikkilanish (iki – ikki).*

### Lug'at

Quyidagi so'zlarning ma'nosini aniqlang:

aba	—	jiba	—
adaq	—	jilav	—
art	—	fazl	—
avuch	—	kibr	—
axtar	—	mengiz	—
baliq	—	mujgan	—
budun	—	safā	—
dilfikār	—	Toja	—
dudāq	—	yablaq	—
etmāk	—	yāk	—
esruk	—	yavshan	—
jar	—	chebar	—

## MORFOLOGIYA

**1-§.** O‘zbek tilining ko‘p asrlik taraqqiyoti davomida uning morfologik qurilishi ham rivojlanib, takomillashib keldi: yangi grammatik shakllarning vujudga kelishi natijasida qadimdan faol iste‘molda bo‘lib kelgan shakllarning bir guruhi o‘zining mavqeini yo‘qota bordi, ayrimlari esa ma‘lum davrlarga kelib iste‘moldan chiqib qoldi; yonma-yon qo‘llanib kelgan grammatik shakllar vazifasi jihatdan o‘zaro farqlana bordi; ayrim grammatik shakllar shaklan o‘zgarib, takomillasha bordi va hokazo.

Yozma manbalarning ko‘rsatishicha, o‘zbek tilining morfologik qurilishi taraqqiyotini uchta katta bosqichga bo‘lish mumkin: Birinchi bosqichni XIV asrning oxirlarigacha bo‘lgan davr tashkil etadi. Bu davr eski o‘zbek adabiy tilining shakllanish arafasi bo‘lib, yonma-yon qo‘llanuvchi vazifadosh shakllarning ko‘pligi, qadimgi shakllarning keng qo‘llanib kelishi, dialektal yoki boshqa turkiy tillarga mansub bo‘lgan shakllarning ko‘plab iste‘molda bo‘lishi kabi holatlar bilan izohlanadi. Ikkinchi bosqich XIV asr oxirlaridan XIX asrning ikkinchi yarmiga qadar bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Bu davrda eski o‘zbek adabiy tili shakllangan bo‘lib, uning grammatik qurilishi ma‘lum darajada tartibga tushganligi ko‘rinadi. O‘zbek tilining morfologik qurilishi taraqqiyotidagi uchinchi bosqich XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu davrda matbuot vujudga keldi va o‘zbek tilida gazeta, jurnal, kitoblar nashr etila boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, adabiy til bilan so‘zlashuv tilining yanada yaqinlasha borishiga va adabiy tilning, xususan, uning morfologik qurilishining so‘zlashuv tili hisobiga boyib borishiga zamin yaratdi.

**2-§.** Adabiy til tarixida ham so‘z turkumlari dastavval ikki katta guruhga bo‘linadi: *mustaqil so‘zlar* va *yordamchi so‘zlar*.

Mustaqil so‘zlar quyidagi uch guruhga bo‘linadi: ism, fe‘l, ravish. Ism guruhidagi so‘zlar o‘z navbatida quyidagi turkumlarga bo‘linadi: ot, sifat, son, olmosh. Bu turkumlar uchun so‘z o‘zgartuvchi kategoriyalar (kelishik, egalik va shu kabilar) umumiy bo‘lib, bu jihatdan ular bir guruhga — ism guruhiga birlashadi. Lekin ularning har biri uchun maxsus so‘z yasovchi qo‘shimchalari

bo'lishi va ma'nosi jihatdan har qaysisi mustaqil so'z turkumini tashkil etadi.

Yordamchi so'zlar sintaktik vazifalariga ko'ra quyidagi uch turkumga bo'linadi: ko'makchilar, bog'lovchilar, yuklamalar. Undovlarni ham shartli ravishda yordamchi so'zlar guruhiga kiritish mumkin.

## OT

3-§. Eski o'zbek tilida ham ot turkumidagi so'zlar ko'plik, egalik, kelishik kabi grammatik kategoriyalarga ega bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu kategoriyalarni ifodalovchi shakllar maxsus affikslar yordamida hosil bo'ladi va bu affikslarning qo'shilishida ma'lum tartib mavjud, ya'ni: ot (o'zak-negiz)+ ko'plik affiksi + egalik affiksi + kelishik affiksi (*og'a+lar+lm+nu* kabi).

Ko'plik, egalik, kelishik affikslari ot turkumiga xos bo'lib, boshqa turkumdagi so'zlarga qo'shilganda bu so'zlar otlashadi (substantivlashadi) va gapda ot vazifasini bajaradi.

### Ko'plik shakllari

4-§. Otlarda ko'plik shakli asosan *-lar/-lär* affiksi yordamida hosil bo'ladi. Eski o'zbek tilida ham *-lar/-lär* affiksli shaklning asosiy vazifasi grammatik ko'plik ma'nosini ifodalashdan iborat bo'lgan. *Dostlarimni küldürdüm* (O'N). *Közlari könlüm alur* (Atoiy). *Tashlarni tamam bu tag'din eltärlär* (BN). *Elgä kishilar yibarıldı* (Sh. tar.). *Navbahar, achıldı gullar, sabza boldı bag'lar* (Muqimiy).

Keltirilgan misollarda *-lar/-lär* affiksli shakl ko'plik ma'nosida qo'llangan. Ayrim hollarda bu affiks ko'plikdan boshqa ma'nolarni ifodalash uchun ham xizmat qiladi. Masalan, holatni, mavhum tushunchani bildiradigan otlarga qo'shilganda ko'plikni emas, balki kuchaytirish, ta'kidlash kabi ma'nolarni ifodalaydi. *Qiyoslang: Anıñ dushmanları köp qayg'ular tapır.* (O'N). *Inäyätllar qılır jänäna bizgä* (MN). *Mir Xisravniñ bu daqiq hayälig'a äfarinlar oqudum* (Navoiy, MN). *Fitnalar salur ekin lashkariga* (SHN). *Ahmad Yusuf*

*beg iztirāblar qilib, har zamān aytadur kim, ... (BN). Yaxshi nasi-hatlar qildi (Sh. turk). Munisg'a yetār dam-badam āzārlar andın (Munis).*

**-lar/-lār** affiksi payt bildiruvchi soʻzlarga qoʻshilganda harakat yoki holatning davomiyligini, takrorlanib turishini koʻrsatib, ravish maʼnosini ifodalaydi (qarang: 213-§).

**-lar/-lār** affiksli shakl hurmat maʼnosini ham ifodalaydi. Lekin uning bunday qoʻllanishi ayrim asarlardagina uchraydi: *Ataları ezgü kishi erdi (Tafsir). Ötar vaqtı da bu gʻazal matlainı tügätmäydur erdi. Vasiyat qıldı kim, hazrati Mahdumiy Nuran tügätib, oz devānlari da bitsünlär (Navoiy, MN). Dilāvār xān alarınñ tagʻaylari bolgʻay (BN). Abul-gʻaziniñ ogʻulları Anusha Muhammad xan ataları Karmina atlagʻanda on tørt yashlarında erdilär (Sh. turk). Men alarınñ atalarınñ kamına shägirdlarıdur-men (BV).*

Son, umuman, miqdor bildiruvchi soʻzlardan aniqlovchisi boʻlgan otlarga odatda **-lar/-lār** affiksi qoʻshilmaydi. Lekin baʼzan bunday hollarda ham **-lar/-lār** affiksi qoʻshilishi uchraydi. Bunda koʻplik maʼnosi taʼkidlab koʻrsatiladi: *Ikki yigitlärni zindāngʻa keltürdilär (QR). Ogʻuz xānıñ etäginä ikki qolları birlän mahkam yapushılur (III. tar.). Ammā basma bolıshı xususıda көp fikrlar qıldım (Furqat).*

5-§. Turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida **-(a)t / -(ä)t, -an / -än** affikslari bilan hosil boʻluvchi koʻplik shakllari ham qoʻllangan.

(Koʻplikning **-(a)t / -(ä)t** affiksi bilan hosil boʻluvchi shakli turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlaridayoq isteʼmoldan chiqqan) Qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarda bu affiks bilan ayrim soʻzlardagina koʻplik shakli yasalishi uchraydi. Masalan: *tägit* — “shahzodalar” (*tägin* — “shahzoda” soʻzining koʻplik shakli), *tarqat* — “tarxonlar” (*tarqan* — “tarxon” soʻzining koʻplik shakli), *äret* (*är* — “er”, “erkak kishi” soʻzining koʻplik shakli). *Tägit* soʻzi *tägin* (shahzoda) soʻzining koʻplik shakli ekanligi, “Devonu lugʻatit-turk”da ham qayd qilingan (MK, 1-tom, 337, 391-betlar).

Eski oʻzbek tiliga oid yozma manbalarning ayrimlarida, jumladan, “Boburnoma”da tarkibida **-(a)t / -(ä)t** affiksi boʻlgan soʻzlar

mavjud. Lekin bu soʻzlar grammatik koʻplik maʼnosini emas, balki jamlik tushunchasini bildiradi. Masalan, *tumanat* (birlik shakli: *tuman* — “oʻn ming” maʼnosida), *mahallat* (birlik shakli: *mahalla*), *bāgʻat* (birlik shakli: *bāgʻ*), *aymaqat* (birlik shakli: *aymaq* — urugʻ-qabila nomi), *begāt* (birlik shakli: *beg*), *bөлүkät* (birlik shakli: *bөлүk* — “boʻlim”, “boʻlinma” maʼnosida).

Hozir bu affiks ayrim joy nomlari, qabila, urugʻ nomlari tarkibida saqlangan. Masalan: *Tevät* (*tepä+t>tepät>tevät*) — qishloq nomi, *Bagʻat* (*bagʻ+at>bāgʻat*) — qishloq nomi, *tapagʻat* (*tap+agʻ+at>tapagʻat*) — urugʻ-aymoq nomi.

Koʻplik shaklini hosil qiluvchi *-an* / *-än* affiksi ham, yozma yodgorliklardan maʼlum boʻlishicha, kammahsul boʻlib, uning qoʻllanishi ayrim soʻzlar bilangina chegaralangan. Masalan, “Devonu lugʻatit-turk” materiallariga koʻra, XI asr tilida bu affiks bilan *ogʻul* va *er(er)* soʻzlaridagina koʻplik shakli yasalgan: *Ogʻlan ırgʻashdı* — “Bolalar yigʻlashdı”, *Erän ürpäshdı* — “Botirlar (bir-birlariga) gʻazablanishdı”. *Erän qamugʻ qaqışdı* — “Odamlarning hammasi (bir-birlarini) koyishdı”.

“Devonu lugʻatit-turk”da *ogʻlan*, *ärän* soʻzlari birlik maʼnosida ham qoʻllangan: *Ogʻlan äritti* — “Bola balogʻatga yetdi, erlar safiga oʻtdi”. *Ogʻlan suv tökdi* — “Bola suvni toʻkdi”. *Qurch ärän* — “Chidamli, pishiқ odam”. Shuning uchun koʻplik shaklidagi bu soʻzlarga *-lar/-lär* affiksi ham qoʻshilavergan, yaʼni bir soʻzga birdaniga ikki xil koʻplik affiksi qoʻshilgan. Masalan: *Erdi üzä äränlär* — “Ilgarigi kishilar edi”.

Mahmud Koshgʻariyning izohlashicha, XI asr tilida koʻplik koʻrsatkichi *-lar/-lär* boʻlib, *ogʻul*, *är* soʻzlarining koʻplik shakli *ogʻlan*, *ärän* tarzida boʻlishi odatdan tashqari hodisa boʻlgan (MK, 1-tom, 71, 103-betlar).

Eski oʻzbek tiliga oid yozma manbalarda ham *ogʻlan*, *erän* soʻzlari qoʻllangan, lekin bular faqat birlik maʼnosini ifodalagan. Bu soʻzlarning koʻpligini ifodalash uchun *-lar/-lär* affiksi qoʻshilgan. Qiyoslang: *Ogʻlanlari qorqđlar* (QR). *Eränlär ayurlar* (Tafsir). *Yalgʻan aytmaq eränlär ishi emas* (Navoiy, MQ). *Yigʻıñız beglär-u ogʻlanlarnı* (SHN). *Köp ogʻlanlari bar erdi* (Sh. tar.).

**6-§.** Ma'lumki, o'zbek tili leksik tarkibining ma'lum qismini arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan so'zlar tashkil etadi. Bu so'zlarning asosiy qismi ot turkumiga mansub bo'lib, ularning ko'pchiligi ko'plik shaklida o'zlashgan. Masalan, *ahvol* (birligi — *hol*), *avlod* (birligi — *valad*), *a'zo* (birligi — *uzv*), *xaloyiq* (birligi — *xoliqa*), *ulamo* (birligi — *olim*), *ahbob* (birligi — *habib*), *ajoyib* (birligi — *ajib*), *yoron* (birligi — *yor*).

Ko'plik shakldagi bunday so'zlar hozirgi o'zbek tilida birlik shaklida o'qilib, ularning ko'plik ma'nosi *-lar* affiksini qo'shish bilan ifodalanadi: *ahvollar*, *avlodlar*, *a'zolar* kabi.

Eski o'zbek tilida arab va fors-tojik tillaridan o'zlashgan ko'plik shaklidagi so'zlar ko'plik ma'nosida qo'llangan. Bunday so'zlarni ba'zan birlik ma'nosida uqilib, ularga *-lar* affiksini qo'shib ishlatish hollari ham uchraydi: *Jumla xalāyiqalari n mällarini terdilär* (Tafsir). *Yolda ajayiblar tälim kerdilär* (QR). *Jumla sahābalar taqi atlandilar* (NF). *Akābirlar zayhi da mazkur bolg'aylar* (Navoiy, MN). *Majmui yārānlar birle olturub erdilär* (Gulxaniy).

### Egalik shakllari

**7-§.** Otlarda egalik shakllarining hosil bo'lishi bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. Egalik affikslarining turli fonetik shakllarga ega bo'lishi bilan eski o'zbek tili hozirgi o'zbek tilidan farqlanadi.

Eski o'zbek tilida egalik affikslari quyidagi fonetik shakllarda qo'llangan: (*jadval 1. 80-bet*).

Egalik affiksi shakllaridan qaysi birining ishlatilishi shu affiksnin qabul qiluvchi so'zning fonetik tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan hodisadir.

Unli bilan tugagan so'zlarga egalik affikslarining undosh bilan boshlanuvchi shakllari, undosh bilan tugagan so'zlarga unli bilan boshlanuvchi shakllari qo'shiladi: *āta-m*, *āt-im* kabi (yuqoridagi misollarga qarang).

Tarkibida (oxirgi bo'g'inida) lab unlisi bo'lgan so'zlarga lab uyg'unligi qonuniga muvofiq ravishda egalik affikslarining lab unlisi bilan kelgan *-um / -üm*, *-uŋ / -ü*, *-umuz / -üümüz*, *-u uz / -*

Son	Shaxs	Affikslar	Misollar
Birlik	I shaxs	-m -im / -im -um / -ym	āta-m, kishi-m āt-im, til-im og'(u)l-um, sōz-ym
	II shaxs	-ŋ -iŋ / -iŋ -uŋ -yŋ	āta- , kishi- āt-1 , til-i og'(u)l-uŋ, sōz-yŋ
	III shaxs	-s1 / -si -1 / -i	āta-s1, kishi-si og'(u)l-1, sōz-i bir-i, bir-i-si
Ko'plik	I shaxs	-miz/ -miz -imiz / -imiz -umuz / -ymiz -umuz -ymyz	āta-miz, kishi-miz āt-imiz, til-imiz og'(u)l-umuz, sōz-ymiz og'(u)l-umuz, sōz-ymyz
	II shaxs	- iz / - iz -1 iz / -i iz -u iz / -y iz -u uz / -y yz	āta-ŋiz, kishiŋ-iz āt-iŋiz, til-iŋ -iz og'(u)l-uŋiz, sōz-yŋiz og'(u)l-uŋuz, sōz-yŋyz
	III shaxs	-lari / -lari	āta-lar-1, kishi-lar-i āt-lar-1, til-lar-i og'ul-lar-1, sōz-lar-i

*ūŋūz* shakllari qo'shilishi kerak: *og'lum*, *og'luŋ*, *og'lumuz*, *og'luŋuz*; *sōzum*, *sōzūŋ*, *sōzumūz*, *sōzūŋūz* kabi. Lekin eski o'zbek tilida tarkibida (oxirgi bo'g'inida) lab unlisi bo'lgan so'zlarga egalik affikslari shakllarining qo'shilishida ma'lum tartib bo'lmagan. Ya'ni, I va II shaxs birlik shaklidagi *og'lum*, *og'luŋ* kabi so'zlar ba'zan *og'lm*, *og'luŋ* shaklida ham qo'llangan. I va II shaxs ko'plik shaklidagi *og'lumuz*, *og'luŋuz* so'zlari ko'pincha *og'lumuz*, *og'luŋuz* yoki *og'lmuz*, *og'luŋuz* shaklida ishlatilgan.

### Qarashlilik

**8-§.** Abstrakt egalik. Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida qarashlilik shakli **-niki** affiksi bilan hosil bo'ladi: *meniki*, *seniki*, *uniki*, *bizniki*, *sizniki*, *ularniki*, *Salimniki* kabi.

Eski o'zbek tilida esa qarashlilik ma'nosi qaratqich kelishigi shakli bilan ifodalangan. Qarashlilik ma'nosida qo'llangan

qaratqich kelishigidagi soʻz asosan kesim vazifasida keladi: *Bu tayaq kishini* (Tafsir). *Ey ana, sen qayu elni*-sen? (QR). *Ey tüläk, men seni*-men (QR). *Barchasi seni*, *sen bol faragʻat* (XSH). *Hukm anı*, *tālib anı*, *pir anı*, *raʻy anı*, *sagʻaysh-u tadbir anı* (SHN).

Keltirilgan misollardagi *kishini*, *qayu elni*-sen, *seni*-men, *seni*, *anı* soʻzlari “*kishiniki*”, “*qaysi elnikisan? (qaysi eldan-san?)*”, “*senikiman*”, “*seniki*”, “*uniki*” maʼnosida qoʻllangan.

Qarashlilik maʼnosini ifodalovchi qaratqich kelishigidagi soʻz ega vazifasida ham keladi. Bunday hollarda gapning kesimi *bar* yoki *yoq* soʻzi bilan ifodalangan boʻladi: *Tülküni* evi *bar*, *Isāni* yoq (QR). *Ināyatlar kim, ush muncha seni* *bar* // *Zaif qulni qachan zāye qoyar zār?* (XIII).

Qarashlilik maʼnosini ifodalovchi qaratqich kelishigidagi kesimga odatda kesimlik affiksi qoʻshiladi: *Bu tayaq Musāni* turur (Tafsir). *Astingʻi toni* *ezini* turur (NF). *Bu rubai alarnı*dur kim, ... (Navoiy, MN). *Emdiki navbat ne seni*dür va ne *meni* (Sh. turk.) *Bu xat* *ezgā bir kimsāni*dür (BV). *Axi anı*dur (Munis).

Qarashlilik maʼnosida qoʻllangan qaratqich kelishigidagi soʻz tarkibli kesimning yetakchi qismi vazifasida ham keladi: *Ul tam ikki nārasida ogʻlanni* erdi (Tafsir). *Bu keshk seni* erdi (NF). *Har qaydaki bar javr-u jafāsi, meni* olsun (Lutfiy). *Bu matlaʻ anı* *bolgʻay kim*, ... (Navoiy, MN). *Chahar dang mirzāni* *bolgʻay* (BN). *Bu atāyā va bu xilʻati faxira bizni* *bolgʻay* (Gulxaniy).

Qaratqich kelishigidagi soʻzning qarashlilik maʼnosida qoʻllanishi “Devonu lugʻatit-turk”da ham mavjud. Masalan: *Qalmış tavar azınnı* — “*Qolgan tovar boshqaniki*”. *Bu at seni*-mu? — “*Bu ot senikimi?*”

Qarashlilik maʼnosining qaratqich kelishigi shakli bilan ifodalanishi tasodifiy hodisa emas. Chunki qarashlilik shaklini yasovchi *-niki* affiksi tarixan qaratqich kelishigi affiksi asosida rivojlangan. Yaʼni, yuqorida koʻrganimizdek, qarashlilik maʼnosi eski oʻzbek tilida qaratqich kelishigi shakli orqali ifodalangan boʻlib, keyinchalik bu maʼnoni ifodalash uchun qaratqich kelishigi affiksiga xoslik, munosabat kabi maʼnolarni bildiradigan sifat yasovchi



-ki (qı/ -gʻi/ -gi) affiksi qoʻshilgan. Shu yoʻl bilan qarashlilik maʼnosini ifodalovchi *-niḡki* (*-iḡki*) affiksi vujudga kelgan. Hozirgi turkman tilida va ayrim oʻzbek shevalarida qarashlilik shakli mana shu *-niḡki* (*-iḡki*) affiksi bilan hosil boʻladi. Hozirgi oʻzbek adabiy tilida bu affiks *-niki* shakliga aylangan: *-niḡki* > *niki* (*kishiniḡki* > *kishiniki*).

Qarashlilikning *-niḡki* (*-iḡki*) affiksi bilan hosil boʻluvchi shakli eski oʻzbek tilida kam qoʻllangan. Bu shakl XV asrdan keyingi davrlarga oid yozuv yodgorliklarining ayrimlaridagina uchraydi. Masalan: *Māvarānnahr yurtı yavnıñqı boldı* (Sh. turk.) *Ey bābā, bu olturgʻan taxtıñ ulugʻ atam Duylı Qayıñıñqı turur* (Sh. tar.). *Bu tasnif oʻzgāniḡki ermas* (BV).

Qarashlilik affiksining *-niki* shakli ham eski oʻzbek tilida kam qoʻllangan boʻlib, XV asrdan keyingi davrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi. Masalan: *Kəḡüldä ul erdi kim, ... Shayx Bayāzidni Tanbaldın ayırıp bizniki bolgʻay* (BN). *Sizlämi öziniḡ qılgʻandıñ soḡ...* (Sh. turk.) *Ey bayogʻlı, biznikini qabul qılıḡ* (Gulxaniy).

### Otlarda tuslanish va kesimlik affikslari

**9-§.** Eski oʻzbek tilida ham ot va ot turkumidagi soʻzlar (sifat, son, olmosh) kesim vazifasida kelganda feʼllar kabi tuslanadi, yaʼni shaxs-son affikslarini qabul qiladi (bu oʻrinda “**tuslanish**” termini tor maʼnoda — kesim vazifasida kelgan soʻzlarning shaxs-son affikslari bilan oʻzgarishi maʼnosida qoʻllandi).

Eski oʻzbek tilida ham kesim vazifasida kelgan ot va ot turkumidagi soʻzlarga shaxs-son affikslarining toʻla shakllari *-men*, *-sen*, *-miz* (*-biz*), *siz* qoʻshilgan. Masalan: *üch kün boldı ach-men* (QR). *Yaxshılıq qıl ki, nātavānıḡ — men // yāmān olsam, seniḡ yāmānıḡ-men* (Navoiy, SS). *Sen meñä sultān-sen* (Lutfiy). *Siz ikäv bir ātanıḡ ogʻlı-siz // siz ikävğä qaravchı bizlar-biz* (SHN). *Atam ornıḡʻa emdi ātam-siz* (Sh. tar.).

**10-§.** Ot va ot turkumidagi soʻzlar bilan ifodalangan kesim odatda kesimlik affiksi (bogʻlama) orqali shakllanadi va bu affiks shaxs-son affikslaridan oldin keladi. Bunday hollarda kesim vazifasida kelgan ot quyidagi uch morfemadan iborat boʻladi: ot + kesimlik affiksi + shaxs-son affiksi.

Eski o‘zbek tilida kesimlik affiksi vazifasini *tur-* (turmoq) holat fe’li yoki *er-* (ermoq) to‘liqsiz fe’li bajargan.

1. *Tur-* holat fe’li kesimlik affiksi vazifasida *turur, durur, tur/ tür, dur/ dür* shakllarida qo‘llangan. Bulardan *turur* shakli *tur* – holat fe’lining hozirgi-kelasi zamon shaklidan iborat bo‘lib, *durur* shakli *turur* tarkibidagi jarangsiz (t) undoshining jarangli (*d*) undoshiga o‘tishi natijasida vujudga kelgan, *tur/ tür, dur/ dür* shakllari esa *turur, durur* shakllarining qisqargan shakllaridir. Bulardan qaysi birining ishlatilishi eski o‘zbek tili taraqqiyotining ma’lum davrlari bilan bog‘liq.

XIII–XIV asrlarda asosan *turur* shakli qo‘llangan bo‘lib, boshqa shakllari ayrim manbalarda uchraydi: *Men muxlis turur men* (Tafsir). *Biz barchamiz Yüsüfnüh qarındashlari turur miz* (QR). *Bu darvish yāmān kishi turur* (NF). *Ul faqir durur* (Saroyi). *Ani kim mālī kēptür, qazg‘usi bar* (XSH). *Chechäk-sen, banda sayrar bulbulundur* (MN).

XV asr va undan keyingi davrlarda asosan *dur/ dür, tur/ tür* shakllari qo‘llangan bo‘lib, *turur, durur* shakllari ayrim manbalarda, asosan, she’riy asarlarda uchraydi: *Könlüm tilim birlā muvāfiqtur* (Atoiy). *Men bir shikasta qulundur-men* (Sakkokiy). *Dasht yavuqtur, eli ham jam‘iyathiq eldür, yohi ham yaxshidur* (BN). *Bu sevishmāk ikki yandıñ xush turur* (Lutfiy). *Ishq behad yıraq durur andın* (Navoiy, SS).

2. *Er-* to‘liqsiz fe’li kesimlik affiksi vazifasida *erür* (hozirgi-kelasi zamon) shaklida qo‘llangan.

To‘liqsiz fe’lining kesimlik affiksi vazifasida qo‘llanishi XIII–XIV asrlar tiliga xos bo‘lib, nasriy asarlarda ham, she’riy asarlarda ham uchraydi: *Bu benim shagirdim erür* (Tafsir). *Üstünrāk ne‘matni tilāmāk mahal erür* (QR). *Kür arslan-teg yüräklig erür-sen, bil* (XSH). *Meñä dozax erür uchmaq sensiz* (MN).

XV asr va undan keyingi davrlarda *erür* to‘liqsiz fe’lining kesimlik affiksi vazifasida qo‘llanishi she’riy asarlarda uchraydi: *Özgä kishi sözi laf erür* (Lutfiy). *Biri ul jumladın imārat erur* (Navoiy, SS). *Köchämiz mahkam erür, qorg‘an ham* (SHN). *Yadur qashıñ, mijij oq, g‘amzañ qılıch erür* (Munis).

Yozuv yodgorliklaridan ma'lum bo'lishicha, o'zbek tili taraqqiyotining oldingi davrlarida kesimlik affiksi har uchala shaxsda ham mavjud bo'lgan. Keyinchalik I va II shaxslar tarkibidan tushib qolgan: *atam turur sen* (>atamdur-sen)> *atam-sen* kabi. III shaxsda esa shaxs-son ko'rsatkichi yo'qligi uchun asosan saqlangan. Hozirgi o'zbek tilida III shaxsda ham ko'pincha tushirib qoldiriladi. Lekin ot kesim tarkibida kesimlik affiksining bo'lishi yoki bo'lmasligi ma'noga ta'sir qilmaydi.

### Otlarda bo'lishsizlik shakli

**11-§.** Ot va ot turkumidagi so'zlar kesim vazifasida qo'llan-ganda bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklda keladi.

Eski o'zbek tilida ham otlarning bo'lishsizligi *er-* to'liqsiz fe'lining bo'lishsiz shakli *ermäs // emäs (ermäz // emäz)* yordami-da ifodalangan: *Biz bu narsalarga muhtaj ermäs-biz* (QR). *Eväklik hakim ishi ermäz* (Tafsir). *Yaŋıldıŋ, men taqı Farhad emäz-men* (XSH). *Menä sen bolmasaŋ, jän häjat ermäs* (Atoiy). *Yalg'anchı kishi emäs va yalg'an aytaŋ eränlär ishi emäs* (Navoiy, MQ). *Meniŋ keŋlumdägi beläk adamlarg'a ma'lum emäsdür* (Furqat).

XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda otlarning bo'lishsizlik ma'nosi *tegül//degül (dügül)* so'zi yordamida ham ifodalangan. Bu shakl XV asrda ham ayrim asarlarda qo'llangan: *Mundın ilgärü andag' tegül erdi* (Tafsir). *Bu ul-mu yä degül-mu, bilsä bolmas* (XSH). *Anıŋ üçhün kim, sharıŋdan emin dügül-men* (Saroyi). *Gar qılsa vafä dilbar, ajab degül* (Lutfiy). *Shubha birlä barmag'ı mushkil degül* (Navoiy, LT).

Otlarda bo'lishsizlik ma'nosining *tegül//degül (dügül)* so'zi bilan ifodalanishi o'g'uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo'lib, bu shaklning o'zbek tili taraqqiyotining oldingi davrlarida qo'llanishi shu tillarning ta'siridir.

### Kelishik shakllari

**12-§.** Eski o'zbek tilida quyidagi oltita kelishik amalda bo'lgan: *bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi,*

*o'rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi.* Oldingi davrlarda yettinchi kelishik — *vosita kelishigi* ham iste'molda bo'lgan. Bosh kelishikdan tashqari, har bir kelishik shakli maxsus affiks (yoki affikslar) yordamida hosil bo'ladi.

### ***Bosh kelishik***

**13-§.** Eski o'zbek tilida ham bosh kelishik morfologik ko'rsatkichga ega emasligi bilan xarakterlanadi. Boshqa kelishik shakllari bosh kelishikka maxsus affikslar qo'shilishi bilan hosil bo'ladi.

Bosh kelishikning asosiy vazifasi gapda ega vazifasida kelishidir: *Ul yigittlar aydilar* (QR). *Quyash har kun yuz urur ul qapuqqa* (MN). *Mavlānāniy yashi toqsandın otubdūr* (Navoiy, MN). *Ikki yuz kishimiz bar edi* (BN). *G'unchalar achı ldiyu kəñül achı lmaydur hanuz* (Munis).

Bosh kelishikdagi so'z kesim vazifasida ham qo'llanadi. Bunday hollarda bosh kelishikdagi so'z shaxs-son affiksi bilan tuslanishi va kesimlik affiksini qabul qilishi mumkin (qarang: 9,10-§§).

Qaratqich, tushum, jo'nalish kelishiklari belgisiz qo'llanganda shaklan bosh kelishikka o'xshaydi, lekin ma'nosi va vazifasi bo'yicha butunlay farq qiladi.

### ***Qaratqich kelishigi***

**14-§.** Qaratqich kelishigi affiksi quyidagi shakllarga ega: *-niy/ -niy, -nun / -niy, iy — / -iy, -un / -un*. Bu shakllar bir affiksning turli fonetik ko'rinishlari bo'lib, bulardan qaysi birining ishlatilishi shu affiksni qabul qiluvchi so'zning fonetik tuzilishiga yoki yozuv yodgorliklari tilining dialektal xususiyatlariga bog'liq. Bundan tashqari, qaratqich kelishigi affiksining *-im* shakli ham mavjud bo'lib, uning qo'llanishi *men, biz* olmoshlari bilan chegaralangan: *menim, bizim* (qarang: 77-§).

Qaratqich kelishigi affiksining *-niy/ -niy* shakllari odatda tarkibida (oxirgi bo'g'inida) lab unlisi bo'lmagan so'zlarga qo'shiladi: *daryaniy suvi, yig'achniy budaqlari, elniy nazari, qoychiniy tayaqi, elniy sozi* kabi. Bu shakl qaratqich kelishigi-

ning asosiy ko'rsatkichi sifatida eski o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida amalda bo'lgan.

-*nun*/*-nün* shakllari lab uyg'unligi asosida yuzaga kelgan, ya'ni so'z tarkibidagi (oxirgi bo'g'inidagi) unli lablangan bo'lsa, affiks tarkibidagi unli ham lablangan bo'ladi: *yurtnun kishisi*, *quduqnun üsti*, *kelnün suvi*, *sözünün rasti* kabi.

Qaratqich kelishigi affiksida lab uyg'unligining aks etishi o'zbek tilida, yozuv yodgorliklaridan ma'lum bo'lishicha, XV asr oxirlariga qadar davom etgan. XVI asr va undan keyingi davrlarda esa bu qonunga deyarli amal qilinmagan, ya'ni tarkibida lab unlisi bo'lgan *yurt*, *quduq*, *kөл*, *söz* kabi so'zlarga ham ko'pincha qaratqich kelishigi affiksi -*nın* /*-nün* shakllarda qo'shilgan: *yurtnın kishisi*, *quduqnın üsti*, *kөлнің suvi*, *sözнің rasti* kabi.

Undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shiluvchi -*ın* /*-in*, -*un* /*-ün* shakllarining qo'llanishi eski o'zbek tili taraqqiyotining ma'lum davrlari bilan chegaralangan yoki ayrim so'zlar uchungina xos bo'lgan.

-*ın* /*-in* shakllari asosan *biz*, *siz* kishilik olmoshlariga qo'shilgan: *biziın*, *siziın* (qarang: 77-§). Bu shakl "Tafsir" tili uchun ancha xarakterli bo'lib, boshqa so'zlarga ham qo'shilgan. Masalan: *mo'minların ayəlları*, *ul eviın elləri*, *ush ishləriın yorug'ı*, *qızog'lanların baxtı*, *uların ulug'ları*, *anların təräləri*, *sizläriın dushmanlarıız*.

-*un* /*-ün* shakllarining qo'llanishi *ul* kishilik olmoshi va *kim* so'roq olmoshi bilan chegaralangan bo'lib, XIII–XIV asrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi: *anun közu* (O'N). *Kimün og'usen?* (Tafsir), *kimün köjli* (XSH).

-*ın* /*-in*, -*un* /*-ün* shakllarining qo'llanishi "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'atit-türk"da ham *biz*, *siz*, *kim* olmoshlari bilan chegaralangan: *biziın*, *siziın*, *kimiın* // *kimnün*. Bu shakllar O'rxun-Enasoy va qadimgi uyg'ur yodgorliklari tiliga xos bo'lib, qo'llanish doirasi ham ancha keng bo'lgan. Qiyoslang: *Bilgä qag'anın budunı* (O'rx.-En.) — "*Bilga xoqonning xalqı*"; *älimiın bängüsi* (O'rx.-En.) — "*elimning xotirasi*"; *biziın sü* (O'rx.-En.) — "*bizning askar*"; *adıg'ın qarnı* (Qad. uyg'.) — "*ayiqning qorni*"; *toıuzun*

*azig'ri* (Qad. uyg'.) — “*to'ng'izning oziq tishi*”.

Qaratqich kelishigi affiksining *iy* — / *-iy*, *-uy* / *-üiy* shakllarda qo'llanishi hozir ozarbayjon, turk, turkman, gagauz kabi o'g'uz guruhidagi turkiy tillarga xos, ya'ni bu tillarda undosh bilan tugagan so'zlarga qaratqich kelishigi affiksining shu shakllari qo'shiladi.

Hozirgi o'zbek adabiy tili uchun qaratqich kelishigi affiksining *-ning* shakli qabul qilingan bo'lib, eski o'zbek tilida amalda bo'lgan boshqa shakllari o'zbek shevalarida mavjud.

**15-§.** Eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek va boshqa turkiy tillardagi kabi qaratqich kelishigi belgisiz ham qo'llangan. Bunday hollarda qaralmishning qaratqichga umumiy xosligi (shaxsga, predmetga, o'ringa, paytga munosabati) ifodalanadi: *daraxt bargi*, *Hindustan daryalari*, *zaman ahli* kabi.

Qaratqich kelishigidagi so'zning belgisiz qo'llanishi ko'proq she'riy asarlarda uchraydi. Nasriy asarlarda esa qaratqich kelishigidagi so'z, asosan, belgili qo'llangan. Nasriy asarlarda hatto qator kelgan qaratqichlarning ikkalasi, ya'ni qaratqich kelishigidagi so'z ham, uning qaratqichi ham ko'pincha belgili qo'llangan. Masalan: *Askarilariniy og'lanlariniy og'lanlarig'a taqi rahmat qilg'il* (NF). *Zavzan shahriniy malikiniy bir xojasi bar edi* (Saroyi). *Qullariniy vahmini y bir uluq natijası* (Navoiy, Msh). *Samarqandniy qorg'aniniy ichidä* (BN). *Qarāxanni y og'lanlariniy kəp og'lanlari bar erdi* (Sh. tar.). *Taqi anasiniy ochaqiniy egasi bolur* (SH. turk.). *Gimnaziyani y ilm hay'atiniy mudarrisi* (Furqat).

**16-§.** Eski o'zbek tilida ham qaratqich kelishigidagi so'z asosan aniqllovchi, ba'zan kesim vazifasida qo'llangan.

1. Aniqllovchi vazifasida kelgan qaratqich kelishigidagi so'z quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

a) qaralmish shaklidagi so'z ifodalagan shaxsga, predmetga, belgiga, voqea-hodisaga egalikni, aloqadorlikni bildiradi: *Ul qo'ychiniy iti bar erdi* (Tafsir). *Bag'ni y eshikini taparg'a fursat qilmay* (BN). *Beglärni y sozin qabul qilmay... urushu* (Sh. turk). *Ul malāhat mulkini y sultāni g'a maxsusdur* (Furqat);

b) butunning bo'lagi, qismi anglashiladi: *Tünnü y üch ulushında biri kechmishdä erdi* (QR). *Qara yig'achni y sarig' barglarini y yel*

*uchurgʻani* (Navoiy, Msh). *Mevasi uzumniy xoshasi dek bolur* (BN). *Ul vilāyat xalqiniy ūch xissasi dehqanchilik birlā tiriklik qilsalar*, ... (Furqat);

d) qaratqich oʻrin bildiruvchi soʻzlardan boʻlganda, qaralmishning shu oʻringa mansubligi koʻrsatiladi: *Qarshiniy qushlari bisyār bolur* (SHN). *Andijanni nashbatisi din yaxshuraq nashbati bolmas* (BN). *Urganchniy ōzbaki olturub keñāsh qilibdurlar* (Sh. turk).

2. Qaratqich kelishigidagi soʻz kesim vazifasida kelganda qarashlilik maʼnosini ifodalaydi (qarang: 8-§).

### ***Tushum kelishi***

**17-§.** Eski oʻzbek tilida tushum kelishigining *-ni / -ni, -n, -i / -i* affiksli shakllari ishlatilgan. Bular bir affiksning turli koʻrinishlari boʻlib, qoʻllanishi jihatdan bir-biridan farqlanadi:

1. *-ni / -ni* affiksli shakl tushum kelishigining asosiy koʻrsatkichi sifatida eski oʻzbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida keng isteʼmolda boʻlgan. Bu affiks tushum kelishigida qoʻllanuvchi har qanday soʻzga qoʻshila oladi: *yolni, tagʻni, suvni, tamni, bashni, agʻizni, ayaqni, sachni, yaxshini, yamanni, barchani, kōzni, tilni, kishini, ōzgāni, yerni, elni, elchini, kōnni, cherikni, bitigni* kabi. *-ni / -ni* affiksli shakl, yozuv yodgorliklaridan maʼlum boʻlishicha, turkiy tillarda tushum kelishigining asosiy koʻrsatkichlaridan biri sifatida qadimdan qoʻllanib keladi.

2. Tushum kelishigining *-n* affiksli shakli ham eski oʻzbek tilida ancha keng isteʼmolda boʻlgan. Lekin bu affiks faqat III shaxs shaklidagi soʻzlarga qoʻshilgan: *yoln* (yoʻlini), *bashn* (boshini), *barchasin* (barchasini), *tilin* (tilini), *sōzin* (soʻzini), *kishisin* (kishisini) kabi.

XV asr va undan keyingi davrlarda bu shakl asosan sheʼriy asarlarda qoʻllangan boʻlib, baʼzan nasriy asarlarda ham uchraydi: Misollar: *Sōzlarin eshitib* (Yaqiniy). *Anjumānda bir qasidasin oquydur erdi* (Navoiy, MN). *Barchasin emdi bayān etkōmdūr* (SHN). *Bashlarin quyı salıb kelūrlār edi* (BN). *Kōz yashı nāmanıy yūzin nam qıladur* (Bobur). *Jānlarin qılsun fidā* (Munis).

XV asrdan oldingi davrlarda, jumladan, XIII–XIV asrlarda

bu shakl she'riy asarlar tili uchun ham, nasriy asarlar tiliga ham xos bo'lgan: *Vazir tonin chiqardi* (Tafsir). *Ismāilniñ evin kordi* (QR). *Afsāna aymishın bayān qılur* (XSH). *Jamalın tamāshāsın tilār jān* (MN).

-n affiksli shakl ham tushum kelishigining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida turkiy tillarda qadimdan qo'llanib keladi. O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida bu affiks I va II shaxs shaklidagi so'zlarga ham qo'shilgan: *Bu sabımın esid* (O'rx.-En.) — “*Bu so'zimni eshit*”. *Türk budun, ilıñın, tərüñin kim artatı ?* (O'rx.-En.) — “*Türk xalqi, sening elingni, davlatingni kim halok qildi?*” *Etözümın, ısıg özümın titkülüg, ıdalag'uluq öd qolu soqa kälti* (Qad. uyg.) — “*Tanamni, issiq jonimni titib, burdalab tashlaydigan vaqt keldi*”.

3. Tushum kelishigining -ı/-i affiksli shakli ayrim manbalarda qo'llangan bo'lib, asosan egalik shaklining I shaxs birligidagi so'zlarga qo'shilgan. XV asr va undan keyingi davrlarda bu shakl ba'zi she'riy asarlardagina uchraydi. Misollar: *Salayın özümü özgä adyāra // köñülni bag'lag'ayın özgä yāra* (MN). *Aydı ayalıng'ü uqlatqıl og'lanlarıñı* (Tafsir). *Tolun ayg'a nisbat ettim yarımı // ul xıjalatdın kam oldı yarımı* (Navoiy, MN). *Men ki tanabıng'a chıqıb-men kelib // xızmatımı yaxshı qılınlar bilib* (Muqimiy).

Tushum kelishigining -ı/-i affiksli shakli XI–XII asrlarga oid yozuv yodgorliklar tiliga xos bo'lgan. Misollar: *Surdı meniñ qoyumu* (MK) — “*Mening qo'ylarimni haydab ketdi*”. *Yaqın tuttı İlık, kər, Ögdülmishi* (QB) — “*Ko'r, İlık O'gdulmishni o'ziga yaqın tutdı*”. *Tüzättim bu on tørt bāb ichrā sözi* (HH) — “*Bu o'n to'rt bobda so'zni tizdim*”.

Tushum kelishigining -ı/-i affiksli shakli (turli fonetik shakllari bilan) o'g'uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo'lib, hozir ushbu guruhga mansub bo'lgan turk va gagauz tillarida tushum kelishigi uchun shu shakl qo'llanadi. Bu shakl hozir ayrim o'zbek shevalarida, masalan, Xorazm shevalarining ba'zilarida ham mavjud.

**18-§.** Turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida tushum kelishigining -g'/-g (unlidan keyin: -ıg'/-ig, -ug'/-üe) affiksli shakli ham qo'llangan. Bu shakl O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy



tili yodgorliklarida keng iste'molda bo'lgan. Masalan: *Tört bulundaqi budumig' kəp almış, ... bashlig'ig' yüküntürmiş* (O'rx.-En.) — "*To'rt tarafdagi xalqlarni bosib olgan, ... boshliqlarini bo'ysundirgan*". *Barsig', kökmägig ölürmədim* (O'rx.-En.) — "*Qoplonni, bug'uni o'ldirmadim*". *Ulug'ı tigin bu savig' eshitur...* (Qad. uyg'.) — "*Ulug' shahzoda bu so'zni eshitib...*". *Ilig bəgig, qatunug' eglantürdilər* (Qad. uyg'.) — "*Ilik begni, xotinni hushiga keltirdilar*".

Bu shakl XI—XII asrlarga oid yozuv yodgorliklarida ham ancha keng qo'llangan. Masalan: *är işhig' irtadı* (MK) — "*Kishi ishni istadi*". *Kün tonug' qurıttı* (MK) — "*Kun to'nni quritdi*". *Ol sözüg aňladı* (MK) — "*U so'zni tushundi*". *Atıg' əgsä, yügrür, ucharıg' yätär* (QB) — "*Otni parvarish qilsang, tez chopadi va uchar (qush)ni ham qoldiradi*". *Munıqamış kishilər ölümüg qolur* (QB) — "*G'amgin kishilar o'limni tilaydilar*". *Bilıglik keräklıg sözüg sözläyür* (HH) — "*Bilimli kerakli so'zni aytadi*".

Tushum kelishigining -g'/-g affiksli shakli XII asrdan keyingi yozuv yodgorliklarida uchramaydi, hozirgi turkiy tillarda ham qo'llanmaydi.

**19-§.** Tushum kelishigidagi so'z vositasiz to'ldiruvchi vazifasida kelib, harakatni o'z ustiga olgan manbani ifodalaydi.

Tushum kelishigidagi so'z belgili yoki belgisiz qo'llanishi mumkin. Belgili qo'llanganda aniq manbani ifodalaydi, belgisiz qo'llanganda esa shu turdagi manbani ko'rsatadi.

Tushum kelishigining belgisiz qo'llanishi ot turkumidagi so'zlariga — turdosh otlarga xos, ya'ni *nimani?* (nimalarni?) so'rog'iga javob bo'luvchi turdosh otlar boshqaruvchi fe'l bilan yondosh holatda kelganda belgisiz qo'llanishi mumkin. Masalan: *Mänü xil'at kiyürüb, qosh tuttı* (MN). *Turg'ıl, ne'matlar yegil* (QR). *Buyurdi kim, ravänraq kältürüñ at* (Navoiy, FSH). *Xän dedi: xat bitib, o'q birlä atıñ* (SHN). *Arz etäyin emdi yazı b nāmalar* (Muqimiy).

Tushum kelishigining belgili qo'llanishi nasriy asarlar tili uchun xos bo'lib, she'riy asarlarda bu tartibning buzilish hollari ham uchraydi, ya'ni tushum kelishigining belgili qo'llanishi zarur bo'lgan o'rinlarda she'riyat talabi bilan belgisiz ham qo'llanadi. Qiyoslang: *Kəp urush birlä alı b Türkistan // baqturay deb arab-u Hindustän*

(SHN). *Tün-kün kezär itlär kibi sahrā-vu biyābān* (Atoiy). *Daimā beparvā sēz xalq ichrā aytur beibā* (Muqimiy). *Kishi kergān emās mundagʻ latāfat* (Furqat). *Hamisha bi hikāyat sorar erdi* (XSH).

20-§. Tushum kelishigi shakli boshqa kelishiklar vazifasida ham qoʻllanadi:

1. Qaratqich kelishigi oʻrnida qoʻllanadi. Masalan: *Agar oʻtni urushin kerüb, elkini otqa sunsa, ...* (QR). *Ikki zulfun kəjüllärni panāhi* (MN). *Lutfiyi niyati uldur ki, ...* (Lutfiy.) *Bir qırgʻavülni üskünäsini tørt kishi yeb tügätä almaydur* (BN). *Taqı qalgʻan vilāyatlarını barchasını algʻay* (Sh.tar.). *Asilni xatası bolmas, nākası atası* (Gulxaniy). *Kəjlini qattıgʻıgʻıdın der edim, ...* (Muqimiy).

Tushum kelishigi shaklining qaratqich kelishigi oʻrnida qoʻllanishi XVIII—XIX asrlarga oid yodgorliklar hamda “Boburnoma” tiliga xos boʻlgan. Bir qator manbalarda, masalan, “Shayboniynoma” va Navoiy asarlarida tushum kelishigining bunday qoʻllanishi uchramaydi.

2. Majhul daraja shaklidagi feʼllar odatda bosh kelishikdagi soʻzni boshqaradi. Shu bilan birga, ayrim manbalarda bunday feʼllar tushum kelishigidagi soʻzni boshqargan hollar ham mavjud. Bu hol “Boburnoma” tiliga xos boʻlib, Navoiyning ayrim nasriy asarlarida ham uchraydi: *Buyurgʻan gʻazallardın tayyār bolgʻanlarnı yibārildi* (Navoiy, Msh). *Anı üç qısm qılındı* (Navoiy, MQ). *Qasim bek bashligʻ beklärni yibārildi* (BN). *Baʻzi qalgʻan xatlarnı bu yurtta bitildi* (BN).

Qiyoslang: *sēzni muḡa qoydük* (BN) — *Sēzni muḡa qoyuldi*.

3. Harakat maʼnosini ifodalovchi feʼllar bilan boshqarilganda tushum kelishigi vazifasi jihatdan chiqish yoki oʻrin-payt kelishigiga yaqin boʻladi. Qiyoslang: *Yolnı tüz barur-men* (Yaqiniy). *Sind suyını ötkäch, ...tamāmi Hindustān tariqasidadur* (BN). *Qaraxān Ur tagʻı va Kür tagʻını avlar erdi* (Sh.tar.). *Jahānnı istäsäm, bolmas seniḡ-dek dilrabā paydā* (Huvaydo).

Qiyoslang: *Chashmai Paramı ötüb, andın qırgʻavul avlagʻaylar* (BN) — *Badij ketälidin ötüb, Lamgʻan barur* (BN).

4. Tushum kelishigidagi soʻz holatni ifodalovchi feʼllar bilan boshqarilganda, shu soʻzdan anglashilgan narsa-predmet, voqea-

hodisa haqida gap borayotgan bo'ladi: *Men xasta gadā hāhini sultānima aytni* (Lutfiy). *Sachni zanjirini devānadin so'r* (Atoiy). *Dāstāninni demān yarg'a* (Navoiy, FK). *Andin soñ nechük barib alurni zni ag'am birlān ōzläriñiz sözlāshür-siz* (Sh. turk.). *Bir ādamdin anuñ vaznini sordik* (Furqat).

5. *De-* (*te*) fe'li "atamoq" ma'nosida qo'llanganda, bu fe'li boshqargan so'z tushum yoki jo'nalish kelishigida kelishi mumkin.

Eski o'zbek tilida *de-* (*te-*) fe'li bilan boshqarilgan so'z ko'pincha tushum kelishigida qo'llanadi. Masalan: *Yüzüñni qiblai ahbāb derlār* (Atoiy). *Orazni gul der edi, qaddini sarv* (Navoiy, LT). *Ani ham Xānzāda begim derlār* (BN). *Ul yerläрни Dashti qipchaq derlār* (Sh.tar.) *Qirg'iz eli torasini inal derlār* (Sh.turk.). *Qashlarini hilāl debdürlār, qāmatini nihal debdürlār* (Munis).

*De-(te-)* fe'li bilan boshqarilgan so'zning jo'nalish kelishigida kelishi ayrim manbalardagina uchraydi: *Begim, lutfung'a "Shayhlillāh" dermān* (Atoiy). *Ja'dini chin mushki demishlār* (Sakokiy). *Darung'a yazır yurti derlār* (Sh.tar.) *Ana Shayx Hasan bozorg derlār* (Sh.turk.).

### **Jo'nalish kelishigi**

21-§. Eski o'zbek tilida jo'nalish kelishigining *-g'a /-gä //* *-qa/-kä* va *-a/-ä* affiksli shakllari qo'llangan.

*-g'a/-gä //* *-qa/-kä* affiksli shakl eski o'zbek tilida jo'nalish kelishigining asosiy shaklini tashkil etadi. Bu affiks shakllaridan qaysi birining ishlatilishi asosan shu affiksni qabul qiluvchi so'zning xususiyatiga bog'liq: *-g'a* shakli, odatda, unli yoki jarangli undosh bilan tugagan qattiq o'zakli so'zlarga qo'shiladi: *barchag'a, uyqug'a, suvg'a, maqsudg'a, ag'izg'a, yolg'a, aqshamg'a, chamang'a* kabi; *-qa* shakli jarangsiz undosh bilan tugagan qattiq o'zakli so'zlarga qo'shiladi: *ulusqa, yurtqa, tarafqa, yig'achqa, quyashqa, xalqqa* kabi. Shu bilan birga, ba'zi o'rinlarda bu tartibning buzilish hollari ham uchraydi, ya'ni qattiq o'zakli ayrim so'zlarga goh *-g'a* shakli, goh *-qa* shakli qo'shila bergan: *ulus-qa //ulusg'a, otqa // otg'a, urushqa // urushg'a, ashiquqa // ashiqg'a, islahqa // islahg'a, mag'ribqa // mag'ribg'a, maqsadqa // maqsadg'a, muhtajqa //*

*muhtajg'a, tag'g'a // tag'qa // taqqa* kabi.

Jo'nalish kelishigi affiksining yumshoq o'zakli so'zlarga qo'shiluvchi jarangli *-gä*, jarangsiz *-kä* shakllarining ikkalasi ham arab yozuvida bir xil ko'rinishga ega bo'lgan, ya'ni kof va alif (ك) orqali ifodalangan. Singarmonizm qonuniga muvofiq unli yoki jarangli undosh bilan tugagan yumshoq o'zakli so'zlarga qo'shilganda bu affiks *-gä* tarzida, jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda *-kä* tarzida talaffuz qilingan bo'lishi kerak: *kemägä, elchigä, közgülä, birävägä, sözgä, tilgä, küngä, yergä, kökkä, ishkä, kärmäskä* kabi.

Eski o'zbek tilida singarmonizm qonuniga muvofiq qattiq o'zakli so'zlarga jo'nalish kelishigi affiksining *-g'a* yoki *-qa* shakli, yumshoq o'zakli so'zlarga *-gä* yoki *-kä* shakli qo'shilgan. Shu bilan birga, yozuv yodgorliklarida bu tartibning buzilish hollari ham uchraydi, ya'ni *-g'a* yoki *-qa* shakli qo'shilishi zarur bo'lgan bir qator qattiq o'zakli so'zlarga yumshoq *-gä*, *-kä* shakllari yoki, aksincha, *-gä* shakli qo'shilishi zarur bo'lgan ayrim so'zlarga qattiq *-g'a* shakli qo'shilgan: *bandag'a // bandagä, sorg'ang'a // sorg'angä, shaharg'a // shahargä, atamg'a // atamgä, martabag'a // martabagä, muradg'a // muradgä, yolg'a // yolgä, jayg'a // jaygä, jafag'a // jafagä; davlatqa // davlatkä, ne'matqa // ne'matkä, maslahatqa // maslahatkä, majlisqa // majliskä, tarafqa // tarafkä; elgä // elg'a, könjülgä // konulg'a, üstigä // üstig'a, kishilärgä // kishilärg'a, yüzigä // yüzig'a, özigä // özig'a, sözgä // sözg'a, ichigä // ichig'a, birigä // birig'a, küngä // küng'a* kabi.

Jo'nalish kelishigi affiksi qattiq va yumshoq shakllarining ishlatilishidagi singarmonizm qonunining buzilish hollari asosan XIX asr yozuv yodgorliklari tiliga xos bo'lib, oldingi davrlarga oid manbalarda kam uchraydi.

**22-§.** Jo'nalish kelishigining *-g'a/-gä // -qa/-kä* affiksi III shaxs egalik shaklidagi so'zlarga qo'shilganda egalik affiksi bilan kelishik affiksi o'rtasida (n) undoshi orttirilishi mumkin. Bunday hollarda (n) sonor undoshi bo'lgani uchun jo'nalish kelishigi affiksi jarangli *-g'a* yoki *-gä* shaklida qo'shiladi: *Darya qırag'ıng'a tegdilär* (Tafsir). *Öz beğläringä sözlämish boldı* (QR). *Sözi xatunıng'a xush*

*keldi* (NF). *Meni xayrat maqāmīng'a yetürgil* (MN). *Közüm yashīng'a nazar qıl, көңül bolur ravshan* (Sakkokiy).

III shaxs egalik shaklidagi soʻzlarga qoʻshilganda joʻnalish kelishigi affiksi oldidan (n) undoshining orttirilishi XIII—XIV asrlar tiliga xos boʻlib, XV asrning I yarmiga oid ayrim manbalarda ham uchraydi. Keyingi davrlarga oid yozuv yodgorliklarida bu hodisa qayd qilinmagan.

Joʻnalish kelishigi affiksining ishlatilishidagi oʻziga xos xususiyatlardan yana biri III shaxs egalik shaklidagi qattiq oʻzakli soʻzlarga *-na* (*nä*) shaklida qoʻshilishidir. Bu hol XIII—XIV asrlarga oid yozuv yodgorliklar tili uchun xos boʻlgan: *Ul balıq tirildi, suv ortasıña kirdi* (Tafsir). *Öziniñ yash ogʻlanıña aydı* (QR). *Hisar qapugʻıña kelib, öküş harb qıldı* (NF). *Bezäb anı öz ornıña yaturdı* (XSH). *Külär ay husnuña gul-tek eñiniz* (MN). *Ogʻlan kelib atası xizmatıña, yer öpti* (Saroyi).

III shaxs egalik shaklidagi qattiq oʻzakli soʻzlarga joʻnalish kelishigi affiksining *-na* shaklida qoʻshilishi Oʻrxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklari, “Qutadgʻu bilig” tiliga xos boʻlgan.

**23-§.** Joʻnalish kelishigining *-a/-ä* affiksi quyidagi ikki holatda ishlatiladi: 1) jarangli undosh bilan tugagan soʻz asosiga bevosita qoʻshiladi: *bash+a* (boshga), *söz+ä* (soʻzga) kabi; 2) egalik shaklidagi, asosan, I va II shaxs birlik hamda III shaxs birlik va koʻplik shaklidagi soʻzlarga qoʻshiladi: *bashum+a* (boshimga), *bashın+a* (boshingga) kabi. III shaxs egalik affiksi unli bilan tugagani uchun *-a/-ä* affiksi oldidan (n) undoshi orttiriladi: *bashı+n+a* (boshiga), *bashları+n+a* (boshlariga) kabi.

1. *-a/-ä* affiksining soʻz asosiga bevosita qoʻshilishi bilan hosil boʻluvchi shakl XIII—XIV asrlarda nasriy asarlarda ham, sheʼriy asarlarda ham qoʻllangan boʻlib, keyingi davrlarda sheʼriy asarlardagina uchraydi: *Bu xabar lashkara yetmişdi* (Tafsir). *Salayın özümü özgä adyära // көңülни bagʻlagʻayın özgä yära* (MN). *Tört yıgʻachlıq yerä kirdilər* (QR). *Oshul ham qasd qıldı erdi jāna* (XSH). *Qachan yetküy-men ul dilbanda men* (Lutfiy). *Tüşär har kechä ay köktin zamına* (Atoiy). *Nafsı üçün ölümä berdi ogʻul* (SHN). *Bashlara ishıñ tüşüb savda bolur-mu muncha ham* (Muqimiy).

2. Egalik shaklidagi soʻzlarga *-a/-ä* qoʻshilishi bilan hosil boʻluvchi shakl ham XIII–XIV asrlarda nasriy asarlarda ham, sheʼriy asarlarda ham qoʻllangan: *Afra ornuma yanayin* (Tafsir). *Bir kimärsä evime kirdi* (Saroyi). *Ani men xizmatına keltüräyin* (XSH). *Qara kirpükümä qündüz teñalmäs* (MN). *Elini evinä urub yigʻlayur erdi* (QR). *Gul gʻunchalarına yettim ersä, ...* (Saroyi).

Bu shaklning XV asr va undan keyingi davrlarda qoʻllanishi quyidagicha: I va II shaxslarning birligi asosida hosil boʻluvchi *bashıma, bashına* turidagi shakllar asosan sheʼriy asarlarda uchraydi, III shaxs birlik va koʻpligi asosida hosil boʻluvchi *bashına* (*bashlarına*) turidagi shakl esa sheʼriy asarlarda ham, nasriy asarlarda ham qoʻllangan. Masalan: *Nechä januma jafa qılur-sen?* (Lutfiy). *Kechä-kündüz qashına yigʻılah* (SHN). *Seniñ xatiriña ne yetädur?* (BN). *Salman nazarnı özgä sanamlar jamalına* (Atoiy). *Taqı birgä kelgän kishilärinä xat beräliñ* (Sh.turk). *Kulangir bargähüna raväna boldı* (Gulxaniy). *Tüshti ekän bashına becharanıñ savdä nechük?* (Muqimiy).

Joʻnalish kelishigining *-a/-ä* affiksi qadimgi yodgorliklar tilida ham asosan egalik shaklidagi soʻzlarga qoʻshilgan. Masalan: *Inimä, ogʻlıma ötlädim* (Oʻrx.-En.) — “*Inimga, oʻgʻlimga nasihat berdim*”. *Özüm arzuladı anıñ qapqʻuñ* (QB) — “*Uning saroyiga (kelishni) oʻzim istadim*”. *Usuqmışa saqıgʻ qamugʻ suv korünür* (MK). — “*Chanqaganga har qanday sarob ham suv boʻlib koʻrinadi*”. *Taturmas esanında tüz dostıña* (HH). — “*(Baxil, nokas odam) tirikligida doʻstiga ham tuz tottirmaydi*”.

Joʻnalish kelishigining *-a/-ä* affiksli shakli oʻgʻuz guruhidagi turkiy tillar uchun xos boʻlib, bu tillarda qadimgi davrlardan boshlab joʻnalish kelishigi uchun shu shakl qoʻllanadi (unli bilan tugagan soʻzlarga *ya/yä* shaklida qoʻshiladi). Bu shakl hozir ayrim oʻzbek shevalarida, masalan, Xorazm shevalarining oʻgʻuz guruhida va j-lovchi oʻzbek shevalarida ham mavjud.

**24-§.** Turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida joʻnalish kelishigining *-gʻaru/-gärü // -qaru/ -kärü, -ra/-rü, -ru/-rü* affikslari bilan hosil boʻluvchi shakllari ham isteʼmolda boʻlgan. Bu affikslar keyinchalik oʻzining grammatik maʼnosini yoʻqotib, soʻzning

ajralmas qismiga aylangan va bunday soʻzlar ravish yoki yordamchi soʻzlar turkumiga oʻtgan.

Mavjud manbalarning koʻrsatishicha, qadimgi turkiy yodgorliklar tilidayoq bu shakllarning maʼnosi chegaralangan boʻlib, asosan bir predmetning boshqa predmet (obyekt) tomonga yoʻnalishi maʼnosini ifodalagan.

1. *-gʻaru/-gärü // -qaru/-kärü* affiksli shaklning isteʼmol doirasi Oʻrxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklaridayoq ancha chegaralangan. Misollar: *Ogʻuzgʻaru sü tashıqdımız* (Oʻrx.-En.) — “*Oʻgʻuzlarga tomon askarlar bilan bordik*”. *Yirinärü, subınaru qontı* (Oʻrx.-En.) — “*Oʻsha yerga, suvga tomon qoʻndi, joylashdi*” (yirinärü < yirin + gärü, subınaru < subın + gʻaru). *Biz uygʻurgʻaru kältük* (Qad.uygʻ.) — “*Biz uygʻurga tomon keldik*”. *Yavlaq yirgärü barır-miz* (Qad.uygʻ.) — “*Yomon yerga boryapmiz*”.

Ushbu shakl XI asr yodgorliklarida ham qoʻllangan: *Bayat tapgʻınaru ilinmish özüm* (QB) — “*Men tangrining xizmatiga moyil boʻlganman*” (tapgʻınaru > tapgʻın + garu). *Qış yaygʻaru suvlanur* (MK) — “*Qish yozga shivirlaydi*”. *Yagʻıqaru kirish qıldım* (MK) — “*Dushmanga qarshi urush qildim*”.

Bu shakl XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida uchraydi: *Qoychi anlarqa aydı: sizlär kimlär-sizlär, qaygʻaru borur-sizlär?* (Tafsir). *Yusuf yüz evurdi, Zulayhanı kermäyin teb artqaru baqtı, öz suvratın kerdı* (QR). *Falaknı yetti maydän artqaru salmış* (XSH).

Keyingi davrlarda *gʻaru/-gärü // -qaru/-kärü* affiksi *tashqarı* (<tashqaru<tash+qaru), *ichkäri* (ichkärü<ich+kärü) kabi soʻzlar tarkibida saqlangan boʻlib, bu soʻzlar ravish turkumiga oʻtgan. Bu jarayon ancha qadimdan boshlangan. Masalan, Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida *qurıgʻaru* “orqaga (gʻarbiga)”, *ilgärü* “oldinga (sharqqa)” kabi soʻzlar ravish maʼnosida qoʻllangan.

2. *-ra/-rä* affiksining kelishik vazifasida ishlatilishi qadimgi turkiy yodgorliklarning ayrimlarida kuzatiladi: Masalan: *Agʻulugʻ oʻqın yüräkrä urup...* (Qad.uygʻ.) — “*Zaharli oʻqini yurakka urib*”. *Anı bashra qaqtı* (MK) — “*Uni boshiga urdi*”. *Tamgʻa suvi tashra chıqıb, tagʻıgʻ etär* (MK) — “*Bu suvning tarmogʻi tashqariga chiqib,*

tog' atroflariga tarqaladi".

-ra/-rā affiksining kelishik vazifasini bajarishi XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida uchraydi: *Darudan tashra chiqmaduq* (Tafsir). *Bir azaqın evgā qattı taqı bir azaqı tashra turur erkān, Zulayha keldi* (NF). *Andın soñra tashra chıqtı, turdı* (XSH).

Bu affiks ancha qadim davrlardanoq o'zining grammatik xususiyatini yo'qota borgan va ayrim so'zlar tarkibida saqlanib, ularning ajralmas qismiga aylangan. Qadimgi yodgorliklar tilidagi oñra (oldin), *asra* (pastki, quyi), *ichrā* (ichkari) kabi so'zlar tarkibidagi -ra/-rā ana shu affiksning qoldig'idir.

3. -ru/-rū affiksining ham kelishik vazifasida ishlatilishi qadimgi davrlardayoq chegaralangan. Misollar: *Evimrū bardı* (Qad.uyg'.) — "*Uyimga bordı (keldı)*". *Ebrū keltürtim* (Qad.uyg'.) — "*Uyga keltirdim*". *Ol māniñ tabaru keldi* (MK) — "*U menga tomon keldı*".

Bu affiks ham ancha qadim davrlardanoq o'zining grammatik xususiyatini yo'qotib, ayrim so'zlarning tarkibida saqlangan. Qadimgi yodgorliklar tilida ravish yoki ko'makchi ma'nosida qo'llangan *berū* (bu yoqqa), *yag'ru* (yaqin), *ınaru* (u yoqqa) kabi so'zlar tarkibidagi -ru/-rū ana shu affiksning o'zidir.

**25-§.** Jo'nalish kelishigi belgisiz qo'llanishi ham mumkin, ya'ni ma'lum sharoitlarda kelishik affiksi tushirib qoldiriladi. Ish-harakatning yo'nalgan tomonini ko'rsatuvchi so'zlar, asosan, joy nomlari harakatni ifodalovchi fe'llar bilan boshqarilganda, jo'nalish kelishigi belgisiz qo'llanishi mumkin.

Jo'nalish kelishigining belgisiz qo'llanishi eski o'zbek tilida nasriy asarlarda ham, she'riy asarlarda ham uchraydi. Bunday qo'llanish, ayniqsa, "Boburnoma" tiliga xos bo'lgan. Masalan: *Mashruqđın keldi, yolı Madına erdı* (Tafsir). *Andiñan barurg'a ruxsat tilädilär* (BN). *Bir inisin yı barur boldı Xisar* (SHN). *Andın kächüb, Irāq va Färs bärđtlar* (Sh.tar.). *Bular Erän bartb, ...*(FI). *Qālmay shaharda tāqatım // qışlaq chıqardım ādatım* (Muqimiy).

**26-§.** Jo'nalish kelishigidagi so'z vositali to'ldiruvchi yoki hol, ba'zan kesim vazifasida qo'llanib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Harakat yo'nalgan joy, tomon, manbani ko'rsatadi: *Kāmıgā*



suv kirdi (Tafsir). *Yaqında tahsil üçhün shaharg'a kelibtür* (Navoiy, MN). *Qal'ag'a kelib erdi ul sardār* (SHN).

2. Harakat yo'nalgan shaxs yoki narsani ko'rsatadi: *Zulayhā Yusufg'a keldi* (QR). *Bashın tupraqqa, tupraq bashqa atti* (XSH). *Arzımnı aytay bādi sabag'a // shāyad gapurgay ul gul qabag'a* (Muqimiy).

3. Biror shaxsga yoki narsaga atalganlikni bildiradi: *Anıñ atıng'a yazdıım ushbu kitābım* (XSH). *Atıımızg'a yem alı b ber, teb qolı na on tängä berdim* (Sh.turk). *Andijān shahrıda yürgän āshnālarg'a salām* (Furqat).

4. Evaz, tenglik, qimmat, barobarlik kabi ma'nolarni ifodalaydi: *On kishigä yetmishchä ash etmish erdi* (Tafsir). *Jānnı yarmaqqa sattı xojai xas* (Navoiy, SS). *Boldı chu hāki siyāh zarga barābar urug'* (Muqimiy).

5. O'xshatish, qiyoslash, nisbat berish kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Achchiq sözi Qırım shahdıg'a oxshar // jamāl ayyamı gul ahdıg'a oxshar* (MN). *Hilmni ... insāniyat mezāmi tāshıg'a nisbat qılsa bolur* (Navoiy, MQ). *Bahāsı ulug'ılg'ıg'a yarashadur* (BN).

6. Biror holatga o'tish, yetishish, biror narsaga erishish kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Keräk kim, meni ul arzumqa tegürsäniz* (NF). *Va hayālig'a kechmas davlatg'a sazāvar boldı* (Navoiy, MQ). *Nechä kündin soñ öz hālımg'a keldim* (BN). *Ellikā meniñ yashım yetibti* (Sh.turk). *Bir dānishmandıñ majlisig'a musharraf bolsa, ...* (TN).

7. Ish-harakatning yuzaga chiqishidagi birgalik, qurol, vosita kabi ma'nolarni ifodalaydi, ya'ni ish-harakatning amalga oshuvi jo'nalish kelishigidagi so'z ifodalagan shaxs yoki narsa ishtirokida, vositasida bo'ladi: *Bir yıl andag'-oq tayaqqa tayanı b turar erdi* (QR). *Himāyat üçhün özın kirishkä bag'ladi* (Yaqiniy). *Bu ikki yigittä maslahat qılıldı* (BN). *Taqı kishilārigä keñāsh qıldı* (Sh.turk). *Qang'a bag'rim toldı -yu sormay-sen hanuz* (Muqimiy).

8. Maqsad ma'nosini ifodalaydi. Bunda jo'nalish kelishigidagi so'z ko'pincha harakat nomi yoki sifatdosh shaklida bo'ladi: *İlm oğrānmākkä keldim* (QR). *Ziyāratqa kelgän ermish* (Navoiy, MN). *Biz señä chāra qılurg'a keldük // dushman āvāra qılurg'a keldük* (SHN).

9. Sabab ma'nosini ifodalaydi. Bunda ham jo'nalish kelishigi-

dagi soʻz asosan harakat nomi yoki sifatdosh shaklida boʻladi: *Havā bu soʻzga qazgʻuluq boldi* (QR). *Seni sevmäkkä sitam qilgʻumdur* (SHN). *Künler gʻāyat qısqalıqqa ilgārigi kishi yaruq chaqda havāl aldıgʻa keldilər* (BN).

10. Payt maʼnosini ifodalaydi. Bunda joʻnalish kelishigidagi soʻzning oʻzi payt maʼnosidagi soʻzdan iborat boʻladi: *Tāngʻa salma va dai vashıñı* (Navoiy, GʻS). *Sabāhıgʻa bizgä qoshulur* (BN). *Bu küngi ishni tāngʻa salgʻan kishiniñ hech ishi bütmas* (Sh.turk).

11. Biror narsa yoki shaxsning joʻnalish kelishigidagi soʻz anglatgan shaxsga yoki narsaga qarashli yoki taalluqli ekanligi, mansubligi koʻrsatiladi. Bunday hollarda joʻnalish kelishigidagi soʻz vositali toʻldiruvchi yoki kesim vazifasida keladi: *Bu xitāb sizgä turur* (Tafsir). *Mavlānā Ofatiy mashhadıgʻdur, halvāgarlikkä mansub qılurlar* (Navoiy, MN). *Oshal bulaqdın yuqarı Musıyhāygʻa taalluq bolur* (BN). *Ul malāhat mulkınıñ sultānıgʻa maxsusdur* (Furqat).

27-§. Joʻnalish kelishigi shakli boshqa kelishiklar oʻrnida ham qoʻllanadi. Kelishik shakllarining, xususan, joʻnalish kelishigi shaklining boshqa kelishiklar vazifasida ishlatilishi asosan boshqaruvchi feʼlning xarakteri bilan bogʻliq holda yuzaga keladi.

1. Joʻnalish kelishigi shakli chiqish kelishigi oʻrnida qoʻllanadi: *Soʻrar qızlargʻa kim, ushbu ne hāl teb* (XSH). *Mir bir azızgʻa iltimās qılıbdur* (Navoiy, MN). *Bashıgʻa ne kim ötti, eylādi yād* (Navoiy, SS). *Hayalıgʻa bu kechibtür kim, Sultān Ahmad Mirzā ulugʻ pādshāhdur...* (BN). *Alar har qaysıları bir ilmgä dars aytur ekānlär* (Furqat).

2. Joʻnalish kelishigi shakli oʻrin-payt kelishigi oʻrnida qoʻllanadi: *Anı evinā көrmādi* (Tafsir). *Adam diyārıgʻa ham tapmagʻun xabar mendin* (Navoiy, FK). *Yazgʻa shahr oldı ulusdın hali* (SHN). *Ta ölgünchä kishi evinā ash yemäs* (Sh.turk).

3. Joʻnalish kelishigi shakli tushum kelishigi oʻrnida ham qoʻllanadi: *Ul kimersägä fasiq atayurlar* (Tafsir). *Maryam boʻzchılardın yol soʻrdı, yavuz yoʻlgʻa kivürdilär, tikānlär arasına tüşti, ulargʻa qarğʻadı* (QR). *Ul bechāra tiriglikdin umidin kesib, sultāngʻa sökti* (Saroyi). *Köz qamar baqqʻan yüzünjä māhi tabān atadı* (Sakkokiy).

Hozirgi o'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda tushum kelishigidagi so'zni boshqaruvchi *sək* (so'kmoq), *qarg'a* (qarg'amoq), *ata* (atamoq) kabi bir qator fe'llar eski o'zbek tilida asosan jo'nalish kelishigidagi so'zni boshqargan (yuqoridagi misollarga qarang).

Eski o'zbek tilida *de-* fe'li asosan tushum kelishigidagi so'zni boshqargan bo'lib, ayrim manbalarda jo'nalish kelishigidagi so'zni boshqarish hollari ham uchraydi (qarang: 20-§).

### *O'rin-payt kelishigi*

**28-§.** O'rin-payt kelishigi affiksi eski o'zbek tilida jarangli (d) undoshi bilan boshlanuvchi *-da/ -dä* va jarangsiz (t) undoshi bilan boshlanuvchi *-ta/-tä* shakllarida qo'llangan.

Bu affiks tarkibidagi undoshning jarangli yoki jarangsiz holda kelishi odatda shu affiksni qabul qiluvchi so'zning qanday tovush bilan tugagan bo'lishiga bog'liq bo'ladi, ya'ni unli va jarangli undosh bilan tugagan so'zlarga jarangli *-da/-dä* shakllari qo'shiladi: *qal'ada, uyquda, kezgüda, tashqarida, ichkärida, suvda, bag'da, sözdä, yolda, kəñüldä, g'amda, tündä, bazarda, yerdä* kabi. Jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga esa jarangsiz *-ta/-tä* shakllari qo'shiladi: *yuritta, eshiktä, qışlaqta, kəktä, tashta, ishtä, ulusta, yig'achta* kabi. Lekin, yozuv yodgorliklarining ko'rsatishicha, eski o'zbek tilida jarangsiz undosh bilan tugagan so'zlarga ham ko'pincha jarangli *-da/-dä* shakllari qo'shilgan: *yurtda, eshikdä, qışlaqda, kəküdä, tashda, ishdä, ulusda, yig'achda* kabi.

**29-§.** O'rin-payt kelishigi affiksi III shaxs egalik shaklidagi so'zlarga qo'shilganda, egalik affiksi bilan kelishik affiksi o'rtasida [n] undoshi orttirilishi mumkin, ya'ni *qolida, yohda, sözida, ishidä* kabi so'zlar *qolna, yolna, sözindä, ishindä* shaklida ham qo'llanadi.

III shaxs egalik shaklidagi so'zlarga qo'shilganda o'rin-payt kelishigi affiksi oldidan (n) undoshi orttirilishi XIII—XIV asrlar tiliga xos bo'lib, bu davrga oid she'riy asarlarda ham, nasriy asarlarda ham bunday so'zlar ko'pincha [n] li shaklda qo'llangan. Bunday qo'llanish XV asrning birinchi yarmiga oid yozuv yod-

gorliklar tili uchun ham xos bo'lgan. XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab bunday so'zlarning [n] li shaklda qo'llanishi ancha chegaralangan bo'lib, asosan she'riy asarlarda uchraydi. Lekin "Shajarai tarokima", "Shajarai turk" asarlari bundan mustasno, ya'ni bu asarlarda asosan [n] li shakl qo'llangan. Bunday so'zlarning [n] li shaklda qo'llanishi Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tili uchun ham xos bo'lgan.

III shaxs egalik shaklidagi so'zlarga qo'shilganda egalik affiksi bilan o'rin-payt kelishigi affiksi o'rtasida [n] undoshi orttirilishi qadimgi turkiy yodgorliklar tili uchun ham xos bo'lgan. Masalan: *yiti yashinta* (O'rx.-En.) — "yetti yoshida", *kishi ajuninta* (Qad.uyg'.) — "kishilik dunyosida", *tilindä yorintu* (QB) — "tilida bayon qildi", *beg qısqında* (MK) — "bek qisig'ida".

**30-§.** O'rin-payt kelishigi o'rin holi, payt holi, vositali to'ldiruvchi, ba'zan kesim vazifasida qo'llanib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning bajarilish o'rnini yoki narsaning joyini ko'rsatadi: *Men sahrāda yalg'uz qaldım* (NF). *Faqir bir majlisda... anı kerdüm* (Navoiy, MN). *Bu yurtta farmān boldı kim, ...* (BN). *Bar edi Farg'ānada bir sārban* (Gulxaniy).

2. Ish-harakatning bajarilish paytini, vaqtini bildiradi: *Ul sāatda xurma yig'achu yashardı* (Tafsir). *Kündä on g'azal, balke artuq aytur ermish* (Navoiy, MN). *Meniñ ādatım āmānlıqda ham uldur kim, ton chıqarmay yatar-men* (BN). *Bahar ayyāmıda gul gasht etārgä bir chaman bolsa* (Furqat).

3. Vosita, qurol ma'nosini ifodalaydi, ya'ni ish-harakatning amalga oshuvi o'rin-payt kelishigidagi so'zdan anglashilgan predmet orqali, vositasida bo'ladi: *Seniñ yādıñ qılur-men kəp g'azalda* (MN). *Bu pari sözde kərgüzür mo'jiz* (Navoiy, SS). *Go'shtıdın bir pārasını kabāb qıldük, bir pārasını aftābada pishürüb yedük* (BN). *Yana bir nāmada mundag' demishlär kim, ...* (Sh.tar.).

4. O'rin-payt kelishigidagi so'z ish-harakatning nima bo'yicha, nima jihatdan yuz berganini ko'rsatadi, ya'ni ish-harakatning o'rin-payt kelishigidagi so'z anglatgan soha bo'yicha yuz berishi ifodalanadi. O'rin-payt kelishigining bunday qo'llanishi

asosan mavhum ma'nodagi so'zlar doirasida kuzatiladi: *Seni ishqiında bag'rimdın āqar qān* (MN). *Tekar bir kün qızıl qānım oshul keñül qara g'amda* (Sakkokiy). *Bu baytlarnı anıñ vasfıda aynb tururlar* (Sh.turk). *Ul parıru hajrıda har lahza qān yıg'lar edim* (Furqat).

5. O'rin-payt kelishigidagi so'z kesim vazifasida kelishi mumkin. Bunda holat yoki o'rin ma'nosi ifodalanadi: *Taqı bularnıñ qatında-mu turur?* (Tafsir). *Hiriı shahrıda ālamdın etti va qabrı Xiyābādadur* (Navoiy, MN). *Bu chashma naxlistānnıñ yānıdadur, yān yerdādūr* (BN).

**31-§.** O'rin-payt kelishigi shakli boshqa kelishiklar o'rnida ham qo'llanadi:

1. Jo'nalish kelishigi o'rnida qo'llanadi: *Keñlüm alg'an zulfi har sāat ayag'ıda tūshār* (Lutfiy). *Qayda kim keñlünüz tilār, yetiñiz* (Navoiy, SS). *Men Kabulg'a kelgāndā, ... Xurāsāndın Kābulda keldilār* (BN). *Öz nokarlarıñız birlān anda barıb, otav suqub keliñlār* (Sh.tar.).

2. O'rin-payt kelishigi shaklidagi so'z chiqish kelishigi ma'nosida ham qo'llanadi: *Bashını üch yerdā yardılar* (Tafsir). *Og'uldın özgālār qılsa bu ishni // ketärgäy erdi shah ul tanda bāshını* (XSH). *Meni devāna teb, axir surar ermish eshikindā* (Sakkokiy). *Atasınıñ yaxshı-yamanında söz desä bolmas kim, bag'āyat mashhurdur* (Navoiy, MN).

Butunning qismini, to'da yoki guruhning ma'lum bo'lagini ajratib ko'rsatiladigan hollarda ham chiqish kelishigi o'rnida o'rin-payt kelishigi shakli qo'llanishi mumkin. O'rin-payt kelishigining bunday qo'llanishi XIII—XIV asrlarga oid yozuv yodgorliklar tiliga xos bo'lib, keyingi davrlarda ayrim manbalarda uchraydi: *Tünüñ üch ulushında biri kechmishdā erdi* (QR). *Tügānmäs mıñ yıl ichsä mıñda biri* (MN). *Ikki qag'azda biridā Ali yā Hasan bitib, yana biridā Fātima bitib, ...* (BN). *Künlärdā bir kun avg'a chıqıb, ...* (Sh.tar.).

XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda ko'makchili birikmalar tarkibida ham chiqish kelishigi o'rnida ba'zan o'rin-payt kelishigi shakli ishlatilgan. Masalan: *Munda onđın ayg'ay erdilār*

(Tafsir). *Rozgār kechmidä kezin yana bir kün* (QR). *Bu söz aymışda soñ keçti bir ancha* (XSH).

### *Chiqish kelishigi*

**32-§.** Eski o‘zbek tilida chiqish kelishigining asosan *-dın/-din -tın/-tin* affiksli shakli qo‘llangan bo‘lib, ayrim manbalarda *-dan/ -dän // -tan/-tän* va *-dun/-dün // -tun/-tün* affiksli shakllar ham iste‘molda bo‘lgan. Bular bir affiksning turli fonetik shakllari bo‘lib, tarkibidagi unli yoki undosh tovushning xususiyatiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi.

1. *-dın/-din -tın/-tin* affiksli shakl chiqish kelishigining asosiy ko‘rsatkichi sifatida eski o‘zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida faol iste‘molda bo‘lgan.

Bu affiksning jarangli *-dın/-din* yoki jarangsiz *-tın/-tin* variantlarda ishlatilishi ham o‘rin-payt kelishigi affiksining jarangli va jarangsiz shakllarda ishlatilishidagi kabi tartibda bo‘lgan, ya‘ni unli yoki jarangli undosh bilan tugagan so‘zlarga jarangli *-dın/-din* shakllari qo‘shiladi: *qal‘adın, uyqudın, ko‘zğüdın, tashqarıdın, ichkeridin, suvdın, bag‘dın, so‘zdın, yoldın, ko‘ñüldın, g‘amdın, tündın, bāzārđın, yerđın* kabi. Jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga esa singarmonizm qonuni talabiga ko‘ra jarangsiz *-tın/-tin* shakllari qo‘shilishi kerak: *yurttın, eshiktın, qıshlāqtın, ko‘ktın, tashttın, ishtın, ulustın, yıg‘achtın* kabi. Lekin yozuv yodgorliklarida bunday so‘zlarga jarangli *-dın/-din* shakllari ham qo‘shilavergan: *yurtdın, eshikdın, qıshlāqdın, ko‘kdın, tashdın, ishdın, ulusdın, yıg‘achdın* kabi. Navoiy asarlari va “Shayboniynoma” kabi ayrim manbalarda hamda XIX asrga oid yodgorliklarda jarangsiz undosh bilan tugagan so‘zlarga ham asosan jarangli *-dın/-din* shakllari qo‘shilgan.

2. *-dan/-dän // -tan/-tän* affiksli shakl XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklardan “O‘g‘uznoma”, “Qissasi Rabg‘uziy”, “Xusrav va Shirin” tiliga xos bo‘lgan; “Guliston bit-turkiy” asarida asosan shu shakl qo‘llangan. Masalan: *Uch kündän soñ zındāndan chı qardı* (QR). *Anıñ bashı sog‘uqtan ap-aq turur* (O‘N). *To‘quz yashından so‘ñ* (XSH). *Elin ashtan chekib* (Saroyi).

XV—XVIII asrlar davomida o‘zbek tilida chiqish kelishigining *-din/-din // -tin/-tin* affiksli shakli qo‘llangan bo‘lib, *-dan/-dän // -tan/-tän* affiksli shakl XIX asrga oid manbalarning ayrimlarida uchraydi. XIX asr oxirlaridan o‘zbek tilida bu shaklning qo‘llanishi faollasha borgan bo‘lib, keyinchalik o‘zbek adabiy tili uchun me‘yor sifatida shu shakl *-dan* shaklida qabul qilingan.

3. Chiqish kelishigi affiksining *-dun/-dün // -tun/-tün* shakllari tarkibida (oxirgi bo‘g‘inida) lab unlisi bo‘lgan so‘zlarga qo‘shiladi. Bu shakl XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklardan “O‘g‘uznoma”-da qo‘llangan: *köp toqushg‘udun soq; qırq kündün soq; ul jaruqtun... chıqtı; anuq közi köktün kökräk erdi.*

Chiqish kelishigining yuqorida ko‘rsatilgan shakllari, yozuv yodgorliklaridan ma‘lum bo‘lishicha, turkiy tillar shakllanishi oldindan qo‘llanib kelgan. Jumladan, *-din/-din // -tin / -tin* affiksli shakl qadimgi turkiy tili yodgorliklarida chiqish kelishigining asosiy shakli sifatida keng iste‘molda bo‘lgan, “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘atit-turk”da ham chiqish kelishigi uchun asosan shu shakl qo‘llangan. *-dan/-dän // -tan/-tän* affiksli shakl qadimgi turkiy tilining “n” dialektiga xos bo‘lib, “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘atit-turk” asarlarida ham qo‘llangan. *-dun/-dün // -tun/-tün* affiksli shakl “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘atit-turk”da uchraydi.

**33-§.** III shaxs egalik shaklidagi so‘zlarga qo‘shilganda jo‘nalish va o‘rin-payt kelishiklaridagi kabi chiqish kelishigi affiksi oldidan [n] undoshi orttirilishi mumkin, ya‘ni *qoldın, yoldın, so‘zidin, ishidin* kabi so‘zlar *qolındın, yolındın, sözindin, ishindin* shaklida ham qo‘llanadi.

III shaxs egalik shaklidagi so‘zlarga qo‘shilganda chiqish kelishigi affiksi oldidan [n] undoshi orttirilishi yoki orttirilmasligi, ya‘ni bunday so‘zlarning [n]li shaklda yoki [n]siz shaklda qo‘llanishi yozma manbalarda turli darajada bo‘lgan: [n]li shakl XIII—XIV asrlarga oid manbalar tiliga xos bo‘lgan. [n]li shaklning faolligi XV asrning birinchi yarmiga oid manbalar tilida ham saqlangan, ya‘ni bu manbalarda [n]li shakl ham, [n]siz shakl ham qo‘llana bergan. XV asrning ikkinchi yarmi va undan keyingi davrlarda

asosan [n]siz shakl qoʻllangan boʻlib, [n]li shakl ayrim manbalardagina uchraydi. Lekin “Shajarai tarokima” va “Shajarai turk” kabi tarixiy mavzuda yozilgan asarlarda asosan [n]li shakl ishlatilgan. XVIII—XIX asrlarga oid manbalarda esa [n]siz shakl amalda boʻlib, [n]li shakl deyarli qoʻllanmagan.

III shaxs egalik shaklidagi soʻzlarga qoʻshilganda chiqish kelishigi affiksi oldidan [n] undoshi orttirilishi qadimgi turkiy yodgorliklar, jumladan, qadimgi turkiy tiliga oid manbalar va “Qutadgʻu bilig” tiliga xos boʻlgan.

**34-§.** Turkiy tillarda chiqish kelishigi shakli nisbatan keyingi davrlarda shakllangan boʻlib, maʼlum davrlargacha bu kelishik oʻrnida ham oʻrin-payt kelishigi shakli qoʻllangan. Masalan, Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida chiqish kelishigi maʼnolari ham oʻrin-payt kelishigi shakli orqali ifodalangan. Masalan: *Sizda... adirildim* — “*Sizdan ayrildim*”. *Türgäs qagʻanta körüg kaldi* — “*Turgash Hāqāndan aygʻoqchi keldi*”. *Anta kisrä inisi qagʻan bolmıs erinch* — “*Undan keyin inisi xoqon boʻlgan emish*”.

Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida ham chiqish kelishigi shakli bor. Lekin uning qoʻllanishi *qan* (qayer), *oŋ* (oʻng, sharq) kabi ayrim soʻzlar bilangina chegaralangan. Masalan: *Yarıqlıgʻ qantan kälip yana ältidi? Sünjüglüg qantan kelip surä ältidi?* — “*Qurollilar qayerdan kelib seni tarqatib yubordi, tor-mor qildi? Nayzalilar qayerdan kelib seni chalgʻitdi, es-hushingni oldi?*” *Ondan qagʻangʻaru sü yorlum* — “*Oʻngdan (sharqdan) xoqon tomonga qoʻshin tortaylik*”.

Qadimgi uygʻur tili yodgorliklarida chiqish kelishigi shakli shakllangan boʻlib, turli fonetik koʻrinishlarda ancha keng isteʼmolda boʻlgan. Shu bilan birga, chiqish kelishigi oʻrnida oʻrin-payt kelishigi shaklining qoʻllanishi bu manbalar tiliga ham xos boʻlgan. Masalan: *Yazuqda bosh bolalım* — “*Gunohdan xalos boʻlaylik*”. *Közüntä isig yashı təküyü* — “*Koʻzidan issiq yoshini toʻkib*”. *Emgäktä qurtulzunlar* — “*Qiyinchiliklardan qutilsinlar*”. *Bäg äbintä onut bardılar* — “*Beg uyidan qaytib ketdilar*”.

Chiqish kelishigi oʻrnida oʻrin-payt kelishigi shaklining qoʻllanishi XI asr yodgorliklari — “Qutadgʻu bilig” va “Devonu lugʻatit-turk”da ham aks etgan. Masalan: *Tildä chıqar ezgu söz*



(MK) — “Tildan yaxshi soʻzlar chiqargin”. *Kəni barır kiyikniy kəzində azın bashı yoq* (MK) — “Toʻgʻri ketayotgan kiyikning koʻzidan boshqa yarasi yoʻq”. *Buzunda talusi, kishidə chını* (QB) — “Xalqdan yetugi, kishilardan sof dili”. *Mana oq tapundıy kichikdə berü* (QB) — “Kichikligingdan beri faqat menga xizmat qilding”.

Chiqish kelishigi maʼnosining oʻrin-payt kelishigi shakli orqali ifodalanishi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tiliga xos boʻlib, keyingi davrlarga oid manbalarda kam uchraydi (qarang: 31-§).

**35-§.** Chiqish kelishigidagi soʻz oʻrin holi, payt holi, vositali toʻldiruvchi yoki kesim vazifasida kelib, quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning chiqish oʻrnini, boshlanish nuqtasini koʻrsatadi: *Chıqa kəldi chadirdin nāgāh ul hur* (XSH). *Tüshär har kechä äy kəktin zamina* (Atoiy). *Tegirmändın üyüngä un keltürür, anı pıshururgʻa yazıdın otun keltürür* (Navoiy, MQ).

2. Ish-harakatning boshlanish paytini, oʻtgan muddatini bildiradi. Bunday hollarda chiqish kelishigidagi soʻzlar asosan payt maʼnosidagi soʻzlardan iborat boʻladi: *Anı eshitti kim, oʻyđin eshitmishi yoq erdi* (Tafsir). *Kün tüshdin otüb erdi* (BN). *Yolıda termülür-men subhdın tā shām ham kelmäs* (Muqimiy).

3. Ish-harakatning yuzaga chiqishidagi sababni bildiradi: *Bu ogʻlanlar achlıqdın yıgʻlayurlar* (NF). *Darvish Muhammad Tarxān betāqatlıqtın stungʻa yapushti* (BN). *Tili kelmäslikindin ne ayturın bilmäy turur* (Sh.tar.).

4. Ish-harakatning yuzaga chiqishida vosita boʻlgan shaxs, narsa, voqea-hodisani bildiradi, yaʼni ish-harakatning amalga oshuvi chiqish kelishigidagi soʻz ifodalagan shaxs, narsa, voqea-hodisa ishtirokida, vositasida boʻladi: *Ul oʻyürgä oʻy yarudın kün tüshär erdi* (Tafsir). *Har kishinin aslını bilsä bolur axlāqdın* (Lutfiy). *Mavlānā Muhammad Badaxshiydin taʻrifin eshitib-men* (Navoiy, MN). *Mashruh bitib, bir kishidin yibärgäylär* (BN).

5. Butunning qismini, toʻla yoki guruhning maʼlum boʻlagini ajratib koʻrsatadi: *Jamāatniy kayfiyatın maʻlum qılmaq üçhün atfaldın birini tilädilar* (Navoiy, MN). *Anı oltürüb, goshtdın bir pära kabāb qıldük* (BN). *Har yılda malındın bir at va yä bir tevä*

*alurlar* (Sh.turk).

6. Narsa nimadan ishlanganini, materialini ko'rsatadi: *Yüzi altundın, budaqları kümüşdir bir qandil qıldılar* (QR). *Nizāmiy bālıdın halvā pishürdüm* (XSH). *Har yerdä tashdın panāh yasab-turlar* (BN). *Kəhlimiz bug'day undın bolg'an ashm tilāb turur* (Sh.tar.).

7. Ikki narsa yoki shaxsning biror belgisi, xususiyati, holatiga ko'ra bir-biri bilan qiyoslash, chog'ishtirish, ortiq yoki kamligini ko'rsatishda qo'llanadi: *Ashiqlarg'a vasldın yaxshı hijrān* (LN). *Gar tilār-sen, tapmag'un men nātavāndın yaxshıraq* (Navoiy, G'S). *Kābul uzumıdın G'azni uzumi yaxshıraq bolur* (BN). *Barcha ish-lerindın yamanraq bu kim, ...* (Sh.tar.).

8. Biror narsadan ajralish, xalos bo'lish, qochish, uzoqlashish, mahrum bo'lish kabi ma'nolarni bildiradi: *Oshul chimgān che-chākđın boldı hali* (XSH). *Ul safardın qılayın seni xalās* (SHN). *Kəzdın üçhär uyqu, chu aqsham boladur* (Bobur). *Bu hāla tüşmäyın-mu, gul badandın ayrılıb qaldım* (Furqat).

9. Ish-harakatning yo'nalishini ko'rsatadi, ya'ni ish-harakatning yo'nalishi chiqish kelishigidagi so'z anglatgan buyum, narsa bo'yicha yuz beradi: *Ul arada bir qush evgä tünlüqđın üçhüb kirdi*. (NF). *G'ayri lutfun kim, kechürgäy ushbu daryādın meni, ...* (Atoiy). *Oshul yoldın barıb, Tibätni chapıb keldi* (Sh.tar.).

10. Chiqish kelishigidagi so'z biror narsa, voqea-hodisa to'g'ri-sida xabar, ma'lumot berish ma'nosida ham qo'llanadi: *Bularqa aydı Shirin qissasıdın* (XSH). *Ey sabā, yetkür menā sarvi ravānımdın xabar // rahm etib bergil menā ārāmi jānımdın xabar* (Navoiy, MN). *Shayxıdın yana bir nimā rivayat qıldılar* (BN). *Elni yığ'ıb, vāqif etār zātıdın* (Muqimiy).

11. Yuqoridagi o'rinlarda chiqish kelishigi o'rin holi, payt holi, vositali to'ldiruvchi vazifasida kelgan. Bundan tashqari, chiqish kelishigidagi so'z kesim vazifasida ham qo'llanib, o'ringa yoki biror guruhga mansublikni bildiradi. Bunda chiqish kelishigidagi so'z ot kesim xususiyatiga ega bo'lib, kesimlik affiksini qabul qiladi yoki tarkibli kesimning qismi bo'lib keladi: *Ayıtı kim, ashıqlar shahrıdın-men* (XSH). *Mavlānā Kavşari Buxārādındur* (Navoiy,

MN). *Fāzil tarxān kim, ul tarxānlardı n emas, Türkistān tarxānları dı n bolur* (BN).

### *Vosita kelishigi*

36-§. Vosita kelishigi shakli *-n* (undoshdan keyin: *-in/-in// -un/-ün*) affiksi bilan hosil bo‘ladi: *arzu+n, ađaq+ın, til+in, qol+un, kez+ün* kabi.

Vosita kelishigi turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlariga xos bo‘lgan. Bu kelishik O‘rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida, “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘atit-turk” asarlarida ancha keng iste‘molda bo‘lib, ma‘nosi ham ancha keng bo‘lgan. Masalan:

1. Qurol, vosita bildiradi, ya‘ni ish-harakatning amalga oshuvi vosita kelishigidagi so‘z ifodalagan narsa yordamida, vositasida bo‘ladi: *Az tutuqı g‘ āligin tutdı* (O‘rx.-En.) — “Azlar garovini qo‘li bilan tutdı”. *Közün kērip, qulqaqı n āsıdıp, tilin sezlāp, ālgin sünüp, ādaqı n yorı p, ürkā üzluksız āmgätir-biz* (Qad.turkiy.) — “Ko‘z bilan ko‘rib, quloq bilan eshitib, til bilan so‘zlab, qo‘l bilan ushlab ko‘rib, oyoqda yurib, ilgaridan uzluksiz (o‘zimizni) urintirib kelamiz”. *Bashında kechürmish, közün kērmish er* (QB) — “Boshidan (ko‘pni) kechirgan, o‘z ko‘zi bilan (ko‘p narsalarni) ko‘rgan kishi”. *Ol anı bichäkin sanchdı* (MK) — “U uni pichoq bilan sanchdı”.

2. Birgalikni bildiradi, ya‘ni ish-harakatning birgalikda bajarilishini anglatadi: *Kültäginig az ärin irtärü itımız* (O‘rx.-En.) — “Kulteginni oz odam bilan (dushman orqasidan) kuzatish uchun yubordik”. *Otru äki aylıg‘ kishi og‘lı n soqushmish* (Qad.turkiy.) — “So‘ng ikki oylik odam bolasi bilan uchrashgan”. *Turub barsa avg‘a xılın, qoldashın* (QB) — “Ovga o‘z tengi va do‘sti bilan borsa”.

3. Ish-harakatning bajarilish usulini, holatini bildiradi: *Kültägin yadag‘ın oplayu tägdı* (O‘rx.-En.) — “Kultegin yayov hujumga tashlandi”. *Qattıg‘ ünın qıchqırdı* (Qad. uyg‘.) — “Qattiq ovoz bilan qichqirdi”. *Bālınlāb uzudı özi yalg‘uzun* (QB) — “O‘zi yolg‘izlikda qo‘rqib uyg‘ondi”. *Ezgülükın kel, esizlikın kelmä* (MK) — “Yaxshilik bilan kel, yomonlik bilan kelma”.

4. Ish-harakatning bo‘lish paytini, vaqtini bildiradi. Vosita

kelishigining bu ma'nosi asosan payt bildiruvchi so'zlar asosida yuzaga keladi: *Yayın sülâdim, budunig' anta buzdım* (O'rx.-En.) — “Bahorda lashkar tortdim, (dushman) xalqni o'shanda tor-mor qildim”. *Ol odün qatıldı* (Qad.turkiy) — “O'sha vaqtda qo'shildi”. *Künün yämädi, kör, tünün yatmadı* (QB) — “Qara, kunduz yemadi, kecha yotmadi (dam olmadi)”.

5. Ish-harakatning bo'lish o'rnini bildiradi: *Ötükän yirin qışladım* (O'rx.-En.) — “O'tikan yerida qishladim”. *Kishi ajunun bulmish yalnuqlarig'...* (Qad.turkiy) — “Kishi dunyoda orttirgan gunohlarni...” *Käräk yer üzä tur, käräk yer qatın* (QB) — “Xoh yer ustida tur, xoh yer ostida”.

37-§. Vosita kelishigi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tilida ham ancha keng iste'molda bo'lib, quyidagi ma'nolarda qo'llangan:

1. Qurol, vosita bildiradi: *Fasih tilin javâb berdi* (Tafsir). *Yerge yüzin tüşüb, ikki azaqın yergä tepär* (QR). *Taqı sharbat berdilər ersä, ichmädi. Küchün ichürdilär* (NF). *Öz elikin bashing'a tupraq sachı* (XSH).

2. Ish-harakatning bajarilish usulini, holatini bildiradi: *Yol yağılıb, yolsızın bardılar* (Tafsir). *Zinhär erklik qılmağ, yumshaqın sөzlän* (QR). *Hech qarınlarını kötrü bilmäslär, yüzün surıyu yä taqı yanın surıyu yürirlär* (NF). *Biri toqluqda ölmish, bir achın* (XSH). *Kishiniğ sensizin ne janı bolsun* (MN). *Qoy anı yalg'uzun, tamäshä qıl* (Saroyi).

3. Ish-harakatning bo'lish paytini, vaqtini bildiradi: *Yüridi tün-kündüzün bashlab Namrudniğ zuhräsı* (QR). *Axsham namäzı vaqtın tegdilär* (Tafsir). *Men munäjat halavatını ul vaqtın bilür-men, qachan kim...* (NF). *Axshämın karvân bir yergä yetti kim, og'rılar maqâmı edi...* (Saroyi).

4. Ish-harakatning bo'lish o'rnini bildiradi: *Kene tashqarun qalmasun billüg bolsun* (O'N).

Misollardan ko'rinib turibdiki, vosita kelishigining qadimgi turkiy yodgorliklardagi ma'nolari XIII—XIV asrlarda ham asosan saqlangan.

Vosita kelishigi XV asrga oid yodgorliklarda ham uchraydi. Lekin bu davrda vosita kelishigining iste'mol doirasi chegaralangan bo'lib, ayrim she'riy asarlardagina qo'llangan, ma'nosi ham toraygan. Qiyoslang: *Faryād etārām tūshkāli men yalg'uzun andin // hech oldi tanim, qaldi hamin yalg'uz ün andin* (Lutfiy). *Bolsa jannatda Atayi sensizin, qilg'ay fig'an* (Atoiy). *Aqlin erür qisqa va boynin uzun // lāf urub yürümeğir kündüzün* (Ahmadiy). *Gar may otidin qalması bazm ichrā savug'lug' // kelsāñ ketādür tirālikin dag'ı yarug'luq* (Navoiy, Msh).

Keltirilgan misollardagi *yalg'uzun*, *sensizin*, *kündüzün*, *tirālikin* so'zlari ish-harakatning bajarilish holatini, usulini, paytini ifodalashiga ko'ra ravishga o'xshaydi.

**38-§.** Turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida, masalan, o'zbek tilida XV asrdan boshlab vosita kelishigi o'zining grammatik xususiyatini yo'qotgan va kelishik kategoriyasi sifatida iste'moldan chiqqan.

Vosita kelishigi shaklidagi so'zlarning bir guruhi keyinchalik ravish turkumiga o'tgan bo'lib, bu jarayon asosan payt bildiruvchi so'zlar doirasida yuz bergan. Masalan, *qishin*, *yazın*, *ertän*, *kāchin*, *künün*, *tünün* kabi so'zlar tarkibidagi *-in*, *-in*, *-ün*, *-n* qismlari vosita kelishigining affiksi bo'lib, keyinchalik shu turdagi so'zlarning tarkibiy qismiga aylangan va bunday so'zlar ravish sifatida shakllangan.

Vosita kelishigining payt ma'nosida qo'llanishi qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ham uchraydi. Demak, vosita kelishigi shaklidagi so'zlarning ravish turkumiga o'tish jarayoni qadimgi turkiy yodgorliklar yozilgan davrlardan oq boshlangan.

### Ot yasalishi

**39-§.** Eski o'zbek tilida asosan quyidagi ikki usul bilan ot yasalgan: 1) morfologik usul (affiksatsiya); 2) sintaktik usul (kompozitsiya).

Sintaktik usul bilan ot yasalishi hozirgi o'zbek tilidan deyarli farqlanmaydi. Masalan: *qarabash*, *shabchırag'*, *almabash*,

*chaqırqanāt, temurqanāt, ichkuyār, tash kəñul, tash bag'ır, og'ul-qız, ata-ana, ag'a-ini, urush-toqush.*

Eski o'zbek tilida yasama otlarning asosiy qismini morfologik usul, ya'ni affiksatsiya yo'li bilan yasalgan otlar tashkil etadi. Yasama otlarning qanday ma'no ifodalashi ularning qaysi so'z turkumidan qanday affiks bilan yasalishiga bog'liq. Ot yasovchi affikslar qaysi so'z turkumidan ot yasashiga ko'ra dastavval quyidagi ikki guruhga bo'linadi: 1) ismdan ot yasovchi affikslar; 2) fe'ldan ot yasovchi affikslar. Otlarda kichraytish, erkalash shaklini yasovchi affikslar ham birinchi guruhga kiradi.

### *Ismdan ot yasovchi affikslar*

**40-§.** *-lıq /-lik // -lıg' /-lig* affiksi ismdan ot yasovchi mahsuldor affiksni tashkil etadi. Tarkibida (oxirgi bo'g'inida) lab unlisi bo'lgan so'zlarga lab uyg'unligi talabiga ko'ra bu affiks *-lıq /-lük // -lıg' /-lüg* ko'rinishida qo'shiladi: *qushluq //qushlug', dostluq // dostlug', kerklük //kerklüg, sevüklük// sevüklüg* kabi. Lekin bu qonuniyatga hamma vaqt ham amal qilinavermagan, ya'ni tarkibida lab unlisi bo'lgan so'zlarga ba'zi o'rinlarda bu affiksning *-lıq /-lik// -lıg' /-lig* shakllari ham qo'shilavergan: *qushluq //qushlıq, dostluq // dostlıq, kerklük //kerklik, sevüklük// sevüklük* kabi.

Bu affiks oxiridagi undoshning jarangli (g', g) yoki jarangsiz (q, k) holda kelishi tarixan ma'no farqlash bilan bog'liq bo'lgan, ya'ni jarangsiz undosh bilan kelgan *-lıq /-lik// -lıq /-lük* shakllari ot yasash uchun, jarangli undosh bilan kelgan *-lıg' /-lik// -lıg' /-lüg* shakllari sifat yasash uchun xizmat qilgan. Bu hol "Devonu lug'atit-turk"da ham aks etgan. Mahmud Koshg'ariy ham bu hodisaga alohida e'tibor berib, XI asr tilida ushbu affiksning jarangsiz [q, k] undoshlari bilan kelgan shakllari ot yasash uchun, jarangli [g', g] undoshlari bilan kelgan shakllari sifat yasash uchun xizmat qilishini uqtirgan (MK, 1-tom, 167, 459–460, 467–486-betlar).

Keyinchalik bu affiksning jarangli va jarangsiz shakllari o'rtasida ma'no farqlash xususiyati yo'qolgan. Masalan, eski o'zbek tilida jarangli va jarangsiz shakllari ot yasashda ham, sifat yasashda ham

baravar qo‘llanavergan. Qiyoslang: *Yaxshılıq qila almasan* (Navoiy, MQ) — *Yaxshılıg‘ni bilmässeñ* (Navoiy, MQ). *Sultān Mahmud bashlıq afg‘ānlar* (BN) — *Qāsım beg bashlıg‘ beglār* (BN). *Ashlıq üchün bardı* (SHN) — *Ashlıg‘ni alur boldı* (SHN). *Dostluq sözini* (SHN) — *Dostlug‘ gulshanı da* (Navoiy, MQ).

Keltirilgan misollarda *yaxshı*, *bash*, *dost* so‘zlariga bir o‘rinda *-lıq*, boshqa o‘rinda *-lıg‘* qo‘shilgan. Lekin har ikkala holda ham ot yasalgan. Sifat yasalishi ham shu xilda bo‘lgan. Misollarni qiyoslang: *Mo‘min atlıq bir og‘lı bar edi* (BN). *“Hayāl va visāl” atlıg‘ kitabı da bir baytı bar* (Navoiy, MN). Bu misollarning birinchisida *at* so‘ziga *-lıq*, ikkinchisida *-lıg‘* qo‘shilib sifat yasalgan.

*-lıq/-lik// -lıg‘/-lig* affiksi, asosan, ot va sifat turkumidagi so‘zlarga qo‘shiladi va quyidagi otlar yasaladi:

1. Mavhum tushunchani ifodalovchi ot yasaladi. Bu ma’no asosan mavhum tushunchani bildiruvchi otlar yoki sifatlarga qo‘shilganda anglashiladi: *Salāmathıq bolsun sizlārgā* (Tafsir). *Yaxshı begü birlā dostluq qıldı* (O‘N). *Menıñ shaydalıqımnı qılma ayb* (Sakkokiy). *Köp qattıqlıq tartım* (BN). *Qaldım judalıg‘ dardıg‘a* (Furqat).

2. Aniq tushunchani bildiruvchi otlarga qo‘shilganda, burch, vazifa, aloqadorlik, munosabat kabi ma’no’larni ifodalovchi ot yasaladi: *Farzandlıg‘ tarxanı salıb* (Navoiy, FSH). *Ahbāb, yigitlikni g‘animat tutunıuz* (Navoiy, MQ). *Qılsun og‘lumni og‘ulluqqa qabul* (SHN). *Tört āy xān‘ıq qılğ‘andın sōñ* (Sh.tar.).

3. Shaxs otlariga qo‘shilganda, kasb, hunar, mansab ma’nosini ifodalovchi ot yasaladi: *Mavlānā Zulāliy... g‘azal furushluq qılur* (Navoiy, MN). *Sañtarāshlıq qılur* (BN). *Soñra sipāhiylıqni tark qılıb...* (BN). *Elgā körgüzgāy chopanlıq* (SHN).

4. O‘rin bildiruvchi otlarga qo‘shilganda, shu o‘ringa aloqadorlikni, munosabatni ifodalovchi ot yasaladi: *Qalğ‘anın makkalıg‘larg‘a xayr qıldı* (Tafsir). *Mir Husayn mashhadlıg‘dur* (Navoiy, MN). *Anası andıjanlıq edi* (BN).

**41-§.** Quyidagilar ham ismdan ot yasovchi mahsuldor affiks-larni tashkil etadi:

*-chı/-chi* affiksi otga qo‘shilib kasb, hunar ma’nosini ifoda-

lovchi ot yasaydi: *Qoychi anlarga aydi* (Tafsir). *Temürchi temürni chiqardi* (NF). *Xoja Fahriddin bitigchi bābida ham nishanlar kim, bitilib erdi, ...* (Navoiy, Msh). *Kemāchilār kemā keltürdilār* (SHN). *Andın soñ tevāchilār achlıq sababdın balıq avlar-biz teb, ...* (Sh.tar.). *Sabab boldı hammamchi qorqqanıdın* (Muqimiy).

-chi/-chi affiksiga -lıq/-lik qo'shilishi bilan hosil bo'luvchi -chılıq/-chilik affiksi otga qo'shilib, kasb, hunar, mansab kabi ma'nolarni ifodalovchi ot yasaydi: *Musāni qoychılıqqa tutdı* (Tafsir). *Biz ma bozchilik oğrānālim* (QR) *Ul umrı ichında... elchilik qılmamış bolsun* (NF).

Ayrim hollarda -chılıq/-chilik affiksi tarkibiy qismlarga ajralmaydigan bir affiks sifatida tasavvur qilinadi. Qiyoslang: *Ul vilayat xalqının üç hissası dehqanchılıq bilā tiriklik qılsalar, ...* (Furqat). *Qorqa-men ulfatchilik barham yegāy deb ortada* (Muqimiy). *Buzuqchılıq qilgan... bu jamaat edilār* (BN).

Bu misollarda *dehqanchılıq, ulfatchilik, buzuqchılıq* so'zlari tarkibidagi -chılıq aslida ikki affiksdan (-chi+lıq) iborat bo'lsa ham, bu o'rinda bir affiksga aylangan, ya'ni bu so'zlar *dehqanchi, ulfatchi, buzuqchi* shaklida ishlatilmaydi. Bunday so'zlar eski o'zbek tilida juda kam uchraydigan hodisa bo'lib, hozirgi o'zbek tilida ancha ko'paygan. Masalan: *dehqonchilik, pishiqchilik, xursandchilik, qurg'oqchilik, loygarchilik, odamgarchilik, o'rtoqchilik, xafachilik, xafagarchilik, tirikchilik*.

-chi/-chi affiksining fe'lga qo'shilib ot yasalishi ham uchraydi: *Sen husn eliniñ xanı-sen-u banda tilānchi* (Lutfiy). *Öz atamızın atarchısı dur ul* (SHN).

-chi/-chi affiksi bilan ot yasalishi turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lib, qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ham aks etgan. Bu affiks bilan ot yasalishi XI asrda turkiy tillarning barchasi uchun umumiy holat ekanligini Mahmud Koshg'ariy uqtirib o'tgan (MK, II tom, 54-bet).

-dash/-dāsh (-tash/-täsh) affiksi otga qo'shilib, birgalik, yaqinlik kabi ma'nolarni ifodalovchi ot yasaydi: *Qoldashlarım meni ash, etmāk alg'alı ızdılar* (Tafsir). *Yashdashım kērsāñ, benim yoqluqımni saqıng'ıl* (QR). *Makkada urug'im, qadashım bar* (NF). *Kerjüldāsh-*



*men yana zālim erūr yār* (XIII). *Kichik qardashi xāqān bolmiş erdi* (Navoiy, FSH). *Kökältāshni türkchä til bilä derlär* (Navoiy, ML). *Bizniñ bilä yoldashlıq qıla almas edilär* (BN). *Bolma g'amnäk qarındashın üçhün* (SHN). *Emdi seniñ birlän qarıntash tururmiz* (Sh.tar.).

-dash/-dāsh (-tash/-täsh) affiksi bilan ot yasalishi XI asr tili uchun ham xos bo'lgan. Bu haqda Mahmud Koshg'ariy ham ma'lumot bergan (MK, 1-tom, 386-bet).

**42-§.** Ismdan ot yasovchi -duq, -chuq/-chük, -suq/ -sug', -kän, -sul kabi bir qator affikslar kammahsul bo'lib, ayrim so'zlar tarkibidagina uchraydi. Masalan: *Arqa orunduqi üzä olturub, tevāni tuta bilmes* (QR). *Burunduqi ham dāna yinjulardın tiziklik turur* (NF). *Örümchük parda tutar* (XSH). *Yaman ätka yal bitsä, yanıg'a torsuq bag'latmas* (Gulxaniy). *Ul kemāniñ yelkänini tavakkuldın qılg'ıl* (NF). *Qaraqchıdın ne qorqsun yoqsul* (XSH).

**43-§.** Otlarda kichraytish, erkalash shaklini yasovchi affikslar. Bunday shakllar yozuv yodgorliklarida kam qo'llangan bo'lib, ayrim so'zlar bilangina ishlatilgan. Bularndan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-chaq/-chäk — *tubuchak* (Navoiy, ML) — otning kichkinasi, kelinchek (Furqat). *Tubuchaq atı beshumar bolub edi* (BN). *Ag'azdı baltachaq kesmäkkä beldiñ* (XSH);

-(l)aq — *taylaq* (Sangloh). *Kiyikniñ og'laqi* (Sakkokiy). *Yusufnuñ konläkini ul og'laqniñ qanıña bulg'adılar* (QR). *Ortädi taylaqını nări firāq* (Gulxaniy);

-cha/-chä — *Bir qaz keldi, ul bag'cha ichindä qondi* (NF). *Batına älmas, aña bir chuqurcha — katta chäh* (Muqimiy). *Miqdārın besh gaz kevlügändä, bir közächä chıqıbdur* (Furqat);

-chuq — *Ul sut emär tilsiz og'lanchuq faryäd qıldı* (QR);

-(e)ch — *bekäch* (bu shakl yuqori tabaqaga mansub bo'lgan ayol ma'nosidagi *bekä* so'zidan yasalgan bo'lib, sevikli, hurmatli qiz yoki fuqaro qizi ma'nosini bildiradi): *Ishq ki bolsa yämān-u yaxshıdın, ey көñül // yoq tafavut gar bekäch bolsa va yaxud gar mirak* (Navoiy).

Qiyoslang: *atach og'ul* (MK, 1, 86) — o'zini katta kishilardek

ko'rsatuvchi o'g'il, *ulich* (*ul og'ul+ich*) (MK, 1, 86) — o'g'ilcha ma'nosida, *anach* (MK, 1, 86) — ona qiz, ya'ni o'zining ziyrakligi bilan hammaning onasidek hisoblanuvchi yosh qiz. *bekäch* (shahzodalarning laqabi): *bekäch arslan tegin* (MK, 1, 339), *ekäch* (MK, 1, 86) — ziyrak qiz.

-g'ina/-ginä — *Bilmädük, qaysi parivashg'ina manzur erkän* (Munis). *Ozbek anı -g'ina teyur, gāhi -ginä (-kinä) teyür, nechük kim, kichik atnı atg'ına va kichik kishini kishigiña teyür* (Sh.turk).

Kichraytish shaklini yasovchi -g'ina /-gina affiksi XI asrda -qıya/-kiyä shaklida ham qo'llangan. Masalan: *og'ul-qıya* — o'g'ilcha, *qızqıya* — qizcha, *erkiyä* — kichkina kishi, *yerkiyä* — kichik-kina, *ozgina yer* (MK, III, 184–185).

### Fe'ldan ot yasovchi affikslar

**44-§.** -q/ -g'// -k/-g affiksi. Undosh bilan tugagan so'zlarga qo'shilganda bu affiks oldidan bir unli orttiriladi: -aq/-ag'// -äk// -äg, -ıq/-ıg'// -ik/-ig, -uq/-ug'// -ük/-üg. Masalan: *soraq//sorug', qonaq//konuq, satıq//satıg', qılıq, yazuq, tutug', teshük, käyük, bitig, bilig.*

Bu affiks eski o'zbek tilida mahsuldor yasovchi bo'lib, u bilan yasalgan otlar quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Aniq predmetni bildiradi: *Bı chaq birlä sanchalıñ* (QR). *Kirib özi tutug' ichrä olturdi* (XSH). *Bu yarag' birlä yetishti lashkar* (SHN). *Ag'zi muhrluq bitigni oqub, ...* (Navoiy, Msh).

2. Fe'l o'zagidan anglashilgan ish-harakatning jarayonini, natijasini ko'rsatadi: *Kөktün bir көk yaruq tüşhti* (O'N). *Yana tørt yüz qul birlä satıg' qılurlar erdi* (QR). *Bilig bilmäk ichindä javhari sen* (MN). *Tiläklär tush bolur äre saharda* (Atoiy). *Yoq edi mäl-u qız alurg'a sorug'* (SHN).

3. Holatni bildiradi: *Kөñlümgä qorqug' kirdi* (NF). *Savuqta yatur erdi* (Saroyi). *El ölükni yad etärlär ki, ...* (Atoiy).

4. Belgi, xususiyatni bildiradi: *Bu көrk, bu qılıq birlä satılg'u qul ermäz* (QR). *Atag'ım ma Berkä faqih qıpchaq* (XSH). *Bu Lutfiy qul ne yazuq qılmısh erdi kim, ...* (Lutfiy). *Gar tanuq istär esän bu sözgä* (SHN).

5. Shaxsni bildiradi: *Taām bergil qonuqunqa* (Tafsir). *Qonuq kelgänni bildi* (XSH). *Har biri bir kishigä qonaq boldi* (SHN).

-q/-g' // -k/-g affiksi -la/-lä affiksi bilan hosil bo'lgan fe'llarga qo'shilganda (-la+q, -la+g') o'rin ma'nosidagi ot yasaladi: *avlaq* (ov qilinadigan joy), *qushlaq* (qush ko'p joy), *otlaq* (o't ko'p joy), *qishlaq/qishlag'* (qishlaydigan joy). Masalan: *Xut atlig' qishlag'din kœchüb, Xamal yaylag'qa og'radi* (QR). *Qoylarnu otlag'qa elätib turur* (NF). *Umid ul kim, banda yetkünchä yaylaqlarda bolg'aylar* (Navoiy, Msh). *Xojandniñ avlag'i va qushlag'i bisyar yaxshidur* (BN).

**45-§.** Quyidagilarni ham fe'ldan ot yasovchi mahsuldor affikslar guruhiga kiritish mumkin:

-*nch* (undoshdan keyin: -*nch*/-*inch*// -*unch*/-*ünch*) affiksi fe'l o'zagidan anglashilgan ish-harakatning nomini, holatini bildiruvchi ot yasaydi: *Tutulunch, urushunch andag' yaman boldi* (O'N). *Qābilniñ œkünchi Hābilni œltürmish üçhün ermäs erdi* (QR). *Barg'an elchigä sevinchi berihiz* (SHN). *Qorqunchdin hech nimärsä ayta bilmädilar* (Sh.tar.);

-*sh* (undoshdan keyin: -*ish*/-*ish* // -*ush*/-*üş*) affiksi ish-harakat jarayonini, holat ma'nosini bildiruvchi ot yasaydi: *Sanchishqa kirsä yigirmi miñ erni qaytarur ermish* (QR). *Urush-toqush bashlandi* (O'N). *Yürüş yarag'ını qayda bilgäylär* (BN). *Ul dag'i yaxshu qilur erdi savash* (SHN);

-*ma*/-*mä* affiksi narsa yoki holatni bildiruvchi ot yasaydi: *Yä atamniñ tug'maları, yä qarındashları, hech bilür-mu-sizlär kim, ...* (Tafsir). *Qozub sürma közingä* (XSH). *Nechük kim, agar mundaq ulug' qar bolmasa, andaq beräh uchma va sekirtmädin kim eti alg'ay edi* (BN). *Yzülmas salmanı boynunğa salma* (Gulxaniy);

-*g'u*/-*gü* // -*qu*/-*kü* (-*qi*) affiksi narsa yoki ish-harakatning belgisini ifodalovchi ot yasaydi: *Bıchqu birlä bıchdı* (Tafsir). *Bıchqu birlä ikki pära qıldı* (QR). *Andag' yaman urushg'u boldi* (O'N). *Bu suratqa baqıb, ichkü ichäliñ* (XSH);

-*g'uchi*/-*güchi* // -*quchi* /-*küchi* qo'shma affiks bo'lib (*g'u+chi*), fe'l o'zagidan anglashilgan harakatni bildiruvchi shaxs otini yasaydi: *Anıñtek xamr ichküchi netäk xalifa bolg'ay?* (NF). *Xushnavis kätib*

*sözlügüchigä va közlügüchigä asayish yetkürür* (Navoiy, MQ). *Bu kitābni oqug'uchi va tinlāgüchi, albatta, türk bolg'ay* (SH.tar.).

**46-§.** Quyidagi affikslar kammahsul bo'lib, bularning vazifasi ayrim fe'llardangina ot yasash bilan chegaralangan:

*-g'in/-qin // -g'un/-qun* affiksi belgi, xususiyatni ifodalovchi ot yasaydi: *Seni satg'in alib, āzād qilg'am* (QR). *Yarutmas evni uchg'un bolmasa sham* (XSH). *Seniñ üçhün satqun alali* (Navoiy, MQ). *Taylası chapqun yıbarıldı* (BN);

*-qich/-kich // -g'ich/-gich (-quch/-küch // -g'uch/-güch)* affiksi narsa, qurol oti yasaydi: *Qapulug' erdi, achqich yoq erdi* (O'N). *Bu bag'lıq ishingä achquch berildi* (XSH). *La'im tiftliniñ yelpügüch bilä varaqni savurmag'i kudurat yetkürür* (Navoiy, MQ). *Bermägäy tutquch misāli sabchıban og'rimıshıq* (Muqimiy);

*-qaq/-g'aq* affiksi bilan narsa yoki belgi nomini ifodalovchi ot yasaladi: *Beglāriñ kēni aymısh... qachqaq turub teb* (QR). *Temur targ'aq birlä etlärini tarar erdilär* (NF). *Kerekmes menje qachqaq yüzi* (SHN);

*-in/-in (-un/-ün)* affiksi ish-harakat jarayonini, natijasini bildiruvchi ot yasaydi: *Ich tonug'a bir tügün tugdi* (QR). *Bir ev satun aldım* (Saroyi). *Ul yig'ındın soñ alarnı teräli* (SHN). *Qurnp tegän jäyda ekin ekib, ...* (III.tar.);

*-ım/-im (-um/-üm)* affiksi fe'l o'zagidan anglashilgan ish-harakatning natijasini, nomini ifodalovchi ot yasaydi: *Ichimlärda sevükräki tevä sutı erdi* (QR). *Baylar ölümni unuttılar* (Sh.tar.). *Harāmzādani quyrug'ı bir tutam* (Gulxaniy);

*-maq/-māk (-muq)* affiksi ham fe'l o'zagidan anglashilgan ish-harakatning jarayonini, natijasini ifodalovchi ot yasaydi: *Tekmä bir ichmäkni hazır qılmısh* (Tafsir). *Køjüldä ishq chaqmaqı chaqıldı* (XSH). *Tilāb køjlüm seniñ ag'zıñni tapmas// kichik üçhün magar oynar yashunmaq* (Lutfiy). *Quymaq yesäñ, ...* (Gulxaniy). *Darhal Umar bulamuq qıldı* (NF);

*-vul* affiksi ma'lum guruhdagi fe'llardangina ot yasaydi. Alisher Navoiy o'zining "Muhokamatul lug'atayn" asarida bu affiks bilan harbiy va saroy lavozimlarini bildiruvchi ot yasalishini aytib, quyidagi misollarni keltirgan: *xiravul* (oldinda boruvchi qism),

*qaravul* (soqchi, qorovul), *chiñdavul* (harbiy yurishda asosiy kuchlardan keyinda boradigan qism), *yankavul* (suv tashuvchi), *sozavul* (ad'yutant), *patavul* (qal'a soqchisi), *yasavul* (boshliq, sardor), *bakavul* (dasturxonchi), *shig'avul* (elchini kuzatib boruvchi), *dakavul* (xizmatkor, kuzatuvchi).

Misollar: *Yasavul ki, bir mazlum ishi keynichä barg'ay, ...* (Navoiy, MQ). *Qul Bayâzid bakavul yalg'uz... özini suvg'a saldi* (BN). *Ushbu sözlär bilä ul yurtavul // salıban ilgeri soñ chag'davul* (SHN). *Tog'ruł beg... taqı uzaq qaravul saldı* (Sh.tar.).

-*vul* affiksi bilan qush nomlari ham yasaladi. Qiyoslang: *Qushluq-u ıtlıq yigitlär tutqavulmı saxlab, kiyik aldururlar* (BN). *Qırg'avul bag'larıda sansız* (SHN).

-*l* affiksi ham shaklan, ham mazmunan -*vul* affiksi bilan bog'liq. Alisher Navoiy o'zining "Muhokamatul lug'atayn" asarida -*l* affiksi bilan yasalgan so'zlar haqida gapirib, quyidagi misollarni keltirgan: *yasal* (qo'shin safi), *qabal* (qamal, o'rab olish), *tutqal* (xazinachi, qimmatbaho narsalarni saqlovchi), *tusqal* (soqchi, qorovul), *soyurg'al* (hissa, in'om, mukofot).

Misollar: *Sultän in'äm-u soyurg'alın kəzgä ilmädi* (Navoiy, MQ). *Ikki ay kim, qabal erdi anda // äz kishi qaldı qorg'ända* (SHN). *Yasalda biri yuqarı turg'ay* (BN).

47-§. Fe'ldan ot yasovchi bir qator affikslar eski o'zbek tilida o'zining so'z yasash xususiyatini yo'qotgan bo'lib, ayrim so'zlar tarkibida saqlangan. Quyidagilar shunday affikslarni tashkil etadi:

-*ut/-üt (-at/-et)* — *Yanuti bar bu ishniñ* (XSH). *Anası Zulayhäg'a telim əgütlär berdi* (QR). *Bu əlätidin meni xan ayırsun* (SHN);

-*cha/-chä* — *Ul küväçkä hech kimärsä chemchä qatmasun* (NF). *Kəñül avunchası kəñüldä bolg'ay* (XSH);

-*äch*— *Ul kemächni yegügä og'radı* (QR);

-*shı (-shu)* — *Meniñ qonshumda bir yüklük xatun bar erdi* (QR). *Evün qonshı davlatlıg'a, bol yig* (XSH);

-*mısh / -mish* — *Pushayman boldı shah öz qılmıshındın* (XSH). *Yemishi kəp ag'achqa tash atarlar* (Saroyi);

-*mur* — *Yag'mur yag'dı* (Tafsir). *Yag'mur yag'madı* (XSH).

Qiyoslang: *yamg'ur* (Atoiy);

-*chan* – *sog'ulchan* – chuvalchang (Sanglah);

-*chaq* – *salinchaq* – belanchak, *arg'imchak* (Abushqa), *ta-yanchaq* – tirgak, tirgovuch (Sanglah);

-*mach* – *bulamach* – undan tayyorlangan ovqat, *tutmach* – ugra osh (Sanglah), *qavurmach* – qovurma (Abushqa);

-*ruq/-rug'* – *tutruq* – tutam, bog'lam (Sanglah), *basrug'* – press, iskanja, taxtakach (Abushqa);

-*daq* – *bog'urdaq* – bo'g'in (Sanglah).

## SIFAT

**48-§.** Eski o'zbek tilidagi sifatlar ham tabiatiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1) asliy sifatlar; 2) nisbiy sifatlar.

1. Asliy sifatlar eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilidagidek narsaning rangi, tusi, hajmi, shakli kabi ma'nolarni bildiradi. Masalan: *qara sach halqasi* (Lutfiy), *sarig' yuz* (Sakkokiy), *Shirin soz* (Atoiy), *chin soz* (Gulxaniy), *achchiq til* (Navoiy, MQ), *yaxshi mevasi budur* (BN), *yaman katib manzili* (Navoiy, MQ), *uzun yash* (Lutfiy), *ulug' qabila taqi kichik qabila* (Tafsir), *yani ay* (Atoiy), *eski shal* (Atoiy), *qari kishi* (Sh.tar.), *tog'ri yol* (Lutfiy).

2. Nisbiy sifatlar turli so'zlarga sifat yasovchi maxsus affikslar orttirish yo'li bilan hosil bo'ladi.

## Sifat yasalishi

**49-§.** Eski o'zbek tilida ham sifatlar morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya) yo'llar bilan yasalgan.

1. Sintaktik usul bilan sifat yasalishi odatdagicha bo'lib, bunday sifatlar qo'shma, juft so'zlar shaklida bo'ladi. Masalan: *qara tamg'alq ay* (Lutfiy), *qara yuzluk bashi* (Navoiy, MQ), *suchug sozlug kimersa* (NF), *orta boyluq yigit* (BN), *kok yallug' bori* (O'N), *yaxshi-yaman xizmat* (Navoiy, MQ), *uzun-uzaq qissa* (BN).

2. Morfologik usul bilan ismlardan va fe'llardan sifat yasaladi.

### *Ismdan sifat yasovchi affikslar*

**50-§.** *-liq/-lik // -lig'/-lig (-luq/ -lük // -lug'/-lüe)* affiksi. Eski o'zbek tilida bu affiks ot yasashda ham, sifat yasashda ham mahsuldor bo'lgan (qarang: 40-§).

Bu affiks bilan yasalgan sifat so'z o'zagida ifodalangan narsa, belgi, xususiyatga egalikni bildiradi: *Bashir atlig' og'li bar erdi* (QR). *Yaqshi kerklig bir qiz erdi* (O'N). *Ayā, gul chehralik sarv-u ravani m* (Atoiy). *Sarv boyluq lāla ruxsari m qani* (Navoiy, LT). *Tag'lar tamām archaliq qalin bolur* (BN). *Küydi bu g'am bilā muylug' jam* (SHN).

**51-§.** *-li -li (-lu -lü)* affiksi. Bu affiks bilan yasalgan sifat ham so'z o'zagidan anglashilgan narsa, belgi, xususiyatga egalikni bildiradi: *Muḡa oḡin türlü javāb aymaq keräk* (NF). *Kel, ey āy yüzlü dilbar, tut birār qush* (MN). *Köz yāshı menizli, tursa bolmas* (Lutfiy). *Qımızlı ayaqı sondı* (Sh.tar). *Mazalı sözgä har qancha qulaq sālsa bolur* (Gulxaniy).

*-li/-li* affiksi bilan yasalgan sifatlar qadimgi turkiy manbalarda, jumladan, O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida uchramaydi. Ushbu manbalarda *-li/-li* affiksi vazifasini ham *-liq/-lik -lig'/-lig* affiksi bajargan. *-li/-li* affiksi bilan yasalgan sifatning qo'llanishi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tili uchun ancha xos bo'lgan. Lekin XV asrdan boshlab o'zbek tilida bunday sifatlar kam qo'llangan bo'lib, ayrim yodgorliklardagina uchraydi. O'zbek tilida *-li/-li* affiksi bilan yasalgan sifatning qo'llanishi XX asr boshlaridan faollasha boshlagan. Bu affiks o'g'uz guruhidagi turkiy tillarda, masalan, ozarbayjon tilida ancha qadimdan shakllangan bo'lib, sifat yasashda keng qo'llanib kelingan.

*-li/-li* affiksi-*liq/-lik // -lig'/-lig* affiksidan rivojlangan. Yuqorida aytilganidek, *-liq/-lik // -lig'/-lig* o'tmishda ham ot yasovchi, ham sifat yasovchi affiks vazifasini bajargan (qarang: 40-§). *-li/-li* affiksi bilan yasalgan sifatning qo'llanishi faollashgach, *liq/-lik // -lig'/-lig* affiksining vazifasi chegaralanib, asosan ot yasashda ishtirok etgan.

**52-§.** *-siz/-siz (-suz/-süz)* affiksi yuqoridagi affikslarning

antonimi hisoblanadi, ya'ni bu affiks bilan yasalgan sifatlar so'z o'zagidan anglashilgan narsaga, belgiga, xususiyatga ega emaslik ma'nosini ifodalaydi. Qiyoslang: *Qapug'in eshiki yarag'siz turur* (QR). *Vasl noshu dunyada bolmas, Atayi, nishsiz* (Atoiy). *Vafasiz behayalar alarni unutubturlar* (Navoiy, MQ). *Polad pichaq qinsiz bolmas* (Gulxaniy). *Jan-u kojulda yoqtur sensiz qarar-u aram* (Furqat).

Bu affiksda lab uyg'unligining aks etishida izchillik yo'q. Qiyoslang: *yolsuz* (QR), *qayg'usuz* (NF), *yazuqsiz* (Tafsir), *bulutsiz* (Lutfiy).

53-§. *-qi/-ki // -g'i/-gi* affiksi payt va o'rin bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, paytga, o'ringa munosabatni, xoslikni ko'rsatadi: *Men qishqi ne'matni yay berur erdin, yayqi mevan qish berur erdin* (Tafsir). *Ul burunqi ahd-u payman qaydadur?* (Lutfiy). *Daimg'i dastur bila... zahir bolg'ay* (Navoiy, MQ). *Tashqi el barcha bu ishni bildi* (SHN). *Ertagi savdani dahsar ag'irlig'i bar, kechki ekinni xatari bar* (Gulxaniy).

*-daq/-daki // -dag'i/-dagi* affiksi ham o'rin va payt bildiruvchi so'zlarga qo'shilib, o'ringa, paytga munosabatni bildiruvchi sifat yasaydi: *Kelturgil tандаqi ashimizni* (Tafsir). *Bu elkindaki narsalar ne turur?* (NF). *Ikki ko'z yolidin tokkay yurakimdagi qanimni* (Sakkokiy). *Hindustandag'i beglarg'a hukm boldi kim, ...* (BN). *Andag'i el yuzidin ketkandur* (SHN).

*-daq/-daki // -dag'i/-dagi* affiksi tuzilishi jihatidan murakkab bo'lib, o'rin-payt kelishigi affiksiga sifat yasovchi *-qi/-ki // -g'i/-gi* affiksi qo'shilishi bilan hosil bo'lgan.

### *Fe'ldan sifat yasovchi affikslar*

54-§. *-g' / -q / -k* affiksi. Undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda bu affiks oldidan bir unli orttiriladi: *-ig' / -iq / -ik, ug' / -uq / -uk*. Masalan: *achig' // achug' // achuq, artug' // artuq // artiq, buzug' // buzuq, yirtuq, sinuq, oluk, yuguruk, kesik // kesuk*.

Bu affiks bilan yasalgan sifatlar fe'l o'zagidan anglashilgan harakat yoki holat bilan bog'liq bo'lgan belgini bildiradi: *Qurug'*



*tash üzä oltursa erdi* (Tafsir). *Bu rud quruq ruddur, munda hargiz suv bolmas* (BN). *Bolman ashifta buzuq kishvar üçhün* (SHN). *Yolda temur-dek edi qumlar qızıg'* (Gulxaniy). *Yatibdur bir kesük bash* (Navoiy, MQ). *Bir yüksek maqam bar* (NF). *Bir yügürük at tapib* (FI).

**55-§.** Eski o'zbek tilida fe'ldan sifat yasovchi boshqa affikslar kammahsul bo'lib, ayrim fe'llardangina sifat yasashda ishtirok etgan. Bulardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

-un — *Yüzi tolun ay-tek bolg'ay* (Tafsir). *Nedin tolun äy yüzün ilä husn talashur* (Atoiy). *Bular arasında ham yashurun eronlärniñ imkänı bar* (Navoiy, MQ);

-l — *Andag'-oq tügäl ash qıldı* (Tafsir). *Dunyañ tügül malını bersäñ* (NF);

-ri — *Bir tam erdi, egri bolmiş erdi* (Tafsir). *Egri qaddın fig'anı äyläb ham* (Navoiy, SS).

### Sifat darajalari

**56-§.** Eski o'zbek tilida ham sifat darajalari uch xil ko'rinishga ega: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja. Sifatning oddiy darajasi maxsus morfologik ko'rsatkichga ega bo'lmaydi va bosh shakldagi har qanday sifat oddiy darajani tashkil etadi. Qiyosiy va orttirma daraja shakllari maxsus affikslar yordamida hosil bo'ladi.

**57-§. Qiyosiy daraja.** Sifatlarda qiyosiy daraja ma'nosi quyidagi usullar bilan ifodalanadi:

**Morfologik usul.** Bu usul sifatga *-raq/-rāk* affiksini orttirish yo'li bilan hosil bo'ladi. Qiyosiy darajaning bu shakli sifatda ifodalangan belgining kamligini, kuchsizligini ko'rsatadi: *Ul yaxshiraq turur sizgä* (Tafsir). *Abu Safyännı bir tarraq yerdä tutg'il* (NF). *Ul ulug'rāq kishi xud Shayx Kamal ermish* (Navoiy, MN), *Yana bir budnadur, ... qızılraq rangı bār* (BN). *Bizlärg'a xalifa Ahmadjān nāmlik bir kattarāq bāla erdi* (Furqat).

*-raq/-rāk* affiksi ravishlarga, miqdor bildiruvchi so'zlarga, umuman, harakat yoki holat belgisini ko'rsatuvchi so'zlarga qo'shilganda harakat yoki holat belgisining kamligini ko'rsatib, ravish

darajasini hosil qiladi (qarang: 214-§).

**Sintaktik usul.** Bu usul murakkab shakl yo'li bilan ifodalana-di, ya'ni sifatning daraja belgisi boshqa so'z bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. ~~Qiyos uchun keltirilgan so'z esa chiqish kelishigi~~ shaklida bo'ladi: *Vale husn ichrā javhardin āri-sen* (MN). *Ichin-dāki suv sutdin āq, asaldin süchüg turur* (NF). *Jāndin artuq mehribānimg'a salām* (Lutfiy). *Mundin yaxshu āt bolmas* (Sh.tar.).

**Murakkab usul.** Bu usul morfologik va sintaktik usullarning birikuvidan hosil bo'ladi, ya'ni qiyos uchun keltirilgan so'z chi-qish kelishigi shaklida bo'ladi, sifatga esa *-raq/-rāk* affiksi qo'shiladi: *Anuñ kēzi kōktün kōkrāk erdi* (O'N). *Andin qattiqraq hāl bardur* (Navoiy, MQ). *Yāsh bilā dag'i kichikrāk bardin // baxt ilā barı biyikrāk bardin* (SHN). *Mundin yaxshurāq guvah bolmas* (Sh.tar.)

**58-§. Ortirma daraja.** Eski o'zbek tilida sifatlardagi ortirma daraja ma'nosi *eñ, kōp, asru, behad, bisyar, g'ayat, bag'ayat, heyli* kabi so'zlar yordamida ifodalangan. Masalan: *Kōp issig' bir yer turur* (O'N). *Eñ soñg'i etlār ulub* (QR). *Ishq behad yirāq durur andin* (Navoiy, SS). *Tala oti bisyār yaxshu bolur* (BN). *Nazm ishiniñ rutbası bag'ayat biyik rutbadur* (Navoiy, MA). *Garche señā asru yiraqdur bu dam* (Haydar). *Xeyli xushnamā daraxti bar* (BN).

### ***Belgining ortiqligi yoki kamligini ifodalovchi shakllar***

**59-§.** Belgining ortiqligi yoki kamligi ma'nosi quyidagi vositalar yordamida ifodalanadi:

1. **Belgining ortiqligini ifodalovchi shakllar.** Bular **intensiv shakllar** deb ham ataladi.

**Intensiv** shakllarning tuzilishi bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. Navoiy o'zining "Muhokamatul lug'atayn" asarida bunday shakllar haqida gapirib, quyidagi misollarni keltirgan: *āp-pāq, qāp-qara, qıp-qızıl, yup-yumalāg', yap-yassi, āp-achug', chup-chuqur, kēm-kōk, yam-yashıl, bom-boz.*

Misollar: *Anuñ bashı sog'uatın āp-aq turur* (O'N). *Yüzi... sap-*

*sarig' bolmish* (NF). *Hech kim jahānda kormādi oqyanı qāp-qāra* (Lutfiy). *Bu yol tūp-tūz yoldur* (BN). *Suxan tashı xushrang qıp-qızıl boladur* (BN).

Intensiv shakl bir xil sifatning aynan takrorlanish yo'li bilan ham hosil bo'ladi: *Qabag'ları keŋ-keŋ, ag'ızları tar* (Navoiy, ML). *Ulug'-ulug' gullar quyrug'ınıŋ üçigächä bardur* (BN). *Bog'zı va kəksi qaradur, aq-aq tükləri bardur* (BN). *Yürgändä qattıq-qattıq āvāz qılır* (Sh.turk).

Qiyoslang: *āp-pāq, kəp-kək // kəm-kək, əp-ezɡü, sap-sarig', əp-əriŋ (oppoq), yap-yazı (tep-tekis), yap-yashıl* (MK, 1 tom, 70, 71, 316, 317, 355-betlar; III tom, 26-bet).

2. Belgining kamligini ifodalovchi shakllar quyidagi yo'llar bilan hosil bo'ladi:

a) sifatlarga *-mtul/-mtül* yoki *chıl/-chil* affiksi qo'shiladi: *qaramtul, ag'ımtul* (aqimtil), *yashımtul* (ML), *kəkümtül* (Abushqa), *āqchıl* (Sanglah); *rangi qāramtul sarig' turur* (NF);

b) sifatlarga *-g'ına/-ginä, qına/-kinä* affiksi qo'shiladi: *Magar azqına, bir ancha rozgār kechti* (Tafsir). *Yaxshıg'ına tab' nasibi bolubtur* (Navoiy, MN). *Sabzalıqqına bāg'chaları bardur* (BN). *Yana birginä uydur, kichikkinä üydur* (BN).

## I. Tekshirish uchun savollar

1. Ko'plikni ifodalash usullari.
2. Egalik shakllarining o'zgarishi.
3. Qaratqich, tushum, jo'nalish, chiqish kelishigi shakllari va ma'nolarining davrlar bo'yicha o'zgarishi.
4. Vosita kelishigining qadimgi turkiy tilda va keyingi davrlarda qo'llanilish shakllari va ma'nosi.
5. O'rin-payt kelishigining qadimgi va so'nggi davrlarda qo'llanish shakli va semantik-sintaktik xususiyati.
6. Nisbiy sifatlarning yasalishi.
7. Sifat darajalari va ularni ifodalovchi vositalar.

## II. Tayanch tushunchalar

*O'zak, negiz, qo'shimchalar (affikslar).*

*Ot va sifat grammatik kategoriya sifatida. Oting ko'plik, egalik, kelishik kategoriyalari. Bo'lishli va bo'lishsizlik. Turlanish. Bosh, qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish, vosita kelishiklari. Otlarning yasalishi.*

*Sintaktik vazifa. Diffirensiyalanish (tabaqalanish). Vazifadoshlik. Affiksatsiya va kompozitsiya.*

*Asliy va nisbiy sifatlar. Sifat darajalari. Kamlik va ortqlik. Sifatlarning yasalishi.*

### Lug'at

Quyidagi so'zlarning ma'nosini aniqlang:

ābı hayvon	—	ösrük	—
atfāl	—	qapug'	—
axi	—	qiyat	—
ag'yor	—	qonuq	—
beetidāl	—	tajalli	—
dal	—	xast	—
kadxuda	—	xilm	—
keng	—	xosha	—
malik	—	yarmāq	—
matla'	—	yāzuq	—
munглуq	—	yāvuq	—
navāhi	—	shifāat	—
ne'mat	—	shuarā	—
nokar	—	chevar	—
og'ramoq	—	cherik	—

## SON

**60-§.** Eski o‘zbek tilida ham sonning hozirgi o‘zbek tilidagi turlari mavjud bo‘lgan: **sanoq son, tartib son, jamlovchi son, dona son, chama son, taqsim son, kasr son.** Shu bilan birga, bu sonlarning ifodalanish usullari va shakllari bo‘yicha eski o‘zbek tilining o‘ziga xos tomonlari ham bor.

### Sanoq son

**61-§.** Sanoq sonlar eski o‘zbek tilida ham tuzilishiga ko‘ra sodda va tarkibli sanoq sonlarni tashkil etadi.

Sodda sanoq sonlar birlik, o‘nlik, yuzlik, minglik shakllarga ega bo‘lib, ularning umumiy ko‘rinishi quyidagicha:

<i>Birliklar</i>	<i>O‘nliklar</i>	<i>Yuz, ming va b.</i>
bir – 1	on – 10	yüz – 100
ikki – 2	yigirmi	mıñ – 1000
çc – 3	yigirmə – 20	tuman – 10000
tört – 4	ottuz – 30	lak – 100000
beş – 5	qırq – 40	yüz tuman – 1000000
altı – 6	ellik	
yetti – 7	elli – 50	
sekkiz – 8	altmış – 60	
toqquz – 9	yetmiş – 70	
	seksən – 80	
	toqsan – 90	

2, 7, 8, 9, 30, 50 sonlari tarkibidagi o‘rtada kelgan [k], [t], [q], [l] undosh tovushlar arab yozuvida bir belgi bilan beriladi: *iki* (2), *yeti* (7), *sekiz* (8), *toquz* (9), *otuz* (30), *elik* (50). Bu undoshlarning tashdid orqali yozilishi, ikkilanishi “Tafsir”, “Najhul farodis”, “Guliston bit-turkiy” kabi XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi. 30, 50 sonlari “Devonu lug‘atit-turk” da ham tashdid orqali yozilgan (qarang: MK, 1-tom, 159, 160-betlar).

20 soni XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda asosan oxirgi unlisi [i] bilan kelgan *yigirmi* shaklida yozilgan. XV asr va undan

keyingi davrlarga oid manbalarda *yigirmi* shaklida ham, *yigirmä* shaklida ham yozilavergan. Mahmud Koshg'ariyning ko'rsatishi-cha, XI asr tilida asosan *yigirmä*, ba'zan *yigirmi* tarzida talaffuz qilingan (MK, III tom, 55-bet). O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tiliga oid yodgorliklarda oxirgi unlisi (i) bilan kelgan *yigirmi* shaklida yozilgan.

XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda 50 soni oxirgi (k) undoshisiz *eli* (-*elli*) shaklida ham yozilgan: *altı yüz eli ikki* (Tafsir), *toqquz yüz eli toqquz* (Saroyi), *yetti yüz elli tørt* (MN). 50 sonining *eli* (-*elli*) shaklida qo'llanishi o'g'uz guruhidagi turkiy tillar uchun xarakterlidir.

80, 90 sonlari *sekiz*, *toquz* sonlariga *on* sonining qo'shilishi asosida hosil bo'lib (*sekiz on*, *toquz on*), *seksän*, *toqsan* shakllari keyingi davrlarda shakllangan. *Sekiz on*, *toquz on* shakllari qadimgi turkiy tili yodgorliklarida qo'llangan, "Devonu lug'atit-turk" da ham ko'rsatilgan (MK, I-tom, 410-bet).

Eski o'zbek tilida *tuman*, *lak* sonlari yakka holda qo'llanmagan, bular oldidan albatta kichik miqdordagi son birga keladi: *Bir tuman xalq qırıldı bari* (SHN). *Yüz tuman barqı balā urduñ meñä* (Navoiy, LT). *Bir lak afg'an yığ'ılıbdur* (BN). *Ych-tört lak alub qoyarlar* (BN).

Yozuv yodgorliklarida *tuman* birmuncha keng qo'llangan bo'lib, *lak* ayrim manbalardagina uchraydi.

**Tarkibli sanoq sonlar.** Eski o'zbek tilida ham tarkibli sanoq sonlarning hosil bo'lishida hozirgi o'zbek tilidagi kabi oldin katta son, keyin kichik son keladi: *on besh*, *yüz ottuz toqquz*, *mıñ toqquz yüz oltı* kabi.

Tarkibli sanoq sonlarning qismlari odatda yordamchi vositasiz birikadi (yuqoridagi misollarga qarang). Shu bilan birga, ba'zan qismlarning bog'lovchi orqali birikish hollari ham uchraydi. Qiyoslang: *Yigirmi dag'ı bir* (SHN). *Yılg'a mıñ sekkiz yüz-u toqsan edi* (Furqat).

Keltirilgan misollarning birinchisida *dag'ı* bog'lovchisi, ikkinchisida *-u* bog'lovchisi tarkibli sanoq son qismlarini biriktirish vazifasida kelgan.

Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida tarkibli sanoq sonlarning tuzilishi boshqacha tartibda bo'lgan. Masalan, O'rxun-Enasoy yodgorliklarida tarkibli sanoq sonlar quyidagi ikki usul bilan ifodalangan:

a) kichik sonlar oldin, katta sonlar keyin keladi. Masalan, *iki yigirmi* — “o'n ikki” (12) ma'nosida, ya'ni “yigirmaga tomon ikki” degan ma'noda. Yana misollar: *tört yigirmi* (14), *altı otuz* (26), *iki qırq* (32), *üch elig* (43), *besht altmış* (55), *toquz yetmiş* (69);

b) katta son oldin, kichik son keyin keladi. Bunda tarkibli sanoq son qismlari III shaxs egalik shaklidagi *artuqi* (*artuq+1*) so'zi yordamida bog'lanadi. Masalan, *otuz artuqi uch* — “o'ttiz uch” (33) ma'nosida, ya'ni “o'ttizdan uch ortiq, o'ttizga uch qo'shildi” degan ma'noda. Yana misollar: *otuz artuqi tört* (34), *otuz artuqi yiti* (37), *qırq artuqi iki* (42), *qırq artuqi altı* (46).

Qadimgi turkiy (uyg'ur) tili yodgorliklarida asosan *iki yigirmi* (12) turidagi shakl qo'llangan.

Turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida tarkibli sanoq sonlar *otuz artuqi uch* (33) turidagi ikkinchi usul asosida rivojlangan, ya'ni bunda *otuz artuqi uch* tarkibidagi *artuqi* bog'lovchisi tushib *otuz uch* qolgan (*otuz artuqi uch* > *otuz uch*).

*iki yigirmi* (12) turidagi shakl hozir ba'zi turkiy tillarda, jumladan, sariq uyg'urlar tilida saqlangan: *per yig'ırma* (11), *peshyig'ırma* (15), *per otus* (21) kabi.

62-§. Eski o'zbek tilida ham *bir* soni ko'p ma'noliligi bilan boshqa sanoq sonlardan farqlanadi. *Bir* soni o'z ma'nosida qo'llanishidan tashqari yana bir qancha vazifalarni ham bajaradi. Bulardan asosiylari quyidagilar:

1. Noaniqlik ma'nosini bildiradi: *Og'ul bir ün qıldı* (QR). *Dasht ara Majnunni kerdı bir kishi* (Navoiy, LT). *Bir ajab fikr koňulgä kelädür* (SHN).

2. Ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi: *Bir qiya baqsan zakati husn uchün* (Lutfiy). *Ahli zamāna xoblarını bir uyaldu* (Atoiy). *Bir kiyäy men ham* (Muqimiy).

3. *Bir soʻzi juft soʻz shaklida takrorlanib qoʻllanganda, ikki tomondan boʻlgan ish-harakatning oʻzaro munosabati koʻrsatiladi: Biri-biri birlä xush bolsa erdi (XSH). Bir-biriniñ seziga eyläb xiläf (Navoiy, LT). Bir-birläri birlä munazara qılurlar (Furqat).*

Bir soʻzi sanoq son sifatida qoʻllanganda narsa va hodisalarning sanogʻini koʻrsatadi: *Bu sözgä bir ay kechmishdin soñ (QR). Bir avuch diram keltürüb, iltimas qıldılar (Navoiy, MQ). Ichida bir ordu tüshküchä yer bolgʻay (BN). Bir kishiniñ qohdın bu ish kelmes (Sh.turk).*

**63-§. Noaniq son.** Bunday sonlar taxminiy, noaniq miqdorni koʻrsatib, mazmunan sanoq sonlarga yaqin turadi.

Noaniq son eski oʻzbek tilida asosan *kəp*, *az* soʻzlari bilan ifodalangan. Bunday soʻzlar mazmunan ikki guruhga boʻlinadi. Masalan, *kəp* soʻzi shaxs yoki narsaning miqdori ortiqligini, *az* soʻzi esa kamligini koʻrsatadi. Masalan: *Kəp mällar xarj qılduq (QR). Kəp kishi daʻvā qılır shamʻi jamalın mehrini (Atoiy). Kəp yıllar anda pādshāhlıq qıldı (Sh.tar). Ul yetmägän yer az bolgʻay erdi (Navoiy, MN). Ali Sultān az kishi bilän kelib (Sh.turk).*

Eski oʻzbek tilida noaniq son maʼnosida forscha *bisyar* (koʻp) soʻzi ham qoʻllangan: *Eshitmish-men ki, Banu kārāndur // pari paykar dagʻı bisyār dāndur (Navoiy, FSH). Bilmäs el dahrda bārdur bisyār (SHN). Naraj va turunj va gurunjı bisyār bolur (BN).*

XIII—XIV asrlarga oid manbalarda noaniq son maʼnosida qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos boʻlgan *telim* (koʻp), *öküşh* (koʻp) soʻzlari ham ancha keng qoʻllangan: *Telim kishilär öldi, tälim qān töküldi (Tafsir). Tälim gulchehra, nargis közlılär bār (MN). Ul āz cherik öküsh cherikni bastılar (QR). Öküsh yıllar yaratqan bāqı tutsun (MN). Anıñ soñıda öküsh murādlar bolgʻay (Navoiy, Msh).*

### Tartib son

**64-§.** Tartib son sanoq songa *-nchi/-nchi* (undoshdan keyin: *-inchi/-inchi*, *-unchi/-ünchi*) affiksini qoʻshish yoʻli bilan hosil boʻladi. Bu affiksning qanday shaklda ishlatilishi sanoq sonning



xususiyatiga bog'liq. Unli bilan tugagan sanoq sonlarga *-nchi/-nchi* shakllari qo'shiladi: *ikkinchi, altinchi, yettinchi, yigirmänchi*. Undosh bilan tugagan sanoq sonlarga *-inchi/-inchi* shakllari qo'shiladi: *birinchi, beshinchi, sekkizinchi, qirqinchi* kabi. Tarkibida lab unlisi bo'lgan, undosh bilan tugagan sanoq sonlarga *-unchi/-ünchi* shakllari qo'shiladi: *üchünchi, törtünchi, toqquzunchi, onunchi, ottuzunchi* kabi.

Tartib son affiksi, yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, turkiy tillarda dastlab oxirgi [ɪ], [i] unllarisiz *-nch (-inchi/-inchi, -unch/-ünch)* ko'rinishida qo'llangan: *birinch, ikinch, üchünch, beshinch, altinch, yetinch, sekkizinch, toquzunch, onunch* kabi. Masalan, O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy (uyg'ur) tili yodgorliklarida tartib sonning shu shakli qo'llangan.

Tartib sonning XI asr tilida ham shu xilda yasalishini Mahmud Koshg'ariy alohida ko'rsatib o'tgan (MK, I tom, 151–152-betlar; III tom, 450–451-betlar). Lekin shu davr yodgorligi "Qutadg'u bilig"da tartib son affiksining *-nchi/-nchi* shakllari ishlatilgan. Masalan: *bir — adl, ikkinchi — davlat, üchünchi — aql, törtünchi — qanaät*. Demak, XI asr tilida tartib son affiksining *-nch* shakli bilan birga *-nchi/-nchi* shakllari ham qo'llangan.

XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklarda tartib son affiksining asosan *-nchi/-nchi* shakllari amalda bo'lib, *-nch* shakli ham ishlatilgan. Ayrim manbalarda, masalan, "Tafsir"da ikkala shakl baravar qo'llanavergan. Ayrim manbalarda, masalan, "Muhabbatnoma" asarida tartib son affiksining faqat oxirgi [ɪ], [i] unllari bilan kelgan *-nchi/-nchi* shakllari qo'llangan.

XV asr va undan keyingi davrlarga oid o'zbek tili yodgorliklarida tartib son affiksining oxirgi [ɪ], [i] unlisi bilan kelgan *-nchi/-nchi* shakllari qo'llangan bo'lib, oxirida [ɪ], [i] unllari bo'lmagan *-nch* shakli ba'zi manbalarda, masalan, "Shayboniynoma" asarida uchraydi: *Añacha etüb erdi törtünch er* (SHN).

Ayrim yodgorliklarda tartib sonning *-lanchi/-lenchi* affiksi bilan yasaluvchi shakli ham qo'llangan: *Sansa beg ikkilänchisi* (QR), *törtlänchi* (Tafsir), *beshlänchi og'li, yettilänchi orqada, toqquzlänchi*

ayda (Sh.tar.), *pādshāhnun beshlänchi og‘li* (Sh.turk), *altlanchi bayt* (BV).

Tartib sonning *-lanchi/-länchi* affiksi bilan yasaluvchi shakli o‘g‘uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo‘lib, o‘zbek tilining o‘g‘uz guruh shevalarida ham qo‘llanadi.

**65-§.** *Birinchi* va *ikkinchi* tartib sonlarining ifodalanishida ba’zi bir o‘zgachaliklar bor:

1. *Birinchi* tartib soni ma’nosida ayrim manbalarda *avvalg‘i* so‘zi ham qo‘llangan: *Avvalg‘i daftar bashında yād qıldımız* (Tafsir). *Avvalg‘i nāmanı aytur* (MN). *Anı üç qism qılını: avvalg‘i qism — Sairunnafasniñ ahvāl-u af‘aliniñ kayfiyatı, ikkinchi qism —...* (Navoiy, MQ).

Yozma manbalardan ma’lum bo‘lishicha, tartib sonning *bir* sanoq sonidan yasalgan *birinch / birinchi* shakllari keyingi hodisa bo‘lib, dastlabda bu ma’no *avvalg‘i* turidagi shakl orqali ifodalgan. Masalan, *birinchi* tartib soni ma’nosida O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida *ilki / iliki* so‘zi, qadimgi turkiy tili yodgorliklarida *bashtinqı* so‘zi qo‘llangan. O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida *yigirmi* va *otuz* sanoq sonlaridan ham shu usulda tartib son shakli yasalgan: *yigirmiki* (*yigirmanchi*), *otuzqi* (*o‘ttizinchi*).

2. *Ikkinchi* tartib soni XIII—XIV asrlarga oid ayrim yodgorliklarda *ikindi* (*ikindü*) shaklida ham qo‘llangan: *Ikindi namāzıg‘a tegi* (QR). *Ikindü namazın aytur* (Tafsir).

Tartib sonning *ikindi* shakli “Devonu lug‘atit-turk”da ham ko‘rsatilgan (MK, 1-tom, 158-bet), O‘rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida *ikinti* shaklida ishlatilgan.

### Jamlovchi son

**66-§.** Jamlovchi son sanoq sonlarga *-ag‘u / -ägü, -ag‘un / -egun, -av/ äv, -avlän/ ävlän, -ala/älä* affikslarini qo‘shish yo‘li bilan hosil bo‘ladi.

Bu affikslar etimologik jihatdan bir-biri bilan bog‘liq, ya’ni biri ikkinchisidan rivojlangan. Masalan, *-ala / -älä* affiksi *-avlän / -ävlän* affiksining qisqargan shaklidir (*üchävlään > üchävlä >*

*üchälä, altavlan > altavla > altala*). *-avlan / -ävlän* affiksi *-av / -äv* affiksiga *-lan / -län* qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan (*üchäv+län > üchäv+län, altav+län > altavlan*). *-lan / -län* shakli esa o‘z navbatida jamlik, birgalik kabi ma‘nolarni bildiruvchi *-la / -lä* va *-n* qo‘shimchalarining birikuvidan tashkil topgan qo‘shma affiksidir. Qiyoslang: *bir+lä+n > bilän* (ko‘makchi).

*-av / -äv* affiksi *-ag‘u / -ägü* affiksi asosida shakllangan (*onag‘u > onavu > onav, üchäv > üchävu > üchäv*). *-ag‘u / -ägü* affiksi dastlab *-g‘u / -gü* shaklida bo‘lgan, ya‘ni bu affiks *ikki, alti* sanoq sonlariga qo‘shilganda, son oxiridagi [i], [ɪ] unililari [e], [a] ga aylanadi va affiks tarkibiga o‘tadi (*ikigü > ikägü, altıg‘u > altag‘u*). Shu asosda bu affiks boshqa sonlarga ham *-ag‘u / -ägu* shaklida qo‘shiladigan bo‘lgan (*üch+ägü, on+ag‘u* kabi), *-ag‘un / -ägün* affiksi esa *-ag‘u / -ägü* affiksiga vosita kelishigi affiksi *-n* qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan (*üchägü+n > üchägün*).

Jamlovchi son shakllarining qo‘llanishi quyidagicha:

*-ag‘u / -ägü, -ag‘un / -ägün* affikslari bilan hosil bo‘luvchi jamlovchi son shakllari XV asrdan oldingi davrlarga oid manbalarda qo‘llangan. *-ag‘u / -ägü* affiksli shakl ancha keng iste‘molda bo‘lib, *-ag‘un / -ägün* affiksli shakl ayrim manbalardagina uchraydi: *Shahd-u shakar ikegü yanashıb* (XSH). *Ychägüsü tañ sarıg‘a bardılar* (O‘N). *Sevdi ersä bu törtägüni* (XSH). *Bir anchaları aydılar kim, beshägü turur, altıñ it birlä* (Tafsir). *Yana altag‘u ana yäd boldılar* (QR). *Yetägü kemidä ishläyür erdilär* (QR). *Biz onag‘u qarındashlar-miz* (QR). *Ikägün baru bashladılar* (Tafsir). *Uchägün kemi üskünä keldilər* (Tafsir).

*Ikägü, ikägün* shakllari *ikigü, ikigün* shaklida ham ishlatilgan: *Ikigüni kivürdi* (Tafsir), *ikigüä berdim* (QR), *ikigün bostanlar* (Tafsir). Qiyoslang: *barıñlar ikigün* (MK, II tom, 50-bet).

*-ag‘u / -ägü, -ag‘un / -ägün* affikslari bilan hosil bo‘luvchi shakllar jamlovchi son ifodalanishining qadimgi usullari bo‘lgan. Bu shakllar qadimgi uyg‘ur yodgorliklari tili uchun ham xos bo‘lgan.

*-av / -äv, -avlan / -ävlän* affikslari bilan yasaluvchi jamlovchi sonlarning yozma yodgorliklarda qo‘llanishi XV asrdan boshlab

kuzatiladi: *Men va Muhammad kökältash ikäv keldük* (BN). *Bu keñash birlä yürüb ul törtäv* (SHN). *Ey jafāgar, bir vafā qıl kim, ikävläñ bolg'a-biz // men jafā chekmäktin-u sen bevafādın xaläs* (Navoiy, FK). *Shul arzu: ikävläñ qılsak ekän tamashā* (Furqat).

-ala / -älä affiksi bilan yasaluvchi jamlovchi son ham asosan XV asrdan boshlab qoʻllangan boʻlib, XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarning baʼzilarida ham uchraydi. Jamlovchi sonning bu turi asosan egalik shaklida qoʻllangan (*ikälämiz, ikäläsi* kabi): *Ychäläsi qargʻıl erdilär* (QR). *Ikäläsiniñ haqiqatı bir* (Navoiy, MQ). *Mashvarat äylädilär törtäläsi // fikrini säylädilär törtäläsi* (SHN). *Ikäläsi boldı chunän ittifāq* (Furqat).

Jamlovchi sonning *bir* sonidan hosil boʻlgan *biräv, birägu* shakllari gumon olmoshi maʼnosini ifodalaydi (qarang: 108-§).

**67-§.** Jamlovchi son maʼnosi eski oʻzbek tilida sanoq sonlarga egalik affiksini qoʻshish yoʻli bilan ham ifodalangan (*ikkimiz, ikkiñiz, ikkisi* kabi): *Oturdılar ikkisi yanashıb xush* (XSH). *Äylänjiz bizgä ikkiñiz farmän* (SHN). *Emdi üçhünjiz üç yurtıda turuñ* (Sh.tar.). *Törtüsi ham evli va көp mälli bolub* (Sh.tar.). *Altısını yana bir iyäsinä aldı* (QR). *Bäräylik ikkimiz ham aña lashkar* (Furqat).

Keltirilgan misollardagi *ikkisi, ikkiñiz, üçhünjiz, törtüsi, altısı, ikkimiz* soʻzlari jamlovchi son oʻrnida qoʻllangan boʻlib, “*ikkalasi*”, “*ikkalangiz*”, “*uchalangiz*”, “*toʻrtalasi*”, “*oltalasi*”, “*ikkalamiz*” kabi maʼnolarni ifodalaydi.

### Dona son va numerativ soʻzlar

**68-§.** Dona sonning morfologik yoʻl bilan ifodalanishi eski oʻzbek tiliga xos boʻlmagan.

Eski oʻzbek tilida *-ta/-tä* affiksi bilan dona son yasalişi asosan *bir* soni bilan chegaralangan. Bu ham yodgorliklarning ayrimlarida sanoqli oʻrinlardagina uchraydi. Masalan: *Birte yarmaqni ikki bolub, yarmın achqa bärğänni saxiy dey* (Navoiy, MQ). *Tiläsä xidmatıdın birtä när // yüz xushunat qılur erdi ägʻöz* (SHN).

Misollardagi *birtä* soʻzi dona son maʼnosida qoʻllangan. Lekin

bu oʻrinda hozirgi oʻzbek tilidan farq qilib, *-tä* affiksi taʼsirida *bir* soʻzidagi [r] assimillatsiyaga uchramagan.

Quyidagi misolda esa *ikki* sanoq soniga *-tä* qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan *ikita* soʻzi feʼlga bogʻlanib, dona sonni emas, balki *“ikki marta”* maʼnosini ifodalaydi: *Kishi olgunga tigʻi kin surmas / bir oʻlikni ikita oʻltürmas* (Navoiy, SS).

Eski oʻzbek tilida dona son maʼnosi asosan sanoq sonlar orqali ifodalangan. Masalan: *Uch täza nän kalturdi* (BN). *Xitay yurti ikki bolur, birisine qara xitay derlür...* (Sh.turk). *Ilgärigi ayyamda ikki humama bar erdi* (Gulxaniy). *Ikkisi kökdä, ... ikkisi yerdä...* (QR).

Misollardagi *uch*, *ikki*, *ikkisi* sanoq sonlari dona son oʻrnida qoʻllangan boʻlib, *“uchta”*, *“ikkita”*, *“ikkitasi”* maʼnosini ifodalaydi.

**69-§. Numerativ soʻzlar.** Eski oʻzbek tilida ham numerativ soʻzlar keng isteʼmolda boʻlgan. Bunday soʻzlar sanoq sonlar bilan birga qoʻllanib, maʼnosi jihatdan dona sonlarga yaqin turadi.

Eski oʻzbek tilida ham numerativ soʻzlarning qoʻllanishi asosan aniqlanayotgan narsa yoki hodisaning xususiyatiga bogʻliq boʻlgan.

Numerativlar hamda numerativ vazifasida keluvchi soʻzlar va ularning qoʻllanishiga misollar: *arshun* — *on arshun tayaq* (Tafsir); *qat* — *ellik qat kök* (QR); *yetti qat yer* (XSH); *sofra* — *bir sofrä etmäk* (QR); *batman* — *tört batman arpa* (NF); *besh batman et* (QR); *ratl* — *tört yüz ratl altun* (QR); *avuch* — *bir avuch ushaq tash* (Tafsir); *bir avuch tupraq* (Lutfiy); *jäm* — *ikki jäm may* (Navoiy, FSH); *sürük* — *bir sürük qoy* (QR); *qarı* — *ikki-üch yüz qarı yer* (Navoiy, FSH); *qırq qarı tam* (QR); *üch-tört qarı yigʻach* (BN); *tegirman* — *bir tegirmän suv* (BN); *bahra* — *ikki bahra el* (BN); *sharʻi* — *ikki sharʻi yol* (BN); *kuruh* — *bir-ikki kuruh yol* (BN); *parcha* — *bir parcha yer* (BN); *pāra* — *bir pāra chaynam et* (NF); *bir pāra qoy* (BN); *bir pāra kabāb* (BN); *yüz pāra söz* (Munis); *argʻamchı* — *bir argʻamchı baland qıya* (BN); *yigʻuch* — *tört yigʻach yer* (QR); *on sekiz yigʻach yol* (BN); *qatar* — *üch-tört qatar xachır* (BN); *evlük* — *yüz miş evlük kishi* (SHN); *qism* — *bir qism tupraq* (Sh.tar.); *bir qism makkaliklar* (Tafsir); *ayaq* --

*bir ayaq suv* (SH.tar.); *bag'* — *bir bag' otun* (NF); *kesäk* — *bir kesäk tarig'* (Tafsir); *rufiya* — *yüz rufiya altun* (Tafsir); *tabaq* — *bir tabaq injir* (Tafsir); *tüp* — *bir түp xurma* (Tafsir); *altı түp daraxt* (Gulxaniy); *qulach* — *qırq qulach yig'ach* (O'N); *qol* — *ikki qol altun* (Tafsir); *suqum* — *üch suqum ash* (QR); *tamim* — *bir tamim suv* (Tafsir); *qarın* — *bir qarın ash* (XSH); *qosh* — *besh yüz qosh öküz* (QR); *say* — *yetti yüz say kishi* (SHN); *nafar* — *on ikki nafar mudarris* (Furqat); *qāshiq* — *bir qāshiq qānim* (Furqat); *chārak* — *qırq chārak gurinch* (Muqimiy); *dāna* — *bir dāna ālmas* (Furqat).

Yuqorida numerativlar va numerativ vazifasida qo'llangan so'zlarning bir qismigina keltirildi. Bularning o'zi ham ko'rsatib turibdiki, eski o'zbek tilida qo'llangan numerativ so'zlar juda ko'p va xilma-xil bo'lgan.

Odatda numerativ so'zlarning ayrimlari predmetlargagina nisbatan, ayrimlari jonivorlargagina nisbatan qo'llanadi. Ayrim hollarda bu tartibning buzilish hollari ham uchraydi. Masalan: *tert yüz bash kishi* (Tafsir), *üch miñ bash kishi* (QR), *bir pāra kishi* (BN).

Bu misollarda *bash*, *pāra* so'zlari kishilarga (shaxsga) nisbatan numerativ vazifasida kelgan. Aslida bunday so'zlar narsa yoki jonivorlarga nisbatan numerativ vazifasida keladi. Qiyoslang: *besh bash qoy*, *bir pāra qoy*, *bir pāra kabāb*, *yüz pāra sez*.

### Chama son

**70-§.** Chama son ma'nosi eski o'zbek tilida sanoq songa *-cha/-chä* affiksini qo'shish yo'li bilan ifodalangan: *On besh-yigirmichä kishi terilib yalavach yanını yergä tegürmädilär* (Tafsir). *Havuzniñ atrafida yigirmächä daraxtnı buyurdum kim, qorug'aylar* (BN). *Tanbal ikki yüzchä kishi bilän turubtur* (BN). *Anda kim bär bir ellikchä kishi* (SHN). *Chıqtı bolg'ay yana besh miñcha kishi* (SHN).

Misollardagi *yigirmichä//yigirmächä*, *ikki yüzchä*, *ellikchä*, *besh miñcha* so'zlari chama son o'rnida qo'llangan bo'lib, hozirgi o'zbek

tilidagi “yigirmatacha”, “ikki yuztacha”, “elliktacha”, “besh mingtacha” ma’nosini bildiradi.

Chama son ma’nosi *chag’li* (*chag’liq//chag’lig’*) so’zi yordamida ham ifodalanadi. Lekin chama son ma’nosining bunday ifodalaniishi ayrim manbalardagina uchraydi: *Bardi anıñ birlä mıñ chag’li kishi* (SHN). *Yigirmä-ottuz chag’lig’ kishi* (FI).

**71-§.** Ikkita sanoq sonning juft so’z shaklida kelish yo’li bilan ham chama son ma’nosi ifodalanadi. Bunda odatda kichik son oldin, katta son keyin keladi: *üch-tört, on-on besh* kabi.

Eski o’zbek tilida chama son ma’nosini ifodalashda bu usuldan ancha keng foydalanilgan: *Dedi: besh-on mubäriz sekritib at / / meniñ alımg’a anı keltürün bät* (Navoiy, FSH). *On ikki-on üch yäshida naynı xob chalur ekändür* (BN). *Bir-ikki ay farag’at qıldı* (SHN). *Ych-tört ay sayähat qıldım* (Furqat).

Bunday hollarda juft son ikkitadan ortiq sanoq sonidan tashkil topgan bo’lishi ham mumkin: *Meniñ jän tartqan nokarlarım, on-on besh-yigirmä kishi bolg’ay, yetib keldilär* (BN).

Juft son tarkibidagi sanoq sonlarning har biri bilan aniqlanish so’z takrorlanib kelishi ham mumkin: *Har yıl bu ölängä chıqıb, bir ay, ikki ay oltururlar* (BN). Bunday hollarda katta son oldin, kichik son keyin kelishi ham mumkin: *Bir shatunıñ keñligi ancha kim, üch kishi, ikki kishi yandasha chıqa alur* (BN).

Chama son ma’nosida qo’llanuvchi juft son qismlari orasida bog’lovchi bo’lishi ham mumkin: *On tört yä on besh yäshida bolg’ay, muammāni andaq aytur va achar ki, ...* (Navoiy, MN). *Darvish qırq bilä ellik yash arasıda älamdın etti* (Navoiy, MN). *On besh yä yigirmi kishiniñ äti bitilmäy qalıb turur* (Sh.tar.). *Agar anlarnıñ ichlämindü bir va yä ikki oqug’an aql kishi bolsa, ...* (Sh.tar.).

Misollardagi *yä, bilä* va *yä* so’zlar chama son ma’nosida qo’llangan juft son tarkibidagi qismlarni bog’lash vazifasida kelgan.

### Taqsim son

**72-§.** Taqsim son ma’nosi eski o’zbek tilida quyidagi usullar bilan ifodalangan:

1. Sanoq sonlarga *-ar/-är* (unlidan keyin: *-shar/-sher, -rar/-rär*) affiksi qoʻshiladi: *birär* (bittadan), *ikkishär // ikkirer* (ikkitadan), *üchär* (uchtadan), *tärär* (toʻrttadan), *beshär* (beshtadan), *altshar // altrrar* (oltitadan), *yettishär* (yettitadan), *onar* (oʻntadan), *yüzär* (yuztadan), *mıñar* (mingtadan) kabi.

Bu shakl taqsim son ifodalanishining qadimgi usuli boʻlib, XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tili uchun ham xos boʻlgan. Keyingi davrlarda esa uning qoʻllanishi chegaralangan boʻlib, ayrim manbalardagina uchraydi. Masalan: *Tekmä biri ikkishär ogʻulgʻa yüklüg boldılar* (QR). *Taqı üchär juftlanıñ taqı tørtär juftlanıñ* (NF). *Saq solında altrrar yüz erdi* (QR). *Yetishär oltursunlar, teb buyurdi* (NF). *Tekmä bir yılda kezın onar kün eksük kelgäy* (QR). *Tekmä bir urmaq ornıña mıñar urgʻıl* (Tafsir). *Hind eli fusulını kim, tørtär ay taʻyin qılıbturlar, har faslda ikkirär aynı ıssıqıñ va savuqıñ zortı tutubturlar* (BN).

*-ar/-är* affiksi bilan yasalgan taqsim son takrorlanib juft soʻz shaklida qoʻllanishi ham mumkin: *Bu tariqa onar-onar tevä turgʻuzıñ* (QR). *Ulugʻlarına yüzeryüzer tevälär berdi* (NF). *Yañı äy qäshları xijälatıñ // äylarda birär-birär kërünür* (Atoiy). *Yol tägʻnıñ kamarıda väqeʻ bolubtur, ... ätliq birär-birär etär* (BN).

Taqsim sonning *-ar/-är* affiksi bilan yasaluvchi shakli hozir turk, tatar, qumiq, boshqird, gagavuz, qrim tatarlari, qarachay-balqar, karaim kabi turkiy tillarda keng qoʻllanadi.

2. Sanoq sonlarga *-ın/-in (-un /-ün)* affiksini qoʻshish yoʻli bilan ham taqsim son shakli hosil boʻladi. Bu affiksni qabul qilgan sonlar koʻpincha takrorlanib juft soʻz shaklida qoʻllanadi: *birin-birin* (bitta-bittadan), *birin-ikkin* (bitta-ikkitadan). Masalan: *Birin-birin bu tayaq üsküna barıñlar* (Tafsir). *Birin-birin ayttı, sordı ersä ...* (XSH). *Keldi yüz mıñ er qamugʻı beshın, onun, otuzun* (QR). *Ahli majlis birin-ikkin keldilär* (BN).

Bu shakl ham taqsim son maʼnosini ifodalashning qadimgi usuli boʻlib, oʻzbek tilida asosan XV asrga qadar qoʻllangan.

3. Sanoq sonning hech qanday qoʻshimchasiz takrorlanib juft soʻz shaklida kelishi bilan ham taqsim son maʼnosi ifodalanadi.



Masalan: *Yig'achni yuqaru üçündin tübingä ikki-ikki yardular* (QR). *Tekmä narsadin yaratduq ikki-ikki* (Tafsir). *Körgüzür san'atın barı bir-bir* (Navoiy, SS). *Ancha bilgänimizni bir-bir aytalıq* (Sh.tar.).

### Kasr son

73-§. Eski o'zbek tilida ham kasr son sintaktik usul bilan ifodalangan bo'lib, oldin butun son chiqish kelishigida, so'ng kasrni ifodalovchi son keladi: *Ul beshdin biri anı yeriñä yetmiş bolg'ay* (QR). *Yüz yılda bolmag'ay mindin biri kam* (Navoiy, FSH). *Ondın ikki kishi boldı saqlāv* (SHN). *Pādshāh har yılda elniñ bu mālınıñ ondın birini alur* (Sh.turk). *Anı yüzdin birin kóz kormägändür* (Furqat).

Butunning bo'lagini, ulushini ko'rsatuvchi *yarım* so'zi ham kasr son ma'nosini ifodalaydi: *Yarım kündä yürdilär* (Tafsir). *Yarım mālınıñni aña bergäy-miz* (QR). *Yarımı ipäk turur taqı yarımı yip turur* (NF). *Bu chashmaniñ suyi yarım tegirmän suyig'a qavushur* (BN). *Yarımı Abdullaxan kelsä, urushalı tedi, yarımı aydı: nechün urushg'alı?* (Sh.turk).

*Yarım* so'zi ayrim manbalarda, masalan, "Shajarai tarokima" asarida *yarın*, *yartı* shakllarida ham qo'llangan: *Shāh malikniñ lashkarı yigirmi miñ kishi e'di, yarını ötä bergändä, ikki tarafđın at saldılar* (Sh.tar.). *Barchası sözni butun ayta bilmäs, yartı ayturlar* (Sh.tar.).

### OLMOSH

74-§. Eski o'zbek tilida ham olmoshning hozirgi o'zbek tilidagi turlari amalda bo'lgan: *kishilik olmoshlari*, *o'zlik olmoshlari*, *ko'rsatish olmoshlari*, *so'roq olmoshlari*, *birgalik olmoshlari*, *belgilash olmoshlari*, *gumon olmoshlari*, *bo'lishsizlik olmoshlari*. Lekin bu olmosh turlarining shakllari turlanishdagi o'zgachalıkları bo'yicha eski o'zbek tilining o'ziga xos tomonlari ham bor.

## Kishilik olmoshlari

**75-§.** Kishilik olmoshlari eski o‘zbek tilida quyidagicha ko‘rinishda bo‘lgan:

I shaxs birligi — *men*.

XV asr va undan keyingi davrlarga oid ayrim manbalarda kishilik olmoshining I shaxs birligi ma’nosida, ya’ni *men* o‘rnida *faqir, banda, kamina* so‘zlari ham qo‘llangan: *Faqir anı kərüb-men, ammā she’r ayturın ma’lum qılmaydur erdim* (Navoiy, MN). *Tayridin banda tiler-men dāim // gāh zākir boluban, gāh sāim* (SHN). *Ey kər, kamina sizni bilümlük, ma’nidin baxabar sanur erdim* (Gulxaniy).

Kishilik olmoshining I shaxs birligi ma’nosida **bu faqir, bu banda, bu kamina** birikmalari ham ishlatilgan: *Bu faqir aruz fanida vasita bilā Mavlānanıñ shagirdi-men* (Navoiy, MN). *Umid ul kim, bu banda davlatxahliq yūzidin bitib-men* (Navoiy, Msh). *Banāgāh nazari kimyā asarlari bu kamina Mulla Gulxaniyg’a tūshüb, ...* (Gulxaniy).

Kishilik olmoshining I shaxs birligi *men* o‘rnida *faqir, banda, kamina* so‘zlari, *bu faqir, bu banda, bu kamina* birikmalari qo‘llanganda, so‘zlovchining kamtarligi, tinglovchiga hurmati kabi ma’nolar ifodalanadi.

II shaxs birligi — *sen*.

Kishilik olmoshining I va II shaxs birlik shakllariga (*men, sen*) odatda ko‘plik affiksi *-lar/-lär* qo‘shilmaydi. Chunki, bu shakllar yakka shaxsni anglatib, bu shaxslarning ko‘pligi uchun maxsus shakllar mavjud (*biz, siz*). Lekin “O‘g‘uznoma”da II shaxs ko‘plik ma’nosi uchun II shaxs birlik shakli (*sen*)ga *-lär* affiksini qo‘shish bilan hosil bo‘luvchi *senlär* shakli qo‘llangan: *Tay sarıg’a senlär barıñ. Men senlärğä boldum qag’an.*

— *Senlär* shakli “Qissasi Rabg‘uziy” asarida ham uchraydi: *Senlär kāfirlar tamug‘ ichindä.*

Kishilik olmoshining II shaxs ko‘pligi uchun *senlär* shaklini qo‘llash hozir ba’zi o‘zbek shevalarida, masalan, Toshkent shevasida ham mavjud.

III shaxs birligi — **ul**.

Kishilik olmoshining III shaxs birligi eski o‘zbek tilida alif-u vov-u lom orqali *ۋ* shaklida yozilgan. Bu olmosh *ol* tarzida yoki ayrim shevalarda *ul*, ayrimlarida *ol* tarzida talaffuz qilingan bo‘lishi ham mumkin. Lekin bu haqda aniq ma‘lumotga ega emasmiz. Shuning uchun bu olmoshni ba‘zi tadqiqotchilar *ol*, boshqalari *ul* tarzida transkripsiya qiladilar.

I shaxs ko‘pligi — **biz**, ba‘zan **bizlär**.

Kishilik olmoshining I shaxs ko‘plik shakli *biz* ba‘zan I shaxs birligi o‘rnida qo‘llanib, kamtarlik ma‘nosini bildiradi: *Bizdin eshitsün emdi jähän tāza nāmalar // chun köhnä boldı Laylı-yu Majnun hikāyatı* (Sakkokiy). *Darvish Ali xidmatı bilä bizñ xidmatımız arasında tafavut yoqtur* (Navoiy, Msh). *Olja xān dedi: qoy bu sözni // biz bu yollarda körib-biz özni* (SHN). *Bizdin burunı tārīx aytqanlar arabiy lug‘atlarını qoshub tururlar* (Sh.tar).

Kelirilgan misollarda *biz* olmoshi I shaxs birlik olmoshi ma‘nosida qo‘llangan bo‘lib, yakka shaxsni bildiradi. Shuning uchun ko‘plikni yana ham aniqroq ifodalash maqsadida ba‘zan *biz* olmoshiga ko‘plik affiksi qo‘shilib, *bizlär* shaklida qo‘llanadi: *Bizlärda birimizgä farmanlag‘il* (QR). *Bizlär sendin razi turur miz* (NF). *Ul tirik bolg‘ay erdi, bizlär ölük* (SHN). *Bu nazrñız-u bizlär murid* (Muqimiy).

II shaxs ko‘pligi — **siz**, ba‘zan **sizlär**.

*Siz* olmoshi II shaxs birligi ma‘nosida ham qo‘llanib, tinglovchiga nisbatan hurmatni bildiradi: *Qonaq-men tedi shāh kelginchä sizgä* (XSH). *Tügendi umr va körmäs sizni Lutfiy* (Lutfiy). *Sultān Ahmad beg sizni pādshāh kötarür* (BN). *Atam ornıg‘a emdi atam-siz, siz ne ishni oxshatsañız, men anı qılayın* (Sh.tar.).

*Siz* olmoshi II shaxs birligi o‘rnida ham qo‘llangani tufayli II shaxs ko‘pligini ifodalash uchun *siz* olmoshiga ko‘plik affiksi orttirilib, *sizlär* shaklida ham qo‘llanadi: *Sizlär qaydın kelä-siz?* (BN). *Yaxshılıq bolg‘usıdur sizlärögä* (SHN). *Sizlär yaxshı bilür-sizlär* (Sh.tar.). *Laaqal sizlär qılınlar bizgä yalg‘an assalam* (Muqimiy).

III shaxs ko‘pligi — **ular**, **alar**, **anlar**.

Bu shakllarning qoʻllanishi quyidagicha: XIII—XIV asrlarga oid manbalarda asosan *anlar* shakli qoʻllangan. *Alar, ular* shakllarining qoʻllanishi esa ancha chegaralangan boʻlib, ayrim manbalarda uchraydi. XV—XVI asrlarga oid manbalarda asosan *alar* shakli qoʻllangan. XVII—XIX asrlarga oid manbalarda *alar* bilan bir qatorda *anlar, ular* shakllarining qoʻllanishi ham ancha faollashgan. Lekin bu davrda ushbu shakllarning qoʻllanishida maʼlum darajada hududiy farqlanish yuzaga kelgan. Masalan, *alar, anlar* shakllari, asosan, Xorazmda yaratilgan asarlarda, *ular* shakli asosan Qoʻqon adabiy muhitiga oid manbalarda qoʻllangan. Bu hol adabiy tilda sheva xususiyatlarining aks etishidir.

Eski oʻzbek tilida isteʼmolda boʻlgan kishilik olmoshlarining umumiy koʻrinishi quyidagicha:

Shaxs	Birlik	Koʻplik
I shaxs	men	biz, bizler
II shaxs	sen	siz, sizler (senler)
III shaxs	ul	ular, alar, anlar.

Eski oʻzbek tilidagi kishilik olmoshlarining asosiy qismi qadimgi turkiy hamda XI—XII asrlarga oid yozma manbalarda ham qoʻllangan.

XI asr tilida I va II shaxs kishilik olmoshlari birligining turli shakllarda qoʻllanishi, Mahmud Koshgʻariyning koʻrsatishicha, dialektal xususiyatga ega boʻlgan, yaʼni I shaxs birligi oʻgʻuzlarda *ben*, boshqa turklarda *men* tarzida, II shaxs birligi kanjaklarda *sin*, boshqa turklarda *sen* tarzida talaffuz qilingan (MK, 1-tom, 325, 326-betlar; III tom, 153-bet).

Kishilik olmoshi I shaxs birligining *ben* (*bän*) shakli “Oʻgʻuznoma”da ham uchraydi: *Sen taqi urushgʻulardan soʻn baluqni bengi saqlab kelgil.*

**76-§.** Kishilik olmoshlarining birlik va koʻplik shakllari bir xil oʻzakdan rivojlangan. III shaxs koʻplik shakllari *ular* (*olar*), *alar*, *anlar* III shaxs birligi *ul* (*ol*) shakliga koʻplik affiksi qoʻshilishi

bilan hosil bo'lganligi ma'lum. I va II shaxslarning birlik va ko'plik shakllari ham bir o'zakdan rivojlangan: *biz, siz* shakllari tarkibidagi (z) qadimgi ko'plik (ikkilik) shaklini yasovchi affiks bo'lib, ularning o'zagi *bi, si* shaklida bo'lgan. I va II shaxslarning birlik shakllari *ben, sen* esa *bi, si* o'zaklariga [n] orttirilishi bilan hosil bo'lgan. I shaxs birligi *ben* tarkibidagi (b) undoshi (n) sonor tovushi ta'sirida (m) ga o'tgan va bu olmosh *men* shakliga aylangan. *Ben* shakli O'rxun-Enasoy yodgorliklarida, "Devonu lug'atit-turk" va boshqa ayrim manbalarda qo'llangan bo'lib, hozir turk, gagavuz tillarida saqlangan.

Kishilik olmoshlarining I va II shaxs birligi tarkibidagi unli hozirgi turkiy tillarda *men (men)=mān=min, sen (sen)=sān=sin* tarzida turlicha talaffuz qilinadi. Ko'pchilik turkologlarning fikricha, bu olmoshlar qadimda *min (<bin), sin* shaklida qo'llangan bo'lib, *men (men)=men, sän (sen)=sän* shakllari keyinchalik paydo bo'lgan.

Arab yozuvida bu olmoshlar *mim-u yoy-u nun, sin-u yoy-u nun* tarzida yoy orqali yoki *mim-u nun, sin-u nun* tarzida faqat undoshlar bilan "yo"siz yozilgan. Bu holatning yozuv yodgorliklarida aks etishi quyidagicha: XIII–XIV asrlarga oid manbalarning ayrimlarida, masalan, "Tafsir" va "Guliston bit-turkiy" asarlarida "yo"siz, ba'zilarida, masalan, "Muhabbatnoma"da "yo" orqali yozilgan. Bir qator manbalarda, jumladan, "Xusrav va Shirin", "Qissasi Rabg'uziy", "Nahjul farodis"da asosan "yo"siz shakl qo'llangan bo'lib, ba'zan "yo" orqali yozilishi ham uchraydi. XV asr va undan keyingi davrlarga oid manbalarning ko'pchiligida "yo" orqali yozilgan bo'lib, ayrim manbalarda, masalan, "Shajarai turk", "Shajarai tarokima"da "yo"siz shakl qo'llangan. Yozuvdagi har xillik talaffuzda ham aks etgan bo'lishi mumkin. Lekin birlikni saqlash maqsadida eski o'zbek tili uchun bu olmoshlarni *men, sen* shaklida transkripsiya qildik.

77-§. Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishida bir qator o'ziga xos tomonlari bor. Bular asosan quyidagilar:

1. Kishilik olmoshlarining I va II shaxs ko'pligiga qaratqich kelishigi affiksi *-in* shaklida ham qo'shiladi, ya'ni odatdagi *biznin, siznin* shakli o'rnida *bizin, sizin* shakli ham qo'llanadi. Bu hol

XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tili uchun ancha xarakterli boʻlib, XV asr va undan keyingi davrlarga oid manbalarning ayrimlarida uchraydi. Masalan, *bizij atalarimiz, sizij mällarınız* (Tafsir); *bizij iste'dādımız, sizij yārānlar* (NF); *bizij ishımız, yarashmaz hech sizij-teklārgā qazg'u* (XSH); *bizij bikinlārgā, sizij barakatınız* (Saroyi); *bizij til birlā, davur sizij durur* (MN); *bizij-tek hurvash ādam tapılmas* (Lutfiy); *bizij jānımız* (Navoiy, Msh); *bizij xān, sizij jānlarınız* (SHN); *bizij jānāna* (Munis); *farmān sizij bilādūr* (FI).

*Bizij* shakli XI asr yodgorliklarida ham qoʻllangan: *bizinā tegü* (QB); *bizij ev* (MK).

2. XIII—XIV asrlarga oid bir qator yodgorliklarda kishilik olmoshlarining I shaxs birligi va koʻpligiga qaratqich kelishigi affiksi *-im* shaklida ham qoʻshilgan, yaʼni odatdagi *menij, biznij* shakli oʻrnida *menim, bizim* shakli qoʻllangan: *menim siñlim, bizim farzandımız* (Tafsir); *menim hālim, bizim bāg'ımız* (QR); *menim koñlūm* (XSH); *menim evim, bizim ahvālımız* (Saroyi); *bizim til birlā* (MN).

*Menim, bizim* shakllari qadimdan oʻgʻuz guruhidagi turkiy tillar uchun xos boʻlib, hozir ozarbayjon, turk, gagavuz, qrim tatarlari, noʻgʻay kabi tillarda qoʻllanadi.

3. Kishilik olmoshlarining I va II shaxs birligiga joʻnalish kelishigi affiksi qoʻshilganda, olmosh oxiridagi [n] bilan kelishik affiksidagi (e) birikib, (ñ) burun tovushi hosil boʻladi: *meñä* (<men+gä), *señä* (<sen+gä). Kishilik olmoshi III shaxs birligining joʻnalish kelishigi shakli *aña* tarzida oʻqiladi.

I, II, III shaxslar birligining joʻnalish kelishigi ayrim yodgorliklarda *mang'a // manqa, sang'a, ang'a // anqa* shakllarida ham qoʻllangan: *Qāzı teginniñ mang'a maylı bār* (Sh.tar.). *Agar manqa baqsanız, özünizni aldurur-siz* (BN). *Pādshāhlıq ātanđın sang'a merās qalg'an turur* (Sh.tar.). *Men sang'a qırq adad qoy berāyin* (Furqat). *Pādshāhlıqni ang'a berib, ...* (Sh.tar.). *Yay oqni qaysı tarafg'a tartib yubarsa, oq anqa barur* (Sh.tar.). *Pādshāhlıqni ang'a berib, ...* (Sh.tar.).

XIII–XIV asrlarga oid ayrim manbalarda *sanjar* (senga), *anjar* (unga), *anjaru* (unga) shakllari ham qoʻllangan: *Bu aniq kim, sanjar barding, andin suv ichkil* (Tafsir). *Didar neʼmatin anjar kergüzmegünche sen ma kormegey-sen* (QR). *Valekin, kəñül birlä bilmäk anjaru yoq* (Tafsir).

Joʻnalish kelishigining *sanjar*, *anjar*, *anjaru* shakllari turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlari uchun xos boʻlib, Oʻrxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklari hamda “Qutadgʻu bilig”, “Devonu lugʻatit-turk”, “Hibatul haqoyiq” asarlarida qoʻllangan. Bu shakllar joʻnalish kelishigining *-gʻaru/-gärü* affiksi bilan hosil boʻlgan: *sanjar* (<*sen+gär// senü+gerü*), *anjar // anjaru* (<*an+gʻaru*) (qarang: 24-§).

4. XIII–XIV asrlarga oid ayrim manbalarda *biz*, *siz* olmoshlarining joʻnalish kelishigi *bizä*, *sizä* shaklida ham qoʻllangan: *Andin munadi bizä qilgʻay* (Tafsir). *Ush biz-tek bizä kim yugʻlayisar?* (XSH). *Bizä andin ne qaygʻu?* (Saroyi). *Sizä teb keldi, Xorazmiyni asraj* (MN).

5. Kishilik olmoshining III shaxs birligiga kelishik affixlari qoʻshilganda, unda quyidagicha oʻzgarishlar yuz beradi: [I] undoshi [n] undoshiga, [u] unlisi [a] unlisiga oʻtadi: ul — *anuj, anu, anda, andin*. Joʻnalish kelishigi, yuqorida koʻrsatilganidek, *anja* shaklida boʻlib, oldingi davrlarda *anjar* yoki *anjaru* shaklida ham qoʻllangan.

### Oʻzlik olmoshlari

**78-§.** Eski oʻzbek tilida ham oʻzlik olmoshi maʼnosida *öz* soʻzi qoʻllangan; oldingi davrlarga oid manbalarda bu olmoshning *kendü* shakli ham isteʼmolda boʻlgan.

*Öz* olmoshining qoʻllanishi, maʼnosi, grammatik xususiyatlari boʻyicha eski oʻzbek tili bilan hozirgi oʻzbek tili oʻrtasida deyarli farq yoʻq. Bu olmosh eski oʻzbek tilida ham aniqlovchi vazifasida qoʻllanadi, otlar kabi egalik qoʻshimchalarini qabul qiladi va kelishiklar bilan turlanadi.

*Öz* olmoshi aniqlovchi vazifasida qoʻllanganda, aniqlanayotgan narsaning maʼlum shaxsga qarashlilikini, xosligini taʼkidlab koʻrsatadi: *Yusuf koʻzguge baqdi, öz yüzini kordi* (QR). *Öz qilichın*

*boynuma yetkürse ham, ... (Navoiy, LT). Öz elini talab, ... olja qilurlar (BN). Qaytib öz yurtig'a tüşdi (Sh.tar.).*

Öz olmoshining egalik affikslari bilan qo'llanishi quyidagicha:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	özüm, özim	özümüz, özimiz
II shaxs	özün, özün	özünüz, özünüz
III shaxs	özi	özləri

Öz olmoshiga kelishik affikslari bevosita emas, balki egalik affikslari orqali qo'shiladi: *özümni // özimni, özümniñ // özimniñ, özümgä // özimgä, özümde // özimdä, özümde // özimdä* kabi.

Öz olmoshi takrorlanib ham qo'llanadi. Bunda ish-harakatning subyektga qaytganligi, ish-harakatning subyektning o'zi uchun bo'lganligi kabi ma'nolar ifodalanadi: *Qulniñ ezini-özi erki bolmas (QR). Tiyä bilmädi ul dam ez-özini (XSH). Tolg'anmag'ı ez-özine girdab (Navoiy, Msh). Özümni özüm oltürür-men (Sh.tar.).*

O'zlik olmoshining *öz* shakli turkiy tillarda qadimdan qo'llanadi. Bu so'z o'zlik olmoshining asosiy shakllaridan biri sifatida O'rxun-Enasoy va qadimgi turk (uyg'ur) tili yodgorliklarida ham iste'molda bo'lgan. Turkiy tillar taraqqiyotining keyingi davrlarida bu olmoshning qo'llanishi yana ham faollashgan. Hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida o'zlik olmoshi sifatida shu so'z qo'llanadi.

Öz olmoshi qadimda ot turkumiga mansub bo'lib, o'zlik, vujud, jon, ruh kabi ma'nolarni ifodalagan. Uning bu xususiyati qadimgi turkiy yodgorliklar tilida ma'lum darajada aks etgan. *Öz olmoshining shunga o'xshash ma'nolarda qo'llanishi eski o'zbek tilida ham saqlangan. Masalan: Gul yüzün hajrında özün ketkay erdim damadam (Lutfiy). Hajr arā özün barib-men (Navoiy, FSH). Mıñ yıl ötken kishilər birle mudām // qırılıshıb özni qilurlar badnām (SHN).*

Öz olmoshiga *-lük* affiksi qo'shilib ot yasaladi. Bunda *öz olmoshining qadimgi ma'nosi* yana ham aniqroq seziladi. Masalan:



*Muḡa ʔzlük bile nechük yetkäy* (Navoiy, MQ). *ʔzlükindin xabar qılmamish bolgʻay* (Navoiy, MQ). *Ey ki, dilbar visalın ister-sen // ʔzdin ʔzlük yükin badar eylâ* (Munis).

**79-§.** *Kendü* soʻzi ham oʻzlik olmoshi sifatida turkiy tillarda qadimdan qoʻllanib keladi. Oʻrxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida *kentü* shaklida qoʻllangan boʻlib, oʻzlik olmoshining asosiy shaklini tashkil etadi. Bu olmosh “Devonu lugʻatit-turk” va “Hibatul haqoyiq” asarlarida ham qoʻllangan.

*Kendü* olmoshi XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklar tili uchun ham xos boʻlib, maʼnosi va qoʻllanishiga koʻra *ʔz* olmoshiga oʻxshaydi. Yaʼni aniqlovchi vazifasida qoʻllanib, qarashlilik, xoslik maʼnosini ifodalaydi: *Kendü qapugʻına kirdi* (Tafsir). *Bu kimersälär kendü atası, anasına tøkmiş bolur* (NF). Mustaqil qoʻllangan-da, “oʻzi” maʼnosi ifodalanadi: *Kendü benim birlä erdi* (QR). *Kendü taḡri turur* (Tafsir). *Keräk bolsam aḡa men, kendü kelsün* (XSH).

*Kendü* olmoshi egalik, koʻplik, kelishik affikslari bilan ham qoʻllanadi: *Kedüñizdin paygʻamagʻay-siz* (Tafsir). *Men kendüsin-din kechürdüm* (QR). *Kendüläri tajassu qılu bardılar* (Tafsir). *Kendünä rahm qılmagʻan däm* (Saroyi).

*Kendü* kishilik olmoshlari bilan birga qoʻllanishi mumkin. Bunda kishilik olmoshi shaxs maʼnosini ifodalaydi: *Men kendü kökkä minäyin* (QR). *Sen kendü mendin arıḡraq ermish-sen* (QR). *Biz kendü taḡun kormishimiz yoḡ* (QR).

Misollardagi *men kendü* birikmasi “oʻzim” (yoki “men oʻzim”), *sen kendü* — “oʻzing” (“sen oʻzing”), *biz kendü* — “oʻzimiz” (“biz oʻzimiz”) maʼnosida qoʻllangan.

*Kendü* olmoshi tarixan oʻgʻuz guruhidagi turkiy tillar uchun xos boʻlgan, hozir shu guruhga mansub boʻlgan turk tilida oʻzlik olmoshining faqat shu shakli qoʻllanadi, bu olmosh hozirgi gagauz tilida ham mavjud.

*Kendü* olmoshiga *ʔz* olmoshi birikib, oʻzlik olmoshining *kendü-ʔz* turidagi murakkab shakli hosil boʻladi. Bu shaklda qoʻshimchalar *ʔz* olmoshiga orttiriladi: *Haḡ erdükim bilsäm, men kendü-ʔzümni fidâ qilḡay erdim* (Tafsir). *Sen meḡä kendü-ʔzünni juftlandurḡil*

(NF). *Kendü-özlärinä anı karamat kərärlär (Tafsir). Kim kendü-özini barchadın artuq kərsä...* (NF).

O'zlik olmoshining bu tarzda murakkab shakli qadimgi turk (uyg'ur) tili yodgorliklarida ham uchraydi (*kentü-öz*), turk va ozarbayjon tillariga oid yozuv yodgorliklarda ham qo'llangan (*kendöz, gendöz*).

### Ko'rsatish olmoshlari

**80-§.** Eski o'zbek tilida ko'rsatish olmoshlarining asosan *bu*, *ul (u)*, *ushbu*, *oshul*, *oshal*, *shul* shakllari iste'molda bo'lgan, ayrim davrlarda yoki ayrim yodgorliklarda *bul*, *shu*, *osha*, *oshu*, *hamin*, *hamul* kabi shakllari ham qo'llangan.

Ko'rsatish olmoshlarining bir guruhi tuzilishiga ko'ra sodda, boshqalari murakkab shakllardan iborat. Murakkab shakllarning ko'pchiligi *bu* yoki *ul* ko'rsatish olmoshi bilan *ush* (*osh*) ta'kid yuklamasining birikuvidan tashkil topgan tarkibli olmoshlardir. Masalan, *ushbu* shakli *ush* yuklamasi bilan *bu* ko'rsatish olmoshining birikuvi asosida hosil bo'lgan.

*Ush* yuklamasi tarixan "mana", "mana shu", "mana bu", "xuddi", "xuddi shu", "shunday" kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z sifatida mustaqil ravishda ham qo'llangan. Uning mustaqil so'z sifatida qo'llanishi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tiliga xos bo'lib, XV asr birinchi yarmida ham ayrim asarlarda uchraydi. Masalan: *Ush men Yusufdın keldim* (QR). *Ush qorqutdı anlarını* (Tafsir). *Ush qarındashın Abbās imān keltürdi* (NF). *Sen ush kəñlündä tutmadın orun bir // meni saqınmadın mundın burun bir* (XSH). *Qadah chevrüldi ush bostān ichindä // xush ichkil rāhnı rayhān ichindä* (MN). *Bir nasihat şartın ush qıldıuq bayān // kim istāmäs bolsa, bizgä ne ziyān?* (Saroyi). *Zulfunıdag'ı ul kāfir ush imān āladur-la* (Lutfiy). *Ush xush raygān keldi* (Sakkokiy).

*Ush* so'zi "Devonu lug'atit-turk"da ham qayd qilingan bo'lib, "shunday", "xuddi", "hozirgina", "shu onda" kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z sifatida izohlangan va quyidagi misollar keltirilgan: *Ush mundag' qıl* — "Xuddi shunday qıl". *Ush keldügüm bu*

—“Hozirgina kelib turganim” (MK, I tom, 72-bet).

Demak, *ush* soʻzi predmetni, voqea-hodisani taʼkidlab, alohida ajratib koʻrsatuvchi yuklama vazifasida qoʻllangan. Bu jihatdan koʻrsatish olmoshlariga ham oʻxshab ketadi. Shuning uchun uni “olmosh-yuklama” deb atash ham mumkin. Tarkibli olmoshlarni hosil qilishda ham *ush* soʻzi shu maʼnosi bilan ishtirok etadi, yaʼni *bu* va *ul* koʻrsatish olmoshlari bilan birikib, bu olmoshlarining maʼnosini yana ham aniqlashtiradi.

Koʻrsatish olmoshlari maʼno jihatdan ikki asosiy guruhga boʻlinadi. Koʻrsatish olmoshlarining bir guruhi nutq paytida mavjud boʻlgan, soʻzlovchiga masofa jihatidan yaqin boʻlgan narsani, shaxsni, voqea-hodisani koʻrsatadi. Bu guruhni *bu, bul, shu, shul, ushbu, hamin* koʻrsatish olmoshlari tashkil etadi. Koʻrsatish olmoshlarining boshqa guruhi esa nutq paytida mavjud boʻlmagan, soʻzlovchiga oldindan maʼlum boʻlgan yoki masofa jihatdan uzoq boʻlgan narsani, shaxsni, voqea-hodisani koʻrsatadi. Bu guruhga *ul [u], oshul, oshal, osha, oshu, hamul* olmoshlari kiradi. Oʻz navbatida, bu guruhlarga kiruvchi koʻrsatish olmoshlarining har biri maʼnosi va qoʻllanishiga koʻra boshqalaridan farqlanadi.

**81-§. Bu** koʻrsatish olmoshi nutq paytida mavjud boʻlgan, soʻzlovchiga masofa jihatdan yaqin boʻlgan narsani, shaxsni, voqea-hodisani koʻrsatadi: *Koʻchub bu yerga kelalim* (QR). *Koʻzundin salma bu miskin gadam* (MN). *Bu baytni oqubdur* (Navoiy, MN). *Bu bozani ichmek hayal qildik* (BN). *Men bu shahargʻa kelgan vaqtda...* (Furqat).

Kelishiklar bilan turlanganda *bu* olmoshida quyidagi oʻzgarishlar sodir boʻladi: olmosh tarkibidagi [b] undoshi [m] ga oʻtadi; makon-zamon kelishiklari affiksi oldidan [n] undoshi orttiriladi: *bu* — *munuʻ // munuʻ, muni, muʻna* (<*munʻa*<*bu+n+gʻa*), *munda, mundin // mundan*. Misollar: *Munuʻ tubidin aqar* (Tafsir). *Muni qiynamaq kerak* (QR). *Taqi soʻzni muʻna qoydilar* (Sh.turk). *Mundin artuq qilma zar* (Lutfiy). *Ne qildim munda* (SHN).

Ayrim manbalarda baʼzan kelishik affiksi qoʻshilganda, bu olmoshi tarkibidagi [b] undoshining [m] ga oʻtmaslik hollari ham uchraydi: *Buni aydi ersa. ...* (QR). *Buʻna kelganlar kiyik koʻp-koʻp*

(O'N). *Barcha xalq buni eshitib, ...* (Sh.tar.). *Yaxshi-yaxshi bunda* (Muqimiy).

-*cha*, -*dag'* (-*daq*), -*tek* (-*dek*) kabi yasovchilar qo'shilganda ham *bu* olmoshi tarkibidagi [b] undoshi [m] ga o'tadi: *muncha* (<*bu+n+cha*), *mundag'* (<*bu+n+dag'*), *munij-tek* (<*bu+nij+tek*). Bu shakllar ravish yoki sifat ma'nosida qo'llanadi (qarang: 206, 208-§§).

Ko'plik affiksi -*lar* qo'shilganda, bu olmoshi tarkibida o'zgarish bo'lmaydi: *Bular külüşhürlär erdi* (Tafsir). *Bular lājaram urushlar* (BN). *Bular dag'i Sayyidge kirmish* (SHN). *Urushub erdi er-u xatın bular* (Muqimiy).

Shu bilan birga, ko'plik affiksi qo'shilishi bilan *bu* olmoshi tarkibidagi [b] undoshining [m] ga o'tishi va ko'plik affiksi oldidan [n] undoshi orttirilishi ham mumkin (*bu+lar>mu+n+lar>munlar*). Bu shakl ayrim manbalardagina uchraydi: *Munlar qang'a yürümäktä qang'a-qang'a soz berä turur erdilär erdi* (O'N). *Munlar ham yigirmi tørt kishilär tururlar* (Sh.tar.).

**Bul** ko'rsatish olmoshi *bu* va *ul* ko'rsatish olmoshlarining birikuvidan tashkil topgan tarkibli olmosh bo'lib (*bu+ul>bul*), ma'no jihatdan *bu* ko'rsatish olmoshiga o'xshaydi.

Eski o'zbek tilida *bul* ko'rsatish olmoshining qo'llanishi ancha chegarali bo'lib, asosan XIX asrga oid manbalarda uchraydi: *Bul sezni tafsilini "Silsilatuz zahhab"dan tap* (Gulxaniy). *Qoshma bul dārulariyni yarım ashıg'a, tabib* (Furqat). *Agar bul tariqa bolsa, ...* (Furqat).

**82-§. Ul** ko'rsatish olmoshi kishilik olmoshining III shaxs birligi bilan shaklan o'xshash, ya'ni bu olmosh ham alif-u vov-u lom orqali  $\text{U, u}$  shaklida yoziladi (qarang: 75-§).

*Ul* ko'rsatish olmoshi ma'nosiga ko'ra *bu* ko'rsatish olmoshiga qarama-qarshi bo'lib, vaqt va masofa jihatdan so'zlovchidan uzoq bo'lgan narsani, shaxsni, voqea-hodisani ko'rsatadi: *Taqı ul hālda xitāb keldi* (QR). *G'amza birlä tēkti qānım ul sanam* (Lutfiy). *Tutalı ul taraf yol* (Navoiy, FSH). *Ul yıl Samarqandtın chıqıb, ...* (BN). *Ul kishiniy og'lanlari...* (Sh.tar.).

**Ul** ko'rsatish olmoshining hozirgi o'zbek tilidagidek *u* shakli-

da qo'llanishi yozuv yodgorliklarida asosan XIX asrdan boshlab kuzatiladi. Oldingi davrlarga oid manbalardan esa "Nahjul farodis" da va Lutfiy asarlarida qayd qilindi: *Savālim senā u turur* (NF). *Mashharda g'ālibā kim u kün kōrmāgāy azab* (Lutfiy). *Bolg'ay u kün baharda ul barcha nabāt-u nayshakar* (Lutfiy).

**83-§.** *Ushbu, shul, shu, hamin* ko'rsatish olmoshlari ma'no jihatdan o'xshash. Bular nutq paytida mavjud bo'lgan, so'zlovchiga masofa jihatdan yaqin bo'lgan predmet, shaxs, voqea-hodisani ta'kidlab, alohida ajratib ko'rsatishda qo'llanadi.

*Ushbu* ko'rsatish olmoshi *ush* ta'kid yuklamasi va *bu* ko'rsatish olmoshining birikuvidan tashkil topgan tarkibli olmoshdir. Bu olmosh nutq paytida mavjud bo'lgan narsa, shaxs, voqea-hodisani ta'kidlab ko'rsatish ma'nosini ifodalovchi asosiy vosita sifatida yozuv yodgorliklarda keng iste'molda bo'lgan. Masalan: *Ushbu qag'annin cherigi... kēp-kēp erdilār erdi* (O'N). *Aydi ushbu sozni* (Tafsir). *Sizgā mujib ushbu mātam ermish* (Navoiy, FSH). *Ushbu chāqda ham bir kishi bir kishidin sorsa, ...* (Sh.tar.). *Ushbu davrān birlā ʻetsāk, yoq erūr armāmımız* (Furqat). *Ul yol ilgāridūr, ammā yol ushbudur* (BN).

*Shul* ko'rsatish olmoshi *shu* va *ul* ko'rsatish olmoshlarining birikuvi asosida hosil bo'lgan tarkibli olmoshdir: *Shu+ul>shul* (Qiyoslang: *bu+ul>bul*). Yozuv yodgorliklarda bu olmosh *ushbu* olmoshiga nisbatan kam qo'llangan: *Shul bug'uni... bag'ladi* (O'N). *Shul yigit erdi* (Tafsir). *Shul zamān kim alur Urganchni ol // salur, albatta, Xurāsān sari yol* (SHN). *Ul kishi shul zamān ʻeldi* (Sh.tar.). *Shul erūr aybım, Muqimiy, mardumi Farg'āna-men* (Muqimiy).

*Shu* ko'rsatish olmoshi eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, ayrim manbalardagina uchraydi: *Taqi kim qılsa shuni, bas, anlar yoqalg'anlardın bolg'ay* (Tafsir). *Aytmay shu kechā keteli* (Sh.turk). *Sendin ne kōrsā, nokarıñ shunı qılur* (Sh.tar.). *Shu majlisda hāzir-u nāzir tururlar* (Gulxaniy).

Ko'rsatish olmoshining *hamin* shakli fors tiliga mansub bo'lib, eski o'zbek tilida kam qo'llangan. Bu olmosh XV asrga oid ayrim manbalarda qayd qilindi: *Menin haqımda qılur-sen hamin jafa*

*havasın (Atoiy). Bale yalg'uz hamin alamda sen-sen (Lutfiy). Yoq ki, hamin xilvati ahlig'u bas // shayxqa ham ushbu hizr hamnafas (Navoiy, HA).*

**84-§.** Ko'rsatish olmoshlarining *oshul, oshal, osha, oshu* shakllari ma'no jihatdan bir guruhni tashkil etadi. Bular nutq paytida mavjud bo'lmagan, so'zlovchiga oldindan ma'lum bo'lgan yoki masofa jihatdan uzoq bo'lgan narsa, shaxs, voqea-hodisani ta'kidlab, ajratib ko'rsatadi. Bu olmoshlar etimologik jihatdan ham o'xshash bo'lib, bir xil manba asosida shakllangan.

**Oshul** olmoshi *ush (osh)* ta'kid yuklamasi va *ul* ko'rsatish olmoshining birikuvi asosida hosil bo'lgan tarkibli olmoshdir: *osh+ul>oshul*. Bu olmosh so'zlovchiga oldindan ma'lum bo'lgan narsa, shaxs, voqea-hodisani ta'kidlab, ajratib ko'rsatish ma'nosini ifodalovchi asosiy vosita sifatida yozuv yodgorliklarda ancha faol iste'molda bo'lgan. Masalan: *Oshul beg tag'larg'a kirdi (O'N). Oshul kün kim, seni xāliq yarattı (MN). Faryādım oshul yerge yetibtür (Lutfiy). Oshul qarār bilä suv yaqasıdın sahar köchüb, ... (BN). Oshul qal'a ichige kirmish (SHN). Oshul yerdä yattuq (Sh.tar.).*

Qiyoslang: *Ezgüräk turur oshullardın (Tafsir).*

**Oshal** olmoshi *ush (osh)* ta'kid yuklamasi va *ul (ol)* ko'rsatish olmoshining birikuvidan tashkil topgan tarkibli olmoshdir: *osh+ol>osh+al>oshal*.

Eski o'zbek tilida *oshal* olmoshining qo'llanishi *oshul* olmoshiga nisbatan ancha chegarali bo'lgan: *Oshal kün kim, seni yazdan yarattı (MN). Hinduyi sähib saädatur oshal meñ dänası (Atoiy). Oshal yoldın bariñ (BN). Oshal suvlarnın arasında oltururlar erdi (Sh.turk). Oshal kishidin soragil (Gulxaniy). Oshal uy ichinde eylanib yürsä, ... (Furqat).*

Qiyoslang: *Ul kim tavba qılmasa, oshanlar zälimlardın tururlar (Tafsir).*

**Osha, oshu** shakllari *oshal, oshul* olmoshlari tarkibidan [I] undoshining tushib qolishi natijasida yuzaga kelgan: *oshal>osha, oshul>oshu*. Ko'rsatish olmoshining *osha, oshu* shakllari eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, ayrim yodgorliklardagina uchraydi.

*Osha* shakli “O’g’uznoma” va “Boburnoma”da, *oshu* shakli “O’g’uznoma”da qayd qilindi: *Osha üstündä toy taqı muz bar turur* (O’N). *Oshandan qachqan bilä... Panipat navahisidin etärlär* (BN). *Kenä oshu yig’achnın tübindä turdı* (O’N).

So’zlovchiga oldindan ma’lum bo’lgan narsani, shaxsni ta’kidlab, ajratib ko’rsatish ma’nosida *hamul* olmoshi ham qo’llangan. Bu olmosh ham ta’kid yuklamasiga *ul* ko’rsatish olmoshining birikuvidan hosil bo’lgan.

*Hamul* ko’rsatish olmoshi asosan XV asrga oid yodgorliklarda qo’llangan bo’lib, XIX asrga oid manbalarning ba’zilarida ham uchraydi: *Hamul dam küydi Lutfiy sham’ yañlıq* (Lutfiy). *Hamul miskini sargardän-mu-dur bu* (Atoiy). *Hamul bahädirlig’ tavrıda bu tuyug’ andın mashhurdur* (Navoiy, MN). *Menä hamul yigit keräkdür* (BV).

85-§. Ma’nosiga ko’ra ko’rsatish olmoshlariga yaqin turuvchi *ana*, *muna* (*mana*) so’zlari eski o’zbek tilida kam qo’llangan. Bu so’zlarning qo’llanishi o’zbek tili taraqqiyotining keyingi davrlariga oid ayrim manbalardagina qayd qilindi: *Muna aldınızda bara turur* (Sh.turk). *Anlar muna bara-miz derlä*r (Sh.turk). *Ana qadd-u ana husn-u ana xulq // kishi kergän emäs mundag’ latäfat* (Furqat).

Ko’rsatish olmoshlariga *ana*, *mana* so’zlari qo’shilishi bilan hosil bo’luvchi *ana u*, *mana bu*, *mana shu* kabi birikmalar esa yozuv yodgorliklarida uchramaydi.

86-§. Yozuv yodgorliklaridan ma’lum bo’lishicha, turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida ko’rsatish olmoshlarining ba’zilarigina iste’molda bo’lgan. Masalan, O’rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida ko’rsatish olmoshlarining *bu*, *ol* (*ul*) shakllarigina qo’llangan. XI—XII asrlarga oid yodgorliklar — “Qutadg’u bilig” va “Hibatul haqoyiq” asarlarida ko’rsatish olmoshlarining *bu*, *ol* (*ul*) shakllaridan tashqari *ushbu*, *oshul* shakllari ham iste’molda bo’lgan. Boshqa shakllarning qo’llanishi yana ham keyinroq davrlarga oid manbalarda kuzatiladi.

## So‘roq olmoshlari

**87-§.** Eski o‘zbek tilida qo‘llangan so‘roq olmoshlari katta guruhni tashkil etib, bular tuzilishi jihatdan tub yoki tarkibli so‘zlardan iborat. Tub so‘roq olmoshlarini *kim, ne // nā* so‘zlari tashkil etadi. Tarkibli so‘roq olmoshlarining bir guruhi *ne // nā* so‘roq olmoshi asosida hosil bo‘lgan: *negā, nedin, nechün, nevchün* (<*ne+ üchün*), *nechük, nelük, netäk, nek, negü (nag‘u), neshä, nechä* so‘roq olmoshlari shu guruhni tashkil etadi. *Qayu, qaysi, qayda // qanda // qayuda, qaydin // qandin // qayudin (qaydan / / qandan) qayan, qani, qachan, qancha* kabi tarkibli so‘roq olmoshlarining shakllanishida qadimgi *qay // qan* so‘roq olmoshi asos bo‘lgan.

Qadimgi so‘roq olmoshining *qay* va *qan* shakllari bir so‘zning fonetik shakllaridir. Qiyoslang: *qoy // qon* “qo‘y”, *qayu // qanu* “qaysi”, *qayda // qanda* “qayerda” (MK, I tom, 395-bet; III tom, 188, 154, 155, 237, 254-betlar).

Qadimgi so‘roq olmoshining *qay* shaklida qo‘llanishi yozuv yodgorliklarida ham aks etgan: *Atañ, anañ, qay yollug‘ tururlar* (QR). *Dedi: qay chag‘din olduñ ishq ara masf?* (Navoiy, FSH).

**88-§.** Kim so‘roq olmoshi shaxsga nisbatan ishlatiladi. Bu olmosh ko‘plik va egalik affikslari bilan ham qo‘llanadi, kelishik affikslari bilan turlanadi: *Fikr qil, mulknı kim alg‘usıdur?* (SHN). *Kimiñiz ulug‘ erkän, kimiñiz kichik erkän, ...* (Tafsir). *Bizdin soñ kimni sevdin ersä, ...* (QR). *Kimlärgä ravā bolg‘ay?* (NF). *Dedi: sordik kimda bolsa mushkulı* (Navoiy, LT). *Kimdin tiläyin daväyi hijran* (Atoiy).

XIV asrga oid ayrim manbalarda *kim* so‘roq olmoshining qaratqich kelishigi *kimünj* shaklida ham qo‘llangan: *Kimünj aqli bar ersä, tursu yalg‘uz* (XSH). Bu shakl “Qutadg‘u bilig” da ham mavjud: *kimünj davlatı*.

**89-§.** Ne //nā so‘roq olmoshi narsa, voqea-hodisa, hayvon, jonivorlarga nisbatan qo‘llanadi.

Bu olmosh quyidagi o‘rinlarda ishlatiladi:

1. Fe‘lga bog‘lanib, *nima* olmoshi ma‘nosidagi so‘roqni bil-



diradi: *Emdi sizlär ne qılır-sizlär?* (Tafsir). *Ne bilür-sen xastalarnıñ nälidin?* (Lutfiy). *Buni bandlatıb, ne qılay dey turur-sen?* (Sh.tar.).

2. Fe'lga bog'lanib, "nima uchun", "nima sababdan" kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Ey Dāvud, ne yığ'layur-sen* (QR). *Dedi: qoyg'ıl, ne yatıb-sen, qoyg'ıl* (SHN). *Ne deb muruvvat etib, avval āshnā qıla-siz?* (Furqat).

3. Otga bog'lanib, "qanday", "qaysi" kabi so'roqlarni bildiradi: *Ne tilägi bar ersä, bergäy-men* (QR). *Ne kün, ne vaqt, ne saatqacha davā qılg'ıñ?* (Lutfiy). *Men sordum kim, ne kishi-sen?* (BN).

4. Biror narsadan ajablanishni bildiradi: *Kozüñ ne balā qara bolubtur?* (Navoiy, MN). *Bilmän, ne jarima bilä Hiridin ihräj qıldı* (BN). *Ne boldı, dushman oldıñ jänıng'a bara-bara?* (Munis).

5. Ritorik so'roq gaplarni tashkil qilishda ishtirok etadi: *Ne shukr etäy aña kim, duādın artuq erür* (Lutfiy). *Özläriniñ beglärigä ne vafā qıldılar kim, bizgä vafā qılg'aylar* (BN). *Qul erdilär barı, ne qılsunlar // shāhniñ allıg'a ne kelsünlär* (SHN). *Kishi ne bilsün anıñ hälmı* (Munis).

6. Ma'noni kuchaytirib, ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi: *Vah, ne yaxshı künlär erdi kim, seřä hamdam edim* (Munis). *Ne xush ayyām ekän oshal zamānlar* (Muqimiy). *Ne yaxshı marhamatlar eylämish-sän namada izhār* (Furqat).

*Negä, nedin* shakllaridagi jo'nalish va chiqish kelishiklari affiksi -gä va -din o'zining grammatik vazifasini yo'qotgan bo'lib, bu shakllar so'roq olmoshi sifatida shakllangan. Bu shakllar "nima uchun", "nima sababdan" kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Negä mayl qılmas-siz* (BN). *Meni negä qıynay-sän?* (Sh.turk). *Negä ahım eshitmäy-sen* (Munis). *Közi nedin kermäs boldı?* (QR). *Nedin, bildük, özünıni band etib-sen* (Navoiy, FSH).

**90-§.** Hozirgi o'zbek tilida so'roq olmoshi vazifasini bajaruvchi *nima* so'zi eski o'zbek tilida asosan "narsa" ma'nosida qo'llangan: *Dedi: eyláb murätıtib kämälärni // salıñ anda kereklik nimälärni* (Navoiy, FSH). *Sanag'uluqsız nimälär, yulqılar aldı*

(O'N). *Ushbu yetti nimani kältürünüz* (SHN). *Javāhir va altun va kümüşh va nafis nimälärini yükläb eltti* (BN).

*Nimä so'zining so'roq olmoshi ma'nosida qo'llanishi XV asrdan keyingi davrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi: Inisiniñ uyida ichsäm, xatirg'a nimä kelgäy deb,...* (BN). *Nimä ishlär bitkärdirizlär?* (Gulxaniy).

**91-§.** *Ne so'roq olmoshi asosida hosil bo'lgan nechün (nevchün), nechük, netäk, nelük, nek, neshä, negü (nag'u) so'roq olmoshlari ma'no jihatdan ham o'xshash. Bu olmoshlar harakatning, holatning yuzaga chiqish sababi, usuli to'g'risidagi so'roqni bildiradi.*

*Nechün so'roq olmoshi harakatning, holatning yuzaga chiqishi to'g'risidagi "nima uchun?", "nima sababdan?" kabi so'roqlarni bildiradi: Nechün aytur erdiriz anı kim, qılmaz ermishitiz?* (Tafsir). *Sud-u sarmayanı nechün nābud qıldı bir yolu?* (Navoiy, Hazoyinul maoniy). *Bag'rı qattıq bolmas ersä, demägäy hargiz "nechün?"* (Muqimiy).

*Nechün so'roq olmoshi nevchün shaklida ham qo'llangan. Keyingisi XV asr va undan keyingi davrlarga oid ayrim yodgorliklarda uchraydi: Nevchün dāim ul shād ermäs erkin?* (Navoiy, FSH). *Qılmasın nevchün salātın xızmatıg'a mayl?* (FI). *Bilmän, nevchün qılmas temār* (Munis).

Eski o'zbek tilida *nechün* so'roq olmoshi ko'pincha o'zining dastlabki ko'rinishida, ya'ni *ne uchün* shaklida qo'llangan. Masalan: *Ne uchün öltürür-men?* (QR). *Ne uchün erkänin bilmäs* (Navoiy, SS). *Emdi ne uchün bermäy turur sän?* (Sh.tar.). *Ne uchün dusht-u biyābānlarnı tinmäsđin kezär?* (Furqat).

*Nechük so'roq olmoshi harakatning, holatning yuzaga chiqish sababi, usuli to'g'risidagi "nima sababdan?", "qanday?", "qanday qilib?" kabi so'roqlarni bildiradi: Yusufni nechük bərigä yedürdüñ?* (QR). *Nechük mehriñni jānımdın yoyayın?* (MN). *Sen nechük dam urmas-sen?* (Navoiy, MQ). *Men nechük anıñ qashıg'a barg'ay-men?* (BN). *Ot yaqarnı bilmäy-siz, bizgä nechük muāmıla qılğ'ay-siz?* (Gulxaniy). *Nechük tāqat qılay kim, ...* (Furqat).

*Netäk* so‘roq olmoshi harakatning, holatning yuzaga chiqish usuli to‘g‘risidagi “qanday?”, “qanday qilib?” kabi so‘roqlarni bildiradi. Bu olmosh asosan XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda qo‘llangan bo‘lib, keyingi davrlarda ba‘zi asarlardagina uchraydi. *Qasd qilmaq netäk ravā bolur?* (QR). *Anjar netäk tabınur-sizlär?* (Tafsir). *Yazuqsız urmaq netäk bolur?* (NF). *Netäk sendin yapayın ushbu rāzını* (XSH). *Qapları yergä netäk tökülmish?* (SHN).

*Nelük* so‘roq olmoshi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda qo‘llangan bo‘lib, ma‘no jihatdan *nechuk* so‘roq olmoshiga o‘xshaydi: *Emdi sachıñ, saqalıñ nelük örünärdi?* (Tafsir). *Sen qān töktüñ, nelük kechürür-men?* (QR). *Nelük bashımg‘a tupraq qoymag‘ayım?* (XSH). *Nelük haddın ashurur-siz jafām?* (MN).

*Nek, neshä* so‘roq olmoshlarining qo‘llanishi yana ham chegaralangan bo‘lib, XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida uchraydi: *Ajab bizdin oza kechkän azizlar // nek aymaz kergänin bizlärägä, kizlär?* (XSH). *Chun üç falaqdakın bilür-sen / / nek bilmedin, öz evündü kim bār?* (Saroyi). *Neshä aytur-siz anı kim, qılmaz-siz?* (Tafsir). *Sizlär neshä yig‘layur-siz?* (NF).

*Negü* so‘roq olmoshi ham XIII—XIV asrlarga oid ba‘zi manbalarda uchraydi. Uning *nag‘u* shakli esa XV asr va undan keyingi davrlarga oid ayrim asarlarda qo‘llangan: *Yä qarabash, nag‘u hāl tüshdi?* (Tafsir). *Yä Omar, rāst ayg‘ıl, nag‘u ishkä keldiñ?* (Tafsir). *Nag‘u barur-sen eliktin demä, gunāhım yoq* (Lutfiy). *Nag‘u g‘am elkinä boldıñ giriftār?* (Nodir. Haft gulshan).

**92-§.** *Nechä* so‘roq olmoshi *ne* so‘roq olmoshiga vaqt, o‘lchov bildiruvchi *chag‘* (*chanj*) so‘zining qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan: *ne+chag‘>nechag‘>nechä*.

*Nechä* hozirgi o‘zbek tilida miqdorga nisbatan so‘roqni bildiruvchi olmosh vazifasida qo‘llanadi. Eski o‘zbek tilida esa bu so‘z asosan “qancha?” (“ko‘p marta” ma‘nosida), “qachongacha?” kabi ma‘nolarda qo‘llangan: *Nechä biz kōni sözlär ersäk, bizgä inanmag‘ay-sen?* (QR). *Nechä bu xortluq qilg‘ay-sen, āxir // yä nechä rahmsız bolg‘ay-sen, āxir?* (XSH). *Qāmatımnı nechä qashıñ yä qılā // nechä hajr otı jānımda yāqıla?* (Lutfiy). *Nechä bu ish*

*mazhumlarg'a sanchilg'ay?* (Navoiy, MQ). *Nechä sözi dil izhär eyesäniz, qilmag'ay parvā* (Muqimiy).

*Nechä* so'zining miqdorga nisbatan qo'llanishi yozuv yodgorliklarida kam uchraydi. Quyidagi misollarda shu ma'noda qo'llangan: *Mu'aviya sordi, nechä yıl munuñ üzä qaldılar teb* (Tafsir). *Shirin birlä nechä qız birgä erdi?* (XSH). *Lek kunduzni däguchi kechädür // bilsä bolg'ay dahr ara nechädür* (Navoiy, SS). *Anja nechä ayblar qoyub aytur erdi ki,...* (Gulxaniy).

**93-§.** So'roq olmoshining *qayu*, *qaysi* shakllari qadimgi *qay* so'roq olmoshi asosida shakllangan: *Qayu* shakli *qay* olmoshiga III shaxs egalik affiksi *-u* qo'shilishi asosida hosil bo'lgan (*qay+u>qayu*), *qaysi* shakli esa *qayu* so'roq olmoshiga III shaxs egalik affiksi *-si* qo'shilishidan tashkil topgan (*qayu+si>qayusi>qaysi*).

*Qayu*, *qaysi* so'roq olmoshlari ma'no jihatdan ham o'xshash. Bu olmoshlar narsa, shaxs, voqea-hodisalarni ajratib ko'rsatish ma'nosidagi so'roqni bildiradi.

*Qayu* so'roq olmoshi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tili uchun xarakterli bo'lib, XV—XVI asrlarda ham ayrim asarlarda qo'llangan: *Qayu qush havāda uchsa, ...* (QR). *Arīb, emgāb qayu yerdin kelür-sen?* (XSH). *Nedür ātñ, qayu yerlik pari-sen?* (Lutfiy). *Qayu el qāldılar erkin g'amında?* (Navoiy, FSH). *Qayu xushdil, qayu mahzun boldı // qayu Layli, qayu Majnun boldı?* (SHN).

*Qayu* so'roq olmoshi ko'plik, egalik, kelishik affikslari bilan ham qo'llanadi: *Qayulari anñ birlä otg'a kirgän erür?* (Tafsir). *Menim ornumg'a qayusi yaraqlıq bolg'ay?* (QR). *Qayunız maftun erür?* (Tafsir). *Qayunızñ ashı birlä toysa-miz, ...* (QR).

*Qaysi* so'roq olmoshi asosan XV asr va undan keyingi davrlarga oid yodgorliklarda qo'llangan. Bu olmosh ko'plik, egalik, kelishik affikslari bilan ham qo'llanishi mumkin: *Kerāli, qaysımız yenjār āxir* (Lutfiy). *Qaysılarnı der edilār "tamadur" // qān alarnıñ qıhchıdın tāmadur* (SHN). *Bilmän, mirzag'a qaysı tavrı xush yaqıb, ...* (BN). *Qaysınñ keñli chāpılg'an boldı // qaysınñ keñli āchılğ'an boldı* (SHN).

**94-§.** So'roq olmoshining *qayda* // *qanda* // *qayuda*, *qaydın* /

/ *qandın* // *qayudın* (*qandan*), *qayan*, *qanı*, *qancha* shakllari o‘ringa nisbatan so‘roqni bildiradi.

*Qayda* // *qanda* // *qayuda* so‘roq olmoshi *qay* // *qan* // *qayu* so‘roq olmoshiga o‘rin-payt kelishigi affiksi qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan. Bulardan *qayda* shakli o‘zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida iste‘molda bo‘lgan.

*Qayda* // *qanda* // *qayuda* so‘roq olmoshi quyidagi o‘rinlarda qo‘llanadi:

a) “qayerda?” ma’nosidagi so‘roqni bildiradi: *Habil qayda turur?* (QR). *Qayuda kim bolsa-men, ...* (Tafsir). *Bu jänlar qanı, qanda qıldı makän?* (XSH). *Yä Utuba, qayda erdiñ?* (NF). *Kishi qayda elärin bilsä bolmas* (MN);

b) harakat fe‘llari bilan boshqarilganda “qayerga?” ma’nosidagi so‘roqni ifodalaydi: *Qayda barur-sen?* (QR). *Qutulmag‘aylar yalg‘anchilar qayuda kim kelsälär* (Tafsir). *Biz yana qanda barur-biz?* (XSH). *Køjli xushlar qayda ketsä, men ketäy* (Lutfiy). *Qaraqñ‘u kechädä yolsız qayda barasız?* (BN). *Qayda barsam bolg‘ay?* (Sh.turk).

*Qaydın* // *qandın* // *qayudın* (*qandan*) so‘roq olmoshi *qay* // *qan* // *qayu* so‘roq olmoshiga chiqish kelishigi affiksi qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan; *qayudan* va *qandan* shakllari XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda uchraydi.

Bu olmosh “qayerdan?” ma’nosidagi so‘roqni ifodalaydi: *Menä og‘ul qayudın bolur?* (Tafsir). *Bəri yegän Yusufnı qandan bulalım?* (QR). *Yürüşhün qandın, özün qayu yerdin?* (XSH). *Qayda istäy, istäsäm qaydın tapay sen yärni?* (Navoiy, MN). *Harmasunlar, qaydın kelürlär?* (Gulxaniy).

So‘roq olmoshining *qanı* shakli *qan(qay)* so‘roq olmoshiga III shaxs egalik affiksi *-ı* qo‘shilishi bilan tashkil topgan. O‘ringa nisbatan so‘roqni ifodalab, “qayerda?” ma’nosini bildiradi.

Bu olmosh XIII—XIV asrlarga oid ayrim yodgorliklarda ishlatilgan bo‘lib, keyingi davrlarda deyarli qo‘llanmagan: *Qanı seniñ birlä bolg‘anlar?* (Tafsir). *Yä Fatima, qanı Hasan, Husayn?* (NF). *Qanı ul ashnuqı suhbatlarımız* (XSH). *Tanımay dedi: meniñ yärım*

*qani // sarv boyluq ruxsārim qani?* (Navoiy, MN).

**Qayan** soʻroq olmoshi *qay* soʻroq olmoshiga *yan* soʻzining qoʻshilishi asosida hosil boʻlgan: *qay+yan > qa(y) + yan > qayan*.

**Qayan** olmoshi ham oʻringa nisbatan soʻroqni ifodalab, “qayerga?” maʼnosini bildiradi. Bu olmosh eski oʻzbek tilida kam qoʻllangan boʻlib, XV asr va undan keyingi davrlarga oid ayrim asarlarda uchraydi: *Yana darugʻadin qayan qachib bargʻanin kishi bilmās* (Navoiy, MN). *Adashgan it kebi, Furqat, qayan bargʻum bilmās-men* (Furqat).

**Qancha** soʻroq olmoshi *qan (qay)* soʻroq olmoshiga vaqt, oʻlchov bildiruvchi *chagʻ (chan)* soʻzining qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan.

Bu olmosh XIII—XIV asrlarga oid ayrim yodgorliklarda qoʻllangan boʻlib, “qayerga?” maʼnosidagi oʻringa nisbatan soʻroqni bildiradi: *Qancha barsa, men anlar birlā barayin* (Tafsir). *Ey adib, qancha barur-sen?* (NF).

Hozirgi oʻzbek tilida bu olmosh miqdorga koʻra soʻroqni bildiradi. Qiyoslang: *Qancha kitob olding?*

**95-§.** **Qachan** soʻroq olmoshi *qay* soʻroq olmoshiga vaqt, oʻlchovni bildiruvchi *chagʻ (chan)* soʻzining qoʻshilishidan tashkil topgan.

Bu olmosh vaqtga, paytga nisbatan soʻroqni bildiradi: *Qachan halak qilgʻay?* (QR). *Qachan qilgʻay kezümni yaqtu ul ay?* (MN). *Qachan özün bilä bu qulni ashna qilgʻun?* (Lutfiy). *Qachan bolgʻay ki, tapqay-men xabar yar-u diyārmdin?* (Furqat).

**Qachan** soʻroq olmoshi payt ergash gapni bosh gap bilan bogʻlash vazifasini ham bajaradi: *Qachan kāsälär, seje salam qılurlar* (Tafsir). *Qachan əlsäm, sejä qadım bilürgäy* (MN). *Oh qachan yaddan chıqar, yana kelmäs* (Saroyi). *Qachan kim giri nayzanı atar-sen // bu xake sarı ham gāhi nazar sāl* (Atoiy).

**96-§.** Eski oʻzbek tilida isteʼmolda boʻlgan soʻroq olmoshlarining koʻpchiligi turkiy tillarda qadimdan qoʻllanib keladi. Masalan, qadimgi turkiy (uygʻur) tili yodgorliklarida soʻroq olmoshlarining *kim, nä (ne), nechä, negü, nechük, nelük, netäk, qachan, qayu,*

*qani*, *qanda* (*qanta*) kabi shakllari iste'molda bo'lgan. Bulardan ko'pchiligi hozirgi turkiy tillarda ham keng qo'llanadi. Ayrimlari esa turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlari uchungina xos bo'lib, keyinchalik iste'moldan chiqqan yoki kam qo'llanadigan bo'lib qolgan. Masalan, *negü*, *nelük* shakllari XV asrdan boshlab ko'pchilik turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida deyarli qo'llanmagan. Hozir esa bu shakllarni ayrim turkiy tillarda yoki shevalarda uchratish mumkin. Masalan, hozirgi qozoq tilidagi *nelikten*, hozirgi tatar tilidagi *nilekten* shakli qadimgi *nelük* so'roq olmoshiga chiqish kelishigi affiksi qo'shilishi bilan hosil bo'lgan. *Neshä* so'roq olmoshi tarixan ozarbayjon tili uchun xarakterli bo'lib, yozuv yodgorliklarda *nishä*, *neshün* shakllarida keng qo'llangan. Ozarbayjon shevalarining ayrimlarida bu olmosh hozir ham ishlatiladi.

### Birgalik olmoshlari

**97-§.** Eski o'zbek tilida birgalik olmoshi ma'nosida *barcha*, *bari*, *barliq*, *qamug'*, *hamma* (*hama*), *jumla*, *tamām*, *jam'e*, *ba'zi* so'zlari iste'molda bo'lgan. Bularning bir qismi keng iste'molda bo'lib, boshqalari ma'lum davrlarda yoki ayrim yodgorliklarda qo'llangan. Birgalik olmoshlarining ko'pchiligi egalik va kelishik affikslari bilan turlanish xususiyatiga ega, ayrimlari ko'plik affiksi bilan ham ishlatiladi.

Eski o'zbek tilida iste'molda bo'lgan birgalik olmoshlarining bir guruhi asli turkiy, boshqalari forscha yoki arabcha so'zlardan iborat.

**98-§.** *Barcha*, *bari*, *barliq*, *qamug'* birgalik olmoshlari turkiy so'zlarni tashkil etadi. Eski o'zbek tilida bularning qo'llanish darajasi turlicha bo'lgan.

*Barcha* so'zi birgalik olmoshi ma'nosini ifodalovchi asosiy vosita sifatida eski o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida qo'llangan: *Barcha tapılır bizgä, vale yär tapılmas* (Lutfiy). *Barchası fahm etti kim, mushkül ish* (Navoiy, LT). *Barchaları kelib, arz qıldılar* (Sh.tar.). *Barchanıñ anıñ eshikigä keliñ* (SHN). *Barchanıñ*

*tāmları altun, kümüş birlä bezäklik* (QR). *Buyurdum kim, barchanı bazar bashıda yasaqqa yetkürgäylär* (BN). *Barchadın qılğ'an ishin sorg'usıdur* (Sakkokiy).

**Barı** birgalik olmoshi ham eski o'zbek tili taraqqiyotining deyarli hamma davrlarida iste'molda bo'lgan. Lekin yozuv yodgorliklarda uning qo'llanishi *barcha* birgalik olmoshiga nisbatan ancha chegarali bo'lgan: *Özgä yarag' bulmas ersänj, barı bahäm almag'ıl* (QR). *Barını ilekindä qozg'ıl* (NF). *Qaldılar ul fasānadın barı dan* (Navoiy, SS). *Barısını basıb erdi surān* (SHN). *Urush barınıydur bayırn ishi* (SHN).

**Barlıq** so'zining birgalik olmoshi ma'nosida qo'llanishi "Shayboniynoma"da qayd qilindi: *Shaharnı barlıq el berkitädi* (SHN). *Boldılar barlıq el barı gadāy* (SHN).

**Qamug'** so'zi turkiy tillarda birgalik olmoshining qadimgi shaklini tashkil etadi. Bu olmosh XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tiliga ham xos bo'lib, birgalik olmoshi ma'nosini ifodalovchi asosiy vosita sifatida ancha keng iste'molda bo'lgan. Keyingi davrlarga oid yodgorliklarda deyarli qo'llanmagan. Misollar: *Qamug'ın Sır yaqasında bitidim* (MN). *Qamug'g'a yanut berigli turur* (QR). *Qamug'dın özüb ul xizmat jahānın* (XSH). *Sözlänj teyü, qamug'lari aytg'aylar* (Tafsir). *Agar qahrıng'a üchräsä, gadä bolur qamug' shāhlar* (Sakkokiy).

XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarning ba'zilarida bu olmosh *qamuq, qamag'* yoki *qamu* shaklida qo'llangan: *qamuq kerklüklär, qamuq ālam, qamuq umrum* (MN); *bedāniniñ qamag'i* (O'N); *qamu tash ichindä, qabilamnıñ qamusı* (Saroyi); *qamusını... nafaqa qıldı* (Tafsir).

99-§. Arabcha *jumla, jam'e, tamām* so'zlari va forscha *hama (hama)* so'zining birgalik olmoshi ma'nosida qo'llanish darajasi turlicha bo'lgan.

**Jumla** birgalik olmoshi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tiliga xos bo'lib, keyingi davrlarda uning qo'llanishi chegaralangan: *Qatıñda yer opärlär jumla shāhlar* (MN). *Jumlası ottuz toqquz bash kishilär* (Tafsir). *Jumlanız bir yolu hamla qılsanız bolg'ay* (NF).



*Özini jumladan ājiz korār ul* (Saroyi). *Ay-tek yüzūñni jumlai jahāndın künilār-men* (Sakkokiy). *Jumla a 'zāsıg'a qoydı za'f yüz* (Navoiy, LT).

**Tamām** so'zining birgalik olmoshi ma'nosida qo'llanishi ayrim asarlarda uchraydi: *Yürir teñiz ichindā tamām tag'lar kābi* (Tafsir). *Tamām qayg'ı muhirlüg ganj erür-sen* (XSH). *Tamāmın ulus bashıdın qıldı daf'* (Navoiy, SI). *Tamām daryādag'ı jihāzñın va kemälärñın hibālñı ushbu nargilñın postdın qılurlar ermish* (BN).

**Jam'e** so'zining birgalik olmoshi ma'nosida qo'llanishi yana ham chegarali bo'lib, XV asrdan keyingi ba'zi asarlardagina uchraydi: *Hindustāññın jam'e rudlarñın bu xāsiyatı bar* (BN). *Jam'e bālag'a ikki yüz yigirmā besh sabaq berilür* (Furqat).

**Hamma (hama)** birgalik olmoshi eski o'zbek tili taraqqiyotining oldingi davrlarida kam qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarda faollasha borgan. Misollar: *Hamması benim ilmim astında bolg'aylar* (NF). *Seksän miññın hamması* (BN). *Hamma bashdın-ayāq chunān tāza turur* (Gulxaniy). *Xalāyiq hama mahv-u hayrān ekān* (Muqimiy). *Hama yazmishları dilxāh sizgā* (Furqat).

**100-§.** Arab tiliga mansub bo'lgan **ba'zi** so'zi eski o'zbek tilida butunning, umumning, to'daning qismini ko'rsatish ma'nosida qo'llangan bo'lib, birgalik olmoshlari guruhiga kiradi.

**Ba'zi** birgalik olmoshi eski o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida keng iste'molda bo'lgan. Masalan: *Ba'zi aymishlar* (Tafsir). *Anuñ saltanatın ba'zi āltmish yıl, ba'zi ellik yıl derlār* (Navoiy. Tarixi muluki ajam). *Ba'zi qushñın but eti yaxshı bolur* (BN). *Ba'zi shuarā ki, ...*(Gulxaniy).

**Ba'zi** olmoshi ham egalik, ko'plik, kelishik affikslari bilan qo'llanadi: *Ba'zilar on sekkiz yashar erdi* (QR). *Ba'zini muja keltürgändür kim, ...* (Navoiy, MN). *Qāchqanlarñın ba'zisig'a sazā bergāylār, ba'zisini bizñın qāshumızg'a yibārgāyler* (BN). *Ba'zidin gahi birār yaxshı bayt vāqe bolur* (Navoiy, MQ). *Nokar xalqñın ham ba'zilari ālib bārurlar* (Sh.turk).

**101-§.** Turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida birgalik olmoshlaridan *qamug'* (turli fonetik shakllari bilan) iste'molda

bo'lgan. Masalan, O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida birgalik olmoshi ma'nosida asosan shu so'z qo'llangan bo'lib, ba'zi manbalarda *barcha*, *bari* shakllari ham uchraydi. XI asr yodgorligi "Qutadg'u bilig"da esa *qamug'*, *barcha* olmoshlari bilan bir qatorda fors va arab tillaridan o'zlashgan *hamma* (*hama*), *ba'zi* kabi birgalik olmoshlari ham qo'llangan. Keyinchalik *barcha*, *bari* birgalik olmoshlarining faollasha borishi va bu olmosh turlarining arabcha va forscha o'zlashmalar hisobiga ko'paya borishi natijasida *qamug'* olmoshi iste'moldan chiqa borgan. Shunday qilib, ko'pchilik turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida XV asrdan boshlab *qamug'* olmoshi arxaik shaklga aylangan.

### Belgilash olmoshlari

**102-§.** Eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilidagi kabi belgilash olmoshlarining sodda va murakkab shakllari iste'molda bo'lgan. Sodda shakli — *har*. Murakkab shakllari esa *har* so'ziga so'roq olmoshlaridan birini qo'shish yo'li bilan hosil bo'ladi: *har nima*, *har qaysi*, *harna // harnä* (<*har+ne // har+nä*) kabi. Oldingi davrlarda belgilash olmoshining *tekmä* shakli ham iste'molda bo'lgan.

**103-§.** *Har* belgilash olmoshi narsa, shaxs, voqea-hodisani yoki belgini ajratib ko'rsatadi. Bu olmosh hech qanday so'z o'zgartuvchi, shakl yasovchi qo'shimcha olmaydi: *Har kishigä andäza birlä satarlardi* (Tafsir). *Quyash har kün yüz urur ul qapuqqa* (MN). *Har yıl anı xazāna qilg'aylar* (Navoiy, SS). *Har kishi öz yeridä boldi xān* (SHN). *Har gapda yüz ichkay qasam* (Muqimiy).

Ma'noni kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish uchun *har* belgilash olmoshiga *bir* so'zi qo'shiladi. Bunda *bir* so'ziga egalik, kelishik affikslari qo'shilishi mumkin: *Zulfuñuz yüz halqa*, *har bir halqada miñ jām g'am* (Lutfiy). *Har biriñiz bir nishāna bolur* (Tafsir). *Har birini öz yeridä benazar tasavvur qilg'ay* (Navoiy, MQ). *Har biridä qayg'u yüz miñ* (SHN). *Söz aytib har birisi har saridin ...* (Furqat).

*Har* belgilash olmoshi eron tillaridan o'zlashgan bo'lib, uning

yoʻzuv yodgorliklarida aks etishi XI—XII asrlardan boshlab kuza-tiladi, XIII—XIV asrlardan boshlab uning qoʻllanishi faollasha borgan.

**104-§.** *Tekmä* belgilash olmoshi asli turkiy boʻlib, turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida belgilash olmoshi uchun shu soʻz qoʻllangan. Bu olmosh XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ancha keng isteʼmolda boʻlib, keyingi davrlarda deyarli qoʻllanmagan.

*Tekmä* belgilash olmoshi maʼno jihatdan *har* belgilash olmoshiga oʻxshaydi: *Tekmä qapugʻda tekma kecha yetmish miñ er sagʻchi turur* (QR). *Aniñ tekma korki boldı elda mashhur* (XSH). *Ne bilür qadrınıñ tekma nädän* (MN). *Chıqqay hazär halqa tekma sachtın* (Lutfiy).

*Tekmä* olmoshi *har* belgilash olmoshidan farqli oʻlaroq, koʻplik, egalik va kelishik affikslari bilan qoʻllanadi: *Bu tort yüz bash kishi tekması qalamlarını keltürüb, ...* (Tafsir). *Taqı tekmaläri öjindü birär etmäk qoydı* (NF). *Suchulmiş tekmalärgä tan libäsi* (XSH).

Maʼnoni kuchaytirish, taʼkidlab koʻrsatish uchun *har* olmoshidagi kabi *tekma* olmoshiga ham *bir* soʻzi qoʻshilib keladi. Bunda soʻz oʻzgartuvchi, shakl yasovchi qoʻshimchalar *bir* soʻziga orttiriladi: *Tekma bir kün bir türli ilm bilän kürashür edi* (Saroyi). *Tekma biriñe... yarlıqadı* (Tafsir). *Tekma birimizniñ bu teglik küchümüz bär* (QR). *Sizläriñ tekma biriñizge bir tavuq beräyin* (NF).

**105-§.** Belgilash olmoshining murakkab shakllari maʼnoni taʼkidlab, ajratib koʻrsatish uchun xizmat qiladi.

*Har kim, har nimä, har qaysı* shakllari narsa, shaxs, voqea-hodisani taʼkidlab, ajratib koʻrsatadi. Bu olmoshlar soʻz oʻzgartuvchi qoʻshimchalar bilan ham qoʻllanadi: *Har kim aña jahd qilmış ersä, ...* (Tafsir). *Har kimniñ yazgʻan va oqugʻanıgʻa közüm tüshüb, ...* (Furqat). *Har kimdä imän yoq, andın ädamiylıq kelmäk yoq* (Navoiy, MQ). *Har nimägä ehtiyāj bolsa, beglärdin tilär edi* (BN). *Har qaysı harakat andın sadir olsa, ...* (Gulxaniy). *Har qaysını bir yergä yıbarur-men* (Sh.turk). *Alar har qaysıları bir ilmgä*

*dars aytur ekänlär* (Furqat).

Belgilash olmoshining *harne* // *harnä* shakli ma'no jihatdan *har nimä* shakliga o'xshaydi. Lekin *harne* // *harnä* so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar olmaydi. Masalan: *Näzik kishidin harnä kelür, yaxshı körünür* (Lutfiy). *Harnä desäm qabul qılğ'ay-mu-sen?* (Navoiy, SS). *Dedilər: harnä qılur-siz, qılınız* (SHN). *Harnä bolğ'an vaqeatin bir-bir aytib turur* (Sh.turk).

Belgilash olmoshining *har nechä, har qancha, har nechük, har qachan, har qayda, har qayan* shakllari ravishga yaqin bo'lib, miqdor, payt yoki o'rin ma'nosini ta'kidlab, kuchaytirib ko'rsatadi. Bu olmoshlar ham so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar olmaydi: *Har nechä sa'y qıldılar, atlanduralmadılar* (BN). *Har qancha qalın desä tapılır* (Gulxaniy). *Har nechük bolsa, quruldı majlis* (SHN). *Har qachan og'ul-ushaqınız көp bolsa, ul yerläрни yurt qilib olturun* (Sh.tar.). *Ma'mur bolur adl ilä har qayda viläyat, ...* (Lutfiy). *Har qayan xätiri istär, barsun* (SHN).

**106-§.** Turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida belgilash olmoshi vazifasini *tekmä* (*tegmä*) so'zi bajargan. Masalan, O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy (uyg'ur) tili yodgorliklarida belgilash olmoshi ma'nosida shu so'z qo'llangan. XI asr yodgorliklari — “Qutadg'u bilig” va “Devonu lug'atit-turk” asarlarida ham belgilash olmoshi uchun asosan shu so'z qo'llangan. Bu olmosh XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham ancha keng iste'molda bo'lgan. Bu davrda fors tilidan o'zlashgan *har* belgilash olmoshining qo'llanishi ham ancha faollashgan edi. XV asrga kelib ko'pchilik turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida *har* belgilash olmoshi yana ham faollashgan, *tekmä* olmoshi esa iste'moldan chiqqan. Shu davrdan belgilash olmoshining *har* so'zi ishtirokida hosil bo'lgan murakkab shakllari ham keng qo'llana boshlagan, ularning turlari ham ko'paya borgan.

### Gumon olmoshlari

**107-§.** Eski o'zbek tilida gumon olmoshlarining quyidagi shakllari iste'molda bo'lgan: *kimsä, kimersä* (*kimärsä*), *nimersä, neersä, birägü, biräv, falan*.

Gumon olmoshlarining bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, jonivor, voqea-hodisalarga nisbatan qoʻllanadi, baʼzilari har ikkala maʼnoda ham ishlatiladi.

Gumon olmoshlarining koʻpchiligi kelishik qoʻshimchalari bilan ham ishlatiladi, ayrimlariga koʻplik va egalik affikslari ham qoʻshilishi mumkin.

**108-§.** Gumon olmoshlarining *kimsä*, *kimärsä*, *birägü*, *biräv* shakllari shaxsga nisbatan qoʻllanadi.

*Kimsä*, *kimärsä* shakllari bir olmoshning ikki xil koʻrinishidir. *Kimsä* shakli *kimersä* shaklining qisqargan shakli boʻlib, *kimersä* oʻz navbatida *kim* soʻroq olmoshiga *ersä* qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan: *kim+ersä* > *kim-ersä* (*kimersä*) > *kimsä*.

*Kimsä* gumon olmoshi eski oʻzbek tili taraqqiyotining deyarli hamma davrlarida isteʼmolda boʻlgan. Lekin uning qoʻllanishi ancha chegaralangan boʻlib, ayrim yodgorliklardagina uchraydi: *Seniñ birlä kimsä bar-mu?* (Tafsir). *Qalmagʻay gʻamda kimseniñ jän* (Navoiy, SS). *Kimsege anda istiqämat emäs* (Navoiy, SS). *Bir kimsäni anda tapmadilar* (BV). *Bir kimsä yoq ki, bolmagʻay anda soragʻda* (Munis).

Gumon olmoshining *kimersä* shakli XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tili uchun ancha xarakterli boʻlib, keyingi davrlarda deyarli qoʻllanmagan: *Nishän bermäs kimersä misliñizdin // Iräq-u Rum-u ham Kanʻän ichindä* (MN). *Ushbu kimärsälär kim, azäb-u uqubat qihurlar* (NF). *Bu tayaqni... kimersägä bermägil* (Tafsir). *Men hargiz kimersädin kuch birlä narsa almishum yoq* (QR). *Kimersä kim, senä egri kəñül tutar bu qadar...* (Sakkokiy).

Gumon olmoshining *birägü*, *biräv* shakllari bir xil manba asosida shakllangan: *biräv* shakli *birägü* shaklidan rivojlangan: *birägü* > *biräu* > *biräv* (qarang: 66-§), *birägu* shakli oʻz navbatida *bir* soniga *-ägü* affiksi qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan. Bu shakl jamlovchi son yasalishining qadimgi usuli asosida yuzaga kelgan (qarang: 66-§).

*Birägü* shakli XIII—XIV asrlarga oid ayrim asarlarda qoʻllangan: *Baqtlar, yiraqtin birägü kelür* (Tafsir). *Birägü yoldin ashayin, teb keldi* (QR). *Rozgärdin soñ birägüni buldı* (QR).

*Biräv* gumon olmoshining yozuv yodgorliklarida qoʻllanishi XV asrdan boshlab kuzatiladi: *Birävniñ purgâhın algʻay* (SHN). *Har qatla kim, birävni tartib chıqargʻaylar, anda qalgʻanlar özläridin bargʻaylar* (Navoiy, MQ). *Özünni er bilsän, yana birävni sher bil* (Gulxaniy). *Biräv undagʻ dedi, biräv mundagʻ* (Muqimiy).

**109-§.** Gumon olmoshining *neersä*, *nimärsä* shakllari narsa, jonivor, voqea-hodisalarga nisbatan qoʻllanadi.

*Neersä* gumon olmoshi *ne* soʻroq olmoshiga *ersä* qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan. Bu olmosh kam qoʻllangan boʻlib, ayrim manbalardagina uchraydi: *Bir neersäni men qıldachi-men* (Tafsir). *Atlar üchün neersälär tapmaydur* (BN).

Gumon olmoshining *nimärsä* shakli *nimä* soʻroq olmoshiga *ersä* qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan: *nime* + *erse* > *nimä* (*e*)*rsä* > *nimärsä*. Bu shakl XV asrdan keyingi davrlarga oid yodgorliklarda qoʻllangan: *Mundaq nimärsädin kim, fäyda bolgʻay, ...* (BN). *Köch uzab ketkändin soñ shäyad nimärsä qalgʻan bolgʻay teb, ...* (Sh.tar.). *Seniñ falän nimärsän falän bolur, teb fäl baqıb... yürür erdi* (Sh.turk.). *Meni qolumgʻa... gʻayri mukarrar nimärsälär tushdi* (Furqat).

**110-§.** *Falän* gumon olmoshi shaxsga nisbatan ham, narsa, voqea-hodisalarga nisbatan ham qoʻllanadi.

*Falän* olmoshi nomaʼlum shaxsni yoki nomaʼlum narsani, voqea-hodisani koʻrsatadi. Bu olmosh XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham, keyingi davrlarda ham shu maʼnoni ifodalovchi gumon olmoshi sifatida ancha keng isteʼmolda boʻlgan: *Bu bitigni falän ayda, falän kündä, falän yilda bitildi* (QR). *Derlär: falän falängʻa äshiq bolubtur* (Navoiy, MQ). *Faläniyiniñ falän pardası muña ähängdur* (BN). *Kel falän kechä falän kocha sarı* (SHN). *Falän vaqtda falän mälinizgʻa mundaq hiyänat qıldı va falän sirinjizni xalqgʻa fash qıldı* (Sh.tar.).

**111-§.** Yozuv yodgorliklaridan maʼlum boʻlishicha, gumon olmoshlari turkiy tillar taraqqiyotining nisbatan keyingi davrlarida yuzaga kelgan. Masalan, Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida ham, qadimgi turkiy tiliga oid manbalarda ham gumon olmoshi qoʻllanmagan. XI asr yodgorligi “Qutadgʻu bilig”da gumon olmoshining

*birägü* shakli uchraydi. Boshqa shakllarning yozuv yodgorliklarida qoʻllanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi.

### Boʻlishsizlik olmoshlari

**112-§.** Eski oʻzbek tilida ham boʻlishsizlik olmoshlari tuzilishiga koʻra sodda va murakkab shakllardan iborat. Sodda shaklini *hech* soʻzi tashkil etadi. Murakkab shakllari *hech* soʻziga soʻroq olmoshlaridan yo gumon olmoshlaridan birining yoki *narsa* soʻzining birikishi asosida hosil boʻladi: *hech kim, hech kimsä, hech kimärsä, hech nimärsä, hech narsa, hech qaysi* kabi.

Boʻlishsizlik olmoshining murakkab shakllaridan bir guruhi shaxsga nisbatan, boshqa guruhi narsa, voqea-hodisalarga nisbatan qoʻllanadi. Boʻlishsizlik olmoshining murakkab shakllari kelishik qoʻshimchalari bilan ham ishlatiladi.

**113-§.** *Hech* boʻlishsizlik olmoshi shaxsga nisbatan ham, narsa va voqea-hodisalarga nisbatan ham qoʻllanadi.

Bu olmosh shaxsning, narsa yoki voqea-hodisaning mutlaq inkorini bildiradi: *Ottuz qizim bar, hech ogʻlum yoq* (QR). *Bu banda bilä alarnıñ arasında hech judälıgʻ yoq turur* (Navoiy, Msh). *Haväsınıñ hech nisbati yoqtur* (BN). *Hech munäsıb kishi täpmaduq* (Sh.turk). *Husn iqlimidä hech misälın täpılmas* (Muqimiy).

**114-§.** Boʻlishsizlik olmoshining *hech kim, hech kimsä, hech kimersä* shakllari maʼno jihatdan bir xil boʻlib, shaxsga nisbatan qoʻllanadi.

Boʻlishsizlik olmoshining *hech kim* shakli eski oʻzbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida isteʼmolda boʻlgan: *Siziñ qudratıñız andagʻ, hech kim yıgʻmagʻay* (Tafsir). *Hech kimgä fayda va asar anıñ sözi qılmagʻay* (Navoiy, MQ). *Hech kim bilmäs alarnıñ ishini* (SHN). *Hech kimdin kömek va madadi yetishmädi* (BN).

*Hech kimsä* shakli kam qoʻllangan boʻlib, ayrim manbalardagina uchraydi: *Hech kimsägä dunyäda anıñ azäbi kebi azab yetmägäy* (Tafsir). *Tüshmäsun gul mavsumı hech kimsä jänändın* (Lutfiy). *Dunyada qılmay durur hech kimsä mendin көp gunäh* (Atoiy).

*Hech kimersä* asosan XIII—XIV asrlarda qoʻllangan boʻlib,

keyingi davrlarda ba'zi asarlarda uchraydi: *Hech kimärsä ul mushk ichindä suvni körmäsä, ...* (NF). *Hech kimersäniñ seniñ birlä ishi yoq turur* (Tafsir). *Hech kimersä kelmägäy ul nāmusulmān yüzigä* (Lutfiy). *Ang'a hech kimersä qol yapmasunlar* (Sh.tar.).

**115-§.** Bo'lishsizlik olmoshining *hech nimä, hech narsa, hech nimärsä* shakllari ma'no jihatdan bir xil bo'lib, narsa va voqea-hodisalarga nisbatan qo'llanadi.

Bu shakllar ayrim asarlardagina qayd qilindi: *Hech nimägä ixtiyārim yoq turur* (Navoiy, MQ). *Yoq turur hech nimä aldida band* (SHN). *Hech narsanı mushrik qılmasunlar* (Tafsir). *Hech narsa özümge baqi qalib-mu turur?* (NF). *Ul kishidin hech nimärsä almag'aylar* (Sh.turk). *Men sendin hech nimärsä alğanım yoq* (Furqat).

**116-§.** Bo'lishsizlik olmoshining *hech qaysı* shakli shaxsga nisbatan ham, narsa va voqea-hodisalarga nisbatan ham qo'llanadi.

Bu shakl XV asrdan keyingi davrlarga oid manbalarda qo'llangan: *Hech ishkä va hech qaysı sözgä qarär qıla almaydurlar* (BN). *Har falakat ki bolur dunyāda // hech qaysıdın emän azada* (SHN). *Og'lanlarıñızniñ hech qaysısı sizgä inanmas* (Sh.turk). *Pādshāh hech qaysıg'a rag'bat qılmas edi* (Gulxaniy).

**117-§.** Turkiy tillarda bo'lishsizlik olmoshlari nisbatan keyingi davrlardan qo'llana boshlagan. Chunki *hech* so'zi eron tillariga mansub bo'lib, uning o'zlashtirilishi turkiy tillar taraqqiyotining ma'lum davrlariga to'g'ri keladi. Masalan, *hech* so'zining qo'llanishi dastlab XI asr yodgorligi "Qutadg'u bilig"da uchraydi. Lekin bu so'z bo'lishsizlik olmoshi sifatida yozma manbalarda XIII—XIV asrlardan keng qo'llana boshlagan. *Hech* so'zi ishtirokida hosil bo'lgan murakkab turdagi bo'lishsizlik olmoshlarining yozma manbalarda qo'llanishi shu davrdan boshlab kuzatiladi.



## I. Tekshirish uchun savollar

1. Qadimgi tilda son kategoriyasini ifodalash usullari.
2. Qadimgi va keyingi davrlar adabiy tillarida son va olmosh shakllari va ularning ma'nolari.
3. Son va olmoshlarning tarkibi.
4. Sonning turlari va ifodalash usullari.
5. Olmoshning turlari va ifodalash usullari.
6. Sonni numerativ yo'l bilan ifodalash.
7. Davrlar bo'yicha son va olmoshlarning imlosi.
8. Kishilik, ko'rsatish, so'roq, gumon olmoshlarining qadimgi turk, eski o'zbek, hozirgi o'zbek adabiy tillaridagi shakllari.

## II. Tayanch tushunchalar

Son va olmosh kategoriyasi tushunchasi. Son va olmoshlarning shakli va vazifasining o'zgarishi. Son tarkibi. Noaniq, tartib, jamlovchi, dona sonlari. Numerativ so'zlar, kasr sonlar.

Kishilik, ko'rsatish, o'zlik, so'roq, birgalik, belgilash, gumon, bo'lishsizlik olmoshlari.

### Lug'at

Quyidagi so'zlarning ma'nosini aniqlang:

andoza	—	qiz	—
avur	—	ordu	—
avlāq	—	ravān	—
bitig	—	taban	—
darug'a	—	tarahhum	—
dang	—	tākma	—
fasāha	—	tuman	—
fāsiq	—	tilim	—
hamul	—	turunj	—
kendu	—	yalavach	—
konu	—	Yarag'	—
mashvarat	—	yarliq	—
mubāpaz	—	yaru	—
munāzara	—	cherik	—
naranj	—	chevruldi	—

## FE'L

**118-§.** Eski o'zbek tilida ham fe'ning o'ziga xos belgilarini quyidagi grammatik kategoriyalar tashkil etadi: fe'l aspektlari, fe'l darajalari, fe'ning funksional shakllari (harakat nomlari, sifat-dosh, ravishdosh), fe'llarda tuslanish (mayl, zamon, shaxs-son shakllari).

### Fe'l aspektlari

**119-§.** Eski o'zbek tilida ham fe'l turkumidagi so'zlar quyidagi to'rt aspekt-dan birida qo'llangan: bo'lishli va bo'lishsizlik, mumkinlik (imkon) va nomumkinlik.

Fe'llarda bo'lishli va bo'lishsizlik aspektlarining ifodalanishi bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q. Ya'ni, eski o'zbek tilida ham fe'ning bo'lishli shakli uchun hech qanday qo'shimcha orttirilmaydi: *bar-*, *keltür-*, *kørsät-* kabi. Bo'lishsizlik aspekti *-ma/-mä* affiksi bilan hosil bo'ladi: *barma-*, *keltürmä-*, *kørsätmä-* kabi. Shu bilan birga, ayrim fe'l shakllarining bo'lishsizlik aspekti *ermäs (emäs)* yoki *yoq* so'zi yordamida ham ifodalanadi. Qiyoslang: *barmag'an // bar-g'an ermäs // barg'ani yoq, barmamish // barmish ermäs // barmishi yoq* (qarang: 175, 176-§§).

Fe'ning mumkinlik aspekti murakkab shakl yo'l bilan, ya'ni asosiy fe'ning *-a/-e (y)* affiksli ravishdosh shakliga *al-* fe'li qo'shilishi orqali ifodalanadi: *bara al-*, *körä al*, *bashlay al-*, *ishläy al-* kabi. XIII—XIV asrlar tilida bu vazifada *bil-* fe'li ishtirokida hosil bo'luvchi murakkab shakl ham qo'llangan bo'lib, bunda asosiy fe'l ko'pincha *-u/-ü (yu/yü)* affiksli ravishdosh shaklida keladi: *ala bil-// alu bil-*, *körä bil-//körü bil-*, *bashlayu bil-*, *ishläyü bil-* kabi. Qiyoslang: *Menim didärimni körä alg'ay-mu-sen?* (QR). *Biz ul hasanätqa netäk mukafat qilu bilälim?* (NF). *Kishi öz sözini kezläyü bilgäy//yamanni ezgüdin kezläyü bilgäy* (XSH). *Dag'i ne yamanlıq kim qıla bilür bolsañ, ...* (Saroyi).

Fe'ning nomumkinlik aspekti uchun ham *al-* va *bil-* fe'llari ishtirokida hosil bo'luvchi murakkab shakllar qo'llangan bo'lib, bularning tuzilishi quyidagicha:

1. Asosiy fe'l *-a/-ä(y)* affiksli ravishdosh shaklida, *al-* fe'li bo'lishsiz shaklda (*alma-*) keladi: *Korä almag'an kozinä xär bolsun* (XSH). *Seniñ yayıñni hech kim tarta älmäs* (Lutfiy). *Käbuldın küch kelädürgän jihatıdın sultäng'a qoshula almaydurlar* (BN). *Ayta almam sanamım bedädıñ* (Munis).

Bu shaklda ba'zan ravishdosh ko'rsatkichi *-a/-ä* bilan *al-* fe'li tarkibidagi unli birikib, bir unliga aylanadi: *bara alma->baralma-*kabi. Bunday qo'llanish XV asrdan keyingi davrlarga oid ayrim yodgorliklarda uchraydi: *Xojalar dag'ı turalmadılar* (SHN). *Tiz bükib, ta'zim etib izzat qılalmay dag'men* (Muqimiy).

2. Asosiy fe'l *-a/-ä (y)* affiksli ravishdosh shaklida, *bil-* fe'li bo'lishsiz shaklda (*bilme-*) keladi: *Anı yeñä bilmäz erdilär* (Tafsir). *Sag'ında tura bilmäs-men* (QR). *Tuta bilmän özümni* (XSH). *Yüzüni көrsä Sakkakiy, közi yashın tiyä bilmäs* (Sakkokiy). *Andın soñ yüriy bilmäy oshul yerde yattuq* (Sh.tar.).

3. Asosiy fe'l *-u/-ü (yu/ yü)* affiksli ravishdosh shaklida, *bil-* fe'li bo'lishsiz shaklda (*bilmä-*) keladi. Bu shakl XIII—XIV asrlar tiliga xos bo'lgan: *Sen meni ältürü bilmäz-sen* (Tafsir). *Anja qarshu turu bilmädi* (QR). *Anlar kirü bilmädilär* (NF). *Özini көrmäyin ham qaytu bilmän* (XSH).

Turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida nomumkinlik aspekti *-u/-ü (yu/ yü)* affiksli fe'lga bo'lishsizlik *-ma/-mä* affiksini qo'shish yo'li bilan ham ifodalangan: *barumadi* (bora olmadi), *bilümädi* (bila olmadi), *sozläyümädi* (so'zlay olmadi) kabi. Bu shakl qadimgi turkiy (uyg'ur) tili yodgorliklari va "Qutadg'u bilig" tiliga xos bo'lgan.

Nomumkinlik aspektining bunday ifodalanishi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham uchraydi: *Sen benim birlä turumag'ay-sen, ...* (Tafsir). *Qalmış, qorqub sozläyümäz* (QR). *Bizgä sehr qılıb turur, көrümäz-biz* (NF).

Misollardagi *turumag'ay-sen, sozläyümäz, көrümäz-biz* fe'llari

hozirgi tilimizdagi “tura olmaysan”, “so‘zlay olmas” (so‘zlayolmayapti), “ko‘ra olmaymiz” ma‘nosida qo‘llangan.

### **Fe’ning funksional shakllari**

**120-§.** Fe’ning asosiy grammatik vazifasi kesim bo‘lib kelishdir. Shu bilan birga, fe’ning ayrim shakllari kelishik, egalik affikslarini ham qabul qilib, gapda ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi yoki hol vazifasida keladi. Shunga ko‘ra, bunday shakllar fe’ning funksional shakllari hisoblanadi. Harakat nomlari, sifatdosh va ravishdosh shakllari fe’ning funksional shakllarini tashkil etadi.

Fe’ning funksional shakllarida, bir tomondan, fe’lga xos belgilar mavjud bo‘lsa, ikkinchi tomondan, morfologik xususiyatlari va sintaktik vazifalari bo‘yicha bu shakllar boshqa so‘z turkumlariga yaqin turadi. Bu jihatdan harakat nomlari otga, sifatdosh shakllari sifatga, ravishdosh shakllari ravishga yaqin turadi.

Harakat ma‘nosining mavjudligi, bo‘lishsiz shaklining *-ma/-mä* affiksi bilan hosil bo‘lishi, fe’l darajalari ko‘rsatkichlarining mavjudligi, zamon shakllarini hosil qilishda ishtirok etishi va shu kabilar fe’ning funksional shakllaridagi fe’llik belgilarini tashkil etadi. Kelishik, egalik affikslarini qabul qilishi va gapda ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi yoki hol vazifasida ham kela olishi bu shakllarning boshqa so‘z turkumlariga grammatik va funksional yaqinligini ko‘rsatadi.

### **Harakat nomi shakllari**

**121-§.** Eski o‘zbek tilida harakat nomining *-maq/-mäk* va *-sh* (*-ish/-ish*, *-ush/-üsh*) affikslari bilan hosil bo‘luvchi shakllari qo‘llangan.

*-maq/-mäk* affiksli shakl harakat nomining asosiy ko‘rsatkichi sifatida eski o‘zbek tilida keng iste’molda bo‘lgan.

Egalik affiksi qo‘shilganda, *-maq/-mäk* affiksi oxiridagi jarangsiz [q], [k] undoshlari ikki unli o‘rtasida jaranglilashib, [gʻ], [g] undoshlariga o‘tadi: *barmag‘ım* (< *barmaq+ım*), *kelmägim* (< *kelmä+ım*) kabi. Bu hol XV asr va undan keyingi davrlar tiliga

xos bo'lib, oldingi davrlarga oid yodgorliklarda egalik affiksi qo'shilganda ham *-maq/-māk* affiksi oxiridagi undosh ko'pincha jarangsiz holda saqlangan: *barmaqim, kelmākim* kabi.

Jo'nalish kelishigining *-a/-ä* affiksi qo'shilganda ham *-maq/-māk* affiksi oxiridagi jarangsiz [g'], [g] undoshlari ikki unli o'rtasida jaranglashib, [g'], [g] undoshlariga o'tadi: *barmag'a* (<*barmaq+a*), *kelmüga* (<*kelmāk+ä*) kabi.

*-maq/-māk* affiksli harakat nomining bo'lishsizlik ma'nosi quyidagi ikki yo'l bilan ifodalanadi:

a) fe'lning *-ma/-mä* affiksli bo'lishsiz shakliga *-maq/-māk* qo'shilishi bilan yasaluvchi *barmamaq* (*bar+ma+maq*) turidagi shakl orqali;

b) sifatdoshning *-mas/-mäs* affiksli bo'lishsiz shakliga *-liq/-lik* qo'shilishi bilan yasaluvchi *barmasliq* (*bar+mas+liq*) turidagi shakl orqali ifodalanadi.

*-maq/-māk* affiksli harakat nomining bo'lishsizlik ma'nosini ifodalash uchun eski o'zbek tilida asosan *barmasliq* turidagi shakl qo'llangan. *Barmamaq* turidagi shakl esa ba'zi manbalarda, asosan, Navoiy asarlarida uchraydi: *Bolmamaq mumkin emäs yär vasliq'a xaris* (Navoiy, G'S). *Andaq täatni hayälg'a kechürmämäkdür* (Navoiy, MQ).

Harakat nomining *-maq/-māk* affiksli shakli turkiy tillarda qadimdan qo'llanib keladi: O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy (uyg'ur) tili yodgorliklarida ham qo'llangan, keyingi davrlarga oid yodgorliklarda uning qo'llanishi yana ham faollasha borgan. Hozirgi o'zbek tilida esa bu shakl asosan infinitiv vazifasini bajarib, uning harakat nomi vazifasida qo'llanishi kam uchraydi.

*-maq/-māk* affiksli harakat nomi otlarga xos grammatik xususiyatlarga ega, ya'ni otlar kabi egalik va ko'plik qo'shimchalarini qabul qiladi, kelishiklar bilan turlanadi, ko'makchilar va turli modal so'zlar bilan qo'llanib, har xil grammatik ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi:

1. *-maq/-māk* affiksli harakat nomi egalik shaklida qo'llan-ganda, fe'l o'zagidan anglashilgan ish-harakatning qaysi shaxsga qarashli ekanligi ko'rsatiladi: *Qan yig'lamag'ım jigarnı küydürür*

(Lutfiy). *Aña tāsh urmag'ıy ne?* (Atoiy). *Yusufnuıy og'ramaqı qachmaqqa erdi* (QR). *Jāng'a küymägi xabar qılg'ay* (Navoiy, SS). *Aytmag'ımız hajāt ermäs* (Sh.tar.).

2. *-maq/-māk* affiksli harakat nomiga qo'shilgan *-lar/-lär* ko'plik affiksi odatdagi ko'plik ma'nosini emas, balki fe'l o'zagidan anglashilgan ish-harakatning subyekt bilan moslashuvi uchun xizmat qiladi. *-maq/-māk* affiksli harakat nomining bunday qo'llanishi XV asrdan oldingi davrlarga oid ayrim yodgorliklarda uchraydi: *Fir'avn tabaru barmaqlarını bezärlämädi* (Tafsir). *Yusufnu elturmäkläri ikkidin hali ermäs* (QR). *Netäk kim yig'lamaqlarını eshittim, ...* (NF).

3. *-maq/-māk* affiksli harakat nomiga kelishik affikslari qo'shilganda, har bir kelishikning xarakteriga muvofiq ravishda turli grammatik ma'nolar ifodalanadi. Masalan: *Qorg'an yasamaqniıy maslahatını tapmay, ...* (BN). *Barmaqni ixtiyār qılmadım* (Furqat). *İlm oğrānmäkkä keldim* (QR). *Men jānumg'a yettim javr chekmäktin* (Atoiy). *Tanımaqta magar yañlıshmiş-sen* (Navoiy, SS).

O'rin-payt kelishigi shaklidagi *-maq/-māk* affiksli harakat nomi asosida *oqımaqda-men* turidagi hozirgi zamon fe'li hosil bo'ladi (qarang: 190-§).

4. *-maq/-māk* affiksli harakat nomi ko'makchilar bilan qo'llanganda, har bir ko'makchining xarakteriga muvofiq ravishda turli grammatik ma'nolar ifodalanadi. Qiyoslang: *Sevür-men közni sizni kormäk üçhün* (MN). *Köp demäk birlä bolmag'ıl nādän* (Navoiy, MQ). *Bāda ichmäk sarı bolmas mäyil* (SHN). *Anıy barmaqđın oğgä ne ishi bolg'ay* (TN).

5. *-maq/-māk* affiksli harakat nomi *keräk, zarur, lāzim, mumkin* so'zlari bilan qo'llanganda, ish-harakatning bajarilishidagi zaruriyat, imkoniyat kabi ma'nolar ifodalanadi: *Yana ul yān ketmäk keräk* (Navoiy, MQ). *Xätirda yoq erdi kim, közdin, Muqimiy, ketsäy // Zavqiy seni tiläbdür, bermäk zarur fānis* (Muqimiy). *Bu jihatđın bu tag'eli bilä yaxshı maāsh qılmaq väjib va lāzim edi* (BN). *Anı bilmäk erür bir күndä mumkin* (Furqat).

Bosh kelishikdagi *-maq/-māk* affiksli harakat nomi ega yoki kesim vazifasida keladi.

Egasi *-maq/-māk* affiksli harakat nomi bilan ifodalangan gaplarning kesimi asosan ot yoki ot turkumidagi soʻzlardan boʻladi: *Menā almaq netāk ravā bolmas?* (QR). *Pıchaq urmaq anıy ishi bolgʻay* (Navoiy, MQ). *Andın soñ aslā suv bermāk ehtiyāj emās* (BN). *Barchagʻa qaytmaq oxshash boldı* (SHN).

*-maq/-māk* affiksli harakat nomi bilan ifodalangan kesim ot kesim xarakterida boʻlib, feʼl oʻzagidan anglashilgan ish-harakatning nomini atab koʻrsatadi, grammatik zamon maʼnosiga ega boʻlmaydi, shaxs-son koʻrsatkichlarini ham qabul qilmaydi: *Ottuz-qırq mavziniñ ishi fil tutmaqdur* (BN). *Tün-u kün ehtiyāt qılmaq ishi* (Navoiy, SS). *Kishi öltürmək edi anıy ishi* (SHN). *Umaqıñ maʼnisi uruq temāk bolur* (Sh.tar.).

122-§. Harakat nomining *-maq/-māk* affiksiga ot yasovchi *-lıq/-lik* va *-chı/-chi* affikslari qoʻshilishi bilan *-maqlıq/-meklik*, *-maqchı/-mekchi* tarzidagi qoʻshma affikslar hosil boʻladi.

*-maqlıq/-māklik* affiksli shakl maʼno va vazifasi jihatidan *-maq/-māk* affiksli harakat nomidan farq qilmaydi. Lekin *-maqlıq/-māklik* affiksli shaklda feʼllik xususiyati ancha kuchsiz boʻlib, ot turkumiga yaqin turadi. *-maqlıq/-māklik* affiksli shakl ham *-maq/-māk* affiksli harakat nomiga xos grammatik belgilarga ega. Qiyoslang: *Anı bir nishan kishilärgä yarlıqamaqlıq bizdin erür* (Tafsir). *Kohi gʻam qazmaqlıgʻım birlä tola boldı yana* (Munis). *Emdi barchasını bir yerdä ayتماqlıqını munasib körüb, ...* (Sh.turk). *Meni ichmäklikkä targʻib qıladurlar* (TN). *Yaqın bil kim, yemäklıkdin ma kechti* (XSH). *Bilig berdi anı bilmäklık üçhün* (XSH).

*-maqchı/-mākchi* affiksli shakl eski oʻzbek tili taraqqiyotining keyingi davrlariga oid ayrim manbalarda uchraydi: *Uyga avqati üçhün un-mun alıb barmaqchı-men* (Muqimiy).

Maʼlumki, hozirgi oʻzbek tilida *-maqchı/-mākchi* affiksli shaklning qoʻllanishi faollashgan boʻlib, vazifasi ham kengaygan: shaxs-son affikslari bilan tuslanadi (*bormoqchiman*, *bormoqchisan* kabi), bu shaklga *emoq* yoki *boʻlmoq* feʼli qoʻshilib, feʼlning

murakkab shakllari hosil bo'ladi va bu shakllar har xil ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi (*bormoqchi edi, bormoqchi emish, bormoqchi ekan, bormoqchi bo'ldi* kabi).

**123-§.** Harakat nomining *-sh* (undoshdan keyin: *-ish/-ish, -ush/-üşh*) affiksli shakli eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, ayrim yodgorliklarda uchraydi.

Bu shakl grammatik xususiyatlari va sintaktik vazifasi jihatdan *-maq/-māk* affiksli harakat nomiga o'xshaydi. Lekin *-sh* affiksli harakat nomida otlik xususiyati kuchliroq. Qiyoslang: *Agar kək üzrə xud bolsa turushum // malik hukmında bolg'ay olturushum* (XSH). *Ətərdə yey salıshı elni mubtalə qıladur* (Lutfiy). *Chun alarnıy kelishini kordüm* (SHN). *Bularnıy ālıshı-yu ularnıy berishi bu muqarrardın artuq va əksük ermäs* (BN). *Qalmadı hech chapıshıdın armän* (SHN). *Ātları lāg'ar-u qaqtı-yu xarabı-yu xarish // rahm qılmay minädür, ikki qadam javr minish* (Muqimiy).

O'zbek tilida *-sh* affiksli harakat nomlarining iste'mol doirasi XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan faollasha borgan bo'lib, hozirgi o'zbek adabiy tilida harakat nomining asosiy ko'rsatkichi sifatida keng qo'llanadi.

### **Sifatdosh shakllari**

**124-§.** Sifatdosh shakllarida harakat ma'nosi bilan birga grammatik zamon ma'nosi ham mavjud bo'lib, bu hol sifatdosh shakllarining harakat nomi shakllaridan farqlovchi asosiy belgisini tashkil etadi. Eski o'zbek tilida qo'llangan sifatdosh shakllarini zamon nuqtayi nazaridan quyidagi ikki asosiy guruhga ajratish mumkin:

1) o'tgan zamon ma'nosidagi sifatdosh shakllari. Bu ma'noda *-mısh/-mısh, -duq/-dük // -tuq -tük, -g'an/-gän // -qan/-kän, -an/-än* affiksli shakllar qo'llangan; 2) hozirgi va kelasi zamon ma'nosidagi sifatdosh shakllari. Bu guruhni *-r (-ar /-är // -ur /-r), -g'u /-gü // -qu /-kü, -g'uchi /-güchi // -quchi /-küchi, -dachi /-dächi // -tachi /-tächi, -g'lı /-gli, -adurg'an /-ädurgän (yidurg'an / yidurgän), -ası /-äsi, -g'ur /-gür* affiksli shakllar tashkil etdi.



Bu shakllardan bir guruhi eski o'zbek tilida kam qo'llangan yoki ma'lum davrlardagina iste'molda bo'lgan, ayrimlarining esa vazifasi chegaralangan.

### *O'tgan zamon ma'nosidagi sifatdosh shakllari*

**125-§. -mish/-mish** affiksli sifatdosh shakli turkiy tillarda qadimdan qo'llanib keladi. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida bu sifatdosh har xil grammatik ma'nolarda qo'llangan, vazifasi ham keng bo'lgan.

*-mish/-mish* affiksli sifatdoshning qadimgi grammatik ma'no va vazifalari XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham aks etgan, ya'ni:

1. Aniqlovchi vazifasida qo'llanib, shaxsning yoki predmetning harakati yoki holati bilan bog'liq bo'lgan belgisini ko'rsatadi: *Kalmish yollarıya yandılar* (Tafsir). *Yig'mish mälüm yatqa yem bolsun* (QR). *Og'urlanmish gävhar gan-ji buzuldı* (XSH). *Achiq-mish bəri qoyg'a kirü yarlıg'* (MN).

2. Egalik va ko'plik shaklida qo'llanadi: *Boldı zäyä körmishim ranj* (XSH). *Agar bu aymışın söz rāst ersä, ...* (Tafsir). *Bu kelmishläri üçhün qurla erdi* (QR).

3. Kelishiklar bilan turlanadi: *Azaqdın tushmişıñın tut qolını* (XSH). *Barcha ashını yeb toydılar, qalmışını qozdılar* (Tafsir). *Va'da qılmışıñqa vafa qıl* (NF). *Sham'un bulardın qachmışıda suvsamış erdi* (QR). *Eshitkil bu g'azalda ishläridin // Muhammad Xoja beg aymışlarındın* (MN).

4. Ko'makchilar bilan qo'llanadi: *Ul tayaqdın öküş ajäyiblar körmish üçhün aydı* (Tafsir). *Menim atım aymışdın soñ senıñ atıñnı ayg'aylar* (NF). *Rozgār kechmişdä kezın yana bir kün...* (QR). *SHirinni körmishindin berü Farhad...* (XSH).

O'zbek tilida XV asrdan boshlab *-mish/-mish* affiksli sifatdoshning iste'mol doirasi ancha chegaralangan bo'lib, asosan o'tgan zamon fe'li sifatida qo'llangan (qarang: 175-§). *-mish/-mish* affiksli sifatdoshning keng qo'llanishi o'g'uz guruhidagi turkiy tillarda

davom etgan bo‘lib, bu tillarda uning qadimgi grammatik ma’no va vazifalari hozir ham saqlangan.

**126-§.** *-duk/-dük// -tuk/-tük* affiksli sifatdosh qo‘llanilishi, ma’no va vazifalari jihatdan *-mish/-mish* affiksli sifatdoshga o‘xshaydi.

*-duk/-dük// -tuk/-tük* affiksli sifatdosh O‘rxun-Enasoy va qadimgi turkiy (uyg‘ur) tili yodgorliklari hamda “Qutadg‘u bilig” va “Devonu lug‘atit-turk” asarlarida keng qo‘llangan bo‘lib, ma’no va vazifalari ham ancha keng bo‘lgan. Bu sifatdosh XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham ma’lum darajada qo‘llangan bo‘lib, qadimgi turkiy yodgorliklardagi ma’no va vazifalari ham saqlangan. Masalan:

1. Aniqlovchi vazifasida kelib, shaxsning yoki predmetning harakati yoki holati bilan bog‘liq bo‘lgan belgisini ko‘rsatadi: *Makka achilduq kün boldı* (Tafsir). *Bardım, kormädük yerlär kordüm* (QR). *Taqı ul mo‘ming‘a sanmaduq yoldın rozını tegürgü* (NF). *Bashımdın ketmädi hargiz seniñlän ichtüküm bāda* (Saroyi).

2. Egalik shaklida qo‘llanadi: *Yusufg‘a yig‘laduqum közümnı aqardı* (QR). *Siziñ ne kim tedükiñiz g‘alat turur* (Tafsir). *Sevdüküm ben ādamiylar jānidur* (Saroyi).

3. Kelishiklar bilan turlanadi: *Axista aytuqımıznı ham eshitür* (Tafsir). *Ne bitürgän xabarlıg‘ berdükındin // ne yig‘an jahd etib māl terdükındin* (XSH). *Og‘uz qag‘an anı kordüktä özi ketti* (O‘N).

4. Ko‘makchilar bilan qo‘llanadi: *Ant berdükünj üçhün turdum* (Tafsir). *Kesildi hijrat Makka achilduqđın soñ* (Tafsir). *Bularg‘a keldüki kebi* (Tafsir).

*-duq/-dük// -tuq/-tük* affiksli sifatdoshning qo‘llanishi keyingi davrlarda o‘g‘uz guruhidagi turkiy tillarda davom etgan bo‘lib, bu tillarda hozir ham turli ma’no va vazifalarda faol qo‘llanadi. O‘zbek va boshqa ko‘pchilik turkiy tillarda XV asrdan boshlab bu sifatdosh deyarli qo‘llanmagan.

**127-§.** *-g‘an/-gän// -qan/-kän* affiksli sifatdosh O‘rxun-Enasoy yodnomalarida uchramaydi, qadimgi turkiy tili yodgorliklarida

esa bu affiks *er-* fe'ligagina qo'shilgan (*er+kän*).

*-g'an/-gän// -qan/-kän* affiksli sifatdoshning yozma manbalarda aks etishi XI asrdan boshlab kuzatiladi. Masalan, shu davr yodgorliklari "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'atit-turk" asarlarida ancha keng iste'molda bo'lgan. Lekin bu davrda ushbu sifatdoshning vazifasi chegarali bo'lib, asosan, aniqlovchi vazifasida qo'llangan. Shu bilan birga, Mahmud Koshg'ariyning ko'rsatishicha, XI asr tilida bu sifatdosh asosan shaxs yoki predmetning doimiy belgisini ko'rsatuvchi "umumzamon" ma'nosida qo'llangan. Masalan: *Külgän er* (MK) — "doim kuladigan odam". *Ozg'an at* (MK) — "tez chopadigan, o'zadigan ot". *Bu är ol söz unitg'an* (MK) — "bu odam doim so'zini unutadigan". *Ol evin bätzäkän ol* (MK) — "u doim uyini bezatadigan".

Keyingi davrlarda qipchoq va qarluq guruhidagi turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida bu shakl o'tgan zamon sifatdoshi sifatida shakllanib, qo'llanishi yana ham faollashgan, ma'no va vazifalari ham kengaygan. Ma'lumki, hozir ushbu tillarda bu shakl o'tgan zamon sifatdoshining asosiy ko'rsatkichi sifatida keng qo'llanadi. O'zbek tilida bu sifatdoshning qo'llanishi faollashgach, o'tgan zamon sifatdoshining boshqa shakllari iste'moldan chiqqan yoki vazifasi chegaralangan. Ya'ni, o'zbek tilida, yuqorida aytilganidek, XV asrdan boshlab o'tgan zamon sifatdoshining *-duq/-dük// -tuq/-tük* affiksli shakli deyarli qo'llanmagan, *-mish/-mish* affiksli shaklning esa vazifasi chegaralangan.

*-g'an/-gän// -qan/-kän* affiksli sifatdoshning qo'llanishi, ma'no va vazifalari quyidagicha:

1. Shaxsning yoki narsaning harakati yoki holati bilan bog'liq bo'lgan belgisini ko'rsatib, aniqlovchi yoki ega vazifasida keladi: *Qatnq aqq'an suv köprüklär yıqar* (XSH). *Vafā qilg'an kishilärgä vafā qıl* (MN). *Olturg'an yeri yaman erdi* (Sh.tar.). *Ashuqqan köp tayılur, köp tayılg'an köp yıqılur* (Navoiy, MQ). *Söz erür she'rgä ravnaq bergän* (SHN).

2. Egalik, ko'plik shaklida qo'llanadi: *La'lig'a jän bergänim g'am tag'ında ne fayda* (Atoiy). *Mubalag'a qilg'anıñ ne yergä yetkây* (Navoiy, MQ). *Vay kim, ahbablar, barg'anımız behudadur* (Furqat).

*Bu sizni keltürganiñiz bizgä yaramas (QR). Bizdin burun türkiy tärix aytqanlar arabiy lug'atlarnı qoshub tururlar (Sh.tar.).*

3. Kelishiklar bilan turlanadi: *Yalg'an sözlägäniñ jəzası bu turur (QR). Tüshtä körgäniñ Og'uz qag'ang'a bildürdi (O'N). Ātayı hähdin sorg'ang'a aytıñ (Atoiy). Qorqqanıñdin rastını aytdı (Sh.tar.). Kelgänindä dilrabā, nāgāh aqsham ketmäg'ıl (Muqimiy).*

4. Ko'makchilar bilan qo'llanadi: *Suv tartqan üçhün ijrāsın beräyin (QR). Bu sözni eshitkändin soñ elgä kishilär yıbardı (Sh.tar.). Tartıq tartqandıñ soñra buyurdum (BN). Gavhar balchıqqa tushkän bilä qımmatı ushalmas va öz bahasıñdin qalmas (Navoiy, MQ). Mastlar üçhkän käbi ul yerdä xushıñdin ketär (Muqimiy).*

**128-§.** O'tgan zamon sifatdoshini yasovchi *-an/-än* affiksi *-g'an/-gän // -qan /-kän* affiksining fonetik o'zgarigan ko'rinishini tashkil etadi.

*-an/-en* affiksli sifatdosh eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, ayrim yodgorliklardagina uchraydi, vazifasi ham chegaralangan. XV asrdan keyingi davrlarda ayrim she'riy asarlarda uchraydi. Masalan: *özgä yerä baran yag'mur anda q suv bolur (Tafsir). Shahinshāh Jani bek xāng'a yetän siz (XSH). Sensiz kechirän umrdın, ey dost, ne hasil (Lutfiy). Āre, Yusufnı sevānlär band-u zindān ārzular (Atoiy). Bemārlıknı köp kərän āxir bolur tabib (Munis). Sayr edändä bir kuni raftārıñ olmışdı qul (Furqat).*

*-an/-än* affiksli sifatdosh tarixan o'g'uz guruhidagi turkiy tillarga xos bo'lib, bu tillarda hozir ham faol qo'llanadi. Bu sifatdoshning o'g'uzlar tiliga xos ekanligi haqida Mahmud Koshg'ariy ham ma'lumot bergan (MK, I tom, 69-bet).

### ***Hozirgi va kelasi zamon ma'nosidagi sifatdosh shakllari***

**129-§.** *-r* (undoshdan keyin: *-ar/-är // -ur -ür*) affiksli shakl turkiy tillarda qadimdan qo'llanib kelayotgan hozirgi-kelasi zamon sifatdoshini tashkil etadi. XV asrdan oldingi davrlarga oid yodgorliklarda unli bilan tugagan fe'llarga bu affiks *yur/yür* shaklida ham qo'shilgan, ya'ni, *bashlar (bashla+r), sözlär (sözlä+r)* fe'lla-

ri *bashlayür* (*bashla+yür*), *sözläyür* (*sözlü+yür*) shaklida ham qoʻllangan. Undosh bilan tugagan ayrim feʼllarga baʼzan *-ır/-ir* shaklida ham qoʻshilgan, yaʼni *qalur* (*qal+ur*), *bilür* (*bil+ür*) shakli oʻrnida *qalır* (*qal+ır*), *bilir* (*bil+ir*) shakli ham qoʻllangan.

*-r* affiksli sifatdoshning boʻlishsiz shakli *-maz /-müz // -mas /-mäs* affiksi bilan hosil boʻladi: *barmaz // barmas, kelmüz // kelmäs* kabi. Yozuv yodgorliklaridan maʼlum boʻlishicha, turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida bu affiksning jarangli [z] undoshi bilan keluvchi *-maz /-müz* shakllari qoʻllangan. Masalan, Oʻrxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida faqat shu shakl isteʼmolda boʻlgan. XI–XIV asrlarga oid koʻpchilik yodgorliklarda *-maz /-müz* va *-mas /-mäs* shakllari yonma-yon qoʻllanavergan. Bu affiksning *-maz /-mez* shaklida qoʻllanishi keyingi davrlarda asosan oʻgʻuz guruhidagi turkiy tillarda davom etgan. Oʻzbek va boshqa koʻpchilik tillarda esa XV asrdan boshlab jarangsiz [s] undoshi bilan keluvchi *-mas /-mäs* shakllari ishlatilgan.

*-maz /-müz // mas /-mäs* ikki mustaqil affiksning birikuvidan tashkil topgan qoʻshma affiksdir: *-ma/-mä* — boʻlishsizlik affiksi; *-z/-s* — hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi koʻrsatkichi *-r* ning fonetik oʻzgargan koʻrinishidir, yaʼni bu affiks qadimda *-mar /-mär* (< *-ma+r / -mä+r*) koʻrinishida qoʻllangan boʻlib, keyinchalik *-maz /-müz*, soʻng *mas /-mäs* shakliga oʻtgan: *-mar /-mär > -maz /-müz > mas /-mäs*.

Bu affiksning *-mar /-mär* koʻrinishi tarixan oʻgʻuz guruhidagi turkiy tillar uchun xos boʻlib, bu tillarda hozir ham qoʻllanadi. Lekin ushbu tillarda ham bu shakl faqat feʼlning tuslanuvchi shakli sifatida qoʻllanib, hozirgi-kelasi zamon feʼlini tashkil etadi: *barmar-men // barmarım // barmarın, barmar-sen / barmarsın, barmar-miz // barmarız // barmaris // barmar-siz // barmarsınız* kabi. Hozirgi-kelasi zamon feʼli affiksining *-mar /-mär* koʻrinishida qoʻllanishi Tojikistonda yashovchi oʻzbek qarluqlari nutqida ham saqlangan.

*-r* affiksli sifatdoshning eski oʻzbek tilida qoʻllanishi, maʼno va vazifalari quyidagicha:

1. Aniqlovchi vazifasida qoʻllanib, shaxsning yoki narsaning harakati yoki holati bilan bogʻliq boʻlgan belgisini koʻrsatadi: *Sendin*

kezlär, yashurur sözümüz yoq (QR). Bilmäs kishilärgä agar ul äri körünür (Lutfiy). Aytur sözni ayt, aytmas sozdin qayt (Navoiy, MQ). Yer-suvni bilür kishilär arzg'a yetkürdilär (BN).

2. Egalik shaklida qo'llanadi: *Jahānda sendin özgä yoq tilärim* (XSH). *Lek mumkin durur dava qilurum // sa'y etib hajatin ravā qilurum* (Navoiy, SS). *Astrabadnıñ shahırg'a bandanın barunıñ hajat bolmag'ay* (Navoiy, Msh).

3. Kelishiklar bilan turlanadi: *Meniñ sahmımdın qacharnıñ arvahu uchar* (Yaqiniy). *Maryam og'ul kötürüb kelürin kördilär* (QR). *Kabulg'a ne yol bilä barurumızni keñashtük* (BN). *Oq atarg'a qararsız chaptı* (Navoiy, SS). *Köñlüm küyärdin señä men pand berür-men* (Atoiy). *Bitigchi bitärdä yañılsa qolı // oqug'lı oqurda oñarur amı* (XSH).

4. Ko'makchilar bilan qo'llanadi: *Olturur üçün qabil yer edi* (BN). *Ichkäy-siz anı tamam suvsız täva ichär käbi* (Tafsir). *Hajr oqın janıma sen atma tan atmasdın burun* (Navoiy, G'S). *Azaqdın tutmazumdın eñ qul alg'ay* (XSH).

**130-§.** *-g'u /-gü // -qu -kü* affiksli shakl ham turkiy tillarda qadimdan qo'llanib kelayotgan sifatdosh shakllaridan biridir. Lekin ushbu shaklning iste'mol doirasi qadimgi davrlardan oq turkiy tillarning ma'lum guruhi bilan chegaralangan. Masalan, bu shakl qadimgi turkiy tili yodgorliklarida ancha faol iste'molda bo'lgani holda O'rxun-Enasoy yodgorliklarida deyarli uchramaydi. O'g'uz guruhidagi turkiy tillarga oid yodgorliklarda ham qayd qilinmagan, bu tillarning ko'pchiligida hozir ham qo'llanmaydi. Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, bu shakl tarixan qarluq guruhidagi turkiy tillarga xos bo'lgan. Bu fikrni Mahmud Koshg'ariyning ma'lumoti ham tasdiqlaydi. Uning ko'rsatishicha, XI asrda *-g'u /-gü // -qu -kü* affiksli shakl chigil, yag'mo, tuxsi, arg'u, uyg'ur va boshqa turklar tilida qo'llangan bo'lib, o'g'uz, qipchoq, bajaranak, bulg'orlar tilida bu shakl o'rnida *-ası/-äsi* affiksli shakl qo'llangan (MK, II tom, 71–73-betlar).

*-g'u /-gü // -qu -kü* affiksli sifatdosh eski o'zbek tilida ham faol iste'molda bo'lgan. Lekin XV asrdan boshlab uning vazifasi

chegaralangan bo‘lib, asosan kelasi zamon fe‘li sifatida qo‘llangan.

*-g‘u /-gü //-qu -kü* affiksli sifatdoshning qo‘llanishi, ma‘no va vazifalari quyidagicha:

1. Aniqlovchi vazifasida qo‘llanib, narsa-buyumning vazifasi bilan bog‘liq bo‘lgan belgisini ko‘rsatadi: *Maryamning qarni achdi, yegü narsa tiledi* (Tafsir). *Hech urushg‘u yarag‘lari qalmadi* (QR). *Kelgü yazuqlarim sen yarliqag‘il* (NF). *Tüzüb yettilär av avlag‘u yergä* (XSH).

2. Egalik, ko‘plik shaklida qo‘llanadi: *Qorqqusi artuq bolsun* (Tafsir). *Ne qilg‘usı bilmäs boldı ersä, ...* (NF). *Yoqalg‘ular qamug‘lari yoqalg‘ay* (XSH).

3. Kelishiklar bilan turlanadi: *Qayda barg‘usını bilmägäylär* (Tafsir). *Yüzün körgügä älam xalqı mushtaq* (XSH). *Qarı bolg‘umdan meniñ kag‘adlug‘um yoq turur* (O‘N). *Jürügüdə, sog‘urg‘uda aña er turur* (O‘N).

O‘rin-payt kelishigidagi *-g‘u/-gü* affiksli sifatdoshga *turur* holat fe‘li qo‘shilishi bilan hosil bo‘luvchi *-g‘uda+turur* shakli hozirgi zamon fe‘li ma‘nosini ifodalaydi. Bu shakl “O‘g‘uznoma”da uchraydi: *Kördi kim, erkäk bəri cherikniñ tapuqlarida yürügüdə turur*.

4. Ko‘makchilar bilan qo‘llanadi: *Musani sinag‘u uchun üchägün kemi üsküngä keldilər* (Tafsir). *Davudni umidsiz qilg‘u üçhün ketmädi* (QR). *Qalıqa achg‘uñdun soñ kel Ordug‘a deb dedi* (O‘N).

5. *-g‘u /-gü //-qu -kü* affiksli sifatdoshga *-luq/-lük //-lug‘/-lug, -sız/-siz* affikslari qo‘shilishi bilan hosil bo‘luvchi *-g‘u+luq, -g‘u+sız* shakllari ma‘no va vazifasiga ko‘ra sifatga yaqin turadi: *Ul barg‘ulug‘ bir yurt turur* (O‘N). *Kechälär shamg‘a ehtiyaj bolg‘uluq ish bolsa, ...* (BN). *Tälim kördüm sıfat qilg‘usız* (QR). *Tarlag‘usız bir yazı yer erdi* (O‘N).

**131-§.** *-g‘uchi /-güchi //-quchi/ -küchi* affiksli shakl *-g‘u /-gü //-qu -kü* affiksli sifatdoshga shaxs otini yasovchi *-chi/-chi* affiksi qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan. Shuning uchun ham *-g‘uchi /-güchi //-quchi/ -küchi* affiksli sifatdoshlarda fe‘llik xususiyati

kuchsizlangan bo‘lib, ot turkumiga yaqin turadi.

-g‘uchi /-güchi // -quchi/ -küchi affiksli sifatdosh aniqlovchi vazifasida qo‘llanganda shaxs yoki narsaning harakati bilan bog‘liq bo‘lgan belgisini ko‘rsatadi: *Oshul tag‘ qazg‘uchi Farhadni korsün* (XSH). *Quyashni esiz közni qaytarg‘uchi qudrati bar* (QR). *Men kezgüchi qulnuş tururin siz sorar-siz* (Lutfiy). *Seni vasf etküchi tili läl keräk* (SHN).

-g‘uchi /-güchi // -quchi/ -küchi affiksli sifatdosh mustaqil qo‘llanib, ega vazifasida kelganda hamda egalik va kelishik shaklida qo‘llanganda shaxs oti ma‘nosini ifodalaydi (qarang: 45-§).

-g‘uchi /-güchi // -quchi/ -küchi affiksli sifatdosh kesim vazifasida qo‘llanganda ham fe‘llik xususiyati kuchsizlangan bo‘lib, ot turkumiga yaqin turadi, ya‘ni bunday kesimlar ot kesim xarakterida bo‘lib, grammatik zamon ma‘nosiga ega bo‘lmaydi. Masalan: *Men sizgä andın qorqutg‘uchi-men* (Tafsir). *Biz anı saqlag‘uchi-miz* (QR). *Köz üstüdə jan alg‘uchıdur häli-yu qāshı* (Lutfiy).

Hozirgi o‘zbek tilidagi sifatdosh yasovchi -(u)vchi affiksi -g‘uchi /-güchi // -quchi/ -küchi affiksining fonetik o‘zgarigan shaklidir.

-g‘uchi /-güchi // -quchi/ -küchi affiksli sifatdosh qadimgi turkiy tiliga oid yodgorliklarda ancha faol qo‘llangan bo‘lib, O‘rxun-Enasoy yodgorliklarining ayrimlaridagina uchraydi. Bu sifatdosh ham -g‘u /-gü // -qu / -kü affiksli sifatdosh kabi tarixan qarluq guruhidagi turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tiliga xos bo‘lib, o‘g‘uz guruhidagi turkiy tillarga oid yozuv yodgorliklarida uchramaydi, bu tillarda hozir ham qo‘llanmaydi. Mahmud Koshg‘ariyning ko‘rsatishicha, XI asrda -g‘uchi /-güchi // -quchi/ -küchi affiksli shakl chigil, qashqar, arg‘u, barsag‘an, uyg‘ur va Yuqori Chingacha bo‘lgan turklar tiliga xos bo‘lib, o‘g‘uz, qipchoq, yag‘mo, ug‘roq, suvorin, bajanak, to ruslargacha bo‘lgan turklar tilida bu shakl o‘rnida -dachi /-dächi // -tachi/-tächi affiksi bilan hosil bo‘luvchi *bardachi*, *keldächi* turidagi shakl qo‘llangan (MK, II tom, 53–56, 194, 342, 369, 414-betlar; III tom, 328-bet).

132-§. -dachi /-dächi // -tachi/-tächi, -g‘li/-gli affiksli sifat-



doshlar, yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlariga xos bo'lib, ularning qo'llanishi asosan XIV asr oxirlarigacha davom etgan.

*-dachu /-dächi // -tachu/-tächi* affiksli sifatdosh O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida ancha faol qo'llangan. XI—XIV asrlar davomida uning iste'mol doirasi ancha chegaralangan bo'lib, ayrim manbalarda qo'llangan.

Bu sifatdosh ma'no va vazifalariga ko'ra *-g'uchi /-güchi // -quchi /-küchi* affiksli sifatdoshga o'xshaydi. Qiyoslang: *Keldächi gunahlarni avf qilg'ay* (Tafsir). *Bir nimärsäni men qıldachu-men* (Tafsir). *Men seniñ tərüttächiñ, yarattachuñ-men* (Tafsir).

*-g'li/-gli* affiksli sifatdosh qadimgi turkiy tili yodgorliklarida ancha keng qo'llangan bo'lib, O'rxun-Enasoy yodnomalarida uchramaydi. Uning ko'p qo'llanishi XI—XII asrlarda ham davom etgan, XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarning ham ko'pchiligida qo'llangan.

Bu sifatdosh ma'no va vazifalariga ko'ra *-g'uchi /-güchi // -quchi /-küchi, -dachu /-dächi // -tachu/-tächi* affiksli sifatdoshlarga o'xshaydi. Masalan: *Munu ma bichigli tarig'chi qanı* (XSH). *Menä rahm qilg'lı kishi yoq* (QR). *Tüşindä kordi kim, keligli keldi* (NF). *Aya, soñ keligli, dua qil anja* (XSH).

**133-§.** *-adurg'an /-edürgän // -aturg'an/-etürgän, -ası/-esi, -g'ur/-gür* affikslari bilan hosil bo'luvchi sifatdoshlar qadimgi turkiy yodgorliklarda uchramaydi, eski o'zbek tilida ham kam qo'llangan.

*-adurg'an /-edürgän // -aturg'an/-ätürgän* affiksli sifatdosh XIII asrdan keyingi davrlarga oid ayrim yodgorliklarda uchraydi: *Ul siz yeyäturg'an taamlardın bizgä taqı ızıñ* (QR). *Meni shayda qıladurg'an bu koñüldür, bu koñül // här-u rasvä qıladurg'an bu koñüldür, bu koñül* (Lutfiy). *Kabuldın küch kelädurgän jihatdın Sultang'a qoshula almaydurlar* (BN). *Muvajjah sozläydürgändä arasıda sozi parishan bolur erdi* (Navoiy, MN). *Barchanıñ baraturg'an yurtıg'a ketdi* (Sh.tar.). *Xan siyasat qılaturg'an boldı* (SHN).

*-adurg'an /-edürgän // -aturg'an/-etürgän* affiksi tuzilishi

jihtadan murakkab: *-a/-ä(y)* — ravishdosh yasovchi affiks; *-dur/-dür* — holat fe'li (*tur-*)ning fonetik o'zgargan shakli; *-g'an/-gän* — o'tgan zamon sifatdoshi ko'rsatkichi (*-a+dur+g'an*). Hozirgi o'zbek tilida bu affiks *-adigan (ydigan)* shaklida qo'llanadi (*bar+adigan, ishlä+ydigan* kabi).

*-asi/-äsi* affiksli sifatdosh XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda uchraydi: *Hech yer qalmadi ayaqin urasi* (Tafsir). *Tilämüz erdi andın oñ yegäsi* (XSH). *Keläsi mehnat tashvishi bilän...* (Saroysi).

Bu sifatdosh tarixan o'g'uz va qipchoq guruhidagi turkiy tillarga xos bo'lgan. Bu haqda Mahmud Koshg'ariy ham ma'lumot bergan (MK, II tom, 71–73-betlar).

Eski o'zbek tilida *-g'ur/-gür* affiksli sifatdoshning qo'llanishi juda ham chegarali bo'lib, ba'zi asarlardagina uchraydi: *Bu toymag'ur közümgä turur körmägän kibi* (Lutfiy). *Ey köki kesilgür, sen yazılarda öz bashın bilän ulg'ayg'an-sen* (Amiriy). *Otqa tüşkür bu köñüldür Lutfiynı xär äylägen* (Lutfiy). *Tilär-men, körmäsäm ul bolmag'ırnı* (Munis).

*-g'ur/-gür* affiksli shaklni sifatdosh guruhiga shartli ravishda kiritish mumkin. Bu shaklda fe'llik belgilari kuchsizlanib, sifatga yaqinlashgan. Ma'no jihatdan hozirgi o'zbek tilidagi *sezigir, chopqir, keskir, o'tkir* kabi sifatlarga o'xshaydi.

### **Ravishdosh shakllari**

**134-§.** Ravishdosh shaklidagi fe'l boshqa fe'lga, asosan, tuslanuvchi fe'lga bog'lanib keladi va o'zi bog'langan fe'ldan anglashilgan ish-harakatning belgisini, bajarilish holatini bildiradi. Shuning uchun ham ravishdosh shaklidagi fe'l gapda hol vazifasida keladi va o'zi bog'lanib kelgan fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishidagi holat, sabab, payt, maqsad kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shu bilan birga, ravishdoshning birlamchi (sodda) shakllari ergash gapning kesimi vazifasida ham keladi, fe'l zamonlarini hosil qilishda ishtirok etadi, ko'makchi fe'llar bilan birikib turli ma'nodagi birikmalarni hosil qiladi va hokazo. Ravishdoshda

zamon ma'nosini nisbiy, ya'ni ravishdosh shakli mustaqil holda zamon ma'nosini ifodalamaydi.

Ravishdosh shaklini yasovchi affikslar eski o'zbek tilida ham tuzilishiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1) **sodda affikslar**. *-b, -a/-ä, -u/-ü* affikslari shu guruhni tashkil etadi. Bu affikslar bilan yasaluvchi shakllarni ravishdoshning **birlamchi shakllari** deb atash mumkin; 2) **qo'shma affikslar**. Bu guruhni quyidagi affikslar tashkil etadi: *-ban/-bän, -may/-mây (<mayın / -mâyın<madın / -mädin), g'ali/-gäli // -qali /-käli, -g'ach /-gäch // qach /-käch, -g'uncha /-günchä // -quncha /-künchä, -mishcha /-mishchä, -duqcha /-dükchä, -g'anacha /-gänchä*. Bu affikslar bilan yasaluvchi shakllarni qulaylik uchun shartli ravishda ravishdoshning **murakkab shakllari** deb atash mumkin.

**135-§. -b** (undoshdan keyin: **-ib /-ib // -ub -üb**) affiksli ravishdosh. XIX asrga oid ayrim manbalarda unli bilan tugagan fe'llarga bu affiks ba'zan *yub /yüb* shaklida ham qo'shilgan, ya'ni odatdagi *bashlab* (bashla+b), *sozläb* (süzlä+b) o'rnida *bashlayub* (bashla+yub), *sozläyüb* (sozlä+yüb) shakli qo'llangan. Masalan: *Bag'layub qāsh yāsına har dam nishān äylär közün* (Furqat). *Sachib qarzi qavala, pul ketärib istäyüb mansab* (Muqimiy). Bu shakl XIV asr yodgorligi "Qissasi Rabg'uziy" da ham uchraydi: *Munun ash-etmägin yeyüb, ...* (QR).

Unli bilan tugagan fe'llarga bu ravishdosh affiksining *yub /yüb* shaklida qo'shilishi o'g'uz guruhidagi turkiy tillarga xos bo'lib, hozir ham bu tillarning ko'pchiligida turli fonetik ko'rinishda ishlatiladi.

*-b* affiksli ravishdoshning qo'llanishi, ma'no va vazifalari quyidagicha:

1. O'zi bog'lanib kelgan fe'l ifodalagan ish-harakatning bajari-lish holatini ko'rsatadi. Bunda ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat bilan u bog'lanib kelgan fe'l (ya'ni keyingi fe'l) ifodalagan ish-harakat o'rtasidagi vaqt munosabati quyidagicha ikki xil bo'ladi:

a) ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatdan oldin bajariladi: *Agar bermäsän, biz*

*kirib, tartib chiqarur-biz (QR). Tutub ul shakar erindin yer o'пти (XSH). Buyürdilar kim, hujrasin buzub, tufrag'in xanaqahdin tashqaru tashlasun (Navoiy, MN). Pastda qol bag'lab salam qildim (Furqat);*

b) ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat keyingi fe'l ifodalagan ish-harakat bilan bir vaqtda bajariladi. Bunda har ikkala ish-harakat ham odatda davomli bo'ladi: *Elini yuzina urub yig'layur erdi (QR). Eshittim, anda yig'lab ah urur-sen (DN). Chiqtilar qorg'anig'a chapqullashib (SHN). G'azallarimni oqur Zuhra kerguzub ahang (Munis).*

-b affiksli ravishdosh shaklidagi fe'l takroriy yoki juft so'z shaklida qo'llanganda ham keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini ko'rsatadi. Bunda ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat takrorlanuvchi, davomli bo'ladi: *Kuyub-kuyub ichin ishq oti ortar (XSH). Bir-ikki oq otub-otub tushti (BN). Olturar-siz bexiradlar bazmida oynab-kulub (Furqat).*

2. -b affiksli ravishdosh shaklidagi fe'lga ko'makchi fe'l yoki ko'makchi fe'l vazifasini bajaruvchi fe'llar qo'shilib, ravishdosh shaklidagi yetakchi fe'l anglatgan ish-harakatning boshlanishi, tugallanganligi, davomiyligi, takrorlanib turishi kabi ma'nolar ifodalanadi: *Tort muj er atlanib yetib keldi (QR). Ati muz tag' ichin qachib ketti (O'N). Yaqutdin alib chiqdi (Tafsir). Gulbandandin ayrilib qaldim (Furqat). Singakniy tilin uzub aldi (QR). Yekka Olang kelib tushtuk (BN). Barchasini tordin chiqarib tashladilar (TN). Qolin bag'lab qoydi (Sh.tar.). Ozum komak berib, yurtuyni alib berur-men (Sh.turk). Elchilariga berib yibardi (O'N). Ko'jul tilagandek javab alib bardı (Navoiy, Msh). Ottilar uyla ki, aytib bolmas (SHN). Fikr birla tutub turdi bu bashni (XSH). Tonimizni kiyib, rozimizni yeb yurugaylar (BN).*

3. Ravishdoshning -b affiksli shakli bog'lovchilik vazifasini ham bajaradi, ya'ni gapda uyushib kelgan fe'llarning oldingisi (yoki oldingilari) shu ravishdosh shaklida kelib, uyushiq bo'laklar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsatadi: *Bu yalg'anchilar meni tutub, ag'zimg'a qan surtib, sena kelturdilar (QR). Siz karam qilib, meni*

*ma'zur tutuq* (Navoiy, Msh). *Elni bir panah yerdä qoyub, özüm yayaq bolub, bir pushtag'a chiqib, qaravulluq qıldım* (BN). *Kechä köchüb, kunduz yaturlar* (Sh.turk). *Ahli fasaddın köp kishini atrafig'a yig'nab, Buxärädın kelib, Manqitg'a kirdi* (F1).

-b affiksli ravishdosh shaklidagi *bol-* (bolub) fe'li asosan bog'lovchi vazifasida qo'llanadi: *Ul sababdın ajiz bolub, darmandın qalurlar* (Tafsir). *Bolub Majnun bikin shaydä, parishānhāl bolur Layli* (Sakkokiy). *Sāg'-u salāmat bolub, alam ahlig'a kāmran bolg'ay-siz* (Navoiy, Msh). *Sayyād xeshligin bolub, qasd qıldı kim, ...* (TN).

Hozirgi o'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda ham -b affiksli ravishdosh bog'lovchi vazifasida keng qo'llanadi va bu hol uning asosiy vazifalaridan birini tashkil etadi. Shuning uchun ham ayrim tadqiqotchilar bu shaklni "biriktiruvchi ravishdosh" yoki "bog'lovchi ravishdosh" deb ataydilar.

**136-§.** -a /-ä (unlidan keyin: y) affiksli shakl ham turkiy tillarda qadimdan faol qo'llanib kelayotgan ravishdosh shakli bo'lib, hozir ham turkiy tillarning deyarli hammasida qo'llanadi.

Bu ravishdoshning qo'llanishi, ma'no va vazifalari quyidagicha:

1. Keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini ko'rsatadi. Bunda ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat bilan keyingi fe'l ifodalagan ish-harakat o'rtasidagi vaqt munosabati quyidagicha ikki xil bo'ladi:

a) ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakatdan so'ng keyingi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning tezlik bilan bajarilishi ko'rsatiladi: *Yerindin tura keldi* (Tafsir). *Shavur ura qopti* (XSH). *Ibrahim korä kaldi* (QR). *Qamishnuq ichinä yügürä kirdi* (Sh.turk);

b) ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat keyingi fe'l ifodalagan ish-harakat bilan bir vaqtda bajariladi. -a/-ä affiksli ravishdosh bu ma'nosi bilan -b affiksli ravishdoshga o'xshaydi. Qiyoslang: *Bu yanlig' aysh etä xush otrur erkän* (XSH). *Yüzüjdin emdi aña āshnā tiläy keldim* (Lutfiy). *Ne bolg'ay, gar nishat-u ayshi shad-u xush kulä kelsänj* (Sakkokiy). *Qanbar Ali beg qichqira aytti kim, ...* (BN).

-a/-ā affiksli ravishdosh shaklidagi fe'l takroriy yoki juft so'z shaklida qo'llanganda ham keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini ko'rsatadi: *Takrar ura-ura yad qildi* (Tafsir). *Firaq otina yana-yana keldim* (Lutfiy). *Tamshiy-tamshiy ani qilay nosh* (Navoiy, ML). *Bara-kelā xānni barin qıldilar* (BN). *Istāy-istāy baru bum ichrā seni, telba kōjūl, tutmam āram-u qarār* (Munis).

2. -a/-ā affiksli ravishdosh shaklidagi fe'lga ko'makchi fe'l yoki ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanuvchi fe'llar qo'shilib, yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning boshlanishi, tugallanganligi, davomiyligi, takrorlanib turishi kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Tutayin teb, quva chiqti* (QR). *Kesā bashladı tag'ni teshā birlā* (XSH). *Kōjūl tilegi eshikdin qachan kirā kelgāy?* (Saro'yi). *Yūriy berij, shāyad qutulg'ay-siz* (BN). *Dardig'a chara eylāy alur-men* (Navoiy, SS). *Yer tūshā yazdı tag'lar sınıb* (Tafsir). *Yol bashında tura qaldı Mirza* (SHN). *Aqam kelib, meni ala korsün* (Sh.tar.). *Ulug'-kichik baqa turdilar* (Tafsir).

137-§. -u/-ū (unlidan keyin *yu/ yū*) affiksli ravishdosh qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos bo'lib, XIII—XIV asrlarga oid manbalarda ham ancha keng qo'llangan. Keyingi davrlarda bu shakl arxaiklashgan bo'lib, ba'zi asarlardagina uchraydi.

Bu ravishdoshning qo'llanishi, ma'no va vazifalari quyidagicha:

1. Bu ravishdosh ham keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini ko'rsatadi. Bunda ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat bilan keyingi fe'l ifodalagan ish-harakat o'rtasidagi vaqt munosabati quyidagicha ikki xil bo'ladi:

a) ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakatdan so'ng keyingi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning tezlik bilan bajarilishi ko'rsatiladi: *Yaxuda bu sozni eshitib, uru qopdi* (QR). *Bu ulamalar arasidin bir narasida og'lan uru qopdi* (NF);

b) ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat keyingi fe'l ifodalagan ish-harakat bilan bir vaqtda bajariladi: *Yusuf yig'layu atasına keldi* (QR). *Tana'umlar qilu kün kechrür erkän* (XSH).

*Ag'zirni tilab, tapmayu boldum adam, ey jän* (Lutfiy). *Tamāshā eyläyü bolsun xirāmıñ* (Navoiy, FSH). *Tishleyü sen ham etär-sen emdi qalg'anın* (Huvaydo).

-u/-ü affiksli ravishdosh shaklidagi fe'l takroriy yoki juft so'z shaklida qo'llanganda ham keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini ko'rsatadi: *Ul tag'g'a uru-uru erir* (Tafsir). *Sizlärni qıynayu-qıynayu oltürür-men* (QR). *Kelür har hafta tez yügrü-yügrü* (XSH).

Bu kabi juft so'zlar tarkibidagi qismlarning biri -a/-ä, ikkinchisi -u/-ü affiksli ravishdosh shaklida bo'lishi ham mumkin: *Külä-oynayü andın tebrädilär* (XSH). *Küle-oynayü ichsünlär bu ashāb* (MN).

2. -u/-u affiksli ravishdosh shaklidagi fe'lga ko'makchi fe'l yoki ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanuvchi fe'llar qo'shilib, yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning boshlanishi, davorniyliigi, takrorlanib turishi kabi ma'nolar ifodalanadi: *Ismāil Ibrāhimı soñıncha baru bashladı* (QR). *Meni munda qozman, eltü berıñ* (Tafsir). *Qılıchlarmı alu barıñ* (NF). *Bir qoy alu kelgäymiz* (QR). *Köklär kesäk-kesäk bolu yazdı* (Tafsir). *Anı alu kirdilär* (QR). *Bu zāri qılğ'anımnu eshitü tursañ* (XSH). *Lotı elıñızdın chıqaru körüñ* (QR). *Atlanıb, istäyü chıqdı* (QR).

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, -u/-ü affiksli ravishdosh qo'llanishi, ma'no va vazifalari jihatdan -a/-ä affiksli ravishdoshga o'xshaydi. Shu bilan birga, -u/-ü affiksli ravishdoshning -b affiksli ravishdosh bilan ham vazifadoshlik tomonlari bor. Qiyoslang: *Qamug'lari... qattıg'ün qabarıb, faryad qılu yıg'ladılar* (QR). *Tilänü, sozlāshıb uzrum qulayın* (XSH). Bu misollarda -ıb/-ıb shaklidagi *qabarıb, sozlāshıb* ravishdoshlari bilan -u/-ü shaklidagi *faryad qılu, tilänü* ravishdoshlari bir xil ma'no va vazifada qo'llangan.

**138-§.** -ban/-bän (-ıbän // -ıbän// -uban/ -übän) affiksli ravishdosh. Bu affiks ravishdosh yasovchi -b (-ıb /-ıb // -ub/-üb) affiksiga -an/-en qo'shilishi bilan hosil bo'lgan qo'shma affiksidir: *bashla+ban, ishlä+bän, bar+ıban, kel+ıbän, sor+uban, kör+übän* kabi.

-ban/-bän affiksli ravishdosh qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga

xos bo'lib, keyinchalik uning keng qo'llanishi o'g'uz guruhidagi turkiy tillarda davom etgan. Hozir esa bu tillarda ham deyarli qo'llanmaydi. Eski o'zbek tilida bu ravishdoshning iste'mol doirasi ancha chegaralangan bo'lib, she'riy asarlarda qo'llangan, hozir ham ba'zan she'riy asarlarda uchraydi.

-*ban/-bän* affiksli ravishdosh qo'llanishi, ma'no va vazifalari jihatdan ham -b affiksli sifatdoshga o'xshaydi. Ya'ni:

1. -*ban/-bän* affiksli ravishdosh shaklidagi fe'llar ham keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish holatini ko'rsatadi. Bunda ravishdosh ifodalagan ish-harakat bilan keyingi fe'l ifodalagan ish-harakat o'rtasidagi vaqt munosabati quyidagicha ikki xil bo'ladi:

a) ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatdan oldin bajariladi: *Aql ketibän, Lutfiy-tek devana bolg'um, aqlag'il* (Lutfiy). *Ta anı nosh äyläbän jandın kechäy* (Navoiy, LT). *Tärtıban amı senä yetküräy* (Bobur). *Äshiq ahlını urubän xär qılmaq shunchalar* (Muqimiy);

b) ravishdosh shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat keyingi fe'l ifodalagan ish-harakat bilan bir vaqtda bajariladi: *Lutfiy yuzidä olturuban köz yäshı aytur // yashung'um etäginä, ey qän tökküchi zälım* (Lutfiy). *Chah bashıda qoydı bir kishini // äyläbän ahda olturur ishini* (Navoiy, SS). *Termiz üstidä qılıban javlan // olturur Saidi Bābāxān* (SHN). *Men anda közgä surtub uy bosag'ın // quchuban yig'ladım ātam ayag'ın* (Furqat).

2. -*ban/-bän* affiksli ravishdosh shaklidagi fe'lga ko'makchi fe'l yoki ko'makchi fe'l vazifasida qo'llanuvchi fe'llar qo'shilib yetakchi fe'ldan anglashilgan ish-harakatning takroriyligi, tugallanganligi kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Dedi: fursat ötübän baradur* (SHN). *Dedi: xän ham yetishibän kelädür* (SHN). *Qal'asig'a yetibän turdılar* (SHN). *Biz alarnı isitibän qoyduq // ot qashıda isitibän qoyduq* (SHN).

3. -*ban/-bän* affiksli ravishdosh bog'lovchilik vazifasini ham bajaradi, ya'ni gapda uyushib kelgan fe'llarning oldingisi shu ravishdosh shaklida kelib, uyushiq bo'laklar o'rtasidagi bog'lantirishni ko'rsatadi: *Bāribän piri kardän qāshıg'a // hālını äylägäy*



*ayān qāshig‘a* (Navoiy, SS). *Bārībān anı keltürdüm andın // hāsılān anı yetürdüm andın* (SHN).

**139-§.** *-b, -a, /-ä, -u/-ü, -ban/-bän* affiksli ravishdoshlar uchun bo‘lishsizlik ko‘rsatkichi umumiy, ya’ni bularning bo‘lishsizlik ma’nosini ifodalash uchun *-madın/-mädin, -mayın/-mäyin, -may/-mäy* affikslari bilan hosil bo‘luvchi shakllar qo‘llangan. Bular bir affiksning turli ko‘rinishlari bo‘lib, biri ikkinchisidan rivojlangan. Bulardan *-madın/-mädin* affiksi qadimiy bo‘lib, keyinchalik *-mayın -mäyin* shakliga o‘tgan. So‘ng *-mayın/-mäyin* tarkibidan *-ın /-in* tushib qolishi natijasida *-may/-mäy* affiksi yuzaga kelgan: *-madın/ -mädin, -mayın/-mäyin, -may/-mäy*.

Ravishdoshning *-madın/ -mädin, -mayın/-mäyin, -may/-mäy* affikslari bilan hosil bo‘luvchi bo‘lishsiz shakllari ma’nosi va vazifalari bo‘yicha ham bir guruhni tashkil etadi. Bu shakllar qo‘llanish davrlari yoki uslubiy jihatdan o‘zaro farqlanadi. Ya’ni:

1. *-madın/ -mädin* affiksli shakl turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlariga xos bo‘lgan. Masalan, O‘rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklari hamda XI—XII asr yodgorliklari “Qutadg‘u bilig”, “Devonu lug‘atit-turk” va “Hibatul haqoyiq” asarlarida *-b, -a/-ä, -u/-ü, -ban/-bän* affiksli ravishdoshlarning bo‘lishsizligi uchun shu shakl qo‘llangan. Bu manbalarda *-madın/ -mädin* affiksi *-matın/ -mätin, -matı/ -mätı, madı/-mädi* shakllarida ham ishlatilgan.

*-madın/ -mädin* affiksli shakl *-b, -a, /-ä, -u/-ü, -ban/-bän* affiksli ravishdoshlarning bo‘lishsizlik ma’nosini ifodalovchi asosiy vosita sifatida XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarning ham ko‘pchiligida qo‘llangan. Masalan: *Atam sözın tutmadın, kemigä kirmädin suvg‘a g‘arqa boldum* (Tafsir). *Anja ag‘a bilmädin qazuqlar yändılar* (QR). *Ijzat tilämädin saräyqa kirdi* (NF). *Ravän sözlämädin indi atındın* (XSH).

XIV asr oxirlaridan *-may/-mäy, -mayın/-mäyin* affiksli shakllarning qo‘llanishi faollashgach, o‘zbek va boshqa ko‘pchilik turkiy tillarda *-madın/ -mädin* affiksli shakl iste’moldan chiqqan.

2. *-mayın/-mäyin* affiksli shaklning yozuv yodgorliklarda

qo‘llanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi. Lekin bu davrda ushbu shaklning qo‘llanishi ancha chegarali bo‘lib, ayrim manbalarda uchraydi: *Kek jallug‘ erkak bəri yürümäyin turdı* (O‘N). *Anadın tug‘g‘an saatda sut bermeyin obraqqa chulg‘ab, ...* QR). *Kishi emgätmäyin tınsa tapug‘dın, ...* (XSH). *Ranj chekmäyin ganj bolmas* (Saroyi).

O‘zbek tilida XV asrdan boshlab bu shakl asosan she‘riy asarlarda qo‘llangan: *Haddıynı bilmäyin meni sevdi debän, yazg‘urmag‘ıl* (Lutfiy). *Ishq arä kormäyin jahän közigä // tutmiş olg‘ay ölümnı ham özigä* (Navoiy, SS). *Almayın anı bu sarı kelmäs* (SHN). *Chaynamayın yegänlär kavshamayın ketärlär* (Gulxaniy). *Vashda jän bermäyin hajrig‘a boldum asir* (Munis).

3. *-may/-mäy* affiksli shaklning yozuv yodgorliklarda qo‘llanishi XIV asrdan boshlab kuzatiladi. Lekin bu shakl shu davrga oid yodgorliklardan “Muhabbatnoma”dagina qayd qilindi: *Bilür-men kim, sizıñtek bolmay, ey jän // boyunsundum jafäg‘a, qul-men, ey jän* (MN).

O‘zbek tilida *-may/-mäy* affiksli shakl *-b*, *-a/-ä*, *-ü/-u*, *-ban/-bän* affiksli ravishdoshlarning bo‘lishsizlik ma‘nosini ifodalovchi asosiy vosita sifatida XV asrdan faol qo‘llana boshlagan. Masalan: *Bardi bermäy sharbat vaslın bu xasta Lutfiyg‘a* (Lutfiy). *Sizni kormäy barurg‘a ixtiyar yoqluqdın chära tapmay, becharavär azimat vāqe boldı* (Navoiy, Msh). *Azmını baja keltürmäy, hech ishni бүtkärmäy yandı* (BN). *Anı almay beri ul kelgüsi yoq* (SHN). *Tañ atmas tokülmäy sahar chag‘ı yulduz* (Munis).

Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek tilida ham *-b* (*-ib*), *-a* (*y*) affiksli ravishdoshlarning bo‘lishsizligi uchun mana shu *-may* (*-mäy*) affiksli shakl qo‘llanadi. *-mayın* (*-mäyın*) affiksli shakl esa ba‘zan she‘riy asarlarda uchraydi.

**140-§.** *-g‘alı/ -gäli // -qalı/ -käli* affiksli shakl turkiy tillarda qadimdan qo‘llanib kelayotgan ravishdosh shakllaridan birini tashkil etadi: qadimgi turkiy yozuv yodgorliklarida keng iste‘molda bo‘lgan, hozir ham turkiy tillarning deyarli hammasida mavjud bo‘lib, har xil fonetik shakllarda qo‘llanadi.

Bu ravishdoshning asosiy vazifasi maqsad ma'nosini ifodalashdir, ya'ni keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni bildiradi. Shuning uchun uni ko'pincha "maqsad ravishdoshi" deb ataydilar. Bu ravishdosh eski o'zbek tilida -g'ali/-gäli // -qali/ -käli affiksli ravishdosh maqsad ma'nosidan tashqari quyidagi ma'nolarda ham qo'llangan:

1. Payt ma'nosini ifodalaydi, ya'ni keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatning boshlanish vaqtini ko'rsatadi: *Yusuf Kun'āndin chiqg'ali yigirmi yetti yil bolmush erdi* (QR). *Otluq közüñni kergäli bag'rim kabāb erür // sizdin ne yashuray, kəñül ishi xarāb erür* (Lutfiy). *otkäli yüz yil etübtür emdi // köp el anı unutubtur emdi* (SHN). *Isfandiyār xān yurt ālg'ali bir yil boldı* (Sh.turk).

Misollardagi *chiqg'ali* fe'li "chiqqandan beri", *kergäli* — "ko'rgandan beri", *otkäli* — "o'tganiga (o'lganiga)", *alg'ali* — "olgandan beri" ma'nosida qo'llangan.

2. Harakat nomi ma'nosida qo'llanadi: *Men unutmush-men sizgü ayg'ali teb, ...* (Tafsir). *Qalmaidı sabr etkäli bir zarra imkänım meniñ* (Lutfiy). *Süchük uyuqlag'ali qoyg'il, ey gadā, bizni* (Atoiy). *Öz aybını fash etkäli til uzatur, bil* (Navoiy, MQ). *Kishini etkäli goymaydurlar* (BN).

Bu misollarda *ayg'ali* fe'li "aytishni", *sabr etkäli* — "sabr qilishga (sabr qilish uchun)", *uyuqlag'ali* — "uxlashga (uxlaga-ni)", *otkäli* — "o'tishga (o'tgani)" ma'nosini ifodalaydi.

3. -g'ali/-gäli // -qali/ -käli affiksli ravishdosh asosida turli birikmalar hosil bo'lib, asosiy ma'noga qo'shimcha tus beriladi: *Saqalın tutub qattıg' tartdı kim, boynı üzgäli tegdi* (QR). *Tam kerdilər, egilib tüşkälı turur* (QR). *Ölgäli yetti Atoiy ul qadd-u qāmat üçhün* (Atoiy). *Xumār ichrā men ölgäli yetmişām qadah tut meñä, saqiya, lab-balab* (Munis).

Misollarning birinчисidagi *üzgäli tegdi* birikmasi "uzila yozdi" ma'nosini ifodalaydi, keyingi misollardagi *egilib tüşkälı turur* birikmasi "yiqilay deb qolgan", *ölgäli yetti* — "o'lish holatiga yetdi", *ölgäli yetmişām* — "o'lish holatiga yetganman" ma'nosida qo'llangan.

-g'ali/-gäli // -qali/ -käli affiksli ravishdosh -g'a/ -gä // -qa/

-*kä* affiksli sifatdoshga *-li/-li* affiksi qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan. Hozirgi oʻzbek tilida bu affiks *-gani* (*-qani/-kani*) shaklida qoʻllanadi, uning dastlabki koʻrinishi, yaʼni *-gʻali/-gʻali // -qali/-kali* shaklida qoʻllanishi ayrim xorazm shevalarida saqlangan.

**141-§.** *-gʻach/ -gäch // -qach/ -käch* affiksli ravishdosh qadimgi turkiy yodgorliklarda uchramaydi. Uning yozma manbalarda qoʻllanishi XIV asrdan boshlab kuzatiladi. Hozir bu ravishdosh turkiy tillarning maʼlum guruhidagina qoʻllanadi.

*-gʻach/ -gäch // -qach -käch* affiksli ravishdosh eski oʻzbek tilida ham hozirgi oʻzbek va boshqa turkiy tillardagi kabi payt maʼnosini ifodalaydi, yaʼni bu ravishdosh ifodalagan ish-harakat tugashi bilan keyingi feʼl ifodalagan ish-harakat boshlanadi: *Yer epkäch aytu bashladı javābın* (XSH). *Seniñ ātn eshitkäch yerlär epkây* (MN). *Chagʻır eshitkäch achchiq üstindin tedi kim, ...* (Amiriy). *Ikki-üch kün ötkäch, ... ul nāvāhilargʻa yiberildi* (BN). *Āchulgʻach kelib ertəsi hujrası // qılır jang-u janjal har ertəsi* (Muqimiy).

*-gʻach/ -gäch // -qach -käch* affiksi *-gʻa/ -gä // -qa/ -kä* hamda *-ch* affikslarining birikuvidan tarkib topgan qoʻshma affiksidir. Bulardan *-gʻa/ -gä // -qa/ -kä* qismi oʻtgan zamon sifatdoshining *-gʻan/ -gän // -qan -kän* affiksidan, *-ch* qismi *chagʻ* soʻzidan rivojlangan, deb taxmin qilinadi: *-gʻan+chagʻ>-gʻa(n)+ch(agʻ)>-gʻa+ch>-gʻach* kabi.

**142-§.** *-gʻuncha/ -gunchä // -quncha/ -kunchä* affiksli ravishdosh: *bargʻuncha, kelgunchä, tapquncha, ketkunchä* kabi. Bu affiks tarixan *-gʻıncha -ginchä// -qıncha /-kinchä* (*bargʻıncha, kelginchä, tapqıncha, ketkinchä*), *-gʻücha -güchä// -qucha /-küchä* (*bargʻücha, kelgüchä, tapqucha, ketküchä*), *-ıncha/ -inchä// (yıncha/ yinchä)* (*barıncha, kelinchä, bashlayıncha, sözläyinchä*) kabi shakllarda ham qoʻllangan. Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida asosan *-gʻıncha -ginchä// -qıncha /-kinchä* shakllari ishlatilgan.

Yozuv yodgorliklardan maʼlum boʻlishicha, eski oʻzbek tilida bu shakllarning qoʻllanishi quyidagicha boʻlgan: XV asrga qadar asosan *-gʻıncha -ginchä// -qıncha /-kinchä* shakllari qoʻllangan.

XV asrdan boshlab *-g'uncha/ -günchä // -quncha -künchä* shakllari qo'llangan bo'lib, ayrim she'riy asarlarda *-g'ucha -güchä // -qucha /-küchä* shakllari ham ishlatilgan. *-incha -inchä // (yıncha yınchä)* shakllari XIII—XIV asrlarga oid ba'zi manbalarda uchraydi.

*-g'uncha/ -günchä // -quncha -künchä* affiksli ravishdoshning asosiy ma'nolari quyidagicha:

1. Payt ma'nosini bildiradi, ya'ni ravishdosh ifodalagan ish-harakat boshlangunga qadar keyingi fe'l ifodalagan ish-harakat yuzaga chiqqan bo'ladi yoki shungacha davom etgan bo'ladi: *Biz kelginchä Yusufni bəri yemish (QR). Ey Navaiy, bil ki, tañ atquncha yig'lar har kechä (Navoiy, G'S). Kəz yumub achqucha jarlardin ötüb (SHN). Men barg'uncha yana bir tashni tayyar qilsun (BN). Barib kelgünchä ötmishdi zamän kəp (Furqat).*

2. Qiyoslash ma'nosida qo'llanadi, ya'ni ravishdosh ifodalagan ish-harakat keyingi fe'l ifodalagan ish-harakat bilan qiyoslanadi va keyingi fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilishi ma'qul topiladi: *Qılıch birlä juda bolg'uncha mendin // bashım tandın juda qılmasmu-sen sen? (Lutfiy). Bu söz degünchä öltürsəñ ne bolg'ay? (Navoiy, FSH). Hunar kərgil ayb kərginchä zinhar (XSH). Mundaq tiriklik qilg'uncha bir sari bashımni alib yitkenim behraq (BN).*

3. Miqdor, daraja kabi ma'nolarni ifodalaydi. *-g'uncha/ -günchä // -quncha/ -künchä* affiksli ravishdosh bu ma'nosi bilan ravishga yaqin turadi. Masalan: *Küchüm yetkinchä kəp qıldım vafälar (MN). On kishigä yetkünchä ash etmish erdi (Tafsir). Yüz achg'ıl, kəz seni toyg'uncha kərsün (Lutfiy). Ichidä bir ordu tüşkünchä yer bolg'ay (BN).*

*-g'uncha/ -günchä // -quncha -künchä* affiksi sifatdosh yasovchi *-g'u / -gü // -qu/ -kü* affiksiga ravish yasovchi *-cha/-chä* affiksining qo'shilishi bilan hosil bo'lgan (*-g'ucha/ -güchä // -qucha/ -küchä*). Uning tarkibidagi (n) undoshi esa keyinchalik qo'shilgan (*-g'u+cha>-g'u+n+cha>-g'uncha*).

143-§. *-mıshcha/-mıshchä, -duqcha/-dükchä, -g'anča / -gänchä* affikslari ham tarkibli bo'lib, sifatdosh yasovchi *-mısh/*

*-mish, -duq/-dük, -g'an / -gän* affiksilariga ravish yasovchi *-cha/-chä* affiksining qo'shilishi bilan hosil bo'lgan.

Bu shakllar eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, ayrim manbalarda uchraydi: *-mishcha/-mishchä, -duqcha/-dükchä* affiksli shakllar XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda qo'llangan, *-g'anचा/-gänchä* affiksli shakl yozuv yodgorliklarida asosan XV asrdan boshlab qo'llangan bo'lib, bu davrda ham ayrim manbalarda uchraydi.

Bu shakllar ma'nosiga ko'ra ham bir guruhni tashkil etadi: payt ma'nosida qo'llanib, ish-harakatning chegarasini ko'rsatadi. Masalan: *Og'lan ulg'aymishcha tün ma uzayur erdi* (QR). *Kishi yetmishchä bu sözni aña sor* (XSH). *Kün keldükinchä benim emgägim arta turur* (QR). *Padshah mutavajjih bolg'anचा ish korünmäydür* (BN). *Ta kelgäninçhä äylär bezar, araba qursun* (Muqimiy).

*-mishcha/-mishchä, -düqcha/-dükchä, -g'anचा/-gänchä* affiksli ravishdoshlar miqdor, daraja ma'nosida ham qo'llangan bo'lib, bu ma'nosi bilan ravishga yaqin turadi. Qiyoslang: *Küchün yetmishchä kimersäninç aybın ächmag'ıl* (QR). *Küchüm yetmishchä көр xizmat qılayın* (MN). *Nechä alduqcha bayag'i-tek bolg'ay, hech oksümägäy* (Tafsir). *Bu faqir elkimdin kelgänchä sa'y qıldım* (Navoiy, Msh). *Har yer ayag'im barg'anचा barsam, yaxshıraq bolg'ay* (BN).

*-mishcha/-mishchä, -duqcha/-dükchä* affiksli shakllar tarixan o'g'uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo'lib, bulardan *-duqcha/-dükchä* affiksli shakl ushbu tillarda hozir ham faol qo'llanadi. *-g'anचा/-genchä* affiksli shakl qarluq va qipchoq guruhidagi turkiy tillarga xos bo'lib, bu tillarning ko'pchiligida, jumladan, o'zbek tilida hozir ham qo'llanadi.

## Fe'l tuslanishi

**144-§.** Fe'lning grammatik belgisi tuslanishdir. Tuslanish esa mayl, zamon va shaxs-son kategoriyalarini o'z ichiga oladi. Demak,

tuslanish sistemasidagi fe'l quyidagi morfemalardan iborat bo'ladi: fe'l negizi + mayl yoki zamon ko'rsatkichi + shaxs-son affiksi. Lekin buyruq-istak maylining tuslanishi bundan farq qiladi (qarang: 149-§).

### Mayl va zamon

**145-§.** Turkiy tillarda mayl va zamon: ayniqsa, tarixan, shakl jihatdan o'zaro chegaralanib yetmagan kategoriyalarni tashkil etadi. Bu hol, birinchi navbatda, mayl va zamon kategoriyalarining har biri uchun maxsus affikslarning yo'qligi, mayl va zamon ma'nolarini ifodalash uchun bir vaqtning o'zida ikkita affiksning qator ishlatilmasligi, bir affiksning ham mayl, ham zamon ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilishi bilan izohlanadi. Ya'ni bir shakl, bir tomondan, mayl ma'nosini ifodalash uchun xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, ish-harakatning zamonga munosabatini ko'rsatishi mumkin. Masalan, aniqlik mayli turkumidagi fe'llar ish-harakatning qaysi zamonga xosligini ko'rsatishi jihatdan tasnif qilinadi. Shuningdek, *-sa/-sā* affiksli *alsa* turidagi shakl, bir tomondan, shart maylini tashkil etsa, ikkinchi tomondan, shu maylning hozirgi va kelasi zamon ma'nolarini ifodalaydi. Shuning uchun ham bu shakl shart maylining hozirgi-kelasi zamon shakli hisoblanadi.

Turkiy tillar tarixida mayl bilan zamon o'rtasida semantik jihatdan ham qat'iy chegaralanish bo'lmagan. Bu hol, birinchi navbatda, aniqlik maylidagi kelasi zamon fe'li bilan boshqa mayllar o'rtasidagi o'zaro munosabat masalasiga aloqador. Ayrim shakllar, bir tomondan, aniqlik mayliga xos bo'lib, kelasi zamon fe'lini tashkil etgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu shakllar boshqa mayl ma'nosida ham qo'llangan. Masalan, *-g'ay* affiksli *alg'ay-men* turidagi shakl o'zbek tilida ma'lum davrlargacha aniqlik maylining kelasi zamon shakli vazifasini bajarishi bilan birga, buyruq-istak mayli shakllariga xos bo'lgan istak, tilak, iltimos, maslahat, buyruq kabi ma'nolarda ham faol qo'llangan. Keyinchalik bu shaklning ma'nosi chegaralana boshlagan va, nihoyat, hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida asosan istak shakli sifatida shakllangan.

Mayl kategoriyasi zamon kategoriyasiga nisbatan keng bo‘lib, mayl shakllari zamon ma’nosiga ko‘ra guruhlarga bo‘linadi. Lekin hamma mayl shakllarida ham grammatik zamon ma’nosi mavjud bo‘lavermaydi. Aniqlik maylida har uchala grammatik zamon mavjud, shart maylida zamon ma’nosi nisbiy, buyruq-istak maylida esa grammatik zamon yo‘q. Buyruq-istak mayli shakllari hali bajarilmagan yoki nutq paytida mavjud bo‘lmagan ish-harakatni ko‘rsatishi jihatdan kelasi zamonga o‘xshaydi. Lekin bu grammatik zamon emas.

Eski o‘zbek tilidagi fe’l mayllari quyidagi uch turga bo‘linadi: *buyruq-istak mayli, shart mayli, aniqlik mayli*.

**146-§.** Turkiy tillarda fe’l tuslanishi sifatdosh shakllari asosida yuzaga kelgan, ya’ni mayl shakllari ham, zamon shakllari ham sifatdosh shakllari asosida shakllangan (buyruq-istak maylining II va III shaxs shakllari bundan mustasno). Hozirgi turkiy tillarda u yoki bu zamon, yoki mayl guruhiga mansub bo‘lgan *almish, alg‘an, alar // alur // alir (almas // almaz // almar), ahyor, alayatur (alajatur), alajak* kabi shakllarning asosi sifatdosh ekanligi ma’lum.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida mayl va zamon shakllarining ayrimlarida sifatdoshlik xususiyati sezilmaslik darajaga kelib qolgan, ayrimlarida esa sifatdosh belgisi butunlay tushib qolgan. Masalan, *-di* affiksli *aldim* tarzidagi o‘tgan zamon fe’li *-duq* affiksli *alduq* tarzidagi o‘tgan zamon sifatdoshi asosida shakllangan bo‘lib, hozir bu shaklning sifatdoshlik xususiyati yo‘qolgan. *Ala-men* tarzidagi hozirgi (hozirgi-kelasi) zamon fe’li tarkibida ham dastlab sifatdosh ko‘rsatkichi bo‘lgan, ya’ni bu fe’l dastlab *-a / -ä (y)* affiksli ravishdoshga *tur-* holat fe’lining hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shakli (*turur*) qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan. Keyinchalik *turur* tarkibidagi hozirgi-kelasi zamon sifatdosh ko‘rsatkichi *-ur* tushib qoladi, so‘ng bu shakl tarkibidan I va II shaxslarda *tur-* fe’li butunlay tushib qoladi: *ala turur men (>ala durur men) > alatur-men // aladur-men (>alatu-men // aladu-men) > ala-men* (hozirgi o‘zbek tilida: *olaman*). *Alib-men* tarzidagi o‘tgan zamon fe’lining shakllanishi va taraqqiyotida ham xuddi shu jarayon yuz bergan:



*alib turur men* (>*alib durur men*) > *alibtur-men* // *alibdur-men* (>*alibtu-men* // *alibdu-men*) > *alib-men* (hozirgi o'zbek tilida: *olibman*).

Hozirgi-kelasi zamon shart fe'lining *-sa/-sä* affiksi dastlab *-sar/-sär* ko'rinishida qo'llangan bo'lib, undagi *-r* qismi hozirgi-kelasi zamon sifatdoshining ko'rsatkichidir: *alsar-men* > *alsa-men* > *alsam* (hozirgi o'zbek tilida: *olsam*).

Buyruq-istak maylining I shaxs birlik shakllari *-g'ay* affiksli *alg'ay-men* turidagi shakldan rivojlangan. Masalan: *alg'ay-men* > *alg'ay(m)in* > *alg'ayin* > *alayin* > *alay* (hozirgi o'zbek tilida: *olay*); *alg'ay-men* > *alg'ayim* > *alayim* > *ahyim* > *ahyim* > *alum* > *ahm*. *Alg'ay-men* tarzidagi shakl o'z navbatida *alg'a-men* tarzidagi kelasi zamon fe'li asosida shakllangan (*alg'a-men* > *alg'a+y+men* > *alg'ay-men*). *Alg'a-men* tarzidagi kelasi zamon fe'lining shakllanishida esa *alg'a* tarzidagi hozirgi-kelasi zamon sifatdoshi asos bo'lgan. Buyruq-istak maylining I shaxs ko'plik shakllari mana shu *alg'a* tarzidagi sifatdosh asosida shakllangan. Masalan: *alg'a + h* > *alg'ah* > *alah* // *alayh*; *alg'a+h* > *alg'ah* + *m* > *alg'ahm* > *alahim* // *alayim*; *alg'a+h* > *alg'ah+rj* > *alg'ahj* > *alahj* // *alayhj* > *alahj* > *alayhq* > *alay(l)iq* > *alayiq* (hozirgi o'zbek tilida: *olaylik*).

Demak, fe'l mayllari va fe'l zamonlari ma'no va shakl jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi kategoriyalar bo'lib, ularning chegaralanishi, fe'l mayllarining mustaqil grammatik kategoriya sifatida shakllanishi turkiy tillar taraqqiyotining nisbatan keyingi davrlaridan boshlangan va bu jarayon ayrim turkiy tillarda hozir ham davom etmoqda.

### Shaxs-son affikslari

**147-§.** Fe'l mayllari va zamonlarining gapdagi vazifasi shaxs-son affikslari orqali reallashadi. Ya'ni har bir mayl yoki zamon shakli ifodalagan ish-harakat o'zining aniq bajaruvchisiga ega bo'ladi. Ish-harakatning bajaruvchisi esa bir yoki bir necha shaxsdan iborat bo'lishi mumkin. Bu ma'nolar shaxs-son affikslari yordamida ifodalanadi.

Eski o‘zbek tilida amalda bo‘lgan shaxs-son affikslarini shaklan ikki guruhga bo‘lish mumkin: 1) shaxs-son affikslarining to‘la shakllari; 2) shaxs-son affikslarining qisqargan shakllari.

1. Shaxs-son affikslarining to‘la shakllari:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	-men	-miz, -biz (-muz, vuz)
II shaxs	-sen	-siz (lar)
III shaxs	-	-lar/-lar

2. Shaxs-son affikslarining qisqargan shakllari:

Shaxs	Birlik	Ko‘plik
I shaxs	-m	-q/-k (-uz/-yz//=-iz/-iz)
II shaxs	-	-rijz -rijz//=-rijuz/rijuz (-lar/lar)
III shaxs	(-si /si)	-lar/lar (-lar1/lar1)

Shaxs-son affikslarining qisqargan shakllari bo‘yicha eski o‘zbek tili bilan hozirgi o‘zbek tili asosan o‘xshash bo‘lib, to‘la shakllari bo‘yicha ba‘zi farqlar bor. Bu farqlar asosan I shaxsning birlik va ko‘plik shakllari hamda II shaxsning birlik shakliga aloqador. Ya’ni:

1. Ma’lumki, I shaxs ko‘plik affiksi hozirgi o‘zbek adabiy tilida (m) undoshi bilan boshlanuvchi *-miz* shaklida ishlatiladi. Eski o‘zbek tilida esa bu affiksning (b) undoshi bilan boshlanuvchi *-biz* shakli ham qo‘llangan. Qiyoslang: *olur-miz // alur-biz, olmas-miz // almas-biz, olg‘ay-miz // alg‘ay-biz, olmish-miz // almish-biz, olib-miz // alib-biz, olbdur-miz // alibdur-biz, aladur-miz // aladur-biz* kabi.

2. I va II shaxs birlik affikslari hozirgi o‘zbek tilida (a) unlisi bilan *-man, -san* tarzida talaffuz qilinadi. Eski o‘zbek tilida esa (e) bilan kelgan *-men, -sen* shakliga ega bo‘lgan. Chunki yozuv yodgorliklarining ko‘pchiligida bu affikslar *ى* (yoy) orqali *مين* shaklida yozilgan.

Eski o‘zbek tilida I va II shaxs birlik affikslarining to‘la shakllari

faqat yumshoq talaffuz qilingan bo‘lib (-*men*, -*sen*), singarmonizm qonuniga moslashmaydi (I va II shaxs ko‘plik affikslarining to‘la shakllari -*miz* (-*biz*), -*siz* ham, aftidan, faqat yumshoq talaffuz qilingan). Shuning uchun shaxs-son affikslarining to‘la shakllarini qattiq o‘zakli fe‘llarda ham, yumshoq o‘zakli fe‘llarda ham chiziqcha orqali yozish muvofiqdir. Masalan: *alur-men // bilür-men, alur-sen // bilür-sen, alur-miz // bilür-miz (alur-biz // bilür-biz), alur-siz // bilür-siz; almas-men // bilmäs-men, almas-sen // bilmäs-sen, almas-miz // bilmäs-miz (almas-biz // bilmäs-biz), almas-siz // bilmäs-siz* kabi.

Buyruq-istak maylida shaxs-son ma‘nolarining ifodalanishi butunlay boshqacha xususiyatga ega. Bu maylning ko‘pchilik shaxslari uchun, ayniqsa, hozirgi shaxs-son ko‘rsatkichlari yo‘q bo‘lib, bu ma‘no mayl shakllari orqali ifodalanadi, ya‘ni bir affiks mayl ko‘rsatkichi bo‘lishi bilan birga, shaxs-son ma‘nosini ham bildiradi. Masalan, *olay* (ol+ay) fe‘lidagi -ay yoki *ishläy* (ishlä+y) fe‘lidagi *y*, bir tomondan, mayl ko‘rsatkichi bo‘lsa, ikkinchi tomondan, I shaxs birlik ma‘nosini ifodalaydi, *olsun* (ol+sun) fe‘lidagi -*sun* esa, bir tomondan, mayl ma‘nosini ifodalaydi, ikkinchi tomondan, III shaxs birligini bildiradi.

**148-§.** Shaxs-son affikslari tarixan kishilik olmoshlaridan rivojlangan. Bunda quyidagi jarayonlar yuz bergan: zamon shakllari va mayl shakllarining ham ko‘pchiligi, yuqorida aytilganidek, sifatdosh shakllari asosida shakllangan bo‘lib, bularda shaxs-son ma‘nolari dastlab ega vazifasida kelgan kishilik olmoshlari orqali ifodalangan. Masalan, -*duq*/-*dük* affiksli sifatdosh o‘tgan zamon fe‘li vazifasida qo‘llanganda, bu shaklda shaxs-son ma‘nolari kishilik olmoshlari orqali quyidagicha ifodalangan: *men alduq* (men oldim), *sen alduq* (sen olding), *ol alduq* (u oldi), *biz alduq* (biz oldik), *siz alduq* (siz oldingiz), *olar alduq* (ular oldilar).

Mahmud Koshg‘ariyning ma‘lumotiga ko‘ra, bu hol XI asr tilida ham aks etgan. Ya‘ni bu davrda o‘g‘uzlar va qipchoqlarning ayrimlari o‘tgan zamon fe‘lining -*di*/-*di* affiksini -*duq*/-*dük* shaklida ishlatib, shaxs-son ma‘nosini ifodalash uchun fe‘l oldidan kishilik olmoshini keltirganlar, *men ya qurduq* (men yoy qurdim), *biz ya*

*qurduq* (biz yoy qurdik), *ol kældük* (u keldi), *olar ävgä kirdük* (ular uyga kirdilar) kabi (MK, II tom, 64–65- betlar). Shaxs-son ma'nolarini ifodalashning bu usuli hozir turkman, salar, sarig' ug'uzlar tilida saqlangan.

Keyinchalik kishilik olmoshlari fe'ldan keyin ham keltiriladigan bo'lgan: *men alduq men* (men oldim), *sen alduq sen* (sen olding) kabi. Bunda, shaxs-son ma'nosini ifodalash uchun kishilik olmoshlarini ikki marta keltirishga zarurat bo'lmay qolgan. Shuning uchun fe'l oldidan kelgan kishilik olmoshlari ko'pincha tushirib qoldiriladigan bo'lib, keyingisi saqlangan va shaxs-son ko'rsatkichi sifatida tasavvur qilingan: *barduq men* (bordim), *barduq sen* (bording) kabi.

Shu tarzda shaxs-son affikslarining to'la shakllari vujudga kelgan. Shaxs-son affikslarining qisqargan shakllari to'la shakllardan rivojlangan bo'lib, keyinchalik paydo bo'lgan. Qisqargan shakllarning vujudga kelishida fe'l shaklida yuz bergan o'zgarish asosiy rol o'ynagan. Masalan, *-duq/-dük* affiksi o'tgan zamon fe'lining ko'rsatkichi sifatida shakllanib *-di/-di* shakliga aylangan, shaxs-son affiksida ham qisqarish yuz bergan. Ayrim shaxslarda shaxs-son affiksining boshlang'ich tovushi, ayrimlarida esa oxirgi tovushi saqlangan: *alduq men* > *aldu-men* (> *aldu + men*) > *aldım*, *alduq sen* > *aldu+sen* (> *aldu+sen*) > *aldın* > *aldın*. II shaxs ko'pligi II shaxs birlik shakliga qadimgi ko'plik ko'rsatkichi *-(i) z* qo'shilishi bilan hosil bo'lgan: *aldın+ız* > *aldımız*. I shaxs ko'pligi uchun dastlab *aldımız* tarzidagi shakl qo'llangan. *Aldıq* (berdik) tarzidagi shakl esa keyingi hodisa bo'lib, undagi *-q(-k)* affiksi qadimda ot turkumidagi so'zlardan ko'plik (ikkilik) shaklini yasovchi affiksdır (*dudoq*, *quloq* kabi), uning kishilik olmoshiga aloqasi yo'q.

Zamon va mayl shakllarining boshqa turlarida ham shaxs-son affikslarining shakllanishida shu hol kuzatiladi. Masalan, shart mayli shaklida: *alsar-men* > *alsa-men* > *-alsam*, *alsar-sen* > *alsasen* (> *alsan*) > *alsanç*, *alsar-biz* > *alsa-biz* > *alsa-miz* (*alsak*), *alsar-siz* > *alsa-siz* > *alsanç+ız* > *alsançız* (*o'zbekcha – olsançız*).

## Buyruq-istak mayli

**149-§.** Fe'l mayllarining bu turi adabiyotlarda turlicha nomlanadi. Ayrim mualliflar “buyruq mayli” deb atasa, boshqalari I shaxs shakllarini “istak mayli”, II va III shaxs shakllarini esa “buyruq mayli” nomi bilan ataydilar.

Fe'l mayllarining bu turiga kiruvchi shakllarning har birida ham istak, ham buyruq ma'nolari mavjud. Shu bilan birga, bu shakllarning ayrimlari uchun (xususan I shaxs shakllari uchun) istak ma'nosi, ayrimlari uchun (xususan II shaxs shakllari uchun) buyruq ma'nosi birinchi o'rinda turadi. III shaxs shakllariga esa istak ma'nosi ham, buyruq ma'nosi ham xos. Shuning uchun bu shakllarni bir guruhga birlashtirib, umumiy nom bilan “buyruq-istak mayli” deb atash ma'qul bo'ladi.

Yozuv yodgorliklarda buyruq-istak maylining quyidagi affixlar bilan hosil bo'luvchi shakllari iste'molda bo'lgan:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs II shaxs    III shaxs	1. -ayın/-əyin... 2. -ay /-əy(-y) 3. -ayım /-əyim... 4. -g'ayın/-gəyin 5. -g'ayım /-gəyim	1. -alı/-əli... 2. -alıq /-əliq... 3. -alım /-əlim... 4. -g'alım/-gəlim 5. -g'ayıq /-gəliq 6. -g'alı/-gəli 7. -alıq /-əlik... 8. -ayıq /-əyik... 9. -aylıq /-əylik...
	1. -g'ıl/-gil// -qıl/kil 2. -g'in/-gin// -qın/kin 3. (nol ko'rsatkich) 4. -y(-y)	1. -ıq /-iq... 2. -ıqız /-iqiz... 3. -ıqlar /-iqlər... 4. -ıqlar /-iqizlər
	1. -sun/-sın... (-sın/-sin) 2. -dik (-tik)	1. -sunlar /-sınlar (-sınlar /-sinlər) 2. -diklər (-tiklər)

Yozuv yodgorliklar tilida buyruq-istak maylining, ayniqsa,

I shaxs birlik va ko'pligining bunday ko'p shaklli bo'lishi ma'lum sharoitlar bilan bog'liq bo'lgan hodisadir. Bulardan ayrimlari qadimgi shakllardan iborat bo'lsa, ba'zilar dialektal xususiyatga ega yoki boshqa turkiy tillarga xos shakllarni tashkil etadi. Shuning uchun ham bu shakllarning ko'pchiligi eski o'zbek tili taraqqiyotining ma'lum davrlarida iste'molda bo'lgan yoki ayrim yodgorliklardagina aks etgan.

Eski o'zbek tilida buyruq-istak mayli ma'nosida *-g'ay /-gäy -qay /-käy* affiksli *alg'ay-men* tarzidagi shakl ham qo'llangan. Lekin bu shakl ma'no taraqqiyoti bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, o'zbek va boshqa turkiy tillarda ma'lum davrlargacha kelasi zamon fe'li vazifasini bajargan (qarang: 196-§). Shuning uchun bu shaklni kelasi zamon fe'li guruhiga kiritdik.

### *I shaxs birlik shakllari*

**150-§.** Eski o'zbek tilida buyruq-istak maylining I shaxs birligi uchun asosan *-ayin /-äyin, -ay /-äy* affiksli shakllar qo'llangan.

*-ayin /-äyin* (unlidan keyin: *yin /yin*) affiksli *alayin* tarzidagi shakl buyruq-istak maylining I shaxs birlik ma'nosini ifodalovchi asosiy shakl sifatida eski o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlariga xos bo'lib, yozuv yodgorliklarda keng qo'llangan. Masalan: *Men evümgä barayin* (QR). *Küchüm yetmishchä көp xidmat qılayın* (MN). *Tartayın көzgä ayaqın gardını* (Lutfiy). *Men апа yol beräyin* (SHN). *Og'uz elinü yıbarayın* (Sh.tar.). *Arz etäyin emdi yazıb nāmalar* (Muqimiy).

*Alayin* tarzidagi shakl buyruq-istak mayli I shaxs birligining asosiy ko'rsatkichi sifatida turkiy tillarda qadimdan qo'llanib keladi. Masalan, O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida hamda XI—XII asr yodgorliklari "Devonu lug'atit-turk" va "Hibatul haqoyiq"da buyruq-istak maylining I shaxs birligi uchun faqat shu shakl qo'llangan. Shu davr yodgorligi "Qutadg'u bilig"da ham asosan shu shakl iste'molda bo'lgan.

*Alayin* tarzidagi shakl hozir qirg'iz, qozoq, qoraqalpoq, turkman, oltoy, sho'r, tuva kabi ko'pchilik turkiy tillarda qo'lla-

nadi. Hozirgi o‘zbek tilida esa (*olayin*) uning qo‘llanishi chegaralangan.

-ay/-äy (unlidan keyin: y) affiksli *alay* tarzidagi shaklning qo‘llanishi XV asrdan boshlab faollasha borgan. Masalan: *Sizdin ne yashuray?* (Lutfiy). *Bu balādin seni qutqaray* (Navoiy, MQ). *Az fursatda andag‘ qilay kim, ...* (BN). *Söz uzun boldi, keläy söz bashig‘a* (SHN). *Kelib-men bir dimag‘im chag‘ etäy deb* (Furqat).

Bu shakl XIV asrga oid ayrim yodgorliklarda ham uchraydi: *Men andin xushnud-men, netäk xushnud bolmay?* (QR). *Bale, qoptum, baray dushmanqa qarshu // alay el yä baray ul jänim urshu* (XSH).

*Alay* tarzidagi shakl XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilig”da ham iste‘molda bo‘lgan. Ushbu asarda bu shakl *alayı* (*al+ayı*) shaklida ham qo‘llangan. Ya’ni “Qutadg‘u bilig”da buyruq-istak maylining I shaxs birligi uchun *alayin* turidagi shakl bilan bir qatorda uning qisqargan shakllari bo‘lmish *alayı*, *alay* tarzidagi shakllar ham iste‘molda bo‘lgan. Qiyoslang: *Bularda talusin ayayin sana* (QB). *Yana barg‘u ärsä, barayı özüm* (QB). *Ulug‘luq tapay täb täsä sen* (QB).

Hozirgi o‘zbek tilida buyruq-istak maylining I shaxs birligi uchun yozma nutqda ham, og‘zaki nutqda ham *alay* tarzidagi shakl qo‘llanadi. *Alayin* tarzidagi shakl esa, yuqorida aytilgani-ddek, ayrim asarlarda uchraydi. *Alay* tarzidagi shakl hozir uyg‘ur, sho‘r tillarida ham qo‘llanadi.

**151-§.** Buyruq-istak maylining I shaxs birlik ma’nosini ifodalovchi boshqa shakllar eski o‘zbek tili taraqqiyotining ma’lum davrlari yoki ayrim yodgorliklarda qo‘llangan:

-ayım/-äyım (unlidan keyin *yım/yım*) affiksli *alayım* tarzidagi shakl XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tiliga xos bo‘lib, keyingi davrlarga oid yodgorliklardan “Boburnoma” va “Shajarai tarokima”da qayd qilindi: *Men qoldashım birlä keñäshäyım* (QR). *Men señä anı aytmayım* (Tafsir). *Ne qılsam qılayım, hech meñä azäb-u uqubat qılmag‘ıl* (NF). *Seniñ üçün shaharda bir yaxshı imarat qılayım* (Saroyi). *Qonaqqa qayra xizmatqa keläyım* (XSH).

*Käräyim kim, qaysınız qashimg'a kelä alur-siz* (BN). *Tañrim bersä, sizlärgä beräyim* (Sh.tar.).

*Alayım* tarzidagi shakl tarixan o'g'uz va qipchoq guruhlaridagi turkiy tillarga xos bo'lib, bu tillarning ko'pchiligida hozir ham faol qo'llanadi.

-g'ayın/-gäyin affiksli *alg'ayın* tarzidagi shakl asosan XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarga oid ba'zi she'riy asarlarda ham uchraydi: *Senä mundin yekräk narsa egrätgäyin* (Tafsir). *Ul evgä men Yusufnı ündägeyin taqı üzänizgä qapug'ni bag'layın* (NF). *Ush emdidin kezın bel bag'lag'ayın // meni qoy, öz ishimgä yg'lag'ayın* (XSH). *Burun alqıssa beg madhın ayayın // ush andın soñra nāma bashlag'ayın* (MN). *Keldi xän atlanıb andın filhāl // shahrnı äylägäyin deb pāmāl* (SHN). *Eylädin bemār kəp andāq tag'afıl äyläbän // ölg'ayın ul sāate, gar äyläsän nāz äzgina* (Furqat).

Bu shakl hozir o'zbek tilining ayrim Xorazm shevalarida saqlangan bo'lib, unli bilan tugagan fe'llar asosida hosil bo'ladi: *oqıg'ayın* (oqı+g'ayın), *ishlägäyin* (ishlä+gäyin) kabi.

-g'ayım/-gäyim affiksli *alg'ayım* tarzidagi shakl XIV asrga oid ayrim yodgorliklarda qo'llangan: *Men bu qushnı anıñ birlä yegäyim, tanavvul qılayın* (NF). *Qara tupraqqa kirmish tolun ayım // neluk bashımqa tupraq qoymag'ayım* (XSH). *Karam qılıb, qulāq tutsañ, javāb ayg'ayım* (Saroyi).

Bu shakl hozir oltoy, sho'r, chulim, qaraim tillarida buyruq-istak maylining I shaxs birlik shakli sifatida qo'llanadi.

### ***I shaxs ko'plik shakllari***

**152-§.** Eski o'zbek tilida buyruq-istak maylining I shaxs ko'pligi uchun asosan *-alıñ/-äliñ*, *-alı/-äli* affiksli shakllar iste'molda bo'lgan:

1. *-alıñ/-äliñ* (unlidan keyin *-lıñ/-lin*) affiksli-*alalın* tarzidagi shakl o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida iste'molda bo'lgan. Masalan: *Biz señä öküş mal beräliñ* (Tafsir). *Emdi seniñ*



*sözündin chiqmalin* (QR). *Gulgun ātınıñ la'lnı közgü qılalın deb / / chin eli kezärlär yolida har biri har yän* (Atoiy). *Kechä yashurun-cha bärıb ätlarını chıqaralın* (BN). *Emdi özgä sözni aytalıñ* (Sh.tar.). *Bir elgä saranjam berib olturalıñ* (FI).

*Alahn* tarzidagi shakl XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda keng qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarda *-alı /-äli* affiksli shakl faollashgach, uning qo'llanishi ancha chegaralangan.

*Alahn* tarzidagi shakl oldingi davrlarga oid yodgorliklardan "Qutadg'u bilig"da uchraydi: *Yürügil kiräliñ, meñä ay söziñ* (QB).

Bu shakl hozir turkman tilida va o'zbek tilining ayrim Xorazm shevalarida qo'llanadi.

*-alı /-äli* (unlidan keyin *-lı/-li*) affiksli *alalı* tarzidagi shakl o'zbek tilida XV—XIX asrlarga xos bo'lib, bu davrga oid yozuv yodgorliklarda buyruq-istak maylining I shaxs ko'plik ma'nosini ifodalovchi asosiy shakl sifatida faol iste'molda bo'lgan. Masalan: *Köräli, qaysımız yeñär axir* (Lutfiy). *Emdi sözniñ aslıg'a shuru' qılalı* (Navoiy, MQ). *Andijäng'a chekäli bizlär lashkar // tuzalı ul sarı ahangi safar* (SHN). *Biz anıñ qılğ'an yämänlıqlarının qaysı birin aytalı?* (Sh.tar.). *Siz bilän biz parda ichindä navä qılalı, lekin beparda sözlüşmäli* (Gulxaniy).

Bu shakl XIV asrga oid yodgorliklardan ba'zilarida qo'llangan: *Bolalı aysh-u ishrat peshalardın* (MN). *Biz ham bozchilik oğränäli* (QR).

Hozir bu shakl turkman, tuva, oltoy, qirg'iz kabi ayrim turkiy tillarda hamda o'zbek tilining Qorakc'ı va Xorazm shevalarida qo'llanadi.

**153-§.** O'zbek tilda *-alım/-älim*, *-g'alım/-gälim*, *-g'alıñ/-gäliñ* affiksli shakllarning qo'llanishi XV asrgacha davom etgan:

*-alım/-älim* (unlidan keyin: *-lım/-lim* yoki *yalıñ/yäliñ*) affiksli *-alalım* tarzidagi shakl XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ancha keng qo'llangan: *Köchüb bu yergä kelälim* (QR). *Ardımız, achtımız, taam yeyälim* (Tafsir). *Izalım elchi, keltürsünlär am* (XSH). *Biz bu Yusufnı burunraq öltürälim* (NF). *Barıb anda tüşälim* (Saroyi).

*Alalim* tarzidagi shakl qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos bo‘lgan: O‘rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida hamda “Devonu lug‘atit-turk”da buyruq-istak maylining I shaxs ko‘pligi uchun faqat shu shakl qo‘llangan. “Qutadg‘u bilig”da ham bu vazifani shu shakl bajargan bo‘lib, ba‘zan *alaln* tarzidagi shakl ham qo‘llangan.

Bu shakl tarixan o‘g‘uz guruhidagi turkiy tillarga xos bo‘lib, hozir turk va gagauz tillarida qo‘llanadi.

-*g‘alim/-g‘alim* affiksli -*alg‘alim* tarzidagi shakl XIII—XIV asrlarga oid ayrim yodgorliklarda qo‘llangan: *Bizgä farman bergil, kökkä ag‘g‘alim* (Tafsir). *Seniñ sözünçhä yürügälim* (QR). *Ketür, xon sal kim, ash yegälim* (XSH).

-*g‘alın/-g‘alın* affiksli -*alg‘alın* tarzidagi shakl ham XIII—XIV asrlarga oid ayrim yodgorliklarda qo‘llangan: *Siz on qoy keltürün, bishürün, etini yegälin* (QR). *Ey Muhammad, netäk inanmag‘alın senjä kim, ...* (NF). *Shah aydı: biz ikki tob oynag‘alın // qayumuz yaxshı oynar bir baqalın* (XSH).

Bu shakl hozirgi o‘zbek tilining ayrim Xorazm shevalarida buyruq-istak maylining I shaxs ko‘plik shakli vazifasida qo‘llanadi.

**154-§.** -*g‘ali/-g‘ali*, -*alıq/-älik*, -*ayıq/-äyik*, -*aylıq/-äylik* affiksli shakllar eski o‘zbek tilida kam qo‘llangan bo‘lib, XV asrdan keyingi davrlarga oid ba‘zi manbalarda uchraydi:

-*g‘ali/-g‘ali* affiksli -*alg‘ali* tarzidagi shakl “Shayboniynoma”, “Shajarai tarokima”, “Shajarai turk” asarlarida qayd qilindi: *Hech yamanlıq anja yavutmag‘alı // seni telmürtüb, anı tutmag‘alı* (SHN). *Emdi bu künden sorj seni Köl Erki tegäli* (Sh.tar.). *Emdi kop sozledük, sozlärni ayıb, bashlag‘an sözümidin qalmag‘alı* (Sh.turk).

Bu shakl hozir o‘zbek tilining ayrim Xorazm shevalarida amalda bo‘lib, buyruq-istak maylining I shaxs ko‘pligi ma‘nosida qo‘llanishdan tashqari ravishdosh vazifasini ham bajaradi.

-*alıq/-älik* (unlidan keyin: -*lıq/-lik*) affiksli *alalıq* tarzidagi shakl “Shayboniynoma”da hamda XIX asrga oid ayrim asarlarda qo‘llangan: *Xasmlıq qılsa, qılalıq fäni* (SHN). *Mavlänä Katibiyni*

*bu kechā andāq mashg‘ul etālük kim, ...* (BV). *Alaluq bir-ikki yüz at ilā top* (Nodir. Haft gulshan).

Bu shakl oldingi davrlarga oid yodgorliklardan “Nahjul farodis”da ham uchraydi: *Biz taqi jumla yāranlarqa e‘lām qılalıq* (NF).

*Alalıq* tarzidagi shakl tarixan qipchoq guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo‘lib, hozir qirg‘iz, oltoy kabi ayrim tillarda qo‘llanadi, o‘zbek tilining ayrim Xorazm shevalarida ham mavjud.

-*ayıq/-äyik* (unlidan keyin: *yıq/yik*) affiksli-*alayıq* tarzidagi shakl “Boburnoma”, “Shajarai turk” asarlarida qayd qilindi: *Señä beräyik* (BN). *Özimizniñ ahvalımıznı alayıq* (Sh.turk).

*Alayıq* tarzidagi shakl ham qipchoq guruhidagi turkiy tillarga xos bo‘lib, hozir ham bu tillarning ko‘pchiligida buyruq-istak maylining I shaxs ko‘pligi uchun asosan shu shakl qo‘llanadi. Bu shakl ayrim o‘zbek shevalarida ham qo‘llanadi.

-*aylıq/-äylik* (unlidan keyin: *yılıq/yilik*) affiksli *alayıq* tarzidagi shakl, yozma manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, turkiy tillarda, shu jumladan, o‘zbek tilida keyingi davrlarda paydo bo‘lgan.

Bu shakl o‘zbek tilida XIX asrning oxirlaridan faol qo‘llana boshlagan. Masalan, shu davr shoirlari Muqimiy va Furqat asarlarida buyruq-istak maylining I shaxs ko‘pligi uchun asosan shu shakl qo‘llangan. Masalan: *Ey yaxshılar, keläylik, bir jayga yığ‘ılaylik // oynaylik, kuleylik, aman bolaylik* (Muqimiy). *Agar-che tapmasäk bir yaxshı dilbar // yamandur gar sitamgar, axtaraylik* (Furqat).

Bu shakl oldingi davrlarga oid yodgorliklardan “Shayboniy-noma”da uchraydi: *Har kishi kelsä, këräylik anı* (SHN).

Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek adabiy tilida buyruq-istak maylining I shaxs ko‘pligi uchun shu shakl qabul qilingan. O‘zbek shevalarining ko‘pchiligida ham buyruq-istak maylining I shaxs ko‘pligi uchun shu shakl qo‘llanadi. Bu shakl hozirgi uyg‘ur tili uchun ham xos bo‘lib, og‘zaki *nutqda* -*ayluq /-äyluq* (*barayluq, kërситäyluq*), yozma adabiy tilda -*ayli/ -äyli* (*barayli, kërситäyli*) shaklida qo‘llanadi.

## II shaxs birlik shakllari

155-§. -g'ul/ -gil // -qul/-kil affiksi bilan hosil bo'luvchi shakl eski o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlariga xos bo'lib, buyruq-istak maylining II shaxs birligi ma'nosini ifodalovchi asosiy vositalardan biri sifatida yozuv yodgorliklarda keng iste'molda bo'lgan. Masalan: *Meni bu baladin qutqarg'ul* (Tafsir). *Ey ata, ezunä, bizgä küch qımag'ul* (QR). *Eshitkil emdi ham xush hikayat* (MN). *Yüz achg'ül, көz seni toyg'uncha көrsün* (Lutfiy). *Unutqıl asl ilä govhar hadisin* (Navoiy, FSH). *Nazari lutf ilä көrgil anı* (SHN). *Sözniñ rastını aytg'ül* (Sh.tar). *Kelgäniñde, dilrabä, nägäh äqsham ketmägil* (Muqimiy).

Buyruq-istak mayli II shaxs birligining bu shakli turkiy tillarda qadimdan qo'llanib keladi, qadimgi turkiy yodgorliklarda keng iste'molda bo'lgan. Hozirgi turkiy tillarda esa deyarli qo'llanmaydi.

2. Buyruq-istak mayli II shaxs birlik shaklini yasovchi -g'm / -gin // -qın / -kin affiksi -g'ul / -gil // qul/-kil affiksining fonetik o'zgarigan ko'rinishi bo'lib, nisbatan keyingi davrlarda paydo bo'lgan.

-g'in / -gin // -qın / -kin affiksli shaklning yozuv yodgorliklarida qo'llanishi XIV asrdan boshlab kuzatiladi. Lekin bu shaklning qo'llanishi chegaralangan bo'lib, ayrim yodgorliklarda, asosan, XV asrga oid she'riy asarlarda uchraydi: *Bu kün tañqa tegin may nosh qilg'in // badiha bu g'azalını gosh qilg'in* (MN). *Karam qilg'in yana bir qatla barg'in // көñülni g'am g'ubarıdın chıqarg'in* (DN). *Kelgin ki, firaqın otıda qalmadı hälm // bu otını өchür vasl ilä, ey äbi zulälım* (Lutfiy). *Sen emdi räzi bolg'in sarbasarg'a // taräzudek bāsh ındur tek turarg'a* (Amiriy). *Tuxmi muhabbatıñni jän mazraig'a sachdım bāqqın, ekin pishär-mu tā äftāb көrmäy* (Muqimiy).

Hozir bu shakl o'zbek, uyg'ur, qirg'iz, turkman, qarayim, oltoy va boshqa ayrim turkiy tillarda qo'llanadi.

3. Ma'lumki, hozirgi o'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda buyruq-istak maylining II shaxs birlik ma'nosi fe'l negiziga hech qanday affiks qo'shilmadan ham ifodalanadi, ya'ni bu

shaklan fe'l negiziga to'g'ri keladi (bu shaklni shartli ravishda **affikssiz shakl** deb ataymiz).

Yozuv yodgorliklaridan ma'lum bo'lishicha, buyruq-istak mayli II shaxs birlik ma'nosining affikssiz shakl bilan ifodalanishi turkiy tillarda qadimdan mavjud bo'lgan hodisadir.

Buyruq-istak mayli II shaxs birligining affikssiz shakli eski o'zbek tiliga ham xos bo'lib, yozuv yodgorliklarida bu usuldan keng foydalanilgan. Masalan: *Taqi yuz miñ altun keltür* (QR). *Emdi cherik birlän mundın atlan* (O'N). *Qaraqchu közlärinidin bir qıya bāq* (Atoiy). *Özüñni andāq korgüz* (Navoiy, MQ). *Emdi mardāna bol, ey Tanbal, sen* (SHN). *Meniñ birlän hamrāh bolub bār* (Sh.turk). *Adl qulag'ula eshit hālını* (Muqimiy).

4. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaroning she'rlarida buyruq-istak mayli II shaxs birligining affikssiz shakliga ba'zan *-u (-ü)* orttiriladi. Masalan: *Ey sabā āvāra koñlüm istāyü har yān bāru // vādiyu tāg'-u biyabānlarnı bir-bir axtaru* (Navoiy). *Tāpa kør anı, chu tapsañ, har qayān azim esā // bashım evrül quyun-dek dag'ı aldab qaytaru* (Navoiy). *Ey jafā tig'i, kelib majruh köksümü yaru // qol yalañ äyläb sälib har yān ichimni axtaru* (H.Boyqaro). *Istābän kelsä yana köksüm shikāfın tapmag'ay // vah ki, bir malham qoyub ul chäk köksüm bütkäri* (H.Boyqaro).

Misollardagi *baru*, *axtaru*, *qaytaru*, *yaru*, *bütkeru* fe'llari, buyruq-istak maylining II shaxs birligi vazifasida qo'llangan bo'lib, "bor", "axtar", "qaytar", "yār", "butkar (davola)" yoki "borgin", "axtargin", "qaytargin", "yārgin", "butkargin (dovolagin)" ma'nosini ifodalaydi.

Misollardan ko'rinib turibdiki, buyruq-istak mayli II shaxs birligining affikssiz shakliga *-u (-ü)* unlisining qo'shilib kelishi, birinchidan, (r) undoshi bilan tugagan fe'llar uchun *xos (bar+u, axtar+u, qaytar+u, yar+u, bütkar+u)*, ikkinchidan, bu shakl she'riy asarlardagina uchraydi va faqat misra oxirida keladi. Shuning uchun ham bu shaklni buyruq-istak mayli II shaxs birligining boshqa shakllaridan farq qiluvchi maxsus shakl sifatida qarash to'g'ri bo'lmaydi.

**156-§.** Eski o'zbek tilida buyruq-istak mayli II shaxs birligi-

ning affiksli shakli bilan affikssiz shakli o'rtasida ma'no jihatdan farq yo'q. Shuning uchun yozuv yodgorliklarida ham kesimlari buyruq-istak maylining II shaxs birlik shakli bilan ifodalangan bir murakkab jumlada bir o'rinda affikssiz shakl, boshqa o'rinda affiksli shakl (yoki aksincha) ishlatilavergan. Qiyoslang: *Jānimg'a meniņ, hajr, agar qasd qilib-sen // jānimdın ayırg'ıl vale janāndın ayırma* (Atoiy). *Sen özünjni ehtiyat qıl, ma'lumün bolsa tashlag'ıl* (Navoiy, MQ). *Meniņ og'lumg'a inayat kergüz // kermägil yāt, anı qılg'ıl öz* (SHN). *Qılmag'ıl Munisiņg'a muncha jafā // ātashın āhıdın hazar āylā* (Munis). *Yetärgil aņa arzu ishtiyāqım // mufassal sharh qıl dard-u firaqım* (Furqat).

Buyruq-istak mayli II shaxs birligining affikssiz shakli bilan affiksli shakli ma'noda farq qilmagani holda, yonma-yon qo'llanishi qadimgi turkiy yodgorliklar tili uchun ham xos bo'lgan. Qiyoslang: *Og'lanım, qang'a tap, qatıg'lan* (O'rx.-En.) — *Bökmädım, qatıg'lang'ıl* (O'rx.-En.) *Näkü tär, eshit qılqı silig* (QB) — *Näkü tär, eshitkil, kishi ezgüsi* (QB).

Ma'lumki, hozirgi turkiy tillarning ko'pchiligida buyruq-istak maylining II shaxs birligi uchun faqat affikssiz shakl qo'llanadi. Affiksli shakl esa ba'zi tillardagina saqlangan (-g'in/-gin // qin/-kin shaklida qo'llanadi). Bu hol ham affiksli shaklning affikssiz shakldan ma'noda farq qilmasligi va unga qo'shimcha ma'no ifodalash vazifasi yuklatilmaganini ko'rsatadi. Aks holda affiksli shakl hozirgi turkiy tillarning hammasida yoki ko'pchiligida saqlangan bo'lar edi. Aftidan, turkiy tillar taraqqiyotining qadimgi davrlarida buyruq-istak maylining II shaxs birligi uchun affiksli shakl qo'llangan bo'lib, affikssiz shakl keyinchalik yuzaga kelgan.

### ***II shaxs ko'plik shakllari***

**157-§.** Buyruq-istak maylining II shaxs ko'plik shakllari va ularning qo'llanishi quyidagicha:

1. *-ıy -iy // -uy/-üy* (unlidan keyin: *-ıy*) affiksli *alıy* tarzidagi shakl buyruq-istak maylining II shaxs ko'pligi ma'nosini ifodalovchi

asosiy vosita sifatida eski o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida iste'molda bo'lgan va yozuv yodgorliklarida keng qo'llangan. Masalan: *Ularni menä keltürün* (QR). *Sizä täb keldi, Xorazmiyni asrañ* (MN). *Ey pari ruxsarlar, bizgä nigah äyläb ötiñ* (Lutfiy). *Buyurdi kim, ravanraq keltürünñ ät* (Navoiy, FSH). *özgä qılmañ bu degän sözümnü* (SHN). *Bu kün turuñ, sabah ketiñ* (Sh.turk). *Salamınıznı tark etmäy turıñ* (Muqimiy).

Bu shakl yozuv yodgorliklarda II shaxs birligining hurmati ma'nosida ham qo'llangan: *Ey qarındashım Yaxuda, salāmat qālıñ* (QR). *Tirik boluñ, shāha, davran barıncha* (MN). *Chu qılduq mulkuñuzga mehmanlıq // qılıñ siz ham tariqi mezbanlıq* (Navoiy FSH). *Meni qışlañ deb, Muhammad Burunduq beg va Zunnun beg bajid sa'y qılurlar edi, vale ...* (BN). *Xāng'a aytdi kim, ajab g'āfil yātib-siz, turuñ ātlanmaq keräk* (Sh.turk).

2. *-ıyız/-ıyız // -uyuz /-üyüz // -uyız -üyiz* (unlidan keyin: *-ıyız/-ıyız*) affiksli *alınız* tarzidagi shakl, yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, eski o'zbek tilida *alıñ* tarzidagi shaklga nisbatan kamroq qo'llangan. Misollar: *Hech narsa bulmishuñız bar-mu? Aytu beriniz* (QR). *Täg' qoparıñız yasag'anda māzār* (Lutfiy). *Ahbāb, yigitlikni g'animat tutuñuz // özni qarılıq mehnatıdın qorqutuñuz* (Navoiy, MQ). *Xānlarg'a dedim kim, ... yana bir nechä yigit qoshuñız* (BN). *Dedim: dostlarım, g'am yemäñiz // yaxshılıq sözıdın özgä demäñiz* (SHN). *Dostlar, mensiz dami āhangi ishrat qılmañız* (Munis).

*Alıñız* tarzidagi shakl ham ayrim yodgorliklarda II shaxs birligining hurmati ma'nosida ham qo'llangan: *Ey ata, ... yüzümni tubän tuprāqqa kemshünjüz* (QR). *Qonaq-men teb, basınmañız bızni // yarag'ıncha qonaqlahn ma sizni* (XSH). *Bir aql begi bar erdi, ul aytdi: pādshāh, ... bu kishigä ul chaqlı nimärsä berıñız kim, qushlı va nokarlı bolub barg'ay tedi* (Sh.tar.).

3. *-ıñlar/-ıñlar // -uñlar/-uñlar* (unlidan keyin: *-ñlar -ñlar*) affiksli *alıñlar* tarzidagi shakl *alıñ*, *alınız* tarzidagi shakllarga nisbatan kam qo'llangan: *Zınhar Hamzag'a qatılmañlar* (Tafsir).

*Bitiqlar nāma teyü qıldı tadbir (XSH). Nabi amrını tutuqlar qāyim (SHN). Gʻanim keldi, qopuqlar (BN). Yürüqlar, ... inʻām berür-men (Sh.turk).*

4. *-iyizlar/-iyizlar* (unlidan keyin: *-iyizlar/-iyizlar*) affiksli *alinyizlar* tarzidagi shakl eski oʻzbek tilida kam qoʻllangan boʻlib, ayrim yodgorliklardagina uchraydi: *Ey qullarim, ishkā evāklik qilmaniyizlar* (Tafsir). *Taqi bir-birinizgā arqa chayrub olturmaniyizlar* (NF). *Atoiy haqin anda istāniyizlar* (Atoiy). *Bir yolgʻa bariniyizlar kim, ...* (BN). *Faryad qilib aytib turur kim, meni etkāziyizlar teb* (Sh.tar.).

Maʼlumki, *alın* tarzidagi shakl turkiy tillarda buyruq-istak mayli II shaxs koʻpligining dastlabki shakli boʻlib, boshqalari shu shaklga *-z* yoki *-lar/-lar* koʻplik affiksini orttirish yoʻli bilan hosil boʻlgan murakkab shakllarni tashkil etadi: *alinyiz* (<*alın*+*ı*+*z*), *alınlar* (<*alın*+*lar*), *alinyizlar* (<*alın*+*ı*+*z*+*lar*). Buni yozuv yodgorliklar materiallari ham tasdiqlaydi. Masalan, Oʻrxun-Enasoy yodgorliklarida buyruq-istak mayli II shaxs koʻpligi uchun faqat *alın* tarzidagi shakl qoʻllangan boʻlib, qadimgi turkiy tili yodgorliklari va “Qutadgʻu bilig”da *alın* tarzidagi shakl bilan bir qatorda *alınlar* tarzidagi shakl ham amalda boʻlgan. Mahmud Koshgʻariyning koʻrsatishicha, XI asrda buyruq-istak mayli II shaxs koʻpligining *alın*, *alinyiz*, *alınlar* tarzidagi shakllari isteʼmolda boʻlib, bu shakllarning qoʻllanishi boʻyicha turkiy tillar oʻrtasida maʼlum farqlar boʻlgan, yaʼni *alın* tarzidagi shakl hamma turklar tili uchun umumiy boʻlib, *alinyiz* va *alınlar* tarzidagi shakllar dialektal xususiyatga ega boʻlgan: *alinyiz* tarzidagi shakl oʻgʻuz va qipchoqlar tili uchun, *alınlar* tarzidagi shakl boshqa turklar tili uchun xos boʻlgan (MK, II tom, 50–51-betlar).

Eski oʻzbek tilida ham, yuqorida koʻrganimizdek, buyruq-istak maylining II shaxs koʻpligi uchun asosan *alın* tarzidagi shakl qoʻllangan boʻlib, boshqa shakllarning qoʻllanishi ancha chegaralangan yoki ayrim manbalardagina uchraydi.



### III shaxs shakllari

158-§. Eski o‘zbek tilida buyruq-istak maylining III shaxs birligi uchun **-sun/-sün** affiksi bilan yasaluvchi shakl qo‘llangan (*alsun, kelsün* kabi), ko‘plik shakli birlik shakliga **-lar/-lär** ko‘plik affiksini orttirish yo‘li bilan hosil bo‘ladi (*alsunlar, kelsünlär* kabi). Bu affiksning hozirgi o‘zbek adabiy tili va ko‘pchilik o‘zbek shevalaridagi kabi **-sin (-sın /-sin)** ko‘rinishida qo‘llanishi XIX asrning II yarmidan boshlab kuzatiladi. Masalan, Muqimiy, Furqat asarlarida **-sun/-sün** bilan *bir qatorda -sın/-sin* shakli ham qo‘llangan. Buyruq-istak mayli affiksining **-sın/-sin** shaklida qo‘llanishi tarixan o‘g‘uz va qipchoq guruhidagi turkiy tillarga xos bo‘lib, bu tillarga oid yozuv yodgorliklarida asosan shu shakl qo‘llangan.

O‘rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida buyruq-istak maylining III shaxs affiksi jarangli (z) undoshi bilan boshlanuvchi **-zun/-zün** shaklida qo‘llangan (*barzun, kälzün* kabi). Shu bilan birga, O‘rxun-Enasoy yodgorliklarida bu affiks (n) undoshisiz **-zu /-zü** shaklida ham qo‘llangan (*barzu, kälzü* kabi). Bu affiksning qisqargan **-su/-sü** shaklida qo‘llanishi “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq”, “Xisrav va Shirin” kabi XI—XIV asrlarga oid manbalarda ham uchraydi (*barsu, kälzü* kabi). “Qutadg‘u bilig”da bu affiks **-sum/-süni** shaklida ham qo‘llangan. Demak, “Qutadg‘u bilig”da buyruq-istak mayli affiksi uch xil ko‘rinishda qo‘llangan (*barsum // barsun // barsu, kelsüni // kelsün // kelsü* kabi). Buyruq-istak mayli affiksining **-su/-sü** shaklida qo‘llanishi hozir o‘zbek tilining Mankent va Qorabuloq shevalarida saqlangan.

159-§. Navoiy asarlarida buyruq-istak mayli ma‘nosi fe‘l negiziga **-dik/-tik** qo‘shilishi bilan ham ifodalangan, ya‘ni *barsun, kelsün, qachsün, kechsün* ma‘nosida *bardik, keldik, qachtik, kechtik* shakli qo‘llangan. Masalan: *Va har kishigä bu babda taraddud bolsa, ... ul kitabni aldik va bu mahallini tapib nazar saldik va bildik ki, ulcha men ta‘rifida tahrir qilib-men, taqdir qilibmen* (Navoiy, ML).

*Emdi öz halıdadur, berdik javāb,  
Ulcha biz arja avval qılduq xıtab.* (Navoiy, LT).

*Cekibtür sa'y etib bisyār-bisyār,  
Yuvdik bāshıtın ayāq zinhār-zinhār.  
Yuvg'andın soñ suyub ayvandın aldik,  
Haririn suvg'a yāhud otg'a saldik.* (Navoiy, FSH).

*Qān kibi kərgān shāhi azadamı,  
Kordik amñ gavhari shahzādami.* (Navoiy, HA).

*Munı bildik ki simiyādur bu,  
His qashıda g'alatnamadur bu.* (Navoiy, SS).

*Ul dag'ı ichtik-u xushhāl oldik,  
G'am-u mehnat arja pāmāl oldik.* (Navoiy, FK).

*Navāiy sevdi bir lolini, kezdik rub'i maskunda,  
Agar arlat, agar barlas, agar tarxan, agar sulduz.*  
(Navoiy, G'S)

*Telba kəñlümni, Navāiy, zabt äyläy älmadin,  
Emdi chek andın elik har sarı barsa-bardik.* (Navoiy, MSh).

Keltirilgan misollarda *-dik/-tik* shaklidagi *aldik* fe'li – “olsin”, *nazar saldik* – “nazar solsin”, *bildik* – “bilsin”, *berdik javab* – “javob bersin”, *yuvdik* – “yuvsin”, *saldik* – “solsin”, *kordik* – “ko'rsin”, *ichtik* – “ichsin”, *xushhal oldik* – “xushhol bo'ldik”, *pamal oldik* – “poymol bo'lsin”, *kezdik* – “kezsın”, *barsa-bardik* – “borsa-borsin” ma'nosida qo'llangan.

*-dik/-tik* affiksli buyruq-istak maylining ko'plik shakli odatdagidek *-lar* affiksi yordamida hosil bo'ladi:

*Vatang'a yanib xalq, āsuda dil,  
Barı bizdin oldiklar ammā bihil.*

(Navoiy, SI)

*Jununimdin pariroyum'ga sadda gar asar qilsa,  
Bitidiklar kezi ko'nglum qushidin toksa qan ta'viz.*

(Navoiy. Badoyul vasat)

-dik/-tik affiksli shakl Xo'jandiyning "Latofatnoma" asarida ham uchraydi:

*Sachin belga yetar bilinsa sach-tek,  
Sachin chin mushk-u anbar sachsa-sachtik.*

Buyruq-istak maylining bu shakli hozir Janubiy Tojikistondagi o'zbek qorluqlari shevasida ham qo'llanadi. Lekin bu shevada, shu shevani maxsus tekshirgan T.Yo'ldoshevning ko'rsatishicha, ushbu affiks (a) unlisi bilan -dag, -tag, -lag tarzida talaffuz qilinadi: *i:shladag* (ishlasin), *bi:shirtag* (pishirsin), *kellag* (kelsin).

### Shart mayli

**160-§.** Shart mayli shaklining hosil bo'lishida, agar uning fonetik shakllarini hisobga olmasak, eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida, umuman turkiy tillar o'rtasida deyarli farq yo'q.

Shart mayli affiksi eski o'zbek tilida -sa/-sä shaklida qo'llangan: *barsa*, *kelsä* kabi. Bu affiks, yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, turkiy tillarda dastlab -sar/-sär shaklida qo'llangan bo'lib (*barsar*, *kelsär*), quyidagicha ikki affiksning birikuvidan hosil bo'lgan: 1) -sa/sä istak ma'nosini ifodalovchi affiks: *barsadi* (borishni istadi), *ichsadi* (ichishni istadi), *etsadi* (go'sht yeyishni istadi), *achig'sadi* (achchiq narsani tusadi) kabi; 2) -r — hozirgi-kelasi zamon sifatdoshini yasovchi affiks. Keyinchalik -sar/-sär tarkibidan hozirgi-kelasi zamon sifatdosh ko'rsatkichi -r tushib, -sa/-sä shakliga aylangan: *bar+sar>bar+sa*, *kel+sär>kel+sä*.

Shart mayli affiksi O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida -sar/-sär shaklida ishlatilgan bo'lib, XI asrdan boshlab -sa/-sä shaklida qo'llangan. Shu bilan birga, XI—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda -sar/-sär shaklida qo'llanishi ham

uchraydi. Masalan: *Ul kün ularg'a bir yashar buzag'u bog'üzlasar, emgakläri artmaz erdi (QR). Anlar chiqar bolsar, Chin-u Machindin chiqqaylar (QR).*

*Arig'sız, jafähg', qılınchı otun,  
Qalı aydı ersär, qıyar sözini (QB).*

Shart maylining *-sar/-sär* affiksli shakliga shaxs-son affikslarining to'la shakllari qo'shilgan:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	barsar-men, kelsär-men	barsar-biz, kelsär-biz
II shaxs	barsar-sen, kelsär-sen	barsar-siz, kelsär-siz
III shaxs	barsar, kelsär	barsalar, kelsälär

*-sa/-sä* affiksli shaklning shaxs-son affikslari bilan tuslanishi quyidagicha ikki ko'rinishga ega:

a) shaxs-son affikslarining to'la shakllari qo'shiladi:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	barsa-men, kelsä-men	barsa-miz, kelsä-miz
II shaxs	barsa-sen, kelsä-sen	barsa-siz, kelsä-siz
III shaxs	barsa, kelsä	barsalar, kelsälär

b) shaxs-son affikslarining qisqargan shakllari qo'shiladi:

Shaxs	Birlik	Ko'plik
I shaxs	barsam, kelsäm	barsaq, kelsäq
II shaxs	barsañ, kelsäj	barsañız, kelsäjız
III shaxs	barsa, kelsä	barsalar, kelsälär

Ko‘rinadiki, *-sa/-sä* affiksli shart mayli shaklining shaxs-son affikslari bilan tuslanishida birinchi va ikkinchi paradigma o‘rtasidagi farq I va II shaxs shakllariga taalluqli bo‘lib, III shaxs shakllari har ikkala holatda ham bir xil ko‘rinishga ega, ya‘ni har ikkala paradigmadagi ham III shaxs birligi *barsa, kelsä* shaklida, III shaxs ko‘pligi *barsalar, kelsälär* shaklida qo‘llanadi.

Yozma manbalardan ma‘lum bo‘lishicha, dastlabki davrlarda *-sa/-sä* affiksli shart fe‘lining tuslanishida birinchi paradigma shakllari keng qo‘llangan. Keyinchalik ikkinchi paradigma shakllari faollashgach, birinchi paradigma shakllarining qo‘llanishi chegaralana borgan. Masalan, “Qutadg‘u bilig”da I shaxs ko‘pligi uchun faqat birinchi paradigma shakli, ya‘ni *barsa-miz, kelsä-miz* tarzidagi shakl qo‘llangan, I va II shaxslarning birligi uchun ikkala paradigma shakllari, ya‘ni *barsamen // barsam, kelsä-men // kelsäm* tarzidagi shakllar yonma-yon qo‘llanavergan. “Tafsir”da I shaxs ko‘pligi uchun asosan *barsa-miz* tarzidagi birinchi paradigma shakli, ba‘zan *barsaq* tarzidagi ikkinchi paradigma shakli amalda bo‘lib, I va II shaxslarning birligi hamda II shaxs ko‘pligi uchun ikkala paradigma shakllari yonma-yon qo‘llana bergan: *barsa-men // barsam, barsa-sen // barsañ, barsa-siz (barsa-sizlär) // barsañiz*. Shu bilan birga, “Tafsir”da I shaxs ko‘pligi uchun *barsavuz* tarzidagi shakl ham qo‘llangan: *Tiläsävüz, haq yolda turg‘ayvuz*. Ma‘lumki, bu shakl hozir o‘zbek tilining Toshkent va Qarshi shevalarida turli ko‘rinishlarda qo‘llanadi.

XIV asr yodgorliklarida asosan ikkinchi paradigma shakllari, ya‘ni shaxs-son affikslarining qisqargan shakllari bilan hosil bo‘luvchi *barsam, barsañ, barsaq, barsañiz (barsañizlar)* tarzidagi shakllar qo‘llangan bo‘lib, birinchi paradigma shakllarining qo‘llanishi ayrim asarlarda uchraydi.

O‘zbek tilida, yozuv yodgorliklaridan ma‘lum bo‘lishicha, XV asrdan boshlab *barsam, barsañ, barsaq, barsañiz (barsañizlar)* tarzidagi ikkinchi paradigma shakllari qo‘llangan. XX asr boshlaridagi matbuot tilida hamda 1920—1930-yillardagi ba‘zi badiiy adabiyotlarda I shaxs ko‘pligi uchun *barduq* tarzidagi shakl bilan

bir qatorda *barsa-miz* turidagi shakl ham qoʻllangan. Bu hol adabiy tilda sheva xususiyatlarining aks etishidir.

Eski oʻzbek tilida II shaxs koʻpligi uchun asosan *barsañız* tarzidagi shakl qoʻllangan boʻlib, *barsañızlar* tarzidagi shakl XV asr va undan keyingi davrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi. Masalan: *Ki dāim bir navāgʻa yetkāy erdim // agar ushshaq qadri-ni bilsañızlār* (Atoiy). *Agar mundaq qilmasañızlar, qay yol bilān kelib-siz, oshal yol bilān barñ* (BN). *Ne bolgʻay, kadxuda bolsañızlar* (Sh.tar.).

II shaxs koʻpligining *barsañız* tarzidagi shakli II shaxs birligining hurmati maʼnosida ham qoʻllangan: *Ey Ruhullah, siz paygʻambarlıq birlā nechük faxr qilsañız, bizlār taqı ezgu ogʻullar duası birlā fahr qılır-miz* (QR). *Ijāzat bersāniz tan yaqtusi-tek // jahāngʻa husnuñız javın yayayın* (MN). *Qasim beg yana arz qıldı kim, yana bar neersā agar Tanbalgʻa yıbarsañız, ne bolgʻay?* (BN). *Ātam ornugʻa emdi ātam-siz, siz ne ishni oxshatsamz, men amı qılayın* (Sh.tar.).

*Barsañız* tarzidagi II shaxs koʻplik shaklidagi II shaxs birligining hurmati maʼnosida qoʻllanishi hozirgi oʻzbek adabiy tili uchun ham xos. Maʼlumki, shahar turidagi oʻzbek shevalarida II shaxs koʻplik shakli asosan II shaxs birligining hurmati maʼnosida qoʻllanib, II shaxs koʻplik maʼnosi uchun *borsayla(r)*, *borsalaring* tarzidagi shakllar qoʻllanadi.

**161-§.** *-sa/-sä affiksli shart mayli shaklining qoʻllanishi va maʼnolari.* Bu shakl odatda “hozirgi-kelasi zamon shart feʼli” yoki “shart maylining hozirgi-kelasi zamon shakli” deb ataladi. Eski oʻzbek tilida ham bu shakl koʻpincha ergash gapning, baʼzan mustaqil sodda gapning kesimi vazifasida qoʻllanib, turli maʼnolarni ifodalashga xizmat qilgan. Uning aniq maʼnosi jumla mazmunidan anglashiladi:

1. Shart ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi ish-harakatning bajarilishi uchun zarur boʻlgan shartni koʻrsatadi: *Gul yaxshı āchılmas, kechālār yāgʻmasa yāmgʻur* (Atoiy). *Xān agʻağ birlā yarashsağ filhal // bat Tanbalnı qılır-biz pāmāl* (SHN). *Mundaq urushsaq, bizdin kishi qalmas* (Sh.turk).

2. Payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapning kesimi orqali ifodalangan ish-harakatning bajarilish vaqtini ko'rsatadi: *Muni ne qilur-sen teb sorsalar, kemä etär-men, ... teb aytur erdi* (QR). *Sözläsä, ag'zıdın shakar körünür // sadaf la'lıdın gavhar körünür* (Atoiy). *Mevat viläyatıg'a yetsä, bu täg'lar ulug'räq bolur* (BN). *Ul uyga kirib bärsa, körär kim, mullalarnıñ äq sa-qallıqlarındın bir kishi olturub turur* (Sh.turk).

3. Istak ma'nosini ifodalaydi. Shart mayli shakli bu ma'noda asosan mustaqil sodda gap tarkibida qo'llanadi: *Meniñ tiläğim ul turur kim, ag'alarım birlä barsam* (QR). *Bare, bir tünlä xush qarshuñda bolsam // ush andın subh sham'ı yañlıg' olsam* (XSH). *Men bärıb kichik xän dadamñı körsäm va ham bäs bolub, keltürüb körgüztürsäm* (BN). *Bahär ayyämıda gul gasht etärgä bir chaman bolsa // qılg'ı sharhi häl, ahli muhabbat ikki tan bolsa* (Furqat).

4. Iltimos, maslahat, ish-harakatni bajarishga undash, chaqirish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Shart fe'li bunday ma'nolarda asosan II shaxs shaklida qo'llanadi: *Bu kündin soñ ularg'a qahr qılmasañ, öltürmäseñ tedi* (QR). *Tilär-men kim biziñ til birlä payda // kitabi äyläsäñ bu qış qatımda* (MN). *Köñlidäğini arz qılıb der kim, Mirza shart qılsalar kim, meniñ elikimni qaviy qılıb, sözümdin tajavvuz qılmasalar* (BN). *Har ne kim ul desä, andag' qılsağ // gul kibi suhbatıdın ächilsaq* (SHN).

5. Shart mayli shakli to'siqsiz ergash gapning kesimi vazifasida ham keladi, ya'ni bu shakl ifodalagan ish-harakat bosh gapning kesimi orqali ifodalangan ish-harakatning yuzaga chiqishiga monelik qilmaydi: *Malik Sarag'a nechä sözläsä, javab aymadı* (QR). *Yardıñ agar kelsä qılıch bashıma // zarra fıraq etmägä-men ixtiyar* (Lutfiy). *Kim ul guhardın alsa xalq har dam // yüz ılda bolmag'ay mindın biri kam* (Navoiy, FSH). *Agar on kün ögrätib oltursa, tili ögrülmäs* (Sh.turk.)

6. Shart mayli shakliga *keräk* so'zi qo'shilishi bilan hosil bo'luvchi *-sa+keräk* birikmasi mustaqil sodda gapning kesimi vazifasida keladi. Bu shakl eski o'zbek tilida asosan fe'l o'zgidan anglashilgan ish-harakatni bajarish zarurligi, kerakligi

ma'nosida qo'llangan: *Ne Xusrav kim, bu kün ham Xusravi Chin // keräk oğräsä pädshähliqni sendin* (XSH). *Kørsäm keräk äy-u kün bulutsız // sächni ketäriş yanaqıñızdın* (Lutfiy). *Pädishäh bolsa keräk chopan-dek // mardiräh bolsa keräk chopan-dek* (SHN).

Keltirilgan misollarda *keräk oğräsä* birikmasi “o'rganishi kerak”, *körsem keräk* — “ko'rishim kerak”, *bolsa keräk* — “bo'lishi kerak” ma'nosida qo'llangan.

Ma'lumki, *-sa+keräk* shakli hozirgi o'zbek tilida faraz, taxmin, noaniqlik kabi ma'nolarda qo'llanadi. *-sa+keräk* shaklining bunday ma'nolarda qo'llanishi eski o'zbek tilida keyingi davrlarda yuzaga kelgan bo'lib, bunda ham ayrim manbalardagina uchraydi. Quyidagi misolda bu shakl shu ma'noda qo'llangan: *Har miñ yilda qırq arqa ötsä keräk* (Sh.tar.).

7. Shart mayli shakliga *-chi/-chi* so'roq yuklamasi qo'shilib, so'ranish, iltimos kabi ma'nolar ifodalanadi. Yozuv yodgorliklarida shart mayli shaklining bunday qo'llanishi XIX asrdan boshlab kuzatiladi. Masalan: *Køjül qän bag'ladi mänandı bulbul // aya, ey g'uncha lab, qısañchi xanda* (Furqat). *Közlärgä jahän boldı tang-u tär, kesäñchi // qılmay bu bala muncha meni zär, kesäñ-chi* (Muqimiy).

Ma'lumki, shart mayli shaklining *-chi* so'roq yuklamasi bilan qo'llanishi hozirgi o'zbek tilida faollashgan bo'lib, so'ranish, iltimos, buyruq, maslahat kabi ma'nolarda qo'llanadi.

### ***Shart maylining murakkab shakllari***

**162-§.** Shart maylining murakkab shakllari *er-(e-)* to'liqsiz fe'li yoki *bol-* ko'makchi fe'li yordamida hosil bo'ladi. Bu shakllar shart maylining zamon ma'nolarini to'ldiradi va shart ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan turli qo'shimcha (modal) ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

Murakkab shaklni hosil qilishda shart mayli affiksi ikkinchi qismga, ya'ni *er-* yoki *bol-* fe'lga qo'shiladi (*ersä, bolsa*), birinchi qism (asosiy fe'l) esa aniqlik maylining u yoki bu zamon shaklida



keladi: *alg'an ersä, alg'an bolsa, alur ersä, alur bolsa* kabi. Shart maylining murakkab shakli tarkibida *ersä* to'liqsiz fe'li *bolsa* fe'li ma'nosida keladi. Masalan, *alg'an ersä* shakli hozirgi o'zbek tilidagi "olgan bo'lsa" ma'nosini ifodalaydi. Shart mayli murakkab shaklining qanday ma'no anglatishi birikma tarkibidagi asosiy fe'ning qanday shaklda bo'lishiga bog'liq. Masalan, *alg'an ersä, alg'an bolsa* tarzidagi shakllar shart maylining o'tgan zamon ma'nosini, *alur ersä, alur bolsa* tarzidagi shakllar shart maylining hozirgi-kelasi zamon (yoki kelasi zamon) ma'nosini ifodalaydi.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida shart maylining *bo'lsa* ko'makchi fe'li yordamida hosil bo'luvchi murakkab shakllari qo'llanadi, *ersä* to'liqsiz fe'li yordamida hosil bo'luvchi shakllar esa iste'moldan chiqqan.

*Alsa erdi (alsa edi)* tarzidagi murakkab shaklda shart mayli affiksi asosiy fe'lga qo'shilgan bo'lib (*alsa*), to'liqsiz fe'l aniqlik maylining o'tgan zamon shaklida keladi (*erdi* yoki *edi*). Bu shakl ma'nosi va qo'llanishiga ko'ra alohida guruhni tashkil etadi (qarang: 169-§).

Eski o'zbek tilida shart maylining quyidagi murakkab shakllari iste'molda bo'lgan:

**163-§.** *-di+ersä* yordamida hosil bo'luvchi *aldı ersä* tarzidagi murakkab shakl. Shaxs-son affikslari asosiy fe'lga qo'shiladi: *äldim ersä, äldımız ersä // älduq ersä, äldınq ersä, äldınız ersä, äldılar ersä*.

XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida *-di+ersä* tarkibidagi *ersä* to'liqsiz fe'li qisqarishga uchrab, bu shakl *-disä* (*-disä*) ko'rinishida ham qo'llangan: *Yaqın keldimsä, küyürdün tan-u jän* (XSH). *Ne kim farmanladınsa, sözün aldım* (XSH). *Agar ummi boldısa, kitäb ibardım* (Tafsir). *Kim qıldısa mushahäda dunya g'aräyibin, ...* (Saroyi).

*-di+ersä* shakli asosan quyidagi ma'nolarda qo'llangan:

1. Payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi ish-harakatning bajarilish vaqtini ko'rsatadi: *Darya qırag'ing'a tegdılar ersä, Musa yalavachnıñ qarnı achtı* (Tafsir). *Kün'andın çıqtımız ersä, tevälärimiz ag'ızların bag'laduq* (QR). *Sababın soruldı*

*ersä, äbädäng'ina javab aytmadi* (Navoiy, MN). *Og'lan bir yashig'a yetti ersä, Qara xän elgä savun saldı tağı ulug' toy qıldı* (Sh.tar.).

2. Shart ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi ish-harakatning bajarilishi uchun zarur bo'lgan shartni ko'rsatadi: *Agar taqsir tüşti ersä, kechür-sen* (XSH). *Xiräd gar boldı ersä chära payvand // natija chäradı tapqay xiradmand* (Navoiy, FSH). *Nägixän keldiñ ersä bärmäq üçün yänimdin // ne üçün kergüzädürsän, degil, ey umr, shitäb* (Munis).

3. *-dı+ersä* shakli ayrim manbalarda to'siqsiz ergash gapning kesimi vazifasida ham qo'llangan: *Fir'avn nechä jahl qıldı, tizginni tutti ersä, yig'madi* (Tafsir). *Nechä kim tapmadımsa yol qatıñda // kamar bag'landım emdi xidmatıñda* (XSH).

*-dı+ersä* shakli qadimgi turkiy tiliga oid yodgorliklarda va “Qutadg'u bilig”, “Devonu lug'atit-turk”, “Hibatul haqoyiq” asarlarida ham qo'llangan, XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham faol iste'molda bo'lib, keyingi davrlarda uning qo'llanishi ancha chegaralangan. Hozir bu shakl turk, gagauz, tatar, boshqird, qarachay-balqar, qaraim va boshqa ayrim turkiy tillarda qo'llanadi.

**164-§. -r+ersä (-mas+ersä)** yordamida hosil bo'luvchi *alur ersä (almas ersä)* tarzidagi murakkab shakl. Shaxs-son affikslari to'liqsiz fe'lga qo'shiladi: *alur ersäm (almas ersäm), alur ersäk, alur ersänj, alur ersänjiz, alur ersälär*.

Bu shakl asosan shart ergash gapning kesimi vazifasida qo'llangan, ya'ni bu shakl ifodalangan ish-harakat bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga chiqishi (yoki yuzaga chiqmasligi) uchun zarur bo'lgan shartni ko'rsatadi: *Shirin sözün meñä kim aytur ersä // tanımdın sürgä-men öz jänüm ersä* (XSH). *Gar jän tilär ersänj, yetä kergil burun andın* (Lutfiy). *Naväiy, faniy ol, istär ersänj kām // nechük kim boldılar Farhäd-u Bahräm* (Navoiy, FSH). *Gar tanuq istär esänj bu sözgä // Saripul tegräsüdä chiq tüzgä* (SHN). *Nāmanğ'a tilär ersänj gar afshän // qıl yädi ruhum bilä zar afshän* (Munis).

*-r+ersä (-mas+ersä)* shakli ayrim manbalarda to'siqsiz yoki payt ergash gapning kesimi vazifasida ham qo'llangan. Masalan:

1. *Nechä biz köni sözlär ersäk, bizgä inanmag'ay-siz* (QR).

2. *Sidq namazın qılır ersänj adä, Yusufi sadiqqa qıl iqtida* (Haydar).

Misollarning birinchisida *sözlär ersäk* fe'li to'siqsiz ergash gapning kesimi vazifasida kelgan bo'lib, "so'zlasak ham" ma'nosini, ikkinchisida *qılır ersänj adä* — payt ergash gapning kesimi vazifasida kelgan bo'lib, "ado qilganingda" ma'nosini ifodalaydi.

*-r+ersä (-mas+ersä)* shakli O'rxun-Yenisey va qadimgi turk tili yodgorliklarida ham qo'llangan, "Qutadg'u bilig"da faol iste'molda bo'lgan. Hozir esa turk, gagauz, qarachay-balqar kabi ayrim turkiy tillarda qo'llanadi.

**165-§. -mish+ersä, -g'an+ersä, -b+ersä** yordamida hosil bo'luvchi *almish ersä, alg'an ersä, alib ersä* tarzidagi murakkab shakllar ma'nosiga ko'ra bir guruhni tashkil etadi, ya'ni bularning uchalasi ham shart ergash gapning kesimi vazifasida kelib, hozirgi o'zbek tilidagi *borgan bo'lsa* tarzidagi murakkab shakl ma'nosini ifodalaydi.

Bu shakllar hozirgi o'zbek tilida ishlatilmaydi. Eski o'zbek tilida ham kam qo'llangan bo'lib, ayrim yodgorliklardagina uchraydi: *Agar yanı din chıqarmış ersä, farmanlag'ay-men* (Tafsir). *Kel, meniñ bag'rimni көr, yüz pära har bir dag'ıda // көrmish ersänj bäg'arä gar lälai sadbarg kam* (Munis). *Yüqlägän ersä g'alla, yürsin ämän ki ma'zur* (Muqimiy). *Men nechük көrgüm bü dünyada dami xürsandchilik // dard-u g'am bolg'cn esä rozi azalda qısmatım* (Furqat). *Ätam chamat atub ersä, menüñ tapum erür-mu?* (O'N). *İtläriñ kelib ersä sorg'ali hazin hälim //yoq edi bizäatda juz dili kabäb hijil* (Furqat).

Bulardan *-mish+ersä* yordamida hosil bo'luvchi shakl "Qutadg'u bilig" va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida ham qo'llangan. Bu shakllarning qo'llanishi hozirgi turkiy tillarda ham chegaralangan: *-mish+ersä* shakli turk tilida, *-g'an+ersä* shakli gagauz tilida, *-ba+ersä* shakli qarachay-balqar tilida qo'llanadi.

**166-§. -r+bolsa (-mas+bolsa)** yordamida hosil bo'luvchi *alur*

**bolsa (almas bolsa)** tarzidagi murakkab shakl. Shaxs-son affiks-lari ko'makchi fe'lga qo'shiladi: *alur bolsam (almas bolsam), alur bolsaq, alur bolsaqiz, alur bolsalar.*

Bu shakl quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:

1. Shart ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi ish-harakatning bajarilishi uchun zarur bo'lgan shartni ko'rsatadi: *Kim Muhammadni taqi Abu Bakrni keltürür bolsa, yüz tevä sevünch beräliñ* (NF). *Barur bolsañ, senä hamrahliq äyläy* (Navoiy FSH). *Shaybaniy xän anı ätur bolsa, og'li Shaybaniy xäng'a Samarqandni bergäy* (BN). *Ötkärür bolsañ kəñülni bepak // tañla rasvä bolur-sen adami xāk* (Huvaydo).

2. Payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi ish-harakatning yuzaga chiqish vaqtini ko'rsatadi: *Qachan kimärsä Davudg'a kelür bolsa, dastur qulub kirür* (QR). *Ul qilur bolsa qur'ani äg'öz // chiqmas ul xayldın aslä ävöz* (SHN). *Atlanur bolsañ jamalıñni achib maydan arä // äftäb äylär kəzini halqai chashmi riqab* (Munis).

*-r+bolsa (-mas+bolsa)* shakli eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan. Hozir bu shakl xakas tili uchun xarakterli bo'lib, tatar, boshqird, qirg'iz va boshqa ayrim tillarda ham qo'llanadi.

**167-§. -adurg'an+bolsa** yordamida hosil bo'luvchi **aladurg'an bolsa** tarzidagi murakkab shakl eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, ayrim yodgorliklarda uchraydi. Masalan: *Kəñülgä yüz g'am kelädurg'an bolsa, anıñ sözidin qaytg'ay* (Navoiy, MQ). *Yana ba'zi javāhir-u jarāvını ham yashurub chiqadurg'an bolsa, zabt qilg'aylar* (BN).

Bu shakl hozir tatar va boshqa ayrim turkiy tillarda shu ko'rinishda qo'llanadi. Hozirgi o'zbek tilidagi *-adigan+bo'lsa* (bo-radigan bo'lsa) shakli shu shaklning fonetik o'zgargan ko'rinishidir, ya'ni keltirilgan misollardagi *keledurg'an bolsa, yashurub chiqadurg'an bolsa* fe'llari hozirgi o'zbek tilidagi "keladigan bo'lsa", "yashirib chiqadigan bo'lsa" fe'llariga mos keladi.

**168-§. -mush+bolsa, -g'an+bolsa** yordamida hosil bo'luvchi **almush bolsa, alg'an bolsa** tarzidagi murakkab shakllar ma'no va

vazifasiga ko‘ra bir guruhni tashkil etadi, ya’ni bular shart maylining o‘tgan zamon shakli vazifasini bajaradi. Bu shakllar eski o‘zbek tili taraqqiyotining ma’lum davrlarida yoki ayrim yodgorliklarda III shaxsda qo‘llangan.

1. *-mish+bolsa* shakli asosan XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklarda qo‘llangan bo‘lib, keyingi davrlarga oid manbalarning ayrimlarida uchraydi: *Ul bori menim Yusufumni ko‘nlek uchun elturmish bolsa, ko‘nlekni nechuk alib ketmemish* (QR). *Taqi ne ish buyurmish bolsa, ul ish taqi haq turur* (NF). *Ikinch bilgä ayitti erkli taqri // yaratib ko‘kdä to‘rtmish bolsa qarshı* (XSH). *Biräv kim, mutanabbix bolmamish bolsa, bir nechä iza-vu azäb bilä ham bolmag‘usıdur* (Navoiy, Msh).

2. *-g‘an+bolsa* shakli XV asr va undan keyingi davrlarga oid ayrim manbalarda qo‘llangan: *Arzadasht qilib, ... yıbarılıb erdi, yetken bolsa, arzg‘a yetkürmish bolg‘ay* (Navoiy, Msh). *Men ne yol birlän pädshähliq qilib yürigän bolsam, sen ham oshul yol birlän yürige-y-sen* (Sh.tar.). *Küymägän bolsa biräv mehr-u muhabbat otig‘a // sham-dek ta subh örtäb tabb-u täbım kim desün?* (Muqimiy). *Ne üçhün dasht-u biyabänlarnı tınmäsdin kezär // qılmag‘an bolsa agar ähumi shayda ko‘zläriñ* (Furqat).

Hozirda *-mish+bolsa* shakli turk va ozarbayjon tillarida, *-g‘an+bolsa* shakli o‘zbek va boshqa ko‘pchilik tillarda qo‘llanadi.

**169-§. -sa+erdi** yordamida hosil bo‘luvchi **alsa erdi** tarzidagi murakkab shakl. Bu shaklning yozuv yodgorliklarida faol qo‘llanishi XIII–XIV asrlardan boshlab kuzatiladi, XI asr yodgorligi “Qutadg‘u bilig”da ham uchraydi.

*-sa+erdi* shaklining shaxs-son affikslari bilan tuslanishi quyidagicha: 1) shaxs-son affikslari to‘liqsiz fe’lga qo‘shiladi: *alsa erdim, alsa erdük (alsa erdimiz), alsa erdiñ, alsa erdiñiz, alsa erdilär;* 2) shaxs-son affikslari asosiy fe’lga qo‘shiladi: *alsam erdi, alsaq erdi, alsañ erdi, alsañiz erdi, alsalar erdi;* 3) shaxs-son affikslari bir vaqtning o‘zida har ikkala qismga qo‘shilishi mumkin: *alsam erdim, alsañ erdiñ* kabi.

Bu shaklning shaxs-son affikslari bilan tuslanishidagi bunday

har xilliklar XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklar tiliga xos boʻlgan, yaʼni bu manbalarda uchala turdagi tuslanish ham amalda boʻlgan: koʻpincha *alsa erdim* koʻrinishidagi birinchi turdagi tuslanish, baʼzan *alsam erdi* koʻrinishidagi ikkinchi turdagi tuslanish amalda boʻlgan, ayrim manbalarda *alsam erdim* koʻrinishidagi uchinchi turdagi shakl ham qoʻllangan. XV asr va undan keyingi davrlarga oid yodgorliklarda esa faqat *alsam erdi* koʻrinishidagi ikkinchi turdagi tuslanish amalda boʻlgan.

*-sa+erdi* shaklining shaxs-son affikslari bilan tuslanishidagi bunday har xilliklar hozirgi oʻzbek va boshqa turkiy tillarda ham mavjud. Masalan, qozoq tilida shaxs-son affikslari asosiy feʼlga qoʻshilsa, boshqird tilida toʻliqsiz feʼlga qoʻshiladi. Oʻzbek va uygʻur tillarida esa asosiy feʼlga yoki toʻliqsiz feʼlga, yoki bir vaqtning oʻzida har ikkala qismga qoʻshilishi mumkin.

Ayrim yodgorliklarda *-sa+erdi* tarkibidagi toʻliqsiz feʼl qisqarib, *-sadi* (*-sädi*) yoki *-saydi* (*-säydi*) shaklida ham qoʻllangan, yaʼni *alsa erdi* feʼli *alsadi* yoki *alsaydi* shaklida qoʻllangan. *-sadi* shakli XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklardan “Tafsir”da, *-saydi* shakli XIX asrga oid yodgorliklarning ayrimlarida, jumladan, Muqimiy, Furqat asarlarida qayd qilindi.

*-sa+erdi* shaklining qisqargan shakllari hozirgi oʻzbek va boshqa koʻpchilik turkiy tillarda ham mavjud. Qisqargan shakllar ayniqsa oʻgʻuz guruhidagi turkiy tillarga xosdir. Masalan, turk va ozarbayjon tillarida bu shakl faqat *-saydi* (*-säydi*), turkman tilida *-sadi* (*-sädi*) koʻrinishida qoʻllanadi.

*-sa+erdi* shakli eski oʻzbek tilida ham ergash gapning yoki mustaqil sodda gapning kesimi vazifasida qoʻllangan:

1. Ergash gapning kesimi vazifasida kelganda quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

a) bajarilishi istalgan, orzu qilingan, lekin yuzaga chiqmagan ish-harakatni koʻrsatadi. Shuning uchun bosh gapdagi ish-harakat ham amalga oshmagan boʻladi. Bunda *-sa+erdi* shaklida ham shart, ham istak maʼnosi mavjud boʻladi: *Agar hālim burunqı-dek bolsa erdi, anı taqı sindurgʻay erdim* (NF). *Mavlana tirik bolsa erdi, jāni birlä insāf berür erdi* (Navoiy, MN). *Agar ul maʼlum*

*bolsa edi, ushbu sekiz kishi bilän xob urushur edük* (BN). *Agar atañ... meniñ birlän yag'ı bolmasa erdi, mundaq yetim bolub, sarg'arib yürmäs erdiñ* (Sh.tar.).

b) payt ma'nosida ham qo'llanadi, ya'ni payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi ish-harakatning bajarilish vaqtini ko'rsatadi: *Qachan ul menä qasd qilmag'a kelsä erdi, qattig'ün qilib, mendin qachar erdi* (QR). *Qachan kim taxt uzä oltursa erdi... // tururlar erdi besh saf xalq oñinda* (XSH). *Anıñ bilä kim masala bahs qilsa erdi, mulzam bolmag'uncha qutulmas erdi* (Navoiy, MN).

2. *-sa+erdi* shakli mustaqil sodda gapning kesimi vazifasida qo'llanganda, istak, orzu kabi ma'nolar ifodalanadi: *Kashki men bu balälardin qurtulsam erdim* (QR). *Xiräminñ chag'ı yoldash olsam erdi sukunıñ vaqtı qoldash olsam erdi* (Navoiy, FSH). *Bolsa erdi mehri ravshan mähi tabänıñcha xob* (Munis).

**170-§.** Shart mayli shaklidagi fe'lga *bol-* ko'makchi fe'li qo'shilishi bilan hosil bo'luvchi *-sa+bol-* birikmasini tuzilishiga, ya'ni tarkibida shart mayli affiksining mavjud bo'lishiga ko'ragina shart maylining murakkab shakllari guruhiga qo'shish mumkin. Chunki bu turdagi birikmalar shart ma'nosini emas, balki asosiy fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishi mumkinligini (yoki mumkin emasligini) ko'rsatadi. Eski o'zbek tilida *-sa+bol-* birikmasi asosida hosil bo'luvchi quyidagi murakkab shakllar iste'molda bo'lgan:

1. *-sa+bolur* (*-sa+bolmas*) shakli eski o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlari uchun xos bo'lib, yozuv yodgorliklarda faol iste'molda bo'lgan: *Sizlärögä yalg'an sozläsä bolmaz* (QR). *Har kishinin ashını bilsä bolur ahlaqdın* (Lutfiy). *Bir neche matla'ları bär kim, tab' ahli qäshıda oqusa bolur* (Navoiy, ML). *Har yerdin kemäsiz ötsä bolmas* (BN).

2. *-sa+bolg'ay* shakli XV asr va undan keyingi davrlarga oid yodgorliklarda uchraydi: *Bu bir nechä kalimat birlä ne nav'ta'rifların aytsa bolg'ay* (Navoiy, MQ). *Hech andäq ish zähir bolmadı kim, desä bolg'ay* (BN). *Desä bolg'ay az qatärı kafshbardärındadır* (Furqat).

3. *-sa+boladur* shakli XV asr va undan keyingi davrlarga oid ayrim yodgorliklarda qayd qilinadi: *Yüz sarı qoymaq üçün yüz urub hamul tuprag'ı qıymalıqqa täpsa bolmaydur* (Navoiy, MN). *Yana badhāldur, ... elik bilä uzub yese boladur* (BN).

Bu tarzdagi shakillar hozirgi o'zbek va boshqa turkiy tillarda ham iste'molda bo'lib, bularda ham asosiy fe'ldan anglashilgan ish-harakatning bajarilishi mumkinligi (yoki mumkin emasligi) ma'nosida qo'llanadi.

## I. Tekshirish uchun savollar

1. *Fe'l va uning sohalari (aspektlari).*
2. *O'timli-o'timsizlik, mumkinlik-nomumkinlikni qadimgi turkiy, eski o'zbek, hozirgi o'zbek tilida qo'llanishi.*
3. *Harakat nomining qadimgi turkiy, eski o'zbek adabiy tilida shakllanishi va qo'llanish vazifasi.*
4. *Sifatdoshning qadimgi turkiy tilda qo'llangan shakllari va vazifasi.*
5. *-mish va -duq shakllarining ma'nosi va vazifasidagi o'zgarish.*
6. *Ravishdoshning qadimgi turkiy, O'rta Osiyo turkiysi, eski o'zbek tilidagi shakllari va vazifalari.*
7. *Mayl va zamon aloqasi.*
8. *Shaxs-son shakllaridagi o'zgarishlar.*
9. *Buyruq maylining I, II, III shaxs shakllari qadimgi turkiy, O'rta Osiyo turkiysi, eski o'zbek tilida qo'llanish shakllari.*
10. *Shart fe'lining sodda va murakkab shakllari va ma'notarining qo'llanishi.*

## II. Tayanch tushunchalar

*Fe'l sohalari (aspektlari). Fe'l darajalari. O'timli va o'timsizlik, harakat nomlari, infinitiv. Sifatdosh, ravishdosh, tuslanish, zamon, shaxs-son, mayl, mumkinlik va nomumkinlik, inkor shakllari va vazifalari. Buyruq, shart mayllari.*



## Aniqlik mayli

**171-§.** Eski o‘zbek tilida ham aniqlik maylida uchala grammatik zamon mavjud: o‘tgan zamon, hozirgi zamon (hozirgi-kelesi zamon), kelasi zamon. Aniqlik maylidagi har bir zamon bir necha shaklga ega bo‘lib, bu shakllar shu zamon doirasida turli ma’nolarni ifodalashga xizmat qiladi.

### O‘tgan zamon

**172-§.** O‘tgan zamon fe’li eski o‘zbek tilida ham ko‘p shaklli bo‘lib, bu shakllarning har biri ma’nosi va qo‘llanishiga ko‘ra o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘tgan zamon shakllari tuzilishiga ko‘ra dastavval ikki guruhga bo‘linadi: 1) o‘tgan zamon fe’lining sodda shakllari; 2) o‘tgan zamon fe’lining murakkab shakllari.

#### 1. O‘tgan zamon fe’lining sodda shakllari

**173-§.** Eski o‘zbek tilida o‘tgan zamon fe’lining *-di/-di // -ti /-ti*, *-mish/-mish*, *-g‘an/-g‘an // -qan /-kän*, *-b (-ib /-ib // -ub /-üb)* affiksleri bilan hosil bo‘luvchi sodda shakllari amalda bo‘lib, oldingi davrlarga oid ayrim manbalarda *-duq /-duk* affiksi bilan hosil bo‘luvchi shakl ham qo‘llangan.

**174-§.** O‘tgan zamon fe’lining *-di/-di // -ti /-ti* affiksli shakli barcha turkiy tillar uchun umumiy bo‘lib, bu shaklning ma’nosi bo‘yicha ham turkiy tillar o‘rtasida deyarli farq yo‘q.

Eski o‘zbek tilida bu shaklning tuslanishida shaxs-son affikslerining *-m*, *-η*, *-q /-k*, *-ηiz /-ηiz (-ηizlar /-nizlar)*; *-lar /-lar* ko‘rinishidagi shakllar qo‘shilgan: *bardim*, *bardiη*, *barduq*, *bardiηiz* (*bardiηizlar*), *bardilar* kabi.

Tarkibida (oxirgi bo‘g‘inida) lab unlisi bo‘lgan fe’llarga qo‘shilganda I va II shaxslarda *-di /-di // -ti /-ti* affiksi tarkibidagi (i), (i) unilari lab uyg‘unligi talabiga muvofiq ravishda (u) yoki (ü) unlisiga o‘tadi: *sordum* (<*sordi*+*m*), *sorduη* (<*sordi*+*η*), *sorduq* (<*sordi*+*q*), *sorduηiz* (<*sordi*+*ηiz*); *kördüm* (<*kördi*+*m*), *kördüη* (<*kördi*+*η*), *kördük* (*kördi*+*k*), *kördüηiz* (<*kördi*+*ηiz*). I shaxs

ko'plik shaklining hosil bo'lishida tarkibida lab unlisi bo'lmagan fe'llarda ham *-di /-di // -ti /-ti* affiksida (i), (i) unilari (u) yoki (ü) unlisiga o'tadi: *barduq* (<*bardı+q*), *keldük* (*keldi+k*), *qachtuq* (<*qachtı+q*), *kechtük* (<*kechti+k*) kabi.

I shaxs ko'pligining *-q /-k* affiksi bilan hosil bo'luvchi *barduq*, *keldük* tarzidagi shakli turkiy tillarda keyingi hodisa bo'lib, oldingi davrlarda bu shakl o'rnida *-mız /-miz* affiksi yordamida hosil bo'luvchi *bardımız*, *keldimiz* tarzidagi shakl amalda bo'lgan. Masalan, O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida hamda "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'atit-turk"da faqat *bardımız*, *keldimiz* tarzidagi shakl qo'llangan. XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda asosan *barduq*, *keldük* tarzidagi shakl amalda bo'lib, "Tafsir", "Qissasi Rabg'uziy" kabi ayrim asarlarda *bardımız*, *keldimiz* tarzidagi shaklning qo'llanishi ham davom etgan. O'zbek tilida XV asrdan boshlab faqat *barduq*, *keldük* tarzidagi shakl qo'llangan. I shaxs ko'pligining *bardımız*, *keldimiz* tarzidagi shakli hozir Toshkent, Qarshi kabi ayrim o'zbek shevalarida hamda tuva, oltoy, xakas, sho'r kabi turkiy tillarda turli fonetik ko'rinishlarda qo'llanadi. Masalan, Toshkent shevasida: *borduvuz // borduvza / / borduz*, Qarshi shevasida: *yozduvuz*, *boshladuvuz*.

*-di /-di // -ti /-ti* affiksli o'tgan zamon fe'li asosan ish-harakatning nutq paytiga qadar aniq bo'lganligini (yoki bo'lmaganligini), bajarilganligini (yoki bajarilmaganligini) ko'rsatadi: *Aziz Yusufg'a baqti aydi: men seni satg'in aldım, ... og'ul tutundum, menjä munu-mu qıldıñ?* (QR). *Musanı keltürdilär, aydılar, biz jadularnı kelturdimiz teb* (Tafsir). *Qulluq arzadasht bitildi* (Navoiy, Msh). *Biz dag'i jibalanıb va yarag'lanıb atlandük* (BN). *Elchi bu sözlarniñ barchasını aytdı* (Sh.tar.).

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida bu shakl ba'zan uslubiy tomonlar bilan bog'liq holda kelasi zamon va boshqa ma'nolarda ham ishlatiladi. Shunga o'xshash hollar yozuv yodgorliklarida ham uchraydi. Qiyoslang:

1. *Shāha, bizgä nazar qılsañ, ne boldı?*  
*Gadāni mu'tabar qılsañ, ne boldı?* (Atoiy).

2. *Ta yüzügnüj vasfını Lutfiy bitidi, daftari Boldı rangin-u nasimi gul kelür avraqdın.* (Lutfiy).
3. *Kim ki bir shiddat ara sabr-u tahammul äylädi, Baxt anıj nishini nosh-u xarını gul äylädi.* (Navoiy, MQ).
4. *Dost Muhammad Baqir andaq mast edi kim, Amin Muhammad tarxan-u Mastiy Chuhra bashliqlar har nechä sa'y qıldılar, atlanduralmadılar* (BN).

Misollarning birinchisida o'tgan zamon fe'li shaklidagi *ne boldi* fe'li shart ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi bosh gapning kesimi vazifasida kelgan bo'lib, kelasi zamon ma'nosini ifodalaydi, ya'ni bu gapda *ne boldi* fe'li "nima bo'ladi" ma'nosida qo'llangan bo'lib, kelasi zamon ma'nosi ta'kidlab ko'rsatilgan. Ikkinchi misoldagi *bitidi* fe'li payt ergash gapning kesimi vazifasida kelgan bo'lib, "bitiganda (yozganda)" ma'nosini, uchinchi misoldagi *sabr-u tahammul äylädi* fe'li shart ergash gapning kesimi vazifasida kelgan bo'lib, "sabr-u tahammul aylagan bo'lsa" ma'nosini, to'rtinchi misoldagi *sa'y qıldılar* fe'li to'liqsiz ergash gapning kesimi vazifasida kelgan bo'lib, "harakat qilsalar ham" yoki "qancha harakat qilmasinlar" ma'nosini ifodalaydi.

**175-§. -mish/-mish** affiksli shakl. Bu fe'lining bo'lishsiz shakli quyidagi uch xil ko'rinishga ega:

a) *-ma/-mä* affiksi bilan hosil bo'luvchi shakl: *barmamish* (*bar+ma+mish*), *kelmämish* (*kel+mä+mish*). Bu shakl eski o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlari uchun umumiy bo'lgan;

b) egalik affiksi +*yoq* inkor so'zi yordamida hosil bo'luvchi shakl: *barmishi yoq* (*barmish+ı yoq*), *kelmishi yoq* (*kelmish+i yoq*). Bu shakl XIII—XIV asrlarga oid manbalar tiliga xos bo'lib, keyingi davrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida uchraydi;

d) *er-* to'liqsiz fe'lining bo'lishsiz shakli *ermäs* (*ermäz*) yordamida hosil bo'luvchi shakl: *barmish ermäs* // *barmish ermäz*, *kelmish ermäs* // *kelmish ermäz*. Bu shakl XIII—XIV asrlarga oid "Tafsir", "Qissasi Rabg'uziy" kabi ayrim asarlarda qo'llangan.

*-mish/-mish* affiksli o'tgan zamon fe'liga shaxs-son affikslarining *-men*, *-sen*, *-biz* (*-miz*), *-siz* (*-sizlär*) ko'rinishidagi to'la

shakllari qo‘shiladi: *barmish-men (barmamish-men), barmish-sen (barmamish-sen), barmish-biz // barmish-miz (barmamish-biz // barmamish-miz), barmish-siz // barmish-sizlär (barmamish-siz // barmamish-sizlär)*.

XV asrdan boshlab she‘riy asarlarda I shaxs birlik affiksi *-men* qisqargan *-m* shaklida ham qo‘shilgan, ya‘ni *barmish-men* tarzidagi shakl o‘rnida *barmisham* tarzidagi shakl qo‘llangan. Bu davrdagi she‘riy asarlarda I shaxs birligi uchun asosan shu shakl amalda bo‘lgan. Masalan: *Furqatindin bolmisham zär-u zaif* (Lutfiy). *Dayr arä bu nav kim, zär olmisham // ishq bandig‘a giriftar olmisham* (Navoiy, LT). *Rozg‘arim tiyra-yu zär-u parishan olmisham // saya-dek aftaädalig‘da nätavän jän olmisham* (Muqimiy).

*-mish/-mish* affiksli o‘tgan zamon fe‘lining III shaxs birligi odatda ko‘rsatkichsiz bo‘lib, ba‘zan unga *turur (durur)* holat fe‘li yoki uning qisqargan shakllari *tur // tür, dur // dür* qo‘shilgan.

XV asrdan oldingi davrlarda holat fe‘li *turur* shaklida qo‘shilgan: *Muhammad bizni ne üçhün oqimish turur? Kun‘ang‘a... payg‘ambar turur taqi ulqaymish turur* (QR). *Bu nedin tokülmish turur?* (NF). *Mundin özgä og‘lum bolmishi yoq turur* (Saroyi).

XV asr va undan keyingi davrlarda ko‘pincha qisqargan *tur // tür* yoki *dur/dür* shakllari, she‘riy asarlarda ba‘zan *durur* shakli qo‘shilgan: *Chun yashunmishtur qamishlar ichrä shakkar elkidin* (Lutfiy). *Hamma imäratlari ärästa bolmishdur* (Furqat). *Guluzärinni chaman arä körmishdür* (Munis). *Kelib xän allida arz etti Bahram // ki bu yanlig‘ xabar bolmish durur ‘äm* (Navoiy, FSH).

XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida holat fe‘li ba‘zan I, II shaxslarga va III shaxsning ko‘plik shakliga ham qo‘shilgan: *Men... birägüni öldürmish turur men* (Tafsir). *Sen ganj bulmish turursen* (Tafsir). *Ul taqrigä kim, sizlär butmish turur sizlär, men yemä butmish turur men* (Tafsir). *Koni yol bulmish tururlar* (Tafsir).

*-mish/-mish* affiksli o‘tgan zamon fe‘li ham *-di/-di // -tı/-ti* affiksli shakl kabi ish-harakatning nutq paytiga qadar aniq

bo'lganligini (yoki bo'lmaganligini) bildiradi. Lekin *-mish/-mish* affiksli shakl *-di/-di // -ti/-ti* affiksli shakldan farq qilib, ish-harakatning o'zini emas, balki uning nutq paytida mavjud bo'lgan natijasini ko'rsatadi. Masalan: *Bu yanda taxti shāhāna urulmish / / turub xush sāqiylar, majlis qurulmish* (XSH). *Emdi kim tupraq bolmishdur eshikiñda tanim // qaydadur hasid ki, korgāy davlat-u jānim meniñ* (Lutfiy). *Jānvafā erdi biriniñ ātu kim vafādın yaratilmish zan* (SHN). *Kop ādamidin Beshariq // bāg'larda ekmishlār tariq* (Muqimiy).

Bundan tashqari, *-mish/-mish* affiksli o'tgan zamon fe'li eshitilganlik, gumon, noaniqlik kabi ma'nolarda ham qo'llangan, ya'ni ish-harakatning bajarilgani so'zlovchiga aniq bo'lmasdan, bu haqda u boshqalardan eshitgani asosida ma'lumot beradi. *-mish/-mish* affiksli o'tgan zamon fe'li bu ma'noda II yoki III shaxsda qo'llanib, hozirgi o'zbek tilidagi *-b* affiksli o'tgan zamon fe'liga yaqin turadi. Masalan: *Ismāil aydi: ul ātam turur. Sen ani ag'irlamish-sen. Eviñ eshikin ketārgil teb seni aymish* (QR). *Eshittim kim, ati yabanda qachmish // Humāyni ketürüb anqā-tek uchmish* (XSH). *Atoiy qul gadāyimdur demish-sen* (Atoiy).

*-mish/-mish* affiksli o'tgan zamon fe'li tarkibida holat fe'lining bo'lishi yoki bo'lmasligi ma'noga ta'sir etmaydi. Qiyoslang:

1. *Isaqa isharat qilg'ul, ayg'ul roza tutmish turur men teb* (Tafsir).
2. *Anlarqa sezlāmāgil, roza tutmish-men teb ayg'ul* (Tafsir).

Misollarning birinchisida *-mish/-mish* affiksli o'tgan zamon fe'li shakliga *turur* holat fe'li qo'shilib kelgan bo'lib (*tutmish turur men*), ikkinchisida qo'shilmagan (*tutmish-men*). Lekin ikkala holatda ham *-mish/-mish* affiksli shakl bir xil ma'noda qo'llangani anglashilib turibdi.

*-mish/-mish* affiksli o'tgan zamon fe'li shakli hozir o'g'uz guruhidagi turk, ozarbayjon, gagauz tillarida turli ma'no va vazifalarda faol qo'llanadi. O'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda esa bu shakl iste'moldan chiqqan bo'lib, uning o'rnida *-g'an/-gān // -qan/-kān* affiksli o'tgan zamon fe'li qo'llanadi.

**176-§.** *-g'an/-gān // -qan/-kān* affiksli shakl. Bu shaklning

yozuv yodgorliklarda qoʻllanishi XI asrdan boshlab kuzatiladi. Lekin shu davr yodgorliklari “Qutadgʻu bilig” va “Devonu lugʻatit-turk”da bu shakl sifatdosh shaklini tashkil etib, asosan aniqlovchi vazifasida qoʻllangan (qarang: 127-§). Yozuv yodgorliklarda bu shaklning oʻtgan zamon feʻli vazifasida qoʻllanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi.

-gʻan/-gän // -qan/-kän affiksli oʻtgan zamon feʻlining boʻlishsiz shakli quyidagicha uch xil yoʻl bilan hosil boʻladi:

a) feʻlining -ma/-mä affiksli boʻlishsiz shakli asosida: *barmagʻan* (bar+ma+gʻan), *kelmägän* (kel+mä+gän) kabi;

b) er- toʻliqsiz feʻlining *ermäs* (emäs) shakli yordamida: *bargʻan ermäs*, *kelgän ermäs* kabi;

d) egalik affiksi+yoq inkor soʻzi ishtirokida: *bargʻan yoq* (*bargʻani yoq*), *kelgän yoq* (*kelgäni yoq*) kabi.

Yozuv yodgorliklarda asosan -ma/-mä affiksi bilan hosil boʻluvchi *barmagan* tarzidagi shakl qoʻllangan boʻlib, *bargʻan ermäs*, *bargʻan yoq* (*bargʻani yoq*) tarzidagi shakllar kam uchraydi.

-gʻan/-gän // -qan/-kän affiksli oʻtgan zamon feʻliga shaxs-son affikslarining toʻla shakllari qoʻshiladi: *bargʻan-men*, *bargʻan-sen*, *bargʻan-biz* // *bargʻan-miz*, *bargʻan-siz* // *bargʻan-sizlar*.

-gʻan/-gän // -qan/-kän affiksli oʻtgan zamon feʻlining III shaxs birligi odatda koʻrsatkichsiz boʻlib, koʻpchilik hollarda unga *turur* (*durur*) holat feʻli yoki uning qisqargan *dur*//*dür* shakllari qoʻshilib keladi.

XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda holat feʻli *turur* shaklida qoʻshilgan: *Arigʻlarni ulash emgäkdä tutgʻan turur* (QR). *Yerlär örtüklüki yämä kergän turur*, *eshitken turur* (Tafsir). *Usman ingän oftangʻan turur* (NF).

XV asr va undan keyingi davrlarga oid yodgorliklarda holat feʻli koʻpincha qisqargan *dur*//*dur* shaklida, baʼzan *durur* shaklida, “Shajarai turk”, “Shajarai tarokima” kabi ayrim asarlarda *turur* shaklida qoʻshilgan: *Sofi Atoiy hālatını etkändür, vale* (Atoiy). *Ul kelib bir nechä laf atqandur* (SHN). *Qızıl qagʻazgʻa mushkin nuqtalar qoygʻandur* (Munis). *Bu qul bir nechä kün ziyaratgähda erdim, mirāxur kelgän durur* (Navoiy, Msh). *Pādshāhliq ātanđın seňä meräs qalgʻan turur* (Sh.turk).

-g'an/-gän // -qan/-kän affiksli o'tgan zamon fe'lining III shaxs ko'pligiga ham ko'pincha holat fe'li qo'shiladi: *Bir libas bilä pädshäh arzig'a yetkendürlär, ... ul sözni rad etkändürlär* (Navoiy, MN). *Tushkänidin xabar etkändürlär* (SHN). *Ulug' ätalarımız Turkiständın kelgän tururlar* (Sh.tar.).

Ayrim hollarda *turur* (*dur // dür*) holat fe'li o'rnida *erür* to'liqsiz fe'li qo'llangan. -g'an/-gän // -qan/-kän affiksli o'tgan zamon fe'li tarkibida *erür* to'liqsiz fe'lining qo'llanishi XV asr va undan keyingi davrlarda she'riy asarlarda uchraydi: *Dunyä aña panäh bolg'an erür* (Tafsir). *Bu sifat-u äyin bilä bolg'an erür darvish* (Navoiy, MQ). *G'äyati sharm bilä bolg'an erür qan közgü* (Munis).

-g'an/-gän // -qan/-kän affiksli o'tgan zamon fe'li ma'no jihatdan -*mish/-mish* affiksli shakl bilan bir guruhni tashkil etadi, ya'ni bu shakl ham ish-harakatning nutq paytida mavjud bo'lgan natijasini ko'rsatadi. Masalan: *Qazg'urmag'ıl, ul g'ayib bolg'an turur* (QR). *Chun bu Xorazmg'a qol sälg'andur // ushbu ay ichrä kelib älg'andur* (SHN). *Biz hech yamanlıq qilg'anımız yoq* (Sh.turk). *G'aribi bu viläyat hänimänidin adashgan-men // basäni murg'i vahshiy äshyänidin adashgan-men* (Furqat).

Ma'lumki, hozirgi o'zbek tilida -*gan* affiksli o'tgan zamon fe'liga -*dir* (<-*dur*) qo'shilganda, asosan taxmin, gumon, noaniqlik kabi ma'nolar ifodalanadi. Eski o'zbek tilida esa bu fe'lga qo'shilgan *dur // dür* (*turur*) yoki *erür* ma'noga ta'sir etmagan. Qiyoslang:

1. *Anı yüzdin birin köz körmägändür, Qulāq ham ätını eshitmägändür.* (Furqat).

2. *Bärıb Rusiya shahrida turmagan, Alar rasm-u tartibini körmägän.* (Furqat).

Keltirilgan misollarning birinchisida -*gän* affiksli o'tgan zamon fe'liga -*dür* qo'shilgan bo'lib (*körmägändür, eshitmägändür*), ikkinchisida qo'shilmagan (*turmagan, körmägän*). Lekin bu shakllar o'rtasida ma'noda farq yo'qligi misollardan anglashilib turibdi.

-g'an/-gän // -qan/-kän affiksli o'tgan zamon fe'li hozir qarluq va qipchoq guruhidagi turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida keng qo'llanadi va bu tillarda ish-harakatning nutq paytida

mavjud bo'lgan natijasini ko'rsatuvchi asosiy shaklni tashkil etadi.

**177-§.** O'tgan zamon fe'lining **-b (-tb/ -ub/-üb)** affiksli ravishdosh asosida hosil bo'luvchi shakllari. O'tgan zamon fe'lining bu turi eski o'zbek tilida quyidagicha uch xil ko'rinishda qo'llangan:

1. **-b+turur+men** (ravishdoshning **-b** affiksli shakli+**turur** (**tur**-holat fe'lining hozirgi-kelasi zamon shakli)+shaxs-son affiksi): *alib turur men, kelib turur men* kabi;

2. **-b+tur+men // -b+dur+men** (ravishdoshning **-b** affiksli shakli+**tur //tür** yoki **dür** (**turur** holat fe'lining qisqargan shakli)+shaxs-son affiksi): *alibtur-men, kelibtür-men* yoki *alibdur-men, kelibdür-men* kabi;

3. **-b+men** (ravishdoshning **-b** affiksli shakli+shaxs-son affiksi): *alib-men, kelib-men* kabi.

Bu shakllarni keyingi o'rinlarda qulaylik uchun *alib turur men, alibtur-men // alibdur-men, alib-men* tarzidagi shakllar deb ataymiz. Bu shakllarning qo'llanishi quyidagicha:

*Alib turur men* tarzidagi shakl XIII—XIV asrlar tiliga xos bo'lib, keyingi davrlarda ayrim asarlarda qo'llangan: *Xalifa aydi: anı ızmaz-men, antyaz qilib turur men* (NF). *Bu yolni qoyduñ ersä, qayu yolni tutub turur sen* (QR). *Barchasınıñ ätlerini yuqarıda bir-bir aytib turur miz* (Sh.tar.). *Qachan kersälär anı kim, va'da qilib tururlar* (Tafsir). *Menä atam bu baluqni berib turur* (O'N). *Ishtiy-aqım firâqıg'a châra qılg'ıl, ey rafıq // kim xarâb äylâb turur hâlimni mahkam ittifaq* (Navoiy, G'S).

*Alibtur-men // alibdur-men* tarzidagi shakl XV—XIX asrlar davomida faol qo'llangan bo'lib, XIV asrlarga oid ayrim asarlarda ham uchraydi: *Oq zahmıdın ikki bükülübür-men* (Yaqiniy). *Bu kamâlıñ kim, qılıbtur-sen gumân, ...* (Navoiy, LT). *Chechäk yaprâqları yergä tüşübtür* (MN). *Vilâyatlıg'ı qâlmabdur* (BN). *Qâshlarıñni hilâl debdürlür // qâmatıñni nihâl debdürlür* (Munis).

O'zbek tilida *alib-men* tarzidagi shaklning qo'llanishi XV asrdan faollasha borgan. Misollar: *Jamâlıñda kerüb-men am* (Lutfiy). *Bag'âyat kerjümüzni shâd etib-sen* (Navoiy, FSH). *Yät yurtg'a kelib-*



*men* (Sh.tar.). *Bizni tapib-sen magaram kim osal* (Muqimiy). *Biz bu yollarda k r b-biz  zni* (SHN). *Siz ham tun-a kun urushub b sturub-siz* (BN).

*Alib-men* tarzidagi shakl XIII—XIV asrlarda ham qo‘llangan bo‘lib, ayrim manbalarda uchraydi: *Yaratg‘an bir  zimg‘a yalbarb-men* (XSH). *Ul, ne kim sen kelt r b-sen, seni  rozin turur* (Tafsir). *Baliqu yaxshu saqlab-sen* (O‘N). *Bu mehri ni ko juld  berk etib-men* (Saroyi).

O‘tgan zamon fe‘lining *alib turur men*, *alibtur-men // alibdur-men*, *alib-men* tarzidagi shakllari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, biri ikkinchisidan rivojlangan. Bu jarayon quyidagicha yuz bergan: o‘tgan zamon fe‘lining bu turi tarkibida dastlab *turur* (*tur-* holat fe‘lining hozirgi-kelasi zamon shakli) mavjud bo‘lgan (*alib turur men*), keyinchalik *turur* qisqarishga uchrab, uning tarkibidan hozirgi-kelasi zamon ko‘rsatkichi *-ur* tushib qoladi (* lib turur men > alibtur-men // alibdur-men*). So‘ng I va II shaxslarda *tur // t r* (*dur // d r*) butunlay tushib qoladi (*alibtur-men // alibdur-men // alib-men*), III shaxsda shaxs ko‘rsatkichi bo‘lmaganligi uchun saqlangan (* libtur //  libdur*, * libturlar //  libdurlar*). Hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa *-di* shakliga aylangan (* libtur //  libdur >  libtur >  libdur >  libtu >  libdi*). Demak, hozirgi o‘zbek tilidagi *olibman* turidagi o‘tgan zamon fe‘li dastlab *alib turur men* ko‘rinishida qo‘llangan bo‘lib, keyinchalik uning tarkibidan *turur* holat fe‘li tushib qolishi natijasida yuzaga kelgan.

Bulardan *alib-men* tarzidagi shakl hozir o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qoraqalpoq, ozarbayjon kabi turkiy tillarda qo‘llanadi, *alibtur-men // alibdur-men* tarzidagi shakl qirg‘iz, turkman, tuva, xakas, sho‘r, oltoy kabi tillarda saqlangan bo‘lib, turli ko‘rinishlarda qo‘llanadi. *Alib turur men* tarzidagi shaklning iste‘mol doirasi XV asrdanoq chegaralangan bo‘lib, hozirgi turkiy tillarda qo‘llanmaydi.

O‘tgan zamon fe‘lining *alib turur men*, *alibtur-men // alibdur-men*, *alib-men* tarzidagi shakllari eski o‘zbek tilida ma‘no jihatdan ham o‘xshash bo‘lgan, ya‘ni bu shakllarning uchalasi ham asosan ish-harakatning nutq paytida mavjud bo‘lgan natijasini ko‘rsatish ma‘nosida qo‘llangan. Bu jihatdan ushbu shakllar *-g‘an/-g n //*

-*qan/-kän* affiksli oʻtgan zamon feʼli shakli bilan bir guruhni tashkil etadi. Qiyoslang: *Eriñ qayda teb sordı ersü, avqa barib turur tedi* (QR). *Xotan ähuları-dek ancha sargardän bolubdur-men // sächi mushki Xita rashki xayäli dilrabälardın* (Furqat). *Mavläna Muhammad Badaxshiydın taʼrifin eshitib-men* (Navoiy, MN).

Keltirilgan misollardagi *barib turur, sargardan bolubdur-men, eshitib-men* feʼllari ish-harakatning nutq paytidagi natijasini koʻrsatish maʼnosini ifodalaydi, yaʼni *bärib turur* feʼli “borgan (ketgan)” maʼnosida, *sargardän bolubdur-men* — “sargardon boʻlganman”, *eshitib-men* — “eshitganman” maʼnosida qoʻllangan.

Hozirgi oʻzbek tilida, yuqorida aytilganidek, *olibman* (<*alib-men*) tarzidagi shakl qoʻllanadi. Lekin maʼnosida oʻzgarish yuz bergan, yaʼni hozirgi oʻzbek tilida bu shakl eshitilganlik, hikoya kabi maʼnolarni ifodalovchi shakl sifatida shakllangan.

**178-§. -*duq/-dük*** affiksli shakl XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklardan “Tafsir”da qoʻllangan boʻlib, I shaxs koʻplik, III shaxs birlik va koʻplik shakllarida uchraydi. Oʻtgan zamon feʼlining bu turi “Tafsir”da faqat boʻlishsiz shaklda qoʻllangan: *Qachan kim, tegdi ersä kün tugʻushingʻa, boldı anı tugʻar buzun üzä, qilmaduq-miz anlarga azın ortuk parda* (Tafsir). *Munda aytur “qıldım” teb, valekin qilmaduq turur* (Tafsir). *Hech köz andagʻ kormäduk tururlar* (Tafsir). *Teginmädük injular-tek kimersä kördüki yoq* (Tafsir).

Keltirilgan misollarda *-duq/-dük* shaklidagi *qilmaduq-miz* feʼli “qilmadik” maʼnosida, *qilmaduq turur* — “qilmagan”, *kormädük tururlar* — “koʻrmaganlar”, *kördüki yoq* — “koʻrgani yoʻq” maʼnosida qoʻllangan.

*-duq/-dük* affiksli oʻtgan zamon feʼli Oʻrxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida hamda “Qutadgʻu bilig” va “Devonu lugʻatit-turk” asarlarida ham ishlatilgan. Ushbu manbalarda bu shakl faqat III shaxs birligida qoʻllangan boʻlib, shaxs-son maʼnolari jumla mazmunidan yoki ega vazifasida kelgan soʻz orqali anglashiladi. *-duq/-dük* affiksli oʻtgan zamon feʼlining bunday xususiyati haqida Mahmud Koshgʻariy ham alohida qayd qilgan. Uning koʻrsatishicha, oʻgʻuzlar va qipchoqlarning baʼzilari (su-

vorinlar) o'tgan zamon fe'lini yasovchi *-di/-di* affiksi o'rnida *-duq/-dük* affiksini, ya'ni *bardi, keldi* o'rnida *barduq, keldük* shaklini qo'llaganlar. Bu shakl hamma shaxslar uchun, shuningdek, birlik va ko'plik uchun ham o'zgarishsiz bir xil shaklda kelgan, ya'ni bu shaklga shaxs-son affikslari qo'shilmagan. Masalan: *men ya qurduq* ("men yoy qurdim" ma'nosida), *biz ya qurduq* (biz yoy qurdik), *ol ya qurduq* (u yoy qurdi), *men yarmaq tärdük* (men tanga terdim), *biz kældük* (biz keldik), *ol kældük* (u keldi). Lekin o'g'uzlarning ko'pchiligi bu shaklni I shaxs birligi uchungina, ya'ni *bardim* o'rnida *barduq, kældim* o'rnida *kældük* shaklini qo'llaganlar. Qolgan o'rinlarda esa boshqa turklar kabi *-di/-di* affiksli shaklni qo'llaganlar (MK, II tom, 64–65-betlar).

## 2. O'tgan zamon fe'lining murakkab shakllari

179-§. O'tgan zamon fe'lining murakkab shakllari eski o'zbek tilida ham fe'ning zamon ma'nosini anglatuvchi sodda shakllariga to'liqsiz fe'l qo'shilishi bilan hosil bo'ladi. To'liqsiz fe'l eski o'zbek tilida *er-* yoki *e-* shaklida qo'llangan: XIV asrning oxirlariga qadar *er-* shaklida, undan keyingi davrlarda *-er* shaklida ham, *e-* shaklida ham qo'llanavergan.

O'tgan zamon fe'lining murakkab shakllarini hosil qilishda to'liqsiz fe'l *-di* affiksli o'tgan zamon (*erdi* yoki *edi*) shaklida qo'shiladi. To'liqsiz fe'ning *ermish* // *emish*, *erkän* // *ekän*, *erki*, *erinch*, *ergäy* kabi shakllari esa turli modallik ma'nolarni ifodalashga xizmat qilib, zamon nuqtayi nazaridan yangi shakl hosil qilmaydi.

Eski o'zbek tilida o'tgan zamon fe'lining quyidagi murakkab shakllari iste'molda bo'lgan: *-mish+erdi*, *-di+erdi*, *-duq+erdi*, *-g'an+erdi*, *-b+turur+erdi* // *-b+dur+erdi* // *-b+erdi*, *-a+turur+erdi* // *-a+dur+erdi* // *-a+erdi*, *-r+erdi* (*mas+erdi*), *-g'ay+erdi*. Bulardan *-m:sh+erdi*, *-di+erdi*, *-r+erdi* (*mas+erdi*), *-g'ay+erdi* shakllari qadimgi turkiy yodgorliklarda ham faol iste'molda bo'lgan, boshqalarining yozuv yodgorliklarda qo'llanishi XIII–XIV asrlardan boshlab kuzatiladi.

O'tgan zamon fe'lining murakkab shakllarida (*di+erdi* shaklidan tashqari) shaxs-son affikslari to'liqsiz fe'lga qo'shiladi: *almish*

*erdim, alduq erdim, alg'an erdim, alur erdim (almas erdim), alg'ay erdim, alib turur erdim, alibdur erdim, alib erdim, ala turur erdim, aladur erdim, ala erdim* kabi. *dı+erdi* shaklida esa asosiy fe'lga qo'shiladi: *aldım erdi, aldın erdi* kabi. III shaxs ko'pligining hosil bo'lishida *-lar/-lär* ko'plik affiksi ko'pincha to'liqsiz fe'lga, ba'zan asosiy fe'lga yoki bir vaqtning o'zida ikkala qismga qo'shiladi: *almish erdilär // almışlar erdi // almışlar erdilär, alib turur erdilär // alib tururlar erdi (alib tururlardı), alur erdilär // alurlar erdi// alurlar erdilär (alurdılar)*.

**180-§. -mish+erdi** yordamida hosil bo'luvchi **almish erdi** tarzidagi murakkab shakl o'zbek tilida XV asrga qadar ancha faol iste'molda bo'lib, keyingi davrlarda asosan she'riy asarlarda qo'llangan.

Bo'lishsiz shakli ikki xil yo'l bilan hosil bo'ladi:

a) fe'lning *-ma/-mä* affiksli bo'lishsiz shakli asosida: *almamish erdi, kelmämish erdi* kabi;

b) egalik affiksi+*yoq* inkor so'zi yordamida: *almışı yoq erdi, kelmishi yoq erdi* kabi.

XIX asrga oid ayrim she'riy asarlarda *-mish+erdi* shakli qisqargan *-mishdı /-mishdi* ko'rinishida ham qo'llangan: *Sayr etib yürgändä, yürmişdim qanärında seni* (Muqimiy). *Bärüb kelgüncha ötmishdi zamän көp* (Furqat).

*-mish+erdi* shaklining asosiy vazifasi shundan iboratki, bu shakldagi fe'l ifodalagan ish-harakatning bajarilish vaqti nutq payti bilan bevosita chegaradosh bo'lmaydi, balki bu ish-harakatning natijasi sifatida nutq paytiga qadar yana boshqa voqea yuz bergan bo'ladi. Keyingisi odatda o'tgan zamon fe'lining *-dı/-di* affiksli shakli bilan ifodalanadi. *-mish+erdi* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat nutq payti bilan ana shu *-dı/-di* affiksli fe'l ifodalagan ish-harakat orqali bog'lanadi. Masalan: *Bag' izisi yemish alg'ali kelmish erdi, bularnı көrdi* (QR). Misoldan ko'rinib turibdiki, *-mish+erdi* shaklidagi fe'l (*kelmish erdi*) ifodalagan ish-harakatning bo'lishi natijasida keyingi ish-harakat, ya'ni *-dı/-di* affiksli fe'l (*kөrdi*) ifodalagan ish-harakat yuzaga kelgan. Boshqacha qilib ayt-

ganda, *bog' egasi boqqa kirmaganda bularni ko'rmagan bo'lardi.*

Bunday hollarda *-mish+erdi* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat *-di/-di* affiksli fe'l ifodalagan ish-harakatning yuzaga chiqish sababini yoki vaqtini ko'rsatadi. Qiyoslang: *Yana Umardın jafa tegmishi yoq erdi, anıñ üçün kim yarlıqadı* (Tafsir). *Bu qız Xusrav ishingä qaldı hayran // kim an-tek körmishi yoq erdi xush jän* (XSH). *Etäk sarı cherikkä berdilär mayl // ki tutmiş erdi sahrāmı qızıl sayl* (Navoiy, FSH).

Bu misollarda *-mish+erdi* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat *-di/-di* affiksli fe'l ifodalagan ish-harakatning yuzaga chiqish sababini ko'rsatadi. Quyidagi misollarda esa *-mish+erdi* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat *-di/-di* affiksli fe'l ifodalagan ish-harakatning bo'lgan vaqtini ko'rsatadi: *Bir kün Ismāil āvqa barmış erdi, İbrāhim korä keldi* (QR). *Bu ish ul vaqtda erdi kim, binni İsrail barcha ornamış erdilär* (Tafsir). *Urmış erdi tashlag'an asrari tab // kördi dökānlarda ne'mat behisāb* (Navoiy, LT).

*-mish+erdi* shakli bo'lib o'tgan voqea-hodisani eslash, uni ta'kidlab ko'rsatish kabi ma'nolarni ifodalashda ham qo'llanadi. Bunday hollarda kesimi *-mish+erdi* shaklidagi fe'l bilan ifodalangan gap odatda mustaqil sodda gapni tashkil etadi yoki bog'langan qo'shma gap tarkibida keladi: *Hech erānlärdä anlar-tek kishi körmishim yoq erdi* (NF). *Anıñ hajrıda hāqān ölmish erdi // kichik gardashı hāqān bolmiş erdi* (Navoiy, FSH). *Lek mendin ketmiş erdi aql-u xush // lahza-lahza shavq ön äylärdi josh* (Furqat).

*-mish+erdi* yordamida hosil bo'luvchi shakl hozir o'g'uz gu-ruhidagi turk, ozarbayjon, gagauz tillarida faol qo'llanadi.

**181-§.** *-di+erdi* yordamida hosil bo'luvchi *aldi erdi* tarzidagi murakkab shakl o'zbek tilida XV asrga qadar qo'llangan.

*-di+erdi* shakli ma'no va vazifasiga ko'ra *-mish+erdi* shakli bilan bir guuhga kiradi, *-di+erdi* shaklidagi fe'llar ham asosan nutq payti bilan bevosita chegaradosh bo'lmagan ish-harakatni ko'rsatadi: *Anlar qachtılar erdi, Malik Daqyunus yarın bildi qachmişlarını* (Tafsir). *Bu og'lannı men bir yañaqladım erdi, bu og'lan duā qıldı, jahān munda tünärdi* (QR). *Qoy etidin bir pāra*

*aldi taqi chaynayu boshladi erdi, ul qoldin avaz keldi* (NF). *Telim ranj birlä tapdim erdi ul ganj // yitirdüm, boldi zaye kormishim ranj* (XSH).

Quyidagi misollarda *-dı+erdi* shaklidagi fe'llar bo'lib o'tgan voqea-hodisani eslash, uni ta'kidlab ko'rsatish kabi ma'nolarda qo'llangan: *Bu tayaq ham ul tayaq turur kim, endin chiqardın erdi* (Tafsir). *Bu ergä qul og'lan sattımız erdi* (QR). *Shakar tatlıg' javab aydi kim, ey beg // uzaqi yilda kordüm erdi sen-tek* (XSH).

*-dı+erdi* shakli qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos bo'lib, hozir turk, gagauz, tatar, qirg'iz tillarida turli fonetik ko'rinishlarda qo'llanadi, o'zbek tilining Qorabuloq shevasida ham saqlangan.

**182-§. -duq+erdi** yordamida hosil bo'luvchi **alduq erdi** tarzidagi murakkab shakl "Tafsir"da ancha keng qo'llangan bo'lib, "Qissasi Rabg'uziy" asarida ham uchraydi.

*-duq+erdi* shakli ma'nosi va vazifasiga ko'ra *-mush+erdi*, *-dı+erdi* shakllariga o'xshaydi, ya'ni bu shakl ham asosan nutq payti bilan bevosita chegaradosh bo'lmagan ish-harakatni ko'rsatadi, ba'zan bo'lib o'tgan voqea-hodisani eslash, ta'kidlab ko'rsatish ma'nosini ifodalaydi: *Bu butlarnı haqiqat kormädük erdim, turdum, Makkaga bardım, kordüm* (Tafsir). *Emdigä tegi ashlıq qolub sadaqa qilg'ıl tedük erdi, emdi andın kichük qarındashımız ibn Yaminni sadaqa teyü qolduq erdi, emdi bizgä keldi* (QR). *Madina elin ranjur qılduq erdi, andın bir og'lannı anda qoydı* (Tafsir).

*-duq+erdi* shaklining III shaxs birligi bilan *-dı+erdi* shaklining I shaxs ko'pligi shaklan o'xshash. Bular asosan jumla mazmunidan farqlanadi. Qiyoslang:

1. *Sara qarı urag'ut, anıñ ilärü ayalı bolmaduq erdi* (Tafsir). Bu o'rinda *ayal* so'zi "bola", "farzand" ma'nosida qo'llangan).

2. *Ey ata, biz... Yusufni otag'da qoyduq erdi, biz kelginchä Yusufni beri yemish* (QR).

Keltirilgan misollardagi *bolmaduq erdi* va *qoyduq erdi* fe'llari shaklan o'xshash. Lekin bular ma'nosiga ko'ra farqlanadi, ya'ni birinchi misoldagi *bolmaduq erdi* fe'li —*duq+erdi* shaklining III shaxs birligi bo'lib, "bo'lmagan edi" ma'nosida, ikkinchi misoldagi

*qoyduq erdi* fe'li esa *-dı+erdi* shaklining I shaxs ko'pligi bo'lib, "qo'ygan edik" ma'nosida qo'llangan. Bu shakllarning yasalish asoslari ham har xil: *-duq+erdi* shakli *-duq/-dük* affiksli o'tgan zamon fe'li (qarang: 178-§) asosida, *-dı+erdi* shakli *-dı/-di* affiksli o'tgan zamon fe'li (qarang: 174-§) asosida hosil bo'lgan.

**183-§.** *-gan+erdi* yordamida hosil bo'luvchi *alg'an erdi* tarzidagi murakkab shaklning yozuv yodgorliklarda qo'llanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi. Bu shakl eski o'zbek tilida kam iste'molda bo'lib, uning qo'llanishi XIX asrdan faollasha boshlagan.

Bu shaklning bo'lishsizligi eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilidagi kabi quyidagicha uch xil yo'l bilan hosil bo'lgan:

a) fe'lining *-ma/-mä* affiksli bo'lishsiz shakli asosida: *almag'an erdi*, *kelmägän erdi* kabi;

b) *er-* to'liqsiz fe'lining bo'lishsiz shakli *ermäs (emäs)* yordamida: *alg'an ermäs erdi*, *kelgän ermäs erdi* kabi;

d) egalik affiksi + *yoq* inkor so'zi yordamida: *alg'am yoq erdi*, *kelgeni yoq erdi* kabi;

*-g'an+erdi* shakli ma'nosi va vazifasiga ko'ra *-mish+erdi* shakli bilan bir guruhni tashkil etadi. Ya'ni *-g'an+erdi* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat nutq payti bilan bevosita chegaradosh bo'lmaydi, balki bu ish-harakatning natijasi sifatida nutq paytiga qadar yana boshqa voqea yuz bergan bo'ladi. Keyingisi odatda *-dı/-di* affiksli o'tgan zamon fe'li bilan ifodalanadi. *-g'an+erdi* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat nutq payti bilan ana shu *-dı/-di* affiksli o'tgan zamon fe'li ifodalagan ish-harakat orqali bog'lanadi. Bunday hollarda *-g'an+erdi* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat *-dı/-di* affiksli o'tgan zamon fe'li ifodalagan ish-harakatning yuzaga chiqish sababini yoki vaqtini ko'rsatadi. Qiyoslang:

1. *Sizlar anja inang'an erdiniz, ayatning hukmi mansuh boldi* (Tafsir).

2. *Chun qush buzmag'im qilg'an emäs edim, elik eltmädim* (BN).

3. *Yilg'a mınj sekkiz yüz-u toqsan edi,*

*Iyul ayının biri bolg'an edi...*

*Ittifāqa, ul kūni tāpib xabar,  
Eylādim yarmanka sarig'a guzar* (Furqat).

Keltirilgan misollarning oldingi ikkitasida *-g'an+erdi* shaklidagi *inang'an erdiniz, qilg'an emäs edim* fe'llari ifodalagan ish-harakat *-di/-di* affiksli *mansuh boldi, eltmādim* fe'llari ifodalagan ish-harakatning yuzaga kelish sababini ko'rsatadi. Oxirgi misoldagi *bolg'an edi* fe'li ifodalagan ish-harakat esa *guzar äylādim* fe'li ifodalagan ish-harakatning bo'lish vaqtini ko'rsatadi.

Quyidagi misollarda *-g'an+erdi* shaklidagi fe'llar bo'lib o'tgan voqea-hodisani eslash, uni ta'kidlab ko'rsatish ma'nosida qo'llangan: *Bu altun ya kün toqushidan-dā kün batushig'acha tekken erdi taqi bu üch kümüsh oq tün yang'aqqa ketä turur erdi* (O'N). *Bar erdi bir nadimi, atı Shavur // lahāvur körgän erdi ham Nishāvur* (XSH). *Sojra chiqdı bir quyash ruxsara zan // egnigä kiygän edi kök pirahan* (Furqat).

*-g'an+erdi* yordamida hosil bo'luvchi murakkab shakl hozir qarluq va qipchoq guruhidagi turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida faol qo'llanadi.

**184-§. -b (-ib/-ib // -ub/-üb)** affiksli ravishdosh asosida hosil bo'luvchi murakkab shakllar. O'tgan zamon fe'lining bu turi eski o'zbek tilida quyidagi uch xil ko'rinishda qo'llangan: *-b+turur+erdi*, *-b+dur+erdi*, *-b+erdi*. Bular bir shaklning turli ko'rinishlari bo'lib, biri ikkinchisidan rivojlangan. Ya'ni *-b+erdi* shakli *-b+dur+erdi* shaklining qisqargan ko'rinishi bo'lib, keyingisi o'z navbatida *-b+turur+erdi* shaklidan kelib chiqqan. Bunda avval bu shakl tarkibidagi *turur* fe'li qisqarishga uchrab, undan sifatdosh ko'rsatkichi *-ur* tushib qoladi (*turur>tur*), so'ng *tur (>dur)* butunlay tushib qoladi (*-b+turur+erdi>-b+dur+erdi>-b+erdi*). *-b+turur+erdi* esa uch qismning birikuvidan tashkil topgan murakkab shakldir: 1) *-b* — ravishdosh ko'rsatkichi; 2) *turur* — *tur-* holat fe'lining hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shakli; 3) *erdi* — *er-* to'liqsiz fe'lining o'tgan zamon shakli. Bu shakllar eski o'zbek tili taraqqiyotining turli davrlarida iste'molda bo'lgan.

1. *-b+turur+erdi* shakli XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda



qoʻllangan. Maʼnosi va vazifasiga koʻra *-mish+erdi*, *-gʻan+erdi* shakllariga oʻxshaydi, yaʼni bu shakl ham nutq payti bilan bevosita chegaradosh boʻlmagan ish-harakatni koʻrsatish yoki boʻlib oʻtgan voqea-hodisani eslash, taʼkidlab koʻrsatish maʼnosida qoʻllangan: *Ātam menĵa vasiyat qilib turur erdi, anı sinādim* (QR). *Bir parcha yer qalib turur erdi bir kishi olturur chaqlı jarrāh ayāqın uzatdı, ul yeri tutdı* (Tafsir). *Paygʻambar alayhissalam bir kun Aysha evindā olturub turur erdi kim, Fatima razillah anha keldi* (NF). *Oshul bəri Ogʻuz qagʻangʻa sōz berib turur erdi tagʻı dedi kim, ...* (OʻN).

2. *-b+dur+erdi* shakli eski oʻzbek tilida kam qoʻllangan boʻlib, ayrim asarlardagina uchraydi: *Mir Xisravnın ashʻār-u risālasın va sair musannifātın andın köpräk kishi jam qılmabdur erdi* (Navoiy, MN). *Hech chapqunda muncha qoy tüşmäbtür edi* (BN).

3. *-b+erdi* shakli XV asrdan boshlab faol qoʻllangan boʻlib, XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham uchraydi.

*-b+erdi* shakli ham maʼnosi va vazifasiga koʻra *-mish+erdi*, *-gʻan+erdi* shakllari bilan bir guruhga kiradi. Yaʼni *-b+erdi* shaklidagi feʼllar ham nutq payti bilan bevosita chegaradosh boʻlmagan ish-harakatni koʻrsatish yoki boʻlib oʻtgan voqea-hodisani eslash, taʼkidlab koʻrsatish maʼnosida qoʻllangan.

Quyidagi misollarda *-b+erdi* shaklidagi feʼllar nutq payti bilan chegaradosh boʻlmagan ish-harakat maʼnosida qoʻllangan: *Barcha ul bargah sajdasıdın ötüb erdi, iltimas qılıldı kim, ...* (Navoiy, Msh). *Namāzi xuftān bolub erdi, yekkä ölän kelib tüştüük* (BN). *Gʻurnıñ tagʻlarıgʻa qar köp tüşhüb erdi, lashkar xalqı yurmekke qıynaldılar* (Sh.tar.). *Dostlar, ahbablar, barıb edim mayxanagʻa // nāgahān tüşti közüm bir mahliqa janānāgʻa* (Furqat).

Quyidagi misollarda esa *-b+erdi* shaklidagi feʼllar boʻlib oʻtgan voqea-hodisani eslash, uni taʼkidlab koʻrsatish maʼnosida qoʻllangan: *Xojanı “yer farishtasi” derlär va Xoja ulumi zahiriyu batiniyni takmil qilib erdi* (Navoiy, MN). *Ātası Bengalda pādshāh bolub erdi, Said va Sultan Alauddingä mulaqqab edi. Muĵa saltanat tegib erdi* (BN). *El sözi dagʻı bilib erdilär // ish yaragʻını qılıb erdilär* (SHN).

XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda *-b+erdi* shaklidagi fe'llar asosan bo'lib o'tgan voqea-hodisani eslash, uni ta'kidlab ko'rsatish ma'nosida qo'llangan. Qiyoslang: *Taqi mushriklar taba ketib erdilär* (Tafsir). *Yinchke, yug'qa, nazuk tonlar kizib erdi* (QR). *Berkä emgäk birlä el künni basib erdi* (O'N). *Ul taxt üzäsindä qasri olturub erdi* (NF). *Bulutda kezläb erdi ay-tek ezin* (XSH).

*-b+erdi* shakli hozir o'zbek, uyg'ur, qozoq, qoraqalpoq, turkman, qarachay-balqar, no'g'oy kabi ko'pchilik turkiy tillarda turli shakllarda qo'llanadi. Bu shakl, ayniqsa, o'zbek shevalariga xos bo'lib, adabiy tildagi *-g'an+erdi* shakli o'rniga asosan shu shakl qo'llanadi.

**185-§. -a/-ä (y) affiksli ravishdosh asosida hosil bo'luvchi murakkab shakllar.** O'tgan zamon fe'lining bu turi eski o'zbek tilida quyidagi uch xil ko'rinishda qo'llangan: *-a+turur+erdi*, *-a+dur+erdi*, *-a+erdi*. Bular bir shaklning turli ko'rinishlari bo'lib, biri ikkinchisidan rivojlangan. Ya'ni *-a+erdi* shakli *-a+dur+erdi* shaklining qisqargan ko'rinishi bo'lib, keyingisi o'z navbatida *-a+turur+erdi* shaklidan kelib chiqqan. Bunda avval bu shakl tarkibidagi *turur* fe'li qisqarishga uchrab, undan sifatdosh ko'rsatkichi *-ur* tushib qoladi (*turur>tur*), so'ng tur (>-dur) butunlay tushib qoladi (*-a+turur+erdi>-a+dur+erdi>-a+erdi*). *-a+turur+erdi* esa uch qismning birikuvidan tashkil topgan murakkab shakldir: 1) *-a* — ravishdosh ko'rsatkichi; 2) *turur* — *tur-* holat fe'lining hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shakli; 3) *erdi* — *er-* to'liqsiz fe'lining o'tgan zamon shakli. Bu shakllar o'zbek tili taraqqiyotining turli davrlarida qo'llangan.

1. *-a+turur+erdi* shakli asosan XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarda ayrim manbalarda uchraydi.

XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda bu shakl tarkibidagi asosiy fe'l, ya'ni birinchi qism *-u/-ü (yu /yü, ya/yä)* affiksli ravishdosh shaklida ham kelgan: *alu turur erdi*, *berü turur erdi*, *bashlayu turur erdi* (*bashlaya turur erdi*), *ishläyü turur erdi* (*ishläyä turur erdi*).

*-a+turur+erdi* shaklidagi fe'llar quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

a) nutq paytidan oldin ma'lum bir vaqtda davom etib turgan

ish-harakatni ko'rsatadi: *Sag' qolinda kekka tegincha yildirayu turur erdi* (Tafsir). *Og'uz qag'an bir choqur tan ayg'ir atqa minä turur erdi. Oshul ayg'ir atni beg choq seveyür erdi* (O'N). *Ul vaqtda xalq Tog'ruhnıy ag'zig'a qaray turur erdi* (Sh.turk);

b) payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi ish-harakatning bajarilish vaqtini ko'rsatadi, ya'ni *-a+turur+erdi* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat davom etib turgan paytda bosh gapdagi ish-harakat bajariladi: *Qarun Musag'a salam qilg'ali kelä turur erdi, iraqdin Musanı darvish birlä kördi* (QR). *Lashkarnıy sonıyda kelä turur erdüim, xatunum hamla erdi, tug'urdi* (Sh.tar.).

2. *-a+dur+erdi* shaklining yozuv yodgorliklarda qo'llanishi XV asrdan boshlab kuzatiladi. XV–XVI asrlarga oid yodgorliklarda ancha keng qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarga oid manbalarda juda kam uchraydi.

*-a+dur+erdi* shaklidagi fe'llar ham *-a+turur+erdim* shaklidagi fe'llar kabi quyidagi ma'nolarda qo'llangan:

a) nutq paytidan oldin ma'lum bir vaqtda davom etib turgan ish-harakatni ko'rsatadi: *Mavlana Malik ottuz yashg'a yaqing'acha nazm aytmaydur erdi* (Navoiy, MN). *Meni qishlan deb... sa'y qiladurlar edi, vale qishlaq yeri-yu qishlamaq asbabını yaxshı saman bermäydürlär edi* (BN). *Kozlärımdın aqadur yäsh // xatırmıg'a yaqadur erdi yäsh* (SHN);

b) payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi ish-harakatning bajarilish vaqtini ko'rsatadi, ya'ni *-a+dur+erdi* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat davom etib turgan vaqtda bosh gapdagi ish-harakat bajariladi: *Bir kochada keledür edim, bayakbar baburiy robaro üchräy tüшти* (BN). *Bashımını munajatqa qoyub, tiläk tiläydür edim kim, közüm uyqug'a barıbtur* (BN).

3. *-a+erdi* shakli eski o'zbek tiliga xos bo'lmagan. Bu shakl XVII asr yodgorliklari "Shajarai turk" va "Shajarai tarokima" asarlarida qo'llangan.

*-a+erdi* shakli ma'nosi va vazifasiga ko'ra *-a+turur+erdi*, *-a+dur+erdi* shakllari bilan bir guruhni tashkil etadi. Qiyoslang: *Og'uz xan avg'a chiqıb, qaytıb kelä erdi, kördi kim, suvnıy yaqasında*

*bir nechä zaifalar kir yuva tururlar (Sh.tar.). Biz sizni Iraqda tapar-miz teb bara erdük, sizniñ turkmän ichinä kelgäninizni eshitdük (Sh.turk). Tevegä minib keyniñdin bara erdim, qabarib it Bechänä izimdin yetdi (Sh.tar.). Hanuz anlar kishiniñ atn tutmay erdilär (Sh.turk).*

O'tgan zamon fe'lining *-a /-ä (y)* affiksli ravishdosh asosida hosil bo'luvchi murakkab shakllari hozirgi o'zbek tilida qo'llanmaydi. Hozirgi o'zbek tilida bu shakllarning vazifasini *-(a)yotgan+edi* (olayotgan edi), *-(a)yotib+edi* (olayotib edi), *-(a)yotir+edi* (olayotir edi) shakllari bajaradi. *-a+turur+erdi* va *-a+dur+erdi* shakllari hozir boshqa turkiy tillarda ham qo'llanmaydi. *-a+erdi* shakli esa boshqird, tatar, qumiq, qarachay-balqar va boshqa ayrim tillarda qo'llanadi.

**186-§. -r+erdi (-mas+erdi)** yordamida hosil bo'luvchi **alar erdi** tarzidagi murakkab shakl, yozuv yodgorliklardan ma'lum bo'lishicha, hozirgi turkiy tillarda ham keng qo'llanadi.

Ayrim hollarda bu shakl tarkibidagi to'liqsiz fe'l qisqarishga uchrab *-rdı/-rdi* shaklida ham qo'llangan: *älurdim, kelürdim, älurdi, kelürdi, älurdılar, kelürdilär* kabi.

*-r+erdi (-mas+erdi)* shaklidagi fe'llar eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek va boshqa turkiy tillardagi kabi asosan quyidagi ma'nolarda qo'llangan:

1. Nutq paytidan oldin qachondir davom etib turgan ish-harakatni eslash, xotirlash kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Zulayha Yusufni qattiq sevär erdi, ... kündin-kungä sevgüsi ziyad bolur erdi (QR). Kechä bolmas erdi shahr-u bæg' arä // Özni tärtar erdi dasht-u täg' arä (Navoiy, LT). Ata ag'asıdın umıdvarlıq bar jihatıdın darang qılur erdi (BN). Ot ichrä samandar ki, tapar erdi hayat // kør, shu'lai ishqımda nechük örtänädür (Munis).*

2. Payt ergash gapning kesimi vazifasida kelib, bosh gapdagi ish-harakatning bajarilish vaqtini ko'rsatadi, ya'ni *-r+erdi (-mas+erdi)* shaklidagi fe'l ifodalagan ish-harakat davom etib turgan vaqtda bosh gapdagi ish-harakat bajariladi: *Künlärdä bir kün bu og'lan öz evi taba barur erdi, yolında bir ulug' ajdahanı kördi (Tafsir). Otär erdi oqub har birni bat-bat // kørundi bir eshik*

*hayhat-hayhāt* (Navoiy, FSH). *Bir kün bāzārg'a bārib, rastalarni tamāsha qilib yūrür erdim... bir xojandlik kishi yolugub, musahaba āylādi* (Furqat).

3. *-r+erdi* (*-mas+erdi*) shaklidagi fe'llar shart ergash gapli qo'shma gap tarkibidagi bosh gapning kesimi vazifasida kelib, bajarilishi mumkin bo'lgan, lekin ergash gapdagi ish-harakatning amalga oshmaganligi tufayli bajarilmay qolgan ish-harakatni yoki ergash gapdagi ish-harakat amalga oshgan taqdirdagina bajarilishi mumkin bo'lgan ish-harakatni ko'rsatadi: *Agar Adam barmasa, bir saat sabr qilsa erdi, Hava Adamg'a kelür erdi* (QR). *Agar ul ma'lum bolsa edi, ushbu sekiz kishi bilän xob urushur edük* (BN). *Agar gunahımdın ötsälär, men barib körär erdim* (Sh.turk).

**187-§. -g'ay+erdi** yordamida hosil bo'luvchi **alg'ay erdi** tarzidagi murakkab shakl eski o'zbek tilida keng qo'llangan.

*-g'ay+erdi* shakli tuzilishiga ko'ra aniqlik maylining o'tgan zamor: shakllariga o'xshasa ham, ma'nosi jihatdan ulardan farq qiladi. Bu shakl asosan ergash gapli qo'shma gapdagi bosh gapning kesimi vazifasida kelib, ergash gapdagi ish-harakatning amalga oshmaganligi tufayli bajarilmay qolgan ish-harakatni ko'rsatadi. *-g'ay+erdi* shakli bu jihatdan *-r+erdi* (*-mas+erdi*) shakliga o'xshaydi. Qiyoslang: *Bizniñ küchümüz yetsä, bu tevāni öltürgäy erdük* (QR). *Jān netkay erdi, dard anja hamrah bolmasa* (Lutfiy). *Agar burunraq aytilmiş bolsa erdi, faqir hargiz öz matlaimni aytmag'ay erdim* (Navoiy, MN). *Xat bolmasa, bolg'ay erdi nabud* (Munis).

Jumlada *kāshki* so'zi bo'lganda, *-g'ay+erdi* shaklidagi fe'llar istak, orzu kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Kāshki ilgärü yang'ay erdüm* (Tafsir). *Qılmag'ay erdim yüzin kermäk tamannā kāshki // salmag'ay erdim köñül mulkigä g'avg'a kāshki* (Navoiy, MN). *Kāshki allıda gardun tökkay erdi qānımız* (Munis).

### Hozirgi zamon

**188-§.** Hozirgi zamon ma'nosini ifodalovchi shakllar va ularning hosil bo'lish usullari bo'yicha eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida ma'lum o'zgachaliklar mavjud. Hozirgi o'zbek

tilidagi *yap*, *-(a)yotir*, *-(a)yotib* affikslari bilan hosil bo‘luvchi *olyapman*, *olayotirman*, *olayotibman* tarzidagi aniq hozirgi zamon shakllari eski o‘zbek tilida qo‘llanmagan. *-moqda* affiksi bilan hosil bo‘luvchi *olmoqdaman* tarzidagi hozirgi zamon fe‘li esa ayrim yodgorliklarda uchraydi. *Tur-*, *yür-*, *yat-*, *oltur-* holat fe‘llari ishtirokida tasviriy shakllarning hosil bo‘lishi bo‘yicha ham eski o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari bor.

Eski o‘zbek tilida hozirgi zamon ma‘nosida asosan *-a/-ä(y)* affiksli ravishdosh asosida hosil bo‘luvchi shakllar va *-r (-mas)* affiksli hozirgi-kelasi zamon shakli qo‘llangan.

**189-§.** *-a/-ä(y)* affiksli ravishdosh asosida hosil bo‘luvchi shakllar. Hozirgi zamon fe‘lining bu turi eski o‘zbek tilida quyidagi ko‘rinishlarda qo‘llangan: 1) *-a/-ä(y) +turur* yordamida hosil bo‘luvchi *ala turur men* tarzidagi shakl; 2) *-a/-ä(y) +dur* yordamida hosil bo‘luvchi *äladur-men* tarzidagi shakl; 3) *-a/-ä(y)* asosida hosil bo‘luvchi *äla-men* tarzidagi shakl. Bular bir shaklining turlicha ko‘rinishlari bo‘lib, biri ikkinchisidan rivojlangan. Hozirgi o‘zbek tilidagi “hozirgi-kelasi zamon fe‘li” deb ataluvchi *olaman* tarzidagi shakl shu yo‘l bilan vujudga kelgan. Demak, hozirgi o‘zbek tilidagi bu fe‘l dastlab *ala turur men* ko‘rinishida qo‘llangan bo‘lib, uning tarkibida *turur* holat fe‘li mavjud bo‘lgan. Keyinchalik holat fe‘li tarkibidan hozirgi-kelasi zamon sifatdosh ko‘rsatkichi *-ur* tushib qolgan va bu fe‘l tarkibidagi jarangsiz (t) undoshi jarangli (d) ga o‘tgan (*äla turur men >älatur-men >äladur-men*). So‘ng I va II shaxslarda holat fe‘li butunlay tushib qolgan (*äladur-men >äla-men, äladur-sen >äla-sen, äladur-miz >äla-miz, äladur-siz >äla-siz*). III shaxsda esa shaxs ko‘rsatkichi bo‘lmaganligi uchun saqlangan va hozirgi o‘zbek tilida *-di* shakliga aylangan (*äladur >äladır >äladı >oladı, oladurlar >aladırlar >aladılar >oladılar*). III shaxs shaklining *äladı, äladılar* ko‘rinishida qo‘llanishi XIX asr oxirlaridan boshlab kuzatiladi.

*-a/-ä(y)* affiksli ravishdosh asosida hosil bo‘luvchi *ala turur men, aladur-men, ala-men* tarzidagi shakllar o‘zbek tili taraqqiyotining turli davrlarida iste‘molda bo‘lgan.

1. *Äla turur men* tarzidagi shakl XIII–XIV asrlarga oid man-

balar va XVII asr yodgorliklari — “Shajarai turk” va “Shajarai tarokima” asarlarida keng iste’modda bo’lgan, XV—XVI asrlarga oid ayrim she’riy asarlarda ham uchraydi. Bu shakl XI—XII asrlarga oid yozma manbalar va qadimgi turkiy tilga oid yodgorliklarda ham qo’llangan. XIV asrdan oldingi davrlarga oid manbalarning ayrimlarida bu shakl tarkibidagi asosiy fe’l ko’pincha *-u /-ü(yu /yü)* affiksli ravishdosh shaklida kelgan: *alu turur, kelü turur, bashlayu turur, sozläyü turur*. “O’g’uznoma”da unli bilan tugagan fe’llar *ya /yä* affiksli ravishdosh shaklida kelgan: *bashlaya turur, sozläyä turur*.

XV—XVI asrlarga oid she’riy asarlarda bu shakl III shaxs birligida qo’llangan bo’lib, uning tarkibidagi holat fe’li ko’pincha (d) undoshi bilan *durur* shaklida kelgan. Qiyoslang: *Sharbati ichmäy turur sahib nazarlar jamidin* (Atoiy). *G’am yüki qilmay durur yalg’iz meni — mahzunni kaj* (Navoiy, G’S). *Ah, yashımdın arta durur za’f, ev tabib* (Bobur).

*Ala turur men* tarzidagi shakl ko’pincha aniq hozirgi zamon ma’nosida qo’llangan: *Sordi: bu ne ün turur? Ayttilar: Umayya quli Bilalg’a azab qilu turur* (Tafsir). *Xabar keldi kim, Makka bāzāriga Shamdin kelä tururlar, bug’day, arpa, xurma, quruq uzum yükläb kelä tururlar* (QR). *Yana baqar-men, ahlım taqı og’lanlarım jumlası yig’layu turur* (NF). *Kim bolur-sen va qaydin kelä turur sen?* (Sh.tar.).

Bu shakl bajarilishi nutq payti bilan chegaralanmagan “umumzamon”ga xos ish-harakatni ifodalashda ham qo’llangan: *Oshul qız andag’ körüklüg erdi kim, külsä, kök tañri kulä turur, yig’lasa, kök tañri yig’laya turur* (O’N). *Kün keldüginchä benim emgäkim arta turur* (QR). *Bu ashnın atı “bug’raxaniy” bolsun, tedi. Bu kün xalq ichindä “bug’ra” teb pishirä tururlar — ul āsh turur* (Sh.tar.).

Ayrim manbalarda bu shakl kelasi zamon ma’nosida ham qo’llangan: *Yüzlär ul kün aq bolub kulä turur* (Tafsir). *Tez og’uz eliniñ ichindä urush bolub, qızıl qān qāra suv-tek āqa turur, Ali xan tez elä turur, anıñ ornıg’a bir kishi pādshāh bola turur* (Sh.tar.).

*Yaxshisi ul turur kim, men yetti miñ mog'ul birlän bara turur men* (Sh.turk).

2. *Aladur-men* tarzidagi shakl o'zbek tili XV—XIX asrlar davomida qo'llangan. Bu shakl ma'nosiga ko'ra *āla turur men* tarzidagi shaklga o'xshaydi, ya'ni bu shakl ham ko'pincha aniq hozirgi zamon ma'nosida qo'llangan: *Bu yurtta xabar keldi kim, shah Mansurniñ qızı Yusuf zayniñ mālı bilä kelädür* (BN). *Dedi: көpg'ıl, ne yātip-sen, qopg'ıl... // kim bir ātinni og'urlydurlar // seni uyqu birlä aldaydurlar* (SHN). *Tüshken-mu madrasag'a ag'z-u belij hadisi? // har hujradın chıqadur āvāz qiyl-u qāla* (Furqat).

“Umumzamon”ga xos ish-harakatni ifodalashda ham qo'llangan: *Lutfiyni tırgüzädur har nafas ul la'l labiñ* (Lutfiy). *Tökädür qanımnı har dam közläriñ bāqıb turub* (Navoiy, ML). *Bu jins bud-na cherik hayl-hayl uchadur* (BN). *Alib yadıg'a sormas kimsä Zākırjān Furqatnı // agarchä aytadur dāim duā bādi sabälardıñ* (Furqat).

Ayrim manbalarda *āladur-men* tarzidagi shakl kelasi zamon ma'nosida ham qo'llangan: *Albatta, Sultan Xurasān birlän yāv boladur* (Sh.turk). *Xān bu söz birlä urush qılmaydur // cheriki qal'a sarı kelmäydür* (SHN).

*Āladur-men* tarzidagi shakl hozir xakas, tuva, sho'r va boshqa ayrim turkiy tillarda saqlangan bo'lib, turli fonetik ko'rinishlarda qo'llanadi.

3. *Āla-men* tarzidagi shaklning yozuv yodgorliklarida qo'llanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi. Lekin bu davrda ushbu shaklning qo'llanishi ancha chegarali bo'lib, “Tafsir”, “Qissasi Rabg'uziy”, “O'g'uznoma” asarlarida uchraydi. Keyingi davrlarga oid manbalarda ham bu shakl nisbatan kam qo'llangan.

*Āla-men* tarzidagi shakl, yuqorida aytilganidek, *aladur-men* tarzidagi shaklning qisqarishidan yuzaga kelgan bo'lib, III shaxsda shaxs-son ko'rsatkichi bo'lmaganligi uchun *-dur* qo'shimchasi saqlangan: *āladur, āladurlar* kabi. Lekin ayrim manbalarda *-dur* qo'shimchasining III shaxsda ham tushib qolish hollari uchraydi. Masalan: *Qamātımnı nechä qashıñ yā qıla // nechä hajr otı jānımda yāqıla* (Lutfiy). *Qılurlar mahbus Yusufnı quduqta // yana qul deb*



*satalar har qapuqta* (LN). *Meniñ majlisimda gâh ayaq bashqa qoyalar va gâh bâsh ayâqqa turubturlar* (Amiriy). *Ul guzarlar suv ulg'aygach tag'ayyur tapalar* (BN). *Sart xalqı bilmây, teb keldilär* (Sh.turk).

*Āla-men* tarzidagi shakl ma'nosiga ko'ra ham *āladur-men*, *āla turur men* tarzidagi shakllarga o'xshaydi, ya'ni bu shakl ham asosan aniq hozirgi zamon ma'nosida qo'llangan: *Ahmad Yusuf beg iztirāblar qilib, har zaman aytadur kim, yalang'āch mundaq kirib bāra-siz. Ikki-ūch oqni kōrdüm kim, bāshuñızdın otdi* (BN). *Xān dedi: "Xat bitib, oq birlä ätnñ // aytñız: Chin Sofi, yoq-mu uyatñ? // kimniñ umidi bilä ish qıla-sen // berkitib qal'anı sanchış qıla-sen?"* (SHN). *Ey tayaq bu ävāznı eshitmeymu-sän?* (TN) *Ey birādar, sabab nedür-ki, buyān ötmey-siz?* (Gulxaniy).

Ayrim manbalarda *āla-men* tarzidagi shakl kelasi zamon ma'nosida ham qo'llangan: *Ahmad Qavchinni chārlab, ... ātlarını tilāb āla-men* (BN). *Emdi bāra-miz, siz ne ayta-siz?* (Sh.turk). *Qāra xān elgä kishi yubardi: "Tez kelsünlär, avg'a chıqa-men", — teb* (Sh.tar.).

*Āla-men* tarzidagi shaklning "umumzamon"ga xos ish-harakatni ifodalashda qo'llanishi ayrim she'riy asarlarda uchraydi: *Küyüb firāqı otda mudam yig'lay-men // g'amıñniñ zahrın ichib talxkām yig'lay-men* (Huvaydo). *Shāmdın tā subhidam hajrıñda örtäb yāna-men // har kechä yādında mññ yol uyqudın uyg'ana-men* (Muqimiy).

Hozirgi o'zbek va boshqa ko'pchilik turkiy tillarda *āla-men* tarzidagi shakl hozirgi-kelasi zamon shakli sifatida shakllangan bo'lib, keng qo'llanadi.

**190-§. -māqda /-māqdä** affiksli **ālmaqda** tarzidagi shakl ba'zi manbalardagina uchraydi. XIII—XIV asr yodgorliklaridan "O'g'uznoma"da qo'llangan bo'lib, unga *turur* holat fe'li qo'shilib kelgan: *Kenä kelib kōrdi kim, bir shunqar qiatññ ichägüsın yemäktä turur* (O'N).

Bundan tashqari, "O'g'uznoma"da *-māqda /-māqdä* affiksli hozirgi zamon fe'li bilan bir xil ma'noga ega bo'lgan *-g'uda /-güdä (+turur)* affiksli shakl ham qo'llangan. Keyingisi *-g'u /-gü*

affiksli sifatdosh shakliga o‘rin-payt kelishigi affiksi qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan: *Og‘uz qag‘an kordi kim, cheriknin tapug‘larida kek jallug‘ beduk bir erkak beri yuruguda turur* (O‘N).

-g‘uda /-guda affiksli shakl keyingi davrlarga oid manbalarda uchramaydi. -maqda /-makeda affiksli shakl esa Navoiy va Munisning she‘riy asarlarida qayd qilindi:

*Mast olub bir dam shabab ayyamini tut mug‘tanam,  
Kim yigitlik dambadam otmakedadir ayyam ara.* (Navoiy, G‘S).

*Ayni inayatiqdin halimg‘a qil nazara,  
Olmakeda-men g‘aminqdin, dardimg‘a aylä chära.* (Munis).

O‘zbek tilida -maqda /-makeda affiksli hozirgi zamon fe‘lining qo‘llanishi XX asr boshlaridan asosan matbuot sahifalarida faollasha borgan. Hozirgi o‘zbek tilida ham bu shakl asosan matbuot tiliga xos bo‘lib, faqat bo‘lishli shaklda qo‘llanadi (eski o‘zbek tilida ham faqat bo‘lishli shaklda qo‘llangan). -maqda /-makeda affiksli hozirgi zamon fe‘li o‘g‘uz guruhidagi ozarbayjon va turk tillariga xos bo‘lib, bu tillarda ancha qadimdan qo‘llanib keladi.

**191-§.** Hozirgi zamon fe‘lining **tasviriy shakllari**. Eski o‘zbek tilida ham hozirgi o‘zbek va boshqa turkiy tillardagi kabi hozirgi zamon fe‘lining *tur-*, *yat-*, *yür-*, *oltur-* holat fe‘llari ishtirokida hosil bo‘luvchi tasviriy shakllari iste‘molda bo‘lgan. Ma‘lumki, hozirgi o‘zbek tilida bu shakllarning hosil bo‘lishida asosiy fe‘l ham, holat fe‘li ham *-b* affiksli ravishdosh shaklida keladi: *ishlab turibman, ishlab yotibman, ishlab yuribman, ishlab o‘tiribman* kabi.

Eski o‘zbek tilida hozirgi zamon fe‘lining tasviriy shakllari quyidagi ikki usul bilan hosil bo‘lgan:

1. Asosiy fe‘l *-b* affiksli ravishdosh shaklida, holat fe‘li *-ur / -ür* affiksli sifatdosh shaklida keladi: *Neche yuldin beri siz — xalqniq tuzin yeyub yürür men* (Sh.turk). *Kördüm kim, na‘lin yanida bir sharäk tühüb yatur, men taajjub yüzidin ul sharäkni na‘ling‘a tarttum* (Navoiy, MQ). *Biz alarni saqlab turur miz* (QR).

2. Asosiy fe‘l ham, holat fe‘li ham hozirgi o‘zbek tilidagi kabi

-b affiksli ravishdosh shaklida keladi: *Shakar ag'zıñ qashında la' qānıñ // meniñ hinduları saqlab turubdur* (Atoiy). *Yürübdür oynab Istanbulda xushnud // erür ahvālı kündin küngä behbud* (Furqat). *Kördi kim, bir nechäläri yana qazıb olturub tururlar* (Sh.turk). *Hazāraspdın qızılbaş ketmäy turubdur* (Sh.turk).

Hozirgi zamon fe'lining tasviriy shakllarining yuqorida ko'rsatilgan ikkala ko'rinishi ham eski o'zbek tilida kam qo'llangan bo'lib, ayrim manbalardagina uchraydi.

192-§. **Tur-, yür-, yät-, oltur-** holat fe'llari mustaqil qo'llanib, hozirgi zamon ma'nosini ifodalaganda ham eski o'zbek tilida quyidagicha ikki xil shaklda kelgan:

1. **-ur/-ür** affiksli sifatdosh shaklida keladi: *Yügürüb tashqarı chıqtı ersä, kördi: yāv turur* (Sh.turk). *Sevür-men közni sizni körmäk üchün // yürür-men yerdä izni körmäk üchün* (MN). *Sach ya sunbul yä ganj üstidä yätur ilän // yä kelibtür Rum eligä Chin-Machin lashkarı* (Atoiy). *Balqis ba karāmat birlä Sulayman hazratında kirdi, kördi: Sulayman taxt üzä olturur* (QR).

2. Hozirgi o'zbek tilidagi kabi **-b** affiksli ravishdosh shaklida keladi: *Desän kim, jan sipar qilg'ıl, Ätäyim // turub-men ushmunaq, öldür, ät, äyim* (Atoiy). *Yürüb-men hasratıñda munda yıg'lab // kezär-sen aysh ilä ishratda anda* (Furqat). *Dedi: qogp'ıl, ne yätib-sen, qogp'ıl // ne teshäk ichrä yätib-sen, qogp'ıl!* (SHN). *Qızılbaş vilayätınıñ ichindä olturub-miz* (Sh.turk).

III shaxsda, ba'zan boshqa shaxslarda ham *turur* fe'li yoki uning qisqargan shakllari *tur //dur* (*tur //dür*) qo'shilib keladi: *Malik, meniñ qarındashım ush olturub turur, sozläsün* (QR). *Kördi kim, ochaq ichindä bir yāsh og'län yätib turur* (Sh.tar.). *Turubdur közdä qaddıñız xiyālı // anıñ-dek kim suv üzrā tal nihālı* (MN). *Sanpusht nayzasını kıftigä tik ushlab yuqarı-quyı yürübdür* (Gulxaniy). *Anda көp ulamālar davra alıb olturubdurlar* (Furqat).

### Hozirgi-kelasi zamon

193-§. Eski o'zbek tilida hozirgi-kelasi zamon fe'li **-r** (**-ar / -är, -ur / -ür**) affiksli sifatdosh asosida hosil bo'lgan. Undosh

bilan tugagan fe'llarga bu affiksning *-ar /-är* yoki *-ur /-ür* shakllari qo'shilgan: *qach+ar, ket+är, bar+ur, bil+ür* kabi. Unli bilan tugagan fe'llarga esa *-r* shakli qo'shilgan: *bashla+r, sozlä+r* kabi. Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, turkiy tillar taraqqiyotining oldingi davrlarida unli bilan tugagan fe'llarga bu affiks *yur /yür* shaklida qo'shilgan, ya'ni *bāshla+r, sozlä+r* fe'llari *bash-la+yur, sozlä+yür* shaklida qo'llangan. Masalan, O'rxun-Enasoy va qadimgi turkiy tili yodgorliklarida bunday fe'llarga *yur /yür* shakllari qo'shilgan. XI–XII asrlarga oid yodgorliklarda ko'pincha *yur /yür*, ba'zan *-r* shakli qo'shilgan. XIII–XIV asrlarga oid "Tafsir", "Qissasi Rabg'uziy", "Nahjul farodis" kabi yodgorliklarda *yur /yür* va *-r* shakllari yonma-yon qo'llangan, ya'ni unli bilan tugagan fe'llarga goh *yur /yür*, goh *-r* shakllari qo'shilgan: *bash-la+yur // bashla+r, sozlä+yür // sozlä+r*. Qiyoslang: *Ne tiläyür-sen?* (QR) — *Ne tilär-sen?* (QR). *Qıynayur munafıqlarını* (Tafsir) — *Sizläрни qıynar* (Tafsir).

XV asrdan boshlab unli bilan tugagan fe'llarga bu affiksning *-r* shakli qo'shilgan bo'lib, *yur /yür* shakllari qo'shilishi ba'zi she'riy asarlardagina uchraydi.

*Aluram* tarzidagi shakl o'g'uz guruhidagi turkiy tillarga xos bo'lib, bu tillarda qadimdan qo'llanib keladi.

*-r* affiksli hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo'lishsizligi *-mas /-mäs* affiksi bilan hosil bo'ladi. (Bu affiksning ko'rinishlari va ularning qo'llanishi haqida qarang: 129-§.)

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shaklida ham shaxs-son affikslarining to'la shakllari qo'shiladi: *älmas-men, älmäs-sen, älmäs-miz (älmäs-biz), älmäs-siz, älmäslar* kabi. Shu bilan birga, I va II shaxslar bo'yicha ba'zi o'zgachaliklar ham mavjud, ya'ni:

1. Birinchi shaxs birligi uchun *almas-men* tarzidagi shakl bilan bir qatorda *-man /-män* va *-mam /-mäm* affikslari bilan hosil bo'luvchi *alman, almam* tarzidagi shakllar ham iste'molda bo'lgan:

a) *älman* tarzidagi shakl eski o'zbek tilida ancha keng qo'llangan bo'lib, yozuv yodgorliklarining deyarli hammasida uchraydi: she'riy asarlar tiliga xos bo'lib, nasriy asarlarda ham qo'llangan. Masalan: *Anlardın dastursız sätman* (QR). *Yıräklıq birlä men sizni*

unutman (MN). *Sālman nazarnı özgä sanamlar jamälina* (Atoiy). *Ajlaman, Jayxunda ul äy kemä birlä sayr etär // ya hiläl-u mehr aksın el körär Jayxun arä* (Navoiy, G'S). *Kechäräm jändın-u kechmän andın* (SHN). *Bilmän, ne jarima bilä Sultan Abusaid mirza Hiridin axraj qıldı* (BN). *Men bu ishni qıla alman* (Sh.turk.). *Ravzai rizvân gulistânig'a qılman iltifat* (Munis);

b) **älmam** tarzidagi shakl XVIII—XIX asrlarga oid ayrim she'riy asarlarda qayd qilindi: *Taqdir azaldın, bilä älmam, ne raqam bar* (Huvaydo). *Istây-istây baru bum ichrä seni, telba көңül, tutmam äräm-u qarär* (Munis). *Kөңülgä yüz tuman nish ursa hijran, äylämäm näla* (Muqimiy).

-r affiksli hozirgi-kelasi zamon fe'lining *alman*, *almam* tarzidagi I shaxs birlik shakllari o'g'uz guruhidagi turkiy tillarga xos bo'lib, bu tillarda tarixan keng qo'llanib keladi.

2. Ayrim manbalarda hozirgi-kelasi zamon fe'li bo'lishsiz shaklining III shaxs birligiga, ba'zan boshqa shaxslarga ham *turur* holat fe'li yoki uning qisqargan *tur //dür* shakllari qo'shilib keladi: *Emdi taşri taala menä yarlıg' yarlıqamas turur* (Tafsir). *Shaybaniy xän kördi kim, hech ish qıla älmastur. Andın-oq yandı* (BN). *Jahänni pusht-pä urmay täpalmasdur seni aslä* (Huvaydo). *Bergü berib, dostluqtın chıqmas turur men* (O'N). *Lek Sultän dedi kim, yärliqsız // hech ädamni yubarmasdur-biz* (SHN).

Misollardan ko'rinib turibdiki, hozirgi-kelasi zamon fe'lining bo'lishsiz shakli tarkibida kelgan *turur* (*tur //dur*) ma'noga ta'sir etmaydi va bu shaklga hech qanday qo'shimcha ma'no bermaydi.

Hozirgi-kelasi zamon fe'lining -r affiksli shakli eski o'zbek tilida hozirgi zamon, kelasi zamon, "umumzabon" kabi turli ma'nolarda qo'llangan. Masalan:

1. *Musa baqti, (tag') tepäsindä ot köründi, kishisingä aydi: men bu tag' üzä ot körär-men* (Tafsir).

2. *Küyär jänim, netäy, dilxah unutti //köñül ahvähdın ägäh unutti* (Atoiy).

3. *Bir kishi aytdı ki, bu og'lan ulug' pädshäh bolur, yer yüziniñ barchasın älur, көp ellärni va viläyatlarnı qatl qılır* (Sh.turk.).

4. *Ul ālur ushbu vilāyatlarni // kōrsātūr elgā ināyatlarni* (SHN).
5. *Mejā javr āylār ul dilbar hamisha // süchük tildin achchiq sözlār hamisha* (Atoiy).
6. *Dard birlā kechalār yig‘lar zār // kechalār yig‘lamag‘ida ish bār* (SHN).
7. *Qamuq yaqut erinli sozi durlar // vafāsızlıqni sizdin oğrānūrlār* (MN).
8. *Ashuqg‘an kōp tayılur, kōp tayılğ‘an kōp yiqılur* (Navoiy, MQ).
9. *Xān dedi: kim ki qılur bizgā razm // bil ki, axir mundāq kesilūr* (SHN).
10. *Ey ki, dilbar visālin istār-sen // özdin øzlik yūkin badar eylā* (Munis).

Misollarning birinchi va ikkinchisidagi *kōrār-men*, *kūyār* fe‘llari hozirgi zamon, uchinchi va to‘rtinchisidagi *pādshāh bo-lur*, *ālur*, *qatl qılur*, *kōrsātūr* — kelasi zamon ma‘nosini ifodalaydi, beshinchi va oltinchisidagi *javr āylār*, *sözlār*, *yig‘lar* — doimiy, takrorlanib turuvchi harakatni, yettinchi va sakkizinchisidagi *oğrānūrlār*, *tayılur*, *yiqılur* — odatdagi harakatni ko‘rsatadi, to‘qqizinchi va o‘ninchisidagi *razm qılur*, *istār-sen* fe‘llari esa shart fe‘li o‘rnida qo‘llangan bo‘lib, “*razm qılsa*” “*istasang*” ma‘nosini ifodalaydi.

Hozirgi-kelasi zamon fe‘lining *-r* affiksli shakli turkiy tillarda qadimgi davrlarda shakllangan bo‘lib, hozir ham turkiy tillarning deyarli hammasida qo‘llanadi. Hozirgi o‘zbek va boshqa bir qator tillarda bu shakl kelasi zamon gumon fe‘li sifatida shakllangan.

### Kelasi zamon

**194-§.** Eski o‘zbek tilida kelasi zamon fe‘lini asosan *-g‘u/-gū* va *-g‘ay/-gāy* affiksli shakllar tashkil etadi. Shu bilan birga, yuqorida aytilganidek, eski o‘zbek tilida kelasi zamon ma‘nosini ifodalash uchun *-r* affiksli *ālur-men* tarzidagi hozirgi-kelasi zamon fe‘li, ba‘zan *āla turur men // āladur-men // āla-men* tarzidagi hozirgi zamon shakllari ham qo‘llangan (qarang: 189, 193-§§).

Bulardan tashqari, ayrim manbalarda kelasi zamon fe'lining *-asi/-äsi, isar/-isär, -ajaq/äjäk* affiksli shakllari ham iste'molda bo'lgan. Bu shakllar o'zbek tiliga aloqador bo'lgan yozma manbalarning ayrimlaridagina uchraydi, bularda ham III shaxs birlik shaklida qo'llangan:

1. *-asi/-äsi* affiksli shakl XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda qo'llangan: *Bu shaharg'a bir payg'ambar hijrat qilasi turur, ya'ni keläsi turur* (Tafsir). *Mundın burun tug'mish yoq, tug'ası taqı yoq turur* (QR). *Kim ul devāna elge ne qilası ne chāra birle andın qurtulası* (XSH). *Labiñ la'lı erur dardım davāsı //bu dardımg'a davā mushkil bolası* (LN).

2. *-isar/-isär* affiksli shakl ham XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda qo'llangan: *Ichäliñ bādani, gullar solisar //tanımız āqibat tupraq bolısar* (MN). *özimizgä özimiz yıg'lasıaq har // kim ush biz-täk bizä kim yıg'layısar* (XSH). *Minnat kütürüb tirilgän er xär ölisär* (Saroyi).

3. *-ajaq/-äjäk* affiksli shakl XIX asrga oid ba'zi Xorazm shoirlarining asarlarida uchraydi. Masalan: *Gulshani bazmim arā zulfı samāna keläjäk // ag'zı g'uncha, yüzi gul, qāmati zebā keläjäk* (Kamil Xorazmiy).

Ma'lumki, kelasi zamon fe'lining *-ajaq/-ejäk* affiksli shakli 1929-yildagi Til-imlo konferensiyasida o'zbek adabiy tili me'yorı sifatida qabul qilingan bo'lib, 1930-yillar davomida badiiy adabiyotning barcha janrlarida keng qo'llangan. Hozir ayrim asarlardagina uchraydi.

Kelasi zamon fe'lining *-asi/-äsi, -isar/-isär, -ajaq/ejäk* affiksli shakllari tarixan o'g'uz guruhidagi turkiy tillar uchun xos bo'lib, bu tillarga oid yozma manbalarda faol iste'molda bo'lgan. Hozir *-ajaq/äjäk* affiksli shakl o'g'uz va qipchoq guruhidagi turkiy tillarda keng qo'llanadi, *-asi/-äsi* affiksli shaklning qo'llanishi o'g'uz guruhidagi turkiy tillarda ham ancha chegaralangan, *-isar/-isär* affiksli shakl esa iste'moldan chiqqan.

**195-§. -g'u/-gü** affiksli kelasi zamon fe'li eski o'zbek tilida faol iste'molda bo'lgan. Bu shakl qadimgi turkiy tili yodgorlikla-

rida va XI—XII asrlarga oid manbalarda ham ancha keng qoʻllangan.

-gʻu/-gü affiksi jarangsiz [q] yoki [k] undoshi bilan boshlanuvchi -qu/-kü shakllarda ham qoʻllangan. Unli yoki jarangli undosh bilan tugagan feʼllarga -gʻu/-gü, jarangsiz undosh bilan tugagan feʼllarga -qu/-kü shakllari qoʻshilgan: *bāshla+gʻu, soʻzlä+gu, āl+gʻu, bil+gü, qorq+qu, yet+kü* kabi.

-gʻu/-gü affiksli kelasi zamon feʼlining shaxs-son affikslari bilan tuslanishi quyidagicha: *ālgʻum (ālgʻu+m), ālgʻun (ālgʻu+n), ālgʻusi (ālgʻu+sı), ālgʻumuz (ālgʻu+mız), ālgʻunız (ālgʻu+nız), ālgʻuları (ālgʻu+ları)*.

Boʻlishsiz shakli quyidagicha ikki xil yoʻl bilan hosil boʻladi:

a) feʼlining -ma/-mä affiksli boʻlishsiz shakli asosida: *ālmagʻum, bilmägüm, qorqmagʻum, yetmägüm* kabi;

b) shaxs-son affiksi + *yoq* inkor soʻzi yordamida: *bārgʻum yoq, bārgʻuñ yoq, bārgʻusi yoq, bārgʻumuz yoq, bārgʻuları yoq* kabi.

-gʻu/-gü affiksli kelasi zamon shakliga koʻpincha *turur* holat feʼli yoki uning qisqargan *tur//dur (tür //dür)* shakllari qoʻshilib keladi. Lekin maʼnoda oʻzgarish boʻlmaydi. XIV asr oxirlariga qadar *turur*, undan keyingi davrlarda asosan *tur//dur (tür //dür)* qoʻshilgan. Masalan: *Ne kim, yer üzrä boldachi turur, halak bolgʻusi turur* (Tafsir). *Taʼjrim buyursa, aytqum turur* (Sh.tar). *Zulfidin, ey zahmligʻ koʻñlum, qutulgʻuñ, yoq turur* (Navoiy, FK). *Bāshlagʻusi durur meni tashvish-u gʻam sari* (Atoiy). *Hech kimgä bolgʻusi yoq-tur gʻavgʻa* (SHN). *Minar tagʻidin otkäch ulugʻ ot yandurgʻumuz-dur* (BN).

-gʻu/-gü affiksli kelasi zamon feʼli ish-harakatning nutq paytidan keyin bajarilishi (yoki bajarilmasligi) aniq va qatʼiy ekanligini koʻrsatadi. Shuning uchun bu shaklni “aniq kelasi zamon feʼli” yoki “qatʼiy kelasi zamon feʼli” deb atash mumkin. Masalan: *Omar bildi kim, Rasulgʻa barb, andin shikayat qilgʻusi turur* (QR). *Hajrında, begim, “ah!” degümdür dagʻı ölgüm // “yad eylegil, ey shah”, degümdür dagʻı ölgüm* (Atoiy). *Ul jamāatgʻa bu nav erdi hayāl // kim aña bolgʻusi yoq hech zavāl* (SHN). *Bu kitabni*



*oqug'uchi va tınlag'uchi, albatta, türk bolg'usi turur* (Sh.tar.). *Bag' ichra kirib sarv-u ravang'a asla // ko'z salmag'um, ey sarv-u ravanim sen-siz* (Huvaydo).

Hozirgi o'zbek tilida -g'u/-gu affiksli kelasi zamon fe'lining qo'llanishi ancha chegaralangan bo'lib, asosan she'riy asarlarda uchraydi.

**196-§.** -g'ay/-gay affiksli shakl ham eski o'zbek tilida faol iste'molda bo'lgan, qadimgi turkiy tili yodgorliklari va XI—XII asrlarga oid yozma manbalarda ham ancha keng qo'llangan.

-g'ay/-gay affiksi -qay/-kay shakllarda ham qo'llangan. Unli yoki jarangli undosh bilan tugagan fe'llarga -g'ay/-gay, jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga -qay/-kay shakllari qo'shilgan: *bashla+g'ay, sozla+gay, al+g'ay, bil+gay, qorq+qay, yet+kay* kabi.

-g'ay/-gay affiksli shaklda shaxs-son affikslarining to'la shakllari qo'shilgan: *alg'ay-men, alg'ay-sen, alg'ay-miz (alg'ay-biz), alg'ay-siz, alg'aylar* kabi.

I va II shaxslarda -g'ay/-gay affiksi ba'zan [y] undoshsiz -g'a/-ga (-qa/-ka) ko'rinishida ham qo'llangan. Eski o'zbek tilida bu hol she'riy asarlar tili uchun xos bo'lgan. Masalan:

*Istaban taqriddin sozumga kuşad.*

*Dastan tarxin etga-men bunyad.*

(Navoiy, SS).

*Ey jafaci, men seni sevdum ke, janan bolg'a-sen.*

*Bilmadim, mundaq vafasiz duşmani jan bolg'a-sen.*

(Atoiy).

*Ey jafagar, bir vafa qil kim, ikavlan bolg'a-biz.*

*Men jafa cekmaddin-u sen bevakadin xalas.*

(Navoiy, FK).

*Bolg'a-siz ulug' uruşda mansur.*

*Nafsi ammarani aylab maqhur.*

(SHN).

XI—XIV asrlarga oid yodgorliklardan “Qutadg‘u bilig”, “Hibatul haqoyiq”, “Xusrav va Shirin” asarlarida -g‘ay/-gäy affiksi III shaxsda ham [y] undoshisiz qo‘llangan:

*Biliglik bilir ul biligniñ ati,  
Biligsiz ne bilgä bilig qimmatı.(QB).*

*Bu kün kendü sücük bu termäk sanja,  
Accıq bolg‘a yarın qoyub bardug‘unı.(HH).*

*Yar elgä kirgä teb, andışa birlä,  
Kesä başladı tag‘nı teşä birlä. (XSH).*

Eski o‘zbek tilida (boshqa turkiy tillarda ham) -g‘ay/-gäy affiksli shakl ko‘p ma‘noli bo‘lgan. Shuning uchun turkologik adabiyotlarda bu shakl har xil nomlar bilan ataladi.

Mahmud Koshg‘ariy bu shaklni “kelasi zamon fe‘li” nomi bilan atagan. Qadimgi uyg‘ur tili yodgorliklarida esa bu shakl kelasi zamon ma‘nosini ifodalashi bilan birga, unda istak, orzu ma‘nolari ham bo‘lgan. Eski o‘zbek tilida uning ma‘nolari yana ham kengaygan va murakkablashgan.

-g‘ay/-gäy affiksli shaklning eski o‘zbek tilida qo‘llanishiga misollar keltiramiz:

1. *Muqarrar boldı kim, tñjlası bolg‘an nokār-u sardār, māl-u jihatı bilän chıqıb, qorg‘ännı tãpshurg‘ay (BN).*

2. *Ul vaqtda mog‘ullar xahladılar kim, Jayxunnu båg‘lag‘aylar, tã Urganchga suv bārmag‘ay (Sh.turk).*

3. *Dostlar, kəñlümdäkin qabrım tãshıg‘a yāzg‘ay-siz // tãki birdek bolg‘ay ul äy ishqıda ichim tãshım (Atoiy).*

4. *Qorqut bāshlıg‘ barcha xalq Tumang‘a aytdılar: pãdshāhlıqı ang‘a berib, özün aysh-u ishratg‘a mashg‘ul bolg‘ay-sen (Sh.tar.).*

5. *Yolıda tufrāq olayın ät uchun // tã mññä qılg‘ay gular ul shaxsuvar (Lutfiy).*

6. *Har kishi kim, birävğä qazg‘ay chah // tüşkây ul chah arā ezi nāğāh (Navoiy, SS).*

Keltirilgan misollarning birinchisidagi *tāpshurgʻay* feʻli kelasi zamon maʼnosini ifodalaydi, ikkinchisidagi *bāgʻlagʻaylar*, *bārmagʻay* — istak, uchinchisidagi *yāzgʻay-siz* — iltimos, toʻrtinchisidagi *mashgʻul bolgʻay-sen* — maslahat, beshinchisidagi *qilgʻay guzar* — maqsad maʼnosini ifodalaydi. Oxirgi misoldagi *qāzgʻay* feʻli shart feʻli (*qāzsa*) maʼnosida qoʻllangan.

-gʻay/-gāy affiksli shakl hozir oltoy, xakas, shoʻr, tufalar kabi turkiy tillarga xos boʻlib, qipchoq va qarluq guruhidagi turkiy tillarda ham maʼlum darajada qoʻllanadi. Hozirgi oʻzbek tilida bu shaklning isteʼmol doirasi chegaralangan boʻlib, baʼzan sheʼriy asarlarda istak shakli sifatida qoʻllanadi.

### Feʻl yasalishi

**197-§.** Eski oʻzbek tilida ham feʻl yasalishining quyidagi ikki usuli amalda boʻlgan: 1) morfologik usul (affiksatsiya); 2) sintaktik usul (kompozitsiya).

1. Sintaktik usul bilan yasalgan feʻllar qismlarining qaysi soʻz turkumiga aloqador ekanligi, maʼnosi, bogʻlanish yoʻllariga koʻra ikki guruhga boʻlinadi:

Birinchi guruhni ot (yoki ot turkumidagi soʻzlar) + yordamchi feʻl tarzidagi qoʻshma feʻllar tashkil etadi: *qabul qildi // qabul etti, tamām boldi* kabi.

Ikkinchi guruhni feʻl + feʻl tarzidagi murakkab shakllar tashkil etadi. Bunday feʻllar *-b (-ib /-ib // -ub/-üb)* affiksli yoki *-a /-ä (y), -u/-ü (yu/yü)* affiksli ravishdoshga koʻmakchi feʻl yoki koʻmakchi vazifasida qoʻllanuvchi feʻl qoʻshilishi bilan hosil boʻladi: *kirib keldi, qāchib ketti, ālib qaldi, kesib tashladi, uzib āldi, tutub turdi, kelā bahladi, ketā berdi, āla keldi, tūshā yāzdi, aytu berdi, soʻzlāyü bāshladi, istāyü chiqdi* kabi. Bu tarzidagi feʻllar asosan ish-harakatning boshlanishi, tugallangani, davomiyligi, takrorlanib turishi kabi maʼnolarni ifodalaydi (qarang: 135, 136, 137-§§).

2. Morfologik usul bilan feʻl boʻlmagan soʻzlarga maxsus affikslar qoʻshilishi bilan yangi feʻllar hosil boʻladi. Eski oʻzbek tilida ham feʻl yasovchi affikslarning bir guruhi mahsuldor boʻlib, boshqalari ayrim soʻzlardangina feʻl yasashda ishtirok etgan.

**198-§.** Quyidagilar eski o‘zbek tilida ham **mahsuldor** fe‘l yasovchi affikslarni tashkil etadi:

**-la/-lä** affiksi eng mahsuldor yasovchi bo‘lib, asosan ot turkumidagi so‘zlardan fe‘l yasaydi. Bu affiks bilan yasalgan fe‘llar ishning o‘zakdan anglashilgan predmet vositasida bajarilishi, shu predmet holatiga o‘tish, shu predmet yoki holatga, belgiga ega bo‘lish kabi ma‘nolarni anglatadi: *Bu er meni yanjaqladi* (QR). *Hujra qapug‘ini berkladi* (Tafsir). *Qırıq künden soñ bedükladi* (O‘N). *Tesh-teshin pichaqlab, chapqulab pāraladilar* (BN). *Toyladi anyu mehmān qıldı* (SHN). *Āv avlamāqqa qolum yetishmāy turur* (Sh.tar.).

Ba‘zan bu affiksga fe‘l darajasini yasovchi affikslar qo‘shilib, **-lan/-län, -lash/-läsh** shaklida ham keladi: *salahlandi, butaqlandi, kerklandı, chechaklandı, yag‘ilashtı* (QR), *yumshaqlandi, yüzländi, elikläshtı* (Tafsir), *g‘azablandi* (NF), *küchländi, emläshdi* (XSH), *yüzländi* (Navoiy, MQ), *ätlandi* (SHN), *sözläshtı* (BN).

**-da /-dä (-ta /-tä)** affiksi **-la/-lä** affiksining fonetik ko‘rinishi bo‘lib, bu affiks bilan ayrim so‘zlardangina fe‘l yasaladi: *Barcha zarılıq qılıb sıqtashtılar* (Tafsir). *Yusufni istāñiz* (QR). *Meni-mu aldayür-siz?* (NF). *Ishqqa ündädim jahānnı* (XSH). *Magar goldag‘ay anı inayatın madadı* (Atoiy). *Qoldadı va tovba hidayatıg‘a yoldadı* (Navoiy, MQ).

**-a/-ä** affiksi bilan asosan ot turkumidagi so‘zlardan fe‘l yasaladi. Bunday fe‘llar ma‘no jihatdan **-la/-lä** affiksi bilan yasalgan fe‘llarga yaqin turadi. Qiyoslang: *Kemilärni küchäb alur erdi* (Tafsir). *Qırıq kechä ashadılar* (O‘N). *Yazuqlarımı sen yarlıqag‘ıl* (NF). *Közi qāshı birlä oynar* (Lutfiy). *Tünädi lashkar anda* (SHN). *Āshlarımı āshab va yāshlarını yashab, ātaları keynidin ketdi* (Sh. tar.).

**-r (-ar/-är)** affiksi bilan asosan sifatdan fe‘l yasaladi va bunday fe‘llar o‘zakdan anglashilgan belgiga, holatga o‘tishni ko‘rsatadi: *Xurma yig‘achi yashardı* (Tafsir). *Yāshım ulg‘ardi* (QR). *Arqası bükrärmish, sāchı saqālı āqarmış* (NF). *Yüzünni kördi sarg‘arb...* (Lutfiy). *Bāshım āqardı* (Atoiy). *Kökärgän yig‘achlarınıñ barchası* (Sh.tar.).

**199-§.** Quyidagi affikslar **kammahsul** bo‘lib, bular bilan fe‘l

yasalishi ancha chegaralangan, ba'zilar esa ayrim so'zlardangina fe'l yasaydi.

-ay/-äy affiksi bilan asosan sifatdan fe'l yasaladi va bunday fe'llar o'zakdan anglashilgan belgiga, holatga o'tishni ko'rsatadi: *Kazg'uda sarg'ayg'ay-sen* (QR). *Bu og'ul ulg'aydi* (NF). *Ul faqir qashida ulg'ayibdur* (Navoiy, MN). *Barcha säg'aytlanib ätlandilar* (SHN).

-g'ar/-gär //-qar/-kär affiksi asosan otdan fe'l yasaydi va bunday fe'llar o'zakdan anglashilgan predmetga, holatga ega bo'lishni bildiradi: *Qoylarimizni ul suvg'aru berdi* (QR). *Sen anlarniñ tamini köngärdiñ* (Tafsir). *Otg'aruñlar yilqilariniziñ* (Tafsir). *Bu qazg'u qozg'idin qutg'ar meni bir* (XSH). *Najät sarı bāshqarur* (Navoiy, MQ).

-iq/-ik //-uk/-ük affiksi bilan ot va boshqa so'zlardan fe'l yasaladi: *G'azatqa chiqmish erdi, valekin tēbrä yoluqn* (NF). *Biriktürüb bir yolu urg'ıl* (QR). *Achiqmish bēri qoyg'a kirü yañlig'* (MN). *Haqniñ yaqinlarig'a yoluqushtı* (Navoiy, MQ). *Meniñ bilä... yag'iqmish bolg'aylar* (BN).

-it/-üt/-ät affiksi bilan asosan sifatdan fe'l yasaladi: *Yolnu berkitäyin* (QR). *Menim tär köñlimni keñütü bergil* (Tafsir). *Barid sözün tuzätti* (XSH). *Oshni berkittilär* (BN).

-sın /-sin //-sun /-sün (-sı/-si //-su/-sü) affiksi bilan ot va sifatdan fe'l yasaladi: *Taqı ulug'sındı, ya'ni kibr keltürdi* (Tafsir). *Azrail külümsindi* (QR). *Karam birlä ag'ırsunmadı* (NF). *Boyunsundum jafäg'a* (MN). *Yig'lamsınur-u közigä kelmäs yāsh* (Navoiy, ML). *Yarlıg'sıdı adam öz izisingä* (Tafsir). *Bahāsı ögsimāz, turmishcha artar* (XSH). *Hech narsa artmadı, ögsümädi* (Tafsir).

-sa/-sä affiksi bilan otdan fe'l yasaladi: *Musa yabanda suvsadı erdi, ...* (Tafsir). *Dilrabā, ābi hayat ernin, üchün jān suvsadı* (Lutfiy).

-al /-äl (-ul /-ül), -ra, -g'a, -ash affikslari bilan asosan ot va sifatdan fe'l yasaladi: *Bu elin netäk önäldi* (G'R). *Seniñ ishqında Xorazmiy yoqaldı* (MN). *Beliñ bükrülgäni bolmas yana tüz* (Saroyi). *Seniñ chäkarların-oq kökräyür, bil* (MN). *Uzun tün toylab, anda ırg'adılar* (XSH). *Meniñ teväm seniñ tevänä yanashtı* (Tafsir).

## Fe'l darajalari

**200-§.** Eski o'zbek tilida ham fe'l darajalarining quyidagi turlari mavjud bo'lgan: bosh daraja, o'zlik daraja, majhul daraja, birgalik daraja, orttirma daraja.

Fe'l darajalarining yasalishi va ularning ma'nosiga ko'ra ayrim o'zgachaliklardan tashqari, eski o'zbek tili bilan hozirgi o'zbek tili o'rtasida deyarli farq yo'q.

Fe'lning bosh darajasi morfologik ko'rsatkichga ega emas. Boshqa daraja shakllari bosh darajadagi fe'llarga maxsus affikslar orttirilishi bilan hosil bo'ladi.

**O'zlik darajaning** asosiy ko'rsatkichini **-n (-in/-in // -un/-ün)** affiksi tashkil etadi: *Yusuf ul boläkkä sevüندی* (QR). *Yolda qatng' saqlang'il* (NF). *Kuydi, etändi g'am otında ichim tashum meniñ* (Atoiy). *Hargiz andāq dilpazir kerünmäs kim, ...* (Navoiy, Msh). *On alti qatla chumundum* (BN). *Og'uz xāng'a baqınmadı* (Sh.tar.).

O'zlik daraja ma'nosida majhul daraja ko'rsatkichi **-l (-il/-il / -ul/-l)** ham qo'llanadi: *Kishilär yig'ıldılar* (Tafsir). *Tamlari qamug' yemrüldi* (QR). *Kөңüldä ishq chaqmaqı chaqıldı* (XSH). *Bu vasila bile hayäl qıldı kim, ...* (Navoiy, MN).

O'zlik darajadagi fe'l odatda bosh kelishikdagi so'z bilan munosabatga kirishadi. Lekin o'zlik daraja shaklidagi o'timli fe'llar ba'zan tushum kelishigini boshqarib kelishi ham uchraydi. Masalan: *Meniñ g'animim qorg'anda edi, ham qorg'anını alındı, ...* (BN). *Anı üç qism qılındı* (Navoiy, MQ).

**Majhul daraja** shakli **-l (-il/-il // -ul/-ül)** affiksi bilan hosil bo'ladi: *Yartig' ızıldı* (Tafsir). *Bu bag'lıq ishimgä achg'uch berildi* (XSH). *Majlis qurıldı* (MN). *Qulluq arzadasht yakshanba kuni bitildi* (Navoiy, MN). *Söz bilä alam eshigi achılur // söz bilä muncha javähir sächılur* (SHN).

Tarkibida [l] undoshi bo'lgan fe'llarga majhul daraja ko'rsatkichi ko'pincha **-n** shaklida qo'shiladi: *Bu qissa yemä tügäl sharx birlä yad qılınmış turur* (Tafsir). *Urush-toqush bashlandı* (O'N). *Kish bāg'landı belgä* (XSH).

Majhul darajadagi fe'l ham odatda bosh kelishikdagi so'z bilan

aloqaga kirishadi. Ayrim hollarda tushum kelishigidagi soʻzni boshqarib kelishi ham uchraydi: *Buyurgʻan gʻazallardın tayyar bolgʻanlarnı yıbarıldı* (Navoiy, Msh). *Mujavirlarnı bu harakattın tahdid bilā manʻ qıldı* (BN).

**Birgalik daraja** shakli **-sh (-ish/-ish // -ush/-üş)** affiksi bilan hosil boʻladi. Bu daraja asosan quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

a) birgalik maʼnosi. Bunda ish-harakatni bajaruvchilar barobar ishtirok etadilar, birgalikda harakat qiladilar: *Fatima Ali birlā oturdi, yigʻlashdılar* (Tafsir). *Ikki qashı bash bir qılıb, bilmān, ne sōz sozlāshılār* (Lutfiy). *Barchası qol tutushub chıqdılar* (SHN). *Qıshlaq juvanı yigʻılshıb // ıssıgʻda oynash-gʻay pıshıb* (Muqimiy);

b) ish-harakatni bajarishda yordamlashish, bahslashish kabi maʼnolarni ifodalaydi: *Anıy birlā sanchıshur erdi* (QR). *Bir-ıkkı qatla ul taraf bu tarafđın qılıch alıshılār* (BN). *Va taqı bırı-bırı birlān yagʻı bolub chapıshurlar erdi* (Sh.tar.).

**201-§. Orttirma daraja** koʻp shaklli boʻlishi bilan feʼlning boshqa darajalaridan ajralib turadi.

Orttirma darajaning koʻp shaklli boʻlishi maʼlum sharoitlar bilan bogʻliq. Birinchidan, orttirma daraja shaklini yasovchi affikslarning koʻpchiligi bir affiksning fonetik koʻrinishlari sifatida vujudga kelgan. Ikkinchidan, orttirma daraja affikslarining ishlatilishi ayrim hollarda feʼl negizining xususiyatiga ham bogʻliq boʻladi. Uchinchidan, orttirma darajani yasovchi affikslarning bir guruhi keng qoʻllansa, boshqalari ayrim feʼllargagina qoʻshiladi.

Eski oʻzbek tilida quyidagi affikslar ishtirokida hosil boʻlgan orttirma daraja shakllari amalda boʻlgan:

**-t (-ıt/-it // -ut/-üt)** affiksi asosan ikki boʻgʻinli feʼllarga qoʻshiladi: *Bızniñ otlagʻımıznı qurtur* (QR). *Ibrahimnı zındanda berklätti* (Tafsir). *Quyash yanlıgʻ yüzünizni yaruttı* (MN). *Oxshattı qamatıngʻa sanāvbarı bāgʻban* (Navoiy, MN). *Chıqarıb elni yürüttüler* (SHN). *Köp Lutfiynı qorqutma* (Lutfiy).

**-ar/-er // -ur/-ür** asosan bir boʻgʻinli feʼllarga qoʻshiladi: *Tonın*

*chiqarsun* (Tafsir). *Evin eshikin ketärgil* (QR). *Bezäb anı öz ornına yaturdı* (XSH). *Ichmedi, küchün ichürdilär* (NF). *Shaydähqqa bāsh chıqarur* (Navoiy, MQ).

**-tur/-tür // -dur/-dür** asosan undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shiladi.

Jarangsiz undosh bilan tugagan fe'llarga *-tur/-tür* shakllari qo'shiladi: *Küväch asturur* (QR). *Azaqın bichtürdi* (Tafsir). *Gulāb sachtur* (XSH). *Altun uynı tiktürdi* (Sh.tar.).

Jarangli undosh bilan tugagan fe'llarga hamda *ye-*, *dä-* singari unli bilan tugagan bir bo'g'inli fe'llarga *-dur/-dür* shakllari qo'shiladi: *Hakimlarnı yig'durdi* (QR). *Og'uz qag'ang'a bildurdi* (O'N). *Közıngä tupraq toldurdi* (NF). *Xiradnı azdurur g'amzan xumār* (MN). *Hajr otı bu kün ichimni küydürür* (Sakkokiy). *Tarıg'imni yedürdi* (Tafsir). *Muḡa Jurjit dedürürlär ärdi* (O'N).

Lekin jarangli [l] undoshi bilan tugagan *kel-*, *öl-* fe'llariga *-tür* shakli qo'shiladi: *keltür*, *öltür*. XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda bu fe'llarga ko'pincha *-tur*, ba'zan *-dür* shakli qo'shilgan: *keltür // keldür*, *öltür // öldür*.

*Kel-* fe'luga *-tür* qo'shilganda, ba'zan fe'l oxiridagi [l] undoshi tushib, *ketür* shaklida ham qo'llangan: *Zahmat ketürdüüm* (XSH). *Ketürgil bizgä läyiq arg'umāni* (MN). *Ketür, säqiy, meḡä bir jām rangin* (Navoiy, FSH).

**-g'ur/-gür // -qur/-kür (-qar/-kär)** affiksi asosan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi: *Muncha yazg'uradur shayxi parsā bizni* (Atoiy). *Ash yesunler teb kiygürgil* (QR). *Meni topg'a chulg'ab taqi yatquruḡ* (NF). *Muradıḡ'a yetkürsün* (MN). *Insāfsız aduvni yāmānlardıñ ötkärür* (Navoiy, MQ).

**-g'uz/-güz (-güz/-küz)** affiksi asosan bir bo'g'inli fe'llarga qo'shiladi: *Abdullanı turg'uzuḡ* (QR). *Samarqand taxtg'a olturg'uzdılar* (BN). *Körgüzür-sen äg'izni handa bilä* (Lutfiy). *Ganḡ körgüzür* (XSH). *Meni ötkäziḡizlär teb, ...* (Sh.tar.).

**-tar/-ter, -uz/-üz // -ız/-iz** affikslarining qo'llanishi ma'lum fe'llar bilan chegaralangan bo'lib, ba'zi manbalarda uchraydi: *Aḡa yol kërterdiḡ* (Tafsir). *Nechä burtardıḡ, axir bir külgil* (XSH).



*Qorquzmaduqunuz uchün ul kim yitti sizdin* (Tafsir). *Yetizgil nechä kech kelsañ* (XSH); *tamızdı, aqızdı, emizdı* (Sanglah).

-güt/-get, -set affikslarining ishlatilishi *kör-* fe'li bilan chegaralangan. -güt/-gät affiksli shaklning ishlatilishi XV asrdan oldingi davrlarga oid bo'lib, -süt affiksli shakl XV asr va undan keyingi davrlarda qo'llangan: *Barchanı aña көrgüteyin* (Tafsir). *Barchanı aña көrgetdi* (Tafsir). *Agar sen ruh көrsätür bolsañ, ...*(Atoiy). *Kemeni nechük yasarın көrsetdi* (Sh.tar.).

202-§. Eski o'zbek tilida ham hozirgi o'zbek tilidagi singari bir fe'lga birdaniga ikki va undan ortiq daraja affiksi qo'shib kelishi mumkin bo'lgan. Masalan: *Bu xurma qurımış erdi, seňä yashartdıru berdim* (Tafsir). *Sag'unı kelürtti* (QR). *Jurjit el-künni öz ag'ızıg'a baqındurdı* (O'N). *Munlar yig'ılıshıb baqıb turur erdiler* (NF). *Keräk kim, söz yerindä sözlätilgäy* (XSH). *Ul biridin bashın, ayag'ın yig'ishturg'ay* (Navoiy, MQ). *G'animni qachuruldı* (BN). *Xän un keltürtti* (Sh.tar.).

## I. Tekshirish uchun savollar

1. O'tgan zamon fe'lining qadimgi turkiy va O'rta Osiyo turkiysida qo'llangan o'ziga xos shakllari va ularning vazifa hamda ma'nolari.

2. Fe'ning -duq (-duk) va dı(-du), mı, mu shakllarining ma'no va vazifalari.

3. Fe'ning -mish/mish shakllarining ma'nosidagi o'zgarishlar.

4. -b turur erdi fe'lining qo'llanish tarixi.

5. Hozirgi zamon fe'llarining shakllari va vazifalari.

6. -gay/-gäy/-qay/-key fe'l shakllarining qo'llanish davrlari.

7. Fe'l daraja turlarining o'zlik, majhul, orttirma shakl va ma'nolarining qadimgi turk, O'rta Osiyo turkiysi va eski o'zbek tilida qo'llanishi.

## II. Tayanch tushunchalar

Aniqlik mayli. Fe'l zamonlari. Fe'l zamonlarining sodda va murakkab (analitik) shakllari. O'tgan va hozirgi zamon fe'llarining turlari.

Fe'l darajalari: bosh, o'zlik, majhul, orttirma, birgalik darajalari.

## RAVISH VA YORDAMCHI SO‘ZLAR

### Ravish

203-§. Eski o‘zbek tilida ham ravish turkumidagi so‘zlar so‘z o‘zgartuvchi affikslar qabul qilmasligi bilan boshqa mustaqil so‘z turkumlaridan ajralib turadi. Gapda ravishlar boshqa so‘zlar bilan bitishuv yo‘li bilan bog‘lanadi. Ayrim ravishlarning tarkibidagi kelishik affikslari esa o‘zining grammatik xususiyatini yo‘qotib, so‘zning tarkibiy qismiga aylanib qolgan.

Turkiy tillardagi, shu jumladan, o‘zbek tilidagi ravishlarning bir guruhini boshqa so‘z turkumlaridan ajrab chiqqan so‘zlar tashkil etadi. Bunday ravishlarning ko‘pchiligi ismlar, ayrimlari fe‘llar asosida shakllangan. Ravishlarning boshqa so‘z turkumlaridan ajrab chiqishi ma‘lum tarixiy davrlarda har xil yo‘llar bilan yuzaga kelgan. Masalan, hozirgi *tashqari*, *ichkari* turidagi so‘zlar tarkibidagi *-qari*, *-kari* tarixan jo‘nalish kelishigi affiksi bo‘lgan (qarang: 24-§). *Kech*, *kecha*, *erta* kabi payt bildiruvchi so‘zlar esa qo‘llanish o‘rniga qarab ravish ma‘nosini ham ifodalaydi (qarang: 213-§).

204-§. Eski o‘zbek tilida iste‘molda bo‘lgan ravishlarning va ravish ma‘nosida qo‘llanuvchi so‘zlarning ma‘lum qismi boshqa sistemadagi tillardan o‘zlashtirilgan. Bunday so‘zlarning ko‘pchiligi eron tillariga, ayrimlari arab tiliga mansub. O‘zlashtirilgan ravishlar tuzilishi jihatdan turlicha.

Eski o‘zbek tiliga eron tillaridan va arab tilidan o‘zlashtirilgan ravishlar va ravish ma‘nosida qo‘llanuvchi so‘zlarning ishlatilishiga misollar keltiramiz: *Ahista aytduqimizni ham eshitür* (Tafsir). *Men hargiz... ahshim yoq* (QR). *Üchrädi nagah raqibi* (Lutfiy). *Daimā mast-u bexabar kørünür* (Atoiy). *Kəñül ahvālidın āgāh unuttı* (Atoiy). *Kəñül ichrā daim salur yol* (SHN). *Küzätür-men hamisha hāliynı* (Navoiy, SS). *Badixanı ravān aytur erdi* (Navoiy, MN). *Bu matla ham xob vaqe bolubtur* (Navoiy, MN). *Kərāli, qaysımız yeñär axir* (Lutfiy). *Tez suvlardın... āsān ötedür* (BN). *Hanuz taallum qıladur* (BN). *Elimizni chapadur payvasta* (SHN). *Oñ sarıdın tapsa paydarpay // bolmag‘ay kam kishi ichärdin may*

(Navoiy, SS). *Nāgahān tūshṭi kēzūm bir mahliqa jānāngʻa* (Furqat). *Jān qasdi ūchūn kelūr damadam* (Lutfiy). *Kēzūm yāshūn nazardīn dambadam sālgʻum* (Sakkokiy). *Subhidam mehrāblarda surai yasin oqur* (Atoiy). *Zāhira xalq arā sēz ayñlmas* (SHN). *Mashharda gʻaliba kim, u kün kōrmāgāy azāb* (Lutfiy). *Hāla ushbu fursatta ruxsat bermāsā kim, ...* (BN). *Avval arja qıldıuq xitāb* (Navoiy, LT).

### ***Ravish yasalishi***

**205-§.** Eski oʻzbek tilida isteʼmolda boʻlgan ravishlarning asosiy qismi yasama ravishlardan iborat boʻlib, bular morfologik (affiksatsiya) va sintaktik (kompozitsiya) usullar bilan hosil boʻlgan.

Asli oʻzbekcha (turkiy) tub ravishlar juda kam sonni tashkil etadi. Bulardan quyidagilarni koʻrsatish mumkin: *Bizniy atalarimiz kim, ashnu öldilär. ...* (Tafsir). *Bat bol, bāshıñ āl, qāch* (Atoiy). *Chıqıban qalʻanı bersünlär bat* (SHN). *Siziñdä kezın biz tek turmagʻay-miz* (Tafsir). *Yıgʻachını tik tutub turadur* (BN).

Eski oʻzbek tilida tub soʻz sifatida tasavvur qilingan ayrim ravishlar aslida yasama ravish boʻlgan. Masalan, *naru* (nari), *berü* (beri) ravishlari uzoqlikni anglatuvchi *na* va yaqinlikni anglatuvchi *be* soʻzlariga qadimgi joʻnalish kelishigi affiksi *-ru/-rü* qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan. Shuningdek, *emdi* // *emti* (hozirgi oʻzbek tilida *endi*) ravishi tarixan “yana”, “va” kabi maʼnolarni ifodalovchi *em* soʻziga *-di (-ti)* qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan. Qadimgi yodgorliklar tilida *-ti (-n)* affiksi bilan boshqa soʻzlardan ham ravish yasalishi uchraydi. Masalan, *edgüti* (*edgü* — “yaxshi” maʼnosida), *tükäti* (butunlay, tamoman), *qatıgʻn* (mahkam; kuchli), *uzatı* (uzoq, ancha vaqtgacha), *ulatı* (birga, birgalikda), *arıtı* (butunlay, tamoman, batamom).

### ***Morfologik usul bilan ravish yasalishi***

**206-§.** *-cha/-chä* affiksi bilan yasalgan ravish ish-harakatning holati, miqdori, darajasi kabi maʼnolarni ifodalaydi yoki biror harakat belgisining boshqa harakat belgisiga oʻxshashligini

ko'rsatadi. Bu affiksi turli so'zlarga qo'shilib ravish yasaydi:

1. Ot turkumidagi so'zlarga qo'shilib ravish yasaydi: *Yetti daryani bir kelchä yüzär ul* (XSH). *Alar ham türkcha ayturlar* (Navoiy, ML). *Ulug'lug'ı burgutcha bolg'ay* (BN). *Alardın mıy yılcha etübdür* (Furqat).

-*cha/-chä* affiksi bilan yasalgan ravishga egalik affiksi qo'shilib kelishi ham mumkin: *öz könlümchä kelmishim yoq* (QR). *Terisi Uhud tag'incha bolg'ay* (NF). *Imāratları ātasını imāratlaricha emäs* (BN).

2. Kishilik va ko'rsatish olmoshlariga qo'shilib ravish yasaydi: *Dunyada bār-mu ekän menchä yāmān?* (SHN). *Hech kimgä senchä bermädi, ayyar, qāsh-u көz* (Lutfiy). *Az qıl jafa-vu javrni, muncha faravān äylämä* (Sakkokiy). *Ulcha biz avval anja qıldıuq xitāb* (Navoiy, LT). *Ibrahim üch kündä ancha ulg'ayur erdi* (QR).

-*cha/-chä* affiksi ushbu ko'rsatish olmoshiga qo'shilganda, *ush-muncha* (<ushmun+cha<ushmu+cha<ushbu+cha) shakli hosil bo'ladi: *Mehmanlıq ham olg'ay ushmuncha* (Navoiy, SS). *Ush-muncha deydürlär kim, ...* (BN).

3. Sifatga va ravishga qo'shilib ravish yasaydi: *Padshahzalarnın ulug'ına ulug'cha va kichiginä kichikchä berdi* (Sh.tar.). *Artincha Fir'avn keldi cherik birlä* (NF). *Özläri soñicha bardılar bat* (SHN). *Yashuruncha barib, ātlarnı chıqaralın* (BN). *Keynichä ixtiyärsız chaptı* (Navoiy, SS).

4. -*mısh/-mish*, -*duq/-dük*, -*g'an/-gän* affiksli sifatdoshlarga -*cha/-chä* qo'shilishi bilan hosil bo'lgan ravishdosh shakllari ham ma'nosiga ko'ra ravishga yaqin turadi (qarang: 143-§).

-*cha/-chä* affiksi bilan yasalgan so'zlarning ba'zilar narsaning belgisini ko'rsatib, sifat ma'nosida ham qo'llanadi: *Türkchä she'ri yaxshi vaqe bolubdur* (Navoiy, MN). *Qılcha jānım bār, qılay hinduyi zulfuñja fidä* (Atoiy). *Rub'i maskunda Samarqandcha latif shahar kamraqdur* (BN). *Fransuzcha va almancha xat va lisan bilmaqnı özlärig'a lazim bilür ekenler* (Furqat).

207-§. -*g'acha/-gäche* // -*qacha/-kächä* affiksi jo'nalish kelishigi qo'shimchasiga -*cha/-che* qo'shilishi bilan hosil bo'lgan

qo'shma affiks bo'lib, ot, sifat, olmosh, ravish turkumidagi so'zlardan ravish yasaydi. Bu affiks bilan yasalgan ravishlarning qanday ma'no anglatishi asosan so'z o'zagining xarakteriga bog'liq:

1. Payt bildiruvchi so'zlarga qo'shilganda, payt chegarasi ko'rsatiladi: *Tüngächä urmaq edi köksigä täsh* (Navoiy, LT). *Bu kün axshamg'acha ne bolurı ma'lum emäs* (Navoiy, MQ). *Ushbu haftag'acha yoq erdi xabar* (SHN). *Hanuzg'acha kishi evüna tüşmäy-men* (Sh.turk).

2. O'rin, makon bildiruvchi so'zlarga qo'shilganda, makon chegarasi ko'rsatiladi: *Oqlarnı kökkächä atıj* (O'N). *Ishqınıj g'ayati bu yergächädür* (Navoiy, MQ). *G'aznig'acha cherik eliniñ ätlang'a bu hāl edi* (BN).

3. Miqdor bildiruvchi va shunga o'xshash so'zlarga qo'shilganda, miqdorning chegarasi ko'rsatiladi: *Govhar qiymatig'a nechük ki, muratib asru köpdür, hatta ki, bir diramdın yüz tümängächä desä bolur* (Navoiy, ML). *Ashiqg'a vaslnıj nihāyatı bu sözni dergächädür* (Navoiy, MQ). *Bu martabag'acha suvnu mushrif qilib-turlar* (BN).

**208-§. -tek/-däk** affiksi o'xshatish, qiyoslash kabi ma'nolarni ifodalovchi ravish yasaydi. Bu affiksning qaysi shakli ishlatilishida ma'lum qonuniyat yo'q. Farq shundaki, *-tek* shakli bu affiksning qadimgi ko'rinishi bo'lib (qadimgi yodgorliklarda shu shakl qo'llangan). *-dek* shakli keyinchalik paydo bo'lgan. O'zbek tilida XIV asr o'rtalariga qadar *-tek* shaklida, XIV asr ikkinchi yarmi va XV asrning birinchi yarmida *-tek* va *-dek* shakllarida, undan keyingi davrlarda asosan *-dek* shaklida qo'llangan.

Ba'zi yodgorliklarda, masalan, "Shajarai tarokima" da bu affiks *-day* (*-däy*) shaklida ham uchraydi: *Qaqli Yavliday yaxshi og'lun bär* (Sh.tar.). *Ulug' aqalarınday davlatli bolub, ...* (Sh.tar.).

Eski o'zbek tilida *-tek* / *-dek* affiksi quyidagi so'zlarga qo'shib ravish yasagan:

1. Otdan ravish yasaydi: *Sakkākiy köz yāshın yāz yamg'uri-tek yäg'durur* (Sakkokiy). *Analar-dek azāsın tutmiş erdi* (Navoiy, FSH). *Ot yalın-dek chaqilib kelgüsidür* (SHN). *Qāng'a bag'rim lāla-dek toldı* (Muqimiy).

2. Sifatdan ravish yasaydi: *Yana ozaqi-tek yig'ach bolur erdi* (Tafsir). *Bayaqi-tek kok korar-men* (QR). *Burung'u-dek ta'zim qilmasi* (BN).

3. Sifatdosh shakllariga qo'shilib ravish yasaydi:

*-mish/-mish, -tek/-dek — Abdulla aytmiş-tek boldi* (Tafsir). *Yusufg'a sabr qilmish-tek munda taqi sabr qilayin* (QR). *Men yonmishim-tek yong'ul* (NF);

*-g'an/-gan // -qan/-kan+tek /-dak — Tag'din quyash chiq-qan-dek bolg'ay* (Navoiy, Msh). *Korunur tam uzä toq yayg'an-dek* (SHN). *Men degän-dek boldi* (BN);

*-r+tek/-dek — Bashini yilan bashini soqar-tek sogg'ul* (Tafsir). *Kozgüda korar-tek korar erdi* (QR). *Yag'i birlä urushur-dek bolg'ay // razm vaqti turushur-dek bolg'ay* (SHN).

*-g'u/-gu+tek/-dek — Yanmag'u-tek bolsa, ul yerdä suvqa salin* (Tafsir). *Ne'mat yegü-tek bolmiş, turg'ul* (QR). *Bas, inang'u-dek sen ham ahd birlä payman qil* (Muqimiy).

4. Kishilik va ko'rsatish olmoshlariga qo'shilib ravish yasaydi. *-tek/-dek* affiksi kishilik olmoshlarining ko'pincha qaratqich kelishigi shakliga, ba'zan bosh kelishik shakliga qo'shiladi. Masalan:

*Menin-tek bexabar qilsan ne boldi* (Atoiy). *Tapilmas nasli adamdin senin-tek* (Atoiy). *Xoja Abulmakarim kim, biznin-dek jalayi vatan edi, meni korä keldi* (BN). *Anin-dek urdi yuz shahzäda sari* (Navoiy, FSH).

*Olturur tä subh men-dek telmürüb* (Atoiy). *Kormägan bir sen-dek ahli rozg'ar* (Navoiy, LT). *Agar kechsän bu dunyadin na an-tek* (XSH).

Ko'rsatish olmoshlariga *-tek/-dek* affiksi *-dag'* yoki *-daq* shaklida qo'shiladi: *Andag' faxr qilu turur* (QR). *Oshan-dag' qolig'a älib ätlandi* (BN). *Ani shundäg' qoyg'ul* (Sh.tar.). *Sabädin nari andäg' qilur-men, mundäg' qilur-men* (Sh.turk.). *Meni mundäq farämush eyläsän, ...* (Lutfiy). *Hayälg'a andäq kelür kim, ...* (Navoiy, MN). *Shundäq bolsa keräk* (Furqat).

Qiyoslang: *Munun-tek ish qilurni bilmämish xalq* (Navoiy, FSH).

*Ushbu ko'rsatish olmoshiga -tek/-dek qo'shilganda, quyidagi-cha uch xil shakl hosil bo'ladi: ushmunuq-dek, ushmundaq, ushmundek. Masalan: Ushmunuq-dek qish ichinda ul xan // qildi barcha ulusig'a farman (SHN). Hali ushmundaq-oq bolg'usidur (BN). Kozun koqlum alurg'a mayl qilsa turubtur ushmuntek jan ham nazarda (Atoiy).*

*-tek/-dek affiksi bilan yasalgan so'zlar predmet yoki shaxsning belgisini bildirib, sifat ma'nosida ham qo'llanadi. Qiyoslang: Ay-tek yuzunni jumlai jahandin kunilar-men (Sakkokiy). Kək yemrülüb yergä yıqılǵu-tek ot keldi (QR). Munuq-dek kishi hamdam bolg'ay (SHN). Seniq-tek nāzanin sultāna keldim (Lutfiy). Mundag' küchün bār erkān Yusufni nechük borigä yedürdün? (QR). Ushmundaq ulug' shaharlar kim, ... (BN). Oshandag' berk qorg'anni yavushqan ekändür (BN).*

*Bu misollardagi ay-tek, yiqilg'u-dek, munuq-dek, seniq-tek, mundag', oshandag' so'zlari sifat ma'nosida qo'llangan bo'lib, aniqlovchi vazifasida kelgan.*

**209-§. -la/-lä affiksi** payt ma'nosidagi otlarga, asosan, *tün, tan* so'zlariga qo'shilib, payt ravishini yasaydi: *Tünlä oqusa, fazl artuq bolg'ay (Tafsir). Tünlä-oq yetti oshul qorg'ang'a (SHN). Ba'zini täñla begigä eltib tärtqay (Navoiy, MQ). Emdi bu kün tañla bu söz Abid xāng'a yetār (Sh.turk).*

*Tañla ravishi III shaxs egalik affiksi bilan ham keladi (tañlası), ba'zan egalik affiksidan keyin jo'nalish kelishigi affiksi ham qo'shiladi (tañlasıg'a). Lekin ma'noda o'zgarish bo'lmaydi: Tañlası ul yān yana surdı jamāl (Navoiy, LT). Tañlası keldi ulug' sultān (SHN). Tañlasıg'a bu yurtın köchüb, ... (BN).*

*Ul, bu, shu ko'rsatish olmoshlariga -la/-lä affiksi qo'shilib, uyla, buyla, shuyla ravishlari hosil bo'ladi. Bu ravishlar "unday", "bunday", "shunday" ma'nosini ifodalaydi. Bularning qo'llanishi asosan XV asrdan boshlab kuzatiladi. Masalan: Ey qaraqchu dilbar, uyla bil (Lutfiy). Söz javābın buyla chün saz äylädi (Navoiy, LT). Buyla bolmas erdi, bolsa mustajib (Muqimiy). Shuyla kim bäshta bārın ayıldı (SHN).*

**210-§.** *-āna* affiksi otga qo‘shilib, o‘xshatish, qiyoslash ma’nosidagi ravish yasaydi. O‘zbek tiliga bu shakl eron tillaridan o‘zlashtirilgan. Māsanlan: *Seni men oltūrūr-men, teb ayttı türkāna* (Sakkokiy). *Yıg‘ıb chin lashkarı sālsa mog‘ulāna kezūñ yüzgü // chag‘atay birlä özbakni alur tarāj-u yag‘ması* (Atoiy). *Keltūr, sāqiy, sharābi āshiqāna // ki bēlmish-men xirad birlä fasāna* (Navoiy, FSH).

*-āna* affiksi bilan yasalgan shakl narsa yoki shaxsning belgisini ko‘rsatib, sifat o‘rnida ham qo‘llanadi. Qiyoslang: *Xeyli mardāna yigit edi* (BN). *Ne shāirāna tarkıbları ahsan va ne āshiqāna sez-u durları shu‘la afkān* (Navoiy, MQ).

### *Sintaktik usul bilan ravish yasalishi*

**211-§. Kompozitsiya yo‘li bilan ravish yasalishi.** Bu guruhni qo‘shma va juft ravishlar tashkil etadi.

**Qo‘shma ravishlar.** Eski o‘zbek tilida ham qo‘shma ravishlarning quyidagi turlari amalda bo‘lgan:

1. *Bir* so‘ziga payt, makon va shunga o‘xshash ma’nomlarni ifodalovchi so‘zlarning qo‘shilishi bilan payt, o‘rin yoki holat ma’nosidagi qo‘shma ravishlar hosil bo‘ladi: *Bir kün mushuk itni kordi* (QR). *Ne ajab, yetseñ, Ātāyi, bir tün ul ay vashna* (Atoiy). *Bir lahza sensiz sabr yoq* (Lutfiy). *Bir sarı yolını darya tutti* (SHN). *Besh miñ-altı miñ bir xil üçär* (BN). *Meni bir yerdä muqim etküsidur* (SHN). *Nāgäh bir tarafg‘a qılsañ agar safar sen, ...* (Muqimiy).

2. *Har* belgilash olmoshiga payt yoki makon bildiruvchi so‘zlar qo‘shilib, payt yoki o‘rin ma’nosidagi qo‘shma ravishlar hosil bo‘ladi: *Har kün salamg‘a barur erdim* (Tafsir). *Har kechä yüzi yādı bilä yıg‘laram* (Lutfiy). *Ötär yetti falaktın har sahar āhiñ seniñ* (Atoiy). *Özgä birlä may ichär har qayda anıñ rashkıdın* (Furqat). *Har yerdä barsañız, qullug‘da bolur-siz* (BN).

3. *Ul, bu, ushbu, oshal* ko‘rsatish olmoshlariga payt yoki makon bildiruvchi so‘zlar qo‘shilib, payt yoki o‘rin ma’nosidagi qo‘shma ravishlar hosil bo‘ladi: *Ul kün aytg‘ay-miz* (Tafsir). *Kēñlüm ul yän*



*tārtadur* (Lutfiy). *Ul yerdā qāzi yoq ekāndür* (Navoiy, MN). *Bu kechā Karmanda qonarlar* (BN). *Bu uchurda derlär kim, ...* (Navoiy, MN). *Bu qish qār bisyār ulug' tūshüb erdi* (BN). *Ushbu yıl Shaybaniy xan Chin sofini Xorazmda on āy muhasara qilib aldı* (BN). *Yoqsa davlatdın ushbu zamān // bār edi qal'ag'a chıqmaq āsān* (SHN). *Oshal vaqt meniñ xātirimg'a yetti kim, ...* (BN).

4. *Hech, qay* kabi soʻzlar ishtirokida ham qoʻshma ravishlar hosil boʻladi: *Hech zamanda hech kim eshitken va kōrgän yoqtur* (Sh.tar.). *Sultān Muhammadni ālmag'uncha hech yerdā turman* (Sh.turk). *Raqib uyın sorar-sen "qay sarı" deb* (Atoiy). *Dedi: qay chag'dın oldıñ ishq arā mast* (Navoiy, FSH).

**Juft ravishlar.** Eski oʻzbek tilida ham turli soʻz turkumlaridan hosil boʻlgan juft ravishlar amalda boʻlgan. Bunday ravishlarning bir qismi juft soʻz shaklida, boshqalari takror soʻz shaklida boʻladi.

Eski oʻzbek tilidagi juft ravishlarning koʻpchilik qismini ot turkumidagi soʻzlarning birikuvidan hosil boʻlgan soʻzlar tashkil etadi. Masalan: *Yana tün-kün bārdılar* (Tafsir). *Yüzüñni sham kōrmish tün-kechā* (Lutfiy). *Erür ahvālī kündin-küngä behbud* (Furqat). *Qāzar erdi arg'ni kechā-kündüz* (Navoiy, FSH). *Qatra-qatra yig'ilib, darya bolur* (Navoiy, MQ). *Bu jins bādana chir-dek xayl-xayl üchadür* (Munis).

Sifat, olmosh, son, ravish, sifatdosh, ravishdosh shaklidagi soʻzlardan hosil boʻlgan juft ravishlar eski oʻzbek tilida nisbatan kam qoʻllangan. Misollar: *Navha birlä yig'ladi achchiq-achchiq* (Navoiy, LT). *Az-az örgänib, dānā bolur* (Navoiy, MQ). *Daryā ichindä oñın-oñın yolg'a kirdiler* (Tafsir). *Oqrın-oqrın yürüy-oq qatlandı* (SHN). *Tanbal ilgäri özge el qāchar-qāchmas bolub turubtur* (BN). *Ne boldı, dushman oldıñ jänimg'a bāra-bāra* (Munis).

### ***Morfologik-sintaktik yoʻl bilan ravish yasalishi***

**212-§.** Turkiy tillarda ravishlarning bir guruhi morfologik yoʻl bilan, yaʼni ayrim soʻz oʻzgartuvchi shakllarning vazifasi oʻzgarib borishi natijasida vujudga kelgan. Ravish yasalishining bu usuli

davrlar davomida yuzaga keladi.

Bu turdagi ravishlarning ko'pchiligi kelishik shakllari, ba'zilari ayrim fe'l shakllari asosida paydo bo'lgan:

1. Morfologik-sintaktik yo'l bilan ravish hosil bo'lishida zamon va makon kelishiklari hamda vosita kelishigi ishtirok etadi.

Ayrim kelishik shakllaridagi so'zlarning ravish turkumiga o'tishi yoki ravish vazifasida qo'llanishi ancha qadimgi davrlardan boshlangan bo'lib, bu jarayon ma'lum davrlargacha davom etgan. Vosita kelishigi shakli va jo'nalish kelishigining *-ru/-rü, -ra/rä, -g'aru/-g'ärü, qaru/-kärü* affiksli shakllari shu guruhni tashkil etadi. Qadimgi yodgorliklar tilidayoq bu affikslarning grammatik vazifasi kuchsizlanib qolganligi va bu affikslarni qabul qilgan so'zlarning bir guruhi ravish turkumiga o'ta boshlaganligi kuzatiladi. XI—XII asrlardan keyingi davrlarda esa bu affikslar o'z mavqegini yo'qotgan bo'lib, ayrim so'zlar tarkibidagina saqlangan. Masalan, *künün, tünün, qışın, yazın, künün-tünün, qışın-yazın, terkin* kabi ravishlar vosita kelishigining *-ın/-in // -un/-ün* affiksi yordamida hosil bo'lgan. *Soñra, narı (<narı), berı (<berü), tashqaru // tashqarı, ichkärü // ichkəri, yuqaru // yuqarı, ilgärü // ilgeri* kabi ravishlar tarkibidagi *-ra/-rä, -g'ärü/-qaru /-kärü* esa jo'nalish kelishigining qadimgi affikslaridir.

Misollar: *Terkin yig'ilib, anı öldürün* (QR). *Üstün baqtım erse kərär-men* (NF). *Ul kishilər barcha oñın bolmışlar* (Tafsir). *Soñra ma'lum qıldılar* (Tafsir). *Əzin ichkärü saldı* (QR). *Suv barchasını yuqaru kätürdi* (Tafsir). *Əzni qal'adın tashqarı saldım* (Navoiy, FSH). *Yigitlärni ilgäri yibärdük* (BN).

Chiqish va o'rin-payt kelishiklari shaklidagi, shuningdek, jo'nalish kelishigining *-qa/-gä* affiksli shaklidagi so'zlarning ravish turkumiga o'tishi yoki ravish ma'nosida qo'llanishi nisbatan keyinroq boshlangan. Bu hol hozirgi tilga xos bo'lib, eski o'zbek tilida ham ma'lum darajada kuzatiladi. Masalan: *Ayitti: tursu beglär barcha tashın* (XSH). *Kөл arasında alından bir yig'ach kördi* (O'N). *Azaldın ashnanızmen, valekin...* (Atoiy). *Burundın ishni qılmış erdi mahkam* (Navoiy, FSH). *Toy nāchār qıldı yālg'andın*

(Muqimiy). *Oshandın qāchqan bilä... Panipat navāhisidin ətārlār* (BN). *Azalda qıldı Xorazmiyni muhtaj* (MN). *Oquñuz, kelsünlär teb birgä barıñ* (XSH). *Xānlar bile tort ay birge bolındı* (BN).

2. Morfologik-sintaktik yo'l bilan yasalgan ravishlarning bir guruhi ba'zi fe'l (asosan ravishdosh) shakllari asosida vujudga kelgan. Bunday so'zlarning ayrimlari butunlay ravish turkumiga o'tgan. Masalan, *yana*, *ayru* ravishlari *yan-* (qaytmoq), *ayır-* (ayirmoq) fe'llariga *-a*, *-u* affiksleri qo'shib yasalgan ravishdosh shakli bo'lib, keyinchalik ravish sifatida shakllangan. Shu turdagi ravishdosh shakllarining bir guruhi o'rni bilan ravish vazifasida qo'llanishi mumkin.

Misollar: *Suvı qaynar-tek teginü āqar* (Tafsir). *Har kim alardın ayru tüşti, Haqñıñ yaqınlarig'a yoluqushti* (Navoiy, MQ). *Ul elniñ qāzisi yāmā yashru musulman bolmış erdi* (Tafsir). *Əza korgän tüşhi yadınğ'a keldi* (XSH). *Qıya baqsan, bolur arslanlar ävin* (MN). *Qambar Ali beg qıchqıra ayttı* (BN). *Kemilärni kücheb alur erdi* (Tafsir). *Filniñ... ulug' tishi bār, tāmğ'a va yıg'achqa ushbu tishlärni qoyub, zorlab yıqtur* (BN).

3. Ayrim so'zlarga yoki so'z birikmalariga III shaxs egalik affiksini qo'shish yo'li bilan ham ravish hosil bo'lishi yoki ravish ma'nosi ifodalanishi mumkin. Bu shakl ham xususiyatiga ko'ra morfologik-sintaktik yo'l bilan yasalgan ravishlarga o'xshaydi. Masalan: *Ertäsi bezüg-azim shaxs boldı* (QR). *Negä bir yolu azad äylämäs?* (Atoiy). *Qısh künläri kishigä bu suv juzvi savuq maxsus boladur* (BN). *Tüş vaqtı bolub erdi kim, ...* (BN). *Burung'ı küni arzasht qılıb, ... yıbarılıb erdi* (Navoiy, Msh). *Tökülgey axiri andın yer üzrā suv bikin qānım* (Lutfiy).

**213-§. Leksik-sintaktik yo'l bilan ravish yasalişi.** Ravish yasalişining bu usuli, ya'ni ayrim so'zlarning muayyan o'rinda ravish vazifasida qo'llanishi asosan payt bildiruvchi otlar doirasida bo'ladi. Masalan: *Zulfi muanbarıñ kim, közdin üçär uzun kechä* (Atoiy). *Aqsham andın kächüb, Ali Masjid tüşhüldi* (BN). *Kündüz yashunub, ... ul sarı barılg'ay* (BN). *Meñä qıshqı ne'matnı yāy berür erdiñ, yāyqı mevanı qısh berür erdiñ* (Tafsir).

Ravish vazifasida qoʻllanadigan bunday otlar koʻpincha koʻplik shaklida keladi. Bunday hollarda koʻplik affiksi maʼnoni kuchaytirish va harakat yoki holatning takrorlanib turishini koʻrsatadi: *Itij Ātāyigʻa tūnlār achigʻlamb aytur* (Atoiy). *Dard birlā kechālār yigʻlar zār* (SHN). *Qishlar tōrt-besh āy jamʻe yollar bagʻlanur* (BN). *Yana totidur..., yāzlar tut pishigʻida Ningnahar va Lamgʻanatqa kelūr* (BN).

Sifat turkumidagi soʻzlar ravish vazifasida qoʻllanganda harakat yoki holatning belgisini ifodalaydi. Qiyoslang: *Yaxshī savt bile ada qilgʻay* (Navoiy, MQ). *Qafiyasını yaxshī aytmaydur erdi* (Navoiy, MN).

Misollarning birinchisida *yaxshī* soʻzi sifat vazifasida qoʻllangan boʻlib, narsaning belgisini koʻrsatadi, ikkinchisida esa ravish vazifasida qoʻllangan boʻlib, harakatning belgisini koʻrsatadi.

Quyidagi misollarda ham *yumshaq*, *tatligʻ*, *kūchlūk* sifatlari ravish vazifasida qoʻllangan: *Firʻavnqa yumshaq, tatligʻ soʻzlānlār* (Tafsir). *Shayx Darvish kōkältāsh... yāyni kūchlūk tārtar edi* (BN). *Üchunchisi xalāyiqqa yumshāq soʻzlāmāk tedi* (NF).

### ***Ravishlarda daraja shakli***

**214-§.** Ravishlarda ham sifatlardagi kabi *-raq/-rāk* affiksi qoʻshilib daraja shakli hosil boʻladi. Bu shakl ish-harakat belgisining kuchli yo kuchsizligini koʻrsatadi yoki boshqa ish-harakat belgisi bilan qiyoslanadi: *Sizlār meniñ üzā arquraq keliñlār* (Tafsir). *Qayusi terkrāk barur ermish, kōralim* (QR). *Mundın artuqraq ichmādi* (OʻN). *Buyurdi kim, ravānraq keltürünj at* (Navoiy, FSH). *Bu suv tūshār yerdin quyıraq ulugʻ kōl bolubtur* (BN). *Kechrāk bir nechā ātliq... øtüb bāradur* (BN).

### **Koʻmakchilar**

**215-§.** Turkiy tillarda koʻmakchilar mustaqil soʻz turkumlari-dan rivojlangan. Lekin mustaqil soʻzlarning koʻmakchilar turkumiga oʻtishi uzoq davrlar davomida yuz beradi. Bunday soʻzlar

dastlab o'z ma'nosida qo'llanishi bilan birga, o'rni bilan ko'makchi vazifasini ham bajaradi. Davrlar o'tishi bilan ular o'zining mustaqil leksik ma'nosini yo'qotib, ko'makchilar turkumiga o'tadi.

Hozirgi turkiy tillarda amalda bo'lgan ko'makchilarning mustaqil so'z turkumlaridan ajrab chiqishi nisbatan keyingi davrlarda yuz bergan. Bu hol yozma yodgorliklar tilida ham ma'lum darajada aks etgan. Masalan, O'rxun-Enasoy yodgorliklari tilida ko'makchilar juda kam sonni tashkil etadi. XI asrga oid "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'atit-turk" asarlarida ko'makchilar soni ancha ko'paygan. Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, XII–XIII asrlardan boshlab turkiy tillarda, shu jumladan, o'zbek tilida ham ko'makchilar guruhi yanada kengaya borgan.

Eski o'zbek tilida iste'molda bo'lgan ko'makchilar ham dastavval ikki guruhga bo'linadi: 1) sof ko'makchilar; 2) funksional ko'makchilar.

### *Sof ko'makchilar*

**216-§.** Sof ko'makchilarni mustaqil so'z turkumidan ajrab chiqqan, mustaqil qo'llanishi va leksik ma'nosini yo'qotgan so'zlar tashkil etadi.

Sof ko'makchilar turli kelishikdagi so'zlar bilan birga qo'llanib, kelishik ma'nosini aniqlashtiradi yoki unga qo'shimcha ma'no beradi, ba'zan esa kelishik vazifasini bajaradi. Eski o'zbek tilida ham sof ko'makchilarning ayrimlari bir xil kelishik bilan, ba'zilari esa turli kelishiklar bilan qo'llangan.

Eski o'zbek tilida iste'molda bo'lgan sof ko'makchilardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

**217-§.** *Üchün* ko'makchisi odatda bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadi. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari esa ko'pincha qaratqich kelishigida keladi: *meniñ (menim) üçün, seniñ üçün, anıñ üçün, bizniñ (bizniñ, bizim) üçün, sizniñ (sizniñ) üçün, munun üçün* kabi.

Üchün ko'makchisi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Ataganlik ma'nosini bildiradi: *Sen Lot üçün qonuq istämäkni*

qoydu (QR). *Seni uchün qılır bu rayı tadbir* (XSH). *Bu hikayat el üçündür barı* (SHN).

2. Sabab ma'nosini bildiradi: *Achlıqda hech narsa bug'daydın keräkräk yoq üçün bug'day berälim tedilär* (QR). *Goyä rangıda hurmat bär üçün bu taxallusni ixtiyar qılıbtur* (Navoiy, MN). *Hinduständın özgä yerdä bolmas üçün munı taqrib bilä zıkr qıldım* (BN).

3. Maqsad ma'nosini bildiradi: *Musanı sınağ'u üçün üçegün kâmi üsküngä keldilär* (Tafsir). *İlm tahsili üçün shahrg'a keldilär* (Navoiy, MN). *Ätlanıb chıqtı urush äylär uchun* (SHN). *Seni bir yerdä qoymaq üçün turub-men* (Sh.tar.).

**218-§. Birlä** (*birlän, bilä, bilän*) ko'makchisi. Bu ko'makchi dastlab *birlä* shaklida qo'llangan bo'lib, boshqa shakllari keyinchalik yuzaga kelgan.

XV asr va undan keyingi davrlarda, asosan, she'riy asarlarda bu ko'makchi *ilä* shaklida ham ancha keng qo'llangan: *Jän xasrat ilä küydi* (Lutfiy). *Zulm ile qän eyläyin der* (Atoiy). *Qıldılar ittifağ ilä chära* (Navoiy, SS). *Biz oshul sözlär ilä shad olduq* (SHN). *Näz ilä kulbam arä kirsañ, ...* (Munis). *Eylädim chun e'tiqad ilä salam* (Muqimiy). XIX asrga oid ayrim she'riy asarlarda *-la* shaklida ham qo'llangan: *Adl quläg't-la eshit hahmı* (Muqimiy).

*Birlä* ko'makchisi odatda bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadi. Kishilik va ko'rsatish olmoshlari ko'pincha qaratqich kelishigida keladi: *meniñ* (*menim*) *birlä*, *seniñ birlä*, *anıñ birlä*, *bizniñ* (*biziñ, bizim*) *birlä*, *sizniñ* (*siziñ*) *birlä*, *munuñ birlä* kabi.

*Birlä* ko'makchisi quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Birgalik ma'nosini bildiradi: *Besh yüz er birlä atlanur boldı* (QR). *Shägirdları bile täg' gashtıga bärıb, ...* (Navoiy, MN). *Öz novkarlarıñ birlän anda barıb, otav suqub keliñlär* (Sh.tar.). *Anıñ birlä qılır erdim tamäsha* (Furqat).

*Birlä* ko'makchisi birgalik ma'nosida qo'llanganda ba'zan teng bog'lovchiga o'xshaydi. Lekin bunday o'rinlarda ham birgalik ma'nosini ustun bo'ladi. Masalan: *Chag'atay birlä özbäkni alur taräj-u yag'ması* (Atoiy). *Mulk ahli bāshıg'a ältun bilä durlar sāchar*

(Navoiy, MQ). *Türkiştän birlän Andijännü älib, ätası xizmatıg'a keldilär* (Sh.tar.).

2. Vosita ma'nosini bildiradi: *Qarabashlarnı qamçı birlä, yıg'ach birlä uru oltürdi* (QR). *Oqlar birlä, qılıçlar birlä urushtılar* (O'N). *Ne til birlä deb erkin bu maqälın* (Navoiy, FSH). *Butlarna nayzanıñ uchi birlän sanchdılar* (Sh.tar.). *Pıchaq birlän oz qarnını ikki yerdin chäk qılıbdur* (Furqat).

3. Holat, sabab kabi ma'nolarni bildiradi, ya'ni ish-harakatning qanday holatda yoki nima asosida yuzaga kelishi ko'rsatiladi: *Qattıg' ün birlä yıg'ladi* (QR). *Bir kimärsäni xatä birlä öltürdi* (NF). *Chıqar har lahza yüz miñ shıva birlä* (Atoiy). *Yüz tashvishlar bilä ichär edilär* (BN). *Fätiha jahl ilä oqıshdı turub* (Muqimiy).

4. Payt ma'nosini bildiradi. Bunda *birlä* ko'makchisi payt ma'nosidagi so'zlar bilan keladi: *Bir manzilg'a tünlä birlä yettilär* (Tafsir). *Uzun kün birlä boldı ul parılar* (XSH). *Yalg'uz jänımg'a tan bilä, bilmen, ne paydä bolg'usı* (Sakkokiy). *Keche bilä obdan ittifaq qıla almay, parishan barib tegärlär* (BN).

5. Harakatning nima bo'yicha yo'nalishini ko'rsatadi: *Madina yoli bilä keldim* (NF). *Yazlar suv ulg'aysa, Shibartu kotalıdın äshib, Bamiyän va Sayqän bilä yürürlär, qıshlar Abdara bilä yürüşürlär* (BN). *Bir nechesi yol birlän... Xäräzmg'a keldilär* (Sh.tar.).

**219-§.** *Kibi//kebi, yanlıg' (yanlıq), bikin* ko'makchilari ma'nosiga ko'ra bir guruhni tashkil etadi, ya'ni bu ko'makchilar o'xshatish, qiyoslash kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bu ko'makchilar odatda bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadi. *Kibi//käbi, bikin* ko'makchilari kishilik va ko'rsatish olmoshlarining qaratqich kelishigidagi shakli bilan ham qo'llanadi: *meniñ kibi (kebi), seniñ kibi (kebi), munuñ bikin* kabi.

*Kibi//kebi ( )* ko'makchisining qo'llanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi: *On törtüñch äy käbi bolg'ay* (Tafsir). *Har goshada meniñ kibi yüz miñ xaräba bär* (Atoiy). *Qılay majnun kibi köñlümni häli* (Navoiy, FSH). *Özgä xanlar kibi majlis qurmas* (SHN). *Sözläriñ toti kebi shirin kaläm etsän netär?* (Muqimiy).

*Yanlıg' (yanlıq)* ko'makchisining qo'llanishi XIII—XIV asr-

lardan boshlab kuzatiladi: *Ushbu yanlig' mehnat ichrä kün kechürdi* (QR). *Ul seniñ kafur yanliq ārazıñni āy degäy* (Lutfiy). *Bu yanlig' tüş kerübtürlär tamāmı* (Navoiy, FSH). *Yasanıb çıqtı pari yanlig' bāt* (SHN). *Kirmämish ham köchai ishq ichre men yanlig' kishi* (Munis).

*Bikin* ko'makchisi XIV—XV asrlarga oid she'riy asarlarda qo'llangan: *Yarattı ay bikin zebā seni haq* (MN). *Tökülgäy āxiri andın yer üzrā suv bikin qānım* (Lutfiy). *Gul bikin jān köñläkin yüz pāra qıldı xāri hajr* (Atoiy). *Munıñ bikin yürümäs hech falakta sayyāra* (Sakkokiy).

**220-§. üzrā** ko'makchisi (*üzā* shaklida ham qo'llangan) ikki qismdan iborat: “yuza” ma'nosidagi *üz* so'ziga jo'nalish kelishigi affiksi *-rā* qo'shilishi bilan hosil bo'lgan. XV asrga qadar nasriy asarlarda ham, she'riy asarlarda ham qo'llangan bo'lib, undan keyingi davrlarda asosan she'riy asarlarda uchraydi, odatda bosh kelishikdagi so'z bilan qo'llanadi. Kishilik olmoshlari esa bu ko'makchi bilan ko'pincha qaratqich kelishigida qo'llanadi: *meniñ üzrā (üzā), seniñ üzrā, anıñ üzrā, biziñ üzrā, sizniñ üzrā* kabi.

*Üzrā (üzā)* ko'makchisi asosan quyidagi ma'nolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning biror narsa ustida, yuzasida bo'lishini ko'rsatadi: *Malikni sarāyda buldılar, taxt üzā olturur* (QR). *Eshittim, bu qāya üzrā vatangāh // tutub-sen ul sifat kim taxt üzā shāh* (Navoiy, FSH). *Bār bu tāg'nın üstidā falak // körünür tam üzā ton yayg'an-dek* (SHN). *Sunbul gul üzā sāya sālıbdur-mu yāxud // har yān āchılıbdur-mu yüzün üzrā qulāla?* (Munis).

2. Ish-harakatning biror narsa yuzasi bo'yicha sodir bo'lishini yoki shu narsaga qaratilishini ko'rsatadi: *It yātdı, ... bāshını qoli üzā urdı* (Tafsir). *Əpüb bir barmāg'ım qāsh üzrā qoydum // anı xud əptim-u bāsh üzrā qoydum* (Navoiy, Msh). *Sahar-o'q qal'a üzā mindilär // minibān qal'a üzā tindilär* (SHN). *Tā yüzigā ul quyāsh chekti niqāb üzrā niqāb // dudi āhımdın bolur zāhir sahāb üzrā sahāb* (Munis).

**221-§. Ichrä** ko'makchisi *ich* so'ziga jo'nalish kelishigi affiksi



-rā qo‘shilishi bilan hosil bo‘lgan. Bosh kelishikdagi so‘z bilan qo‘llanadi. Bu ko‘makchi XV asrdan boshlab she‘riy asarlarda qo‘llangan bo‘lib, undan oldingi davrlarda nasriy asarlarda ham uchraydi.

*Ichrā* ko‘makchisi asosan quyidagi ma‘nolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning biror narsa ichida sodir bo‘lishini ko‘rsatadi, ya‘ni “ichida”, “o‘rtasida” kabi ma‘nolarni ifodalaydi: *Iblisni kemā ichrā kōrdi* (QR). *Chāra budur ku, kohisār ichrā // vatan etkāy qarang‘u g‘ār ichrā* (Navoiy, SS). *Men bu shahar ichrā qulur-men manzil // yoqsa filhal chiqar-men hāsil* (SHN). *Binafshazārni sayr āylārām bahār ichrā nā sudkim, anī kōrmān binafshazār ichrā* (Munis).

2. *Ichrā* ko‘makchisi ba‘zan ish-harakatning narsa ichiga yo‘nalishini ko‘rsatishda qo‘llanadi, ya‘ni “ichiga” ma‘nosini ifodalaydi: *Shirin labi ki, jān yarasig‘a namak sālur // jānjur yā jāni jān ki, koñul ichrā shak sālur* (Atoiy). *Bersālār besh-on diram, g‘avvasi dun // bahr ichrā sālur oñni sarnigun* (Navoiy, LT). *Dedi: shahr ichrā kirib el anda // bolmasun g‘arat-u tarāj-u balā* (SHN). *Kirmāmish ham qāchay ishq ichrā men yaylig‘ kishi // kelmāmish ham kishvari husn ichrā sen-dek pādshāh* (Munis).

**222-§.** *Sari, taba, tabaru* ko‘makchilari ma‘nosiga ko‘ra bir guruhni tashkil etadi, ya‘ni bu ko‘makchilar ish-harakat yo‘nalgan tomonni ko‘rsatish ma‘nosida qo‘llanadi. Bu ko‘makchilar odatda bosh kelishikdagi so‘z bilan qo‘llanadi, kishilik va ko‘rsatish olmoshlari qaratqich kelishigida ham keladi: *meniñ sari, seniñ sari, anıñ sari, munuñ sari, meniñ taba, seniñ taba, anıñ taba, munuñ taba* kabi.

*Sari* ko‘makchisi eski o‘zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida iste‘molda bo‘lgan. Masalan: *Qayıtlar yana ul shahrı sari* (XSH). *Anıñ-dek urdı yüz shahzāda sari // ki sarsār sāvsanı āzāda sari* (Navoiy, FSH). *Xān sari azm qılır boldılar* (SHN). *Samarqand sari yürdi* (Sh.tar.). *Mayxana sari bar ki, sharafātılar andadur* (Munis).

Eski o‘zbek tilida *sari* so‘zi ko‘makchi vazifasida keng qo‘llangan bo‘lsa ham, o‘zining leksik ma‘nosini butunlay yo‘qotgan

emas: *sari* soʻziga ayrim hollarda kelishik va koʻplik qoʻshimchalari, sifat yasovchi *-gʻi* affiksi qoʻshilib keladi. Bunda u “*tomon*”, “*taraf*”kabi maʼnolarni ifodalaydi. Masalan: *Tāñ sarigʻa bārdilar, ... tūn sangʻa bārdilar* (OʻN). *Ul qurugʻlugʻ saridin āylāb azm* (Navoiy, SS). *Kāxat sarini maslahat kōrūb, ...* (BN). *Bizniñ ehtimalimiz ul sarilar barmāqqa behad va begʻāyattur* (BN). *Sharq sarigʻi afgʻānlar...* (BN).

*Taba* koʻmakchisi asosan XIV asrga qadar qoʻllangan boʻlib, undan keyingi davrlarda ayrim asarlarda uchraydi: *Bir kün bu ogʻlan öz evi taba barur erdi, ...* (Tafsir). *Falastin taba bārur boldilar ersä, yolda ajāibatlar kōrdilär* (QR). *Kishi kim kōk taba tash atsa, ...* (XSH). *Xān Jahāngir taba azm etkāch, ...* (SHN).

*Tabaru* koʻmakchisi *taba* koʻmakchisiga joʻnalish kelishigi affiksi *-ru* qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan. Bu koʻmakchi XV asrdan oldingi davrlarga oid ayrim manbalarda uchraydi: *Barcha meniñ tabaru chiqıñlar* (Tafsir). *Musa tabaru nelük barar-sen?* (Tafsir). *Ravan Mashhad tabaru tebrädilär* (XSH).

**223-§.** *Tägi, tegrü (degrü)* koʻmakchilari maʼno jihatdan oʻxshash. Bu koʻmakchilar joʻnalish kelishigidagi soʻz bilan qoʻllanib, ish-harakatning payt yoki oʻringa nisbatan chegarasini koʻrsatadi.

*Tegi* koʻmakchisi *teg* (tegmoq, yetmoq) feʼlining ravishdosh shakli boʻlib, qadimgi turkiy yodgorliklarda koʻmakchi vazifasida keng qoʻllangan. Oʻzbek tilida esa XV asrga qadar isteʼmolda boʻlgan. Masalan: *Yatmish, uzumish erdimiz bu küngä tegi* (Tafsir). *Qiyāmatqa tegi āram qilgʻay* (XSH). *Mashruqdın magʻribqa tegi xush arigʻ bolgʻay* (NF). *Ul kun bargʻān yergä tegi tämlari qamugʻ yemrülđi* (QR).

Bu koʻmakchi *tegin, teginchä (deginchä)* shakllarda ham qoʻllangan: *Agar javab bersä, qoyarlar bir yergä tegin* (Tafsir). *Bu kün tanqa tegin may nosh qilgʻin* (MN). *Kōkkä teginchä yıldırayu turur erdi* (Tafsir). *Bir aygʻa deginchä ul martabada erdi* (Navoiy, Msh). *Ammā türknñ ulugʻdın kichigichä va novkarıdın begigä deginchä sart tilidin bahramanddurlar* (Navoiy, ML).

*Tegrü (degrü)* koʻmakchisi ham *teg-* (tegmoq, yetmoq) feʼli

asosida shakllangan: *teg (i)r+ü>tegrü (>degrü)*. Bu ko‘makchi XV asrga qadar ancha keng iste‘molda bo‘lib, keyingi davrlarda ayrim asarlarda qo‘llangan. Masalan: *Atalmish vaqtaqqa tegrü yana chiqarur-miz sizlärni* (Tafsir). *Yig‘āchnıy yuqaru üçündin tubingü tegrü ikki-ikki yardılar* (QR). *Chapıb Xusrāvnıy ordusıg‘a tegrü // qayu ordu ki, qarshusıg‘a tegrü* (Navoiy, FSH). *Ikki sachın bilä yüzün quyashın // kechälär yād etürmän tang‘a degrü* (Bobur). *Üch yılg‘a tegrü tahsil qıldım* (Furqat).

**224-§.** *Sayı//sayu//sayın* ko‘makchisi o‘zbek tilida kam qo‘llangan bo‘lib, ayrim yodgorliklarda uchraydi.

Eski o‘zbek tilida bu ko‘makchi asosan *-g‘an//gän* affiksli ravishdosh bilan qo‘llanib, ish-harakatning davomiyligini ko‘rsatadi: *Va har nechä zulm qılg‘an sayı ana osanmaq yoq va har nechä qan qılg‘an sayı aña qänmaq yoq* (Navoiy, MQ). *Ul qızır erdi yürügän sayı* (SHN). *Qamug‘ın İsmäilg‘a berdilər. Yıl sayu mundag‘ qılurlar erdilər* (QR). *Seni korgän sayın “allah” der-men* (Lutfiy).

### **Funksional ko‘makchilar**

**225-§.** Ayrim mustaqil so‘zlar qo‘llanish o‘rniga qarab ko‘makchi vazifasini ham bajaradi. Bunday so‘zlarning ko‘pchiligi ot turkumiga, ayrimlari ravish yoki fe‘l turkumiga oid.

Funksional ko‘makchilar qaysi so‘z turkumiga aloqador bo‘lishiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘linadi: 1) ot ko‘makchilar; 2) ravish ko‘makchilar; 3) fe‘l ko‘makchilar.

#### **1. Ot ko‘makchilar**

**226-§.** Ot ko‘makchilar quyidagi umumiy belgilarga ega: ega-lik affiksini qabul qiladi va zamon-makon kelishiklaridan birida keladi.

Ot ko‘makchilarning ayrimlari faqat o‘rin-payt kelishigi shaklida (*bābıda, haqıda, bārasıda, xususıda, vafıda, vasilasıda* kabi), ba‘zilari faqat chiqish kelishigi shaklida (*jihandın* kabi) keladi, boshqalari zamon-makon kelishiklarining hamma shakllarida

qo'llanadi (*āldıg'a // āldıda // āldıdin, qāshıg'a // qāshıda // qāshıdın* kabi). Ot ko'makchilarning ko'pchiligi III shaxs egalik shaklida qo'llanadi, ayrimlari I va II shaxs egalik shaklida ham keladi (*āldımg'a, āldıng'a, qāshımg'a, qāshıng'a* kabi). Ot ko'makchilar bilan qo'llangan so'z odatda belgisiz qaratqich kelishigida bo'ladi (*ātasi haqıda, özgälär haqıda* kabi), lekin kishilik va boshqa ayrim olmoshlar belgili qaratqich kelishigida keladi (*meniñ qatımda, seniñ qatıñda, anıñ qatıñda, barchanıñ qatıñda* kabi).

Ot ko'makchilar kelishik ma'nosini aniqlashtiradi. Ot ko'makchilarning qanday ma'no anglatishi shu so'zning ma'nosiga va qaysi kelishik shaklida qo'llanishiga bog'liq.

Eski o'zbek tilida iste'molda bo'lgan ot ko'makchilardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin.

**227-§. *Āld, yān, qāsh, qat, on*** so'zlari ko'makchi vazifasida qo'llanganda, ma'no jihatdan bir-biriga yaqin turadi, ya'ni bu ko'makchilar ish-harakat, shaxs yoki narsaning qismida bajarilgani, oldingi qismidan boshlangani kabi ma'nolarni ifodalaydi.

**Āld** so'zining ko'makchi vazifasida qo'llanishi XV asrdan follaşa borgan. Misollar: *Kelmäs edıñ bu adam āldıg'a bilgäniñdä* (Muqimiy). *Tëshni anıñ āldında qoydılar* (Sh.tar.). *Xojand daryäsıdın Bıchratanıñ āldıdın kechib, ...* (BN).

**Āld** so'zi ko'makchi vazifasida qo'llanganda, ko'pincha *all*-shaklida, ba'zan *āln*- yoki *ānl*- shaklida keladi: *Barchasın āllıma ravān qılg'ay* (Navoiy, SS). *Bāsh qoyub āllıda shukr ettım* (SHN). *Meni āllında mu'tabar eylā* (Munis). *Quyāsh ālnında bir zarra ne bolg'ay?* (XSH). *Har fitna ki, angiz qıladur ul qāra qāshı // yalg'uz meni ālnımg'a azaldın yāzılıbtur* (Lutfiy). *Sızg'a-sen ālnımda men Majnuni hayrān suvratıñ* (Atoiy).

**Yān** so'zi ko'makchi vazifasida asosan o'rin-payt kelishigida qo'llangan: *Bu kesh yānında yana bir kesh kōrdüm* (NF). *Malik İbrahimg'a yanında orun berdi* (Tafsir). *Yana Samarqandnıñ yānıda Bag'ı Shamāl va Bag'ı Behısttıür* (BN). *Tā yetmägüy g'ubāra, deb qorqa-men yānıñda* (Muqimiy). *Malik surdı sipāhın yāning'a āt* (XSH).

*Qash* soʻzining koʻmakchi vazifasida qoʻllanishi asosan XV asrdan boshlab kuzatiladi: *Devānın seniñ qāshıñgʻa keltürüb-biz* (Navoiy, MN). *Agar qāshımda oshal guluzār bolsa erdi* (Sakkokiy). *Ulugʻ xānıñ qāshıdın ātlanıb, ...* (BN).

*Qat* soʻzining koʻmakchi vazifasida qoʻllanishi XIII—XIV asrlarga xos boʻlib, keyingi davrlarda ayrim manbalarda uchraydi: *Sara taqı Ibrahim qatında olturdı* (Tafsir). *Ogʻlaq Yunus qatıngʻa keldi* (QR). *Menim qatımdın ketkil* (NF). *Ogʻuz xān qatıngʻa bardılar* (Sh.tar.). *Bolmamış xān qatında ul maqbul* (SHN).

*Oñ* soʻzining koʻmakchi vazifasida qoʻllanishi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda uchraydi: *Yusuf oñunda qoydılar* (QR). *Pādshāh oñında qozuttı* (NF). *Yuzun surat oñında yergä surtär* (XSH). *Ikegüni Firʻavn oñuna kivürdi* (Tafsir).

228-§. *Ich, āra, ortu* soʻzlari koʻmakchi vazifasida qoʻllanganda maʼno jihatdan bir-biriga oʻxshaydi.

*Ich* soʻzi koʻmakchi vazifasida turkiy tillarda qadimdan qoʻllanib keladi, eski oʻzbek tilida ham keng isteʼmolda boʻlgan. Masalan: *Beshik ichindä sut emär* (Tafsir). *Tām ichindä narsa korsāñ bizgä aytgʻıl* (QR). *Xalq ichindä bar edi begʻayratı* (Navoiy, LT). *Shahr ichindä turubtur gʻāfil* (SHN). *Shah Malik el ichigä keldi* (Sh.tar.).

*Āra* soʻzi ham koʻmakchi vazifasida turkiy tillarda qadimdan qoʻllanib keladi, eski oʻzbek tilida ham keng isteʼmolda boʻlgan. Masalan: *Quvut xalāyiq ārasıngʻa kirdi* (QR). *Barmāqları ārasındın suv çıqtı* (NF). *Tikānlär ārasında gul tōrätti* (MN). *Tüşkāy āramızda firāq* (Navoiy, LT). *Bu ikki elniñ ārasında dushmanlıq bār erdi* (Sh.tar.).

*Ich, ārā* soʻzlari koʻmakchi vazifasida qoʻllanganda odatda ish-harakatning boʻlish oʻrnini koʻrsatadi (yuqorida keltirilgan misollarga qarang). *Ich, ārā* soʻzlari payt maʼnosidagi soʻzlar bilan qoʻllanganda esa ish-harakatning maʼlum muddatda davom etib turishi koʻrsatiladi. Masalan: *Evdin evgä tün ichindä yürir erdi* (QR). *Ush munıñ-dek qış ichindä ul xān // qıldı barcha ulusıgʻa farmān* (SHN). *Yetti yüz yılñıñ ichidä... duāyi bad qıldı* (Sh.tar.). *Besh-altı āynıñ ārasında tañriniñ ināyatı bilä ancha kishim boldı* (BN). *Dar-*

*vish qırq bilä ellik yash arastıda ālamdın ötti* (Navoiy, MN).

*Arā* soʻzi egalik va kelishik qoʻshimchalarini olmasdan ham koʻmakchi vazifasida qoʻllanadi. Bunda *āra* koʻmakchisi odatda bosh kelishikdagi soʻzlar bilan qoʻllanadi, kishilik olmoshlari esa qaratqich kelishigida qoʻllanadi: *bizniy āra, sizniy āra, xalāyiq āra, tagʻlar āra* kabi. *Āra* soʻzi koʻmakchi vazifasida XV asrga qadar nasriy asarlarda ham, sheʻriy asarlarda ham qoʻllangan, undan keyingi davrlarda esa sheʻriy asarda uchraydi.

*Ārā//āra* koʻmakchisi asosan quyidagi maʼnolarni ifodalaydi:

1. Ish-harakatning boʻlish oʻrnini koʻrsatadi: *Xalāyiq āra mashhur bolub turur* (NF). *Tez qilichni elga āl, tutmagʻil anı qın āra* (Lutfiy). *Yāmān kātib manzili qalamdāni-dek chāh āra bolsun* (Navoiy, MQ). *Kāzārā Rum āra bolmish musafir* (Furqat).

2. Ish-harakatning yoʻnalish oʻrnini koʻrsatadi: *Har kishi kim birāvgā qazgʻay chāh // tushkāy ul chāh arā ozi nāgāh* (Navoiy, SS). *Nāz ile kulbam arā kirsān, berür-men jān seḡā* (Munis).

3. Ish-harakatning bir narsa, soha boʻyicha boʻlishini koʻrsatadi: *Ishq arā ölmäk durur maqsud aḡa* (Navoiy, LT). *Ne üçhün ayni kalāmi husn arā tāpmish zavāl* (Munis). *Ukamız Ermuhammad “Sim” arā tilmach olub ermish* (Furqat).

*Orta* soʻzining koʻmakchi vazifasida qoʻllanishi XIII—XIV asrlardan boshlab kuzatiladi. Lekin bu koʻmakchi eski oʻzbek tilida nisbatan kam qoʻllangan boʻlib, ayrim manbalarda uchraydi. Misollar: *Saray ortasında ora turdı* (QR). *Ul bostan ortasında bir kubba bilgürdi* (NF). *Tumannı keltürüb, uynıy ortasında oturub aytdı* (Sh.tar.). *Bir tegirmān suyu bu bāḡʻniy ortasıdın... hamisha jāriydur* (BN).

**229-§. *üst, üsk, yüz, tepä (tübä), bash*** soʻzlari koʻmakchi vazifasida qoʻllanganda maʼno jihatdan bir-biriga oʻxshaydi, yaʼni bu koʻmakchilar ish-harakat narsaning yuzasida, ustki qismida boʻlishini koʻrsatadi. Bu koʻmakchilar koʻpincha bosh kelishikdagi soʻz bilan, baʼzan qaratqich kelishigidagi soʻz bilan qoʻllanadi.

*Ust* soʻzi koʻmakchi vazifasida oʻzbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida keng isteʼmolda boʻlgan. Masalan: *Anıy üstündä*

*qırq qarı suv turdı* (QR). *Kel, beniqāb chıqqıl uyıñdın tām üstinā* (Atoiy). *Andın soñ Kashmir üstigä yürdi* (Sh.tar.). *Jilva äylär dil-barım zavraqda Jayxun üstidä* (Munis). *Bir tegirmān suyı... bāğ'nıñ ichidegi Pushtanıñ üstidin hamisha järiydur* (BN).

*üsk* so'zining ko'makchi vazifasida qo'llanishi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida uchraydi. *üsk* so'zi shaklan *üst* so'zi bilan o'xshash bo'lsa ham ma'nosiga ko'ra *ald* ko'makchisiga yaqin turadi, ya'ni ish-harakatning narsa oldida yuz berishi yoki shu narsa tomon yo'nalishi kabi ma'nolarni ifodalaydi. Qiyoslang: *Xalāyiqlar üskündä ayqıl* (QR). *Bu sözni aytu qālmadı majāli // parishān boldı yār üskindä hāli* (XSH). *Musa yalavuch Fir'avn üskündin chıqdı* (Tafsir). *Qachan kim Maryam uskundä yemish kerdı ersä, köñülündä tafakkur qıldı* (Tafsir).

*Yüz* so'zining ko'makchi vazifasida qo'llanishi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tili uchun ancha xarakterli bo'lib, keyingi davrlarda ayrim manbalarda uchraydi: *Suvlar yer yüzindä qurudı* (QR). *Seniñ ishqıñda Xorazmiy yoqaldı // valekin yer yüzindä äti qāldı* (MN). *Quyāsh yüzingä özin parda tuttı* (XSH). *Hazl yüzüdin bu baytmı ayıbdur* (Navoiy, MN).

*Tepä (tübä)* so'zi ham ko'makchi vazifasida asosan XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda qo'llangan: *Tag' tepasinde ot koründi* (Tafsir). *Tag'lar түbäsindin quzı indi* (QR). *Munar ul tag' түbäsingä ashuqub, ...* (XSH).

*Bāsh* so'zining ko'makchi vazifasida kelishi ham ancha chegarali bo'lib, asosan XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda uchraydi: *Ul ulusniñ bashında tüshtilär* (Tafsir). *Bu qārni täg' bashındın keltürgil* (NF). *Musa maydan bashına keldi* (QR). *Chäh bashıda qoydı bir kishini* (Navoiy, SS).

**230-§.** *Ast, alt, түb* so'zlari ko'makchi vazifasida qo'llanganda bir xil ma'noni ifodalaydi, ya'ni ish-harakat narsaning pastki qismida bajarilgani, pastki qismidan boshlangani kabi ma'nolarni bildiradi.

*Ast* so'zi ko'makchi vazifasida o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida qo'llangan. Masalan: *Meniñ qudratım astında qalg'ay-*

siz (Tafsir). *Āgʻzını āchtı tili astındın iblis sözlädi* (QR). *Gulnıñ yigʻāchi āstıda oltur ki, qopar yel* (Lutfiy). *Yetmiş-seksän kadxudālar tām astıgʻa qālīb öldilär* (BN). *Charx āstıda büküldi, boldı qaddım chun hilal* (Muqimiy).

*Alt* soʻzi koʻmakchi vazifasida asosan XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda qoʻllangan: *Bu arıqlar... meniñ taxtım altında aqar* (Tafsir). *Mallarıñız meniñ azaqım altında qaldı* (NF). *Aqar anıñ altındın arıqlar mañu* (Tafsir).

*Tüb* soʻzi ham koʻmakchi vazifasida asosan XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda qoʻllangan boʻlib, keyingi davrlarda ayrim manbalarda uchraydi: *Firʻavn darya tübindä gʻarq bolur boldı* (QR). *Kenä oshu yigʻachnıñ tübindä turdı* (OʻN). *Suv tubindä oynar erdi yashrun* (XSH). *Ul minarlar suvi yıtar tagʻı tübindin chıqar* (Tafsir). *Andijännıñ sharqı tarafıdagʻı tægʻlarnıñ tübidä mıñ uyluk karvannı andagʻ qar bāstı kim, ...* (BN).

**231-§.** *Haq, bab* soʻzlari koʻmakchi vazifasida qoʻllanganda maʼno jihatdan farq qilmaydi, yaʼni bu koʻmakchilar ish-harakat obyektini koʻrsatib, shu haqda maʼlumot beradi.

*Haq* soʻzi koʻmakchi vazifasida asosan XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda qoʻllangan boʻlib, keyingi davrlarda ayrim manbalarda uchraydi: *Ey qarındashlarım kim, benim haqımda qıldınız, özgälär haqında qılmañız* (QR). *Bu āyat Abubakir haqqıngʻa nazil boldı* (NF). *Falān ābid haqqına ne aytur-sen?* (Saroyi). *Meniñ haqımda qılur-sen hamin jafā havāsın* (Atoiy). *Ulus haqıda mıñ qurla atadın mehribān* (Sakkokiy).

*Bāb* soʻzining koʻmakchi vazifasida qoʻllanishi asosan XV asr va undan keyingi davrlarga oid manbalarda uchraydi: *Banda men ul kim, vafa babında derlär benazir* (Atoiy). *Samarqanddın qāchıb kelgän kishi bābıda sozlär bitilib erdi* (Navoiy, Msh). *Yana bir masnaviysi bār mevalar bābıda, muta qarib bahrıda, ...* (BN). *Anchunan lagʻar harabi kim, zaiflik bābıda, ...* (Muqimiy).

**232-§.** Eski oʻzbek tilida yuqorida keltirilganlardan tashqari yana bir guruh ot koʻmakchilar isteʼmolda boʻlgan. Lekin bularning isteʼmol doirasi ancha chegaralangan: bulardan baʼzilari oʻzbek



tili taraqqiyotining ma'lum davrlari uchun xos bo'lsa, ba'zilari ayrim yodgorliklardagina uchraydi. Shu bilan birga, bularning bir qismi eron tillaridan yoki arab tilidan o'zlashtirilgan so'zlardan iborat. Shunday ot ko'makchilardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

*tegrā* — *Misir tegrāsindā kimersāniy narsası qālmadi* (QR). *Ul bostān tegrāsindā qār bilgürdi* (NF). *Bu tāifa anıy tegrāsindā erdilār* (Navoiy, MN). *Shaharnıy tegrāsingā chun keldi // shahar ahlig'a nasihat qıldı* (SHN). *Andijān tegrāsidin...* (BN);

*tog'ri* — *Ushbu kent tog'risida bir ārāl bār edi* (BN). *Bāqiniy iste'dādıdın Termiz tog'risıg'a kelib, ...* (BN);

*qarshı* — *Shah qarshısında olturur ul* (XSH);

*art* — *Evniy artında kichik qabug' bār erdi* (NF). *Oturmısh parda artında oshul hur* (XSH);

*qırg'ag' (qırag')* — *Tenjiz qırg'ag'ında xalāyiqqlar bār erdi* (QR). *Quzug' qırag'ında chapurlar* (NF);

*yaqa* — *Karvānlar keldi, quzug' yaqasında qondi* (NF). *Qamug'in Sır yaqasında bitidim* (MN). *Tushub chashma yaqasında atındın* (XSH);

*asra* — *Ba'zilari kemā üzāsindā olturdılar taqı ba'zilari kemā asrasında olturdılar* (NF). *Azaqlar asra yer qılsaıy yüzüjnı, ...* (XSH);

*otru* — *Hamza otrusında bir kiyik çıqdı* (Tafsir). *Musanıy otrusında qoydılar* (QR);

*taraf* — *Yār Husayn Bahra tarafıdın quluqqa keldi* (BN). *Bāg'niy g'arbi-janubiy tarafida dahi dardāh havzıdur* (BN);

*atraf* — *Bu chashmanıy atrofida üç nav daraxtlardur* (BN);

*bārasıda* — *Bu faqir bārasıda kop fatihalar oqubdurlar* (Navoiy, MN);

*xususida* — *Ul maktabdın qachg'an xususida tapturub kelib, ...* (Furqat);

*vasfida* — *Men Ātāyi-men, la'ln vasfida kim tahsin oqur* (Atoiy);

*vasilasida* — *Mahub vasilasında oqur-men muhib sözi* (Atoiy);

*jihat(ı)dın* — *Ul jihatdın sahabalar tabarruk qılıb ichār erdilār* (NF). *Yag'in jihatdın yer balchıq bolmısh bolg'ay* (Navoiy, MN).

*Ul viloyatlarda mog'ul va o'zbek jihatidin hech kent yoqtur kim, qorg'anı bolmag'ay* (BN).

## 2. Ravish-ko'makchilar

**233-§.** Eski o'zbek tilidagi ravish ko'makchilar chiqish kelishigidagi so'z bilan qo'llanib, asosan payt ma'nosini ifodalaydi. Bunday ko'makchilarning ayrimlari qadimgi yodgorliklar tilida keng iste'molda bo'lib, eski o'zbek tilida ma'lum davrlargacha qo'llanib kelgan.

Eski o'zbek tilida asosan quyidagi ravish ko'makchilar iste'molda bo'lgan.

**234-§.** *Burun //burna, ilgäri // ilgäri, ashnu, øj* ravishlari ko'makchi vazifasida qo'llanganda ma'no jihatdan bir guruhni tashkil etadi, ya'ni bu ko'makchilar chiqish kelishigidagi so'z bilan qo'llanib, ish-harakatning shu so'z ifodalagan narsa, voqea-hodisa yoki harakatdan oldin bo'lishini ko'rsatadi.

**Burun** so'zi ko'makchi vazifasida asosan XIII—XIV asrlardan boshlab qo'llangan. Masalan: *Yusuf quyug' túbingä yetmäsdin burun... yarlig' keldi* (QR). *Bu sahabalarqa kim, sizlärdin burun dastur berdim* (NF). *Anı körgäch, fig'äm jändin burun chıqqay* (Navoiy, MN). *Beglär javāb bermäsdin burun og'lan aytdı* (Sh.tar.).

**Burun** ko'makchisi ayrim yodgorliklarda **burna** shaklida ham qo'llangan: *Chun hayāling'a shāh eylādi jazm // burna qatrān bilä buyurg'usı razm* (Navoiy, SS). *Nechä yıl xān kelishidin burna // qabal-u razm ishidin burna* (SHN). *Xabardın burna... özimizgä keltürüb saxlabturlar* (BN).

**Ilgäri//ilgäri** so'zi ham ko'makchi vazifasida asosan XIII—XIV asrlardan boshlab qo'llangan: *Mundin ilgäri yad qılduq* (Tafsir). *Bu kitābnı aytqandın on yetti yıl ilgäri... bizgä yäg'ı bolub erdilär* (Sh.tar.).

**Ashnu** so'zining ko'makchi vazifasida qo'llanishi qadimdan boshlangan bo'lib, XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarda ham ancha keng iste'molda bo'lgan: *Qamug'dın ashnu bir gavhar yaratdı* (QR). *Jabraildin ashnu, ya Muhammad, ayg'il* (Tafsir). *Namāz*

vaqti bolmadin ashnu abdash qilur erduk (NF). Jahandin ashnu min qildi xalq (MN). Kishi olmazdin ashnu bu omurdin //olar-men teb kesar-mu hech umunchin (XSH).

*Øj* so'zining ham ko'makchi vazifasida qo'llanishi qadimgi davrlardan boshlangan bo'lib, XIII—XIV asrlarda ham qo'llangan: *Mundin øj muhajirlar... imana kelib erdilär* (Tafsir). *Yä Fatima, atanqa bu kundin øj emgäk tegmägäy* (NF). *Tilämaz erdin andin øj yegäsi* (XSH).

**235-§.** *Keyin* (*kezin*), *soj*, *sojra* ravishlari ko'makchi vazifasida qo'llanganda bir xil ma'noni ifodalaydi, ya'ni bular chiqish kelishigidagi so'z bilan qo'llanib, shu so'z ifodalagan voqea-hodisa yoki ish-harakatdan so'ng yana boshqasining bo'lishini ko'rsatadi.

*Keyin* so'zi XV asrga qadar *kezin* (qadimgi turkiy yodgorliklarda *ke<sub>u</sub>din*) shaklida qo'llangan. Bu so'z ko'makchi vazifasida asosan XV asrga qadar qo'llangan bo'lib, keyingi davrlarda ba'zi manbalarda uchraydi. Masalan: *Men bu kundä kezin ertä-kechä sehä keläyin* (Tafsir). *Fir'avnda kezin Haman qirq yil boldi* (QR). *Yoq erdi qazg'usi andin kezin hech* (XSH). *Üch-tört kundin keyin zaxm bilä-o'q bärdi* (BN).

*Soj* ko'makchisi o'zbek tili taraqqiyotining hamma davrlarida keng iste'molda bo'lgan. Masalan: *Qarg'anı Nuh alayhissalam tofandın soj yer kormägä izdi* (QR). *Bu kundin soj yüz ellik yıl yashag'ıl* (MN). *Yalg'anı zähir bolg'andın soj ana rasvälig' yetkäy* (Navoiy, MQ). *Bahär bolg'andın soj piyāda kela turur miz* (Sh.tar.).

*Sojra* ko'makchisi *soj* so'ziga jo'nalish kelishigi affiksi *-ra* qo'shilishi bilan hosil bo'lib, bular o'rtasida qo'llanishi va ma'nosi jihatdan farq yo'q. *Sojra* ko'makchisi ham eski o'zbek tilida ancha keng iste'molda bo'lgan. Masalan: *Mendın sojra anıj farmänındın çıqmanj* (Tafsir). *Ush andın sojra nāma bāshlag'ayın* (MN). *Yana bir nechä qadam barg'andın sojra shayx muridg'a yana ayttı* (Navoiy, MQ). *Andın sojra Sultān Abusaid mirza äldi* (BN).

**236-§.** *Beri* (*berü*), *nari* (*nari*), *otru*, *tashqari* (*tashqaru*), *ayru*

ravishlari ham ko‘makchi vazifasida chiqish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanadi, lekin ma‘nosiga ko‘ra bular o‘zaro farqlanadi.

**Beri** so‘zining ko‘makchi vazifasida qo‘llanishi ancha ilgari davrlardan boshlangan bo‘lib, qadimgi turkiy yodgorliklarda ham shu vazifada qo‘llangan. Bu ko‘makchi chiqish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanib, ish-harakatning shu so‘z ifodalagan vaqtdan boshlab davom etib kelayotganini ko‘rsatadi: *Mir Murtāz kichik yashdin beri kim, ilm kasbig‘a mashg‘uldur, ...* (Navoiy, MN). *Andin beri shu badiyan “Xadarvash” derlar* (BN). *Tünä kündin beri barcha yerim āg‘riy turur* (Sh.tar.). *Qay küni kordüm jamalıñını nigār, andin beri // intizāram xasti jān-u dilfigār andin beri* (Furqat).

Bu ko‘makchi oldingi davrlarda, jumladan, XIII—XIV asrlarda *bärü* shaklida qo‘llangan: *Bu torā anchadin bärü qalmish turur* (Tafsir). *Ibrahim on kündin bärü yatmishi yoq erdi* (QR). *Men seni öküş zamāndın bärü arzu qılur erdim* (NF). *Ush andin bärü kim, qurdi bu bāzār, ...* (XSH).

**Narı** (*naru*) so‘zining ko‘makchi vazifasida qo‘llanishi nisbatan keyingi davrlardan boshlangan bo‘lib, yozuv yodgorliklarida kam uchraydi. Bu ko‘makchi chiqish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanib, ish-harakatning shu so‘z ifodalagan nuqtadan uzoqlashuvini ko‘rsatadi: *Ilgäri kelü ālmadı, damanadin-oq narı yāndı* (BN). *Vale Kabul sarıg‘a yuz qoydı // balke andin narıg‘a yüz qoydı* (SHN). *Ul vaqtda turkmāndin narı tarafında olturg‘an ellär kōp erdi* (Sh.tar).

**Otru** ravishining ko‘makchi vazifasida qo‘llanishi qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos bo‘lib, XIII—XIV asrlarda ham qo‘llangan. Bu ko‘makchi chiqish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanib, sabab ma‘nosini ifodalaydi: *Andin oturu aña Abulahab tedilär kim, kōrklüg erdi* (Tafsir). *Bu ma‘nidin oturu alayhissalāmqa Mustafā āt berildi* (NF). *Dımag‘ıng‘a anıñ-tek toldı savdā // kim ul savdādin oturu sahra* (XSH).

**Tashqarı** so‘zi qadimgi turkiy yodgorliklarda **tashqaru** shaklida qo‘llangan bo‘lib, ravish vazifasini bajargan. Ko‘makchi vazifasida qo‘llanishi esa keyingi davrlarda yuzaga kelgan. Bu ko‘makchi chiqish kelishigidagi so‘z bilan qo‘llanib, shu so‘z ifodalagan

narsa, voqea-hodisani boshqalardan ajratib ko'rsatadi: *Mundaq kishi... yigitlik dāirasıdın tashqarıdur* (Navoiy, MQ). *Shahruxiyadın tashqarı Haydar beg salg'an bag'da xang'a mulazamat qıldım* (BN). *Atası yolındın tashqarı çıqmadı* (Sh.tar.).

**Ayru** ravishi ko'makchi vazifasida kam qo'llangan bo'lib, ma'nosiga ko'ra *tashqarı* ko'makchisiga o'xshaydi. Qiyoslang: *Sendin ayru ne keräk bizgä* (SHN). *Keyıñdın ayru naxuni g'am tirnetür yüzın* (Munis).

**237-§.** Sifat turkumiga oid bo'lgan *bashqa*, *ozgä*, *azın* so'zlari ham ko'makchi vazifasida kelganda qo'llanishi va ma'nosiga ko'ra ravish ko'makchilarga yaqin turadi. Bular ham *tashqarı*, *ayru* ravish ko'makchilar singari chiqish kelishigidagi so'z bilan qo'llanib, shu so'z ifodalagan narsa, voqea-hodisani boshqalardan ajratib ko'rsatadi.

**Bāshqa** so'zining ko'makchi vazifasida qo'llanishi XV asrdan kengaya boshlagan, XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda ham uchraydi. Masalan: *Bu kün tørt kün boldı sizdın bāshqa ayrılg'alı* (QR). *Alardın bāshqa bolmāqnı korüb xush* (XSH). *Shivadın bāshqa jamālınđa korüb-men anı* (Lutfiy). *Uqabayndın bāshqa yana parchag'ına täg' tüshübtür* (BN). *Qorqutdın bāshqa ikki ınaq begi bār erdi* (Sh.tar.). *Yana andın bashqa ikki-üch yerdä xeyli qattıg' muharibalar bolubdur* (Furqat).

**Özgä** so'zining ko'makchi vazifasida qo'llanishi XIII—XIV asrlar tiliga xos bo'lib, keyingi davrlarda ancha chegaralangan. Masalan: *Bulmag'aymen andın özgä sıg'ing'u yer* (Tafsir). *Kimärsä üch eldın özgä yergä bärmış bolsa, ...* (QR). *Sendin özgä nav atlas toquyın* (MN). *Anıñ yoq sendin özge hech yarı* (XSH). *Mundın özgä aysh-u kāmıñ ne ekin?* (Navoiy, LT). *Anıñ buyurg'anındın özgä ishni qilmag'ıl* (Sh.tar.). *Sendin özgä ishq bemārig'a yoq hāziq, tabib* (Furqat).

**Azın** ko'makchisi qadimgi turkiy yodgorliklarda (*adın* shaklida) keng iste'molda bo'lib, XIII—XIV asrlarga oid ayrim manbalarda ham qo'llangan: *Ataları dinidın azın yanı din çıqarmış* (Tafsir). *Yılan, chıyandın azın narsa yoq erdi* (QR). *Tamāshadın azın hech ishläri yoq* (XSH).

## *Fe'l-ko'makchilar*

**238-§.** Eski o'zbek tilida *-a/-ä* affiksli ravishdosh shaklidagi fe'llar qo'llanish o'rni qarab ko'makchi vazifasini ham bajargan. Lekin bunday ko'makchilar juda kam sonni tashkil etadi. Bulardan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

*Kerü* (*ker+ä*) ravishdoshi ko'makchi vazifasida qo'llanganda jo'nalish kelishigidagi so'z bilan kelib, sabab, chog'ishtirish, ish-harakatning chegarasini ko'rsatish kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Umid ul kim, chun oqug'uchilar... har qaysi ez idraklang'a kerä bahra älg'aylar* (Navoiy, MQ). *Aniñ qiymati javhang'a kerä zahir bolur* (Navoiy, ML). *Yana bir maslahat roy bersä, aña kerä amal qilg'ay-biz* (BN).

*Yarasha* (*yarash+a*) ravishdoshi jo'nalish kelishigidagi so'z bilan qo'llanib, ish-harakatning chegarasini ko'rsatadi: *Qulliq-u iztirabda aña yarasha keräk bolg'ay* (Navoiy, MQ). *Maskaniga yarasha tüşti nur // himmatig'a yarasha tapti huzur* (SHN). *Andin yana ne maslahat roy bersä, aña yarasha amal qililg'ay* (BN).

*Bäqa* (*bäq+a*) ravishdoshi jo'nalish kelishigidagi so'z bilan qo'llanib, ish-harakatning yo'nalish tomonini ko'rsatish, narsa va hodisalarni qiyoslash kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Aniñ qiymati ham martabasi nisbatig'a bäqa intishär-u ishtihär täpar* (Navoiy, ML). *Ul dāmanadin kechiib, g'arbqa bäqa yürüb, ... bir suvsiz keldä tüşildi* (BN). *Tülküsi özgä yerniñ tülküsigä bäqa yügürük bolur* (BN).

## **Bog'lovchilar**

**239-§.** Bog'lovchilar ham boshqa yordamchi so'zlar kabi tarixan mustaqil so'zlardan rivojlangan. Masalan, *kim* bog'lovchisi *kim* so'roq olmoshi asosida shakllangan, *taqi//dag'i* bog'lovchisi aslida ravish turkumiga oid bo'lgan, *ne...*, *ne...* bog'lovchisi *ne* so'roq olmoshi asosida yuzaga kelgan, *shuniñ üçün (kim)*, *aniñ üçün (kim)* kabi bog'lovchilar esa ko'rsatish olmoshlariga *üchün* ko'makchisi qo'shilishi asosida hosil bo'lgan. Lekin bunday bog'lovchilar turkiy tillarda juda kam sonni tashkil etadi.

Hozirgi turkiy tillarda iste'molda bo'lgan bog'lovchilarning

aksariyati eron tillaridan yoki arab tilidan o'zlashtirilgan. Yozma manbalardan ma'lum bo'lishicha, bunday bog'lovchilar turkiy tillar taraqqiyotining ma'lum davrlarida o'zlashtirilgan bo'lib, ularning miqdori asta-sekin ko'paya borgan va qo'llanishi kengaya borgan. O'zlashtirilgan bog'lovchilarning bir guruhi XI asrga oid yodgorliklarda ham uchraydi. Lekin ular XIII—XIV asrlardan keng qo'llana boshlagan.

Eski o'zbek tilidagi bog'lovchilar ham vazifasiga ko'ra ikki guruhga bo'linadi: 1) teng bog'lovchilar; 2) ergashtiruvchi bog'lovchilar.

### *Teng bog'lovchilar*

**240-§.** Eski o'zbek tilida qo'llangan teng bog'lovchilar vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1) biriktiruvchi bog'lovchilar: *va, -u (yu, -vu), ham, taqi // dag'i, yemä, ma;*

2) ayiruvchi bog'lovchilar: *yä (yaki), gäh (gähi), yähud, xäh (xähi), azu;*

3) zidlovchi bog'lovchilar: *amma, lekin, lek, valekin, valek, vale;*

4) inkor bog'lovchisi: *ne..., ne...*

Ko'rsatilgan bog'lovchilarning ko'pchiligi eron tillaridan yoki arab tilidan o'zlashtirilgan bo'lib, asli turkiy bog'lovchilar juda kam sonni tashkil etadi. Bular asosan quyidagilar: *taqi //dag'i, ne..., ne...; yämä, ma, azu.* Bulardan keyingi uchta o'zbek tilida XV asrga qadar iste'molda bo'lgan, *ne..., ne...* inkor bog'lovchisining qo'llanishi esa asosan XV asrdan boshlab kuzatiladi.

### *Biriktiruvchi bog'lovchilar*

**241-§.** *Va, -u (yu, -yü)* bog'lovchilari eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan. Bu bog'lovchilarning ikkalasi ham arab yozuvida bir xil belgi bilan, ya'ni, vov (و) orqali ifodalanadi. Lekin kelib chiqishiga ko'ra, qisman qo'llanishi va vazifasi jihatdan ham bular bir-biridan farqlanadi.

1. **-u (yu, -yü), va, ham** bog'lovchilari adabiy til tarixida uyushiq bo'laklar, sodda gaplarni bog'lagan.

**242-§.** *Taqi // dag'ı* bog'lovchisi qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos bo'lib, eski o'zbek tilida ham ancha keng qo'llangan (XV asrga qadar *taqi*, keyingi davrlarda ko'pincha *dag'ı*, ba'zan *daqi* shaklida uchraydi).

*Taqi //dag'ı* ham uyushgan bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'laydi: *Oq ya alsunlar taqi meni atsunlar* (Tafsir). *Hajriñda, begim, "äh!" degüm dag'ı ölgüm* (Atoiy). *Täg'ni eritür ähim, asar qilg'usi bir kün // köñlüm nechä kim bolsa temur täsh dag'ı polad* (Lutfiy). *Shahrdın chıq taqi qıl xızmatı xän* (SHN). *Joji xän bästi taqi qıpchäqniñ qolg'a tüshkänin öltürdilär* (Sh.tar.).

*Taqi //dag'ı* bog'lovchisi ham ko'pincha biror narsa, voqea-hodisani yoki ish-harakatni ajratib, ta'kidlab ko'rsatish, ma'noni kuchaytirish uchun qo'llanadi: *Anja taqi bug'day beräyin* (QR). *Hamäna shäh dag'ı anı körübtür* (Navoiy, FSH). *Hamza sultäng'a dag'ı bärdi xabar* (SHN). *Lazzatı artar dag'ı qadrig'a täpmas räh* (Munis).

*Yemä, ma* bog'lovchilari qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos bo'lib, XIII—XIV asrlarga oil manbalarda ham qo'llangan. Vazifasi jihatdan *ham, taqi // dag'ı* bog'lovchilariga o'xshaydi. Qiyoslang: *Bu qissa yemä tögäl sharh qılınmısh turur* (Tafsir). *Nechük kim kezdi yalg'uz täg'lar arä// yemä chimgen chechäklär, bäg'lar arä* (XSH). *Yerniñ ma kökniñ tañrisi men-men* (QR). *Biz ma bözchilik qılälüm* (QR). *Bitidim ma yazdım bu bir qach sözüm* (XSH).

### ***Ayiruvchi bog'lovchilar***

**243-§.** Eski o'zbek tilida keng iste'molda bo'lgan ayiruvchi bog'lovchilardan biri *yä* bog'lovchisidir. Bu bog'lovchi uyushgan bo'laklarning yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarning biridan ikkinchisini ajratib ko'rsatish vazifasini bajaradi: *Belindin yä tizindin suv kechmädi* (Tafsir). *Shakardur ul äg'ız yä pista, bilmän* (Lutfiy). *Xojası anı yä ul xojasını üzäd qılıbdur* (Navoiy, MN). *Ul labı maygun üzä xatdur-mu, bolmısh äshkär // yä magari gul bargı üzrü bäh chıqarmısh xärlar* (Munis).



*Yā bog‘lovchisi uyushgan bo‘laklar yoki qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar oldidan takrorlanib ham keladi (yā..., yā...). Bunda ayirish ma‘nosi ta‘kidlanib, kuchaytirib ko‘rsatiladi: Yā visālīḡdīn karam qıl, yā meni oltūr ravān (Atoiy). Yā beligā bāḡ‘lar edi, yā qoḡg‘a ālib yürür edi (BN). Bu savda bilān bashīda kechqurun // barur kohī yā arqadīn, yā burun (Muqimiy). Yā sen-mu kemūshūr-sen, yā oẓümüz-mu bulalīm? (Tafsir).*

Keyingi davrlarga oid manbalarda bu bog‘lovchi *yāki* shaklida ham uchraydi: *Osmaliḡ qashlar-mu yā shamshir qāndīn zangliḡ // yāki pistaḡi tōkūlmish rangi ahzār üstidā? (Furqat).*

Eski o‘zbek tilida faol iste‘molda bo‘lgan ayiruvchi bog‘lovchilardan yana biri *gāh (gāhi)* bog‘lovchisidir. Bu bog‘lovchi ko‘pincha takrorlanib qo‘llanadi.

*Gāh (gāhi)* bog‘lovchisi uyushgan bo‘laklar yoki qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplar oldidan takrorlanib kelib, ikki ish-harakatning yoki ikki voqea-hodisaning galma-gal bo‘lishini ko‘rsatadi: *Gāh Hātam uyalur bazm ichindā // gāhi Rustam yupanur razm ichindā (MN). Gāhi kōzūmdīn āqar yāsh-u gāh la‘l tamar (Sakko-kiy). Gāh sāchīn silār edi, gāh yūzīn // gāh qashīn saylar edi, gāh kōzīn (SHN). Gāh yīḡ‘lab, gāh ahvalīmg‘a kulmishām asir (Muqimiy).*

*Gāh (gāhi)* bog‘lovchisi bir o‘rinda takrorlanib kelishi ham mumkin. Bunday hollarda biror ish-harakatning yoki voqea-hodisaning vaqti-vaqti bilan takrorlanib turishi ko‘rsatiladi: *G‘amza oqīnī gāh-gāh jānīma rahm etīb ātar (Lutfiy). Tāparda astanīḡda panāhi meni kōzlār-mu erkin gāh-gāh? (Navoiy, FSH). Ātāyīg‘a ināyat qıl ki, shāhlar // sorarlar gāhi-gāhi ham gadānī (Atoiy).*

*Gāh (gāhi)* bog‘lovchisi yakka holda qo‘llanganda, biror ish-harakatning yoki voqea-hodisaning ba‘zan-ba‘zan bo‘lishi yoki qarama-qarshi ma‘nodagi ikki tushuncha o‘rtasidagi bog‘lanish ko‘rsatiladi: *Ul ki derlār suv qızı ki, gāh kōzgā kōrīnūr (Atoiy). Bibi Ubayda boladur xālamız // gāh kelūr erdī kichik bālamız (Muqimiy). Ishāmb gāh ishanmay turdī anda // kim anīḡ kelmishi teb bizgā qanda (Furqat).*

Eski o'zbek tilida *yāxud*, *xāh* (*xāhi*) bog'lovchilarining qo'llanishi ancha chegarali bo'lib, vazifasiga ko'ra *yā* bog'lovchisiga o'xshaydi.

*Yāxud* bog'lovchisi yakka holda qo'llanadi: *Burun bermish turur yāxud emdi berāsi turur?* (Tafsir). *Magar qondi bu tun munda humāyi // yāxud tūñlūkdin indi tolun āyi?* (XSH). *Bilmen, ul maktub erūr yāxud alifdur jān ara* (Navoiy, Msh). *Sunbul gul üzā sāya sālibdur-mu yāxud // har yān āchilibdur-mu yūzūn üzrā kulāla?* (Munis).

*Xāh* (*xāhi*) bog'lovchisi takrorlanib qo'llanadi: *Sen bilūr-sen, xāh lutf et, xāh qil kibr-u dimāg'* (Atoiy). *Sen-sen sevārim, xāhi inān, xāhi inānma // qāndur jigarim, xāhi inān, xāhi inānma* (Lutfiy). *Bolsa har yerdā, ul bolur aña jam // xāhi g'amgin-u xāhi erūr xushnud* (Munis). *Xāh oñiñ, xah qāñiñ, bachchag'ar* (Muqimiy).

Ayiruvchi bog'lovchilar guruhiga kiruvchi *azu* bog'lovchisi qadimgi turkiy yodgorliklar tiliga xos bo'lib, XIII–XIV asrlarga oid manbalarning ayrimlarida ham qo'llangan. *Azu* bog'lovchisi ham vazifasiga ko'ra *ya* bog'lovchisiga o'xshaydi, ba'zan *ya* bog'lovchisi bilan birga qo'llanadi: *Ey Zulqarnayn, azu qiynarmusen, azu tutar-mu-sen anlarinñ ichindā ezgūlūk?* (Tafsir). *Ne ter-sen, yā Haman, kirālim-mu yā azu yoq-mu?* (Tafsir).

### **Zidlovchi bog'lovchilar**

**244-§.** Zidlovchi bog'lovchilar guruhiga kiruvchi *lekin*, *valekin*, *lek*, *valek*, *vale* bog'lovchilari tuzilishi jihatdan ham, qo'llanishi va vazifasiga ko'ra ham o'xshash. Bular asosan qarama-qarshi mazmundagi ikki sodda gap o'rtasidagi munosabatni ko'rsatish vazifasida qo'llanadi. Bulardan *lek*, *valek* shakllari she'riy asarlarda uchraydi. Masalan:

**Lekin** — *Guldur bu Sarāyi Sayf, lekin dushman kezina tikān kerūnūr* (Saroyi). *Ashkāra fitnadur, lekin qilur pinhān balā* (Lutfiy). *Ātlanib yol sarī māyil boldi // lekin ul shahar cherikdin toldi* (SHN).

**Valekin** — *Seninñ ishqinñda Xorazmiy yoqaldi // valekin yer yuzindā āti qaldi* (MN). *Ammā xush tab va yaxshi yigitdür, valekin ātası madhiylik da'vā qilg'andın ne balālar kim, bāshig'a keldi, ...*

(Navoiy, MN). *Köp jadal qıldım, valekin täpmadım bazmıñg'a yol* (Furqat).

**Lek** — *Yardıñ özgä harne deb Mäni // eshitib, lek anlamay anı* (Navoiy, SS). *Shahr eli bu xabardın xushhāl // lek xännıñ cheriki farig'bāl* (SHN). *Nāla tärtar-men visālın arzusu birlä, lek // yetmäs, ey käfırvashım, men tärtg'an afg'an señä* (Munis).

**Valek** — *Qazar-men uyla ki Farhad dard-u g'am tög'in // valek tırnag'ım oldı qazarda teshä meñä* (Munis).

**Vale** — *Mıñ jähım bolsa seniñ uchun bergäy-men, vale bu ishni qılmay-men* (QR). *Barcha tapılır bizgä, vale yār tapılmas* (Lutfiy). *Yana bir durraj jinsi qushdur, ... üni kabknın unıgä oxshar, vale munıñ üni köp täzdür* (BN).

**Ammā** bog'lovchisi ham qo'llanishi va vazifasiga ko'ra yuqoridagi zidlovchi bog'lovchilarga o'xshaydi, ya'ni bu bog'lovchi ham asosan qarama-qarshi mazmundagi ikki sodda gap o'rtasidagi munosabatni ko'rsatishda qo'llanadi. Masalan: *Satıg'chi er-men, mālım telım, ammā og'lānım yoq* (QR). *Ul qısh asru savuq erdi, ammā // yoq edi hech alarg'a parvā* (SHN). *Xob aytıb edı, ammā men rāzi bolmadım* (BN). *Bizniñ ichimizdä "Og'uznāma" köp turur, ammā hech yaxshısı yoq* (Sh.tar.).

Zidlovchi bog'lovchilar zid ma'noga ega bo'lgan gap bo'laklarini biriktirish vazifasini ham bajaradi. Masalan: *Yolda kerishdilär, valekin tanishmadılar* (QR). *Yalavuch ermädi, valekin ezgülerdin erdi* (Tafsir). *Biz ham kördük, ammā bilmädük hech* (Navoiy, FSH).

### ***Inkor bog'lovchilari***

**245-§.** Eski o'zbek tilida asosan **ne...**, **ne...** inkor bog'lovchisi qo'llangan. Bu bog'lovchi uyushgan bo'laklar yoki qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar oldidan takrorlanib kelib, inkor ma'nosini ifodalaydi: *Tāñ ātg'uncha ne malik qāldı, ne cherik qāldı* (QR). *Ne pari oxshar señä husn ichre, ne uns-u malak* (Atoiy). *Ne keyin yānıb, ne ilgäri yürüb, seznı bir yergä qoyalmay... kelürlär* (BN). *Ne āta og'lını täptı ul dam // ne og'ulg'a ātadın qāldı g'am* (SHN).

*Ne she'r irtifāye tāpadur, ne shāir // ne fazl e'tibāre tāpadur, ne fāzil (Munis).*

### ***Ergashtiruvchi bog'lovchilar***

**246-§.** Qadimgi turkiy yodgorliklar tilida qo'llangan ergashtiruvchi bog'lovchilar juda kam sonni tashkil etadi: *kim, qaltı, qalı, abam, aban, birök (birük), teb // teyü (teyin // tiyin), anı üçhün, anıñ.* Bular ham asosan qadimgi turkiy tili yodgorliklarida qo'llangan bo'lib, O'rxun-Enasoy yodgorliklarida ayrimlarigina uchraydi. Bu bog'lovchilarning ko'pchiligi keyinchalik iste'moldan chiqqan.

Hozirgi turkiy tillardagi, shu jumladan, o'zbek tilidagi ergashtiruvchi bog'lovchilarning aksariyati ma'lum davrlarda eron tillaridan yoki arab tilidan o'zlashtirilgan. Bularning ayrimlari XI—XII asrlarga oid yodgorliklarda ham qo'llangan bo'lib, ko'pchiligi keyingi davrlarga oid manbalarda uchraydi.

**247-§.** Eski o'zbek tilida ergashtiruvchi bog'lovchilardan *kim, ki* faol iste'molda bo'lgan. *Kim* asli turkiy bo'lib, *ki* eron tillaridan o'zlashtirilgan.

*Kim* bog'lovchisi turli ergash gaplarni bosh gap bilan bog'lash uchun xizmat qiladi. Masalan:

1. *Ul tāg'larda rasmdur kim, tāshlarda abyāt... bitib qazurlar* (BN).
2. *Erklik va insaniyat uldur kim, muqabalasida qulluq-u xidmatkārliq, balke yekjihathiq-u jān siparliq qilg'ay* (Navoiy, MQ).
3. *Buyla ma'ni kim, menä boldı ayan // äylädim qushlar tili birlä bayān* (Navoiy, LT).
4. *Nechük aytur erdiñiz anı kim, qılmaz ermishtıñiz* (Tafsir).
5. *Ul gimnaziya bāshlıg'ig'a payg'ām yubardük kim, ... kirib ushbu madrasanı tamāsha qılsak ekän deb* (Furqat).
6. *Vah, nedindür kim, yubarmas-sen navāzish nāmai...*(Munis).
7. *Yetti-sekiz qadam qılıb edim kim, üç piyada kelib qoshuldi* (BN).
8. *Men ul shart birle musulman bolur—men kim, meni ālsañ* (QR).
9. *Andaq qıl kim, soñra pushaymān bolma* (BN).

10. *Bu pari soʻzda kergüzür mojiz // kim qilur elni nuqtasi ājiz* (Navoiy, SS).

Keltirilgan misollarning birinchisida *kim* bogʻlovchisi ega ergash gapni bosh gap bilan bogʻlab kelgan, ikkinchisida — kesim ergash gapni, uchinchisida — aniqlovchi ergash gapni, toʻrtinchisida — toʻldiruvchi ergash gapni, beshinchisida — maqsad ergash gapni, oltinchisida — sabab ergash gapni, yettinchisida — payt ergash gapni, sakkizinchisida — shart ergash gapni, toʻqqizinchisida — hol ergash gapni, oʻninchisida — natija ergash gapni bosh gap bilan bogʻlab kelgan.

Eski oʻzbek tilida *kim* bogʻlovchisining vazifasi keng boʻlib, ergash gapli qoʻshma gaplarning deyarli barcha turlari tarkibida ishtirok etgan. Bundan tashqari, *kim* bogʻlovchisi eski oʻzbek tilida oʻzlashtirma gaplar tarkibida ham keng qoʻllangan, yaʼni muallif gapini koʻchirma gap bilan bogʻlash vazifasini bajargan. Masalan: *Baʼzi dedilar kim, yāzgʻa ālgʻaybiz* (BN). *Xān hukmi qıldı kim, hech kim mendin qālmasun deb* (Sh.tar.).

*Ki* bogʻlovchisining yozuv yodgorliklarda qoʻllanishi XIII—XIV asrlardan boshlab uchraydi. Lekin uning faol qoʻllanishi XV asrdan boshlab kuzatiladi. Bu bogʻlovchi vazifasiga koʻra *kim* bogʻlovchisiga oʻxshaydi. Farq shundaki, *ki* sheʼriy asarlarda faol qoʻllangan boʻlib, nasriy asarlarda kam uchraydi, *kim* esa ikkala janrda ham keng qoʻllangan.

Eski oʻzbek tilida *ki* ham *kim* bogʻlovchisi kabi turli ergash gaplarni bosh gap bilan bogʻlash vazifasida qoʻllangan. Masalan: *Sevmākin dalili ul bolur ki, sevmishniñ tilāginchā yūrisā, ...* (QR). *Ul yāmānlar ki, bu ish bāshladilar // ōzlārin shahr ichigā tashladilar* (SHN). *Qilich ki, meniñ bashimgʻa yetti, oshal qilich boldi* (BN). *Firāq dardı tamını base, zaif etmiş // beriñ xabar ki, aña bār-mu anqarib ilāj* (Munis). *Atāyigʻa ināyat qil ki, shāhlar // sorarlar gāh-gāhi ham gadāni* (Atoiy). *Ul kün ki Duyli Qayı xān ōldi ersā, bizniñ yurtimizni tuman tutub, qarangʻu boldi* (Sh.tar.). *Kishi ki ōz jānigʻa qasd etür, seni sevsün* (Lutfiy). *Lāf urarmish gul tarāvāt bābida gulshan arā // bir bārib yüz ach ki, bolsun sharmsār, ey sarvnāz* (Furqat). *Der-sen ki, firaqımda meniñ sabr et, Atāyi // sabr etkāli chun qālmadi*

*imkān, netāyin men* (Atoiy). *Xān aytdi andaq xātun ne yerdin tāpıluur ki, kelib anaynıñ ornın tutğ'ay, tedi* (Sh.tar.).

*Kim, ki bog'lovchilari ayrim so'zlarga yoki bog'lovchilarga qo'shilib tarkibli bog'lovchilar hosil bo'ladi: taki, chunkim // chunki, netek ki, nechük kim* kabi (qarang: 250, 251, 253-§§).

**248-§. Agar** bog'lovchisi XI–XII asrlarga oid yodgorliklarda ham iste'molda bo'lgan. Lekin uning qo'llanishi XIII–XIV asrlardan boshlab kengaya borgan.

Eski o'zbek tilida *agar* bog'lovchisi asosan shart ergash gapni bosh gap bilan bog'lash vazifasida qo'llangan: *Agar bermäsän, biz kirib, chıqarar-biz* (QR). *Agar kėnlüñ tılär jänımnı älmäq // qaraqchu kėzlärıñdin bir qıya bāq* (Atoiy). *Agar menä bāqsanız, özünizni aldurur-siz* (BN). *Agar yandurmasanız, ... muxāribadın özgä kāräsāzlik yoqtur* (Furqat).

*Agar* bog'lovchisi ba'zan to'siqsiz ergash gapni bosh gap bilan bog'lash vazifasini ham bajaradi: *Yardıñ agar kelsä qılıch bashıma // zarra firāq etmägä-men ixtiyār* (Lutfiy). *Vah, nedındür kim, yubarmas-sen navāzısh nāmai // men nechä irsal agar qılsam kitāb uzrā kitāb?* (Munis).

*Agar* bog'lovchisi she'riy asarlarda *gar* shaklida ham keng qo'llangan: *Gar aflatun eshitsä öz sözini // unutğ'ay erdi ul dam öz sözini* (XSH). *Gar raqibıñ tühsä mänıñ qoluma // arqasıdın tas-malar kėp tile-men* (Lutfiy). *Gar aña banda madadkār oldum // yamān el sözi bilä yār oldum* (SHN). *Gar qılıch bāshıma ham kelsä, degäy-men rāstını* (Muqimiy).

Ayrim asarlarda bu bog'lovchi *ar* shaklda ham qo'llangan: *Ul yol ar bag'landı āchug'dur bu yol* (Navoiy, MQ). *ölgänim yaxshı bu nav, ar ötsä ellikdin yāshım* (Bobur). *Sarv-sen, ey guluzār, ar bolsa xushraftār sarv* (Muqimiy).

*Agar* bog'lovchisi XIX asrdan boshlab *agarda* shaklida ham qo'llangan: *Tüynüğıñdin agarda chıqsa tutun // munda ber dastmāyalarnı butun* (Muqimiy).

*Agar* (*gar, ar*) bog'lovchisi ba'zan takrorlanib qo'llanadi. Bunda u *xāh...*, *xāh...* ayiruv bog'lovchisi vazifasida keladi: *Söz tergüchınıñ*

agar ulugʻi, agar kichigi, bil ki, erürlär tamugʻ otinij tutrugʻi (Navoiy, MQ). *Bāshıñdın evrülür sadqa bolgʻalı kamar // bandaj durur agar mäh-u gar äftāb erur* (Lutfiy). *Javhari jānım äyläräm eysār / / gar qabul äylä, rad agar äylä* (Munis). *Bu maʻnidin ar zulmat, ar nurdur // sözi gah tillärdä mazkur durur* (Navoiy, SI).

**249-§.** *Agarche, garche, arche, agarchand, garchand, harchand* bogʻlovchilari *agar, gar, ar* bogʻlovchilariga yoki *har* belgilash olmoshiga *-che* yoki *-chand* qoʻshimchalari orttirilishi bilan hosil boʻlgan. Bu bogʻlovchilar toʻsiqsiz ergash gapni bosh gap bilan bogʻlash vazifasini bajaradi.

*Agarche* bogʻlovchisi asosan XV asrdan boshlab keng qoʻllangan boʻlib, XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklarning ayrimlarida ham uchraydi: *Agarche men ulardın bolmasam, ... anlarnı dost bilür-men* (Tafsir). *Faqir anı agarche kormey-men, ammā Mavlāna Muhammad Badaxshāniydın eshitmiş-men* (Navoiy, MN). *Agarche mardānalıgʻı bār edi, vale bir nimä telbaräk va gol kishi edi* (BN). *Ālib yādıgʻa, sormas kimsä Zākırjān Furqatnı // agarche aytadur dāim duā bādi sabālardın* (Furqat).

XV asrdan boshlab *garche* bogʻlovchisi ham ancha keng qoʻllangan boʻlib, asosan sheʻriy asarlarda uchraydi: *Garche sen dashnam eter-sen, men duāchi-men sänä* (Atoiy). *Garche itlärğä mulāzım bolmişam // lek ul xayl uzrā hakim bolmişam* (Navoiy, LT). *Chıqtılar barchası shatulardın // garche kōp kälđi tāsh otrulardın* (SHN). *Sabā kāsh erđi sōz keltürse meñä ul shakar labdın // ālurdım kāmı shirin, garche bolsa talx paygʻāmı* (Furqat).

*Arche* bogʻlovchisi XV asrdan keyingi davrlarga oid baʻzi sheʻriy asarlarda uchraydi: *Latāfat gulshamıda gul kibi sen sabza-vu xurram qāl // men arche dahr bagʻıdın xazān yafrägʻı-dek bārdım* (Bobur).

*Agarchand, garchand* bogʻlovchilari XVIII—XIX asrlarga oid ayrim asarlarda uchraydi. Bular *agarchande, agarchand ki, garchand ki, garchand kim* kabi shakllarda ham qoʻllangan: *Qayu shahrıda kim bolsa hunarmand // hama keldi, yırāq erđi agarchand* (Furqat). *Inʻām boldı sizgä garchand Tāshkāntdın // bergäy-mu-dik degändä Shayxantaxur fanus* (Muqimiy). *Agarchande bu*

*yāna kelmāsān ham // qilib maxzi tamāshā bir kelib ket* (Furqat). *Agarchand ki Rossiya xalqının gimnaziya degän madrasasıg'a bārib-kelib yürsäm ham, ...* (Furqat). *Bolsa kirāyi, tüşsān purjinalik kalaska // garchand kim, qılurlar guldār, arāba qursın* (Muqimiy).

**Harchand (kim)** asosan XVI–XVIII asrlarga oid manbalarda uchraydi: *Harchand sa'y qıldı kim, Astrabādni inisigā bermäkkä rizā bolmadı* (BN). *Harchand kim vārisi hāzir yoq edi, ... mällarını salim tapshurdi* (BN). *Harchand musulmān boluñ tedim, qabul qılmadılar* (Sh.tar.). *Harchand daru qıldı, sihat tāpmadı* (TN).

**250-§.** *Chun, chu* bog'lovchilari bir so'zning ikki xil ko'rinishi bo'lib, vazifasi jihatdan bular o'rtasida farq yo'q. Farq shundaki, *chun* XV asrdan boshlab keng qo'llangan bo'lib, XIII–XIV asrlarga oid manbalarda ham uchraydi, *chu* esa XV asrdan boshlab qo'llangan bo'lib, faqat she'riy asarlarda uchraydi.

Eski o'zbek tilida bu bog'lovchilar asosan quyidagi o'rinlarda qo'llangan:

a) sabab yoki sabab-natija mazmunidagi ergash gaplarni bosh gap bilan bog'laydi. Misollar:

*Chun — Ibrāhimniñ qutlug' eliki tegmäki birlä qamug' zuxam bolur erdi, chun evniñ tørt burchı zāhir boldı* (QR). *Bizdin eshitsün emdi jahān tāza qissalar // chun köhna boldı Layli-yu Majnun hikāyatı* (Sakkokiy). *Umid ul kim, chun darvish kishi erdi, ba'zi mustajab bolg'ay* (Navoiy, MN). *Ādam ermäs har kishi, gar eylämäs yād Andijān // chun musāfir xātirin eylāb turar shād Andijān* (Furqat);

*chu — Ketti xiradım bashta, chu ul qashını kördüm* (Lutfiy). *Tashqarı meva chu bisyār oldı // ichkəri xalq dilafskār oldı* (SHN). *Men kim hamisha yig'lar edim, yıqtı külgüdin // sormaqg'a zahir oldı chu nutqın zarāftı* (Muqimiy);

b) payt ergash gapni bosh gap bilan bog'laydi. Misollar:

*chun — Chun tilesä erniñ, көrүнür shivası shirin* (Lutfiy). *Chun bu sözdin yana ötti bir äy // boldılar barlıq el barı gadāy* (SHN). *Chun bayan ma'razıg'a yetkürdi, hamma vaqt ul kazada olturub saydi mahiy qılur ekün* (Furqat);



**chu** — *Ketür, saqigʻ, qadah xilvatda bir dam // chu keltürdün eshikni bagʻla mahkam* (Navoiy, FSH). *Chu Samarqandni äldi Babur // xalq arä tafriqa saldi Bābur* (SHN). *Chu yetdim huzur-ingʻa, qıldın itab // desüm har nechü emdi halı harab* (Muqimiy).

**Chun** bogʻlovchisi baʻzan sodda gap tarkibida qoʻllanib, oʻxshatish, qiyoslash maʼnosini ifodalaydi: *Sachıb qān yāshı chun abri bahār...* (Lutfiy). *Aña baqıb kishnegāy āgʻzın āchıb chun ajdahār* (Muqimiy).

**Chunkim, chunke** bogʻlovchilari *chun* bogʻlovchisiga *kim, ke* bogʻlovchilarining qoʻshilishi bilan hosil boʻlgan. Bular sabab ergash gapni bosh gap bilan bogʻlash vazifasini bajaradi.

**Chunkim** bogʻlovchisining qoʻllanishi XIII—XIX asrlardan boshlab kuzatiladi Lekin bu bogʻlovchi ayrim asarlardagina uchraydi: *Chunkim navbat Muhammadgʻa yetilushdi, farman keldi* (Tafsir). *Elindä chunkim aya xoja, mäl-u neʻmat köp // yedür, bagʻıshla, tiläseñ saādati uqba* (Saroyi). *Chunkim bizni aldımızgʻa gʻanim köp edi, kishi ayırıp yubara bilmädük* (BN).

**Chunke/chunki** bogʻlovchisi asosan XV asrdan boshlab qoʻllangan boʻlib, sheʼriy asarlar tili uchun xos boʻlgan: *Agʻzıñ üchün vujuddın kechäli // chunkä taptuq rāyi adam sendin* (Lutfiy). *Vasli hajrın qıssasın bir kun señä sharh äylägäy // chunke vaqıfdur meniñ yaxshı yāmānumdın köñül* (Atoiy). *Eylāmān hargiz seniñ gʻayri sarı nazzārai // chunke sen-sen ālam arā husn eliniñ ehsānı* (Munis). *Älma, örükni kishi bāzāra ālıb kelmäsün // chunke illatlık, yegänlärge balāsı tegmäsün* (Muqimiy).

**251-§. Tā, tāke** bogʻlovchilari XIII—XIV asrlardan qoʻllana boshlagan. Bu bogʻlovchilar shaklan ham, vazifasi jihatidan ham oʻxshash: *tāke* shakli *tā* va *ke/ki* bogʻlovchilarining birikuvidan hosil boʻlgan. Farq shundaki, *tā* shakli nasriy asarlarda ham, sheʼriy asarlarda ham qoʻllangan, *tāke* shakli esa sheʼriy asarlar tiliga xos boʻlgan.

*Tā, tāke* bogʻlovchilari eski oʻzbek tilida asosan quyidagi oʻrinlarda qoʻllangan:

a) maqsad ergash gapni bosh gap bilan bogʻlaydi: *Paygʻambargʻa köñlündä köz yaratdı, tā ul közi birlä tañrini kördi* (Tafsir). *Yolıda*

*tupraq ālayin āt ūchūn // tā menā qılg'ay guzar ul shāhsuvār* (Lutfiy). *Tilādük kim, bu qısh āriyat bergäy, tā anda olturub Samarqand vilāyatig'a elikdin kelgānchä yürüşgäy-biz* (BN). *Ishchilār on kün etti jahd-u shitāb // tāke boldı murattib ul asbāb* (Navoiy, SS). *Garche jān bermäy visālın ichrā qıldım bir gunāh // kech gunāhim, tāke tāpg'ay-sen savāb ūzrā savāb* (Munis);

b) payt ergash gapni bosh gap bilan bog'laydi: *Tā ul qıshlaqda edük, qırg'avul eti farāvān edi* (BN). *Tā dardi ishqıñ aqlımın āldı / / türlük balālar bāshım'g'a sāldı* (Munis). *Közüm nazarı tāke yüzünüzgä tūshūbtūr // jān birlä keñül ishqın otı ichrā küyūbtūr* (Lutfiy). *Hāsılan qıshladı xāni ayyām // tāke Xorazm ishi tāptı anjām* (SHN);

d) *tā* bog'lovchisi ko'makchi vazifasida ham qo'llangan. Bunda u ish-harakatning paytga nisbatan chegarasini ko'rsatadi: *Bir toya kergäy mu-men deb tal'atıñni tolun āy // tünülükündä olturur tā subh men-däk telmurub* (Atoiy). *Tā namāz xuftang'acha yol barıldı* (BN). *Shāmdın tā subhidam hajrıñda ertāb yana-men* (Muqimiy).

**252-§. *Teb*//*deb*** bog'lovchisi eski o'zbek tilida ham keng iste'molda bo'lgan. Bu bog'lovchi XV asrga qadar asosan *teb* (ba'zan *teyü*), keyingi davrlarda asosan *deb* (ayrim manbalarda *teb*, she'riy asarlarda ba'zan *debān*) shaklida qo'llangan. Qadimgi turkiy yodgorliklarda esa *tāb*, *tāyü*, *tāyin* // *tiyin* kabi shakllarda uchraydi.

*Teb* // *deb* bog'lovchisi ko'p ma'noli bo'lib, eski o'zbek tilida asosan quyidagi o'rinlarda qo'llangan:

a) maqsad ergash gapni bosh gap bilan bog'laydi: *Tashqaru chıqarmaq tilādi, kirmāsun teb* (QR). *Er ātlandı qılalıñ teyü javlān* (XSH). *Balke, suvni pāk bolsun debān, eliki birlä yuvur* (Atoiy). *Bir kün Qozı tegin ātasın korāyin teb keldi* (Sh.tar.);

b) sabab ergash gapni bosh gap bilan bog'laydi: *Biliglikni ag'ırlar, bilgı bār teb // garibni asraydur, keñli tār teb* (XSH). *Shad olma, āldi teyü, ashiqi miskin* (Sakkokiy). *Bāqalmas-men yüzigä, behayāliqđın uyalg'ay deb* (Muqimiy);

d) muallif gapini o'zlashtirma va ko'chirma gaplar bilan bog'lash vazifasini bajaradi: *Menā yavuqraq keliñ, teb Havanı*

ündädi (QR). Aydi: “Meni azın emgätmän, silkämän”, — teb (Tafsir). Xän hukm qıldı, ul jamāatqa “qarluq” desünlär teb (Sh.tar.). Ul qoy jalläv aytıbdur ki, ushbu tillalarnı menä bergil, men sang’a qırq adad qoy beräyin deb (Furqat).

**253-§.** Ayrim so‘roq olmoshlariga va shunga o‘xshash ba’zi so‘zlarga kim yoki ke bog‘lovchisi qo‘shilishi bilan murakkab turdagi bog‘lovchilar hosil bo‘ladi. Bunday bog‘lovchilarning ko‘pchiligi sabab ergash gaplarni, ayrimlari o‘xshatish-qiyoslash mazmunidagi ergash gaplarni bosh gap bilan bog‘lash vazifasini bajaradi. Bulardan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

**nechük kim // nechük ke** — Naväiy fäniy ol, istär esänj kam / / nechük kim boldılar Farhād-u Bahrām (Navoiy, FSH). Jul’ya tebrängäch, qabr tebrängän-dek maxsus boladur, nechük kim kemägä kirmägän el kemägä kirgäch, säxil mutaharriq maxsus bolur (BN). Täpilmadı menä yekranglik zamän elidin // nechük ke äylämishäm sayri älämi ashbäh (Munis);

**netek kim** — Küyür-men daima ishqında, ey yär // netäk kim küysä parvāna körüb nur (XSH);

**nechün kim // nevchün kim** — Yalg‘än söz degüchi sızin be’etibär qılır, nechün kim ul govharını xazaf-dek xär qılır (Navoiy, MQ). Befäyda el bilä müsähibliq qılmas, nevchün kim bejihat mashaqqatlarnı özigä ravä körmäs (Navoiy, MN);

**neche kim** — Hech kimärsä körmädi anı, nechä kim yalg‘än qılmish bolg‘ay (Tafsir). Xasta koñlümdin xayälün bir zamän ketmäs, begim // neche kim vaslıy etägigä qolum yetishmäs, begim (Atoiy);

**nege kim** — Xoja Kalännü tiläb edük, negä kim Xoja müsähib edi (BN);

**uyla kim** — Faqir ahlig‘a pädshäh muhtäj // uyla kim shahg‘a gadä muhtäj (Navoiy). Jismi zārım seli ashkim üzrā har sarı barur // uyla kim äqg‘ay qurug‘ xashak Jayxun üstidä (Munis).

**andaq (andag‘) kim // andaq ke** — Ba’zilar aymushlar kim, yalavach ermes teb, andag‘ kim tañri taalä yarlıqamış turur (Tafsir). Vafäg‘a hayä bilä payvastalıq, andaq ke hayäg‘a vafa bilä väbastalıq (Navoiy, MQ).

**254-§.** *Aniñ üçün (kim), shuniñ üçün (kim)* kabi ergashtiruvchi bog'lovchilar ko'rsatish olmoshlariga *uchun* ko'makchisi qo'shilishi bilan hosil bo'lib, asosan sabab ergash gaplarni bosh gap bilan bog'lash vazifasini bajaradi: *Bu vaqtg'acha Tuman yāsh erdi, aniñ üçün men ishni qila turur erdim* (Sh.tar.). *Aña ilm bermish erdi, aniñ üçün xizr atlandılar* (Tafsir). *Qāsim xān rāzi bolmadi, aniñ üçün kim Qāra Bulaqta zabt-u siyāsāt üçün mog'ulni oltürüb edi* (BN). *Parilar qorqtular, aniñ üçün kim Bilqis parilar urug'ındın erdi* (QR). *Nechük kim ul vilāyatda suv köpdür, shuniñ üçün anda bag'lar көp* (Turkiston viloyatining gazetasi).

**255-§.** Eski o'zbek tilida yana bir qator ergashtiruvchi bog'lovchilar amalda bo'lib, bular kam qo'llangan yoki ma'lum davrlar uchungina xos bo'lgan. Quyida shunday bog'lovchilardan ayrimlarini ko'rsatib o'tamiz:

**mabāda** — *Ta'biñ mabāda chāy tilar // damlashları ishqār ekān* (Muqimiy). *Ki anda Avliyā xoja mabāda // otrırg'an bolsa, qılma āshkārā* (Furqat);

**basharti** — *Hech bir sormas-mu-dı, nākām davrānlar etār // qulları ichrā basharti e'tibarım bār edi* (Muqimiy);

**vagarna** — *Dili azurda mendin boldı nāhaq // vagarna yoq gunāhe mendā mutlāq* (Furqat). *Dedi kim, qanı üç minımnı berıñ // vagarna shariat desāñız, yürıñ* (Muqimiy);

**varna** — *Mast-men bu kechā, saqiı, lutf ilā oltür meni // varna goysañ tañlaga, ranji xumār olırg'usı* (Muqimiy);

**zerake** — *Ehtiyat birlā yaruqđın maxsus asbāb ichrā saxlar ekānlār, zerāke shu'la teksā, mazkur dārunıñ quvvatı ketār emish* (Furqat);

**chunanchi** — *Körüngäy g'urbat ahlig'a, nigārā, xānumān shirin // chunanchi xaylı insāng'a xayāti javıdın shirin* (Muqimiy);

**bāvujudi** — *Daim turkchā aynb qush sala atlang'ay va ..., bāvujudi bu ishlār tab'i yaxshıdur* (Navoiy, MN). *Bāvujudi bu jamāl istār vafāsındın көñül // vah, ne tadbir äyläyın men bu majāl andış üçün* (Atoiy);

**bāvujudi kim** — *Bāvujudi kim ātmını ayttım ham, muddatın*

*soʻra tamidilar* (BN). *Bāvujudi kim, bilūr-sen, yāri sādiq-men senā // har zamān der-sen meni ag'yār, taqsirim, nedūr?* (Atoiy);

*bāvujudi ul kim — Bāvujudi ul kim usul-qāidası bilā harakati muvāfiq emes erdi, ammā xalāyiqg'a andāq asar qılır kim, kəp el yig'lar edilār* (Navoiy, MN).

## Yuklamalar

**256-§.** Eski o'zbek tilida iste'molda bo'lgan yuklamalar tuzilishi va qo'llanishi jihatdan ikki guruhga bo'linadi: 1) bir guruh yuklamalar tuzilishiga ko'ra affikslarga o'xshab so'zga qo'shilib keladi va o'zi qo'shilib kelgan so'zga yoki butun gapga qo'shimcha ma'no beradi; 2) yuklamalarning ikkinchi guruhi so'z yoki gap oldidan kelib, mustaqil so'z sifatida qo'llanadi. Lekin bunday so'zlar mustaqil leksik ma'noga ega bo'lmasdan, gap mazmuniga qo'shimcha ma'no beradi.

**257-§.** So'zga qo'shilib keladigan yuklamalardan eski o'zbek tilida asosan quyidagilar iste'molda bo'lgan:

-**mu** yuklamasi so'roq ma'nosini ifodalaydi: *Seni ot küydürmäs-mu?* (QR). *esrük kishi bilür-mu kishiniñ gunähını?* (Atoiy). *Shayx janābi muridg'a aytti kim, sendā hech ma'lum bār-mu?* (Navoiy, MQ). *Dedilār: qızlarıdın qāldı-mu hech?* (SHN). *Dilrabā, senā keräk mäs-mu savāb?* (Furqat).

-**mu** yuklamasi odatda kesim vazifasida kelgan so'zga qo'shiladi (yuqoridagi misollarga qarang). Ba'zan boshqa so'zlarga ham qo'shilib keladi va shu so'zni ta'kidlab, alohida ajratib ko'rsatadi. Bu hol asosan XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tiliga xos bo'lgan. Masalan: *Meni qamchu birlä urduñ... qasd birlä-mu urduñ?* (Tafsir). *Biz qarındashımızni ach-mu qoyg'ay-miz yāxud suvsız-mu qoyg'ay-miz?* (QR). *Shakar yañlıg' sözünä-mu büter-men?* (XSH). *Men bilmäs-men, bu kün-mu kelür yā taqı kechä-mu kelür yā taqı erte-mu kelür* (NF). *Xoblar jabr-u jafāsın men-mu tärtar-men mudām?* (Atoiy).

-**oq** yuklamasi gapning har qanday bo'lagi bilan kela oladi va shu bo'lakni ta'kidlab, alohida ajratib ko'rsatadi: *Afra bu tayaq-oq*

*Musanıñ elkingä kirdi* (Tafsir). *Dunyani kezdim-u, zebä, seni-oq kerdüm, bas* (Lutfiy). *Qabri Mashhadda-oq väqedur* (Navoiy, MN). *Sahar-oq qal'a üzä mindilär* (SHN). *Ushbu haväl qashıda-oq tüşüldi* (BN).

-oq yuklamasi ravishdoshga qo'shilganda, bir ish-harakat ketidan tezlik bilan ikkinchisi bo'lishi ko'rsatiladi: *Chun anıñ bargähigä yettim, yetkäch-oq xazratıg'a arz ettim* (SHN). *Sultän Muhammad mirzag'a bu xabar yetkäch-oq, ... taxtqa olturdi* (BN).

XV asr va undan keyingi davrlarda bu yuklama qattiq o'zakli so'zlarga ham, yumshoq o'zakli so'zlarga ham faqat qattiq talaffuz qilinuvchi -ök shaklida qo'shilgan (yuqoridagi misollarga qarang). XIII–XIV asrlarga oid yodgorliklarda esa yumshoq o'zakli so'zlarga yumshoq talaffuz qilinuvchi -oq shaklida ham qo'shilgan. Qiyoslang: *Älamda er biz-ök-mu?* (QR), *özini özi-ök tötitti* (Tafsir), *sen-ök qayra yalg'uz qalg'an* (XSH), *bu küyük ichrä-ök tutuldım* (XSH), *seni-ök saqınıb yär* (XSH), *täsh qazmaq bilä-oq* (XSH), *sabr qılı bilmädım-oq* (NF), *ul kün-oq ölmish bolsa erdim* (QR).

-la yuklamasi ayrim she'riy asarlarda qo'llangan bo'lib, fe'lga qo'shilib keladi (ko'pincha misra oxiridagi fe'lga qo'shiladi). Bu yuklama o'zi qo'shilgan fe'ldan anglashilgan ish-harakatga aniqlik, qat'iylik ma'nosini beradi: *Ey yüzi pari, jädu kezün jän äladur-la // zulfunı dag'ı ul käfir ush imän äladur-la* (Lutfiy). *Nasibim g'ussa-vu dard äylädin-la // vujudım tufrag'ın gard äylädin-la* (Navoiy, FSH). *Toy bäshtab kelädür-la og'lunı // g'amnı tashlab kälädür-la og'lunı* (SHN). *Meñä barı ishqnı fuzun boldı-la // bu bär ästida qad nigun boldı-la* (Munis).

Mahmud Koshg'ariy bu yuklama XI asrda o'g'uzlar tili uchun xos bo'lib, boshqa turklar uni bilmaydilar, deb uqtirgan va quyidagi misollarni keltirgan: *Ol bardı-la* — “U bordi, uning borgani haqiqatdir”. *Ol keldi-la* — “U keldi, uning kelgani haqiqatdir” (qarang: MK, III tom, 231-bet).

-g'ina/-ginä yuklamasi ajratib ko'rsatish, chegaralash kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Bu og'lanqına bir tash birlä andag' ulug' ajdarhanı netäk öldürdi?* (Tafsir). *Bug'ına masalrı yaxshıg'ına bag'lag'an üçün umid ul kim, ...* (Navoiy, MN). *Yoldag'ı birginä*

*āt soqmaqı* (SHN). *Hasbi hāl ushbug'ına matla edi* (SHN). *Agar bu qadargina bilmäsäm edi, ... iltija qilib yazdurur erdim* (Furqat).

**-g'ına/-ginä** sifatga qo'shilganda belgining kamligi ma'nosi ifodalanadi (qarang: 59-§).

**-chi/-chi** yuklamasining qo'llanishi XIX asrdan boshlab kuza-tiladi. Bunda ham bu yuklamaning qo'llanishi shart fe'li bilan chegaralangan (qarang: 161-§).

**258-§.** Mustaqil so'z sifatida qo'llanib, gap yoki so'z oldidan keladigan yuklamalardan eski o'zbek tilida asosan quyidagilar iste'molda bo'lgan:

**Magar** yuklamasi taajjub, taxmin, faraz kabi ma'nolarni ifodalaydi: *özindin ermaz ul sozlämäki, magar benim vahim birlä sozlär* (Tafsir). *Tökär g'amzañ damädäm Lutfiy qänün // magar köz üchidin imä qilib-sen* (Lutfiy). *Magar el anı mayparast etkäy / / räzini añlag'ay chu mast etkäy* (Navoiy, SS). *Ul labi maygun üzä xatdür-mu bolmish äshkar // ya magar gul bargı üzrä bāsh chuqarmış xārlar* (Munis).

**Kāshkā** yuklamasi istak, orzu kabi ma'nolarni bildiradi: *Kāshkā ul kün-oq ölmish bolsa erdim, ...* (QR). *Yergä kirsam kāshkā, chun yetmäs ul äyg'a elik* (Lutfiy). *Xoja Yaxyä dedi: Bābur mirzä // kāshkā kelgäy edi ushbu arä* (SHN). *Ey kāshkā bolsa erdi meni baxt-u davlatm* (Muqimiy).

**Kāshke** yuklamasi she'riy asarlarda *kāsh* shaklida ham qo'llangan: *Kāsh hargiz bolmag'ay erdim tirik // umrnı körgünchä bu yañlig'erik* (Navoiy, LT). *Sabā kāsh erdi söz keltürsä meñä ul shakkar labdın // älurdım kāmı shirin garchi bolsa tarx payg'āmı* (Furqat).

**Shāyad** yuklamasi istak, taxmin, faraz kabi ma'nolarni ifodalaydi: *Shāyad uyqu közümgä mayl etkäy // andın äsäyishi meñä yetkäy* (Navoiy, SS). *Yürüy berıñ, shāyad qutulg'ay-siz* (BN). *Arzumı aytay bādi sabāg'a // shāyad gapırgay ul gul qabāg'a* (Muqimiy). *Kechübdür-men, seni yār olsa shāyad deb, diyārımdın* (Furqat).

**Balki (balkim)** yuklamasi ma'noni kuchaytirish, ta'kidlab ko'rsatish uchun xizmat qiladi: *Emdi bildim, rāst ermish, balki*

*kördüm köz bilä (Atoiy). Derlär kim, she'rg'a andāq mash'ufdur kim, kündä on g'azal, balke artuq aytur ermish (Navoiy, MN). Novakār-u chākar tamām bu kishiniñ bolur, balki pādshāhiniñ taxtida ham bu hāsiyatdur (BN). Ulum ichrā gar rif'ati tāpsa ālim // qilur xār, balkim giriftāri jāhil (Munis).*

**Goya** yuklamasi bir ish-harakatni yoki voqea-hodisani boshqasiga o'xshatishda qo'llanadi. Lekin bunda taxmin, faraz, noaniqlik ma'nosi bo'ladi: *Pariyu ādami mundaq xob ermäs // farishta gāya köktin inibtür (Lutfiy). Ul sipāhiylik suvratida erdi va elni hajv qilur erdi, goya emdi ikkäläsidin mutabäid bolubtur (Navoiy, MN). Oshal hālda meñä andaq hālat boldi kim, goya ki meñä yanı bāshtin xudā jān berdi (BN). Munisg'a yetār dambadam āzārlar andin // goya ki körülmish aña āzār munāsib (Munis).*

## Undovlar

**259-§.** Yozuv yodgorliklarda qo'llangan undovlar juda kam sonni tashkil etadi.

Eski o'zbek tilidagi undovlarning bir guruhi so'zlovchining tinglovchiga murojaati, xitob qilish, fikrni jalb etish kabi ma'nolarni ifodalaydi. Bular asosan quyidagilar:

*Ey (e) — Ey āta, bilür-men, meni sever-sen (QR). Boyuñ-tek butmadı bostan arā sarvi ravān, e jān (Sakkokiy). Kel, ey sāqiy ki, tüşmüsh jānıma josh (Navoiy, FSH). Ey bābā, bu olturg'an taxtın ulug' ātam Duyli Qayınıñ turur (Sh.tar.). Barg'ıl, ey zāhid, seni sevmäs köñül (Munis).*

*Hāy — Közüñ karashma bilä, hay yazuqlı Sakkākiy // seni men öltürür-men, teb ayıttı türkāna (Sakkokiy). Yana köñlingä aytur kim qayıt, hāy (XSH).*

*Ayā — Ayā kerk ichrā alam pādishāhi // jahān tutti seniñ husnuñ sipāhi (MN). Ayā dilbar, vafā qılmas-mu-sen sen // bu dardımg'a davā qılmas-mu-sen sen (Lutfiy). Ayā gul chehralik sarvi ravānım // fidā bolsun señä jān-u ravānım (Atoiy). Der ki Hakimjān, ayā āqsāqal // bizni tapıb-sen magaram kim osal (Muqimiy).*



*Yā undovi XIII—XIV asrlarga oid yodgorliklar tiliga xos boʻlib, keyingi davrlarda deyarli qoʻllanmagan: Yā qızım, uqtun-mu erkin, ayırgʻuchi keldi (Tafsir). Yā Rasulillāh, bilmās-mu-sen? (QR). Yā Abābakr, hech qorqmagʻil (NF). Yā mahdum eshitmediņ-mi kim, ... (Saroyi).*

Fikr qaratilgan soʻzga *-a* unlisini qoʻshish yoʻli bilan murojaat qilish, xitob qilish kabi maʼnolar ifodalanadi. Bu hol sheʼriy asarlar tiliga xos boʻlgan: *Tirik boluņ, shāha, davrān barıncha (MN). Dilbarā, sensiz tiriklik bir balāyi jāndur (Navoiy, MN). Saqiya, behud bolub, bir jurʻa jāndın (Lutfiy). Furqatā, chāk etib giribāniņ // yıgʻlama rozgar achchıgʻıdın (Furqat).*

**260-§.** Quyidagi undovlar soʻzlovchining his-hayajoni, taajjublanishi, afsuslanishi kabi maʼnolarni ifodalaydi:

*Āh — Āh, emdi qalmaidı āh urgʻalı ham quvvatım (Atoiy). Xirāmān quryadın chıqmadiņ, āh! (Lutfiy). Āh, kim, yoqtur meni taʻbimga lāyię ulfatım (Furqat).*

*Vah — Vah, qachan yetkey-men ul dilbanda men?! (Lutfiy). Vah ki, qoydı shuʻlai hijrān yana dāgʻ ūzrā dāgʻ! (Navoiy, MN). Vah, ne sozdūr bu ki, zāhir qıldım?! (SHN). Sēz chu mundaq xār esā, sēz ahli mundaq xāksār // vah, ne til birlā dey ālgʻay Munisi bechāra sēz! (Munis).*

*Vāy, ey vāy — Vāy, yüz miņ vāy kim, sarvi ravānım bārdı-la! (Navoiy, MN). Vāy, aņa har gʻāfili kim, ezni dāmād āylāsā! (Munis). Vāy kim, ahbāblar bārgʻanımız behudadur! (Furqat). Ey vāy, qachan shāmi firāqiņ tāņı ātqay?! (Atoiy). Ey vāy ki, hijrān kechāsiniņ saharı yoq! (Lutfiy).*

*Yā rabb — Yā rabb, bizni biraqdın-mu?! (Tafsir). Yā rabb, bu Lutfiy qul ne yazuq qılmısh erdi kim, ... (Lutfiy). Ne erkin zaʻf ichinde hālı, yā rabb! // bu it-dek-mu ekin ahvālı, ya rabb?. (Navoiy, FSH). Yā rabb, bu risala kim, bitib-men // taʻlifida jidd-u jahd etib-men! (Munis).*

## I. Tekshirish uchun savollar

1. Ravish va ko'makchilar o'rtasidagi shakliy va ma'nodagi umumiylik va farqlar.
2. Ravishning morfologik usul bilan yasalishi.
3. Ravishning sintaktik va morfologik-sintaktik yo'l bilan yasalishi.
4. Sof ko'makchilar, ularning turi, qo'llanish davrlari va grammatik ma'nolari.
5. Ko'makchilarning adabiy til davrlarida qo'llangan shakllari va ularning ma'nolari.
6. Ko'makchiga o'igan otlar, ularning ma'nosi.
7. Ravish va fe'l ko'makchilari, ma'nosi, vazifasi.
8. Bog'lovchilarning turlari va qabul qilish manbalari.
9. Teng bog'lovchilar, ularning qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tilidagi turlari va vazifalari.
10. Ergashtiruvchi bog'lovchilarning qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tilidagi turlari va vazifalari.
11. Qadimgi turkiy va eski o'zbek adabiy tilida qo'llangan yuklamalar, ularning vazifalari.
12. Undov so'zlarning qadimgi va eski o'zbek adabiy tilidagi turlari va vazifalari.

## II. Tayanch tushunchalar

Ravish va ko'makchi. Sof ko'makchilar. Vazifadosh (funktional) ko'makchilar: ot ko'makchilar, fe'l ko'makchilar, ravish ko'makchilar, morfologik, sintaktik, morfologik-sintaktik usul bilan ravish yasash.

Turkiy (o'zbek), arab va fors (tojik) bog'lovchilari, teng va ergashtiruvchi bog'lovchilar.

# SINTAKSIS

---

1-§. Hozirgi o‘zbek tilining so‘z birikmalari, gap bo‘laklari, gap tuzilishi uzoq yillik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Qadimgi turkiy va so‘nggi davrlar tilining tuzilishi bilan hozirgi zamon tili tuzilishini qiyoslar ekanmiz, yozma adabiy til fonetik, morfologik jihatdangina emas, tuzilish tomonidan ham takomillasha borganini ko‘ramiz. Shunisi muhimki, sintaksisdagi o‘zgarishlar ko‘pincha morfologiya va leksika tarkibida bo‘lgan o‘zgarishlar tufayli ro‘y bergan. Masalan, vosita kelishigining iste‘moldan chiqishi so‘zlarning boshqaruv munosabatini o‘zgartiradi va hol doirasini kengaytiradi. Sifatdosh-predikat bilan subyekt orasida qaratqich-egalik aloqasi kelib chiqib, subyektning qaratqich kelishigi qo‘shimchasini va sifatdoshning-predikat egalik qo‘shimchasini olishi bunday ergash gaplarning so‘z birikmasiga o‘tishiga sabab bo‘ladi: *men kelganda, mening kelganimda* va boshqalar. Demak, sintaktik kategoriyalar tarixi o‘rganilar ekan, morfologik kategoriyalar taraqqiyotiga ham ahamiyat berish kerak. Shuningdek, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi yangi so‘z birikmalarini keltirib chiqaradi. Sintaksis taraqqiyotidagi ikkinchi omil — boshqa tillarning ta’siridir. Tarixda o‘zbek tiliga, ayniqsa fors-tojik tilining ta’siri sezilarli bo‘lgan. Bu tilning ta’siri bilan yangi so‘z birikmalari (*guli ra‘no, la‘li Badaxshan* kabi) va ergash gaplar [(*Yüsuf Hojakim, musiqiyda mashhurdur, Andijāniydur* (BN); *yana bir jins örük bolurkim, dānasını ālib, ichigä mag‘iz salib quruturlar, subhāniy derlär, bisyār lazizdur* (BN))] vujudga keladi, bog‘lovchilarning qabul qilinishi bilan (*yā:, yāki, ne* kabi) so‘zlarni hamda gaplarni biriktirishning yangi usuli kelib chiqdi.

## SO‘Z BIRIKMALARI

2-§. So‘z birikmalari ikki turli bo‘ladi: **tobe birikma va teng birikma.**

Qadimgi turkiy tilda ham so‘z birikmalari ana shunday ikki turli bo‘lgan. Tadrijiy taraqqiyot natijasida so‘z birikmalarini tashkil

etgan qismlarning shakllanishi va o‘zaro bog‘lanish usulidagina ma‘lum o‘zgarishlar ro‘y berdi.

### **Tobe birikmalar**

Tobe so‘z birikmalarini tashkil etgan qismlarning biri tobe, ikkinchisi hokim so‘z bo‘ladi. Bu xil birikmalar uch xil sintaktik usul bilan tuziladi: **bitishuv, boshqaruv, moslashuv.**

**3-§. Bitishuv.** Bitishuv munosabatiga kirishgan so‘zlar o‘zaro hech qanday grammatik vosita yordamisiz birikadilar.

Sifat, son, ko‘rsatish olmoshi, sifatdosh bilan ot va ot bilan ot, shuningdek, ravish yoki ravishdosh bilan fe‘l va ot yoki olmosh bilan fe‘l bitishuv aloqasiga kirishadi.

Qadimgi turkiy tilda so‘zlar, asosan, bitishuv munosabatiga kirishgan. Buning sababi so‘zlarni o‘zaro bog‘lashda xizmat qilgan grammatik vositalarning kam bo‘lishidir. Grammatik vositalarning qo‘llanishi bilan so‘zlarning o‘zaro aloqaga kirish xususiyati ham o‘zgaradi. Masalan, qadimgi turkiy tilda **turk** va **bodun** so‘zlari bitishuv munosabatlariga kirishadi: *Türk bodun yoq bolmazun, — täyin* (KT). Hozirgi o‘zbek tilida esa bunday so‘zlar o‘zaro izofali birikmani tashkil etadi (hokim so‘zning tarkibida egalik affiksi bo‘ladi: *turk xalqi*). O‘zaro relyativ munosabatda bo‘lgan ayrim birikmalarning taraqqiyotida ham tobe so‘zning ma‘lum vosita bilan shakllanishga tomon borganligini ko‘ramiz: *Külär yuz isig söz ülä näñ tavar* (QB) — *Mol-u dunyoni ochiq yuz, issiq so‘z bilan ula*. Bu jumlada bitishuv munosabatiga kirishgan so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida ko‘makchi yordamida boshqaruv yo‘li bilan aloqaga kirishadi. (*Ochiq yuz bilan ula, issiq so‘z bilan ula*). *Yalavach barur er* (QB) — Elchi bo‘lib (elchilikka) boradigan odam. *Qag‘un buq yärgä tüşdi* (MK) — Qovun biq etib yerga tushdi.

Bitishuv munosabatiga kirgan so‘zlarning taraqqiyotidagi ikkinchi hodisa bunday birikmalarning qo‘shma so‘zga aylanishi-dir: *sakiz on, toqqiz on* (qadimgi turkiy til) — *sakson, to‘qson*.

Ba‘zi birikmalardagi so‘zlarning ma‘no vazifasidagi qisman yoki to‘liq o‘zgarish bunday birikmalarning ham qo‘shma so‘zga

o'tishiga sabab bo'ldi: *Ulug' Türüknuñ sezün y(a)qshı kerdı* (O'N); *yaxshi kerdı* — hozirgi zamon tilida qo'shma fe'ldir (*yoqtirdi*).

Qadimgi va eski turkiy tilda bir otga bog'langan bitishuv munosabatidagi bo'laklar tarkib jihatdan sodda — bir yoki ikki aniqlovchidangina iborat bo'ladi. Eski o'zbek tilida esa bunday sifatlovchi bo'laklarning soni ham, tarkibi ham murakkablashadi: *Past boyluq, bolma saqallıq, qoba yüzlük tanbal kishi* (Nad). Bunday murakkab tarkibli sifatlovchilar badiiy adabiyotda keng qo'llana boshlaydi.

Ma'lum so'z shaklining yoki ma'lum shakl vazifasining o'zgarishi ham gap bo'laklari orasida sintaktik munosabatni o'zgartiradi. Masalan, *āstin, üstin, keyin, yuqaru, tegrä, chinla* kabi so'zlar vosita yoki jo'nalish kelishigi shaklida bo'lib, hokim so'z bilan boshqaruv munosabatlarida bo'lgan. Keyinroq bu kelishik shakllari o'z vazifasini yo'qotgach, hokim so'z bilan bitishuv munosabatiga kirishadi. Bu jarayon mazkur so'zlarda eski turkiy tildayoq ro'y bergan edi.

**4-§. Boshqaruv.** Hokim so'zning talabi bilan tobe so'z biror shaklda bo'lib, shu grammatik vosita orqali tobe so'z hokim so'zga bog'lanadi. Bunda tobe so'z ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi so'z bilan birikadi yoki kelishik qo'shimchasini oladi. Odatda, tobe so'z ot va ot ma'nosidagi so'zlardan, hokim so'z esa fe'l va ba'zan belgi bildiruvchi so'zlar yoki ko'makchilar bilan ifodalanadi.

Til taraqqiyoti natijasida ana shu vositalar o'zgaradi, boshqa vositalar bilan almashadi, natijada tobe va hokim so'zning grammatik aloqa xususiyati ham o'zgaradi boshlaydi.

Ko'makchi orqali boshqarish qadimgi turkiy tilda mavjud edi. Ko'makchili boshqarish sohasida bo'lgan taraqqiyot ayrim ko'makchi va shu vazifadagi so'zlarning ishlatilmay qolib ketishi va yangilarining paydo bo'lishi bilan bog'liq. Masalan, qadimgi va eski turkiy tillardagi *tägü, ashnu, otrü, taba, basa, üzü, tägrä, ara, azın, qaru* ko'makchilari orqali boshqaruv eski o'zbek tilida kam ishlatiladi. Eski o'zbek tilidagi *ayru (bizdin ayru), dägin, dägünchä (yarım yolg'a dägin), tägrü (kechä tägrü), ötrü (anja otrü), üzä* kabi ko'makchili boshqaruv hozirgi zamon tilida uchramaydi.

Bundan tashqari, ko'makchilarning o'zlari ham ma'lum bir so'zlarni ma'lum kelishik shaklida boshqargan. Bunday boshqarish usulida va shaklida ham ma'lum o'zgarishlar bo'lganini ko'ramiz.

*Bilän//bilä* ko'makchisi bosh kelishikdagi so'znigina emas, qaratqich kelishigidagi so'zni ham boshqargan. Hozirgi zamon tilida bu ko'makchi I, II shaxs olmoshlarining qaratqich kelishigidagi shaklini boshqara oladi. Ammo eski turkiy tilda olmoshning III shaxsi va boshqa turlari ham qaratqich kelishigi shaklida kelgan: *Anıñ birlä urushdı* (MK). *Bularnıñ bilä sän qatl ham qarıl* (QB). *Kimıñ bilä qash bolsa* (MK). Hatto bu ko'makchi eski vosita va o'rin kelishigi shaklidagi so'zlarni ham boshqargan: *Tunlä bilä köchälim* (MK). *Tañda bilä körsä meni ördäk* (MK).

*Naru (nari)* va *käzin (>keyin)* ko'makchilari hozirgi zamon tilida chiqish kelishigidagi so'zni boshqarsa, eski turkiy tilda o'rinpayt kelishigi shaklidagi so'zni ham boshqara olgan: *säniñdä käzin* (QB). *Bu yerdin naru* (QB).

Qadimgi va eski turkiy tilda hamda eski o'zbek tilida ko'makchi hisoblangan *tek //dek* hozirgi o'zbek tilida ravish yasovchi affiksga aylandi va so'zlarni boshqaruv munosabatiga kiritish vazifasini yo'qotdi<sup>1</sup>.

Kelishik shakllari orqali boshqarish eng mahsuldor usuldir. Bu usul bilan boshqarish kelishik shakllarining taraqqiyoti va ularni boshqargan so'zlarning ma'no taraqqiyotiga bog'liqdir<sup>2</sup>.

Bosh va qaratqich kelishigidan boshqa kelishikdagi ot va ot ma'nosidagi so'zlar fe'l yoki belgi bildiruvchi so'z turkumlari tomonidan boshqariladi.

Kelishik affikslari orqali boshqarish usuli taraqqiyotida quyidagi hodisalarni ko'ramiz:

1. Vosita kelishigi / *-n //-in //-ın //-un //-un/* yordami bilan boshqarish qadimgi va eski turkiy tilda keng iste'molda bo'lib, bu

---

<sup>1</sup> Qaysi ko'makchi qachondan qo'llana boshlagani va qanday shaklli so'zlarni boshqargani haqida «Ko'makchilar» bobiga qarang.

<sup>2</sup> Bu haqda «Kelishiklar» bobiga qarang.

kelishik eski o'zbek tilida XV asrning birinchi yarmigacha qo'llangan. Bu kelishik shaklida bo'lgan ayrim so'zlarni (*qishin-yozin, ostin-ustin* va boshqalar) hozirgi zamon tilida vosita kelishigida deb bo'lmaydi. Shuning uchun ham bu so'zlar ravish bo'lib, hokim so'z bilan bitishuv munosabatiga kirishadi.

Xuddi shuningdek, *-gärü // -qaru* shaklliy so'zni jo'nalish kelishigi vositasi bilan boshqarish eski turkiy tilda kam qo'llanadi, eski o'zbek tilida iste'moldan chiqadi (bu shakldagi so'zlar vosita kelishigidagi kabi ravishga o'tadi). Tushum kelishigining *-ig // -üg // -g' / -ig' / -ug'* shakllari yordami bilan boshqarish ham eski o'zbek tilida iste'moldan chiqadi.

2. Boshqarish munosabatini yuzaga chiqargan *-da // -ta* qo'shimchasi qadimgi turkiy tilda va qisman O'rta Osiyo turkiy tilda (QB, MK, HH) o'rin-payt va chiqish kelishiklari mazmuni munosabatlarini ifodalash uchun xizmat qilgan: *Qara koltä süñüşdimiz* (KT). *Tübüt qag'anta belön kälti* (KT). *Quti kündä artti* (QB). *Bu at anda yig* (MK).

O'rta Osiyo turkiy tilda chiqish munosabatini ifodalash uchun maxsus *-dan // -tan, -din -tin* qo'shimchalari qo'llana boshlaydi, eski o'zbek tilida bu vosita yordami bilangina chiqish munosabati ifodalanadi. Shunday qilib, til taraqqiyotida boshqaruv munosabatini ifodalash uchun yangi bir grammatik vosita o'z o'rnini egallaydi.

3. Tushum kelishigidagi ot yoki olmoshni hozirgi zamon tilida o'timli fe'llar boshqaradi. Qadimgi va eski turkiy tillarda bu kelishikdagi so'zlarni o'timsiz fe'llar ham, olmoshlar ham boshqara olgan: *Ötükän yärig qontım* (Toñ.) *Anı subug' baralıım — Anı suvi bo'ylab boraylik* (Toñ.) *Emdi anı kim yätär* (MK). *Ol bu ıshıg' unadı* (MK). *Säni tägsä* (QB). *Körklüg tonug' özünjä, tatlıg' ashıg' azınqa* (MK).

Tushum kelishigi shaklidagi so'z, hatto fe'lning o'zlik nisbatlari bilan ham birika olgan: *Ol bu ıshıg' ag'ruqlandı* (MK); *özünjni yanılma*— o'zingni adashtirma (QB).

Tushum kelishigidagi so'zning bunday keng vazifasi eski o'zbek tilidayoq chegaralanadi.

Tushum kelishigi shakli yordami bilan tuzilgan boshqaruv

munosabati taraqqiyotining yana bir xususiyati — bunday birikmalarning qo'shma so'zga o'tishidir (bunda tobe so'z belgisiz tushum kelishigi shaklida bo'ladi): *ovqat qildi, so'z qotdi, quloq soldi* va boshqalar.

Quyidagi birikmalar XI asrdayoq qo'shma so'zga o'tgan edi: *Ol kisi aldi* — u xotin oldi (MK); *okünchlär ye* — o'kingin, g'am ye (QB); *özgä ämgäk urur* — o'ziga tashvish orttiradi (QB).

4. Ko'p yillik tarixiy taraqqiyot natijasida ayrim kelishik shakllarining qo'llanishida ham o'zgarish ro'y berdi.

Jo'nalish kelishigi shakli o'rnida tushum kelishigi qo'llanishi: *Yalñuq anı tanılashur* — xalq unga tang qoladi (MK).

Jo'nalish kelishigi o'rin kelishigi o'rnida va aksincha (bu hodisa hozirgi Samarqand va Buxoro shevalarida ham mavjuddir): *Telim bolsa ärgä adash qoldashi* — Yigitda yor-u do'stlar ko'p bo'lsa (QB). *Masalg'a kälır* — Masalda kelur (QB). *Kültägin qoñ yilqa yäti yägirmigä uchdı* — Kultegin qo'y yili o'n yettida öldi (KT). *Tinäsi og'lı yatg'ma tag'da tegmish* — Tinasi o'g'li yotgan toqqa yetdi (Toñ.). *Er ärdämimdä bəkmädım* — Botirligimga to'y-madim (Enasoy yodgorligi).

Jo'nalish kelishigining chiqish kelishigi o'rnida qo'llanishi. *Uyar bägimgä adırılıtm, uyar qadashımqa adırılıtm* — Dongdor begimdan ayrildim, mashhur do'stlarimdan ayrildim (Enasoy yodgorligi). *Qarı öküz balduqa qorqmas* — Qari ho'kiz boltadan qo'rqmaydi (MK).

Bu xususiyatlar asta-sekin yo'qola bordi. Eski o'zbek tiliga kelib, kelishiklarning qo'llanishi ma'lum darajada qat'iylasha bordi.

Ko'p o'rinlarda tushum kelishigi qaratqich kelishigi vazifasini o'tagan: *bizıñ kishilärgä* (O'rx.-En.), *bizni taba* (MK). Bu hol hozirgi zamon o'zbek shevalariga ham xosdir.

**5-§. Moslashuv.** Shaxsdagi moslik. Ma'lum bir shaxsdagi moslik ega bilan kesim o'rtasida bo'ladi: ega qaysi shaxsda bo'lsa, unga mos holda kesim ham ana shu shaxsni ko'rsatadi.

Kesimning qanday so'z turkumidan ifodalanishiga ko'ra ma'lum shaxsni ko'rsatuvchi shakllar ham har xil bo'ladi.

1. Kesimlar aniqlik fe'li orqali ifodalanganda, shaxs qo'shim-



chalari quyidagicha bo'ladi: I shaxs: *-(i)m, -k, -(i)miz*; II shaxs: *-(i)ŋ, -(i)ŋ iz*; III shaxs: *o (nol), — oo (nollar)*.

Kesimlari aniqlik fe'llari orqali ifodalangan gaplarning ega bilan kesimlarining moslashuvida muhim bir o'zgarish ro'y bergan emas. Aslida, bu fe'l shakli sifatdosh bo'lib, qadimgi turkiy tildayoq fe'lga o'tgan edi. Uning sifatdoshlik xususiyati ba'zi aniqlovchilik vazifasidagina ko'rinadi: *amushdi er* — shoshilgan kishi (MK); *azrindi neŋ* — ayrilgan (ajratib, saylab olingan) narsa (MK).

Bu fe'l shaklining sifatdoshlik xususiyati hozirgi zamon sariq uyg'urlar tilida saqlangan. Shuning uchun ham bu tilda ko'rsatib o'tilgan shakl shaxs qo'shimchasini olmaydi. Demak, ega bilan shaxsda moslashmaydi: *Men pilti, sen pilti, ol pilti, mis pilti*<sup>1</sup>.

Odatda, kesim tarkibida shaxs ko'rsatuvchi belgilar bo'lgani uchun ega ifodalanmaydi. Bu xususiyat, ayniqsa tarixiy yodnomalar tili uchun muhimdir. Ba'zan eganing ma'nosini yanada ta'kidlash uchun eganing ifodalanishi eski turkiy tilga ham xos bo'lgan: *qolub bulmadim man — istab topmadim men* (QB). *Xusumat qilurlar sanja anuŋ uza kerdun san* (Taf.).

Ko'plikning birinchi shaxsi ikki xil shakl orqali ega bilan moslashgan: *-k* va *-(i)miz*.

Qadimgi va O'rta Osiyo turkiy tilda, asosan, *-(i)miz* shakli orqali moslashadi: *Qamug'i bash otuz suladimiz, uch yagirmi sunushdimiz, aligig alsiradimiz* (KT) — hammasi bo'lib 25 marta yurish qildik, 13 marta jang qildik, elini oldik; *aqtimiz* (MK); *bastimiz* (MK).

Eski o'zbek tilida esa ega va kesimning III shaxs birlikda moslashishi *-k* affiksi orqali bo'ladi.

Hozirgi zamon tilida bu shaxs *-(i)miz* shakli orqali moslashish Toshkent shevasida qo'llanadi.

Shart fe'li bilan ifodalangan kesim hamma vaqt ham ega bilan moslashavermagan. Qadimgi turk tilida shart fe'li affiksi *-sar //-*

---

<sup>1</sup> С.Е. Малов. Язык желтых уйгуров. Алма-Ата, 1957. 6-бет.

*sār* shaklida boʻlib, shaxs qoʻshimchalarini olmaydi, binobarin, ega bilan shaklan moslashmaydi. Feʼl-kesimning qaysi shaxsga oidligini koʻrsatish zarur boʻlsa, I va II shaxs olmoshlarini qoʻllaganlar: *kālsār mār*, *kālsār sār*. III shaxsda hech qanday koʻrsatkich boʻlgan emas.

Hatto XI asr yozma yodgorliklari (QB, MK) tilida ham shart feʼli muntazam ravishda shaxs qoʻshimchalari bilan tuslanmagan (bu vaqtda shart feʼli *-sa // -se* shaklida qoʻllana boshlaydi). Shart feʼlining qaysi shaxsga oidligi gap mazmunidan anglashilgan yoki I va II shaxs kishilik olmoshlari qoʻllangan. Masalan, *oʻzīm barsa ma yasī kālgāy kāzīn* — oʻzim borsam ham, keyin kulfat keladi (QB). *Naru barsa mār* — nari borsam (QB). *Qachan barsa sār* — qachon borsang (MK).

Shu bilan birga, shart feʼlining shaxs affikslari bilan tuslangan shakllari ham qoʻllanadi: *Qali kālsār* — agar kelsang (QB); *qali bulsam* — agar topsam (QB).

Xuddi shunday hol “Tafsir”da ham uchraydi: *dinimgā kirsā siz*; *musulman bolsa mār*.

Oʻrta Osiyo turkiy tiliga oid boshqa yodnomalarda, eski oʻzbek tilida shart feʼli muntazam ravishda shaxs qoʻshimchalarini oladi va ega bilan shaklan moslashadi.

II. Kesimlar **ism turkumidagi soʻzlar, sifatdoshlar** orqali ifodalanganda, shaxs qoʻshimchalari quyidagicha boʻladi: I shaxs: *-man*, *-miz*; II shaxs: *-san*, *-siz*; III shaxs: *turur* va *ol* elementlari vositasi bilan yoki belgisiz qoʻllanadi.

I va II shaxs kesimlarining ega bilan moslashuvida tarixiy taraqqiyot jarayonida muhim bir oʻzgarish roʻy bergan emas. Bu taraqqiyot jarayonida kesimlarni shaxs qoʻshimchasi bilan qoʻllash tobora qatʼiylasha boradi.

III shaxsdagi kesimlarning ega bilan moslashuv usulida maʼlum oʻzgarish roʻy bergan. Oʻrta Osiyo turkiy tilida III shaxs *ol* vositasi bilan egaga moslashadi. Bu element gap oxirida kesimdan keyin ham, gap oʻrtasida, egadan keyin ham qoʻllanishi mumkin boʻlgan: *Sēz asqī ol* — soʻzning foydasi udir (ki) (QB). *Bu ajun rabat ol* — bu dunyo bir saroydir (QB). *Bu yip ol eshilgan* (MK).

*Bu är sügä bitilgän ol* — Bu erning ismi askarlar ro'yxatiga yoziladi (MK). *Aytqıl, meniñ teñrim kim ol* (Rabg'). *İdris alayhissalām ol imi öküş* (Rabg').

O'rta Osiyo turkiy tilida (QB, MK) III shaxs belgisi bo'lmish *ol* har vaqt ham qo'llanavermagan: *ät özlüq kishigä kārägi bu ol // Birisi tılın söz birisi kəñül* (QB) — saxovatli kishiga shu narsa kerak: biri tilidagi so'zi, birisi — ko'ngil.

Ikkinchi tomondan, *ol* III shaxs belgisi emas, mazmunni kuchaytiruvchi yuklama vazifasida ham qo'llangan: *Män aydım, äshittin sän oğrandin ol* (QB).

Eski o'zbek tilida *ol* III shaxs belgisi sifatida qo'llanmaydi. Ammo ba'zi hozirgi zamon turkiy tillarida bu belgi saqlangan: Tatar: *Ul eshug ul*; boshqird: *Xäsän yazıusı ul*; tuva: *Mal xavuda chor ol* (Mol dalada o'tlayapti) ; turk: *ol turk ol*.

Shunisi diqqatga sazovorki, O'rxun-Enasoy yodnomalarida *ol* III shaxsni ko'rsatuvchi grammatik vosita sifatida juda kam qo'llanadi.

Ot kesimlarning III shaxs shakli va ravishdosh kesimlar *turur // durur* bog'lamasi orqali ham ega bilan moslashgan: *Bularda äñ ezgü yorıq bu turur* (QB). *Etil suvı aqa turur* (MK). *Bular kimlär turur* (Rabg'). *Sän mäniñ änam turur sän* (Sh.tar.).

Sifatdosh kesimlar ega bilan ot kesimlardagidek belgilar yordami bilan moslashadi. Sifatdosh kesim har vaqt ham ega bilan shaklan moslashavermagan. Sifatdoshning *-duq /-duk* shakli qadimgi turkiy tilda ham, eski turkiy tilda ham ega bilan moslashgan emas. Sifatdoshning *-r, -mish // -mish* shakllari ega bilan moslashgan: *Ölür män oğunchün — o'kinch bilan o'laman* (QB). *Yazuq biz qılur biz — Gunohni biz qilamiz* (QB). *Män unutmış män äzgü äshig — Men yaxshi do'stimni unutibman* (QB). *Yitürmiş sän öz — O'zing yo'qotibsan* (QB).

Ko'rinadiki, bu davrda kishilik olmoshlari hali shaklan shaxs qo'shimchasi bo'lib shakllanmaydi, ular mustaqil so'zlar sifatida uqiladi va shuning uchun ham kesimdan alohida yoziladi (mustaqil urg'u oladi).

Sifatdoshning *-g // -g'u* shakli qadimgi turkiy va eski turkiy

tilda (QB, MK) muntazam ravishda ega bilan moslashmaydi. *Otägi käräk män bu haqlar säñä* — Bu haqlaringni men o'tashim kerak (QB).

Sifatdoshning bu shakli egalik affiksi orqali ega bilan moslashadi.

Sifatdosh kesimlarning ega bilan muntazam ravishda shaklan moslashishi, asosan, eski o'zbek tilidan boshlanadi.

III. Kesimlar **buyruq-istak mayli** orqali ifodalanganda, ega bilan kesimning moslashishida o'zgarish juda kam bo'lgan. Ega bilan kesim orasidagi moslashish tarixida xarakterli xususiyatlardan biri *öz* olmoshi hozirgi o'zbek tilida, qaysi shaxsdagi egalik affiksini olishiga ko'ra kesim bilan moslashadi (*O'zim keldim, o'zing kelding, o'zi keldi, o'zimiz keldik, o'zingiz keldingiz, o'zlari keldilar*). Eski turkiy tilda (QB, MK) ana shunday moslik bo'lmagan: *öz* olmoshi qaysi shaxsdagi egalik bilan turlangan bo'lsa ham, kesim u bilan shaxsda moslashmagan: *özüm sözüñni eshitti* (QB). *Nägü ezgü qolsa säñä bu ezur* — Bu o'zliging senga nima yaxshilikni istasa (QB). *Taqı yaqshı aymış biliglik özi* — Bilimdonning o'zi yaxshiroq aytibdi... (QB).

Bu hol *öz* olmoshining XI asr tilida o'ziga xos ma'no (o'zlik, vujud)ga ega bo'lish bilan bog'liqdir.

**Sondagi moslik.** Ega bilan kesim orasida sondagi moslik ko'p o'rinda shaklan ifodalanmaydi, ega ko'plikda bo'lsa ham, kesim birlik shaklida qo'llanaveradi: *Təquz og'uz bəgləri bodunı bu sabı-mın ədguti eshid, qatg'dı tıñla* — To'qqiz o'g'iz beklari, xalqi, bu so'zimni yaxshilab eshit, qattiq tingla (KT). *Bəglər bir-birigə yag'ıqtı* — Beglar bir-biri bilan dushman bo'ldi (MK). *Esiz əzgülər əlsä tuprag' bolur* — Yomon, yaxshilar o'lsa, tuproq bo'ladi (QB). *Əlärdä nägügə egüندی olar* — O'layotganda nega maqtandi ular (QB).

Shu bilan birga, qadimgi yozma yodgorliklardayoq ega bilan kesimning shaklan moslashgan o'rinlarini ham ko'ramiz. Bu hol ko'proq ega shaxslarni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanganda ro'y beradi: *Kishilar bir-birigə igəshdilər* — Kishilar bir-biriga suyandilar (MK). *Ular bu işig' uqushtılar* — Ular bu ish bo'yicha kelishib

oldilar (MK). *Ular barmaslar* (MK). *Kafirlar anı körüb külärlär ärdi* (Rabg'.). *Bu uch kəlni bärkitmişlär ärdilər* (Rabg'.). *Bizniñ el tayyar emäs ärdilər* (BN).

Sondagi moslik jonli shaxs bo'lmagan predmetlar ustida gap borganda ham shaklan ifodalanadi: *Ushbu qag'annun baliqlari kəb ärdilər erdi* (O'N). *Burnıdın iki mushuk çıqtı, ul sıchqanlarını yädilər* (QR). *Dasht hayvanı qācharlar suhbatımdın* (Nav.).

Egalar bilan bog'lovchisi orqali birikib, uyushib kelganda ham, kesim unga mos holda ko'plikda qo'llanadi (bu hol eski o'zbek tili uchun xarakterlidir). *Qachan Adam birlä Hava juft boldılar* (QR).

Kesimda ko'plikni ifodalash uchun *-lar* affiksidan tashqari, birgalik darajasi ham xizmat qilgan: *Olar ikki tavarın üläshdi* (MK). *Beri barcha ülishdi* (MK).

Shunisi xarakterliki, eski turkiy va eski o'zbek tiliga nisbatan hozirgi zamon adabiy tilida kesimning ega bilan sonda moslashuvi kamroq uchraydi. Bu hol adabiy tilga jonli tilning ta'siri bilan izohlanadi.

O'рта Osiyo turkiy tilida aniqlovchi va aniqlanmish ham ba'zan sonda moslashganini ko'ramiz: *Iki chechäklar* (Rabg'.); *otuz bəzchilər* (Rabg'.); *on farishtalar yigitlar suvratıncha bolub* (QR); *munda kəp kiyiklär, kəp qushları bar tururlar* (QR); *kəp tälim ärdänilär yibärib* (O'N); *anurñ dushmanları kəp qayg'ular taptı* (O'N).

Aniqlovchi va aniqlanmishning sondagi bu xil mosligi boshqa yodnomalarda uchramaydi.

## Turkiy izofa

6-§. Izofa ikki otning aniqlovchilik munosabatiga kirishuvidir. Bunday munosabatda biror shaxs, predmet yoki tushunchaning boshqa bir shaxs, predmet yoki tushunchaga qarashlilik ko'rsatiladi. Ikki ot orasidagi bunday munosabat maxsus affikslar orqali ifodalanadi: tobe so'zda qaratqich kelishigi qo'shimchasi (*-niñ*), hokim so'zda egalik affikslari *-(i)m*, *-(i)ng*, *-i(si)*; *-(i)miz*, *-(i)ngiz*, *-(lar)i* bo'ladi: *sening kitobing*, *bizning daftarimiz*.

Odatda, hokim soʻz qaysi shaxsni koʻrsatsa, tobe soʻz ham leksik maʼnosiga koʻra oʻsha shaxsni koʻrsatadi. Shuning uchun ham izofa birikmasi moslashuv aloqasining bir turi hisoblana-  
di.

Izofa soʻz birikmasi qismlarning shakllanishiga koʻra uch xil boʻladi:

1. Izofa birikmasining har ikki qismida qoʻshimchalar mavjud boʻladi (belgili boʻladi). *Kulteginiŋ altuni*.

2. Izofa birikmasining biror qismi belgisiz boʻladi: *Türk buduni*.

3. Izofa birikmasining har ikki qismi belgisiz boʻladi: *Türk budun*.

Qadimgi turkiy tilda va undan keyingi davrga oid yodgorlik-  
larda ham izofa soʻz birikmasi ana shunday uch xil koʻrinishga  
ega boʻlib, ular yonma-yon qoʻllangan. Shuning uchun ham izofa  
birikmasining belgisiz shakllaridan belgili shakllari kelib chiqadi,  
deb hukm chiqarish qiyin (*at bash >at bashı >atınŋ bashı*). Ayrim  
belgisiz birikmalar belgiliga aylangan boʻlsa, baʼzi belgili izofa  
birikmalar belgisiz birikmalarga ham oʻtgan.

Izofa birikmasi tarkibidagi qismlarning belgili yoki belgisiz  
boʻlishi (qoʻshimcha olishi yoki olmasligi) shu qismlarning aniq  
boʻlishi yoki boʻlmasligiga bogʻliq. Masalan, *Namanganning olmasi*  
(aniq qarashlilik), *Namangan olmasi* (umuman qarashlilik),  
*namangan olma* (qarashlilik emas, olmaning turi ifodalanadi).

Tarixiy taraqqiyot jarayonida izofali birikmani tashkil etgan  
soʻzlarning semantik va grammatik xususiyatlari bilan bogʻliq  
boʻlgan maʼlum oʻzgarishlar sodir boʻlgan.

Izofa soʻz birikmasining birinchi guruhi (soʻz birikmasining  
har ikki qismi belgili boʻlishi) qadimgi turkiy tilda kam qoʻllanadi:  
*Türk budunıŋ älin, tərüsın tuta bärmiş* (KT) — Turk xalqining  
qabila tuzumini va qonun-qoidalarini ular quvvatladilar. *Kültäginıŋ  
altunın, kümüşin, agʻışın, barımın...* (KT) — Kulteginning olti-  
ni, kumushi, sovgʻalari, molini...

Oʻrta Osiyo turkiy tilining ilk obidaları (QB, MK, HH) da  
izofa birikmasining birinchi guruhi birmuncha koʻproq uchraydi:  
*Anıŋ tälım yası tädđi* — Uning koʻp zarari tegdi (MK); *Mäniŋ yoq*

*saqinchim* — Mening g'amim yo'q (QB); *Aniñ atası* — uning otasi (MK); *Kishiniñ sözi* (QB); *Adibniñ kəzi* (HH); *Säniñ rahmatıñdın* (HH).

Ko'rinadiki, bu davr yodnomalari tilida izofa birikmasining birinchi guruhi: 1) asosan, birlikning I va III shaxsiga oid bo'lib, II shaxs va ko'plik juda kam qo'llaniladi; 2) izofali birikma qismlarining o'rni ancha erkin bo'lgan.

O'rta Osiyo turkiy tilining so'nggi davr yodnomalari ("O'g'uznoma", QR) tilida va ayniqsa, eski o'zbek tilida izofa birikmasi hamma shaxslar bo'yicha kam qo'llana boshlaydi va o'rni ancha qat'iylashadi: *Mäniñ kəñülüm* (O'N); *Bizniñ qut(ı)biz* (O'N); *säniñ qutuñ* (O'N); *säniñ payg'ambarıñg'a* (QR); *Abdullanıñ atası qarındashları* (Rabg'.); *Ularınıñ arasında* (Rabg'.); *kimnuñ farmāni* (Rabg'.); *faqırnuñ tajribası alarg'a bas bolg'ay* (Nav.); *Ādamnuñ yaxshırag'ı uldur* (Nav.MQ).

O'rta Osiyo turkiy va eski o'zbek tilida qaratqichning g'arbiy turkiy shakli ham qo'llanadi: *Mänim miñ yil umrımdın qırqın Davudg'a bag'ışladım* (Rabg'.); *mänim zikrimni* (Rabg'.); *biziñ üçün* (Bobur).

Hozirgi o'zbek og'zaki tilida izofa so'z birikmasining bunday shakli ishlatilmaydi.

Izofa so'z birikmasining ikkinchi guruhi ikki xil ko'rinishga ega:

1. Aniqllovchi belgili bo'lib, aniqlanmish belgisiz bo'ladi. Bunday birikmalar, asosan, qadimgi turkiy va eski turkiy til obidalari tilida uchraydi: *Bizniñ sü* (KT); *mäniñ är* — mening botirligim (O'rx.-En.); *bägiñ at* (KT); *Qara tämirniñ borluq* — Qora temirning uzumzori (O'rx.-En.); *Meniñ tavarıg' satturdı* (MK); *Bu bizniñ öz kishi ol* (MK); *tiläk yoq meniñ* (QB); *Tavar kiminñ ökülsä* — Kimning moli ko'paysa (MK).

Misollardan ko'rinadiki, bu xil izofa birikmasining biri — aniqllovchisi, asosan, kishilik olmoshlaridan, ba'zan otlardan ifodalanadi. Ba'zan aniqlanmish yordamchi so'z yoki shu vazifadagi ot bo'lishi mumkin. *Aniñ birlä* (MK); *anıñ tabaru* (MK);

*māniy seḡda kāl* — Mening soʻngimdan kel (MK).

Eski oʻzbek tilida izofa birikmasining ikkinchi guruhiga oid baʼzi misollar uchrab qoladi: *Barchinniy kek kashana* — Barchinning koʻk koshonasi (Sh.tar.).

Aniqlanmish yordamchi soʻzlar bilan ifodalangan bu xil izofa birikmalarining baʼzi turlari hozirgi zamon oʻzbek tilida ham qoʻllanadi: *mening uchun, sening bilan*.

2. Aniqlovchi belgisiz boʻlib, aniqlanmish belgili boʻladi. Izofali birikmaning bu turi uchinchi shaxs shaklida qoʻllanadi va aniqlovchi hamda aniqlanmish umumiy bir tushunchani ifodalashga yaqinlashadi, aniq qarashlilik ifodalanmaydi. Izofa birikmasining bu turi yozma yodgorliklar tilida ham, hozirgi zamon oʻzbek tilida ham keng qoʻllanadi: *türk atn, tabgʻach atn* (KT); *Budun bogʻzi toq ārti* (Toʻn.); *tiriglig yoh* (QB); *Adiblar adibi fazillar bashi* (HH); *Səz bashi* (MN.); *sirat kəprügin* (Rabgʻ.); *shaharda qoylar pasbanı ul, yazıda qoylar shubanı ham ul* (Nav.MQ).

Hozirgi zamon oʻzbek tilida izofa birikmasi quyidagi hollarda doim belgili boʻladi (yaʼni aniqlovchi tarkibida albatta qaratqich kelishigi qoʻshimchasi, aniqlanmishda egalik affiksi boʻladi): 1) agar aniqlovchining oʻz aniqlovchisi boʻlsa; 2) aniqlovchining tarkibida egalik affiksi boʻlsa; 3) aniqlovchi va aniqlanmish distant holatda boʻlsa; 4) aniqlovchi atoqli ot yoki otlashgan soʻzdan ifodalansa va boshqalar.

Qadimgi va eski turkiy tilda yuqoridagi holat mavjud boʻlganda ham, izofa birikmasining aniqlovchi qismi belgisiz boʻlavardi: *Qanıq qagʻan süsi beri tög ärmish* (KT). *Qız kishi savı yorıqlı bolmas* — Qizgʻanchiq kishining shuhrati tarqalmaydi (MK). *Biliglig kishi ornı* (QB). *Atası atı Mahmud* (HH). *Safih är tili öz bashi dushmanı* (HH). *Män ätäy qarındashi ogʻlumen* (Rabgʻ.).

Bu holat baʼzan eski oʻzbek tilida ham uchrab qoladi: *Darulbaqanıø uzun yohı yaragʻını qıl* (Nav.MQ); *ātası taxtında; qızım ogʻlı* (Sh.tar.).

Izofa birikmasining uchinchi guruhini tashkil etgan har ikki qism ham belgisiz boʻladi (yaʼni aniqlovchida qaratqich kelishigi, aniqlanmishda egalik affikslari boʻlmaydi). Bu xil izofa birikmalari



qadimgi yozma adabiy tilda ko‘proq uchraydi. Masalan, *Kün ortu* — kunning o‘rtasi (MK); *xalq yan* — xalq odatlari (QB); *tiriglig yägü* — tiriklik yemishi (QB); *olar ikki a:rishdi* — ularning ikkovi bir-birini aldadi (MK); *bu iki biriksä* — bularning ikkovi birlashsa (QB).

Bu xil izofa birikmalari hozirgi zamon o‘zbek tilida izofa birikmalarining birinchi yoki ikkinchi guruhiga o‘tadi (har ikkisi yoki aniqlanmish belgili bo‘ladi). Aniqlanmish *barcha*, *hamma* (*qamug‘*) olmoshlari bilan ifodalangan izofa birikmalari hozirgi zamon tilida belgili qo‘llansa, qadimgi turkiy tilda belgisiz bo‘lgan: *Atlar qamug‘ sochushdi* — Otlarning hammasi cho‘chidi (MK). *Bozun qamug‘ külishdi* — Xalqning hammasi kulishdi (MK). *Sozun barcha chin* — So‘zingning barchasi chin (QB).

Hozirgi zamon o‘zbek tilida ko‘rib o‘tilgan turkiy izofa birikmalaridan tashqari tojikcha izofalar ham qo‘llanadi (*guli ra‘no* kabi). Bu xil izofalar eski o‘zbek tilida keng qo‘llangan: *Häki päyi savdäyi ham* (Lutf.); *duri Omman; la‘li badaxshan* (Javhariy); *Pärai näng‘a* (Nav., ChD); *äbi hayvân* (Lutf.); *bulbuli gulshân* (Qambar o‘g‘li); *g‘unchai xandân* (Xorazmiy); *bulbuli bostân* (Xorazmiy); *mähi täbân* (Sidi Ahmad).

Shunisi muhimki, XVI asr yodnomasi “Boburnoma” asarida tojikcha izofa juda kam qo‘llanadi. Umuman, bu xil izofaning qo‘llanishi tobora kamayib boradi (hatto nazmiy — poetik asarlarda ham kam ishlatila boradi). Faqat qo‘shma so‘zga aylanib, yaxlit bir birikma deb tushuniladigan ayrim tojikcha izofalar saqlanadi, xolos: *Qutbi shimaāliy, Dashti qipchāq* (Sh.tar.); *a‘zāi badan, qat‘i nazar, ahli ayāl, guli ra‘nā* (hozirgi zamon tilida).

Qadimgi turkiy tilda tojikcha yoki arabcha izofalar uchramaydi. Faqat tojikcha izofaga o‘xshash turkiy birikmalar borki, ular keyingi davrlarga oid yozma yodgorliklarda butunlay uchramaydi: *ulug‘i xātun* — xotinlar ulug‘i; *qālmishu budun* — qolib ketgan xalq; *sınarı bodun* — xalqning yarmi (Gaben, Alt.).

Aniqlanmishi harakat nomlari yoki sifatdoshlardan ifodalangan izofa birikmalari taraqqiyotida ancha o‘zgarishlar ro‘y berdi. Mazkur izofa birikmalari qadimgi turkiy tilda va eski turkiy tilning

ilk obidalari tilida belgisiz bo‘lib (izofaning uchinchi guruhi), ba’zilar mazmunan ergash gapga yaqinlashadi. Masalan, *Tāhri kūch bārtūk ūchūn, qag‘an susi bori teg ārmis* — Tangri kuch bergani uchun, xoqon askarlari bo‘ridek bo‘ldi (KT). *Anta kisrā inisi āchisin tāg qılınmaduq ārinch, biligsiz qag‘an olurmis ārinch* — Undan keyin ukasi akasidek ish tutmagani uchun, bilimsiz xoqonlar (podsholikka) o‘tirgan ekan (KT). *Tāhri yarlūqaduq ūchūn, biz qorqmadımız* — Tangri yorlaqagani uchun, biz qo‘rqmadik (To‘q.).

Ko‘rinadiki, qadimgi turkiy tilda aniqlanmish — sifatdoshlar tarkibida egalik qo‘shimchasi qo‘llanmaydi (qo‘llangan o‘rinlari juda kam uchraydi), hozirgi zamon tilida esa ko‘pincha egalik affiksini oladi.

XI asr yodnomalari tilida ham bu xususiyat, asosan saqlanadi: *Bayat fazli qulg‘u kārāk qul qamug‘* — Qullarning hammasi tangri fazlini istashi kerak (QB). *Siyasat yaratg‘u kārāk sū bashı* — Askar boshlig‘i siyosat yurgizishi kerak (QB). *Taz kālīgi borkchigā* — Kalning kelishi (keladigan joyi) do‘ppifurushning (do‘konidir) (MK).

Bu misollardan izofa birikmasining aniqlanishi egalik qo‘shimchasini olgani, aniqlovchi esa qaratqich qo‘shimchasini olgani ko‘rinib turibdi. Natijada mustaqil gap yoki ergash gap bo‘lgan birikmalar so‘z birikmasiga o‘ta boradi.

### Teng birikmalar

Teng birikmali so‘z birikmalari va gaplarni teng bog‘lovchilar va yuklamalar tashkil etadi.

Teng bog‘lovchilarga biriktiruvchi, zidlovchi, ayiruvchi va inkor bog‘lovchilari va yuklamalar kiradi.

Bu bog‘lovchi vositalar uyushiq bo‘laklarni va bog‘langan qo‘shma gaplarni tashkil etgan qismlarni bog‘laydi.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida ba’zi teng bog‘lovchilar ishlatilmay qolib ketdi (*taqi, yemā, ma, azu*), ma’lum davrlarda adabiy tilda boshqa bog‘lovchilar qo‘llana boshladi (*va, ham, yo, yoxud, goh* v.b.).

(*Bu bog‘lovchi vositalarning grammatik ma’nosi va sintaktik vazifasi haqida shu darslikning bog‘lovchilar, yuklamalar va uyushiq bo‘laklar, bog‘langan qo‘shma gaplar bobiga qarang.*)

## GAP BO‘LAKLARI

### Ega

7-§. **Ega** — harakat, holat yoki belgi-xususiyat taalluqli bo‘lgan tushunchani ifodalovchi gap bo‘lagidir. Ega shaklan bosh kelishik shaklida bo‘lgan so‘zlar orqali ifodalanadi.

Eski va ayniqsa, qadimgi turkiy tilda ega jumlada ifodalanmaydi, ammo uning mavjudligi, qanday tushuncha ekanligi jumlaning umumiy mazmunidan bilinib turadi: *Tänritäg täñridä bolmiş türk Bilgä qag‘an bu ødkä olurtım* — Tangriday tangridan bo‘lmish turk Bilga xoqon bu dunyoga keldim. *Sabımın tügäti äsıdıgil* (KT) — So‘zimni tugal eshitgil. *Nägü tük tabıng‘u tügäl bildiq ol* (QB) — Qanday xizmat qilishni tugal bilib olding.

*Tünlä bilä köchälim* — Kechasi ko‘chaylik (MK).

Eganing qaysi shaxsga taalluqli ekani jumlaning umumiy mazmunidan anglashiladi yoki ega I yoki II shaxsga oid bo‘lganda, kesimning shaxs ko‘rsatuvchi shakllari orqali bilinib turadi. Kesim tarkibida shaxs qo‘shimchalarining bo‘lishi taraqqiyotning so‘nggi bosqichlariga oiddir. Qadimgi turkiy tilda sifatdosh va shart fe‘li ko‘p o‘rinlarda shaxs ko‘rsatkichlariga ega emas. Bu belgilar muttasil ravishda XIII—XIV asr yodnomalarida qo‘llana boshlaydi. Uchinchi shaxsga oid kesimlarning shaxs qo‘shimchalari bo‘lmaydi. Shuning uchun bunday qurilmalarda eganing ifodalanmasligi fikrni tez tushunib olishni qiyinlashtiradi:

*Izimni øgär män, biligni yügär men. Koñülni tügär-män, ärdäm üzä türlünür* (MK) — Egamni maqtayman, bilimni yig‘aman, ko‘ngilni (shunga) bog‘layman, yaxshi xislatlarni to‘plashga ko‘nglim berilgandir.

Bu she‘r parchasining to‘rtinchi jumlasining egasi *ko‘ngil* ekani oldingi jumalardan bilinib turadi.

*Tegdimiz, yayudımız, äkındi kün kälti* (Toñ.) — (Dushmanga) tashlandik, (uni) haydab yubordik. Ikkinchi kun (dushman) keldi.

Bu jumlaning egasi *dushman* ekani kontekstdan bilinib turadi.

*Ol sug anta yoqqışdıımız. Bir otuz yashına Chacha señünkä süñüşdıımız. En ilki Tadıqın Churın boz (atg‘ binip tägdi, ol at*

*anta) olti (KT) — U qo‘shinni u yerda yo‘qotdik. (Kultegin) yigirma bir yoshida biz Chacha sangunda urushdik. (Kultegin) eng oldin Tadiqin Churning bo‘z otiga minib (yovga) tashlandi, u ot u yerda oldi.*

Bu parchada ham oxirgi jumlaning egasi Kültägin ekanligi oldingi jumlar va mazmundan aniqlanadi.

Bu xil qurilmalar eski o‘zbek tilida juda kam uchraydi, hozirgi zamon tilida qo‘llanmaydi.

Ega I va II shaxsda ham ifodalanishi mumkin. Bunda eganing ma‘nosi ta‘kidlanadi, mantiqiy urg‘u oladi. *Qaltachi biz öz ichi tashin tutmish tæg biz (Toj.) — Biz ich va tashimizni ushlab qola beramiz (hech narsaga ega bo‘lmay, quruq qolamiz). Qag‘an at bunta biz bærtimiz (KT). Qamug‘ arzu buldum, kishi bulmadım men (QB) — Butun orzu(larimni) topdim, (ammo) kishi topmadim man. Tabü män bolmayıñ bu ezgü bashı (QB) — Bu ezgu boshi (ga) men tobe bo‘lmayin.*

Ega odatda ot, otlashgan so‘z yoki olmosh orqali ifodalanadi. Bu xususiyat hozirgi va eski davr tili uchun bir xildir. Ammo qadimgi va eski turkiy tilda, asosan, ot turkumidagi so‘zlar bilan ko‘proq ifodalanadi. Eganing harakat nomlari va olmoshlar bilan ifodalanishi kamroq, ammo otlashgan so‘zlar bilan ifodalanishi ko‘proq uchraydi: *Er öz nämat bu qozmaq qamug‘ (QB) — Erlik — hamma ne‘mat va orzulardan voz kechmoqdir. Olardın usanmoq qachan ol mänjä (HH). Farishta birlä ikägü chıqtılar (QR). Üchägüsü tün sarıg‘a bardılar (O‘N). Balıqdaqtı tag‘ıqmıs, tag‘daqtı inmis (KT) — Shahardagilar toqqa chiqdi, tog‘liklar pastga tushdi.*

Qadimgi va O‘rta Osiyo turkiy tilda ayniqsa otlashgan sifat-doshning ega vazifasida kelishi ko‘proq uchraydi: *Uda tashda qalmıshı qobramb, yeti yüz boltı (Toj.) — Daraxt, toshda qolgani to‘planib, yetti yuz bo‘ldi. Yäti yüz kishig uduzug‘ma, ulug‘ı shad ürti (Toj.) — Yetti yuz kishini ergashtirgani, ulug‘i shad edi.*

Qadimgi turkiy tilda eganing jo‘nalish kelishigi shaklida kelishi o‘ziga xosdir: *Ichrä ashısız, tashra tonsız (KT) — ichi oshsiz, tashi to‘nsiz.*

Qadimgi va eski turkiy hamda qisman eski o‘zbek tilida ega-

ning aniqlovchili soʻz birikmalari bilan kelgan murakkab shakllari koʻp uchraydi. Odatda, bunday murakkab aniqlovchilarni sifatdosh boshqaradi: *Erni otqa yüzi atquchi til ol* (HH). *Qazalar yoritgän yaratqan Malik* (HH). Bu holat murakkab fikrni sodda gap birikmasi orqali ifodalash imkoniyatini bergan. Hozirgi zamon tilida bu xil sodda gaplar qoʻshma gap shaklida beriladi.

Ega, odatda, koʻplik va egalik affikslari bilan kelishi mumkin. Bunday shakllanish qadimgi va eski turkiy tilda kam uchraydi: *Køb muranlar køb øgüzlär bar ärdi* — Koʻp soylar, koʻp daryolar bor edi (OʻN).

### Kesim

**8-§.** Kesim gapning shakllanishida asosiy rol oʻynaydi. Uning bu xususiyati ayniqsa qadimgi va eski turkiy tilda yaqqol koʻrinadi. Bu davr tilida kesimlarni qator, ketma-ket keltirish yoʻli bilan murakkab fikrlar ifodalanadi: *Qagʻanqa qırqız bodumı ichiqdi, yüküntı, yantımız* (Toʻn.) — Qirgʻiz xalqi boʻysundi, (shu sababdan biz) qaytdik. *Yaqın tegti, tüşhti, yürıp bardı ol // kapuqqa tägip ündädi, quldı yol* — Yaqinlashdi, tushdi, yurib bordi u, darvozaga kelib chaqirdi va yoʻl soʻradi (QB). *öldi, tirildi, tamugʻqa kirdi, chıqtı ul yana. Uchmah ichrä kirdi, qaldı bu kün anda manlayur* (yuradi) (Rabgʻ.).

Kesim hamma soʻz turkumlari orqali ham ifodalanadi. Bu xususiyat har vaqt saqlanib kelgan. Ammo, eski, ayniqsa, qadimgi turkiy tilda kesim koʻproq ot va ot maʼnosidagi soʻzlar bilan ifodalangan.

Ot va ot maʼnosidagi soʻz turkumlari bilan ifodalangan kesimlar, odatda, bogʻlamalar bilan birikadi. Bogʻlama yordamchi soʻz vositasidagi boʻlak boʻlib, kesimning maʼnosiga oid, eganing semantik hamda grammatik xususiyatiga oid qoʻshimcha grammatik maʼnolarni (shaxsi, zamon, soni, mayli va boshqalarni) ifodalaydi.

Qadimgi va ilk eski turkiy tilning xususiyati shundaki, bu tilda ot kesimlar koʻpincha bogʻlamasiz keladi. Bu holda ega bilan kesim oʻrniga koʻra farqlanadi: kesim vazifasidagi ot (ism) gapning oxirida joylashadi: *Baxil nakas otun tavar pasbanı* (HH). *Uch narsa yoq*

*ardi kâmi ichindâ ziyada boldi: biri mushuk, ikkinchisi sichqan, uchunchisi tojuz* (QR). *Sâniy-däg bir shâhnıy marhabâsı — Mâniy-däg mıy gadâniy xun bahâsı* (MN). *Kerug sabı andag'* (Toj.) — *Ayg'oqchining so'zi shunday edi. Keni (to'g'ri) sez asaldek bu yalg'an basal* (piyoz) (HH).

Bog'lama vazifasida *er, tur* kabi o'z semantik ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ko'rsatkichiga aylangan so'zlar, *bol-, kârak, san-, bil-, te* kabi mustaqil — gap bo'lagi vazifasida ham, bog'lama vazifasida ham qo'llanuvchi so'zlar xizmat qiladi.

*är-* bog'laması. Bu bog'lama ot, sifat, olmosh, harakat nomi kabi so'z turkumlariga qo'shilib keladi. Bu bog'lamaning *ärinch, ärki, ärsär* shakllari qadimgi va ilk eski turkiy tilda qo'llanadi, *ärdi (ärti), ärur, ärmish, ärsä, ärkän* shakllari til tarixining hamma davrlarida ishlatiladi. Hozirgi zamon tilida uning yangi *är* shakli vujudga keladi. *Inisi ächisintäg qılınmaduq ärinch ...* (KT) — Ukalari akalaridek ish qilmagani uchun bo'lsa kerak... *Edgüg ol ärinch* (KT) — (Ko'rgan) yaxshiliging shu edi... *Yatu qalur ärinch* (Toj.). *Biligsizga haq sez tatig'siz erur... nasihat asig'siz erur* (HH) — Nodonga haq so'z bemaza bo'lib tuyuladi, nasihat foydasizdir.

Qadimiy va ilk eski turkiy tilda *är-* bog'lamasining ketma-ket kelishi xarakterlidir: *Bodun yämä yoq ärtächi erti* (Toj.). *Ag'ıztı atash ärdi, közläri al, sachları, qashları qara ärdilär ärdi* (O'N).

*ärsä* bog'laması aniqlik fe'liga ham qo'shilib keladi: *Yaqın (yaqinlab) tägdi ärsä qadashqa* (qarindoshga) *barıb* (QB). Bunday birikma qadimgi turkiy tilda uchramaydi. Bu birikma XIX asrga qadar yozma adabiyotda qo'llanib kelgan.

*är-* so'zi qadimgi va eski turkiy tilda mustaqil kesim vazifasida ham ishlatilgan: *Näh näh sabım ärsär bäh tashqa urtum* (KT). — Nimaiki so'zim bo'lsa, mangu toshga yozdim. *Abañ ärsä davlat ya bõlsa qutlug'* (QB). — Agar davlat bo'lsa (kelsa) va baxt topsa... *Nächä dänä erdi nächä faylasuf* (HH). *Mashriqdan mag'ribqa tägü tutush tamdın ävlär erdi* (Rabg').

*Turur* bog'laması. Bu bog'lama ilk turkiy tilda qo'llana boshlaydi. Odatda, *turur* bog'laması ot, sifat, son, olmosh, sifatdoshlarga gına emas, ravishdosh va *-moqda* affiksli fe'lga ham qo'shilib

kela oladi: *Käräklik sänä ezgü atıñ turur* (QB); *är sөгөл* (kasal) *turur* (MK); *ätil suvi aqa turur* (MK); *yämäktä turur* (O'N); *külä turur*, *yig'laya turur* (O'N); *ag'ız tıl bázägi keni söz durur* (HH); *bu nä turur* (Rabg'.); *Sän namaz qılğ'ıl, xalfa sän turur sän* (Rabg'.); *nächä buyla ish namunäsıb durur* (Nav. CHD.); *Nä qılay dáy turur sän* (Sh.tar.).

*Turur* bog'laması qo'shilgan ot kesim bosh kelishikdan boshqa kelishiklar shaklida ham bo'la oladi: *Biziñe turur ish yarın* (QB) — Ertaga bizning ishimiz bor. *Ol ävdä turur* (MK). *Sөгüqläri Jadda tag'ında turur* (Rabg'.).

*Turur* bog'lamasining qisqargan shakli *tur /dur* eski turkiy tildayoq qo'llanar edi. Keyingi davrlarda ham bu ikki shakl yonmayon ishlatiladi (qisqargan shakl tobora ko'proq uchraydi): *Aybqa qoyıbtur xalayıq ara* (HH). *Unut birlä yalñuq otun qang'ı tur* (QB) — Uyat kishiga butun yomon ishlardan eshik bo'ladi. *Nä körüklüg dur bu közüñ* (QR).

Ilk turkiy tilda *turur* bog'lamasining *-r /-s* sifatdoshi va *käräk* modal so'zi bilan birikishi xarakterlidir: *Ag'ızumg'a baqar turur bolsa, ag'ızumg'a baqmas turur bolsa* (O'N). *Yärniñ tert bulunınuñ qag'anı bolsam käräk turur* (O'N).

Bog'lama vazifasida qo'llanuvchi *bol-* so'zi ham qadimgi turkiy tildan boshlab ot kesim tarkibida bog'lama vazifasida ishlatilib keladi: *Kultägin käreğäk bolnı* (KT) — *Kultegin öldi. Yigit xoja bolur...* (HH). *Sän munda bäglärgä bolg'ıl bashlıg'* (O'N).

Eski turkiy tilda *käräk* modal so'zi kesim tarkibida bevosita yetakchi so'zga qo'shiladi. *Bägi hay käräksiz, budun toq käräk* (QB). — Bekning boy bo'lishi kerak emas, xalqning boy bo'lishi kerak. *Achun tutquçı er uqushluq käräk* (QB) — Dunyoni (mamlakatni) idora qiluvchi er uquvli bo'lishi kerak.

Bog'lama vazifasidagi *qıl-* so'zi ham qadimgi davrlardan boshlab qo'llanib keladi: *Chıg'ay bodunıg' bay qıltım* (KT). *Bayat kimgä qılsa inayat ülük* (QB) — Kimga xudo inoyatini nasib qilsa... *Yaqshı bägi birlä dostluq qıldı* (O'N).

Ko'rsatib o'tilgan bog'lamalardan tashqari, shu vazifada ay-

rim mustaqil soʻzlar ham qoʻllanadi:

**Kor-:** *Tushüg inju kor* (QB) — Tushni inju deb bil. *Usuqmisha saqigʻ qamugʻ suv korünur* (MK) — Chanqaganga sarob tamom suv boʻlib koʻrinadi.

**Bil-:** *Asigʻsiz ogʻulni yagʻi bil* (QB) — Foydasiz oʻgʻilni dushman deb bil.

**Ata-:** *Biligsiz kishini bilgä yilqi atar* (QB) — Bilimsiz kishini dono kishi yilqi deb ataydi.

**San-:** *yilqi sanı* (QA) — yilqi deb sana.

Kesim vazifasida bosh kelishikdan boshqa kelishikdagi soʻzlar ham kela oladi. Bu xususiyat tarixiy yodnomalar tilida ham, hozirgi zamon tilida ham qoʻllanadi: *Qatigʻluq mänjä* (HH). *Biliglik biringä biligsiz mişın* (HH). *Qamugʻ tägdächi näh, qazadın erür* (HH). *Bu ish mänim ilkimdä ermäs* (Rabgʻ.).

Qaratqich kelishigi bilan kelgan soʻzning kesim vazifasida kelishi eski adabiy til uchun muhimdir. *Bu ot seniñmu? Bu ogʻul säniñmu?* (MK). *Anıñ boldı dunya* (QB). *Ol üçägü bir qara xatunnıñ ärdi* (Nav.) *Samarqand eli xud bizniñdur* (BN). *El säniñ, mulk säniñ* (SHN).

Qaratqich kelishigidagi soʻzning kesim vazifasida kelishi anʼana boʻyicha XIX asrning oxirlarigacha davom etib keldi: *Goshti sizniñ va ustuxanı mäniñ bolgʻay* (Furqat).

Feʼl kesimlar feʼlning aniqlik yoki boshqa mayl shakllari orqali ifodalanadi.

Hozirgi zamon tiliga nisbatan qadimgi turkiy va ilk eski oʻzbek tilida sifatdosh va ravishdosh kesim vazifasida kengroq qoʻllanadi.

Sifatdoshning turli shakllari kesim vazifasida qoʻllanadi: *Türk budun, öltig* (KT) — Turk xalqi, oʻlding. *Yär sayu bardıgʻ, köp anta alqıntıgʻ, arıltıgʻ* (KT) — (Turli) yerlarda sarson boʻlib yurding, u yerlarda koʻp sovrilding. *Ol yärgärü barsar türk budun öltächisän* (KT) — U yerga borsang, turk xalqi, oʻlasan. *Kisi ogʻlı köp ölgäli törümis* (KT) — Odam bolasining hammasi oʻlish uchun yaratilgan. *Nägü täk tabungʻu bäkingä quli* (QB) — Begiga quli qanday xizmat qilishi kerak?



Sifatdoshning ko'rsatib o'tilgan shakllari eski o'zbek tilidayoq kesim vazifasida qo'llanmaydi, sifatdoshning qolgan shakllari *-gan, -r* hozir ham kesim vazifasida ishlatilib keladi.

Sifatdosh ergash gapning kesimi vazifasida ham keng qo'llangan (ergash gapli qo'shma gaplar bobiga qarang).

Qadimgi va eski turkiy tilda ravishdosh kesim vazifasida qo'llangan: *Käligmä bäglärin bodunun itur yig'ıñ azcha budun tez-mis erti* (Toñ.) — Kelgan beklarni va xalqni yig'ib yurganimda, o'zgina xalq tarqab ketdi.

Kesim orqali turli murakkab va nozik fikrlarni ifodalash mumkin. Bunda kesim turli shakllar va yordamchi so'zlar bilan birikib, murakkablashib keladi. Bu xil murakkab tarkibli kesimlar qadimgi turkiy tilda ham mavjud edi: *Yoqadu barır ermis* (KT) — Yo'qola borar edi. *Yolta yatu qaltachi ärtinüz* (KT) — Yo'lda yotib qolar edingiz.

## To'ldiruvchi

**9-§.** To'ldiruvchining davrlar bo'yicha taraqqiyoti ikki masala bilan — to'ldiruvchi vazifasida kelgan so'zning shakliy o'zgarishi va bu xil so'zning kesim bilan ma'no munosabatidagi o'zgarishlar bilan bog'langandir.

Ma'lumki, to'ldiruvchi (vositasiz va vositali) ma'lum kelishik qo'shimchasini olgan yoki ko'makchi bilan birikkan ot, olmosh va otlashgan so'zlar orqali ifodalanadi. Bizga ma'lum bo'lgan qadimiy yozma yodgorliklar tilida ham bu xususiyat bo'lgan.

Ma'lum kelishik shaklini olgan so'zlar bilan ifodalangan to'ldiruvchilarning taraqqiyotida ayrim to'ldiruvchilarning ishlatilmay qolib ketishini ko'ramiz, bu ham ayrim kelishik qo'shimchalarining arxaiklashishi bilan bog'liq.

Qadimgi va eski turkiy tillarda qo'llanib kelgan vosita kelishigi qo'shimchasi: *-n, -in, -un* tushum kelishigining ayrim shakllari (*-ig*), jo'nalish kelishigining ba'zi shakllari (*-g'aru*) eski o'zbek tilida ishlatilmaydi. Misollar: *Tag'ig' uqruqın egmäs, tenizni qayg'ıqın bukmäs* (MK) — Tog'ni arqon bilan egib bo'lmas, dengizni qayiq bilan bekitib bo'lmas. *Urı og'ın qul boltı, silik qız*

*og'lin qun bolti* (KT) — Zotdor o'g'illari bilan qul bo'ldi, go'zal qizlari bilan qul bo'ldi. *Sabig' alip* (KT) — So'zini olib. *Qish yayg'aru savlanur* (MK) — Qish bahorga deydi.

Qadimgi va eski turkiy tilda vositasiz to'ldiruvchi ko'p vaqt qo'shimchasiz bo'ladi. Bu xususiyat hozirgi zamon tilida ham mavjud, ammo tushum kelishigidagi so'z quyidagi o'rinlarda doim belgili bo'ladi: agar tushum kelishigidagi so'z egalik qo'shimchasini olsa, o'z aniqlovchisiga ega bo'lsa, kesim bilan distant holatda bo'lsa, atoqli ot, otlashgan so'z yoki olmosh bilan ifodalansa va boshqalar. Qadimgi va ilk eski turkiy tilda esa yuqoridagi holatlarda ham vositasiz to'ldiruvchi belgisiz bo'lib keladi:

*Ed tøjri yasar* (KT) — Dunyoni tangri yasaydi. *Qızıl qanım tekti, qara tärım yögürti* (Toñ.) — Qizil qonimni to'kdi, qora terimni tezlatdi. *Achsıq tög'sıq ömäzsän* (KT) — Ochni, to'qni bilmaysan. *Munıñ shukrı sen qil* (QB) — Buning shukrini sen qil. *Ol qag'un evgä ülätti* (MK) — U uyiga qovun olib bordi.

Umuman, bu davr tilida vositasiz to'ldiruvchini belgisiz qo'llashga intilish ko'proq seziladi. Bu xususiyat boshqa kelishiklar (jo'nalish, o'rin-payt, chiqish)da ro'y beradi: *Atası ānası yarung'u bolur* (QB) — Otasi, onasi yoqadi. *Adız qum tünäy* (QB) — Baland qumlarda tunay. *Täjri uzalmazıb* (MK) — Tangridan uyalmay. *Yol azıldı* (MK) — Yo'ldan ozildi (adashdi).

Tarixiy taraqqiyot natijasida ma'lum kelishikda kelgan so'z bilan fe'l orasidagi ma'no munosabatda ham ba'zi o'zgarishlar ro'y berdi.

Hozirgi zamon tilida tushum kelishik shaklidagi so'zni o'timli fe'l boshqaradi. Qadimgi va ilk turkiy tilda bunday turdagi so'zlarni o'timsiz fe'llar ham boshqara olgan: *Emdi anı kim yatar* (MK) — Endi unga kim yeta oladi? *Bu ıshıg' ünäshdılar* (MK) — Bu ishga unashdilar. *Säni tägsa* (QB) — Senga yetsa. *Ol anın boynın toquttı* (MK) — U uning bo'yniga urdirdi. *Täjrig ögush ögdımız* (MK) — Tangriga maqtovlar aytdik.

O'rin, maqsad, sabab, vosita ifodalagan so'zlar jo'nalish kelishigida kela olgan va shunday mazmunni talab etgan fe'l bilan

birika olgan: *Sävinch bolsa kimgä* (QB) — Kimda sevinch bolsa. *Masalda kälir* (QB) — Masalda keladi. *Bäk yag'ıqa pusdı* (MK) — Bek dushmanndan pısdı (bekindi).

Ma'lum ko'makchili so'zlar bilan ifodalangan vositali to'ldiruvchilar ham qadimgi davrlardan boshlab qo'llanib keladi. Davrlar o'tishi bilan ayrim ko'makchili birikmalar ishlatilmay qolib ketdi, yangilari paydo bo'ldi; ba'zilarining shakli biroq o'zgardi.

*Birlä // bilä // bilän, üçhün* ko'makchili to'ldiruvchi qadimgi turkiy tildan boshlab qo'llanib keladi: *Izgil bodun birlä süñüşdimiz* (KT) — Izgil xalqi bilan urushdik. *Qız anası birlä ip ägrishdi* (MK) — Qız onasi bilan ip yigirishdi. *Türk bodun üçhün udımadım* (KT) — Turk xalqi uchun uxlamadım.

*üzä* ko'makchili to'ldiruvchi qadimgi turkiy tilda o'rin-payt kelishigi shaklidagi so'z bilan birikib kela olgan: *Yabuz yabdağ bodunta üzä olurtım* (KT) — Och-yalang'och xalq ustida o'tirdim. Ammo ilk turkiy tilda *üzä* ko'makchisi, asosan, bosh va qaratqich kelishigi shaklidagi so'zni boshqaradi: *Jaxshağ üzä ot bolmas* (MK) — Toshloq yer ustida o't bo'lmaydi. *Täñri qarğ'ışı anıñ üzä* (MK) — Tangrining qarğ'ishi uning ustiga.

Bundan tashqari, qadimgi turkiy tilda qo'llanuvchi *taba* va ilk turkiy tilda ishlatilgan *azın, taba* ko'makchili to'ldiruvchilar eski o'zbek tilidayoq ishlatilmay qolib ketadi: *Og'uz bodun taba ... süñüşdim* (KT) — O'g'uz xalqiga qarshi urushdim. *Säniñdän azın yoq yöläğim mänä* (QB) — Sendan boshqa mening tayanchim yo'q.

Qadimgi turkiy tilda ko'p o'rinlarda ko'makchi qo'llanmaydi, biror kelishik shaklida bo'lib hech qanday qo'shimcha olmay keladi. Bunday so'zlar eski va hozirgi o'zbek tilida ko'makchi bilan ishlatiladi. Quyidagi misollarga diqqat qiling: *Tabğ'achqa yäti yägirmä süñüşdi, qıtañqa yeti süñüşdi, og'uzqa bes süñüşdi* (Toñ.) — Tabğ'achga qarshi o'n yetti marta urushdi, qatangga qarshi yetti marta urushdi, o'g'uzga qarshi besh marta urushdi. *Tabğ'ach taba ulug' sü eki yägirmä süñüşdim* (KT) — Tabğ'achga qarshi katta qo'shin bilan yigirma marta urushdim. *Sü barun* (KT) — Qo'shin bilan boring.

Umuman, tarixiy taraqqiyot jarayonida vositali to'ldiruvchi-ning hol va aniqlovchiga o'tishi, shu gap bo'laklarining doirasini to'ldirishga intilish seziladi.

### Aniqlovchi

**10-§.** Aniqlovchining har ikki turi (sifatlovchi va qaratqichli aniqlovchilar) qadimgi yozma yodgorliklarda ham qo'llanadi: *Silik qiz* (KT) — chiroyli qiz. *Kök juvut* (MK) — ko'k rang. *Kün batsıqdaqi sug'd* (KT) — kun botishdagi sug'd. *Iki turlug kishi* (QB) — ikki turli kishi. *Andag' edkä* (KT) — unday paytda. *Umay tög egim* (KT) — Umayday onam. *Yäti yägirmi ärin* (KT) — O'n yetti bahodir bilan. *Qırq artuqi yäti yolu sülädimis* (KT) — Qirq yetti marta urushdik.

Qadimgi va ilk turkiy tilda, ayniqsa sifatdosh bilan ifodalangan aniqlovchilar ko'p qo'llanadi. Bu hol o'sha davr tilida sifatdosh shakllarining ko'pligi bilan ham izohlanadi: *Barduq yärdä* (KT) — borgan yerda; *öltächi budunig'* (KT); *käligmä bäglärin* (Toñ.) — kelgan beklarni; *barmış budun* (KT) — ketib qolgan xalq; *ayıtğ'u sözüm* (QB) — aytadigan so'zim; *öldächi sıchg'an* (MK) — o'ladigan sichqon; *kämdük sönük* — kemilgan suyak; *köchügli kishi* (QB) — ko'chadigan odam.

Sifatlovchi aniqlovchi ilk O'rta Osiyo turkiy tilda hozirgiga qaraganda ko'proq qo'llanadi.

**11-§. Izohlovchi.** Qadimgi O'rta Osiyo turkiy tilda bir ot ikkinchisini hech qanday qo'shimchasiz aniqlaydi. Bunday aniqlovchilar izohlovchilarga yaqin turadi. *Bilgä kisig, alp kisig* (KT) — bilimdon odamni, bahodir odamni; *Qız og'lıñ* (KT) — qiz bolang; *Qag'an at biz bärtimez* (KT) — Xoqon unvonini biz berdik; *On oq bodun* (KT) — o'n o'q xalqi; *Qırğ'ız bodunig'* (KT) — qirg'iz xalqini; *Og'uz yag'i* (KT) — o'g'uz dushman.

Bunday izohlovchilar tarkib jihatidan keng, mazmunan ancha murakkab bo'lishi ham mumkin: *Süsi bası Inal qag'an* (Toñ.) — Qo'shin boshlig'i Inal xoqon. *Baz qag'an toquz og'uz bədun yag'i ärmis* (KT) — Baz xoqon boshliq to'qqiz o'g'uz xalqi dushman edi. *Anta kisrä yär Bayırqu Ulug' Irkin yag'i boltı* (KT) — Undan

keyin Er Boyirqu (urug'idan bo'lgan) ulug' Irkin dushman bo'ldi. *Yashil og'uz Shantun yaziqa tagi* (KT) — Yashil daryo (sug'oradigan) Shantun tekisligigacha. *Sünüg batımı qarig' sөkipän* (KT) — Nayza botimi (qalinligidagi) qorni kechib.

Izohlovchiga egalik qo'shimchasining qo'shilishi (faqat I shaxs shakli) qadimgi turkiy tilda ham mumkin edi: *Qanim qag'anig', egim qatunig'* (KT) — otam xoqonni, onam xotinni. *Singlim qunchuyug'* (KT) — singlim malikani (berdik).

Tarkibi murakkab aniqlovchilar qadimgi turkiy tilda qo'llanib, murakkab fikrni sodda gap birikmasi orqali ifodalashda xizmat qilgan: *Ekin ara idi oqsiz kök türk ancha olurur ermis* (KT) — Ikkisining orasida egasiz, o'qsiz ko'k turklar o'tirar edi.

Tarkibi murakkab aniqlovchilar ko'pincha sifatdosh shakllari orqali boshqariladi: *Kerguniy üçün igidmis bilgi qag'anına* (KT) — sodiqliging uchun seni ulug'lagan bilimdon xoqoningga. *Tänri tək täyridä bolmuş türk bilgä qag'an* (KT) — Tangridek tangridan bo'lgan dono turk xoqoni.

Tarkibi murakkab sifatdosh aniqlovchilar va izohlovchilar ayniqsa "Qutadg'u bilig"da keng qo'llanadi.

12-§. Qaratqichli aniqlovchi qadimgi davrlardan boshlab qo'llanib keladi. Qaratqichli aniqlovchining qo'shimchasiz shakli (qaratqichli aniqlovchi va aniqlanmishning qo'shimchasi bo'lmaydi) qadimgi va ilk eski turkiy tilda ko'proq qo'llangan va bunday aniqlovchi izohlovchiga yaqin turgan: *qag'an at* (KT) — xoqon oti, *on oq bodun* (KT) — o'n o'q xalqi, *kün ortü* (MK) — kun o'rtasi (peshin vaqti) va boshqalar.

Qaratqichli aniqlovchining bunday qo'shimchasiz shakli eski o'zbek tilida (odatda, aniqlanmish) qo'shimcha oladi.

Har ikki qismi belgili bo'lgan aniqlovchili birikma (aniqlovchining qaratqich qo'shimchasini va aniqlanmishning egalik qo'shimchasini olib kelishi) qadimgi turkiy tilda juda kam qo'llanadi. Ilk eski turkiy tilda ham kam uchraydi: *türk bodünüy älinj tərüsün* (KT) — turk xalqining eli va qonun-qoidalarini; *anıy atası, anıy og'lı* (MK), *mäniy yoq saqınchım* (QB) — mening g'amim yo'q; *yardı mäniy yuräk* (MK).

Aniqllovchi qo'shimchali bo'lib, aniqlanmish belgisiz bo'lgan qaratqichli sintagma ilk eski turkiy tilda ko'proq qo'llanadi: *Mäniñ yüzdän ıtın* (MK) — mening ko'zimdan yo'qol. *Bu bizniñ öz kishi ol* (MK) — bu bizning o'z kishimiz. *Säniñ sap kälđi* (MK) — sening navbating keldi. *Anın qoyunda* (MK) — uning qo'ynida. Eski va hozirgi zamon tilida bu xil aniqllovchilar faqat ko'plikning birinchi shaxsida qo'llanadi (*bizning maktab*).

Aniqllovchili sintagmaning boshqa bir turi — aniqllovchi qo'shimchasiz bo'lib, aniqlanmish qo'shimchali bo'lgan turi — qadimgi turkiy va ilk O'rta Osiyo turkiy tilda ancha keng qo'llanadi: *kisi og'lı* (KT) — odam bolasi; *tiriklik yoli* (QB).

Bu xil birikmalar hozirgi o'zbek adabiy tilida ham qo'llanadi. Ammo o'z aniqllovchisi bo'lgan yoki egalik qo'shimchasini olgan, aniqlanmish bilan distant holatda bo'lgan, yoki atoqli ot, yoxud otlashgan so'z bilan ifodalangan aniqllovchilar hozirgi zamon tilida doim qaratqich qo'shimchasini oladi. Bunday hollarda ham qadimgi va ilk turkiy tilda aniqllovchi qo'shimchasiz kelavergan: *Qız kishi savı yörig'lı bolmas* (MK) — Xasis kishining shuhrati yoyilmaydi; *özi asg'ı* (QB) — o'zining foydasi; *özim qutım bar üchün* (KT) — o'zimning baxtim bor uchun.

## Hol

**13-§.** Hol turli so'z turkumlari — ravish, ot, ravishdosh orqali ifodalanadi. Qadimgi yozma yodgorliklar tilida ham hol ana shu so'z turkumlari orqali ifodalanib kelar edi. Davrlar o'tishi bilan hol vazifasida kelgan so'zning shaklida va kesim bilan bo'lgan ma'no munosabatida ma'lum o'zgarishlar ro'y berdi.

Ravish orqali ifodalangan holning o'rni erkin bo'lib, fe'l kesim bilan distant holatda bo'la olgan: *Bängü el tuta olurtachi sen* (KT) — Elni abadiy boshqarib turasan. *Öküs türk bødün öltig* (KT) — Turk xalqi, ko'p o'lding.

Ravishning *-cha* affiksi orqali yasalgan shakli hol vazifasida keng qo'llangan. Bu shaklning ma'no doirasi hozirgiga nisbatan keng bo'lgan: *Ancha tämis* (KT) — shunday deydi. *Kültägin özinchä käräk boltı* (KT) — Kultegin o'z ajali bilan o'ldi. *Qanıñ subcha*

*yügürti, səñüqün tag'cha yatdı* (KT) — Qoning suvdek oqdi, suyanging tog'dek (uyulib) yotdi. (*Arab*) *tilichä Hiyatilla tämäk bolur* (QR). *Bu bäglär ne yolcha yorisa qalı* (QB) — Agar bu beklar qanday yo'l bilan yursa. *Yasavul-ki bir mazlum ishi käyinchä barg'ay* (Nav. MQ) — Bir mazlumning ishi ketidan borgan yasovul. *Lashkarım boldı kezümchä bir-bir* (SHN) — Ko'z oldimda lashkarım tarqalib ketdi.

Holning bu turi keyinchalik tobora kam qo'llana boradi.

Bosh kelishikdagi ot orqali ifodalangan hollar qadimgi va ilk O'rta Osiyo turkiy tilida keng qo'llangan: *türk qag'an ötükan yış olursar* (KT) — Turk xoqoni O'tikan yaylovida bo'lsa. *Ol sub qodu bardımız* (Toñ.) — U suvni quyilab bordik. *Ajun tünı kündüzi yälkin kächär* (MK) — Odamning tuni va kunduzi musofirdek o'ta beradi.

Hol vazifasidagi bu xil bosh kelishik shaklidagi otlar eski o'zbek va hozirgi zamon o'zbek tilida biror qo'shimcha oladi yoki yordamchi so'zlar bilan birikadi. Hozirgi zamon tilida payt anglatuvchi otlar va ba'zan o'rin bildiruvchi atoqli otlar hol vazifasida ham bosh kelishik shaklida qo'llanadi. Bu xususiyat eski o'zbek tilida ham mavjud edi: *Hinddin Garm bardıñız* (Bobur). *Chag'ır ichmäs künläri nashtı kezär edi* (BN) — Aroq ichmagan kunlari nasha chekar edi. *Buxara bardı* (BN). *Xorasan yetti* (SHN).

Ravishdosh hol vazifasida keng qo'llanadi. Qadimgi turkiy tilda ravishdoshning *-u (yu)* affiksli shakli hol vazifasida ko'proq ishlatiladi: *Turu ölü yon yur ärtig* (KT) — Tirilib, o'lib yurar edi. *Bolchuqa tañ üntür tägdimiz* (Toñ.) — Balchiqqa tong otganda yetdik.

Qadimgi turkiy tilda ravishdoshning boshqa shakllari ham hol vazifasida keladi: *Kөгmән аңа қırғ'ız yerinä tägi süledimiz* (KT). — Ko'gman (yerini) oshib qirg'iz eliga qarshi qo'shin tortdik. *Sanag'alı tösürtimiz* (Toñ.) — (Qo'shinlarni) sanagani (sanash maqsadida) to'xtatdik.

Ilk O'rta Osiyo turkiy tilda *-u (yu)* shaklli ravishdosh hol vazifasida kamroq qo'llanadi, ravishdoshning qolgan shakllari esa bu vazifada keng ishlatiladi (*-g'uncha, -mushcha, -ban*). Bu davr tilida *-a (-e)* ravishdoshining hol vazifasida qo'llanishi xarakterli-

dir: *Tegrä yüre qush uchar* (MK) — Atrofida yurib (aylanib) qushlar uchadi.

Eski o‘zbek tilida ravishdoshning **-g‘ach** shakli ham hol vazifasida qo‘llana boshlaydi.

Ravishdoshning **-a (-may)** shakli eski o‘zbek tilida (ayniqsa, “Boburnoma”da) hol vazifasida keng qo‘llanadi. Hozirgi zamon o‘zbek tilida bu ravishdosh hol vazifasida kelmaydi (faqat juft holda ishlatiladi: *yura-yura charchadi*): *Kömäk tiläy Tashkandqa bārdım* (BN). *Meni kērä kaldi* (BN). *Izi atn tuta ant ichti Shirin* (XSH). O‘rin kelishiklari shakli bilan kelgan otlar hol vazifasida qo‘llanishi mumkin.

Qadimgi turkiy tilda vosita, jo‘nalish va o‘rin kelishigidagi otlar hol vazifasida ishlatilgan: *Yadag‘ın yalaçın yana kelti* (KT) — (Xalq) piyoda va yalang‘och holda keldi. *Yazına og‘uzg‘aru su tashıqdımız* (KT) — Yozda o‘g‘uzlarga qarshi qo‘shin tortdik. *Kultägin qoy yılqa yäti yägirmigä üchdi* (KT) — Kultegin qo‘y yilida o‘n yettida o‘ldi. *Kün tog‘ısqda* (KT) — Kun chiqarda. *Tabg‘ach qag‘anta bädizchi keltürtim* (KT) — Tabg‘ach xoqonligidan o‘ymakor keltirdim.

Eski turkiy tilda holning vosita kelishigi bilan ifodalanishi cheklanadi. Maxsus chiqish kelishigi shakllanib, o‘rin kelishigidan ajralib chiqadi. Ammo O‘rta Osiyo turkiy tilida qadimgi turkiy tilning xususiyati qisman saqlanadi: *Süsi otun orüldı* (MK) — Qo‘shini o‘tdek o‘rildi. *Küz kälige yazın bälgurär* (MK) — Kuzning kelishi yozda bilinadi. *Bağ‘ıl anar ezgölügün* (MK) — Unga ezgulik bilan boqqil. *Tärkin käl* (MK) — tez kel. *Tashra çıqtıb* (MK) — tashqariga chiqib. *Ölumdä kezın* (QB) — O‘limdan keyin. *Anı belindä tut* (MK) — Uni belidan tut.

Eski o‘zbek tilida jo‘nalish, o‘rin va chiqish kelishiklari bilan kelgan otlar muntazam ravishda hol vazifasida keladi va bu bilan hozirgi zamon tiliga yaqinlashadi.

Ko‘makchi yoki shu vazifadagi so‘z bilan birikkan otlar ham hol vazifasida qo‘llanib kelgan. Qadimgi turkiy tilda *täg, ara, saydu, tegü, üçün, äzä, ashnu, otru, kin, asra, ich, üst, bärü, oñra* kabi ko‘makchi va ko‘makchi vazifasidagi so‘zlar bilan birikkan otlar o‘rin, holat, sabab, maqsad, payt bildirib, hol vazifasini o‘taydi:



*Inisi ächisin tæg qılımaduq erinch* (KT) — Ukalari akalaridek ish tutmagani sababli. *Ekin ara qılınmıs* (KT) — Ikkisining orasida yaratildi. *Yer sayu bardıg'* (KT) — Yer (dunyo) bo'ylab ketding. *Shantung yazıqqa tægi sülädimiz* (KT) — Shantung tekisligigacha qo'shin tortib bordik. *Ol tærudä üzä ächim qag'an olurtı* (KT) — U hokimiyat ustiga mening tog'am xoqon o'tirdi.

O'rta Osiyo turk tilida ham *qaru, qatın, otru, tegrä, uzu, asra* (*isrä*), *on, basa, özä, burun, tägu, ashnu* kabi hozirgi zamon tilida arxaiklashgan ko'makchi otlar, *üzä, ichrä, keyin, sari, tæk* kabi (*kabi, aro, nari* kabilar hozirgi zamon tilida ham ishlatiladi) ko'makchili otlar bilan ifodalangan hollar qo'llaniladi: *Tag' üzä talg'ag' boldı* (MK) — Tog' ustida bo'ron bo'ldi. *Yag'u qaru kärish qurdum* (MK) — Yovga qarshi kamon qurdim (tayyorladim). *Munda naru këslinür* (MK) — Bundan nari kesiladi. *Ol mänjä otru kälđi* (MK) — U menga qarshi keldi. *Men anja basa kälđim* (MK) — Men undan keyin keldim. *Ajun bekläri öldi bizdin aza* (QB) — Dunyo beklari bizdan oldin ham o'lgan. *Qushlar kibi üchtimiz* (MK) — Qushlar kabi uchdik.

Eski o'zbek tilida *ald, ast, üst, ich, ara, bäri, sayın, sari, üzä, keyin, tägrä, üchün, qarshı, körä, tegi, otru, soñ, burun, nari* va boshqa ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi otlar hol vazifasida keng qo'llanadi. Umuman, eski o'zbek tilida ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi so'zlarning doirasi juda kengayadi. Bu ko'makchilarning ko'pi hozirgi zamon tilida qo'llanmaydi *otru, tægi, baqä, tegrü, qatıg'a, bikin* kabi. Misollar: *anja otru* (Nav.). *Qiyamatqa tægi* (Sakkokiy), *Osh sari baqa* (BN), *Kächä tägrü* (Dahnoma). *Sham'i ruxsariñ qatında* (Qambar o'g'li), *Gul bikin* (Atoiy).

Umuman, tarixiy taraqqiyotda hol doirasining vositali to'ldiruvchilar hisobiga kengayib borish jarayoni seziladi. Bu holat ko'makchi va ko'makchi vazifasidagi so'zlarning konkret ma'no ifodalashdan mavhum ma'no ifodalash tomoniga taraqqiy etishi bilan bog'liqdir. Chunki, asosan, hol mavhum tushuncha ifodalaydi.

### Uyushiq bo'laklar

#### 14-§. Gap bo'laklarining uyushishi qadimgi yozma yodgor-

liklar tilida hozirgiga nisbatan kengroq qo'llangan. Ammo bu uyushish, asosan, bog'lovchisiz, faqat ohang yordami bilan bo'lgan. Bunday uyushgan bo'laklar ko'pincha ma'no jihatdan bir-biridan farqlansa-da, ammo umumiy bir tushunchani ifodalaydi. Shuning uchun mazmunni tushunish, uyushiq bo'laklarni darhol payqab olish qiyin: *Altı chub sog'daq taba suladimiz* (KT) — Olti chub (urug'i) va sug'doq (urug'i)ga qarshi qo'shin tortdik. *Qara turgis boldunig' anta elürmish almish* (KT) — Qora turgish xalqini unda o'ldirdi, qolganlarini asir oldi. *On oq og'lim turgis qag'anta maqrach tamg'achi kelti* (KT) — O'n o'q (xalqidan va) turgish xoqoni — o'g'limdan Maqrach tamg'achi keldi. *Semiz bolsa it toq avin avlamas* (QB) — It semiz (va) to'q bo'lsa, ov ovlamaydi.

Albatta, bunday mazmunli uyushiq bo'laklar bilan barobar, mazmunan bir turli, ma'nodosh uyushiq bo'laklar ham qo'llangan. Hatto, qadimgi turkiy tilda uyushgan aniqlovchilar umumlashtiruvchi so'zlar bilan ham kelganini ko'ramiz: *Qırqız, üç qurıqan, otuz tatar, qıtay, tatabı* — *buncha bodun kälipän sıg'tamis* (KT) — Qirg'iz, uch quriqan, o'ttiz tatar, xitoy, tatabi — shuncha xalq kelib yig'lashdi.

Keyingi davr yodnomalari tilida uyushiq bo'laklarning har biri o'z aniqlovchilari bilan, o'z grammatik belgilari bilan birikib kelishi mumkin; bunday uyushiq bo'laklar ma'no jihatdan bir guruhga kiradi: *Qılıch birlä bashın kesti, aldı ketdi* (O'N). *Sözimgä shartımg'a yet(t)im* (Rabg'). *Adamiylarınñ yıldı qaralarnıñ najasatlari* (Rabg'). — Odamlar va qoramollarning najosatlari. *Ul qatıg' qorqunchlarnı, ulug' azäblarnı köreyin, tedi* (Rabg').

Teng bog'lovchilar yordami bilan birikkan uyushiq bo'laklar qadimgi turkiy tilda kam uchraydi. Chunki bu davrda teng bog'lovchilarning o'zi kam edi. Bu bog'lovchilar: *-li -li (va), Yämä (yana, ham), Taqı (yana, ham), ma (ham), azu (yoki): Inili ächili qınshurtükin uchun* (KT) — Ini va akani bir-biriga qarshi qo'ygani uchun. *Kün yemä, tün yemä, yelü bardumuz* (Toj.). — Kun ham, tun ham yelib bordik. *Manıstan taqı kichig dıntar* (Irq bitik) — Manıstan hamda kichik dındor. *Tigäy tayshı ma taqı özgä kishiler* — Tigay tayshi va boshqa kishilar.

O'rta Osiyo turkiy tilda bu teng bog'lovchilar uyushiq bo'lak-

larni birlashtirishda xizmat qiladi, faqat *-li/-li*, *azu* bog'lovchilari kamroq ishlatiladi. Bundan tashqari, *yana*, *ham*, *ya* bog'lovchilari ham shakllanib, uyushiq bo'laklarni bog'lash uchun qo'llanadi. *Kishi neji alma yana tokmä qan* (QB). *Kishan ol kishigä bilig ham uqush* (QB).

Eski o'zbek tilida *-li -li*, *azu*, *taqi*, *yeme* bog'lovchilari qo'llanmaydi, ammo *ham*, *yä* bog'lovchilari uyushiq bo'laklarni birlashtirishda ishtirok etadi. Bulardan tashqari, bu vazifada *va*, *vale*, *gäh*, *yäxud*, *ne*, *xäh* bog'lovchilari keng qo'llanadi: *Köpräk ulum va funun ham bilür erdi* (Nav., MN) — Ko'p ilmlar va fanlarni ham bilar edi. *Yä belige bag'lar edi*, *yä qolg'a älip turur edi* (BN). *Dard va g'amim* (Bobur). *Men seni agarche yaxshu bilmen, vale yaxshu bilür-men* (Amiriy). *Gäh qilich birle, gäh pichäq birla* (Ahmadiy). *Yäxud armanı, yäxud arab* (Nav., CHD). *Ne ätta majäl qälptur ne kishida* (BN). *Xah ınän, xah ınänma* (Lutf).

Hozirgi zamon o'zbek tilida ham eski o'zbek tilidagi bog'lovchilar uyushiq bo'laklarni birlashtirishda xizmat qiladi. Bulardan tashqari, bog'lovchilar ham (*ammä*, *lekin*, *biroq*, *balki*) uyushiq bo'laklarni bog'lashda qo'llanadi.

### Gap bo'laklarining tartibi

Nasriy va nazmiy asarlarda gap bo'laklarining gapdagi tartibi keskin farq qiladi. Nasriy asarlarda gap bo'laklari tartibining o'zgarishi shu gap bo'lagining ma'nosi va vazifasining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'zgarishning bir uslubiy ahamiyati bordir.

**15-§. Ega va kesimning o'rinishi.** Nasriy asarlarda kesim, odatda gapning oxirida, ega esa undan oldin keladi. Bu qoida hozirgi zamon o'zbek tili uchun me'yor hisoblanadi, yozma yodgorliklar tilida ham bu hol me'yor edi. Ammo bunday tartibning buzilishi — kesimning gap oxirida kelmasligi — yodgorliklar tilida uchraydi: *Öñäkey ırmaldı ish* (MK) — O'ng'ay ish buzildi. *Kök kerdı er* (MK) — Kishi qiyinchilik ko'rdi. *Köp tälim boldı qayg'u* (O'N). *Fäyda qılmadı Abu Lahabka mäli* (NF.). *Läzim korundi türk tili sharhıda bir nechä varaqqa zeb-äräyish bermäk* (Nav. MN).

Yuqoridagi misollarda kesimning ma'nosini birinchi o'ringa qo'yish uchun u gap boshida keltiriladi, eganing ma'nosi ikkinchi o'ringa o'tgani uchun gap oxiriga ko'chirilgan.

O'rta Osiyo turkiy tilining xususiyatlaridan biri shuki, ma'lum shaxsni ko'rsatmagan fe'l shakllari (ish otlari, sifatdosh, shart fe'li)ning qaysi shaxsга oidligini ta'kidlash uchun gap oxirida olmosh egalar keltiriladi (bu olmosh egalar keyinchalik shaxs qo'shimchalariga aylanadi): *Tapug' qozsa män* (QB) — Men xizmatni qo'ysam. *Qachan barsa sen* (MK). *Yetürmish sän öz, evürmish sän yüz* (QB) — yetkazibsän, yüz o'g'ribsä. *Tiläb män turur* (O'N).

Kesimning birinchi o'ringa qo'yilishi to'ldiruvchining o'rnini ham o'zgartiradi: to'ldiruvchi kesimdan keyinga — gap oxiriga o'tib qoladi: *Ol anuqladı nänjin* (MK) — U narsani tayyorlangan holda topdi va oldi. *Ol anar sayrattı sözüg* (MK) — U uni sayratdi. *Atamqa bärdim yarmaq* (MK) — otamga pul berdim. *Og'dül-mish javabi Ilikkä* (QB). *Sävär mu sizlardä birinjiz qarındashuñızınñ etini yämäk* (NF.) *Vasiyat qılğ'ıl og'länlarıña* (QR).

Hol, odatda, kesimdan oldin keladi. Uning kesimdan keyin, gap oxirida qo'llanishi ham uchraydi. Bunday o'rinlarda holning ma'nosiga diqqat jalb qilinadi yoki uning ma'nosi ikkinchi o'ringa o'tadi: *Og'rar tünür barg'ah* (MK) — U ketmoqchi bo'lyapti. *Ältü kün taäm tapmaduq yegeli* (Nav.). *Käldi yügürüb* (QR). *Munar mänzer ämdi baytg'oqı* (QB) — Endi bunga o'xshaydigan baytni o'qi.

**16-§. Aniqlovchi va aniqlanmishning o'rinlashishi.** Hozirgi zamon o'zbek tilida sifatlovchili aniqlovchi har vaqt sifatlanmishdan oldin keladi, bu tartib nasriy asarlarda ham, she'riy asarlarda ham o'zgarmaydi. Ammo bu tartib eski turkiy tilda qat'iy bo'lgan emas: sifatlovchi sifatlanmishdan so'ng ham qo'llanavergan. Bu hol bunday sifatlovchiga diqqatni jalb etish, ma'nosini bo'rttirish uchun qo'llanadi yoki bu xil birikmalar umumiy bir tushunchani ifodalagan barqaror so'z birikmalar bo'ladi: *Yalavach tätig'ız* (QB) — Bama'ni elchi yubor. *Ish ezgü käräk* (QB) — Yaxshi ish kerak. *Tushunda nächä bolg'ay arg'ış küni* (QB) — Karvonsaroyda necha kun bo'ladi? *Tägmädi bu sav ushaq* (MK) — Menga bu mayda

gap tegmadi. *Tägdi oqi oldürür* (MK) — O'ldiradigan o'qi tegdi. *Idishchi arig'* (QB) — pokiza sharobchi.

Sifatlanmish *qamug'*, *barcha* olmoshlari orqali ifodalanganda belgisiz qaratqichning belgisiz qaralmishdan so'ng kelishi qat'iy me'yor bo'lgan: *Qamlar qamug' arvashdi* (MK) — Hamma sehr-garlar avrashdi. *Etim barcha ämrishdi* (MK) — Butun etim qichishdi. *Yoq ärsä bu g'aflat kishigä qamug'* (QB) — Bu hamma g'aflat kishida bo'lmasa edi.

XI asr yodnomalari tilida bu xil birikmalar keng qo'llanadi. Keyingi davr yodnomalari tilida ularning qo'llanishi kamayadi, eski o'zbek tilida esa deyarli uchramaydi: *Ajunda at äzgülü qozub* (HH) — Dunyoda yaxshi ot qoldirib. *Yär qarish xaläyiqdin xälü yoq erdi* (Rabg'.) *On ät ala, on ät qära, on ät boz* (QR). *Qufl altun* (Qissai Sayfulmulk). *Lavh altun. Qubba altun* (o'sha asar).

Qaratqichli aniqlovchi ham aniqlanmishdan so'ng kelishi mumkin: *Män ektish quluj män tabuqchi säniñ // yoluq bolsu janım İlikkä mäniñ* (QB) — Men sening xizmatkoring, uy qulingman. Ilikka mening jonim fido bo'lsin. *Özüm meniñ budursın* (MK) — Mening o'zim bedanaman.

Belgili qaratqichli aniqlovchining aniqlanmishdan keyin qo'llangan bunday birikmalari, asosan, she'riyat tiliga xos bo'lib, hozirgi zamon tilida ham qo'llanadi. Bunday birikmalar bilan bir qatorda, O'rta Osiyo turkiy tilida (asosan, XI asr yodnomalari tilida) belgisiz qaratqichli sintagma (qismlarning biri belgisiz bo'ladi) qismlarining ham o'rin almashganini ko'ramiz: *Tılı achsa ma'ni sözi bälgülük* (QB) — Til ochsa (gapirsa) so'zining ma'nosi belgili (ma'lum bo'ladi). *Mäniñdä jafası bu dünya señä* (QB) — Bu dunyoning jafosi mendan senga. *Tavar kimiñ ökülsä* (MK) — kimning moli ko'paysa. *Asıg' yoq aniñ* (QB) — uning foydasi yo'q.

Bu davr yozma yodgorligi tilida qo'shimchasiz qaratqichli sintagma (har ikki qismning belgisi bo'lmaydi) qismlarining o'rin almashishi muhimdir: *Asg'ı qanı ezgü qılqım* (QB) — Yaxshi xulqimning foydasi qani? *Asıg' yoq ögünch* (QB) — O'kunchning foydasi yo'q.

Qaratqichli sintagma qismlari orasida kesimning qo‘llanishi ham eski turkiy tilning o‘ziga xos xususiyatidir: *Meniŷ yoq saqinchi* (QB) — Mening g‘amim yo‘q. *Abadanniŷ xarab ol soŷi* (HH) — Obodonchilikning oxiri xarobalikdir.

### I. Tekshirish uchun savollar

1. *So‘z birikmalari turi. Tobe birikmalarning turi.*
2. *Tobe birikmalarning qadimgi turkiy va eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishi.*
3. *Turkiy izofa va uning O‘rta Osiyo turkiysi va eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishi.*
4. *Eganing qadimgi eski o‘zbek tilida qo‘llanishi.*
5. *Kesimning turlari va ularning qadimgi turkiy va eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishi.*
6. *To‘ldiruvchining qadimgi turk va eski o‘zbek adabiy tilida qo‘llanishi.*
7. *Aniqlovchining eski o‘zbek va hozirgi o‘zbek tilidagi turlari.*
8. *Holning qadimgi turkiy va eski o‘zbek adabiy tilida ifodalanishi va ma‘nolari.*
9. *Gap bo‘laklari tartibining o‘zgarishi va buning sabablari (O‘rta Osiyo turkiysi va eski o‘zbek adabiy tillari qiyosida).*

### II. Tayanch tushunchalar

*So‘z birikmasi, tobe va teng birikmalar. Forsiy va turkiy izofa. Gap bo‘laklari: ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol. Gap bo‘laklarining tartibi.*

## SODDA GAP

### Sodda gap turlari

**17-§.** Hozirgi zamon tilida darak, so'roq, buyruq, undov gaplar keng qo'llanadi. Yozma yodgorliklar tilida ham gaplar ana shu turlarga bo'linadi. Qadimgi va O'rta Osiyo turkiy tillarida ko'proq darak gaplar uchraydi, ikkinchi o'rinda so'roq gaplar va buyruq gaplar qo'llanadi: *ozi yarqilti, qag'anı elti, bodum kun qul bolti* (KT) — O'zi (yo'lidan) adashdi, xoqoni o'ldi, xalqi qul bo'ldi. *Elta buñ yoq* (KT) — Elda kamchilik yo'q. *Bilgä qag'an ermis, alp qag'an ermis* (KT) — Bilimdon xoqon ekan, bahodir xoqon ekan.

Darak gaplarning kesimi ko'pincha ot, sifat, son, olmosh, ravish va sifatdosh hamda ba'zan ravishdosh bilan ifodalangan.

Buyruq gaplarning kesimi buyruq fe'li bilan ifodalanadi: *Sabımın tügäti esitgil* (KT) — So'zimni tamom (to'liq) eshiting. *Bän yurdan-tayan tegäyin, türk sir bodun yärintä idi yorumazun, usar idi yoq-qusalum* (Toñ.) — Men sharqdan hujum qilay, sir turk xalqi yerida xo'jayinlik qilmasin, bu xo'jayinni iloji boricha yo'qotaylik. *Anı subug'baralıım* (Toñ.) — Ani suvi bo'ylab boraylik.

So'roq gaplar qadimgi turkiy tilda so'roq olmoshi orqali ifodalanadi: *Qag'anım qanı* (KT) — Xoqonim qani? So'roq yuklamasi orqali tuzilgan so'roq gaplar kam uchraydi: *Bar mu nä* (Toñ.) — Shunday bo'lishi mumkinmi?

Keyingi davr yodnomalari tilida so'roq gaplarning turli shakllari kelib chiqadi va rivojlanadi.

Undov gaplar yozma yodgorliklar tilida kam uchraydi: *Esizim tiriklik, esizim tiriklik* (QB) — Esiz tiriklik, esiz tiriklik! Undov gapning turli shakllari keyingi davrda vujudga keldi.

### Bir tarkibli gaplar

**18-§. Noaniq shaxsli gaplar.** Noaniq shaxsli gaplarda ma'lum bir harakat yoki holatning bajaruvchisi noaniq bo'ladi, bu xil

gaplarda umuman boʻladigan voqea-hodisalar ustida fikr yuritiladi. Shuning uchun ham noaniq shaxsli gaplarning kesimi uchinchi shaxs koʻplik shaklida boʻladi.

Bir tarkibli gaplarning bu turi qadimgi davrlardan beri qoʻllanib keladi: *Kishi tab ayurlar qayu ol kishi* (QB) — (Kimnidir) odam deb aytiladi, odam (oʻzi) kim. *Bichgʻas bitig qilurlar, Endgäy yämä berürler, Xandan basut tilärlär, Basmil chümül tirkäshür* (MK) — Ahdnomalar tuzishadilar, qasam ham ichadilar, Xondan yordam istaydilar. (Ammo) Basmil, chumul (qabilalari) toʻplanishmoqda. *Kim ol malsız ersä ol ärni körüb // yüz evrüb qacharlar yumub közlärin* (HH). *Täräk yığʻachu ma tämishlär* (Rabgʻ.) *Andın soñ farishtalik atın kötürdilər, Harut va Marut at bärdilär* (Rabgʻ.) *Haq malın küydürgänni deväna derlär* (Nav.).

Eski turkiy va eski oʻzbek tilida noaniq shaxsli gaplarning kesimlari koʻpincha *derlär* feʻli orqali ifodalanadi. Hozirgi zamon oʻzbek tilidan farqlanib, bu gaplarning kesimi baʼzan III shaxsning birlik shaklida ham boʻladi. *Yagʻısız kishi atı qopmaz teyür* (QB) — Dushmansiz kishining oti (shuhrati) koʻtarilmaydi, deyishadi.

Hozirgi zamon tilida noaniq shaxsli gaplarning turli shakllari qoʻllana boshladi (soʻzlashuv tiliga xos shakllar, feʻning birgalik nisbati shakli orqali ifodalangan kesimlar va boshqalar).

**19-§. Shaxssiz gaplar.** Egasi grammatik jihatdan ifodalanmagan shaxssiz gaplarning turli-tuman shakllari qadimgi davrdan boshlab qoʻllanib keladi.

1. Shaxssiz gaplarning kesimlari feʻning majhul shakli (kam uchraydi) orqali ifodalanadi: *Qurvi chuvach quruldı; Tugʻum tikib oruldı; Süsi otun oruldı. Qanchuq qachar ol tutar* (MK) — Xon chodiri qurildi, tugʻ tikilib, dovullar chalindi. (Dushman) askari (oʻtdek) oʻrildi. Qayoqqa qochsa ham, u tutiladi. *Küdäzilsä bu tıl küdäztlür ozuñ* (HH) — Tilingni tiysang, oʻzingni saqlaysan. *Yiligsiz soñäkkä sunulmas elik* (HH).

Eski turkiy va ayniqsa eski oʻzbek tilida nofaol shakldagi feʻllar keng qoʻllanadi, hatto, oʻtimsiz feʻllar ham passiv shaklga ega boʻladi: *ävgä barıldı; tagʻdın inildi* (MK); *chıqıldı* (BN).

Bu xil kam uchraydigan shaklli kesimlarning shaxsini *tomoni-*



*dan, tarafidan* ko‘makchilari bilan birga ifodalash eski o‘zbek tilidan boshlanadi (*Shahar Akbar tomonidan olindi* kabi).

2. Eski turkiy tilda shaxssiz gaplarning kesimi *-g‘u // -qu //* *-gü* shaklli harakat nomlari orqali ham ifodalangan; bunday harakat nomlari *käräk, er-, bol-* kabi yordamchi so‘zlar bilan birikadi yoki yolg‘iz qo‘llanadi: *Qatg‘lang‘u ashnu tl alg‘u käräk // bu tildin yag‘i qılqın bilgü käräk* (QB) — Avvalo mustahkam o‘rinlashib olib, til tutmoq kerak; bu tildan dushmanning holini bilib olmoq kerak. *Señä barg‘u ärse ätingil etig* (QB) — Sanga borish zarur bo‘lsa, tayyorlan. *Arı zahrı tatqu asaldın oza* (HH). *Yıraq turg‘u yumshaq deb ınanmag‘u* (HH).

Qadimgi va eski turkiy tilda sifatdoshning *-mish* shakli ham shaxssiz gapning kesimi bo‘lib kela oladi: *əpmish kerek* (MK). *Tälim körmishim bar* (QB) — Ko‘p ko‘rganim bor.

Shaxssiz gaplarning bunday turlari eski o‘zbek tilidayoq arxa-iklashadi, hozirgi zamon tilida esa qo‘llanmaydi.

Shaxssiz gaplarning kesimi *-maq // -māk* shaklli ish otlari bilan ham ifodalanishi mumkin. Bu xil shaxssiz gaplar, ayniqsa, eski o‘zbek tilida kengroq qo‘llanadi: *ətünmāk kergäk erdi, bardumuz* (O‘rx.-En.). *Ul kishini qutlug‘ evdin tashqari sürmäk keräk* (Nav., MQ).

Shaxssiz gaplarning bu turini qo‘llash tobora kengayadi. Hozirgi zamon tilida bunday birikmalar shaxssiz gaplarning asosiy qismini tashkil etib, kesim ko‘pincha ish otining *-(i)sh* shakli orqali ifodalanadi.

3. Tabiat hodisalarini ifodalovchi shaxssiz gaplar ba‘zan uchrab ham qoladi: *Qutlug‘qa qosha yag‘ar* (MK) — Baxtliga (yomg‘ir) qo‘sha yog‘adi. *Yag‘di* (BN) — *yomg‘ir yog‘di* ma‘nosida.

Shaxssiz gapning bu shakli hozirgi zamon tilida ishlatilmaydi. Hozirgi zamon tilida kishining ruhiy holatini ifodalovchi ayrim shaxssiz gaplar O‘rta Osiyo turkiy va eski o‘zbek tillarida keng qo‘llanadi. Bu xil gaplarning kesimi aniqlik mayli shaklida bo‘ladi: *oqıg‘u kälir; achlur көңul, avnur көңul* (QB) — o‘qigisi keladi; ko‘ngil ochiladi; ko‘ngil ovunadi. *Adamnıñ achıg‘ı keldi* (QR).

4. Eski turkiy tilning xususiyatlaridan biri shuki, bu tilda shaxssiz

gaplarning kesimi aniqlik fe'li orqali ham ifodalanavergan: *Azin kishi nāñi nāñ sanmas* (MK) — Begona kishining narsasi narsa sanalmaydi. *Ay tolun bolsa, ālgin imlāmās* (MQ) — Oy to'lin bo'lsa, qo'l bilan imlanmaydi (ko'rsatilmaydi).

Ergash gap kesimi vazifasida bo'lgan quyidagi shart fe'li va sifatoshlar hozirgi zamon tilida ham shaxssiz (kam uchraydi) fe'l ma'nosida qo'llanadi: *Toqishig' uzatsa, yag'i oġlānūr* (QB) — Urush cho'zib yuborilsa, dushman aqlini yig'ishtirib oladi. *Uqısa tatr tıl yemish dāk asal* (HH) — Uqsa, til asal yegandek tatiydi. *Qayu yārdā havag'a tayaq atsa, kishi bashıng'a inār erdi* (Rabg'.).

5. Shaxssiz gapning kesimi shart fe'lining *bol* — bog'lamasi bilan birikuvi orqali ifodalanishi mumkin. Bu xil shaxssiz gaplar eski turkiy va eski o'zbek tilida ham keng qo'llangan: *Tal erkān yıg'ach egsā tutsa bolur* (QB). *Anıñ yüzınā titinu baqsa bolmas* (MK) — Uning yuziga tik qarab bo'lmaydi. *Anar bersā bolg'ay yalavach atı* (QB) — Unga payg'ambar nomini bersa bo'ladi. *Mashriqdin mag'ribga tāy yürsā bolur erdi* (Rabg'.). *Umid közin yarutsa bolmas* (Nav., MQ).

**20-§. Shaxsi umumlashgan gaplar.** Bir tarkibli gaplarning bu turida ish-harakat umumga oid bo'ladi. Bu xil gaplarda grammatik ega ko'pincha ifodalanmaydi. Bu holat yozma yodgorliklar tilida ko'proq uchraydi. Eski turkiy tilda shaxsi umumlashgan gaplarning kesimlari ko'proq uchinchi shaxs shaklida bo'ladi: *Nāgü yārgü āksā yana ol olur* (QB) — Nimani yerga eksang, yana o'shani olasan.

Hozirgi zamon o'zbek tilida shaxsi umumlashgan gaplar ikkinchi shaxsga oid bo'ladi. Bu xil gaplar O'rta Osiyo turkiy tilda juda oz uchraydi (qadimgi turkiy tilda uchramaydi), eski o'zbek tilida qo'llanish doirasi nisbatan ko'payadi: ... *xayrg'a ishanma* (Nav., MQ).

Navoiy asarlarida shaxsi umumlashgan gaplarning kesimlari o'tgan zamon aniqlik fe'li orqali ham ifodalanganini ko'ramiz: *Har kimgä ki bir xızmat qıldın, on shiddatg'a muhayya turmaq keräk* (Nav., MQ).

**21-§. Atov gaplar.** Yolg'iz ega va ba'zan unga oid bo'laklar-

dan tarkib topgan bir tarkibli gaplar eski davrlardan boshlab badiiy va nazmiy asarlar tilida qoʻllanib kelgan. Bu xil asarlarda ular, asosan, sarlavhalarni tashkil etadi: *Muhammad Xoja beg sifati* (MN.). *Gʻazal. Səz bashi* (MN.). *Hikayat* (Rabgʻ.). *Qissa* (Rabgʻ.). *Sheʻr* (Rabgʻ.).

Hozirgi zamon oʻzbek tilida atov gaplarning turli koʻrinishlari kelib chiqdi va qoʻllanish doirasi kengaydi.

Bir tarkibli gaplarning boshqa turlari (vokativ gaplar, emotsional gaplar) ham yozma adabiyotlarda uchrab turadi: *Təzu tərť eshiñä tuman miñ salam* — Hamma toʻrt xeshlariga tuman ming salom. *Hayhat, hayhat, uyat, yüz miñ uyat* (Nav., MQ).

**22-§. Toʻliqsiz gaplar.** Toʻliqsiz gap — biror boʻlagi shaklan ifodalanmagan oʻziga xos gap turidir. Bunday gaplarning toʻliqsizligi shaklan boʻlib, mazmunan ular toʻliq boʻladi, biror gap boʻlagining yoʻqligi sezilmaydi.

Toʻliqsiz gaplar qadimgi yozma yodgorliklar tilida keng qoʻllanadi, uning turli-tuman shakllari koʻp uchraydi.

Toʻliqsiz gaplar ikki xil vaziyatda: qoʻshma gap tarkibida va mustaqil shaklda uchraydi. Qoʻshma gap tarkibida qoʻllangan toʻliqsiz gaplar, odatda, ikkinchi qismni tashkil etadi va bu xil gaplar tarkibidagi u yoki bu boʻlakning tushib qolgani qoʻshma gapning birinchi qismidan ayon boʻlib turadi: *Osal yanluq ogʻli ogʻush neñ tärär // nägüge, tegär-mu — saqımaz bir* (QB) — Gʻofil odam bolasi koʻp narsa yigʻadi, (ammo bu narsalar) nima uchun (kerak), (oʻziga ular) tegadimi — biror (marta kishi bu haqda) oʻylamaydi.

Eski turkiy tilda koʻpincha toʻliqsiz gapning egasi ifodalanmaydi, ega qoʻshma gapning oldingi qismlaridan yoki mazmundan ayon boʻlib turadi: *Isig yüzlüg ol, kər qamugʻqa sevüg* (QB) — (U) issiq yuzlidir, (u) hammaga sevimli. *Bu sözgä xat bitdi, tanuq qıldılar, beldilär* (QB). *Kächür sän yaraqlıq seniñdin mañar* (QB) — Sen (meni) kechir, sendan menga yaroqli (ish shudir).

Keyingi davr yodgorliklarida va ayniqsa, hozirgi zamon tilida bu xil gaplarda gap boʻlaklarini (ayniqsa egalarni) toʻliq ifodalashga intilish seziladi; bunda qoʻshma gapning ikkinchi qismida ega aynan takrorlanadi yoki olmosh bilan almashadi.

To'liqsiz gap yolg'iz egalardan tarkib topadi. Bu xil to'liqsiz gaplar qo'shma gapning birinchi qismini tashkil etadi: *Biri soz eshitsa qati q tutsa bark* (QB) — Biri (shuki), (biror) so'zni eshitsa, (uni) mahkam tutsa (sir saqlasa). *Taqi bir sabab qolsa og'lan bilig* (QB) — Yana bir sabab (shuki), o'g'lon bilimni istasa...

Bunday to'liqsiz gaplarni ham to'liq shaklda ifodalashga intilish seziladi.

Kesimlari ifodalanmagan to'liqsiz gaplar ham qadimgi turkiy tilda keng qo'llanadi. Odatda *bar, karak, bol, turur* kabi mavjudlik ifodalovchi so'zlardan ifodalangan kesimlar yashirinadi: *Koru barsa tekma ishinde xatar* (QB) — Qarasang, hamma ishda ham xatar (bor).

Yolg'iz qo'llanuvchi to'liqsiz gaplar, odatda, hikmatli ibora, tabiat hodisalari, hayotiy voqealarni ifodalovchi gaplar shaklida bo'ladi: *Bu eki bila arän qiymati* (QB) — Bu ikki (narsa) bilan kishilarning qiymati (bilinadi). *Dahr behayalari zulmıdın fig'an va faryad* (Nav.).

Bu xil to'liqsiz gaplar birikib qo'shma gapni ham tashkil etadi: *Tatig' kozra, tikänig tübra* (MK) — Tatning ko'ziga, tikanning tubiga (ur). *Tatig'qa tatig'sız süchügg achig'* (QB) — Yoqimliga yoqimsiz, shiringa achchiq (keladi).

Dialog turidagi to'liqsiz gaplar qadimgi turkiy va O'rta Osiyo turkiy tilda kam uchraydi, bu xil gaplarning ba'zi sodda shakllari eski o'zbek tilida qo'llanadi.

### Ajratilgan bo'laklar

Gapning ajratilgan bo'laklari tilda ko'p zamonlardan beri qo'llanib keladi. Ajratilgan bo'laklar fikrni to'liq va ifodali bayon qilish uchun ishlatiladi. Bunday bo'laklar, asosan she'riy asarlarda, ba'zi turlari nasriy asarlarda ham qo'llanadi. Ajratilgan gap bo'laklari o'rinishi, tuzilishi va ma'nosiga ko'ra ajralib turadi.

**23-§. Ajratilgan sifatlovchilar.** Ajratilgan sifatlovchilar eski turkiy til namunalari bo'lmish she'riy asarlarda uchraydi. Ajratilgan sifatlovchilar o'z sifatlanmishlaridan keyin qo'llanadi, ko'p o'rindlarda sifatlovchi va sifatlanmish orasida boshqa gap bo'laklari

ham bo'ldi: *Kechtiy yazi kärük, qırlar äziz bözük* (MK) — Keng saholardan, baland, buyuk qırlardan o'tding. *Chibun boldı dushman yanänqa bözük* (QB). — Chibin buyuk filga dushman bo'ldi. *Üch beläk bolub yıbardı aq, qızıl, qara* (QR).

Nasriy asarlarda ko'pincha shaxs nomini izohlovchi *atlı* so'zi bilan birikkan murakkab sifatlovchi ajratiladi: *Ol tag'da qavl (bar) erdi Kaina atlıq* (QR). *Duyli qayınıñ bir yaqın qarındashı bar erdi Erki atlı* (Sh.tar.).

**24-Ş. Ajratilgan izohlar.** Gapning boshqa ajratilgan bo'laklariga nisbatan ajratilgan izohlar yozma adabiyotda ko'proq qo'llanib kelgan. Ayniqsa, "Qutadg'u bilig"da ajratilgan izohlovchili birikmalar ayrim shaxslarni ta'riflash, izohlash uchun alohida uslubiy usul sifatida keng ishlatiladi: *Bu Ay Toldı eshin kechürdi Ilik* — Bu Oy To'ldi do'sti to'g'risida o'yladi Ilik (QB). *Turu qaldı og'lum — bu bag'ım otı* (QB). *Ali tertilänchi ol — ärsig toña* (HH). — Ali — to'rtinchisidir — pahlavon, shijoatli. *Tört payg'ambar tirik tururlar, ikisi kökdä: Isa va Idris, ikisi yärdä: Xızır, İlyas al-m (Rabg'). Chu har kim kelür yä zaif yäki er // nadamat bilä neñä afsus yer* (Nav., CHD).

Kishilik olmoshlariga oid ajratilgan izohlar ham qadimgi yozma yodgorlikda qo'llangan. Ular subyektni ta'riflash va izohlash uchun xizmat qilgan: *Yoluq qılsu täñri säñä män qulug'* (QB) — Xudomen, qulni, senga fido qilsin. *Münu men atası elur-men bu kün* (QB). Bunday birikma, ayniqsa eski o'zbek tilida keng qo'llanadi: *Men bechärag'a bergil* (Nav., CHD). *Men bechäranı* (SHN).

Qadimgi turkiy tilda kishilik olmoshiga oid izohlovchi bo'lak olmoshdan oldin ham qo'llangan: *Tär Apa ichreki bän bäh yägirmi yashda alınmışım* (Yenisey yodgorligi). — Men, Ter Apa ichraki, o'n besh yoshimda qo'lga olindim.

Ajratilgan izohlarning boshqa bir guruhi o'rin yoki paytni va boshqa tushunchalarni izohlaydi: *Ilgärü, kün tog'sık-(q) a, birgärü, kün ortu sıñaru, qurıqaru kün batsıqına yırg'aru, tun ortu sınaru anta ichräki bodun qop m/aña kerür, anch/a bodun qop itdim* (QT) — Oldında — kun chiqarda, o'ngda — kun o'rtasi (mamlakati)da, orqada — kun botishda, chapda — tun o'rtasi (mamlakati)da

yashaydigan ko'p xalqlar menga qaram, shuncha ko'p xalqlarni o'rnatyordim. *Tag' boshida Tārān murān arasıda y(a)qshi berik balduqqa yumshadı* (O'N) — Tog' boshida Terang daryosi orasida yaxshi mustahkamlangan shaharga yubordi. *Bechkem urub atlaqa, Uyg'ur daqi tatlaqa, Og'ri yavuz itlaqa, Qushlar kebi üchtimiz* (MK) — Otlarga tamg'a urib, uyg'ur va tatlarga — o'g'ri, yovuz itlarga qarshi qushlardek uchib yurish qildik. *Bizni besh narsadan yig'mish erdi: qan tokmädin, rishvat almaqdin, xamo ichmädin, küch tägurmädin, bu qamuqni qilduq* (Rabg').

Bu xil ajratilgan izohlarni ba'zan *ya'ni* so'zi yordami bilan kiritiladi: *Chaman farrashi, ya'ni tañ nasimi, gulafshānliq qılır bostān ichindä* (MN.). *Hibatilla temek bolur, ya'ni teñri atası* (Rabg').

Hozirgi zamon tilida ajratilgan bo'laklar turli ko'makchilar yordami bilan keng qo'llanadi. Yozma yodgorliklar tilida ko'makchilar yordami bilan gap bo'laklarini ajratish juda kam qo'llanadi. Bu vazifada, asosan, *körü //körä, azın* (boshqa), *käbi* ko'makchilari ishlatilib, bunga misollar ham juda kam uchraydi: *eshitmäk yig ol sevlämäktä körü* (QB) — So'zlashdan ko'ra, eshitmoq yaxshidir. *Muñja körä alar bilä... bolmaq kāräk* (QB). *Kämädägi musulman kishidin azın alam ichindä hech kim ärsä qalmadı* (Rabg'). *Evä ishlämä ish magar din ishi* (QB) — Din ishidan tashqari (boshqa har qanday) ishda shoshilib ishlama.

### Sifatdosh qurilmalari

25-§. Sifatdosh tilda eng ko'p qo'llanib kelgan so'z turi bo'lib, u gaplarni yoki ma'lum nutq qurilmasini tuzishda yetakchi bo'lak bo'ladi. Sifatdosh eng qadimgi so'z turi bo'lib, u turli fe'l shakllarining kelib chiqishiga asos bo'ladi. Masalan, hozirgi o'zbek tilidagi *ol-a-man* fe'li sifatdoshdan va ravishdoshdan kelib chiqqan: *ol-a-man* <*ol-a-dur-man* < *ol-a-tur-ur-man*. Shuningdek, *-di* shaklli o'tgan zamon aniq fe'li ham qadimda sifatdosh bo'lgan: uning sifatdoshlik xususiyati XI asrgacha saqlanib kelgan: *qazındı tuproq* — qazilgan tuproq, *tamındı suv* — tomgan suv (MK). Hozirgi *-gan, -ar* shaklli so'zlar ham sifatdoshlik, ham fe'llik vazifasida

qo'llanadilar, ular o'tkinchi bir davrni boshdan kechirmoqdalar. Sifatdoshning fe'llik xususiyati juda qadimgi davrlardan boshlangan. Qadimgi turkiy tildayoq uning fe'llashgan shakllarini ko'ramiz.

Sifatdosh hol va to'ldiruvchi kabi gap bo'laklarini (hamda ularga qarashli bo'lgan gap bo'laklarini) boshqarib, ma'lum bir nutq qurilmasini tashkil eta oladi. Qadimgi turkiy tilda sifatdosh mustaqil gaplarni ham tashkil eta olgan. Masalan, *Men ya qurduq, biz ya qurduq, ol ya qurduq* (MK) — Men yoy yasadam, biz yoy yasadik, u yoy yasadi. *Og'ln, kishisin utuzmaduq* (MK) — o'g'lini, xotini ni yutqizmadi.

Sifatdosh ergash gaplarni tuzishda ham xizmat qiladi ("Qo'shma gap" bobiga qarang). Sifatdosh ko'pincha fe'l birikmalarini — qurilmalarni tashkil qiladi. Sifatdosh qurilmasining qo'llanishi tobora orta boradi. Hatto, ular ba'zi sintaktik birikmalar o'rnini ham egallaydi. Masalan, *kim bog'lovchisi bilan tuzilgan ayrim gaplar yoki birikmalar sifatdosh qurilmasi bilan almashadi: O'zgardnuq kim, burun Farg'ananiq paytaxti ul ekandur, yaxshi qorg'ani bar* (BN) — Burun Farg'onaning poytaxti bo'lgan O'zgardning yaxshi qo'rg'oni bor.

**26-§. Sifatdosh qurilmasi taraqqiyoti tarixidagi o'zgarishlar.** Til taraqqiyoti jarayonida ba'zi sifatdosh shakllari iste'moldan chiqdi, ba'zilarida shakliy va semantik o'zgarishlar ro'y berdi, ayrimlarining qo'llanishi toraydi yoki kengaydi.

*-g'uluq, -si g', -g'alir, -g'ma, -tachi, -di, -duq* shaklli sifatdosh qurilmalari XII–XIII asrga kelib, deyarli qo'llanmaydi. Bular ichida *-duq* shaklli sifatdosh qurilmasi tilda keng qo'llanib kelgan, bu xil qurilmalar XIII asr yodnomasi "Qissasi Rabg'uziy" da ham uchraydi.

Qadimgi turkiy tilda *-duq(-duk)* shaklli sifatdosh turli kelishik yoki ko'makchi hamda ko'makchi vazifasidagi so'zlar bilan birikib, to'ldiruvchi va holni boshqargan. Yozma yodgorliklarda bunday birikmalar keng qo'llangan: *Tegdükni türk bağlar qop bilirsiz* (KT) — Turk beklari (ning yovga) tegishini (hujumini) yaxshi bilasiz. *Buncha isig küchig bærtükgär saqınmatı* (KT) — Buncha ishi va kuchini berishni o'ylamadi. *Yag'ru qontuqta kisrä ayig'*

*bilig anta öyür ermis* (KT) — Yaqin qo‘ngandan keyin yomon niyat qildilar.

Qadimgi turkiy til uchun bu xil sifatdoshning bosh kelishikda kelishi, sifatdosh qurilmasini tashkil qilishi xarakterlidir: *Yag‘i bolip itinu yaratunu umaduq yana ichikmis* (KT) — Yov bo‘lib, (biror narsa) qila olmay (va) yarata olmay, yana (ular) bo‘ysundi.

Bu xususiyat keyingi davr yodnomalarida ham juda kam ko‘ri-nadi. Ammo ilk eski turkiy tilda *-duq* shaklli sifatdosh turli kelishik va ko‘makchilar bilan birikib, sifatdosh qurilmasini tashkil eta olgan: *Saqish bärdukündä elir bashchilar* (QB) — Hisob berganda (adashsa), boshliqlar o‘ladi. *Əzi bilmädükin anıñdın qulur* (QB) — O‘zining bilmaganini undan so‘raydi. *Biliglik, uqushlug‘ tedükün üchün anı arzuladım* (QB) — Bilimli, aqlli deganing uchun, uni (ko‘rishni) orzu qildim.

Bu sifatdosh egalik affiksini olganda ega yoki kesim vazifasida keladi, u boshqargan bo‘lak bosh kelishik shaklida bo‘ladi: *özüm yigläduki bu qulluq atı* (QB) — Mening yaxshilaganim (maqtaganim) — qullik otidir. *Achiq bolg‘a yarın qozub bardug‘uñ* (HH) — Ertaga tashlab ketishing achchiq bo‘ladi.

Keyingi asr yodnomalari (“O‘g‘uznoma”, “Tafsir”, “Qissasi Rabg‘uziy”) tilida bu sifatdosh qurilmasi juda kam qo‘llanadi: *Anı kerdüktä əzi qalmadı* (O‘N) — Uni ko‘rib, o‘zidan ketdi. *Makka achılduq kün boldı* (Taf.) — Makka ochiladigan kun bo‘ldi. *Tirilib va‘da qılduqım yärgä kälgänlär* (Taf.) — To‘planib, va‘da qilgan joyimga kelishganlar. *Farishta erdükin Idris bilmädi* (QR) — Farishta ekanini Idris bilmadi.

Ko‘rinadiki, *-duq* shaklli sifatdosh qurilmasi o‘rnini ravish-dosh yoki harakat nomi qurilmalari egallaydi. O‘rta Osiyo turkiy tilida eng ko‘p qo‘llanadigani *-ar*, *-mısh*, *-g‘u* shaklli sifatdosh qurilmalari edi. Eski o‘zbek tilida esa *-ar*, *-mısh*, *-gan* shaklli sifatdosh qurilmalari ko‘proq ishlatiladi.

Sifatdosh qurilmasining quyidagi turlari qadimgi yozma yodgorliklardan boshlab hozirgacha qo‘llanib keladi. O‘z taraqqi-yotida bu xil sifatdosh qurilmalari ba‘zi bir shakliy va mazmun o‘zgarishlariga uchradi.



27-§. -gü shaklli sifatdosh qurilmasi. Sifatdosh qurilmasining bu turi qadimgi turkiy tilda juda kam qo'llangan: O'rxun va Tonyuquq yodnomalari tilida uchramaydi, faqat turfon matnlarida ba'zi o'rinlarda uchraydi: *səzləgü teg* (TT), *kərg üçün* (TT), *ezgü üzä* (TT) — yaxshilik ustida.

-g'u shaklli sifatdosh qurilmasi O'rta Osiyo turkiy tilida keng qo'llangan. Bunday sifatdosh qurilma to'ldiruvchi va holni boshqarib, shaklan bosh kelishikda keladi hamda hol, aniqllovchi, kesim, ega vazifasini o'taydi: *Kishi alg'u tug'sa og'ul qiz əgüş* (QB) — Xotin olganda, ko'p o'g'il-qiz ko'rsa. *At kuzeg og'ur* (MK) — Ot poylaydigan vaqt. *Ag'iz əchg'u vaqt boldı* (Rabg'). *Yazug'um əgüş tep umunch kəsməgü* (QB) — Gunohim ko'p deb umidingni uzma. *Yalavach tedügüm bu tilchi turur* (QB) — Elchi deganim — tilchi bo'ladi. *Baluqni qatag'lag'u kərək* (O'N) — Shaharni mustahkamlash kerak. *Səhə jashag'u bolsung'ıl uzun* (O'N).

Sifatdosh qurilmasi tushum (belgili yoki belgisiz), jo'nalish, o'rin, chiqish kelishiklarining birida kelib, to'ldiruvchi vazifasini o'taydi: *əgdülmish qara 'am bilä nətək qatılğ'usın ayur* (QB) — O'gdulmish qora omiy xalq bilan qanday aloqada bo'lishini aytadi. *Ana atalg'u tilädi* (O'N) — Unga qarshi o'tlanishni tiladi. *Bilig bilgügä bir tılın yorsa táb* (QB) — Bilimini bilib olish uchun, bir marta gapirishi kifoya. *Käminin quzruqtın tutğ'ug'a kimärsänin quvvati yätmäs erdi* (Rabg'). *Qari bolğ'umdan mänin qag'azluğ'um yoq turur* (O'N) — Qari bo'lganim sababli, bahodirlicim yo'q.

Sifatdosh qurilmasi ko'makchi bilan ham birikishi va hol, kesim yoki aniqllovchi vazifasida kelishi mumkin: *Bug'daydın yädiler... chıqmaqqa sabab bolğ'u üçün* (QR). *Kəb qushlar avlag'ularıdan soñ* (O'N). *Halak qılğ'udäk boldı* (QR). *(Yag'murnın) təkma bir qatrası tegirman yürütgüchä suv erdi* (Rabg').

-g'u shaklli sifatdoshning egalik affiksini olgan shakli esa turkiy tilda keng qo'llanadi. Bu shakldagi sifatdosh qurilmasi ega, kesim yoki to'ldiruvchi vazifasini o'taydi, bunda u aniqllovchi (qaratqichli), hol, to'ldiruvchini boshqarib keladi: *Bizın kalgümüzni kuzäzib yatur* (QB). *Sözüg əggüsi bar yämä səkgüsi* (QB) — So'zning

maqtaydigani ham, so'kadigani ham bor. *Dunyada adamiyniñ yämi bug'day bolg'usi* (QR). *Nuh vaqtındaqı abadanlıq qıyamatqa tegü bolg'usi yoq* (Rabg').

Eski o'zbek tilida *-g'u* shaklli sifatdosh qurilmasi kam qo'llanadi. Bu sifatdosh egalik affiksini olib, kesim vazifasida keladi: *bärgüsän kim* (Nav., CHD); *etmägüm* (Nav., CHD); *har sarng'a elchiläri barg'usıdur* (SHN).

Hozirgi zamon tilida *-g'u*, *-gü* shaklli sifatdosh *körgim kälädi*, *barg'usi yoq* kabi frazeologik birikmalarda va *säni körgüdek ahvälü yoq* kabi birikmalarda saqlanadi.

Bu sifatdosh qurilmasining turli shakllari hozirgi zamon tilida aniqlik fe'li bilan, *-gan* shaklli sifatdosh qurilmasi bilan, harakat nomi yoki ravishdosh qurilmasi bilan almashdi.

**28-§.** *-mish* shaklli sifatdosh qurilmasi. *-mish* shaklli sifatdosh qadimgi turkiy tilda keng qo'llanadi. U asosan, kesim vazifasida keladi. Bosh kelishik shaklidagi *-mish* shaklli sifatdosh qurilmasi aniqllovchi vazifasini bajaradi: *ögim qatunıg' kötürmiş teñri* (KT). Ba'zan sifatdosh qurilmasi otlashganda ega vazifasida kelishi mumkin: *Anta qalmışı... yon yur ertig* (KT) — Unda qolgani yurar edi.

Bu sifatdosh qurilmasi tushum yoki jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olishi mumkin. Bu holda sifatdosh qurilmasi to'ldiruvchi vazifasini bajaradi: *Nañ* (bu kishi) *belgüüg utquraq tüşinä tägmışlärin iti körtüküm yoq erti* (Oltun yoruq) — Bunday kishilarning aniq va tabiiy qasosga duchor bo'lishlarini aniq ko'rmagan edim. *Men tirilmışgä sizler nelük ancha käd qacharsızlar* (Suvr.) — Mening tirilganimga sizlar nega shuncha shoshilib qochasizlar.

Sifatdosh qurilmasi ko'makchi (*üchün, kin, teg*) bilan kelganda to'ldiruvchi va hol vazifasida qo'llanadi: *Budun ara bolmışın üchün älig uyamg'a adırılıtm* — (begona) xalq orasida bo'lganim uchun, ellik qardoshimdan ayrildim. *Bärmıştä kin* (Suvr.); *tug'mışıg' täg* (TT).

Eski turkiy tilda ham *-mish* shaklli sifatdosh ancha ko'p uchraydi. Bosh kelishik shaklida sifatdosh qurilmasi aniqllovchi, hol

va ega vazifasida keladi: *Sen öz bilmishin sözni aydin* (QB). *Qarin achmish özgä yüzi kersä ash* (QB) — Qorni ochgan kishiga uning yuzini ko'rsa, osh bo'ladi. *Ozag'i urulmish masal* (HH) — Oldin aytilgan masal. *Tutmish säni umnalim* (MK) — Uni tutgan deb o'ylaylik. *Yüzlärin qaramish kördilär* (QR). *Aydilar körmishimiz, eshitmishimiz yoq teb* (Taf.).

Tushum, jo'nalish, o'rin kelishigi shaklidagi sifatdosh qurilmalari to'ldiruvchi vazifasida keladi: *Ayu bärdim ämdi köñül bulmishin* (QB) — Endi ko'ngil topganini ayta berdim. *Kech qalmishin qorqub sözlâyümäs* (Rabg'.) — Kech qolganidan qo'rqib so'zlay olmaydi. *Usub suvsamishqa körib qang'usuz* (QB) — Suvsab chanqaganlarga (u) ko'rib qong'usiz. *Terätmishdä yoq, bil, anja tush tenä* (HH) — Yaratilganda unga teng yo'q, bilgin. *Eshitgil bir g'azal yar ishlärindin // Muhammad Xoja bäg aymishlarindin* (MN).

Ko'makchi bilan birikkan sifatdosh qurilmasi hol vazifasida keladi: *Mäjä kälmişindä baru men bu kün tabug'din käsildim* (QB) — Menga kelganingdan beri men bu kungacha xizmatdan ayrildim. *Anıñ yormishi tek sözi kälsä tüş* (QB) — Uning yo'yganidek tush to'g'ri kelsa. *Kemidin chiqmishın son, yılan kälüb* (Rabg'.). *Yaratmishdın burun. Ökush dars qilmish üçün Idris atandı* (Rabg'.).

Hozirgi zamon o'zbek tilida *-mish* shaklli sifatdosh qurilmani tashkil etmaydi. Qadimgi va eski turkiy tildagi bu xil qurilmalar *-gan* shaklli sifatdosh qurilmasi orqali ifodalanadi.

**29-§.** — /a/ r// -s shaklli sifatdosh qurilmasi qadimgi davrlardan boshlab qo'llanib keladi.

Qadimgi turkiy tilda *-r /-s- -z* shaklli sifatdosh qurilmasi bosh kelishik shaklida aniqlovchi yoki hol vazifasida keladi: *Isig küchig bärür buncha törüg qazg'anıp inim Kultegin kergäk boltı* (KT) — Ishi va xizmatini berib, shuncha hokimiyatni qozonib, inim Kultegin o'z ajali bilan o'ldi. *Bilig bilmaz kisi ol sabıg' alıp* (KT) — Bilim bilmas kishi ul so'zni qulog'iga olib.

Ba'zan bu sifatdosh *teg* ko'makchisini oladi: *Kerür közüm körmaz täg boltı* (KT).

*-r // -s* shaklli sifatdosh qurilmasining kelishik affikslari yoki

ko'makchilar bilan birikishi qadimiy turkiy tilda uchramaydi, bu sifatdosh, asosan kesim bo'lib keladi. Eski turkiy tilda bu xil sifatdosh qurilmalari keng qo'llanadi, turli kelishik shakllari va ko'makchilar bilan birikib kela oladi.

Bosh kelishik shaklida sifatdosh qurilmasi aniqlovchi, ba'zan hol vazifasida keladi: *Sü bashlar är* (QB) — Qo'shin boshlaydigan kishi. *Burun bashqa bærkni kiyär bash käräk* (HH) — Oldin boshga qalpoqni kiyadigan bosh kerak. *Talay turur yärni urug'unğ'a berdürsün* (O'N) — Talab turgan (bosib olgan) yerni urug'ingga berdirsin. *Roza achar vaqt boldı* (QR). *Adamlarg'a g'arq bolur qorqunchı boldı* (QR): *Qarlug'ach (singak) ag'zın ızlar bolub, tili-ni uzub aldı* (Rabg'.).

**-r //-s** shaklli sifatdosh tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari qo'shimchalari va ko'makchilar (*burun, dek*) bilan birikib hol yoki to'ldiruvchi vazifasida keladi: *Kishi qayda elärin bilsa bolmas* (MN.) *Andag' qılurın bildi ärsä* (Rabg'.). *Bu ajun kørärgä kørumluk tashı* (HH). *Qabuqta chıqarda* (QB). *Atasınñ eligin tutub yürürdä Qabil otru kaldi* (QR). *Yazar qol quchar dek* (HH) — Yozilgan qo'l quchoqlaydigandek. *Allahi, biz ädamni yaratmazdın burun degänimiz kim* (Rabg'.).

Eski turkiy tilda ham bu shakl kesim vazifasida keng qo'llanadi. Eski o'zbek tilida **-r //-s** shaklli so'z hozirgi-kelasi zamon fe'li va sifatdosh vazifasida oldingi davrga nisbatan ham keng qo'llanadi. Sifatdosh qurilmasi sifatida bosh kelishik shaklida aniqlovchi vazifasini boshqa kelishik va ko'makchilar bilan to'ldiruvchi va hol vazifasini o'taydi. *Bu yärgä kältürür af'aldın yıraq tutsun* (Nav., MQ). *Ekin ekär yäri yoq erdi* (Sh.tar.). *Dam urmas shahrig'a kirdi* (Sh.tar.). *Sarf qılurın bilmädi* (Nav., MQ). *Sänñ bilürñni eshitib tururlar* (Sh.tar.). *Nä yärdin turarg'a qalıb täqatın* (Nav., CHD). *Anga yetärdä bedädu sitam* (Nav., MQ). *Suvnu yildam barurıdın muz bag'lamaydur* (BN). *Fäydalıg' sözın köb äshitürdin qaytma* (Nav., MQ). *Sabz bolur üçün shahri sabz ham derlär* (BN).

Tarixiy yozma yodnomalarda qo'llanib kelgan sifatdosh qurilmalari hozirgi zamon o'zbek tilida **-digan, -ayotgan, -gan, -mas**

shaklli sifatdosh yoki harakat nomi qurilmalari orqali ifodalana-  
di.

**30-§.** **-gan** shaklli sifatdosh qurilmasi. Sifatdosh qurilmasi-  
ning bu turi hozirgi zamon o‘zbek tilida keng qo‘llanadi, bu shakl  
sifatdosh qurilmasi shakllarining o‘rnini ham egallagan.

Sifatdosh qurilmasining bu shakli qadimgi turkiy tilda  
ishlatilmaydi. O‘rta Osiyo turkiy tili namunalari bo‘lmish “Qutad-  
g‘u bilig” va “Devonu lug‘atit-turk”da **-gan** shaklli sifatdosh  
qurilmasi juda kam, “Hibatul haqoyiq”da birmuncha ko‘proq,  
“Qissasi Rabg‘uziy”da esa ancha keng qo‘llangan. Bosh kelishik  
shaklidagi sifatdosh qurilmasi aniqlovchi yoki ega vazifasida keladi:  
*Suvqa chomgän är* (MK); *özün tutqan är* (QB); *Kitabımnı körgän,*  
*äshitgän kishi* (HH). *Altun birlä zarbap qılg‘an xil‘atlar kiygürdi*  
(QR).

“O‘g‘uznoma”, “Muhabbatnoma” va “Qissasi Rabg‘uziy” asar-  
larida bu xil sifatdosh qurilmasi tushum kelishigida kelishi ham  
mumkin. Bunda sifatdosh qurilmasi to‘ldiruvchi vazifasini o‘tay-  
di: *Tüshtä körgänin bildürdi* (O‘N). *Hiyalıñ közdä uchqanın*  
*bilürmän* (MN.) *Suv uzä ördäk yüzgänin körgüzdi* (Rabg‘.).

Eski o‘zbek tilida, ayniqsa, hozirgi zamon tiliga yaqin bo‘lgan  
“Shajarai tarokima”da **-gan** shaklli sifatdosh qurilmasini qo‘llash  
yana kengayadi, turli kelishik (qaratqich, o‘rin, chiqish  
kelishiklari) qo‘shimchasini ham oladi, ba’zi ko‘makchilar bilan  
ham birikadi.

Sifatdosh qurilmasi bosh yoki qaratqich kelishikda kelib,  
aniqlovchi yoki ega vazifasini o‘taydi. *Bizniñ aytg‘an sözimizni*  
*bilsälär* (Sh.tar.) *Yañıkäntdin kätib Urganchda olturg‘an elniñ ichigä*  
*käldi* (Sh.tar.) *Mäni tegän mengä keliñ, ätamnı tegän ätamg‘a bärniñ*  
(Sh.tar.) *Tegräsigä yavumag‘an yaxshıraq* (Nav., MQ). *Og‘uz xäniñ*  
*xän bolg‘anıniñ zikri* (Sh.tar.).

Sifatdosh qurilmasi tushum, o‘rin, chiqish kelishigida bo‘lib  
yoki ko‘makchi bilan birikib, to‘ldiruvchi yoki hol vazifasida ke-  
ladi: *Agar atası musulman bolg‘anın eshitsä* (Sh.tar.) ...*Kimniñ*  
*bolg‘anıñ va kimniñ bolmag‘anın bilmäy tururmiz* (Sh.tar.). *Majli-*  
*sig‘a giriftar bolg‘anıniñ qutulmag‘ı nāmumkin* (Nav., MQ). *Qarıg‘an*

*chāqında Makkaga barb* (Sh.tar.). *Anıñ buyurgʻanındın özgä ishni qılmagʻıl* (Sh.tar.). *Bir sagʻar may bergändin qadah-qadah hunāb yutmaq keräk* (Nav., MQ). *Anıñ etub ketgändin kəñüldä dagʻ-dagʻa tüşti* (BN). *Kishi özini yasagʻan bilä bolur-mu ashiq* (Nav., MQ).

Hozirgi oʻzbek tilidagi *-/a/ yotgan* shaklli sifatdosh qurilmasi eski oʻzbek tilida uchramaydi, *-digan* shaklli sifatdosh qurilmasi esa oʻzining asl shaklida eski oʻzbek tilida (Navoiydan boshlab) qoʻllanib keladi: *Kəñülgä yazgʻum kelädurgʻan bolsa* (Nav., MQ). *Āsh tārtadurgʻan yerdä* (BN). *Qılaturgʻan boldı* (SHN). *Turkmenniñ tarix biläturgʻan yaxshıları* (Sh.tar.).

### Ravishdosh qurilmalari

**31-§.** Ravishdosh qurilmasi bizga maʼlum boʻlgan qadimiy yozma yodgorliklar tilida ham qoʻllangan.

Tarixiy taraqqiyot natijasida ravishdosh qurilmalarining mazmunida, ravishdosh shakllarida maʼlum oʻzgarishlar roʻy berdi: yonma-yon, maʼnodosh ravishdosh qurilmalarining bir shakli qolib ketdi (*-b* va *yu*), ayrim ravishdoshlar qurilma tuzishdan chiqdi (*-a*), baʼzilarining mazmunida oʻzgarishlar roʻy berdi.

Qadimgi yozma yodnomalar tilida koʻp oʻrinlarda ravishdosh qurilmasini sifatdosh qurilmasidan farqlab olish qiyin; bu hol ravishdoshning sifatdoshdan shakllanishi va bu shakllanishning u davrda ham tugallanmaganligidan dalolat beradi (*-gänchä // -günchä gän+chü; -gäch -gan+chogʻ; -gäli<gan+li*). Hatto baʼzi ravishdoshlar kelishik affiksi bilan turlanadi: *Andan soñ ertä bolupta aqalärni inilärni charlap kältürdi* (OʻN). *Shadiyāna ul arā chälgʻachdın; Qalʻadın xalq tävush älgʻachdın* (SHN).

Eski oʻzbek tilida *-matı, -matın, -mayın* va *-u //yu* shaklli ravishdosh qurilmalari, asosan, qoʻllanmaydi. Ammo Oʻrta Osiyo turkiy tilida keng ishlatiladi. Misollar: *Sabın almatın* (KT) — soʻzini olmay. *Biligsiz ne aysa aytu uqmatın* (HH) — Bilimsiz nima desa bilmay aytadi. *Erkāk bəri yürümäyin turdı* (OʻN). *Sajda qılmayın turub turur* (QR). *Kultegin ebig bashlayu qıtımız* (KT) — Kulteginni uy boshligʻi qilib qoldirdik. *Atımni eshidu birlä* (Suvr.)

*Chiqib koru barcha tildag' turur* (QB) — Chiqib ko'risla, hammasi yolg'ondir. *Manā kergitü bār tılın sözläyü* (QB) — (O'z) tiling bilan so'zlab, menga tushuntirib ber. *Baqa kergil ämdi uqa sinäyü* (HH) — Endi uni uqib, sinab qarab ko'rgil. *At kozdin yitü qachtı, kätti* (O'N) — Ot ko'zdan yo'qolib qochdi, ketdi. *Singakni tiläyü qarlug'achni singakka izdi* (Rabg'.) — Chivinni tilab, qaldirg'ochni chivinni keltirishga yubordi. *Va'da qılıshg'anların yashurmadın bir-biriga aytu bärdirar* (Rabg'.)

Bu ravishdosh qurilmalari ravishdoshning boshqa shakllari yoki shart fe'li, harakat nomi qurilmalari bilan almashadi.

-/ i/ **ban** // **-pan** shaklli ravishdosh qurilmasi qadimgi turkiy va eski turkiy tilda qo'llangan, eski o'zbek tilida she'riy asarlaridagina uchraydi. Hozirgi zamon tilida ham ba'zan uslub talabi bilan she'riyatda uchrab turadi. Yodnomalar tilida bu xil ravishdosh qurilmalar -/i/b shaklli ravishdosh qurilmasi bilan almashadi. Misollar: *Tabg'ach atın tutupan, tabg'ach qag'anqa kormis* (KT) — Tabg'ach nomini olib, tabg'ach xoqoniga bo'ysundi. *Barchın kızıban* (MK) — shohi kiyib. *Ul anda yatıban berur sanını* (HH) — U yerda yotib, hisobini beradi. *Oquban fatiha hur qibla yanı* (MN.) *Quduq ichindä yatıban asmıshlar* (QR). *Aylaban bu tarıqmı varzısh* (Nav., MQ).

**32-§. g'ali -geli** shaklli ravishdosh qurilmasi. Bu ravishdosh qurilmasi qadimgi turkiy tildan boshlab qo'llanib keladi. Bu davr tilida *-gäli* shaklli ravishdosh qurilmasi maqsad, ba'zan payt mazmunini ifodalaydi: *Türk bodun olurg'alı. Türk qag'an olurg'alı, Santuñ baluqqa taluy öküzgä tägmis yoq ärmis* (Toñ.) — Turk xalqi va turk xoqoni yashash uchun to Shantung shaharlarigacha, dengiz va daryolargacha bormadi.

Ravishdosh qurilmasi eski turkiy tilda maqsad, shart, ba'zan payt ma'nolarini ifodalaydi: *Säni alg'alı käldim andın yürüb* (QB). *Yazıdaqı suvlın izärgäli, ävdagi taqag'u ıchg'ınma* (MK) — Daladagi qirg'ovul oviga chiqsang, uydagi tovuqni unutma. *Yär yüzindä ashlıq salg'alı yär qalmadı* (QR) — Yer yuzida urug'lik ekadigan yer qolmadi.

Eski o'zbek tilida bu xil ravishdosh qurilmasi maqsad, ba'zan payt ma'nosini ifodalaydi: *Oldırg'alı* (Nav., CHD) *Hech yämänliq*

*yavutmag'ali* (SHN). *Kərgəli husniyni zāru mubtalā boldım sənā* (Nav.) *Xurāsang'a kəlgəli beri* (Nav., Kulliyot); *Bu taāmdın yegəli qorqarbiz* (Sakkokiy).

Hozirgi tilda bu xil ravishdosh qurilmalari harakat nomi, sifatdosh, shart fe'li, ba'zan ravishdosh qurilmalari bilan almashadi.

**33-§. -a y // -ay** shaklli ravishdosh qurilmasi. Bu xil ravishdosh hozirgi tilda faqat juft holda qurilma tashkil etadi: *seni o'ylay-o'ylay*. Ammo tarixiy yodnomalar tilida bu ravishdosh keng qo'llangan va turli ma'nolarni ifodalab kelgan.

Qadimgi turkiy tilda **-a** shaklli ravishdosh qurilmasi holat, usul ifodalagan: *Ertis oküzüg kächä yordımız* (KT) — Irtish daryosini kechib, yurdik... *Yinchu oküzüg kächä Tämır qapıg'qa tägi sülädımız* (KT) — Inju daryosini kechib, Temir darvozagacha qo'shin tortib bordik.

Eski turkiy tilda bu ravishdosh qurilmasi holat, payt, sanash mazmunini ifodalaydi: *Esänin tiriglik oküş mın yasha, Quvanchın avınchın ogush el ala* (QB) — Salomat hayot kechir, ko'p ming yil yasha, Shodlik va xurramlik bilan ko'p ellarga ega bo'lib. *Bu kün sorg'ay erdiñ meni mın sökä* (QB) — Ming martabalab so'kib, meni so'rar eding. *Bögü bilgi kätti ölümüg körä* (QB) — O'limni ko'rib, olimning ilmi uchdi. *Xusumat qılıb talasha, g'ürg'a keldilər* (QR).

Eski o'zbek tilida **-a** shaklli ravishdosh qurilmasining qo'llanishi yanada kengayadi. Ravishdosh mustaqil gaplarning, ergash gaplarning kesimi vazifasida ham qo'llanadi: *Issıq savuq tanlarıg'a tafavut qılmay, achlıg' va yalang'achlı zararın jismları bilmäy* (Nav., MQ). *Ahsigä kirä ämish* (BN). *Yurtda bir üyli qalmay barchası Xärizmğ'a keldilər* (Sh.tar.).

Ravishdosh qurilma sifatida holat, payt, sabab, maqsad ifodalaydi: *Ham Xumäyunni uzata va ham bu yerläрни sayr qıla yakshanba küni ordunu oshul yerdä qoyıb ordudın ätlandım* (BN). *Chingiz xän birlän urusha bilmäy, qachıb Mazandarän ketdi* (Sh.tar.).

**-a, y // -ay** shaklli ravishdosh qurilmalari hozirgi tilda **-i//b**



shaklli ravishdosh qurilmasi bilan almashadi; inkor shakli esa *-may/* ko'pincha aynan saqlanadi.

**34-§. *-/i/ p/b*** shaklli ravishdosh qurilmasi. Ravishdosh qurilmasining bu turi hozirgi tilda ham keng qo'llanadi va turli mazmuni ifodalaydi. Tarixiy yodnomalar tilida bu xil ravishdosh qurilmalari yanada ko'proq qo'llangan, mazmun doirasi kengroq bo'lgan va ba'zan alohida mazmun ifodalab, mustaqil gapga teng bo'lgan: *Qamug' nāḡā tāḡri qılur ul sabab, Qamug' āzgü esiz anḡar öz ulab* (QB) — Tangri hamma narsaga sabab yaratadi. Barcha yaxshi-yomon (ishlarni) unga bog'lab qo'yadi. *Anbiya kim el alarḡ'a ökülp, ishḡnıḡ sirridin aḡah olup* (SHN).

Qadimgi turkiy tilda — */i/ p/b* shaklli ravishdosh qurilmasi asosiy kesim bilan mustaqil, teng munosabatga kirishib, ikkinchi darajali kesim vazifasini o'taydi (bunda payt va qiyoslash kabi teng mazmun munosabatlari ifodalangan): *Bu yārdā olup, tabḡ'ach bodun birlā tuzāltim* (KT) — Bu yerda bo'lib, tabḡ'ach xalqi bilan hayotimni bog'ladim.

Bu xususiyat O'rta Osiyō turkiy tilida ham to'liq saqlanadi: *Butun bildi Ilig, kər, oḡdūlmishi // sāsigisiz kəni tāb nāḡu qılmıḡı* (QB) — Ilig O'gdilmishni butun (odam deb) bildi, uning butun ishlarini, shubhasiz, to'g'ri deb bildi. *Oḡ'uzni ichip mundun arḡ'raq ichmādi* (O'N) — O'g'izni ichdi, mundan (ichganidan) ortiqroq ichmadi.

Eski o'zbek tilida ham ravishdosh qurilmasining ikkinchi darajali kesimlik vazifasi keng qo'llanadi: *Echkü yügürüb, kiyik bolmas* (Nav., MQ) *Axsidin, Buxārādın qavun keltürüb bir majlisda kästürdüm* (BN). *Bolma uchuz alıp aḡ'ır satquchı* (Haydar).

Hozirgi tilda ham *-/i/b* shaklli ravishdosh ikkinchi darajali kesim vazifasida qo'llanadi. Yodnomalar tilidagi bu xil birikmalar hozir aynan saqlanadi yoki ular aniqlik fe'li bilan shart fe'li yoki sifatdosh qurilmasi bilan almashadi.

*-i(b)* shaklli ravishdosh sabab-natija munosabatini ifodalashi mumkin. Bu xususiyat qadimgi turkiy tilda mavjud bo'lib, hozir ham qo'llanadi: *Ol sabıḡ' alıp, yag'ru barıp öküş kishi ölti* (KT) — U so'zni olib (ishonib), yaqin borib, ko'p kishi o'ldi. *Basal yāb achıtma aḡ'ız* (HH). *Āz-āz örgänib dānā bolur* (Nav., MQ).

Ravishdosh qurilmasi turli tobe mazmun munosabatlarini — payt, to'siqsiz shart, holat va boshqalarni ifodalashi ham mumkin. Bu munosabatlarni ifodalash qadimdan ma'lum bo'lsa-da, eski o'zbek tilida keng rivoj topadi. Misollar, *Kalig'ma bag'lärin budunun itur yig'ip, azg'a bodun tezmis erti* (Toñ.) — Kelgan beklarni va xalqlarni yig'ib, joylab yurganimda, ozgina xalq qochib ketdi. *Kichik bolub yag'ını yärgü ämäs* (MK) — Kichik bo'lsa ham, dushmani pisand qilmaslik yaxshi emas. *Tavar yig'ib, suv aqın indi saqın* (MK) — Mol-dunyo yiqqan bo'lsang, uni oqin sel hisoblay ber. *Andan sönj ärtä bolubda aqalarnı inilärni charlab käläürdi* (O'N). *Ezgülügüg kormäzib äjun chu qar* (MK) — Yaxshilik ko'rmay, dunyodan chiqadi. *Chamat chaqib chärig chäkib dushman tutar-men* (O'N) — G'azabim kelib, qo'shin tortib, dushmanin tutaman. *Qabilnıy azaqın tutub yäti qa'rla evürdi* (Rabg'.).

Bu xil ravishdosh qurilmalarining ba'zilari hozirgi zamon tilida aynan saqlanadi, ba'zilari aniqlik fe'li, shart fe'li, sifatdosh qurilmalari bilan almashadi.

**35-§. -günchä (-gänchä, -ginchä, -gichü)** shaklli ravishdosh qurilmasi. Ravishdosh qurilmasining bu turi qadimgi turkiy tildan boshlab qo'llanib keladi. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bu ravishdosh qurilmasining mazmuni va tuzilishida kam o'zgarish ro'y beradi. Ravishdosh qurilmasi payt munosabatini ifodalaydi: *Közüg yumup achqıncha* (TT). *Küchi yätgünchä* (TT).

O'rta Osiyo turkiy tilida: *Sunup tutmıshıncha azırdım sözüg* (QB) — Ushlab olguncha, so'z tanlab oldim. *Qarib ölmäginchä unutmas anı* (QB). *Ulug' boldug'uncha... sılıq tut sözüñ* (HH). *Seniñ atıñ eshitkäch yärlär opkäy* (MN). *Farishtalar yoluqmıshıncha* (QR).

Eski o'zbek tilida: *Adab va hurmat ahlin bebäk qıla alg'ancha ta'zim va adab binasın yıqma* (Nav., MQ). *Sözni köñlünjä pıshqarmag'uncha tilgü keltürmä* (Nav., MQ). *Pädshäh bolg'uncha türkmänniñ qımıq urug'idınmız tädilar* (Sh.tar.).

**-g'uncha** ravishdosh qurilmasi ayrim hollarda qiyoslash yoki daraja-miqdor mazmunini ham ifodalagan: *Elik tutg'uncha ot tut* (MK) — Kafil bo'lguncha, olovni tut. *Öküz azaqı bolg'incha buzag'u bashı bolsa yig* (MK) — Ho'kiz oyog'i bo'lguncha, buzoq

boshi bo'lgan yaxshi. *Darada tamām gullari āchılıbtur, agarchā ta'rif qilg'ancha emās* (BN). *Daqiqanıñ miqdārı taqriban ũln fātihanı bismi illāh bila oqug'unchadur* (BN).

Hozirgi zamon tilida ravishdosh qurilmasining qiyoslash, daraja-miqdor ma'nolari ham qo'llanadi.

**36-§.** *-gäch* shaklli ravishdosh qurilmasi qadimgi turkiy va eski turkiy tilda uchramaydi, bu xil ravishdosh qurilmalari eski o'zbek tilida qo'llana boshlaydi va payt munosabatini ifodalaydi: *Anı qılg'ach g'anı* (SHN); *Xān Oratepādin ötkäch* (BN); *Bu sozlärni eshitgäch kez-kez säkriy bashladı* (Yaqiniy).

Bu shakl "Qissasi Rabg'uziy"da ham uchraydi: *Ag'zın ach-g'ach*.

### Harakat nomi qurilmalari

**37-§.** Harakat nomlari *-maq /-māk, -i/sh, -uv* shakllari orqali yasaladi. Harakat mazmuni *-uvchi, -maqlik, -ganlik, yotganlik, -maslik, -güsiz, -gülik, -güchi, -güdek, -ishlik, -unch* (arx.), *-ig'* (arx.), *-igsäk* (arx.) va boshqa qo'shimchalar orqali yasalgan otlarda ham bo'ladi. Ammo bu shakllar otga yaqin bo'lib, *-maq, -i/sh, -uv* orqali yasalgan so'zlar fe'lga yaqin bo'ladi, ularda harakat yoki holat ifodalanadi.

Hozirgi zamon tilida bu uch xil harakat nomlari turli gap bo'laklarini boshqarib, ma'lum qurilmani tashkil etadi. Qadimgi turkiy tilda bunday harakat nomlari qo'llanmagan, ular o'rnida sifatdosh qurilmalari yoki boshqa shakllar qo'llangan: *Yuyqa äriklig topıag'alı ujuz ärmis* (Toñ.) — Yupqani to'plash qiyin emas. *Atıag'u tilädi* (O'N) — Otlanishni istadi. *Ichkügä tüşdi* (O'N) — Ichishga tushdi. Faqat Turfon matnlari va "Oltin yoruq"da *-maq // -māk* shaklli harakat nomlari uchraydi: *Sizni ämgättim acha suvsamaqa* (TT) — Sizni ochlik va suvsash bilan qiynadim; *Nächä-nächä kishilärni sansız saqıshsız özlügüg ölürmäkların körtüm* (Oltin yoruq) — Necha-necha kishilarning sonsiz-sanoqsiz o'zlarini o'ldirganlarini ko'rdim.

Bu xil qurilmalarni tashkil etgan harakat nomlari turli kelishik va ko'makchilar bilan birikishi mumkin. Shunga ko'ra ular gapning

har qanday bo‘lagi bo‘lib kela oladi. Harakat nomi, odatda, to‘ldiruvchi va holni (hamda ularga tobe bo‘lgan so‘zlarni) boshqarib keladi. Ba‘zan harakat nomi egalik affiksini oladi, bunday shaklda harakat nomi qaratqichli aniqlovchini ham boshqarishi mumkin.

Harakat nomi qurilmalarining bu xususiyati eski yozma yodgorliklar tilida ham mavjuddir.

Eski turkiy tilda, asosan, *-maq // -māk* shaklli harakat nomlari qo‘llanib, *-/i/sh* shakli kam uchraydi, *-/u/v* shakli butunlay ishlatilmaydi.

Harakat nomi bosh bo‘laklar vazifasida keladi:

1. *Yāmāk ichmāk ol bir tatiq, ay qadash* (QB) — Yeyish, ichish — bu rohat, ey qardosh. *Nägä malg‘a muncha kəñül bag‘lamaq* (HH). *Əlümdür bizgä jänānsız, tirilmāk // muhaldur bu tana jänstz tirilmāk* (MN.).

*Qiyamatg‘a tägrü yuvmag‘, gər qazmaq, kafan qılmaq, namāz etümāk, gergä kömmāk shundan qāldı* (Rabg‘.).

2. *Bu iki kishigä sөz achmaq tägir* (QB) — Bu ikki kishiga so‘z ochmoq lozim. *Kishig täbsägüchi sөji iglāmāk* (QB) — Kishini toptashning oqibati kasallikdir. *Tilinchä Hibbatilla tāmāk bolur* (Rabg‘.). *Kälib kөrdi kim, bir shunqar qıatnıñ ichägüsin yāmäktä turur* (O‘N).

Harakat nomi tushum, jo‘nalish, chiqish kelishigi yoki ko‘makchi bilan kelib, to‘ldiruvchi yoki hol vazifasini o‘taydi (O‘rta Osiyo turkiy tilida bu vazifa ancha cheklangan): *Ol är bu og‘urda barmaqqa isiqländi* (MK) — U kishi bu paytda borishni issiq deb hisobladi. *Eshitmāk bilä boldı bilgä kishi // bu sөz sөzlämäktin barır är bashı* (QB). *Sizläрни bu älläriñizni chıqarmaq tilärlär* (Taf.). *Säni körmäkkä dastur quldum* (Rabg‘.). *Kishi öltürmäkdin ulug‘ yazuq yoq* (Rabg‘.). *Yurur-men barcha ishini bilmāk üçhün // sävermän közni sizni körmāk üçhün* (MN). *Bilig bilmāk ichindä javharisän* (MN).

Eski o‘zbek tilida *-/i/sh* shaklli harakat nomi ham kam qo‘llanadi. *-/u/v* shaklli harakat nomi esa deyarli uchramaydi, *-maq* shaklli harakat nomi esa turli shakl va vazifada keng qo‘llanadi.

Bosh bo‘lak vazifasida: *Ag‘zıg‘a kelgänni dämāk nädän ishi va*

*elgigä kelgänni yemek hayvan ishi* (Nav., MN). *Bil kim, nafas urmamag' alardin avla* (Nav., MQ). *Chu bir ishkä xizmat qilib yurmag'im // säniñ birlä olturmag'u turmag'im* (Nav., CHD). *Ältmiş yıldur ki iman kältürmäktädürmän* (Nav.). *Qamap olturmaq boldı Sultän* (SHN).

Ikkinchi darajali bo'lak vazifasida: *Chıqarmaqqa namus qıldı anı* (Nav., CHD). *Korüp äl qächışın* (SHN). *Og'urlarg'a äl jihatig'a köz salmaq üçün* (Nav., MQ). *Ashiq olturmäk famda barchadın ustäd-sen* (Lutf.). *Xaläyiqnı tirgüzmäk tilägäy* (Sakk.). *Xän kelishidin burna* (SHN).

Harakat nomi qurilmasi tobe vazifasida, odatda, fe'l kesimga yoki boshqa vazifadagi fe'lga bog'lanadi. Agar u qaratqich kelishigida bo'lsa, turli vazifadagi otga bog'lanadi: *Tügänmäginıñ imkani yoqtur* (Nav., MQ). Bu xususiyat hozirgi zamon tilida ham saqlanadi.

Harakat nomi qurilmasi taraqqiyotidagi yana bir xususiyat shuki, bu xil qurilma tarkibida subyekt ifodalanishi mumkin. Bu holda harakat nomi egalik affiksini oladi. Bunda subyekt belgisiz yoki belgili qaratqich kelishigi shaklida bo'ladi. Eski turkiy yodnomalar tilida subyekt, asosan, belgisiz qaratqich shaklida bo'lib, keyingi davr tilida ko'proq qaratqich belgisini oladi. Umuman, til taraqqiyotida atoqli ot yoki kishilik olmoshi bilan ifodalangan subyektning qaratqich kelishigi qo'shimchasini olishi qonuniylasha boradi. *Bäg kälmägi yag'udi* (MK) — Bekning kelishi yaqinlashdi. *Yag'ı qı lmag'usı n qılınchı qılur* (QB). *Etäk yırtılmaqı älikläri käsilmägi, tonlar qang'a bulg'anmaqı nädin* (Rabg'.). *Eränlär yasanmag'ı* (Nav., MQ). *Xän kelishidin burna* (SHN). *Bularnıñ alışı va berishi* (BN). *Alarnıñ kelishini kördüm* (SHN). *Ularnıñ kirmäginä* (Rabg'.).

Hozirgi zamon tilida atoqli ot yoki kishilik olmoshi orqali ifodalangan subyekt harakat nomi qurilmasi tarkibida, asosan, belgisiz qaratqich kelishigida keladi.

Harakat nomi qurilmasi taraqqiyotida **-moq** shaklli harakat nomi **-i/ sh** shaklli harakat nomi bilan almashadi.

## UNDALMA

**38-§.** Undalma qadimgi davrlardan boshlab tilimizda qo‘llanib keladi. Undalma tinglovchi va o‘quvchilarning diqqatini asosiy fikrga jalb qilish hamda nutq qaratilgan shaxs yoki predmetni xarakterlash uchun yozma nutqda ancha keng qo‘llangan.

Qadimgi turkiy tilda undalma, asosan, gap o‘rtasi va oxirida qo‘llangan: *Ayar kerü bilin, türk amti bedun bağlar, bedkä kerigmä bağlar gü yanıltachısız* (KT) — Unga qarab bilinglar, turklarning hozirgi beklari; taxtga sodiq beklar, sizlar yanglishib turasizlarku! *Süchig sabına, yımshaq ag‘ısına arturıp öküs türk bodun öltig* (KT). Shirin so‘ziga, ajoyib javohiriga aldanib, turk xalqi, ko‘p o‘lding.

Ayniqsa, “Qutadg‘u bilig”da va “Hibatul haqoyiq”da tarkibi keng undalmalar ko‘proq qo‘llanadi: *Ay mehnat izisi ölüm nematın* (QB) — Ey mehnatkash, o‘lim — ne‘mating. *Qarag‘a yag‘uma, ay qılqı erün* (QB) — Qoraga yaqinlashma, ey xulqi toza. *Aya shak yolında yelikli otun* (HH), *Aya mal izisi axi äzgül er* (HH).

Undalma undov so‘zlar bilan birga kelishi mumkin: *Biliglikkä ya dost özünni ula* (HH); *Nuh... eshakkä: “Kirgil, ay mal’un”, deb aydı* (Rabg‘.).

Eski o‘zbek tilida ham undalmalar keng qo‘llanadi, umumiy mazmunga ko‘ra *ilahi, saqiy, yar, janan, dost* kabi so‘zlar undalma vazifasida keladi.

Hozirgi zamon adabiy tilida undalma keng qo‘llanadi.

## KIRISHLAR

**39-§.** Ifodalanayotgan fikrga turlicha modal munosabatlarni bildirish uchun qo‘llanadigan kirishlar (kirish so‘z, kirish birikmalar va kirish gaplar) qadimgi davrlardan boshlab ishlatilib keladi.

Qadimgi turkiy til matnlarida kirish so‘z va so‘z birikmalari uchramaydi. Eski turkiy tilda bu xil birikmalar uchrasa ham, ular kam qo‘llanadi va bu vazifada keluvchi so‘zlar doirasi ham uncha keng emas: *Säziksiz, ölüm bir kün axir kälir* (QB) — Shubhasiz, o‘lim bir kun keladi. *Esizim, bu yailg‘ kishilär ölü* (QB) — Esiz, bunday kishilar o‘ladi. *Baxillikni qanı ägär til qayu* (HH). *Birar*

*yanjshar ärsä, ikkinch, yalg'an ärsä* (HH) — Birinchidan, yangli-shilsa, ikkinchidan, yolg'on bo'lsa. *Azin ma bu bësh näñ, yıraç tutqu bäk* (QB) — Yana besh narsadan bek o'zini yiroq tutsin. *Eñ ashnu yag'ıqa käräk xiyla al* (QB) — Avvalo, dushmanga xiyla kerak.

“Qutadg'u bilig”da ko'pincha ayrim fe'llar (*kor, bil, kel* kabi-lar) kirish so'z vazifasida keladi: *Kishilik atı, kor, iki neñ turur* (QB) — Odamgarchilik, ko'r, ikki narsadan iborat bo'ladi. *Örüngä qara, tärk yuqar ol körünj* (QB) — Oqqa qora tez yuqadi, qarang. *Uvutsiz yüzi körsä, etsiz süñük, uvutsuz özi körsä butmas örük* (QB) — Uyatsiz kishining yuzi, ko'rsang, etsiz suyak, uyatsizning o'zi, ko'rsang, pishmagan olxo'ri. *Käl, ezgü qılın* (QB) — Kel, yaxshilik qil. *Qalı qarnı achsa, bilin, yär ag'u* (QB) — Agar qorni ochsa, bil, zaharni ham yeydi.

Eski o'zbek tilida kirish so'zlarning doirasi ham, qo'llanish miqdori ham ancha kengayadi.

Kirish gaplar qadimgi turkiy tilda ham uchraydi: *Anta kisrä, täñri yarlıkazu, kutım bar üçün öltächi budunig' tigrü igitim* (KT) — Undan keyin, xudo yorlaqasin, baxtim bor uchun o'layotgan xalqni ko'tardim.

Eski turkiy tilda kirish gaplar birmuncha ko'proq qo'llanadi: *Tiriklikkä tutma, söz aydım acha* (QB) — Hayotga ortiqcha ko'ngil berma, senga ochiq so'z aytdim. *Bu Aytoldı tägli qutdır ul, koranı* (QB) — Bu Oyto'ldi baxt degani bo'ladi, unga boqqin.

Eski o'zbek tilida kirish gaplarni qo'llash birmuncha kengayadi.

Yodnomalar tilida qo'llangan kirish gaplar ko'proq ilovali birikmaga o'xshab ketadi. Turli modal munosabat ifodalovchi kirish gaplar kamroq qo'llanadi. Hozirgi zamon tilida kirish gaplarning turli shakl va mazmunda qo'llanuvchi turlari keng ishlatiladi.

## I. Tekshirish uchun savollar

1. *Shaxsi noaniq gaplarni tuzuvchi vositalar va ularning qadimgi turkiy, O'rta Osiyo turkiysi va eski o'zbek tilida qo'llanishi.*

2. O'rta Osiyo turkiysi va eski o'zbek tilida shaxssiz gaplar qiyosi.
3. Shaxsi umumlashgan gaplarning eski va hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishi.
4. To'liqsiz gaplarning shakl va vazifasida o'zbek adabiy tili tarixidagi o'zgarishlar.
5. Atov gaplarning eski va hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanishi.
6. Ajratilgan bo'laklarning qo'llanish tarixi.
7. Adabiy til tarixida sifatdosh, ravishdosh va harakat nomlari shakllarining davrlar bo'yicha o'zgarishi va qurilma tashkil etish xususiyati.
8. Undalmalarning qadimgi turk va o'zbek adabiy tilidagi uslubiy xususiyatlari.
9. Kirish so'z, so'z birikmasi, kirish gaplarning qo'llanish davrlari va hozirgi o'zbek adabiy tilidan farqi.

## II. Tayanch tushunchalar

*Ikki va bir tarkibli gaplar. Bir tarkibli gaplarning turlari: noaniq shaxsli gaplar, shaxsi umumlashgan gaplar. To'liqsiz gaplar, ajratilgan gap bo'laklari. Harakat nomi qurilmalari. Undalma. Kirishlar.*

### Lug'at

**Quyidagi so'zlarning ma'nosini aniqlang:**

ajun	—	subhoniyy	—
azin	—	sü	—
ärdäm	—	tabaru	—
bikin	—	tavar	—
bulung	—	yalınuq	—
lavh	—	yoriq	—
marhabo	—	chagir	—
öküş	—		
ötru	—		
oza	—		
qash	—		
qazo	—		
qubba	—		
qulf	—		
qut	—		
safih	—		



## QO‘SHMA GAP

**40-§. Qo‘shma gaplar** ikki xil yo‘l bilan kelib chiqadi (A.Riftin):

1) Ikki sodda gapning birikishi yo‘li bilan (bu yo‘l bilan *bog‘langan qo‘shma gap* tuziladi; bunday bog‘langan qo‘shma gaplardan *ergash gapli qo‘shma gaplar* ham ajralib chiqadi);

2) Sodda gap tarkibidagi sifatdosh, ravishdosh yoki shart fe‘li boshqargan birikmalar kengayib, alohida gap tashkil etish yo‘li bilan A.Riftinning fikriga ko‘ra, flektiv tillar uchun birinchi yo‘l asos bo‘lsa, aggluyativ tillar uchun ikkinchi yo‘l asosdir. Ayrim olimlar turkiy tillarda qo‘shma gaplar sodda gaplarning birikishi yo‘li bilan shakllangan desalar (M.Shiraliyev, N.T.Sauranbayev), ayrim olimlar qo‘shma gap taraqqiyotining ikkinchi yo‘lini tan oladilar (S.Jienbayev, E.A.Grunina). Ko‘p olimlar A.Riftinning fikriga shubha bilan qaraydilar va qo‘shma gap taraqqiyotida har ikki yo‘l ham bo‘lishi mumkin ekanini ko‘rsatadilar (K.Sartbayev, N.Gajiyeva).

### Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar

**41-§. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar** qo‘shma gaplarning ibtidoiy shaklidir. Buning sababi shuki, bog‘lovchi ishtirokisiz, faqat ohang yordami bilan bog‘lanish qo‘shma gap tuzishning eng oddiy usulidir.

Hali teng va tobe bog‘lovchilar bo‘lmagan yoki juda kam bo‘lgan davrlarga oid o‘rxun yozuvlari va XI asr yodnomalarida murakkab fikr sodda gaplarni yonma-yon keltirish hamda gaplarni ma‘lum ohang va boshqa vositalar bilan biriktirish orqali ifodalangan.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning ba‘zilari hozirgi bog‘langan qo‘shma gaplar uchun, ba‘zilari hozirgi ergash gaplar uchun asos bo‘lgan, ayrimlari esa ma‘lum o‘zgarishlar bilan hozir ham qo‘llanadi. Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar o‘z xususiyatlariga, o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lgan maxsus birikmadir, bu birikma tarixiy taraqqiyot jarayonida yanada takomillashgan va hozirgi zamon

tilida qo'shma gapning boshqa turlari bilan barobar qo'llanadi, hatto uning ba'zi turlari keyingi davrda vujudga kelgan.

Qadimgi yodnomalarda bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan qismlar orasidagi ma'no munosabatlar ham ko'p o'rinlarda, hozirgi zamon tiliga yaqin turadi.

1. Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan qismlar **ma'lum bir paytda yoki ketma-ket** ro'y bergan voqea, hodisa, xususiyatlarini ifodalaydi: *Qar, buz qamug' arushdi; Tag'lar suvi aqishdi; Kəkshin bulut erushdi; Qayg'uq bolub egrishür* — Qor va muzlar hammasi eridi, tog'larning suvi oqdi, osmonda ko'k bulutlar paydo bo'ldi, ular qayiq bo'lib suzishdi (MQ).

Qo'shma gap qismlari orasidagi ma'no munosabat ko'pincha ancha uzoq bo'ladi, harakat, holatning kimga, nimaga taalluqli ekanligi va gaplar orasidagi ma'no munosabat mazmundangina anglashilib turadi: *Adashliq üzä turmadı; Qalın ärän tirkäshür* — Do'stlikka rioya qilmadi, (hozir) ko'p askar tirkalib turibdi (MK).

Ma'lum payt munosabatida bo'lgan qo'shma gap qismlarini bir-biriga bog'lash uchun ayrim leksik unsurlar ishlatilgan.

O'rxun yodnomalarida qo'shma gap qismlarini biriktirish uchun quyidagi leksik unsurlar qo'llanadi: *anta kisrä (anta — unda, kisrä — keyin): Ancha saqıntım. Anta kisrä täğri bilig bærtük üçün özüm oq qag'an qusdum* (Toj.) — Undan keyin shunday o'yladim: tangri (menga) bilim bergani uchun (uning xon bo'lishini) o'zim istadim.

“Qissasi Rabg'uziy” va “Tafsir”da *anda, ul vaqtda; emdi, andin keyin, andin soñra* leksik vositalari qo'llanadi: *Emdi uchmahqa kirdim* (QR). *Andin soñra tēri keñäshib quduqqa salur bolub* (QR).

Keyinchalik qo'shma gap qismlari orasidagi payt munosabatini ko'rsatuvchi yuqoridagi leksik vositalar kengroq ishlatilgan. Ammo hozirgi tilda kam qo'llanadi.

2. Bog'lovchisiz qo'shma gap qismlaridan anglashilgan mazmun bir-biriga qiyoslanadi. Qiyoslash orqali voqea, hodisa, predmetlar o'rtasidagi farqlar, ular orasidagi qarama-qarshilik, nomuvofiqlik ochiladi: *Tag' tag'qa qavushmas, kishi kishigä qavushur* (MK). *Orun berdiñ ashnu men oldurmadi m* (QB) — Avvalo o'rin berding, men o'tirmadim.

“Qutadg‘u bilig”dan keltirilgan misol hozirgi o‘zbek tilida *ammo* bog‘lovchisi bilan qo‘llangan bo‘lar edi. Lekin bunday birikma o‘z davri uchun me‘yor bo‘lgan.

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo‘shma gaplar keyingi asrlarga oid yodnomalarda keng qo‘llanadi, uning ikki mazmun munosabati yanada tabaqalashadi, ma‘lum mazmun munosabatini ifodalovchi leksik, grammatik vositalar yanada aniqlashadi: *Sendin aytmaq, mendin eshitib turmaq* (QR).

Payt va qiyoslash munosabatini ifodalagan qo‘shma gap qismlari shaklan ancha mustaqillikka ega. Bu xil birikmalar hozirgi tildagi bog‘langan qo‘shma gaplar uchun asos bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Ammo, shu bilan birga, bu xil birikmalar tamom bog‘langan qo‘shma gaplarga aylanib ketmaganlar, ular ma‘lum grammatik va ma‘no o‘zgarishlari bilan hozirgi tilda ham keng qo‘llanadi.

3. Payt va qiyoslash munosabatidan tashqari, ma‘no jihatdan biri ikkinchisiga tobe bo‘lgan, biri ikkinchi qismini **aniqlagan, to‘ldirgan** qo‘shma gaplar ham qo‘llangan:

a) Qo‘shma gapning birinchi qismi sababni, ikkinchi qismi undan kelib chiqadigan **natijani** ifodalaydi: *Ajun mali terdin, ozun boldi bay* (QB) — Dunyo molini yig‘ding — o‘zing boy bo‘lding.

Sabab-natija (xulosa) munosabatining ifodalanishi, asosan, gaplar orasidagi ma‘no munosabatsidan kelib chiqishi bilan birga, ayrim grammatik va leksik belgilar ham bo‘lgan, chunonchi, gap kesimlarining buyruq fe‘li shaklida bo‘lishi yoki natija ifodalovchi qismining *emdi* so‘zi bilan bog‘lanishi kabilar: *Qanda erinch, qaniqi, emdi uzin uzg‘urur* — Malhamim qayerda ekan, endi uyqum qochdi (MQ).

XI asrdan so‘nggi yozma yodgorliklarda bu turdagi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning qismlari orasidagi semantik munosabatning ifodalanishi aniq vositalar bilan bog‘lana boshlaydi. “Qissasi Rabg‘uziy” va Navoiy tilida, “Shajarai tarokima”da natija ifodalovchi qism *amij uchun, bu jihatdin, ul sababdin, bu sababdin, ul jihatdin* leksik vositalari bilan bog‘langanligini ko‘ramiz;

b) Qo‘shma gap qismlari o‘rtasida **shart** munosabati ifodalanaadi: qo‘shma gapning birinchi qismi shartni, ikkinchi qismi shu

birinchi shartga bog'liq bo'lgan sababni ifodalaydi: *Cherikin bār, kūchūñ bar* (QR).

Navoiy tilida shart munosabatini ifodalagan quyidagi birikmalar qo'llangan: *Kēzūm ūchār, gar humayun yūzūñni kergāy yāt* (Nav., MQ). *Ne'mat degen nime-ki tamām yoq boldı, alarnıñ kōñli sendin sınıuq boldı* (Nav., MQ).

d) "Devonu lug'atit-turk" va so'nggi davr adabiyotlarida, ayniqsa, she'riyatda **o'xshatish** munosabatini ifodalagan qo'shma gaplarni ko'plab uchratamiz: *Tūrlūg chechāk yarıldı, Barchın yazım kerıldı* — Guldor ipak gilam yozilganday, (yerlarni) turli chechaklar bezadi (MK);

e) bog'lovchisiz qo'shma gapning ikkinchi qismi birinchi qism tarkibidagi ayrim bo'laklarni izohlashi, aniqlashi yoki to'ldirishi mumkin: *Ibrahim, uch ish qılg'ıl: biri ul kim, bizni el yoq kishi yoq yerdä qoyg'ıl, ikkinchi, tevädin tushurmägil, uchunchi, sen anıñ bilä qopmag'ıl* (QR).

Bu turdagi birikmalarning o'ziga xosligi shundaki, ularda aniqlovchi gapni ajratish, jumlaning oxirida berishga intilish seziladi. Hozirgi til uchun me'yor hisoblangan "falon otliq qarindoshi bor edi" birikmasi quyidagicha berilgan: *Anası qarındashları bār erdi Banu Maxsum ātlıg'* (QR).

Odatda, aniqlovchi vazifasida bo'lgan gap ikkinchi o'rinda bo'ladi. Ba'zan aniqlovchi gap birinchi o'rinda kelishi ham mumkin: *Nuh ul seksän kishi musulman erdi, ularni yıg'ıb kemägä kekürdi* (QR).

Qo'shma gap qismlaridan biri ikkinchisining mazmunini to'ldiradi. To'ldirish vazifasida bo'lgan qism ikkinchi o'rinda bo'ladi. Bu holda to'ldirish vazifasidagi gap, asosan, ko'chirma gap shaklida bo'ladi: *Saqıñtıñ turuq buqalı semiz buqalı arqada bilsär, — semiz buqa, turuq buqa, — bilmäz ermis* (Toñ.) — O'yladim: orqadan (xon) oriq buqa, semiz buqani bilsa ham, (qaysi) semiz buqa, (qaysi) oriq buqa, bilmaydi. *Ayur: ey bilıgsız kishi munduzı // ozuñä baqa kër, kim erdiñ mänä* (QB). *Aytqıl: Sarag'a, Hajarg'a küch qılmasun* (QR).

Biror qismi to'ldirish vazifasida bo'lgan qo'shma gaplar so'nggi

davr adabiyotlarida ham keng qoʻllanadi. Hozirgi tilda, bir tomondan, bu xil birikmalarning baʼzi birlari *-ki bogʻlovchili* birikma bilan almashgan (*aytadilarki, deydilarki*), ikkinchi tomondan, bu turdagi birikmalar bilan barobar toʻldiruvchi vazifali gaplarning boshqa turi keng ishlatila boshladi; bu turda toʻldiruvchi vazifasidagi gap bosh gapning kesiminigina emas, u orqali shu gap tarkibidagi toʻldiruvchi vazifasidagi olmoshni ham izohlaydi (*men shuni bildim*).

### Bogʻlangan qoʻshma gaplar

**42-§.** Bogʻlangan qoʻshma gapni tashkil etishda **teng bogʻlovchilar bilan birga ayrim yuklamalarning ham ishtiroki kattadir.** Hozirgi oʻzbek adabiy tilida teng bogʻlovchilarning barcha turlari va yuklamalar keng qoʻllanadi. Ammo til taraqqiyotining ilk davrlarida yordamchi soʻzlar juda kam boʻlib, borlari ham oʻziga xos vazifaga ega boʻlgan.

Qadimgi yozma yodgorliklarda (birinchi navbatda, oʻrxun yodnomalarida) teng bogʻlovchilar boʻlmagan. Bu vazifada *yemä, yana, taqi, dagʻi* kabi leksik unsurlar qoʻllangan. Bu unsurlar qoʻshma gap qismlarini bir-biriga mazmunan bogʻlagan va bogʻlangan qoʻshma gapga yaqin, ammo oʻz maʼno mustaqilligi ancha kuchli boʻlgan birikmalarni yaratgan. Keyinchalik bu unsurlar oʻz leksik maʼnolaridan tobora uzoqlashadi va qoʻshma gap qismlarini birlashtiruvchi vositaga aylanadi, shu oʻrindagina ular haqiqiy bogʻlangan qoʻshma gapni tashkil qiladi.

*Yemä, yana.* Oʻrxun yodnomalarida bogʻlangan qoʻshma gapni tashkil etishda faqat *yemä* yordamchisi uchraydi. *Yemä* soʻzi *yana, ham* yordamchilariga yaqin vazifada qoʻllangan. Uning ham bogʻlovchilik, ham yuklamalik vazifasi boʻlgan: *yemä* bir-biriga mazmunan qoʻshiluvchi voqea, hodisa, xususiyatlarni taʼkidlab koʻrsatadi: *Türk bodun yemä bulgʻanch..., ogʻuzi yemä tarqanch...* (Toj.) — Turk xalqi ham qoʻzgʻalgan, ogʻuz (xalqi) ham tarqalgan.

*Yana* yordamchisi ham maʼlum maʼno munosabatida boʻlgan gaplarni birlashtirib, qoʻshma gap hosil qilishda xizmat qiladi. Bu yordamchi yolgʻiz qoʻllanadi, qoʻshma gapning ikkinchi qismi

boshida keladi va soʻnggi qismdan anglashilgan mazmunning oldingi qismdan anglashilgan mazmunga qoʻshilishini koʻrsatadi: *yana* yordamchisi “Devonu lugʻatit-turk” va “Qutadgʻu bilig”da uchraydi (KT va Toj.da uchramaydi): *Qudruq qatigʻ tugdumiz, Tenrig ogush ogdū-miz, Kemshib atigʻ tekdimiz. Aldab yana qachtimiz* (MK). — Otlar dumini qattiq qilib tugdik, tangriga koʻp hamd oʻqidik, uzangiga qattiq bosib hujum qildik, aldab yana qochdik.

*Yana* yordamchisi XIV asr yozma yodgorligi “Qissasul anbiyo” asarida keng qoʻllanadi.

Hozirgi oʻzbek adabiy tilida *yana* yordamchisining qoʻshma gap tuzishdagi vazifasi chegaralangan.

**Taqi** (*dagʻi, tagʻi*). XI asr yodnomalarida *taqi* unsuri quyidagicha maʼno munosabatda boʻlgan gaplarni biriktiradi:

1) Qoʻshma gap tarkibidagi birinchi gapdan anglashilgan mazmunni ikkinchi gap toʻldiradi; bu holda *taqi* yordamchisi *yana* unsuriga teng keladi: *Ezi āzgū bāglik, taqi āzgūrāk // Tөрü ol, anı tüz yürütgü kārāk* (QB) — Beglik mansabi yaxshi, yana yaxshiroq — qonundir// Uni toʻgʻri yuritish (amalga oshirish) kerak;

2) Qoʻshma gapning ikkinchi qismidan anglashilgan mazmun taʼkidlanadi. Bu holda *taqi* yordamchisi *ham* unsuriga yaqin keladi: *Anjar soʻzlādim men soʻzuḡni sacha // taqi menda yigrāk sän aygʻil acha* (QB). Men soʻzladim unga soʻzingni tanlab, Sen ham menga (soʻzlarni) tanlab, ochiq aytgin.

“Tafsir”da *taqi* elementi *ham, hamda* yordamchisi vazifasini bajarib, qoʻshma gapning ikkinchi qismidan qoʻshimcha mazmun anglashilishini koʻrsatadi: *Zina qilgʻa (n) nuḡ nishanasi bolur taqi xamir ichkä (n) nuḡ nishanasi bolur* (Taf.).

Bogʻlangan qoʻshma gap tuzishda xizmat qilgan bu unsur Navoiyda, “Boburnoma”da va XVII asr yodnomasi “Shajarai tarokima”da ham uchraydi: *Dagʻi dādhāh sorarda oʻzlük bile mashgʻulluq qılılsa* (Nav., MN). *Bir-ikki giridin soḡ men ātları b ordugʻa keldim. Ul dagʻi tūshken yerigā bardı* (BN). *Bir altun yāy birlän kob āvni xan aldıgʻa keltürdilär, üç kichik ogʻlanları taqi üç altun oq birlä kob āvni keltürdilär* (Sh.tar.). *Ushbu aytgʻan tek ulashib alıshsunlar taqi har qaysısı anıḡ ogʻlanları birlän va navkarları*

*birlän yesünlär va taqı aytdı lar* (Sh.tar.).

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *taqi* unsuri qo‘llanmaydi.

*Va bog‘lovchisi.* Bu bog‘lovchi aslida arab tilidan kirgan bo‘lib, dastlab XI asr yodnomasi “Qutadg‘u bilig”da uchraydi va so‘nggi davr qo‘lyozmalarida qo‘shma va sodda gap tarkibida juda keng qo‘llanadi, ammo hozirgi o‘zbek adabiy tilida uning qo‘llanishi ancha chegaralangan. XI asrning mashhur filologi Mahmud Koshg‘ariy bu bog‘lovchini “vavi otifa” — deb nomlaydi va uning turkcha emasligini ko‘rsatib, u haqda “Devonu lug‘atit-turk”da to‘xtalmasligini aytadi. (“Devon”ga, ma‘lumki, turkcha so‘z va unsurlar kiritilgan).

“Qutadg‘u bilig” asarida *va bog‘lovchisi* juda kam qo‘llanadi. Ayrim hollarda u *lekin bog‘lovchisi* bilan birga ishlatiladi va bir-biriga mazmunan qarama-qarshi yoki nomuvofiq bo‘lgan qismlarni o‘zaro biriktirishda xizmat qiladi: *Bu Aytoldi aydi menjä yas qılur // Munum yoq va lekin kishilär ayur* (QB). — Bu Oyto‘ldi aytdi: menga og‘ir, kamchiligim yo‘q va lekin kishilar (kamchiligim) haqida gapirishadi.

*Va hamda lekin bog‘lovchilarining* birikkan holda kelishi so‘nggi davr yozma adabiyotlarida, hatto, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham uchraydi. “Qissasi Rabg‘uziy”, Navoiy, “Boburnoma”da bu ikki bog‘lovchining birikib qisqargan shakli — *vale* shakli ham uchraydi: *Bu ish siz aymış tek ermäs, vale bu sizniñ nafsını z sizni bu ishkä keltürdi* (QR). *Nazmg‘a nisbat berurdin yuqarıraqdur, valekin har uslub va she‘rdä jahāngir erdilär* (Nav., MQ). *Shusmir daraxtı sı bisyar, vale bag‘chaları da aksar badam daraxtı sı dur* (BN).

*Va bog‘lovchisi* yolg‘iz kelganda, o‘zaro ma‘lum payt yoki qiyoslash munosabatida bo‘lgan gaplarni biriktiradi.

a) *Agar sözüñ chin bolsa, seni tarbiyat qılayın va agar yalg‘an bolsa, seni parcha-parcha qılayın* (QR).

b) *Men bilürmen anı kim, kozläyürsiz va anı kim, ashkara qılursız* (Taf.) — Men nimani bekitib, nimani oshkora qilayotganingizni bilaman.

Navoiy davridan boshlab *va bog‘lovchisining* vazifasi juda kengaydi: payt, izoh, qiyoslash, sabab-natija va boshqa mazmun munosabatida bo‘lgan gaplarni biriktiradi: *Aq üydä anjuman asbäbi*

*muxayyā va ul āq üydā anjuman ahli mujammu* (Nav.,MN) *Vilāyat ārasi tāñ yavuuq va maqsad yırāq* (BN). *Mardān tegenni pādshāh qıldılar va Mardān yıldam yigit erdi* (Sh.tar.). *Xasm nechäkim haqir bolsa, keñul qozg'atur va xasm nechä ushaq bolsa, koz bulg'atur* (Nav.,MQ). *Bir bolsa, el tüzälür va ikki bolsa el buzıur* (Sh.tar.). *Urush, turush bolmay, ajrashtılar va Sultan Mahmudxan urush kishisi emas edi* (BN). *Andın soñ Jöji xān öldi va yurt og'lı Sayı xāng'a qāldı* (Sh.tar.).

Va bog'lovchisining hozirgi yozma adabiy tildagi qo'llanish doirasi cheklangan, og'zaki nutqda va bog'lovchisi butunlay qo'llanmaydi. Ba'zi turkiy tillarda (masalan, turk tilida) va bog'lovchisining vazifasi ma'lum darajada saqlangan.

*Ham yordamchisi bog'lovchi vazifasida ham, yuklama vazifasida ham qo'llanadi va har ikki vazifada ham bu yordamchi qo'shma gapni tuzishda xizmat qilishi mumkin.*

*Ham yordamchisi o'zbek tilida qadimdan qo'llangan. Bu yordamchini dastlab "Qutadg'u bilig"da uchratamiz.*

*Ham yordamchisi bilan tuzilgan qo'shma gapning ikkinchi qismida qo'shimcha mazmun ifodalanadi, bu ikkinchi darajali ma'lumot bo'lishi yoki muallif uni alohida ajratib ko'rsatishi mumkin: Tili chin bütin ham kēzi keñli bay* (QB). — *Tili chin, ko'zi ham to'g'ri, ko'ngli to'q. Sen kündä yalg'uz sen Isma'il ham yalg'uz turur* (QR). ...*atrafı tamām narunj daraxtlardur, anār daraxtları ham bār* (BN). *Söz ayta bilmäy bärliqni ālib bāshıg'a sanchdı, kērinışdä olturg'an xalq ham qorqınchdı'n hech nımersä ayta bilmädilär* (Sh.tar.).

**Zidlovchi bog'lovchilar.** Zidlovchi bog'lovchilar ham qo'shma gapni tuzishda katta xizmat qiladi. Ularga *lekin, amma, balki* bog'lovchilari kiradi.

"Qutadg'u bilig" asarida va "Tafsir"da *lekin* bog'lovchisi qo'llanib, u asosan va bog'lovchisi bilan birga ishlatiladi.

"Qissasi Rabg'uziy" asarida, asosan *ammā* bog'lovchisi qo'llangan; bu bog'lovchi bir-biriga muvofiq bo'lmagan harakat, holat, xususiyatni ifodalovchi gaplarni biriktirib, bog'langan qo'shma gap hosil qiladi: *Özgälärniñ aybları yāpar, ammā ozi yalıñ qalur* (QR). *Mālim tavarım bār, ammā og'lam m yoq* (QR).



Navoiyda *ammā* bilan birga *lekin* bog'lovchisi ham qo'llanadi. Ammo *lekin* bog'lovchisi kamroq qo'llanadi va ko'pincha va bog'lovchisi bilan birga ishlatiladi: *Anja qilmag'an azāb qālmadi, ammā ul maxfiy sirin koñūldin tilgā sālmadi* (Nav., MQ). *Ammā bu tāifaniñ sayrı ham agarchi tarab ayni mehnatzudadur, valekin filhaqiqat la'im sirat va gadādurlar* (Nav., MQ).

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida *ammā, lekin* bog'lovchilari barobar qo'llanadi, shu bilan birga, ularning uslubiy ma'no an'analari ham saqlanadi: *Qāzāqıyanıñ ushbu gazetida yazg'an sozlādur, lekin aksarlari da xatā bārdur* (TVG, 1, 1900).

*Yā bog'lovchisi* qadimgi davrlardan boshlab tilimizda qo'llanadi. Uni dastlab "Qutadg'u bilig" asarida uchramiz. Bunda *yā* bog'lovchisi bir-birini inkor etuvchi, birida ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea-hodisa, holatlarni ifodalovchi gaplarni biriktiradi: *Tatig' ol bu davlat etār ham buzar // Ya ārsāl turur: tārک āriksā, tezār* (QB). — Baxt — bu davlat, u yaratadi ham yo'qotadi. Yo u yomondir: tezda sovub qochar.

"Qutadg'u bilig"da *yā* bog'lovchisi va, ham bog'lovchisiga vazifadosh bo'lib, qo'shma gap qismlaridagi harakat, holat, xususiyatning mavjud ekanligini ko'rsatadi: *Ayıtı Hajib: emdi koñlıñ nātäg // Kelip qanda tushtun yā ornuñ neteg* (QB) — Hojib so'radi: hozir ko'ngling qalay, Kelib qayerga tushding va o'rning qalay?

"Devonu lug'atit-turk"da *yā* bog'lovchisi ishlatilmaydi, uning o'rnida *azu* unsuri xuddi shu vazifada ishlatiladi: *üzüm yāgil azu qag'in yāgil* (MQ).

O'rxun yozuvlarida ham *azu* shakli qo'llanadi: *...az bodunıg' okūsh qıltım Azu bu sabımda yigid barg'u* (KT). — ... Oz xalqni ko'p qildim. Yoki bu so'zimni yolg'oni bormi?

"Tafsir"da *yā* bog'lovchisi qismlaridan birining mazmuni ro'y berishi mumkin bo'lgan qo'shma gaplarda qo'llanadi: *Anı sizmu bitrür-siz ya biz-mu bitrüriz anı*. — Uni siz o'stirasizmi yo uni biz o'stiramizmi?

Navoiy asarlari tilida *yā* bog'lovchisidan tashqari *gāh* (*gāhi, gāhiki, gāhikim*) bog'lovchisi ham qo'llanadi. Bu ayiruvchi bog'lovchi birin-ketin ro'y beradigan voqea, hodisa, holatni ifodalovchi gaplarni biriktiradi.

“Boburnoma”da ham *yā* va *gāh* bog‘lovchilari barobar qo‘llanadi: *Hātirg‘a bu kechti kim, har tavar qilib ozumizni. Axsig‘a salsak, yā Shayx Bayāzid Tanbaldin qat qilib bizniñ sarı bolg‘ay, yā bir naqshı uyrułgey kim, munāsibi davlat bolg‘ay* (BN). *Gāhi ki ichkülikkä tūshār edi, yigirmä-ottuz kün payapay ichār edi. Gāhi kim, chag‘ırdın chıqar edi, yana yigirmä-ottuz kün ichmäs edi* (BN).

“Shajarai tarokima”da qo‘shma gapni tuzishda *gāh* bog‘lovchisi qo‘llanadi, bu vazifada *ya* bog‘lovchisi uchramaydi: *az urug‘lar ang‘a qoshulıb gāh altı-yetti top bolurlar erdi, gāh üç-tört top bolurlar erdi* (Sh.tar.).

**Ne yordamchisi.** Bu yordamchi ham bog‘langan qo‘shma gapni tuzishda xizmat qiladi. U inkor mazmunidagi gaplarni biriktiradi va inkor mazmunini kuchaytiradi.

*Ne* yordamchisi bilan tuzilgan qo‘shma gaplar dastlab “Qutadg‘u bilig”da uchraydi.

“Devonu lug‘atit-turk”da bu yordamchi ishlatilmaydi: *ne* o‘rni-da unga vazifadosh bo‘lgan *ab-ab* yordamchisi ishlatiladi.

*Ne* yordamchisi “Qissasi Rabg‘uziy”da ko‘proq qo‘llanadi: *Yel esti, tāñ atuncha, ne mulk qāldı ne cheriki qāldı* (QR). *Ne sozdin ki yetktāy birāvğä g‘ubār, ne lāzim ki sen qıla-sen āshkār* (Nav., MQ). *Ul vaqt zuhd-u taqāiyg‘a ne e‘tibar va xush-u xiradg‘a ne ixtiyār* (Nav., MQ).

Navoiy va Boburda *ne* yordamchisi ko‘pincha va bog‘lovchisi bilan birga qo‘llanadi va yaxlit, ixcham birikmani tashkil etadi: *Ne shā‘irāna tarkıbları ahsān va ne ashiqāna sozlari shu‘la afkān* (Nav., MQ). *Uyag‘qa yetkän (chag‘da) Xusravshāh badbaxt kafiri saltanat dag‘dag‘ası bile kim, saltanat andag‘ nākas, behunarlarğa ne nav‘ yetkey, ne asil, ne nasib, ne insāf, ne adālat, Baysung‘ur mirzāni beklāri bilä tutub, Baysung‘ur mirzag‘a erish sālīb, muhar-ram āyınıñ onı da kim, mundaq xushtab‘ va purfazilat va hasab va nasab bilä ārasta pādshāhzādani shahid qıldı* (BN).

Shunday qilib, bog‘langan qo‘shma gaplarning taraqqiyoti teng bog‘lovchilarning shakllanishiga bevosita bog‘liqdir. VII–VIII asr yodnomalarida teng bog‘lovchilar uchramaydi. Ammo teng bog‘-

lovchilarga yaqin bo'lgan vazifada *yämä* so'zi, XI asr yodnomalarida *yana*, *taqi* // *dag'i* so'zlari ishlatilgan. Ular bir-biriga mazmunan yaqin, ammo ma'lum mustaqillikka ega bo'lgan gaplarni biriktirgan. Bu xil birikmalar bog'lovchisiz qo'shma gaplar bilan bog'langan qo'shma gaplar o'rtasida turadi. Shunisi muhimki, davrlar o'tishi bilan, so'nggi davr yozma adabiyotlarida bu unsurlar o'z leksik ma'nolaridan uzoqlashib, yordamchi so'zga yaqinlashadilar. Bu holda ular biriktirgan gaplarning bog'langan qo'shma gaplik xususiyati ortadi. XV asr yodnomalarida *yema* uchramaydi, *taqi* XVIII asrgacha qo'llanadi, *yana* hozirgi zamon o'zbek tilida qo'llansa-da, qo'shma gap tuzmaydi.

Teng bog'lovchi yordami bilan tuzilgan bog'langan qo'shma gaplar XI asrdan qo'llana boshlanadi. Bu davrda *va*, *ham*, *lekin*, *ammā*, *yā*, *azu*, *ne* bog'lovchilari sodda gaplarni biriktirib, qo'shma gap tuzishda xizmat qilgan. Ammo XI asr yozma yodgorliklarida bu bog'lovchilar yordami bilan tuzilgan qo'shma gap qismlari ancha mustaqildir. Davrlar o'tishi bilan bu bog'lovchilarning ba'zi birlarining (*va* bog'lovchisining) vazifa doirasi juda kengayadi (eski o'zbek tilida) va keyin torayadi (hozirgi kunda ishlatilishi), ba'zilarining vazifasi kengayib boradi (*ham*, *lekin*, *yā*, *ne* yordamchilari), ba'zilari ishlatilmay qolib ketadi (*azu*). Hozirgi zamonga kelib, yangi teng bog'lovchilar va shu vazifadagi yangi vositalar kelib chiqadi (*bo'lsa*, *esa*, *bo'lmasa*).

## I. Tekshirish uchun savollar

1. Qadimgi turk tilida bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tuzilishi, mazmuni va keyingi davrdagi o'zgarishlar.
2. Teng bog'lovchilarning shakllanishi va qadimgi turk, eski o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarni tuzish.
3. Qadimgi turk tilida qo'shma gap va so'z birikmalarini tuzuvchi teng bog'lovchilar va ularning keyingi davr shakllari.
4. Qadimgi turk va O'rta Osiyo turkiy adabiy tilida bog'lovchisiz qo'shma gaplarning mazmun munosabati.
5. Eski o'zbek tilida bog'langan qo'shma gaplarni tuzuvchi vositalar va bunday gaplarning mazmun munosabati.
6. Qadimgi turkiy til *yema*, *azu*, *taqi* (*dag'i*) bog'lovchilarining qo'shma

gap tuzishdagi ishtiroki va bu bog'lovchilarga mos keluvchi teng bog'lovchilar bilan almashishi.

7. Ayiruv bog'lovchilarning bog'langan qo'shma gap va so'z birikmalari tuzishdagi ishtiroki.

8. Ko'chirma gap qo'shma gapning va o'zlashtirma gap so'z birikmasining bir guruhi ekanligi.

## II. Tayanch tushunchalar

Qo'shma gap turlari: bog'lovchisiz, bog'langan, ergash gapli qo'shma gaplar. Teng bog'lovchilar va bog'lovchi leksik vositalar. Nisbiy olmoshlar. Ma'lum payt yoki ketma-ketlik, qiyos, izohlovchi munosabatlarning ifodalanishi.

### Lug'at

Quyidagi so'zlarning ma'nosini aniqlang:

ahsān	—	qonuq	—
asig'	—	safin	—
azu	—	sü	—
baliq	—	tarxan	—
bulung	—	teva	—
haqir	—	tug'	—
humāyun	—	tug'ma	—
insho	—	uchmah	—
jaruq	—	xamir	—
kekirmäk	—	xasm	—
kökshin	—	xirad	—
mashriq	—	yaling	—
minba'd	—	yoruq	—
öküsh	—	chechak	—
purfazilat	—		

---

### So'zlarning ma'nosini izohlash uchun lug'atlar:

Fazilov E.I. Alisher Navoiyning izohli lug'ati. «Fan» nashr., Toshkent, 1975-1980.

Древнетюркский словарь. Изд., «Наука», Ленинград, 1969.

Devonu lug'atit-turk. Indeks lug'at. «Fan» nashr., Toshkent, 1967.

Shamsiyev P., Ibrohimov S. Navoiy asarlari lug'ati, adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent, 1972.

## ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLARNING SHAKLLANISH TARAQQIYOTI HAQIDA

Ergash gapli qo‘shma gaplar til taraqqiyotining keyingi davrlarida shakllanib yetgan qo‘shma gapning alohida bir turidir. Ergash gapli qo‘shma gaplar ketma-ket kelib, shaklan mustaqil bo‘lgan, ammo mazmunan qismlarining biri ikkinchisini izohlovchi gipotaksis tipidagi ibtidoiy jumladan shakllanadi: bunday gaplarning biri shaklan tobelashadi, tobelanish bu xil gaplar kesimlarining ma‘nosi va vazifasidagi o‘zgarish bilan yoki tobelashtiruvchi grammatik vositalarning qo‘llanishi yo‘li bilan ro‘y beradi. Mazmuniy tobelik ketma-ket kelgan ibtidoiy bog‘lovchisiz gap qurilmalari orasida ham mavjud edi, bunday gaplarning biri ikkinchisini mazmunan izohlaydi: *Özläk æchin aldı mu emdi yo‘ræk yirtilür* — Zamona (undan) o‘chini oldi (olgan sababli), endi yurak(lar) parchalanyapti (DLT, I, 77/44). Taraqqiyotning keyingi bosqichida bunday izohlovchi gaplar ergash gapga aylanadi. Demak, bunday o‘zgarish oldin mantiqda bo‘lib, bu tobelik keyinroq shaklan ko‘rinadi. Shaklan mustaqil bo‘lgan bu xil gaplarning ergash gapga aylanishi quyidagi yo‘llar bilan ro‘y beradi:

1. Izohlovchi gaplarning kesimlari ma‘nosida o‘zgarish ro‘y berishi. Odatda, sifatdosh, ravishdosh, shart fe‘li mazmunan tobelashadi. Ibtidoiy davrda qadimgi turkiy til obidalarida, XI asr yozma yodgorliklarida ham bu fe‘l shakllari mustaqilligini saqlaydi, mustaqil sodda gap kesimi vazifasida qo‘llanadi, shart fe‘lining mustaqilligi hozir ham saqlanadi. Fe‘l shakllarining ma‘nodagi tobeligi qadimgi turkiy tildayoq ko‘rinadi. Bunday o‘rinda fe‘l shakllari tobe gap kesimini tashkil etadi, ergash gapni shakllantiradi.

2. Ko‘chirma gapli qurilmalari hamda modal gap shakllari (so‘roq, buyruq v. b. xil gaplar) boshqa gaplar bilan birga qo‘llanganda, ergash gapga aylanish xususiyati kuchli bo‘ladi (*Anga Kashmir yurtini berdi: hukmronlik qilsin. Bilmadim — u qayoqqa ketdi kabi*).

3. Gap tarkibidagi ko‘rsatish va so‘roq olmoshlarining, shuningdek ravishlarning nisbiy olmoshga o‘tishi shunday gaplarning ergash gaplarga aylanishiga sabab bo‘ladi.

4. Tobe bog'lovchilarning kelib chiqishi ergash gaplarning shakllanishiga olib keladi. Tobe bog'lovchilar olmoshlardan, ravishlardan, yuklamalardan yoki ularning ko'makchilar bilan birikishida ifodalanadi. Demak, tobe bog'lovchilar teng bog'lovchilardan kelib chiqmaydi, shunday ekan, ergash gapli qo'shma gaplar bog'langan qo'shma gapdan kelib chiqadi, degan fikrlarga qo'shilib bo'lmaydi.

Tobe bog'lovchilarning kelib chiqishi va qo'llanishi bosh va ergash gap tarkibida turli korrelyativ so'zlarning qo'llanishini chegaralaydi yoki ana shunday so'zlarni qo'llashga ehtiyoj qolmaydi. Ma'lumki, tobe bog'lovchilarga qadar korrelyativ so'zlar bir gapni ikkinchisiga mazmunan bog'lab turuvchi leksik-grammatik vosita edi (bu vazifada olmosh, ot, ravishlar xizmat qiladi). Korrelyativlashish ergash gapli qo'shma gaplarning kelib chiqishida xizmat qilgan asosiy omillardan biri edi.

5. Kelishik qo'shimchalari (asosan o'rin va payt kelishiklari) hamda ko'makchilar vazifasining ma'lum o'rinda o'zgarishi ularni ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vositaga aylanishiga sabab bo'ladi.

Demak, ergash gapli qo'shma gaplar ikki sodda gapning sun'iy ravishda birlashishidan emas, balki bog'lovchisiz qo'shma gapning ichki o'zgarishi, qismlarining tarkibidagi morfologik, sintaktik o'zgarishlar asosida ro'y beradi.

Qadimgi turkiy tilda shakllangan ergash gapli qo'shma gaplarning o'ziga xos xususiyati bor (shakldagi o'ziga xoslik, murakkab, qorishiq mazmun ifodalanishi v. b.). Shuning uchun ham ergash gapli qo'shma gaplarning paydo bo'lish davridan ularning paydo bo'lgan davrini farqlamoq kerak.

Ergash gaplarning shakllanishida qat'iy bir chegara yo'q: tilda arxaik va yangi qurilmalar muvoziy qo'llanishi mumkin.

Qadimgi turkiy tilning o'zidayoq gipotaksis va parataksis tipidagi gaplar bilan barobar, ergash gapli qo'shma gaplar ham qo'llanadi. Bunday gaplar bosh gapga sifatdosh, ravishdoshlar, shart fe'li orqali, ko'makchilar, bog'lovchilar hamda kelishik qo'shimchalari orqali bog'lanadi, bu davr tilida ba'zi nisbiy olmoshlar ham shakllangan edi.

Sifatdosh orqali: (19) *Echümüz anamız tutmis yer sug' idisiz bolmazun teyin* (KT, kt) — Avlodlarimiz hukm surgan mamlakat egasiz qolmasin deb... (12, 13). *Tabg'ach, og'uz, qutan bu uchägü qabusur, qaltachi biz öz ichi tasun tutmus teg biz* (Toj.) — Tabg'ach, o'g'uz, qidan — bu uchovi birlashsa, biz yolg'iz qolamiz.

Ravishdosh orqali: *Oza kelmis süsin Kültegin ag'itip, Tojra bir og'ush alpog'u on erig, Tojra tegin yog'inra egirip elürtimiz* (KT, kt) — Oldin kelgan qo'shinni Kultegin haydab yuborgandan so'ng, Tongra qabilasiga mansub o'n pahlavonni, Tongra teginni ko'mishda, quvlab o'ldirdik.

Shart fe'li orqali: (51/11) *kezdä yash kelsär, eti da keñülta sig'it kelsär, yanturu saqintishm* (KT, kt) — Ko'zda yosh kelsa, yurakdan kuchli faryod chiqsa, yana qayg'urdim.

*birlä, üzä, uchün* ko'makchilari orqali: *Qutim bar uchün, ülügim bar uchün oltachi budunqg' tirigü igitim* (KT, kt) — Baxtim bor uchun, omadim kelgani uchun, o'layotgan xalqni tiriltirdim.

*ani uchün, antag'inin uchün, tep || teyin* bog'lovchilari orqali: (3) *Bilgä qag'an ermis...ani uchün ilig ancha tutmis* (KT, kt) — Ular bilimdan xoqon edilar, shuning uchun ular ellarini uzoq vaqtlargacha boshqarib keldilar (39). *Sog'daq budun itäün teyin Yinchü egüzüg kechä Temir qabig'qa tegi sülä-dimiz.* (KT, kt) — So'g'dok xalqini birlashtirayin deb, Yenchu daryosini kechib, Temir qapig'gacha yurish qildik.

O'rin-payt-chiqish kelishigining qo'shimchasi *-ta/-da* vositasi bilan: (17) *echim qag'an olurtuqda, özim tardushbudun üzä shad ertim* (KT, kt) — Tog'am — xoqon (taxtga) o'tirganda, o'zim tardush xalqi ustidan shod edim.

O'rxun yozma yodgorligi tilida *ne (ney), qach, kim* so'roq olmoshlarining nisbiy olmosh vazifasida qo'llanganini ko'ramiz: (11) *ney ney sabim ersär banqu tashqa urtum* (KT, kt) — Nima so'zim bo'lsa, (uni) mangu toshga o'ydim. (21) *Qach ney ersär olürtachi kük* (Toj) — Qanday bo'lmasin, u bizni o'ldirishi mumkin. *Yemä bu tort arng' dindarlar kim tavg'ach yirinte erürlür* (Turfon matnidan. Vand und A. Von Gabain. *Turkische Turfantexte. II. SRAW, Berlin, 1929, 12–13*) — Bu to'rt pok dindorki, Tabg'ach yeridandirlar...

Misollardan ko‘rinadiki, qadimgi turk tilining o‘zidayoq ergash gapli qo‘shma gaplar ajralib chiqqan boshlagan edi. Taraqqiyotning keyingi bosqichlarida ergash gaplarning turi va bog‘lanish vositalari kengaya boradi. Ergash gapli qo‘shma gaplarning taraqqiyoti yozma adabiyotning rivojlanishi va turli-tuman janrlarining kelib chiqishi bilan hamda yozma adabiyotning tarqalishi bilan bog‘liqdir. Bu o‘rinda boshqa til, adabiyotning ta‘siri ham juda katta rol o‘ynaydi: tojik va rus tilining ta‘siri bilan o‘zbek tili ergash gaplari taraqqiy etdi. Ergash gaplar o‘z taraqqiyotida turlicha o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Ergash gaplar 1) oddiy gap bo‘laklari yoki idiomaga o‘tishi mumkin: *qosh qorayganda, o‘pkasi to‘lib, kun chiqishda, kun botarda, ha deganda, qanday bo‘lmasin, nima bo‘lmasin* v. b. 2) kirish gaplar yoki kirish so‘zga o‘tadi: *men sizga aytsam, qolaversa, bilsangiz* v. b. 3) bog‘lovchiga o‘tadi: *bo‘lsa, bo‘lmasa, yo‘qsa*.

Ikkinchi tomondan bosh gap mazmunining susayishi tufayli, bosh gap ergash gap bilan kirishib ketadi. Bunday hol bosh gaplar *kifoya* (o‘qisa kifoya), *bas* (o‘qisa bas) kabi so‘zlardan tashkil topganda ko‘proq ro‘y beradi. Bosh gaplar kirish so‘z yoki kirish gap bo‘lib ketishi mumkin. Bunday bosh gaplarga *bilasizmi, aytaylik* kabi gaplar misol bo‘ladi.

Yuqorida aytib o‘tilgandek, ergash gaplarning shakllanishi sifatdosh, ravishdosh, shart fe‘li, fe‘l shakllarining, nisbiy olmoshlarning, tobe bog‘lovchilarning shakllanishiga bog‘liqdir.

### Sifatdosh

Sifatdosh ergash gaplarning shakllanishida turkiy tillarda (xususan, o‘zbek tilida) juda katta rol o‘ynagan kategoriyadir. Sifatdoshning turli-tuman shakllari ibtidoiy tilda mustaqil bo‘lib, mustaqil gaplarni tashkil etadi. Uning bunday vazifasi qadimgi va O‘rta Osiyo turkiy tillarida ham ayrim o‘rinlarda saqlanadi. Masalan, *Og‘lin kishisin utuzmaduq* — o‘g‘lini, xotinini yutqizmadi. (9) *Antag‘iyn uchün alqintig‘, ariltig‘* — Shuning uchun ovrulding — sovrulding (KT, kch).

Bu xususiyat XI asr yodnomasida ham saqlanadi.



Sifatdosh qadimgi turk tilida turli shaklga ega edi: *-tuq* || *duq*, *-mish* || *mish* || *mis*, *-ur* // *ür*, *-ir*, *-ma* || *mä*, *-chü* || *-chi*, *-t* || *di*, *-tachü* || *-dachu*, *-g'ma* || *-gmä*. Bu sifatdosh shakllari ot turkumida edilar. Ular mazmunan predmetni harakat tomondan izohlar edilar va boshqa gaplar bilan parataksis turidagi murakkab qurilmalarni tashkil etar edilar. Sifatdoshning bu shakllari ham ot, ham sifatdosh, ham harakat nomi, ayrimlari (asosan, *-t* || *di* va *-mish* || *mish* || *-mis* shakllari) shaxsli fe'l (Verbum finitum) vazifalarida qo'llanadi. Bu sifatdosh shakllari kelishik qo'shimchalarini oladi, ko'makchi bilan birikadi, bosh kelishik shaklida mustaqil yoki ergash gapning kesimi bo'lib keladi.

Taraqqiyotning keyingi davrlarida sifatdosh shakllarining soni kamayadi, ba'zi bir shakllar ayrim turkiy tillarda qo'llansa, boshqalarida ayni shu shakl qo'llanmaydi yoki juda kam ishlatiladi, masalan, ozarbayjon tilidagi *-dig*//*-dig* va o'zbek tilidagi *-gan* sifatdosh shakllari. Sifatdosh taraqqiyotidagi ikkinchi hodisa — sifatdoshdagi fe'llik xususiyatining orta borishi, kesimlik vazifasida ko'proq qo'llanishidir.

Qadimgi turk tilida qo'llangan sifatdosh shakllari XI asr yodnomalari tilida ham saqlanadi, ammo ba'zi bir shakllarning qo'llanish doirasi ancha torayadi: *-duq* || *-dük*, *-ma* || *-mä*, *-g'ma* || *-gmä*, «Hibatul haqoyiq» tilida *-gan* va *-r* shaklli sifatdosh ko'proq qo'llanadi, *-duk* sifatdoshi mustaqil qo'llanmaydi, albatta biror qo'shimchani oladi. «Tafsir» da *-mish* va *-gan* suffikslari analogik vazifani bajara boshlaydi (*-mish* shakli kamroq qo'llanadi); *-duk* sifatdosh shakli odatda aniqlovchi vazifasida keladi, *-gu* shaklining qo'llanishi esa ortadi, *-g'lü*, *-dachu* shakllari kam uchraydi. Eski o'zbek tilida *-mish* sifatdosh shakli bosh kelishik shaklida, yolg'iz deyarli qo'llanmaydi, uning o'rnini asosan *-gan* shakli egallaydi, *-gu* shakli ham kam uchraydi (bu shakl asosan egalik bilan qo'llanadi, *-guluk*, *-gusiz*, *-guchi*, *-gudek* shakllari ko'proq uchraydi), sifatdoshning *-(a)r* shakli keng ishlatiladi. «Shajarai tarokima» asarida asosiy qo'llanuvchi sifatdosh shakllari *-gan*, *-(a)r* lardir.

Hozirgi zamon turkiy tillarda sifatdoshning *-(a)r*, *-gan*, *-mish*, *-gu* shakllari qo'llanadi.

Sifatdoshning fe'llashish xususiyati ba'zi shakllarida tugallangan bo'lsa ham, *(-di)*, ayrimlarida *-(ar)* hozir ham tugallangan emas.

Sifatdosh ma'lum so'zlarni boshqarib, sifatdosh qurilmani tashkil etadi. Bu qurilma tarkibida ega bo'lsa, bunday qurilma alohida bir gapni tashkil etadi. Sifatdosh kesim bo'lib kelgan gaplar boshqa gaplar bilan birikkanda, *ergash gapni* tashkil etadi. Bu holda sifatdosh *ergash gapni* bosh gapga tobelashtiruvchi va bog'lovchi vosita bo'ladi. *Ergash gapni* bosh gapga bog'lash uchun kelishik (odatda, o'rin-payt va chiqish kelishigi) qo'shimchasi yoki ko'makchi ham xizmat qilishi mumkin, ammo bu vositalar til taraqqiyotining keyingi bosqichlarida shakllanadi.

Sifatdosh kesimli gaplarning egasi qanday shaklda bo'lganligi haqida turlicha fikrlar mavjud. Ko'pchilik olimlar bu xil gapning kesimlari aslida qaratqich kelishigida bo'lib, keyingi taraqqiyot natijasida bosh kelishikka ko'chgan deb biladilar, ularning mulohazasiga ko'ra, atributiv birikmalardan predikativ birikmalar vujudga keladi. M.B. Balakayev ko'rsatishicha, sifatdosh kesimning tarkibidagi egalik suffiksining (*men kelganimda*) passivlashishi subyekt tarkibidagi qaratqich kelishigi qo'shimchasining qo'llanmasligiga olib keladi. Bu nazariyaga ko'ra ibtidoiy (qadimgi turkiy) tilda sifatdosh kesimli gaplarning egasi asosan qaratqichda qo'llanishi kerak edi. Ammo qadimgi turkiy tilda bunday qurilmalarning egasi hech vaqt qaratqichda qo'llanmay, doim bosh kelishik shaklida bo'ladi. Demak, sifatdosh kesimli qurilmalarning taraqqiyoti atributiv birikmadan predikativ birikmaga tomon emas, balki aksincha bo'lgan. Hozirgi zamon tilida sifatdosh qurilmaning egasini qaratqich kelishigida, kesimini egalik qo'shimchasi bilan qo'llash qadimgi tilga nisbatan ko'proq uchraydi.

### ***Sifatdosh – ergash gap kesimi sifatida***

Sifatdosh qadimgi turkiy tilda keng qo'llanadi. Sifatdosh yolg'iz, bosh kelishikda yoki boshqa grammatik vositalar bilan birikib *ergash gapning kesimi* vazifasida kela oladi:

1. O'tgan va hozirgi zamon sifatdosh formalari *(-mis* va *-ma)* aniqlovchi *ergash gapni* tashkil etadi; bu holda sifatdosh qurilma bosh gapdagi aniqlanmish so'zdan oldin keladi:

(19) *Echümüz anamız tutmis yer sug' idisiz bolmazun teyin...* — Avlodlarimiz egallagan yer egasiz bo'lmasin deb. (KT, kt) (44/45). *Tinesi og'lu yatug'ma Benligäk tag'ug'... irtimiz* (Toñ.) — Tinesining o'g'li turadigan Bangligak tog'igacha quvladik.

2. Hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shakli **-(u)r** shart ergash gapning kesimi vazifasida kelgan:

(12) (13) *Tabg'ach, Og'uz, Qutan, bu üchägü qabusur, qaltachi biz öz ichi tashun tutmush teg biz* (Toñ.) — Tabg'ach, o'g'uz, qiday — bu uchovi birlashsa, biz yolg'iz qolamiz (ichi-toshimizni ushlab qola beramiz).

Bu o'rinda keltirilgan sifatdosh qurilmalar shartli ravishda ergash gapning bir turiga kiradi. Haqiqatda esa — bu qurilmalar mustaqil bo'lib, ergash **gap** tarzida ham qo'llangan.

Shaklan mustaqil bo'lib, butunicha boshqa bir gap tarkibidagi biror bo'lakni izohlab, unga nisbatan ergash gap bo'lgan bu xil qurilmalarning kesimi sifat yoki **bor, yo'q** so'zlaridan ham ifodalanishi mumkin bo'lgan:

(3) *Ol amti anig' yoq türk qag'an Ötükän yish olursar-ilta bun yoqta* — Endi yomonligi yo'q turk xoqoni Otukan fuqarosi ustiga o'tirsa, elda kamchilik bo'lmaydi (KT, kt).

Bu turdagi ergash gaplarning egasi egalik qo'shimchasini oladi yoki olmaydi: (26) *Neñ yilsig' budunqa olurmadi, ichrä ashsiz, tashra tonsiz yabiz yablaq budunta üzä olurtim* — Men boy xalq ustiga o'tirmadim (xalqqa xon bo'lmadim), men ichi oshsiz (qorni och), tashi to'nsiz, nochor xalq ustiga o'tirdim (KT, kt).

Tarkibida o'z egasi bo'lgan sifatdosh qurilmalari biror yordamchi so'z orqali ham boshqa gaplar bilan aloqaga kirgan, aloqaning turini ham ana shu yordamchilar belgilagan. Yordamchi so'z orqali bog'lanish bu xil qurilmalarning ergash gapga tomon taraqqiyotining keyingi bosqichidir:

1. **Erinch. Erinch** sifatdosh qurilmasini boshqarib, mazmuniga ko'ra (**shekilli**) sabab munosabatini ifodalash uchun xizmat qilgan:

(5) *Anta kisrä inisi echisin teg kılınmaduq erinch ..., biligsiz qag'an olurmis erinch ...* — Undan keyin ukasi akasidek ish qilmagani uchun shekilli, bilimsiz xoqon (podsholikka) o'tirgan ekan (KT, kt).

Bu xil qurilmalarda payt mazmuni ham bo'ladi.

2. *Tep*. Bog'lovchi vazifasidagi *tep* orqali sifatdosh qurilmasi to'ldiruvchilik vazifasida qo'llangan:

(51) (11) ...*beklarim budunim kezi qashi yablaq boltachi tep, saqintim* — Beklarimning, xalqimning ko'zlari va qoshlari xarob bo'ladi, deb qayg'urdim (KT, kt).

3. *Uchün*. Bu davrda *uchün* ko'makchisi mavjud bo'lib, u sifatdosh bilan birikib sabab munosabatini ifodalash uchun ishlatilgan:

(9) *Teñri yarliqaduqin uchün..., qag'an olurim* — Tangri yorlaqagani uchun... xoqon bo'ldim (KT, kt).

(40) (41) *Teñri yarulqaduq uchün, ...biz qorqmaduq süñüşdümüz* — Tangri yorlaqagani uchun..., biz qo'rqmadik, urushdik (Toj).

Sifatdosh qurilmalari kelishik qo'shimchasi yordami bilan ham boshqa bir gapga bog'langan. O'rxun yozuvlarida o'rin-payt kelishigi qo'shimchasi *-da // -ta o'tgan* zamon sifatdoshiga qo'shilgan. Bu xil sifatdosh qurilmalari payt ergash gapni tashkil etadi: (1) *Üzä kek teñri isrä yag'iz yer qilintuqda, ekin arasi kisi og'li qilinmis* — Tepada ko'k osmon, pastda qora yer yaratilgandan keyin, ikkisining orasida odam o'g'lonlari yaratildi (KT, kt).

Bu tipdagi ba'zi bir ergash gaplar o'sha davrdayoq leksikalashish jarayonini boshidan kechirgan: (4) *əñrä, kün tog'siqda...* (KT, kt) — bu birikma *sharqni, kun batsig'da* — g'arbni ifodalagan.

Shunday qilib, O'rxun yodnomalarida sifatdosh va sifatdosh qurilmasining quyidagi asosiy xususiyatlari bo'lgan:

1) sifatdosh shaxs qo'shimchasini olmagan. Bu xususiyat uning ergash gap kesimi vazifasidagi holatigagina emas, mustaqil gaplarning kesimi bo'lib kelgan holatiga ham taalluqlidir;

2) o'tgan zamon sifatdoshi faqat ayrim o'rinlardagina 3-shaxs egalik qo'shimchasini oladi (*duq + i -n*);

3) sifatdosh qurilmasining egasi har vaqt bosh kelishikda keladi.

4) sifatdosh shaklining vazifasi keng bo'lgan va bunday (ot kesimli) qurilmalar asosiy o'rinni egallagan.

Bu davr sifatdoshining fe'llik xususiyatiga ko'ra, uning sifatlik xususiyati ustunroq bo'lgan;

5) shaklan gap hukmidagi sifatdosh qurilmalarning mustaqilligi ancha kuchli bo'lgan. Ayniqsa, sifatdoshi bosh kelishik shaklida bo'lgan qurilmalarda bu xususiyat aniq ko'rinadi. Ayrim hollarda ularning mustaqil gapmi yoki ergash gapmi ekanini aniqlash ancha qiyinlashadi.

M. Koshg'ariyning «Devon»ida va Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilik» asarida sifatdoshning **-gan** shakli keng qo'llanadi. «Devon»da sifatdoshning **ichürgän** turdagi shakli **ichdi** shakli bilan barobar beriladi, har ikki shakl orasida ma'noda farq bo'lsa ham, ikkisi tilda faol qo'llangan. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bu davrga kelib, **-gan** shaklli sifatdoshning fe'llik xususiyati kuchaygan va mustaqil gap kesimi sifatida keng ishlatilgan. Lekin bu sifatdosh, hozirgi zamon tilidagi kabi, o'tgan zamon fe'li sifatida ishlatilmaydi — tamoman fe'lga o'tmaydi. M. Koshg'ariy **-gan** shaklli sifatdoshni predmetdagi doimiy xususiyat, holatni ko'rsatuvchi fe'l shakli sifatida izohlaydi va tarjima qiladi. Bu davr sifatdoshining ikkinchi xususiyati shundaki, sifatdosh shaxs qo'shimchalarini olmaydi — tuslanmaydi.

DLTda va QB da sifatdosh ergash gap kesimi vazifasida ham keng qo'llanadi:

1. Bosh kelishikdagi sifatdosh aniqlovchi ergash gapning kesimi:

*Bir ancha yuruyu, bir ancha turu, Axir tegdi elik turur orduqa* — Bir qancha yurib, bir qancha turib, Elik turgan o'rdaga axir yetdi (QBN, 46; 249). *Kishi türmädük elgä kirsä qalı — Agar* (kimda-kim) kishi kirmagan elga kirsä (QB, N, 47; 250).

2. Sifatdosh **erkän** yordamchi fe'li bilan birikib, payt ergash gapning kesimi bo'lib keladi:

*Kichik erkän, ögrüt og'ulqa bilik* — O'g'ilga kichikligida bilim o'rgat (QB, 118; 3).

DLT va QB da sifatdosh qurilmaning egasi asosan bosh kelishikda keladi va qaratqich kelishigini olmaydi (sifatdosh kesim tarkibida egalik qo'shimchasi bo'lsa ham):

*Adam og'lı ag'rlig'ı bilik birlä erdugin... ayur* — (bu bob) odam zotining qiymati bilimda ekanligini bayon etadi (QB, 6—7).

So'nggi davr yodnomalarida sifatdoshning keng qo'llanganini ko'ramiz. Sifatdoshning ayniqsa **-gan** shakl turi faollashadi. Sifatdoshning turli ko'makchilar va yordamchi so'z vazifasidagi leksik vositalar bilan, kelishik belgilari bilan birikkan shakllari tilda keng qo'llanadi.

### **1. Bosh kelishikdagi sifatdosh**

Bosh kelishikdagi sifatdosh boshqargan qurilma aniqlovchi ergash gap bo'lib keladi:

*Mekkä achilduq kün boldi* (Tf., 86; 6).

«Tafsir»da **te** fe'li sifatdosh shaklida aniqlovchi ergash gapni tashkil etgan (bu xil gap odatda bir tarkibli bo'ladi):

*Manat tedüki taqi but turur* (Tf., 36 b, 5) — Manat degan yana bir but bor.

Sifatdoshning **-duk** shakli Navoiy va Bobur asarlarida uchramaydi, «Shajarai tarokima»da bir o'rindagina uchrab, uni prof. A. N. Kononov qotgan birikma deb hisoblaydi. QA, BN, St.tar.da **-g'an**, **-(a)r**, **-fu)r** shaklli sifatdoshlar aniqlovchi ergash gap kesimi vazifasida keng qo'llanishini ko'ramiz.

*Yüsuf tüşgün quduq bashing'a kelib tüştilär* (QA, qyo, 218). *Közi körmäs tili sözlämäs eligi tutmas ayag'i yürimäs närsani alg'uchi barmu* (QA, lit., 76). *Charxining men tartmagan dardu balasi qaldimu...(Babir) Uruq talatib äldurub biz ötgän qipchaq yoli bilä äshib Abo qorig'ida kelib bizgä qoshildilar* (BN, 150). *...birlän Tibetnin arasi atliq kishi bir yatib baraturg'an yer bolur* (Sh.tar., 24).

Shunisi xarakterliki, aniqlovchi ergash gaplarning bu turi borgan sari keng qo'llana boradi. Bu xil qurilmalarning egasi O'rxun yodnomalari, DLT, QB, Tf. da bosh kelishikda keladi, sifatdosh kesim tarkibidagi egalik qo'shimchasi kam ishlatiladi. So'nggi va hozirgi zamon yozma adabiyotida esa, aniqlovchi ergash gapning egasi ayrim hollarda qaratqich kelishigida keladi (bu hol ega va kesim orasidagi munosabatni yanada aniqlash, ta'kidlash uchun ishlatiladi).

## 2. Yordamchi soʻz va shu vazifadagi soʻzlar bilan birikkan sifatdosh

Sifatdosh koʻmakchilar va shu vazifada kelgan soʻzlar bilan birikib, turli ergash gaplarning kesimi boʻlib keladi.

1) *Üchün* koʻmakchisi bilan birikkan sifatdosh sabab ergash gapning kesimi vazifasida kelgan. Sifatdosh-kesim koʻpincha egalik qoʻshimchasini olmagan:

*Kob nuha qilgʻan üchün* Nuh atandi (QA, qyo 43). *Qorqut-ku üchün...*, (Tf, 28; 24). ... *eshitmäzlik üchün...* (Tf, L. 108;18). *Atasi vilayatqa kirib nechä mahal sallahlük qilgʻan üchün Qanbar Ali sallah der edilär* (BN, 31).

Bundan tashqari, *üchün* koʻmakchisi sifatdoshning *-duq* (Tf.), *-r*, *-mish* shakli bilan ham birika olganki, bu holat hozirgi zamon oʻzbek tilida qoʻllanmaydi:

*Öldüki üchün yigʻlashmazuz va lekin bilmäzmiz...* (Tf, 71 b, 16). *And berdüküe üchün...*, (Tf, l. 145,2). *Yazlar chibini kop bolur üchün, bu öläeni käm körürlär...* (BN, 154). *Bu oʻt bota-bota chiqar üchün betäkä derlär emish* (BN, 165):

«Shajarai tarokima»da *üchün* koʻmakchisi bilan tuzilgan ergash gapli qoʻshma gap qurilmasi uchratilmaydi, *üchün* oʻrnida *sababdin* ishlatiladi:

*Oz qarindashlari yurtinda yagʻi bolgʻan sababdin tura bilmäy qaytib ketdi* (Sh.tar., 51).

XIX—XX asrga kelib, *-gan* shaklli sifatdoshning *üchün* koʻmakchisi (yoki *sababli* soʻzi) bilan birikkan shakli keng qoʻllana boshlaydi.

2) *bilä*, *birlü* koʻmakchisi bilan birikkan sifatdosh yozma yodgorliklarda kam uchraydi:

*Äz ägʻläq chiqgʻän kishisi urushqa turmay qächqän bilä qorgʻängʻa kirdilär* (BN, 151).

*Birlü* koʻmakchisi bu iborada payt ergash gapning kesimi vazifasida keladi. Bunday qurilma hozirgi zamon tilida toʻsiqsiz ergash gap boʻlar edi. Payt ergash gapning *bilän* koʻmakchisi bilan bosh gapga bogʻlangan turining kesimi hozirgi zamon tilida harakat nomi orqali ifodalanadi — bunday qurilma yozma yodgorliklarda

ham qoʻllangan:

*Ibrāhimniy qutluq eligi tekmaği birlä qamugʻ zuhhām bolur erdi* (QA, qyo, 154).

3) *Səj, səjrä, keyin* koʻmakchilari sifatdosh bilan birikib, payt ergash gapning kesimi boʻlib **keladi**:

*Mundāq närsä əlüb näjāyiz bolgʻandin keyin qaydin tirgüzür deb...* (QA, qyo, 165). *Qirq tün kün tamām bolgʻandn səj Yaʻqub yalawachqa uyqu gʻalaba qildi* (QA, qyo, 210). *Bu sura ayinduqdin səjrä* (Tf., 145; 4). *Dirilduqdin səj...* (Tf., 1. 96 b, 9). *erānlərdin mārđānə gunāh vujudqa kelsä, boyniga yüklängüandin səj boynin urarlar* (N., MQ, 54). *Menie välidälərim va köch va uruqlarim men Andijāndin chiqgʻandin səjrä yüz təshvish va mashaqqatlar bila Oratepa kelib edilär...* (BN, 105). *Əlgüandin səj inisi Särnäknü pādshāh gildilar* (SH.tar., 63).

Sifatdoshning **-gan** shaklidan tashqari boshqa shakllarining *səj, keyin* yordamchilari bilan birikishi soʻnggi davr yodnomalarida kam uchraydi, «Shajarai tarokima» va undan soʻnggi adabiyotlarda butunlay uchramaydi. «Qissasul anbiyo»da *keyin* koʻmakchisi sifatdoshning **-mish** shakli bilan birikishi meyoʻriy hol boʻlgan:

*Tāqān teshikdin urilmishtan keyin yārliq keldi* (QA/ Rq, 217).

*Səj, keyin* koʻmakchilari odatda chiqish kelishigini boshqaradi. Ammo bu qonun qadimgi yodnomalarda qatʻiy boʻlgan emas. «Qissasul anbiyo»da u bosh kelishikni ham boshqarib kela olgan:

*Ismāʻil āvdan kelgän səj Sayyidā sālām yetkürdi* (QA, Rq, 142).

4) Sifatdosh *bürün* koʻmakchisi bilan birikib, payt ergash gapning kesimi boʻlib kelgan:

*Tān ātmasdin bürün eldin chiqsunlar* (QA, qyo, 178).

*Qarintashlari xabardār bolmasdin bürün...* (Sh.tar., 76).

*Bürün* koʻmakchisi odatda chiqish kelishigini boshqaradi. Ammo «Qissasul anbiyo»da uning oʻrin kelishigi bilan birikkanini ham koʻramiz:

*Yüsuf...quduq tübigä yetmäsda bürün...*(QA, qyo, 214). *Orqān yergä yetmäsda bürün...*(QA, qyo, 217).

5) *erkün* koʻmakchi feʻli ham sifatdosh bilan birikib, payt ergash gapni tashkil etgan:



*Urug'ati uyur erkän sachi birlä bag'ladi* (Tf., 13—90, 21). *Far'äun qiziniñ bashin tarar erkän erklü tüşdi* (Tf., 133, 11).

*erkän* ko'makchi fe'li xuddi shu funksiyada QB va QA da ham qo'llangan:

*Sen og'lan kichik erkän eldi dadarı* (QB, N, 483). *Bu sozni sozlëshür erkän...* (QA, lit., 65).

6) *vaqt, mahal, fursat, hālat* kabi leksik vositalar sifatdosh bilan birikib, o'zining leksik ma'nosi va vazifasini qisman yo'qotib, ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita vazifasida keladi. Bu so'zlarning yordamchilik vazifasi asosan «Boburnoma», «Shajarai tarokima» asarlaridan boshlanadi. Ularga qadar bo'lgan yozma adabiyotlarda bunday qurilmalar juda kam uchraydi:

*Aja mināsi vaqtin* (Tf., 68 b, 2) *Mir Alisher Navāiy Hiridin Samarqand(g'a) kelgan fursatlar(da) Ahmad Hājibek bilä bolur edi, Sultān Husayn Mirzā pādshāh bolg'andin soj Hirigä keldi* (BN, 37). *Ävdulkärimni ātini Mahdi Sultān (cherkāsay) qilich bilä chāpqāch o'q āti yiqildi. Özi qopar hālatda Mahdi Sultān ilikini bāndidin tushura chāpti* (BN, 56). *Sultān Husayn mirzā ālg'ān mahalda Yādgār Muhammad mirzā va tavābin andāq ichkülikkä tushgan ekändürlärkim...* (BN, 104).

Bu xil qurilmalar hozirgi zamon tilida keng qo'llanadi.

### 3. Kelishiklar bilan birikkan sifatdosh

O'rin-payt va chiqish kelishigi sifatdosh kesimga bog'lanib, ergash gapni bosh gapga bog'lovchi vosita sifatida qo'llangan (O'rxun yodnomalarida faqat *-da// -ta* qo'shimchasi shu vazifada ishlatilgan edi).

**O'rin-payt kelishigi** payt ergash gapni bog'lash uchun xizmat qiladi (ergash gap kesimi ot kesim bo'lganda, kelishik qo'shimchasi *erkän* ko'makchi fe'liga qo'shiladi).

«Qissasul anbiyo»da o'rin-payt kelishigi asosan *-r, -mish* shaklli sifatdoshga qo'shiladiki, bu holat hozirgi zamon o'zbek tilida uchramaydi:

*Tamāshādin kelürdä Yüsüfqa yoluqtı* (QA, qyo, 234). *Yüsüf kichik erkändä Rāhil vafāt qildi* (QA, qyo, 203). *Vafāti bolmishta yüz*

yigirmi yashayur erdi (QA, qyo, 216).

So'nggi davr yodnomalarida o'rin kelishigi **-gan** || **-kan** sifatdosh shakliga qo'shiladi (**-r** shaklli sifatdoshga qo'shilishi kam uchraydi): *Bu qulnie jani küygändü özgälärnin etägi kuymäs* (N., MN, 21). *Xän yürtidä ekündä qorg'āndagilar firib bilä kishi yubārib, dedilärkim...* (BN, 58). *Men kergündü bu bāg' büzülib edi* (BN, 64). *Irāq buzug'lig'ida Sultān Mahmud mirzāg'a qoshulub, yolda kelürdä shāyista xizmat qilg'an üzün Sultān Mahmud mirzā riāyat qilib edi* (BN, 45). *Sözläshib olturg'anda xatunidin sordi kim buniñ säbābi ne turur* (Sh.tar., 15). *Rabochiylar... söz ayta bāshlag'anda... temir yol xizmatchilari... bizlärdin uzāq tüshdilär* (TVG, № 10, 1895).

**Chiqish kelishigi** o'rin-payt kelishigiga nisbatan kamroq qo'llangan. Bu kelishik payt yoki sabab ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qilgan:

*Kün batmasdan...* (Tf., l. 26; 2). *Qārā xalqnie tili kelmäslikdin qāfni jim oquyturur* (Sh.tar., 19). *...fuqarāni asir etgänläridin fuqarā ...muhtāj bolub qālmishlar* (TVG., № 85, 1913).

Sifatdosh kesim yuqorida ko'rsatib o'tilgan vositalarda tashqari boshqa vositalar bilan ham birikishi mumkin.

**-dek** || **-day** bilan ravish yoki aniqlovchi ergash gap bosh gapga bog'lanadi:

*bir...tug'urdi ular tilägändäk* (QA, lit., 68). *Bu ishi siz aymish tek ermäs* (QA, qyo, 220).

Shunday qilib, kesim vazifasida kelib, turli grammatik va leksik vositalar bilan birikkan sifatdoshning quyidagi xususiyatlarini ko'ramiz:

1) sifatdosh kesim har uch shaxsda bir xil shaklda saqlanadi. Shaxs qo'shimchasi bilan kam qo'llanadi;

2) sifatdosh kesim asosan egalik qo'shimchasisiz qo'llanadi;

3) bu xil qurilmalarning egasi bosh kelishik shaklida keladi. Ammo tushum, jo'nalish kelishigida kelgan sifatdosh boshqargan qurilmaning subyekti qaratqich kelishigida keladi, shuning uchun ham bu xil qurilmalar ergash gap emas, so'z birikmasi sanaladi:

*Yaqub og'lanlarin tewä birlä kelürin kordi* (QA, qyo, 188). *...ichku arasinda qoyub raqqliq qilib bularniñ kech qälganlarin ayta bergil*

(QA, lit., 58). ...*qaysiniñ xob ekänin ahli xrad bilgäy xob* (N., MQ, 133). *Kichik xän dadamniñ bu zamän kelürini tahqiq bilmäy hälidin sur'at bilä ätlanib edim* (BN, 123). *elnıñ ne qilg'anin aytalim* (Sh.tar., 59). *Barchaniñ bäraturg'an yurtig'a ketdi* (Sh.tar., 12).

Kesimi sifat yoki *bor, yo'q* so'zlaridan, ot va sifatdan ifodalangan qurilmalar ham qadimgi yodnomalardan tortib hozirgi zamon tiligacha (hozirgi zamon tilida ham) keng qo'llanuvchi qurilma bo'lganlar. Ularning tarkibida o'z egalari bo'lib, u bosh kelishikda qo'llangan. Prof. A. N. Kononov bu turdagi qurilmalarni ergash gap deb ta'riflaydi va «Shajarai tarokima»dan misol keltiradi («Shajarai tarokima», 171-bet).

*Ati Muhammad laqabi Baxtiyār bir pahlivan yigit bār erdi* (375—376-betlar).

Ergash gaplarning bu turi «Qissasul anbiyo»da, so'ngra, Navoiy asarlarida va boshqa manbalarda ham ko'p uchraydi:

*Hajarni el yoq kishi yoq yerdä qoyg'il* (QA, qyo, 137). *Yüzi kerkluk Yüsüfni...* (QA, qyo, 184).

### *Ba'zi xulosalar*

Sifatdosh va sifatdosh qurilmasining taraqqiyoti quyidagi umumiy xulosalarga olib keladi:

1. Qadimgi va eski turkiy tilda sifatdoshning turli shakllari (*-duk // -tuk, -(u)r, -mish // -mis, -chi // -chi, -ma // -ma, -gan // -kan* kabi) bo'lib, so'nggi davrlarga kelib, o'zbek yozma yodgorliklarida, bu shakllarning ichida *-gan // -kan* sifatdosh shakli asosiy va yetakchi o'rinni egallaydi.

2. Qadimgi turkiy tilda sifatdoshning ma'no va vazifasi keng bo'lgan. U ham sifatdosh, ham ravishdosh, ham verbum finitum vazifalarida keladi. Keyinroq uning ma'no va vazifa doirasi toraydi (bunga o'zbek tilida sifatdoshning *-gan* shakli asos bo'lib qolishi ham sabab bo'ldi): hozirgi zamon tilida esa *-gan // -kan* sifatdoshi faqat ikki vazifada — sifatdosh va o'tgan zamon fe'li sifatida qo'llanadi, xolos (o'tgan zamon fe'li vazifasi uning sintaktik vazifasi va kontekstdan ayon bo'ladi).

3. Qadimgi turkiy tilda sifatdoshning mustaqilligi kuchli bo'lgan,

u mustaqil gap kesimi sifatida qo'llana olgan.

Hozirgi zamon tilida ham sifatdosh mustaqil gap kesimi sifatida qo'llana oladi. Ammo farq shu yerdaki, mustaqil gap kesimi vazifasida qo'llangan sifatdosh shakli ham sifatdosh, ham o'tgan zamon fe'lidir. Shuning uchun ham M. Koshg'ariy: (DLT, I) *bu o't (dori) ol kishini uditg'an* iborasidagi *uditg'an* sifatdosh shaklini predmetdagi doimiy, mavjud xususiyat sifatida tarjima etadi. Bu sifatdoshni hozirgi zamon tilida *uxlatgan* sifatida tarjima etish to'g'ri bo'lmas edi. Chunki *uxlatgan* o'tgan zamon fe'li bo'lib, o'tgan zamonda ro'y bergan bir holatni ifodalaydi. Bu shaklni *uxlatadigan* shaklida tarjima etish to'g'ri bo'lar edi. Chunki bu shakl sifatdoshlik xususiyatini saqlaydi — predmetdagi doimiy, mavjud bo'lgan xususiyatni ko'rsatadi.

Demak, sifatdoshning shakli hozirgi zamon tilida ham saqlansa-da, uning ichki mazmunida siljish, o'zgarish ro'y bergan. Qadimgi turkiy tildagi sifatdosh ko'proq sifatga yaqin (uchala shaxs uchun ham bir xil shakl qo'llanadi); keyinroq sifatdoshda fe'llik xususiyati orta boradi va o'tgan zamon fe'li uchun ham asos bo'ladi.

Qadimgi turkiy tildagi sifatdoshda sifatlik belgisining ustun bo'lishi sifatdosh boshqargan qurilmaning boshqa bir gapga tobelanishiga asos bo'ldi — ergash gapning yaratilishiga zamin tug'dirdi.

4. Qadimgi turkiy tilda sifatdosh shaxs bilan tuslanmagan va asosan egalik qo'shimchasini olmagan.

Sifatdoshning shaxs bilan tuslanmasligi so'nggi davr yozma yodgorliklarida («Boburnoma»dan keltirilgan misollar), hatto hozirgi zamon o'zbek tilining ba'zi bir shevalarida (masalan, Jizzax shevasida) ham uchraydi. Faqat so'nggi davr yodnomalarida sifatdosh mustaqil gap kesimi bo'lgandagina shaxs qo'shimchasi bilan tuslangani ko'rinadi. Ergash gap kesimi vazifasidagi sifatdosh shaxs bilan tuslanmaydi.

Sifatdoshning egalik bilan turlanishi ham qadimgi turk tilida juda chegarali bo'lgan. So'nggi davr yozma adabiyotida, ayrim o'rinlardagina qo'llangan, faqat hozirgi zamon o'zbek tilidagina sifatdosh egalik qo'shimchasi bilan ko'proq qo'llana boshladi. Lekin

uning ishlatilishi hali ham juda chegaralidir.

5. Sifatdosh qurilmasining egasi qadimgi turkiy tilda bosh kelishikda qo'llangan. So'ngi davr yozma adabiyotida ham bu holat asosan saqlanadi. Hozirgi zamon tilida esa ayrim hollarda ega va sifatdosh kesim orasidagi munosabatni yanada aniqlash, ta'kidlash uchun sifatdosh qurilmaning egasini qaratqich kelishigida qo'llash va sifatdosh kesimini egalik bilan turlashga moyillik sezilmoqda. Shuning uchun ham tarkibida o'z egasi bo'lgan sifatdosh qurilmasi qaratqich va qaralmish (izofa) munosabatining o'zgarishidan kelib chiqqan deb tushunish to'g'ri bo'lmaydi.

Sifatdosh qurilmasining tarkibidagi ega va kesimning shakllanishi bu xil qurilmalarning hammasida ham bir xil emas va tarixiy taraqqiyotida ham bir xilda bo'lmagan:

a) adabiy til tarixida sifatdosh qurilmalarning egasi bosh kelishik shaklida bo'lganda, sifatdosh-kesim tarkibida egalik qo'shimchasi juda kam qo'llanilgan. Hozirgi zamon adabiy tilida ham bu xil sifatdosh qurilmalarning egasi asosan bosh kelishik shaklida bo'lib, sifatdosh-kesim egalik qo'shimchasi bilan kam ishlatiladi. Ammo eganing qaratqich kelishigida kelishi va sifatdosh-kesimning egalik qo'shimchasi bilan kam ishlatilishi ham mumkin. Sifatdosh qurilmaning ega va kesimining shakllangan holda qo'llanishi bu xil qurilmalar taraqqiyotining keyingi bosqichini tashkil etadi;

b) sifatdosh qurilmalarning to'ldiruvchi vazifasida keluvchi turining tarkibidagi subyekt qadimgi turkiy yodnomalarda bosh kelishik shaklida bo'lib, predikat egalik qo'shimchasini oladi. Keyingi davr yozma adabiyotida («Qissasul anbiyo», Navoiy, Bobur asarlari) bu xil qurilmaning subyekti asosan qaratqich shaklida bo'lib, predikat egalik qo'shimchasi bilan shakllanadi. Hozirgi zamon tilida ham to'ldiruvchi vazifasidagi sifatdosh – qurilmalarning subyekt va predikati ana shunday shakllanadi;

d) sifatdosh qurilmaning aniqlovchi vazifasidagi turining egasi va kesimi tarixiy yodnomalarda asosan bosh kelishik shaklida bo'lgan. Hozirgi zamon tilida bu xil qurilmalarning egasi ayrim hollarda (aniqlik uchun) qaratqich kelishigida qo'llanmoqda.

Shunday qilib, sifatdosh qurilmalarning tarixiy taraqqiyoti uning

tarkibidagi bosh bo'laklarning shakllanishga tomon taraqqiy etib borganini ko'rsatadi;

e) qadimgi turkiy yodnomalarda ergash gap kesimi vazifasidagi *sifatdosh ayrim grammatik va leksik vositalar bilangina birika olgan*. Tarixiy taraqqiyot natijasida sifatdoshning turli kelishiklar, ko'makchilar va ayrim leksik vositalar bilan qo'llanish imkoniyati orta bordi. Bu esa uning ma'no va vazifa doirasini ham kengaytira bordi.

6. Til taraqqiyoti sifatdosh qurilmalarining tobora qo'llanish doirasi kengayib borganini ko'rsatadi. Hozirgi zamon tilida sifatdosh qurilmasi ergash gaplarning asosini tashkil etadi.

### Ravishdosh

Ravishdosh aslida sifatdoshdan kelib chiqadi. Uning shakllana borishi til taraqqiyotining ilk davrlarida bo'lib, bizga ma'lum bo'lgan qadimgi yodnomalarda (O'rxun yozuvlarida) uning ancha shakllangan turlari mavjud edi. Bu shakllanish keyingi davrlarda ham davom etadi.

Ravishdosh o'zining fe'llik xususiyatiga ko'ra, ma'lum so'zlarni boshqarib kelishi va alohida qurilmani tashkil etishi mumkin. Bunday qurilmaning ayrimlari tarkibida o'z egasi ham bo'ladi. Bu xil ravishdosh qurilmasi gapni tashkil etadi.

O'rxun yodnomalarida *-ip* shaklli ravishdosh qurilmasining boshqa bir gap bilan birikib, qo'shma gap tashkil etganini ko'ramiz:

(47) (7) *...oza kelmis süsin Külte(gin) ag'itip, Tojra bir og'ush alpag'u on erig, Toja tegin yog'inta, egirin öürtimiz* — Kultegin qo'shinlarini haydab yuborgandan keyin, Tongra teginni ko'mish marosimida Tongra urug'idan o'n bahodirni o'ldirdik (KT, kt).

Keltirilgan qo'shma gap tarkibidagi ravishdosh qurilmasi mazmunan payt ergash gapga o'xshasa ham, unda sabab ma'nosi ham bor; shu bilan birga, bu qurilma bog'langan qo'shma gapni ham tashkil etadi.

S.Y. Malov «Памятники древнетюркской письменности» asarida «Сложные предложения» sarlavhasi ostida ravishdosh qurilmali bir qancha misollarni keltiradi. Bu qurilmalarni *-ip* (KT,

kch, 4–5), -y (KT, kt), *matin* (KT, kch) shaklli ravishdoshlar boshqaradi. Keltirilgan ravishdosh qurilmalarning tarkibida o‘z egasi yo‘q, shu sababdan bu xil qurilmalarni qo‘shma gap hisoblab bo‘lmaydi. Ammo S. Ye. Malov «сложные предложения» termini ostida bizning tushunchamizdagi «qo‘shma gap»ni tushunmay, tarkibi keng, yoyiq bo‘lgan «murakkab gap»ni tushungan bo‘lsa kerak. «Сложные предложения» («Murakkab gap») ostida tarkibi keng bo‘lgan sodda gapni ham tushunish mumkin.

Ergash gaplarning shakllanishida - *(i)b* shaklli ravishdoshning roli kattadir. Bu shaklli ravishdosh qurilmasi turli mazmun munosabatlarini ifodalagan, uning mazmun va vazifa doirasi, hozirgi zamon tilida qo‘llanishiga qaraganda ham, kengroq bo‘lgan:

1. Ravishdosh qurilmasi holat-payt munosabatini ifodalaydi — bosh gapdan anglashilgan mazmunning ro‘y berish holati va paytini ko‘rsatadi:

*Ay qopub ewlänüb, Aq bulit örlänüb, Bir-bir üzä öklänüb Sachlub suwi eñräshür* — Oy chiqib, atrofini bulut doirasi — o‘tovi o‘raganda, bulutlar bir-birining ustiga mingashib gulduros bilan suvlarni to‘kadi (DLT, I, 258, 1–4). *Abābakr mirzäg‘a Mazidbek arg‘un va qaraqoylik türkmän bekläri qoshulub sultan Mahmud mirzänin üstigä Hisärda kelgända sultän Mahmud mirzä äg‘asig‘a Samarqandg‘a bārdi* (BN, 46). *Ātanj ölüb men bu taxtda olturub elni sorāy turg‘ali ottuz besh yil turur* (Sh.tar., 48).

Keltirilgan misollarda ko‘rinadiki, -*(i)b* shaklli ravishdosh qurilmasi ham payt, ham holat munosabatini ifodalab qolmay, ular ba‘zan bog‘langan qo‘shma gapga yaqin bo‘lib, qo‘shma gap qismlari mazmunan ancha mustaqil bo‘ladi («Shajarai tarokima»dan keltirilgan misol), ba‘zilarida payt-holat mazmunidan tashqari sabab ma‘nosi ham bo‘ladi, ayrim hollarda payt ma‘nosi ustun bo‘lsa, boshqa hollarda holat munosabati ustun bo‘ladi. Masalan: *Ichti bolub yüzi terin* — Yuzi burishib, ichdi (DLT, T, 82; 6).

Ravishdosh qurilmasining bu ma‘no munosabati hozirgi zamon o‘zbek tilida ham qo‘llanadi.

2. Ravishdosh qurilmasi shart munosabatini ifodalaydi:

*Yanshaq telim sayrab ani tamg‘aq qatar* — Behuda so‘zlar

ko'payib ketsa, og'iz qurib, jag' qayishadi (DLT, I, 434; 11). *Har diram kim tügüb, g'assaldin özgä kishi ächmäq mahal, har simkim kemüb tufräg'din özgä biräv ani yemäkkä yoq ehtimäl* (N., MQ, 50—51). *Bir kün farmän boldikim, g'ul, bläng'är, jiväng'är tamäm tebä kiyib ätlarig'a kejim sälib yävuqräq bärüb, ham yaräq keriügäy, häm ichkärigi elgä siyäsäti bolg'ay* (BN, 150).

Keltirilgan ravishdosh qurilmalarini hozirgi zamon tilida shart fe'li bilan almashtiriladi.

Ravishdosh qurilmaning bu xil ma'no munosabat ifodalagan turi hozirgi zamon tilida qo'llanmaydi; bunday qurilma «Boburnoma»dan so'ng yozilgan asarlarda ham juda oz uchraydi, «Shajarai tarokima»da butunlay uchramaydi.

3. Ravishdosh qurilmasi sababni, bosh gap undan kelib chiqadigan natijani ifodalaydi:

*Meni kerüb yesi ag'di* (DLT, I, 179; 18). *Bashi yarilib, oldi* (QA, qyo, 183). *Qorqub yüräklari tütrag'ay* (Tf., 123, b, 11). *Häsik äyninie yigirmä ältisida dushanba küni ijäzat bolub, Marvdin Astrabadg'a äzimät etqani tushti* (N., MN, 9). *Bu sözni eshitgäch menga iztirüb kopraq bolub qilur ishimni bilmädim* (BN, 141). *Ul badbaxtnin køjigä bu söz yaxshi kelib yüz mie tängä in'am qildi* (Sh.tar., 25). *Ushbu künda yanadin havä ächilib musaffä bolub dehqänlar xirmänlarin...kötärib äldilar* (TVG, № 43, 1896).

Bu xil ravishdosh qurilmalarida sababdan tashqari, payt munosabati ham ifodalanadi.

Sabab-natija munosabatini ifodalagan bu xil qurilmalar hozirgi zamon tilida keng qo'llanadi.

4. Ravishdosh qurilmasi mazmunan ancha mustaqil bo'lishi va so'nggi gap bilan birikib, bog'langan qo'shma gapni tashkil etishi mumkin. Ravishdosh qurilmasining bu turi, ayniqsa tarixiy yodnomalarda ko'proq qo'llangan. Bu hol ravishdoshning mustaqil bo'lganligi, alohida gapni tashkil eta olishlik xususiyatidan darak beradi.

Hozirgi zamon tilida ham ravishdosh qurilmaning bu turi qo'llanadi, ammo ravishdosh qurilma ko'pincha mazmunan so'nggi gapga ko'proq bog'lanadi, bu bilan uning ergash gapga moyilligi seziladi.



«Devon»da bu xil ravishdosh qurilmalar keng qoʻllanadi: ravishdosh qurilmasi oʻzaro teng bogʻlangan qoʻshma gapni tashkil etadi:

*Qizil, sarigʻ arkashib, Yelkin, yashil yuzkashib, Bir-bir keru yurkashib, Yaliquq anin taylashur* — Qizil, sariq gullar bir-biriga suyanishib, yashil rayhonlar bir-biri bilan oʻralashib, ularni koʻrgan kishi tang qoladi (DLT, T375; 17–20).

Bunday qurilma Navoiyda ham ancha keng qoʻllanadi:

*Bu da 'vā bāshigʻa yetkunchā nechāsini may eltürüb, nechāsın özgā fisq dozaxga yetkurub, yuzdin biri ki ma 'rakagʻa yetib va yortagʻ chanish bilā ezin zayi' etib* (N., MQ, 18). *Türlük-türlük illätlär bādāni uyida öküb 'ejüb märüz käsrätidin hayätidin tongulub* (N., MQ, 149–150).

Ravishdosh qurilmasining bu turi Navoiydan keyingi yodnomalarda asosan qoʻllanmaydi, baʼzi oʻrinlarda anʼanaviy uslubga muvofiq ishlatilishi uchrab qoladi:

*Ismā'il afandinin shägirdlarindin biri 11 yashar bälä ornidin turub ushbu tubandagʻi nutqni sezläb ahli mäjlisni hech kim mundagʻ taajubgʻa qoymish* («Taraqqiy», № 17, 1906).

Ayrim hollarda ravishdosh qurilmaning va soʻnggi gap kesimining tarkibidagi bir xil boʻlak umumlashib keladi:

*Aqlqa Ögdülmish at berib, vazir ogʻli ezinjä tutmish turur* — Aqlga Oʻgdülmish ot berib, uni vazir oʻgʻli deb oldi (QB, soʻz boshi). *Mudbir takabbur nätijäsidin shähär gelxänida maqām tutub Muqbil adab va tavāz' faydasidin gävxär maqsud täpib shäh gulishanida äräm täpdü* (N., MQ, 83).

Mazmunan oʻziga ancha mustaqil boʻlgan ravishdosh qurilmaning boshqa bir turida ravishdosh qurilmaning mazmuni bilan soʻnggi gap mazmuni orasida maʼlum darajada bogʻliqlik boʻladi; qoʻshma gapning ikkinchi qismidan anglashilgan mazmun ravishdosh qurilmasida ifodalangan mazmunga ozmi-koʻpmi bogʻlangani anglashiladi:

*Ögi køjli achlup, yarudu yula*— Fikri, koʻngli ochilib, magʻrurlanadilar (QBN, 53; 2,59). *Toqluq hirsin køjüldin yoq qil, ezün äch bolub, bir ächni toq qil* (N., MQ, 161). *Ölüm dagʻdagʻasi xätirdan raf bolub ächliq shiddätü eldin daf boldi* (BN, 115). *Torttävsi*

*ham evli va kob mälli kadxidäylar här qaysi bir yerdä olturdilar. (Sh.tar., A7)...degän bäyi ölüb anie bir yäsh xätini...bär ekan. (TVG, № 1,1900). Maktabda bir kitäbxäna bolub dars kitäblarini sätib faydasi maktab(ga) qilinur (Taraqiy, № 9, 1906).*

Misollardan ko'rinadiki, qo'shma gapning birinchi qismi ot kesim bo'lganda, ravishdosh shaklidagi *bo'lmoq* fe'lini qabul qiladi. Hozirgi zamon tilida ravishdosh qurilmasining bu turi qo'llanadi.

-(i) *b* shaklli ravishdosh bilan birga -(i)*bän* shaklli ravishdosh ham ravishdosh qurilmasini tashkil etgan; bu xil ravishdosh qurilmalari sabab, payt, holat, munosabatlarini ifodalagan:

*Yay baruban erküzi, Aqti aqin munduzi, tug'di yarug' yuldüzi, Tiyla sezüm külgüsüz* — Bahor kelib, muzlar suvi erib, selday oqa boshladi. Yorug' yulduz tug'di. So'zimni kulmay tingla (DLT, 1, 121, 20–23).

Ergash gapni tashkil etuvchi ravishdosh shaklining ikkinchisi -*gunchä* dir. Bu shaklli ravishdosh quyidagi mazmun munosabatlarini ifodalagan:

1. Bosh gapdan anglashilgan mazmunning paytini ko'rsatadi:

*Tabug' siymägünchä tiläg kim bulur* — Ish (xizmat) ko'ngilga to'g'ri kelmaguncha, kim tilagiga yetadi (QBN, 54; 58). *Tetik bo'lmag'incha qali adrar ish* (QB, R., 242).

Bu xil qo'shma gap tarkibida ravishdosh qurilmasi shart mazmunini ham ifodalaydi:

*Ol kelgünchä tüşhün ash bog'uz etäyin* (QA, qyo, 148). -*günchä* shaklli ravishdosh ba'zan -*tä* bog'lovchisi bilan birga qo'llanadi, bu bog'lovchi payt mazmunini yanada ta'kidlaydi: *Tä halälliq qilmag'incha...*(Tf., L. 45 b., XLII sura).

Ma'lumki, -*günchä* affiksi ikki qismdan iborat: -*gün* > *gän* + *chä* (*chäq*>); *birinchi* qism asosan -*gun* shaklida qo'llanadi. «Qissasul anbiyo»da asli -*gan* shakli ham uchraydi: *Sära tirik erkänchä anie haqin saqladi* (QA, qyo, 165).

Ba'zan -*gun* \ \ -*gan* qismining -*n* tovushi tushib ham qoladi: *Qamug'in kün yarug'icha haläk qildi* (QA, qyo, 183)... *qizlari äsh etgichä Lot yalafach...*(QA, qyo, 185).

Bu ravishdoshning birinchi qismi sifatdosh shakli bo'lgani uchun ham «Qissasul anbiyo»da -*gan* o'rnida sifatdoshning -*duk* yoki -*mish* shakllari qo'llanadi:

...baha qildilar kun keldügichä bahāsin arturdilar (QA, qyo. 229). Yūsuf bir qapug'din kirmishchä ul qapug'ni berkittilar (QA, qyo, 247),

«Tafsir»da *-güncha* \|-*g'incha* shakli bilan barobar *-inchä* shakli qo'llanadi:

*Bular barinchä ashin suwin rast qilg'ay teyü...*(Tf., 47; 6).

Ravishdosh qurilmasining bu turi so'nggi davr yodnomalarida va hozirgi zamon tilida keng qo'llanadi:

*Tä sächqan däni kəkärgünchü orub xirmän qilib mahsulın ketärgüncha, qurtu qush andın bahramand, dasht vahshiysi anin bilä xursand* (N., MQ, 46). *Mog'ulniy räsmi andag' erdikim, tä og'län bir yashig'a yetmagüncha ang'a ät qoymaslar erdi* (Sh.tar., 13).

2. *-ginchä* \|-*günchü* ravishdosh shaklli qurilma qiyoslash munosabatini ifodalaydi:

*Öküz ađaqi bolg'incha, buzag'u bashi bolsa yik* — Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshi (DLT, I, 91; 24). *Yūsuf aytti, meni sevgünchä öz erinji sevgil* (QA, qyo, 243). *Dedimkim, mundāq dushvārlik bilä tirilgünchä, bāsh ālib eltsām yaxshi. Bu nav' xārliq va zārliq bilä el bilgünchä āyāg'im yetgänchä ketsam yaxshi* (BN, 112).

3. Holat bildiradi:

...*tilägänchä bolmas turur* (QBN, 310).

«Tafsir»da *-duqcha* shakli ham uchraydi, bu qurilma yuqorida aytib o'tilgan mazmundan tashqari, to'siqsizlik munosabatini ham ifodalaydi:

*Nechä alduqcha bayag'i teg bolg'ay hech əksilmägäy* — Qancha olsa ham, boyagiday qoladi, hech kamaymaydi (Tf., L., 69, 13).

Ravishdosh qurilmasining bu turi hozirgi zamon tilida payt va qiyoslash munosabatini ifodalaydi.

Ravishdoshning *-gäch* shaklli qurilmasi «Devon» va «Qutadg'u bilig»da uchramaydi. «Qissasul anbiyo» asarida va undan so'nggi yodnomalarda bu shaklning qo'llanishi orta boradi va hozirgi zamon tilida eng ko'p qo'llanuvchi qurilma sanaladi.

*-gäch* shaklli ravishdosh qurilmasi payt munosabatini ifodalaydi: *Ibrāhim tāñ ātqach qobti* (QA, qyo, 145), *..härämdin chiqqach*

*divānda olturub dādhāh sorulsa* (N., MN, 21). *Hisrāvshāh Qunduzdin kēchūb chiqg'ūch-oq Qunduzni Mullā Muhammad Turkistāniy ātliq obdān etimādliq bāyiri kishisi Shaybāniyxān ūchūn berkitti* (BN, 146).

-y shaklli ravishdosh ergash gap kesimi vazifasida qo'llanishi tarixiy yodgorliklarda kam uchraydi:

*Andāq urush ham bolmay, bāsildi* (BN, 59). Sāndin o'tgāch, keynimizdā yāg'i kishisi kōrūnmāy, Sān sūyi yuqāri oq yūrürdük (BN, 135).

Bu xil qurilmalar payt-holat yoki sabab-natija munosabatlarini ifodalaydi.

Yodnomalarda ergash gap kesimi vazifasida kelgan ravishdoshlarning shunday shakllari ham uchraydiki, bu shakllar hozirgi zamon tilida yoki butunlay qo'llanmaydi, yoki qo'llansa ham ergash gap kesimi vazifasida kelmaydi:

1) -ū // -yū shaklli ravishdosh:

*Ulishib erān bōrlāyū, Yirtib yaqa urlayu, Siqrib ūni yūrlāyū, Sig'tab kēzi o'tūlūr* — Erlar (odamlar) bo'rilardek ulishdi, ulishib yoqa yirtishdi. Cholg'i tovushi kabi ovozlari bilan baqirishdi, (ko'z yoshidan) odamlar ko'zi qonlanib qoladi (D LT, 197; 16–19).

2) -mādin shaklli ravishdosh:

*Tewāni tārtā bilmādin ...* (QA, qyo, 235).

3) -kāli shaklli ravishdosh:

*Dakyanus mālik kechkāli iki-ūch yuz yil artuq bolmish turur* (Tf., 96, 15).

-kāli // -gāli shaklli ravishdosh keyingi davrlarda yozilgan asarlarda ham, an'anaviy uslub talabi bilan uchraydi:

*Uch-tōrt yil boldiki, Shayx Ismāil bu mazhabni ixtiyār qilg'ali* (Abdulg'oz) («Hozirgi zamon o'zbek tili» kitobidan olindi, 466-bet).

4) -ā shaklli ravishdosh:

*Tūn, kūn kecha alqinur o'zlāk bilā a: y* — Kecha, kunduzning o'tishi bilan oy va zamon kechadi (DLT, I, III, 2).

Ravishdosh tarixini kuzatish, birinchidan, bu grammatik kategoriyaning shakllari tobora ixchamlasha borganini, ikkinchi tomondan, ravishdosh boshqargan gaplar mustaqillikdan tobelashib, ergash gapga tomon taraqqiy etganini ko'rsatadi.

Qadimgi turkiy til ravishdosh shakllariga boy. Bular: *-p, -pan, -u, -yu, -a, -i, -yin, -mati, -g'ali, -gincha* (Har qaysi shakl singarmoniya qonuniga ko'ra turli variantlarga ega). Bu shakllar mustaqil gaplarni ham, ergash gaplarni ham tashkil etadi. Qadimgi turkiy tilda ravishdosh kesimli gaplar asosan ergash gapga o'tgan edilar. Masalan:

*ulug' yel kelip, kel suvin tekup, suv yilti* (Suvr, 617). *Buncha ishig kuchüg bertükgärü saqinmati...* (Misol A. Gabendan, 235-§) — shuncha ishi va kuchini bermagani uchun g'am chekmadi.

Eski turkiy tilda (XI—XIII asrlar) eng faol qo'llanuvchi ravishdosh shakllari *-b // p* va *-u // yu* lardir, bulardan tashqari, *-ginchä // -günchü -mishichü* ravishdosh ergash gapning kesimi sifatida keng qo'llanadi. Shu bilan birga ravishdosh mustaqil gapning kesimi yoki bog'lovchisiz qo'shma gaplarning biror qismini tashkil etadi: *Munum bu meni yaleuq ersäl teyü* (QB, 31 a) — kamchiligim shu: xalq meni yomon deydi. *Xarisliq qarimas, idisi qarib* (HH, 64) — Xasislik, egasi qarisa ham, qarimaydi.

Eski o'zbek tilida ravishdosh shakllari yanada ixchamlashadi: *-u // -yu, -i;*

*-matin* shakllari deyarli qo'llanmaydi, *-ban* shakli kitobiy tilgagina oid bo'lib qoladi. Bu davr tili uchun *-a* ravishdosh shaklining payt va ravish ergash gaplarning kesimi vazifasida qo'llanishi xarakterlidir: *Udg'a bir ikki koch qala Chin Temur sultondin kishi keldi* (BN, 437). *Häm Humäyunnü üzätä va häm bu yerläрни sayr qila yekshänbä küni orduni oshul yerdä qoyub ordudan ätlandim* (BN, 423).

Hozirgi zamon o'zbek tilida bu ravishdoshning vazifasi juda toraygan, boshqa shakllari (*-b, -gach, -guncha*) ergash gapning kesimi sifatida keng qo'llanadi.

### *Ba'zi xulosalar*

1. Ravishdoshning shakllanishi sifatdosh asosidadir, har qanday ravishdosh shakli sifatdoshdan kelib chiqadi.

Ravishdosh va sifatdoshni chegaralashda, so'zning shakli, o'rni, vazifasini hisobga olishga to'g'ri keladi.

2. Ravishdosh fe'llik xususiyatiga ko'ra, ma'lum so'zlarni boshqarib, ravishdosh qurilmasini tashkil etgan. Bunday qurilmaning tarkibida o'z egasi ham bo'lgan. Ravishdosh qurilmasining bu xil turi ma'lum fikr, maqsadni ifodalab, gapni tashkil etgan.

3. Bunday gap qadimda o'ziga ancha mustaqil bo'lib, boshqa gaplar bilan barobar teng tushunchalarni ifodalagan. Keyinroq esa uning tobelik xususiyati orta boradi, haqiqiy ma'nodagi ergash gapga aylanadi.

4. Avvalo ravishdosh qurilma shaklidagi gapning mazmuni murakkab bo'lib, bir necha xil mazmun munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi. Asta-sekin bu xil ravishdosh qurilmasi differensiyalashgan tabaqalashgan mazmun munosabatlarini ifodalay boshlaydi, lekin hozirgi zamon tilida ham ba'zi o'rinda ravishdosh qurilmasidagi polisemantizm tamom yo'qolmagan.

5. Gap kesimi vazifasida qo'llanuvchi ravishdoshning shakllari ham tarixiy taraqqiyot natijasida ma'lum bir qolipga tusha boshladi: ayrim shakllar ishlatilmay qolib ketadi (masalan: *-u*, *-iban*, *-dukcha*, *-mishchä*) va ayrim shakllarning qo'llanishi kengaydi (masalan: *-gäch*, *-y*), ba'zilariniki torayadi (*-käli*, *-ä*).

Ravishdosh qurilmasi ifodalagan ba'zi bir ma'no turlari hozirgi zamon tilida qo'llanmaydi (masalan, mustaqil gap ifodalovchi shakllari, to'siqsiz, shart ma'nolari).

### Shart fe'li

Shart fe'li kesim vazifasida kelishi va mazmunan boshqa bir gapni talab etib, qo'shma gap tuzishi mumkin.

Shart fe'lining vazifasi bu bilan chegaralanmaydi, uning vazifasi va ma'no doirasi kengdir.

Kesimi shart fe'li orqali ifodalangan gap mazmunan va grammatik jihatdan ancha mustaqillikka ega bo'lgan (hozirgi zamon o'zbek tilida ham shunday xususiyatni saqlaydi).

*Känül taymasa oturu butsa muni* (QBN, 36 b, 8). — Ko'ngil toymasa, buni savg'o (sifatida) yonida (tutsa).

Keltirilgan misolda shart fe'li shaklida bo'lgan gaplar ergash gap emas, bog'langan qo'shma gapdir.

Shart fe'lining belgisi hozirgi zamon o'zbek tilida **-sa** dir. O'rxun yozuvlarida bu shakl **-sar** tarzida uchraydi.

Prof. N.A. Baskakovning fikriga ko'ra, shart fe'li shakli «xohlamoq, istamoq» ma'nosini ifodalagan mustaqil fe'ldan kelib chiqqandir. So'ngra u qo'shimchaga aylanadi va **-r** tushib qoladi. Shu sababdan ham, prof. S. Ye. Malov **-sar** shaklini fe'ling mayl bobida ko'rmay, sifatdoshga kiritadi.

Haqiqatan ham, M. Koshg'ariy **-sa** qo'shimchasini **sadi nen** iborasidagi **-sadi** fe'lidan olinganini ko'rsatadi. **Sadi** fe'li **istamoq** ma'nosida qo'llangan (DLT, I, 236).

Bundan, **-sa** shaklli kesimlarning fe'llik xususiyati kuchli bo'lganligi xulosasi kelib chiqadi.

O'rxun yozuvlarida shart fe'lining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu fe'l shaxs qo'shimchalarini olmaydi, boshqa bir xususiyati shundaki, agar hozirgi zamon o'zbek tilida ot kesimlar **bo'lmoq** fe'lining shart shakli bilan biriksa, u davrda **bo'lmoq** bilan barobar **ermoq** fe'lining shart shakli bilan birga ham qo'llangan:

(10) *ol eki kisi bar ersär seni Tabg'ach øürtächi* (Toñ) — (Hozirgi zamon tilida: *u ikki kishi bor bo'lsa, // bor ekan...*).

O'rxun yodnomalaridagi shart qurilmalarda mantiqiy mustaqillik kuchli bo'lgan.

O'rxun yozuvlarida shart fe'lining har uch holati mavjud bo'lgan:

1. **Real holat:** (13, 14),. *yuyqa qalun bolsar topag'uluq alp ermis, yinchkä yog'an bolsar üzgölük alp ermis* — Yupqa qalin bo'lsa, to'plaguvchi bahodir bo'ladi, ingichka yo'g'on bo'lsa, uzuvchi bahodir bo'ladi (Toñ).

Keltirilgan misolda doimo, umuman bo'ladigan holat haqida fikr yuritiladi.

2. **Irreal holat:** Bu holatda bosh gapning kesimi tarkibida **erti** bog'lamasini keltiriladi:

(55) *...ben, øzüm qazg'anmasar, el yemä, budun yemä yoq ertächi erti* — Men o'zim harakat qilmasam, el ham, xalq ham yo'q bo'lar edi (Toñ).

3. **Ehtimollik holati:** Shart ergash gapli qo'shma gapning bu turida bosh gap kesimi kelasi zamon sifatdoshi shaklida bo'ladi:

(32) *kelir ersär, kü er ökülür, kelmöz ersar tulug' sabug' alu ätur* —Kelsa (bizga qo'shilsa), bahodirlar soni ortadi, kelmasa, turli xabarlarini yig'moq zarur bo'ladi (Toj.).

Shart fe'li kesim vazifasida faqat shart mazmunini ifodalab qolmay, boshqa mazmunlarni ham ifodalaydi. Eng avvalo shart payt mazmuni bilan yaqin bog'lanadi. Yuqoridagi misollarda shart mazmuni bilan barobar payt ma'nosi ham anglashiladi. Quyidagi misollarda payt mazmuni — asosiy mazmun bo'lib qoladi:

(8) *Ötükän yish olursar, bengü il tuta olurtachi sen, turk budun, toq* —O'tukan yerida qolsang, mangu davlat (el) yaratib to'q yashaysan, ey turk xalqi (KT, kch) (51)... *Közda yash kelsar, köjültä sig'it kelsär, yanturu saqintim...* — Ko'zdan yosh kelsa, ko'ngildan nola chiqsa, yana qaytadan g'amga botdim.

**To'siqsizlik mazmuni:** (5,6) ...*turuq buqalu, semiz buqalu arqada bilsär, semiz buqa turuq buqa, teyin, bilmas ermis* (Toj.).

**Qiyoslash:** (6) ...*bir kisi yayjilsar, og'ushi buduni, bisükiña tegi qidmaz ermish* — ...agar bir kishi yanglishsa, butun xalq, qarindoshlarigacha, ajralib chiqib ketmas ekan (KT, kch).

Bu qo'shma gapda ikki xil harakat (ikki xil shaxslarning harakati) bir-biriga taqqoslanadi.

Bizga ma'lum bo'lgan so'nggi davr yodnomalarida shart fe'lining belgisi *-sa* shaklidir. Bu yodnomalarda ham shart fe'li yuqorida ko'rsatib o'tilgan ergash gaplarning kesimi bo'lib keladi. Faqat «Qissasul anbiyo» asarida bir o'rinda qo'llangani ko'rsatib o'tiladi: *közünüz yüzümgä -sar tutsar bolsae* (LKV, V, 512, 14 Ch. Brochkelmann, Osttürkische... § 185 a). Bu shakl hozirgi zamon sariq uyg'urlar tilida qo'llanadi: *qarasar, yorasar* (С.Е. Малов. Язык желтых уйгуров, Алма Ата, 1957 г. с. 189).

Shart fe'lining shaxslar bilan tuslanishi xarakterlidir. Qadimgi turkiy tilda shart fe'li to'liq shaxs shakllari bilan tuslanadi:

I. *barsar men, barsar biz yoki barsa (r)k*

II. *barsar sen, barsar siz yoki barsa (r) n*

III. *barsar-, barsar (lar)*. (А.М. Щербак. Грамматический очерк, с. 146—147).

XI—XIII asr yodnomalari tilida ham shart fe'lining to'liq shaxs qo'shimchalari bilan tuslanishi saqlanadi: *naru barsa men, qachan*



*barsa sen, tərü urşa biz. Bolg'ay mu kim bu eldin aqin yergä barsa sen* (Tf., 39); Ammo ko'p o'rinda shart fe'lining qisqargan shakli qo'llanadi (*barsa-m, barsa-ŋ, barsa-, barsa-k//miz, barsa-ŋiz, barsa-(lar)*).

Qadimgi turkiy tilda shart fe'lining aniqlovchi vazifasida qo'llanishi xarakterlidir: *Ärdäm bolsar budunig' erk budunig'* — Shijoati (yaxshi xislati) bo'lgan xalq — bahodir xalqdir (C.E. Малов. ПАП, с. 56). Bu holat — *sar* shakli aslida sifatdosh bo'lib, belgi-xususiyat ifodalab kelganini, qadimgi turkiy tilda ayrim idiomatik iboralarda bu xususiyat saqlanganini ko'rsatadi.

XI asr mashhur yozma yodgorliklari (DLT, QB) tilida ham shart fe'lining shakli *-sa// -sä* bo'lib, bu shakli ko'pincha mustaqil gaplarning kesimi vazifasida keladi: *Yetürsä, ichürsä, tođursa qarın, qurug' idmasa bersä ezdä barın* (QB, XXXIII, 94/14 W. Radloff).

Bu shaklning aniqlik fe'li vazifasi va ma'nosida kelishi xarakterlidir: *Uzun bolsa söz tep tıdıldı tilim* (QB, LIII, 126/37. W. Radloff). Bu hol shart fe'lining mustaqil bo'lganligidan dalolat beradi.

Shart fe'li boshqargan ergash gaplarning mazmuni murakkab bo'lib, shart-payt, sabab-natija va payt mazmunlarini ifodalagan. Sof shart mazmunini ifodalash uchun *abae (abam)* (qadimgi turkiy va eski turkiy tillari, *qali, ägär* (O'rta Osiyo turkiy tili), *mägär, ägär, gär* (eski o'zbek tili) vositalari qo'llanadi: *abam bir adaqın sisar* (TT, I, 15) — agar bir oyog'ini sindirsa. *Abay teksä emdi sü erki seŋä, yag'i uđug' tur ay ersig toŋa* (QB. XLVIII, 119 b W. Radloff) — Agar qo'shin boshlig'i bo'lsang, yovni top, ey bahodir. *Qali bolmasa erdäm atsiz qalır* (QB, XXXIV, 233/24; W. Radloff) — Fazilati bo'lmasa, nom-nishonsiz qolur. *Ägär bermäsäŋ, tartib chiqarur biz* (QA, qyo, 181)...*bu sözlärindın äwrä yang'aylar, ägär yanmasalar anda keđin uqubat mägär qilsa mälik erklik turur...* (Tf., XVIII). *Ägär andäg' ishlärdä beixtimämliq vaqe' bolsa...* (N., MN, 5). *Bu täg'larda firuza va temür kani bolur. Farg'ana viläyatiniŋ häsili bilä ägär adl qilsalar, üç-tört miŋ kishi saqlab bolur* (BN, 21).

Irreallik mazmuni bosh gapning kesimi orqali anglashiladi: bu holda bosh gap kesimi o'tgan zamon mazmunini ifodalab, kesimi

tarkibida **-er** fe'li (ba'zan bu fe'l ham bosh gap kesimiga, ham ergash gap kesimiga bog'lanadi) bo'ladi:

*Kelib barmas ersä bu davlat yana, Tünärmägäy erdi yarumush kün a* — Bu davlat kelib, yana ketmasa edi, yorug' kun qorong'u bo'lmas edi (QBN, 69; 268). *Seniñ birlä chiqsa erdim ne boldukuñni көzüm birlä көrgäy erdim* (QA. qyo, 220). *Qachmasa, öldürür erdim* (Tf., 28; 4). *Türk bolsam erdüm seniñ birlä g'aziliq qilg'am erdi* (Tf., 138 b, 9). *Ägär... qalsañiz erdi....*(N., MN, 20). *Ägär bir tərəfdin umidvārlig' bolsa erdi, yā zāhirā bolsa, sulh sezigä kim qulāq sālur edi* (BN, 114). *Ägär arab masalalarini türkiy tarjima qilib ināyat qilsañiz erdi savābg'a sherik bolur erdiñiz* (Sh.tar., 73).

Shart qurilmali qo'shma gaplarda sabab-natija munosabati ham anglashiladi: bunda shart ergash gap sababni, bosh gap natijani ifodalaydi. Ammo bu xil qurilmalarda asosiy munosabat — shart mazmunidir; sabab-natija shu mazmun munosabatidan kelib chiqadigan qo'shimcha mazmundir.

Kesimi shart fe'li shaklida bo'lgan ergash gaplar shart bilan barobar payt munosabatini ham ifodalaydilar, bu mazmun bir o'rinda bo'rtib, asosiy o'rinni egallasa, boshqa o'rinda u qo'shimcha mazmun bo'lib qoladi. Payt mazmunini ifodalash uchun maxsus qurilma qo'llangan: ergash gapning kesimi o'tgan zamon aniq fe'li shaklida bo'lib, **ersä** fe'l shakli bilan bog'langan:

*Attin emdi sen tøjül, Qildin ersä qilmag'u* — Noloyiq ishni qilganing uchun (qilganingdan so'ng), sen endi otdan umidingni uz (DLT, I, 104). *Yag'ij boldi ersä usal bolmag'il* — Dushmaning bo'lsa, beparvo bo'lma (QB, XLII, 198—4). *Burnin qulag'in keskali көñilländi ersä Hajar g'avg'a qildi* (QA, qyo, 136). *Ünin eshitti ersä yanib keldi* (QA, qyo, 138). *Ol yag'achqa yaqin keldi ersä ün eshitildi* (Tf., 29; 4). *...Öldi ersä iki og'li bar erdi* (Tf., 132; 24). *Uluq ixtiyār Kishi Kahāt sārini maslahat көrüb, öziniñ muddaāsiniñ isbātig'a necha tanuq ötkärdi ersä, suv ötmäkni va Hindistān äzimätini fath qilib Jāmdin көchüb Bara süyini ötüb Muhammad Pax dābānig'a yāvuqrāq kelib tushuldi* (BN, 171). *Ul vafāt täpdi ersä Bug'raxān ulug' aza tutti* (Sh.tar., 51). *Chun Og'uz yigit yetishdi ersä .., qizini ālib berdi* (Sh.tar., 14).

Shart fe'li orqali to'siqsizlik mazmunining ifodalanishi, ayniqsa, eski yodnomalarda ko'proq uchraydi, so'nggi yodnomalarda bu holat saqlanish bilan birga, *häm* yordamchisi ishlatiladi (har ikki holatda *ham nechä, här chänd* kabi nisbiy olmoshlarning roli katta bo'ladi):

*Avag'lar nechä qulsa bermäz özin* — Quvlovchilar qancha so'rasalar ham, u o'zini tutqizmaydi (QBN, 41; 241). *Här taraf baqsa Zuläyha surati erdi* (QA, qyo, 246) *Özgä sözlär häm bolsa...bolg'usi edi* (N., MN, 15). *Sabah här qanda bolsa, uchraturbiz deb filhāl ilik qoshmaqni saläh kermäydilər* (BN, 92). *Siz här nimärsä tesäniz här yildä ani biz sizgä berali* (Sh.tar., 78).

Shart fe'li qiyoslash, solishtirish mazmunini ifodalashi mumkin:

*Sen Yusufka ata ersäj biz ham qarindash* (QA, qyo, 219). *Jami täg'larniñ berk yerläri bäländilärda bolsa, bu täg'larniñ berk yerläri pästilärdä väqi bolubtur* (BN, 166). *Änam tek bolmasa andin yigräk bolsun tedi* (Sh.tar., 52). *Münchä-münchä bilmäsäk ham bashdin ayaqqacha sürätini bilä tururmiz* (Sh.tar., 40).

Shunday qilib, shart fe'li tarixiy taraqqiyot natijasida o'zining ma'lum mustaqilligini ma'lum o'rinlarda yo'qotadi va o'zi boshqargan qurilmani ergash gap sifatida boshqa gapga tobelashtiradi.

Shart fe'lidagi mustaqillik qadimgi turkiy til yodnomalarida (O'rxun yodnomalari, DLT, QB) ham ko'rinadi. Shu bilan birga shart fe'li bu davrda ergash gaplarni ham shakllantirgan. Bu xil ergash gaplar shart-payt, payt, to'siqsizlik munosabatlarini ifodalagan. Payt munosabatini ifodalash uchun XI asr va so'nggi davrda (XIX asrgacha) aniqlik fe'liga *ersä* yordamchi fe'li qo'shilgan. Yolg'iz shart shakllari orqali payt munosabatining ifodalanishi keyingi davr adabiyotlarida kamayib boradi (bu hol payt munosabatini ifodalash uchun yangi vositalarning qo'llanishi bilan izohlanadi).

To'siqsizlik munosabati QA va undan so'nggi adabiyotlarda shart fe'lidan so'ng *ham* yordamchisini keltirish yo'li bilan ham ifodalangan va bu shakl to'siqsizlikni ko'rsatuvchi maxsus belgiga aylanadi.

Shart fe'lining shaxs bilan tuslanishi keyingi (XI—XIII asrlar) davrda ro'y bera boshlaydi. Unga qadar har uchala shaxs uchun shart fe'li bir xil shaklda bo'lgan.

### Nisbiy olmoshli qurilmalar

Nisbiy olmoshli ishtirok etgan qurilmali qo'shma gaplar ergash gapli qo'shma gapning asosiy qismini tashkil etadilar.

Bu xil qurilmali ergash gaplarning asosini semantik jihatdan biri ikkinchisini izohlovchi bog'lovchisiz qo'shma gaplar qurilmasi (gipotaksis) tashkil etadi. Bunday qo'shma gaplarni tashkil etgan qismlarning biri (odatda, ikkinchisi) birini mazmunan izohlaydi, aniqlaydi. Bunga quyidagi qo'shma gap misol bo'ladi:

*Adash tuttu Aytoldu edgü kishi, Kesämish atu erdi edgü kishi—* Oyto'ldi yaxshi kishilarni do'st tutdi, (Ularning birining) oti Ko'samish edi, yaxshi kishi (QBN, 47; 250). *Negü teg nishan ol seni berklägü* — Seni o'rab olgan g'am nimadir? (QBN, 268).

Bu turdagi gaplarda ma'lum bir gap bo'lagi haqida fikr yuritiladi, bu bo'lak avvalo har ikki qismda bir xil — ot shaklida qaytariladi yoki, keyinroq qo'shma gapning ikkinchi qismida olmosh orqali takrorlanadi (ikkinchi misol).

Bunday tashqi belgi sifatida ma'lum o'rinda nisbiy olmoshlar xizmat qiladi; boshqa o'rinda esa bu xil qurilmalar bog'lovchisiz qo'shma gaplarning maxsus turi uchun asos bo'ladilar.

Nisbiy olmoshlar ko'rsatish yoki so'roq olmoshlaridan kelib chiqadi.

Nisbiy olmosh ishtirok etgan qo'shma gaplarning ergash gaplarining kesimi avvalo mustaqil shaklda (aniqlik fe'li yoki sifatdosh) bo'lib, so'ngra *-kim* bog'lovchisi bilan birikadi. Keyinroq bu xil ergash gaplarning kesimi shart fe'li orqali ifodalanadi va so'nggi qurilma tilda keng qo'llanadi.

O'rxun yodnomalarida nisbiy qurilmalar kam uchraydi. Uchragan nisbiy olmoshli 3—4 iborada *qach* va *ney*, *ancha* olmoshlari qo'llanadi, ergash gap kesimi shart fe'li shaklidir:

(29, 30) *Qach ney ersär bizni olürtächi kük* — Qanday bo'lganda ham bizni o'ldiradi, shekilli (Toq.).

(56) (57) *Nej yerdäki qag'anlug' budunqa büntügi bar ersär ne bunju bar ertätächi ermis* — Qayerdäki xoqonligi bor xalq ichida dangasa bo'lsa, (bu xalqning) ne kulfatlari bo'lar edi (Toñ.). (13) ...*Amtiqa erig yertä ersär, ancha erig yertä tash toqitdim, bitidim* — Hali ham yo'l bo'yida turgan bo'lsa, u yerda men tosh (esdalik) o'rnatdim, xat yozdim (KT, kch). (11) ... *Nej nej sabim ersär, bängü tashqa urtim...* — Nimaiki so'zim bo'lsa, mangu toshga urdim (KT, kch).

Keltirilgan misollarda nisbiy olmoshli ergash gaplar to'siqsiz, o'rin, to'ldiruvchi ergash gaplarni tashkil etadi.

«Devon» va «Qutadg'u bilig»da nisbiy olmoshli qurilmalar keng qo'llanadi. Nisbiy olmosh vazifasida *kim, ne, negü, qay, (qayu), qayda, ul, qach, qachan, nechä, qancha, ne teg, anue teg* kabi olmoshlar qo'llandi.

Ergash gap kesimlari shart fe'li, sifatdosh va aniqlik fe'li shaklidir. Qadimgi va O'rta Osiyo turk tilida nisbiy olmoshlarning qo'llanishidagi xususiyatlar quyidagicha:

1. Nisbiy olmosh qo'shma gapning har ikki qismida ham ifodalanmaydi, ammo uni aniqlab o'rniga tiklash mumkin:

*Qayu ishqa evär o'zar kech qalur* — Kim qaysi ishga shoshilsa, (u) kech qoladi (QBN, 51; 255).

2. Nisbiy olmoshlar ko'pincha birinchi ergash gap tarkibidagina qo'llanib, so'nggi bosh gapda unga monand olmosh ishlatilmaydi:

*Yaruq bolsa kimij budunqa sözi, Süchüg tutsu til söz ya qatqu özi* — Kimning so'zi xalqqa yoqimli bo'lsa, (u) so'zini (doim) shirin, o'zini odobli tutsin (QBN, 50; 254).

3. Nisbiy olmosh ergash gapda ham, bosh gapda ham qo'llanadi, ergash gapdagi olmoshga bosh gapdagi olmosh mos keladi: (*Nechä — ancha, qayu—ol, qayu—oshul, ne teg—anuy teg*): *Awchi nechä al bilsä, adig' ancha yol bilir* — Ovchi qancha hiyla bilsa, ayiq shuncha yo'l biladi (DLT, I, 41 — 13). *Qayu ödta Hajup tiläsä meni ol ödta keläy* — Hojib meni qaysi vaqtga tilasa, o'sha vaqtga kelay (QBN, 51; 255). *Qayu nee quz ersä oshul nen keshüh* — Qaysi narsa noyob bo'lsa, o'sha narsa ko'ngilga yaqin (QBN, 51).

Nisbiy olmosh ishtirok etgan birinchi qism ergash gap sanaladi. Bu ergash gaplar quyidagi mazmun guruhlarini tashkil etadi:

1. To'ldiruvchi ergash gap: *Neni kim tilädi qildi* (QBN, so'z-boshi). *Uqushlug' kim ersä oqudu anu, Biliglik kim ersä bedütti anu* — Qim aqli bo'lsa, uni (o'ziga) taklif etdi, kim bilimli bo'lsa, uni ko'tardi (QBN, 41; 242).

2. Ega ergash gap: *Menä üznäsä kim üzälip ötur, meeä kim boyun egsä arzu bulur* — Kim menga gunoh qilsa, azoblanib, o'lar, kim menga bo'yin egsa, orzusiga yetar (QBN, 59; 266). *Qancha barir belgüsüz* — Qancha boradi — noma'lum (DLT, 261, 29).

3. Aniqlovchi ergash gap: *Kimüy elgi bolsa budunqa uzun, Silik bolsu qulqu qilinchi tüzüm* — Kimning qo'li xalq ustida bo'lsa, (uning) xulqi muloyim, ishi to'g'ri bo'lsin (QBN, 50; 254).

4. Payt ergash gap: *Qachan kersä ani türk, Budun ang'a aninj aydachi* — Turk uni qachon ko'rsa, xalqqa shunday deb aytadi (DLT, 1, 355, 8–9).

5. Daraja-miqdor ergash gap: *Nechä er bedüsä bash ag'rug' bedu'r, nechä bash bedüsä bedük bork kedür* — Kishi qancha ko'tarilsa, bosh og'rig'i (shuncha) ortadi. Bosh qancha katta bo'lsa, (u) shuncha katta bo'rk kiyadi (QBN, 42; 244).

6. O'rin ergash gap: *özüm qayda bolsa tügäl arzular* — O'zim qaerda bo'lsam, butun orzularim o'sha yerda (QBN, 59;256). *Bu qut qayda bolsa boyun ber yarash* — Baxt qaerda bo'lsa, unga bo'yin ber, yarash (QBN, 59;367).

7. Ravish ergash gap: — *Bütün ümlik qancha qolsa olturur*— Ishtoni butun qanday xohlasa, (shunday) o'tiraveradi (DLT, I, 228, 27–28).

8. O'xshatish ergash gap: *Netäg kim orunsuz to'buq tuflunur, Anie teg ma davlat özün tezkinur* — Shundaykim, kishining tizzasi teshilganday (qirilganday), davlat (baxt) ham o'zgaradi (QBN, 58; 265).

«Qissasul anbiyo»da nisbiy olmoshlarning doirasi yanada kengayadi. Ayniqsa, *här* yordami bilan tuzilgan *här kim, här nechä, här närsä, här qachän* kabi nisbiy olmoshlar keng qo'llanadi:

*Kim..desä... oqisun* (QA, qyo, 200). *Här qachän tug'ursalar ani tahqiq qilg'aylar* (QA, lit., 74) *eshäkni här nüchä sudradilar kemägä kirmädi* (QA, lit., 48).

*Kim* olmoshi *ersä* fe'li bilan birikib, nisbiy olmoshini tashkil etadi:

*Aydilar kim seniñ atıñni tutsa ul kim ersä kasr yetkürmägäy,* (QA, lit., 48). *Kimärsä* (kim ersä) *on türlük baläg'a ilinsä...*(QA, qyo, 200).

Bu davrga kelib, nisbiy olmoshlarning ma'nosini yanada aniqlashtirishga qarab harakat bo'lgani seziladi. Bu hol ergash gapdagi olmoshga bosh gapda monand so'z keltirish yo'li bilan bo'ladi:

*ne andäg', qachän—ul kun* (vaqtda), *nechä —shul qadar,* *nechük—andäg,* *nechä —andäg,* *ne—ani,* *mundäg—ne,* *nekim—qamug', kim—qamug' v. b.*

*Idris ne desä, andäg' qil* (QA, lit., 38). *Qachän...bilgürsä, ul kün...yübürgüm turur* (QA, lit., 46). *Bir äyda nechä ulg'aysa, bu...här kündä shul ulg'aydi* (QA, lit., 74). *Nechük ersä andäg' qil* (QA, qyo, 148). *Nechä teklik emgänür ersä maña andäg erdi* (QA, qyo, 166)... *Kimni sevduñ ersä, ani...*(QA, qyo, 145). *...Jän bermäk ong'aylig'i mundäg' bolsa, qattiqlig'i ne türlük bolg'ay* (QA, qyo, 166). *Ne kim xalayıq bär ersä, yig'ildi* (QA, qyo, 229).

«Qissasul anbiyo»da nisbiy olmosh ishtiroki bilan tuzilgan ergash gaplarning kesimi sifatdosh, aniqlik fe'li, shart fe'li orqali ifodalanadi, ergash gaplarning mazmun turlari «Qutadg'u bilig»-dagidek turlichadir.

«Tafsir»da nisbiy olmoshlarning qo'llanishidagi yuqoridagi holatlarni ko'ramiz:

*Künigä kün tug'sa erdi ul enkürkä oñ yärudin kun tushar erdi,* *qachan kün batsa sol yärdin batar erdi* (Tf., XVIII sura) *Nechä kim bardı ersä härgiz bilishi kərishi tüşmädi* (Tf., XVIII sura). *Kim ersanıñ bir häjäti bolsa anda barib namaz qilur erdi* (Tf., XVIII sura). *Ne yerdä kim ältun kümüş bär ersä qamug'in jam' qildi* (Tf., L. 132, XXXIX sura).

«Tafsir»da *andäg'* olmoshining nisbiy olmosh vazifasidagi *kim* bilan birikib, o'xshatish-ravish ergash gapni bosh gapga biriktirishi ko'rinadi:

*It yatdi, ikki qolini kesüldi, Bashini qoli o'zä urdi, andä kim itlar ädäti bolur* (Tf., XVIII sura).

Navoiydagi nisbiy olmoshlar ko'pincha *-kim, (ki)* bog'lovchisi bilan birikib, ergash gapni bosh gapga bog'laydilar; ikkinchi o'ziga

xos xususiyati shundaki, bu xil ergash gaplarning kesimi asosan ot kesim shaklida bo'ladi yoki sifatdosh yoxud aniqlik fe'li orqali ifodalanadi:

*Bu yāmān pādshāh ki bolg'ay vaziri ham yāmān, andüg'ki, Fir'avn niyābatida Haman (N., MQ, 13). Kimki bir shiddāt arā sabru tahammul āylādi, baxt anin nishu xārini gul āylādi (N., MQ, 80). — Hār nekīm kəngildā bār—tilgā sirmā (N., MQ). Hār qayan qilsalar harakat elgā hām qut yetkürür hām barakat (N., MQ, 46). Nechükki bārsenj əzūñni andiq kərgüz (N., MQ, 143).*

Navoiyda nisbiy olmosh yordami bilan tuzilgan aniqllovchi ergash gapning ikkinchi xil qurilmasining ham keng qo'llanganini ko'ramiz: bu xil qurilmada ergash gap bosh gapdan so'ng keladi:

*Mundaq kishi kerākki, buxldin muarrā bolsa va kazbu imsāqdin mubarrā bolsa (N., MQ, 47).*

Bu qo'shma gapning ikkinchi qismi aniqllovchi ergash gap bo'lib, bosh gapning egasini izohlaydi (bu xil qurilma hozirgi zamon adabiy tilida ham ishlatiladi).

Navoiy tilida nisbiy qurilmali gaplar ergash gapning turli turlarini tashkil etadilar. Oldingi asrlarda qo'llanilgan to'siqsiz ergash gap ham ishlatiladi:

*Qayāng'a kim yūzlāndilār alarg'a yānmāq yoq (N., MQ, 19).*

Bu turdagi gaplar «Boburnoma»da ko'p uchraydi:

*Men G'aznida hār nechū tajassus qildim, bu chashmadin hech kim nishān bermādi (BN, 164).*

«Boburnoma»da nisbiy ergash gaplarning birinchi turi qo'llanishi bilan barobar, nisbiy aniqllovchi ergash gaplarning ikkinchi turi ham keng ishlatiladi:

*Bu māsāl bārkim, qāpudag'ini qāpmasa, qarig'uncha qayg'u... (BN, 92). Meni bir yolg'a bāshlae kim xānlar qāshig'a baray (BN, 137)...tāshni andāq qūlarlarkim, ushbu bir eshikdin əzga hech yerdin baliq kirib chiqa ālmas (BN, 169).*

Bu turdagi ergash gaplarning tarkibidagi nisbiy olmoshga bosh gapda muvofiq boshqa nisbiy olmosh keladi, bu hol ifodalanayotgan mazmunni yanada aniqlashtiradi:

*Ul miqdār ulug' tāshlarkim, Māzu qorg'ānida ātilar, ushmuncha qorg'ān urush bolub hech qorg'āndin mundāq tāshlar ātmadilar (BN, 82).*



«Boburnoma»da nisbiy ergash gaplarning kesimi asosan mustaqil shaklda boʻlib (shart feʼli kam qoʻllanadi), **-kim** bogʻlovchisi bilan birikadi.

XVII asr yodnomasi boʻlmish «Shajarai tarokima»da nisbiy olmoshlarning soni yanada ortadi va shakli hamda oʻrni hozirgi zamon tiliga yaqinlashadi. Ayniqsa, xarakterli bir tomoni shundaki, nisbiy ergash gaplarning kesimi shart feʼli orqali ifodalanadiki, bu hol ham hozirgi zamon tiliga yaqin tomondir (hozirgi zamon tilida nisbiy ergash gaplarning kesimi shart feʼli shaklida boʻladi, faqat nisbiy qurilmaning ikkinchi turida, kesim aniqlik feʼli orqali ifodalanishi mumkin); bundan tashqari, bosh gapda nisbiy olmoshga monand olmosh keltirishga intilish seziladi:

*Yāy oqni qaysi tarafgʻa tartib yibärsü anqa barur* (Sh.tar., 28). *Yāyni nechük qoysay ani shundagʻ qoygʻil* (Sh.tar., 26). *Här kim qābil bolsa ani pādshāh qilsunlar* (Sh.tar., 28). *Sen ne yolda bolsay men shul yolda bolayin* (Sh.tar., 10). *Ne yol birlän pādshāhliq qilib yürigän bolsam sen häm oshul yol birlän yürigäysän* (Sh.tar., 48). *Andagʻ mahkam erdilär kim...* (Sh.tar., 13).

XX asr boshidagi nasr tili bu jihatdan «Shajarai tarokima»dan kam farqlanadi:

*...qaysi iqlim va urugʻ elniñ ilmi va madaniyati artuq bolsa, ul iqlimnie...* (TVG, № 1, 1903). *Namgʻa äväzi ayigʻlargʻa qandagʻ taʻsir keltürsü arslanlargʻa ham shundaq taʻsir keltirür* (TVG, № 1, 1903).

Shunday qilib, nisbiy qurilmalarning shakllanishi nisbiy olmoshlarning shakllanishiga bogʻliqdir. Bunday olmoshlar avvalo juda kam boʻlib, keyinroq ularning miqdori ortadi. Bu xil olmoshlar juft holda — ham bosh gap tarkibida, ham ergash gap tarkibida qoʻllanadi (qisman, XI asrda va QA, Tf.); QA da *här* yordami bilan tuzilgan nisbiy olmoshlar (*här kim*, *här quchän*) keng ishlatila boshlaydi, Navoiy asarlarida va undan soʻnggi yodnomalarda nisbiy olmoshlar **-kim** \ **-ki** bogʻlovchisi bilan qoʻllanadi; Sh.tar.da nisbiy olmoshlarning ishlatilishi hozirgi zamon tiliga oʻxshaydi.

Nisbiy olmosh ishtirok etgan ergash gaplarning turi ham asta-sekin orta bordi.

Bu xil ergash gaplarning kesimi asosan shart, aniqlik feʼli

yoki sifatdosh bilan ifodalangan bo'lsa, hozirgi zamon tilida nisbiy qurilmalarning kesimi asosan shart fe'li shaklidir.

Tarixiy taraqqiyot jarayonida nisbiy olmoshlarning miqdorigina o'zgarib qolmay, ularning shakli, o'rni va vazifasi o'zgardi, takomillashdi.

### **Tobe bog'lovchilar va bog'lovchi vazifasidagi so'zlar**

Tobe bog'lovchilar orqali qo'shma gaplarning tuzilishi til taraqqiyotining so'nggi davrlariga taalluqlidir. Til taraqqiyotining ilk davrlarida bog'lovchilar, ayniqsa tobe bog'lovchilar juda kam qo'llangan (til taraqqiyoti tobe bog'lovchilarning teng bog'lovchilardan so'ng kelib chiqqanini ko'rsatadi).

*Birük, abän, qali, ägär (gär, gärchi...), mägär bog'lovchilari.*

Qadimgi turkiy yodnomalarda qo'shma gap tuzishda *birük* bog'lovchisining qo'llanganini ko'ramiz. Bu bog'lovchi hozirgi zamon tilidagi *ägär* bog'lovchisining vazifasini bajaradi.

*Birük* yordami bilan tuzilgan qo'shma gap Kultegin va Tonyuquq yodnomalarida uchramaydi, uni «Oltun yoruq» asarida uchratamiz:

(10) ...s(ä)n *birük* kim ol s(ä)n *elürgüchi tunlug'lar üchün ökünch kəjül eridip nechükin ersär...* — Agar sen chin ko'ngil bilan o'ldirgan hayvonlarning uchun tovba qilsang, nima bo'lsa ham...

*Ägär* bog'lovchisi «Devon»da uchramaydi, «Qutadg'u bilig»da esa bir necha o'rindagina uchraydi:

*Ägar tutmasa sen bu aymishlarim* — Sen bu aytganlarimga amal qilmasang (QB, XLIV, 105—14).

«Devon»da *ägär* bog'lovchisi o'rnida *abae* ishlatiladi. Bundan tashqari, DLT va QB da *qali* bog'lovchisi qo'llanadiki, u *ägär* va *qanday* ma'nolarini beradi:

*Qishqa etin kelsä qali qutlug' yay* — Agar barakatli yoz kelsa, qishga tayyorlan (DLT, III, 1). *Kishi kirmaduk elgä kirsä qali* — Agar kishi kirmagan yerga kirsä... (QB, 47; 2).

*Qali* keyingi davr yodnomalarida *qachän* olmoshi bilan almashadi; *qachän* nisbiy olmoshga ko'chgan so'roq olmoshi bo'lib, asosan payt munosabatini ifodalaydi.

**Ägär** bog'lovchisi (turli shaklda: *ägärchi, gär, gärchi, gärchänd, gärchündki, mägär*) keyingi yozma yodgorliklarda keng qo'llanadi.

«Qissasul anbiyo»da *ägär* bog'lovchisi shart, to'siqsiz gaplar tarkibida qo'llanadi:

*Ägär yibarmas bolsañ barib eliyni büzärmän* (QA, lit., 190).  
*Ägär qiz tiläsañ ham beräli* (QA; lit., 69).

Irreal munosabat uchun ba'zan *käshki* bog'lovchisi ishlatiladi:  
*Käshki ul kün o'q aymish bolsae, ...almag'ay erdim* (QA, qyo, 239).

Bu tipdagi ergash gaplarning kesimi asosan shart fe'li shaklidir. Ba'zan, payt munosabatini ifodalash uchun *ermäk* fe'lining shart shakli keltiriladi:

*Ägär aldim ersü ... kergäy erdim* (QA, qyo, 239).

«Tafsir»da tobe bog'lovchilarning *ägär, mägär* shakllari qo'llanadi:

*... bu sözlärindin ewrä yang'aylar, ägür yanmasalar anda kedın uqubat mägär qilsa mälik erklik turur...* (Tf., XVIII sura, 75).

Navoiyda *ägär (gär...)* bog'lovchisining ishlatilishida ancha o'ziga xoslik bor.

*Ägär* ishtirok etgan ergash gapning kesimi shart fe'li orqali ifodalanishi kam uchraydi.

Bu turdagi ergash gaplarning kesimi quyidagicha mustaqil shaklda bo'ladi:

1. Aniqlik fe'li:

*Eränlar xizmatidin chekmägil bāsh, Gär bashing'a gardundin yög'ar tāsh; Gär ul tāsh bilä bāshıñ ushālg'ay, Saādat xatidur gär zāhmi qālg'ay* (N., MQ, 119). *Kishi ezin ägärchi yeldek här yän sari sālg'ay, Asafni bu haqdanda qayda täpalg'ay* (N., MQ, 14). *Ägär yillär räiyät qilibsen hamxāna, bir qatlaki nemä bermädie begänadur* (N., MQ, 37).

2. Kelasi zamon sifatdoshi shakli:

*Muharrirki tahriri tuz pisandidadur, ägär bir bayt bitir ägär yüz* (N., MQ, 30).

3. Buyruq fe'li shakli:

*Ägär yüz qatla bulbul cheksun afg'an, bahär olmay gül achilmāq*

*ne imkân* (N., MQ, 8). *Baxl bihishtgâ kirmäs ägâr sayindi qurayshiy bolsun va saxiy tamug'qa bârmas ägâr* bandai habashi bolsun (N., MQ, 111).

4. Ot kesim:

*Ägâr shurbg'a mashg'ul köy va köchä musulmanlarg'a maxuf* (N, MQ, 12). *Ägârchi anga kop aqşam lâzim bolur ammâ bu yerdä ixtisar üçhün üç qismg'a munqasim bolur* (N., MQ, 101— 102).

Shunday qilib, bu xil qurilmalarda kesimi mustaqil shaklda bo'lgan ergash gaplarni bosh gapga bog'lashdagi asosiy vosita *ägâr* bog'lovchisi bo'lib qoladi (kesimi shart fe'li shaklida bo'lgan ergash gaplarda *ägâr* faqat mazmunni kuchaytirish uchun qo'llanadi va uning bog'lovchilik vazifasi susayadi).

Navoiy asarlarida *ägâr* bog'lovchisi keng qo'llanadi — u faqat shart, to'siqsiz ergash gaplarni biriktirib qolmay, qiyoslash va nisbiy ergash gaplarni ham bog'lash uchun xizmat qiladi.

«Boburnoma» asarida ham *ägâr* ishtirok etgan ergash gapning kesimi asosan mustaqil shakldadir. Xarakterli tomoni shundaki, ko'p o'rinlarda bosh gap *vâle* bog'lovchisi bilan boshlanadi:

*...ägârchi qâri äksâr ulug' tushar, vâle mufrît sâvug'i yoqtur* (BN, 154). *Ägârchi a'lâ anâr emäs, vâle ul vilâyatga, Atasây anâridin yaxshirâq anâr bolmas* (BN, 165). *Bâshim bilân yergâ yiqildim, ägârchi ushul zamân qopub ätlandim, vâle aqlim äxshâmg'acha qarârig'a kelmâdi* (BN, 115).

Ergash gapning bosh gapdan so'ng kelish holati ham uchraydi: *(Qishi) mâhkâm sâvuqtur, qâri ägârchi Qâbul qârîcha tushmas, yâzlari yaxshi havâsi bâr, ägârchi Qâbulcha yoqtur* (BN, 64).

«Shajarai tarokima»da *ägâr* bog'lovchisi asosan shart fe'li bilan birga qo'llanadi va hozirgi zamon o'zbek adabiy va og'zaki xalq tiliga yaqinlashadi.

*Aniñ (uniñ, shuniñ, oshuniñ) üçhün.*

*Aniñ (uniñ, shuniñ) üçhün* — ko'rsatish olmoshining *üchün* ko'makchisi bilan birikkan ko'rinishi bo'lib, ikki gapni bog'lab, qo'shma gap tuzishda xizmat qiladi. Tarixiy yodnomalarda bu birikma o'z leksik ma'nosini (va ba'zan vazifasini ham) saqlab qolgani uchun uni bog'lovchilar guruhiga kiritib yuborish to'g'ri bo'lmas edi. Uni bog'lovchi vazifasidagi so'z hisoblash mumkin,

bu birikma gaplarni biriktirish uchun, bir gapni ikkinchisiga tobelashtirish uchun xizmat qiladi.

Bu bog'lovchi vazifasidagi so'z dastlab O'rxun yodnomalarida uchraydi:

(3) *Bil(g)ä qag'an ermis, alp qag'an ermis, buyruqi yemä bilgä ermis erinch, alp ermis erinch, begläri yemä buduni yemä tüz ermis. Ani üchün ilig ancha tutmis erinch, ilig tutqi tərüg itmis.*

— Ular dono xoqon edilar, ular bahodir xoqon edilar, ularning gumashtalari ham dono edi, bahodir edi, beklari ham, xalqi ham to'g'ri edi, shuning uchun ular davlatni qo'llarida ancha tutib turdilar, davlatni qo'llarida tutib, odillik qildilar (KT, kt). *Ani üchün* birikmasi *antag'inin üchün* shaklida ham uchraydi: (8,9)...bir todsar, achsiq o'mäzsän, *antag'inin üchün...alkintig', ariltig'* — ...bir to'ysang, ochlikni bilmaysan, shuning uchun...(shunday bo'lganingdan) yo'qalding, g'amga botding (KT, keh).

*Ani üchün* yordami bilan tuzilgan qo'shma gapning qismlari orasida sabab munosabati ifodalanadi: birinchi qism sababni, ikkinchi qism undan kelib chiqadigan natijani ifodalaydi.

«Qissasul anbiyo»da bu bog'lovchi *aniy üchün, aniy üchünkim* shaklida uchraydi va ikki xil mazmun munosabatini ifodalaydi:

1. Qo'shma gapning birinchi qismi sababni ko'rsatadi, bu holda *aniy üchün* shakli ishlatiladi:

Bir ustung'a rust bag'landi, *aniy üchün* Isra'il atandi (QA, qyo, 186).

2. Qo'shma gapning ikkinchi qismi sababni ifodalaydi. Bu holda *aniy üchün kim* shakli qo'llanadi:

*Aymishlar Avj binni Uniq tofānda halāk bolmadi aniy üchün kim tofānda ul diyār jumlasidin ermäs erdi* (QA, lit., 45).

«Tafsir»da yordamchi vazifasidagi *aniy üchün* shaklining uchinchi bir holatini ko'ramiz. Bunda bu shakl ko'proq nisbiy olmoshga yaqinlashadi. Odatda, bu shakl qo'shma gapning birinchi qismi tarkibida keladi va ikkinchi qism mazmunan uni izohlaydi, unga nisbatan sabab ergash gap bo'ladi:

*...Ul kimni aniy üchün oltürdimkim...*(Tf., L. II., XVIII sura).

«Tafsir»da bu birikma *aniy üzü kim* shaklida ham uchraydi, bu holatda ham qo'shma gapning ikkinchi qismi sababni ifodalaydi:

*Husumāt qilurlar saña aniy üzä kim kerdüy sen* (Tf.,L. 536, 12).

«Boburnoma»da bu birikmaning *muniy üchün* shakli ham qo‘llanadi:

*Gāhi uzr keltürüb, gāhi yumshāq söz aytur edi. Muniy üchün edikim, biz Shirkāni ālg‘āch o‘q ātasig‘a, āg‘asig‘a kishi chāpturg‘āndur* (BN, 150).

*Aniy üchün* shakli «Shajarai tarokima»da juda keng qo‘llanadi. Bu asarda *aniy üchün* ning qo‘llanishida o‘ziga xoslik bor: bu shakl yordami bilan tuzilgan qo‘shma gapda ikki xil munosabat ham ifodalanishi mumkin:

1) Birinchi qism sababni ifodalaydi:

*Tört miñ yilg‘acha ul yerlarda olturdilar, aniy üchün ul yerlärni dasht qiphāq derlär* (Sh.tar., 19). *Bu og‘ul tümändä tug‘di, aniy üchün Tümän ät qoyduq* (Sh.tar., 45).

2) Xuddi shu shakl yordami bilan tuzilgan qo‘shma gapning ikkinchi qismi sababni ifodalashi mumkin:

*...bir kishini pādshāh qilg‘aylar, iki kishini kotärmägäylär aniy üchün xān bir bolsa el tüzälür va iki bolsa el buzulur* (Sh.tar., 38)....  
*et...āg‘zig‘a bisyār maza keldi, aniy üchün ol yer tuzlāq erdi* (Sh.tar., 11). *Kelib qoshulmadi aniy üchün olturg‘an yeri yāmān erdi* (Sh.tar., 76).

Ikkinchi xil munosabatni ifodalash uchun *aniy üchün kim* shakli ham qo‘llanadi (bu holat «Qissasul anbiyo»da ham ko‘rilgan edi):

*Ātamg‘a ālib bārdim aniy üchün kündüz ātam bolsañ kechä meniñki bolg‘aysan* (Sh.tar., 53). *Bu söz g‘alat turur aniy üchün kim Og‘uz zamānindin bu vaqtqacha besh miñ yil otub turur* (SH.tar., 65).

*Aniy üchün* shakli hozirgi zamon o‘zbek tilida qo‘llanmaydi. XX asr boshidagi nasrda *aniy sabbabi*, *shul sabbabli* shakllari uchraydi:

*Tehrān shāhridā bul vaqtlarda bāzārläriniñ narxi kob qimmatdur va aniy sabbabi yildag‘i dehqānchilak hāsilat yaxshi bolmag‘an vajidindur* (TVG, № 1, 1900).

## **Deb yordamchisi**

**Deb** ravishdosh shaklining qo'shma gap tuzishdagi roli katta bo'lgan va hozirgi zamon tilida ham shundaydir.

Bu shakl qadimgi O'rxun yodnomalaridayoq bog'lovchi vazifasida qo'llana boshlagan.

**Deb** orqali tuzilgan qo'shma gapning birinchi qismi ergash gap, so'nggisi bosh gap vazifasida keladi.

O'rxun yodnomalarida bu ravishdosh shakli **teyin**, **tep** shaklida uchraydi.

**Teyin** quyidagi mazmunli ergash gaplarni birlashtirish uchun xizmat qiladi:

1) Maqsad ergash gap.

(28) *Budunig' igidäyin teyin, ...ulug' sü eki yegirmi... süyüşdim...* Xalqni ko'tarayin deb, o'n ikki (marta) katta qo'shin bilan urushdim (KT, kt). (19) *Ächümüz apamız tutmis yer sub idisiz bolmazun teyin siñlim kunchuyug' bertimiz...* — Bobolarimiz tutgan yer egasiz qolmasin deb, singlim — malikani (xotinlikka) berdik (KT, kt).

Maqsad ergash gapning kesimi buyruq fe'li orqali ifodalanib, asosan I va III shaxs shaklida bo'ladi.

2) Quyidagi qurilmada sabab munosabati anglashiladi:

(38, 39) *Negä tözär biz öküşh teyin, negä qorqur biz az teyin* — (Ularni) ko'p deb, nega qochamiz, (o'zimizni) oz deb nega qo'rqamiz (Toq).

Ravishdoshning **tep** shakli to'ldiruvchi ergash gapni bog'lash uchun xizmat qilgan. Bu holda ergash gap kesimi aniqlik fe'li orqali ifodalanadi yoki ot kesim bo'ladi:

Bundan tashqari **teyin**, **tep** shakllari ko'chirma va muallif gapini bir-biriga bog'lash uchun ham qo'llanadi; bu holatda u mustaqillikni saqlaydi.

So'nggi davr yodnomalarida **deb** yuqorida ko'rsatilgan vazifalarda keladi.

Maqsad munosabati:

*Saqinch, qadg'u bag'in büräyin teyü* (QB, 292) *Qonuqqa äsh otru qoyub ezi tashqari chiqar erdi qonuq bedahshat äsh yesün deb* (QA, qyo, 177). *Andin yana eltürür ani kızärlär ani gerdä qurt*

*qush yemäsün teyü* (Tf., L. 125, 12). *Tanbalg'a qoshulmasun deb aralay ätlanduq* (BN, 93). ... *erän sari yurub-turur man nechä yilliq g'amlardin yesünlar teb* (Sh.tar., 23).

Sabab munosabati:

*Qorqtum qarindashlarim meni eltürgäylar teb* (QA, qyo, 231). *Bu kim turur teyü tiläyü bardi* (Tf., 31 b, 23). ... *Iräqda-yävuqta eshitur, kərarga yaxshi bolg'ay deb kelib, Shāhruhiyadin tashqari Haydarbek sālg'ān bāg'da xāng'a mulāzamat qildim* (BN, 49). *Qorqa tururman dūnyālik üchün ag'izlariniz āla bolur teb.* (Sh.tar., 30).

To'ldiruvchilik munosabati:

*Duā qildi, ...arig' sālihlar qobsunlar deb* (QA, qyo, 160). *Anlar aydilar rawā bolg'ay deb* (Tf., XVIII sura). *Eshittikim Abulxānda Usari bāynin Māmā ātliq kerkli yaxshi qizi bār ermish teb. Kishi yibarib kēb māl berāyin teb tilāndi bāy bermādi* (Sh.tar., 74).

Shunisi xarakterliki, *deb* yordami bilan tuzilgan qurilma «Qissasul anbiyo»da ko'p uchrasa ham, Navoiy asarlarida va «Boburnoma»da kam qo'llanadi; «Shajarai tarokima»da va undan so'nggi davr asarlarida, hozirgi zamonda uning qo'llanishi ortadi.

### ***Nechük kim (-ki), ne ühün kim, ne üchün kim, zerā (-ki), chünkim (-ki) bog'lovchilari***

*Nechük kim, ne üchün kim, nechün kim* vosita bog'lovchi vazifasida keladi va dastlab «Qissasul anbiyo»da uchraydi. Bu vosita yordami bilan tuzilgan qo'shma gapning ikkinchi qismi sababni ifodalaydi:

*Pichāq ag'rig'in bilmādi nechük kim Misr xatunlari Yūsüfnin jamāli nuriniq xushlig'indin eliklarin kesib tüymädilär* (QA, qyo, 157). *Bu maqāmdur sāliqnie a'zam maqāmatyu arfa' dārājāti, nechünkim sāliq bidāyatda maskanatu haqārat maqāmidadur* (N., MQ, 86). *Maziyu mustaqbal ahvalin takallum aylakim, ne üchün kim dam bu damdur, dam bu damdur...*(N., MQ, 164). *Äksär qushnie güzäri Bārān yāqasidur ne üchün kim, sharqiy tārāfi täg'lardur* (BN, 167). *Ish tadbirdin ötüb edi. Nechünkim, ikki-üch, miñ yārāqliq kishi arkta, bir yüz-ikki yüz kishi tāsh qorg'ānda* (BN, 135).



Ko'rsatib o'tilgan bog'lovchilar, «Shajarai tarokima»da uchratilmadi, hozirgi zamon o'zbek tilida ham bu bog'lovchilar qo'llanmaydi.

«Shajarai tarokima»da sabab munosabatini ifodalash uchun *ul sābābdin, bul sābāb* birikmasi qo'llanadi (bu birikma hozirgi zamon adabiy tilida ham ishlatiladi). Bu turdagi qo'shma gaplarning birinchi qismi sababni ifodalaydi:

*Qāra ewlilār yārli bolub erdilār ul sābābdin...kelib aytdilār* (Sh.tar., 79). *Ājāz yaxshi yer turur teb bu sābābdin xān ottuz ewli sarbānni kōchūrūb Abulxān tag'iqā yibardi* (Sh.tar., 77).

So'nggi davr yozma yodgorliklarida sabab munosabatini ifodalash uchun tojik-forscha *zerāki, chūnkim* bog'lovchilari qo'llanadi. Bu bog'lovchilar ham sabab munosabatini ifodalaydi:

...*Germaniyā mamlakatig'a hech bir zārār bolmaydur zerāki erān mamlakatinin quvvati va puli yoq* (TVG, № 1, 1900) *Bul vaq'a nihāyatda āfsuslik vaq'adur, chūnki ...* (TVG, № 1, 1900).

Hozirgi zamon tilida *chūnki* bog'lovchisi keng qo'llanadi, *zerāki* ishlatilmaydi.

Hozirgi zamon tilida *chūnki* bog'lovchisi yolg'iz sabab munosabatini ifodalaydi va bir bog'lovchi sifatida o'qiladi. Ammo tarixiy yodnomalarda, xususan Navoiy tilida, bu bog'lovchi sabab munosabatidan tashqari boshqacha — shart, payt munosabatlarni ifodalash uchun ham xizmat qilgan. Bu holda *chūnki* bog'lovchisi ikki bog'lovchiga (*chūn* va *ki*) ayrilishi sezilib turadi:

*Nechā kim tonni riayat birlā kiysān eskirūr, chūn ki kiydūrdūq yalang'a aframas ton ul erūr* (N., MQ, 161).

### *chūn* bog'lovchisi

*Chūn* bog'lovchisi tojik-fors tilidan olingan bo'lib, ergash gapli qo'shma gap tuzishda xizmat qilgan. *Chūn* bog'lovchisi payt, shart, sabab, o'xshatish va natija munosabatlarini ifodalash uchun qo'llanadi.

«Qissasul anbiyo» va «Tafsir»da bu bog'lovchining qo'llanishi ancha chegaralangan. Ularda bu bog'lovchi natija, sabab, payt munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi:

...*Chün ewnin tørt burchi zāhir boldi* (QA, qyo, 154). *Sālihni olturālin chün azābqa sazāvar bolduq* (QA, lit., 71). *Chün kechā birlā yatdilar ol qasd birlā kim ertā birlā balchuq ketürgāylār* (Tf, 100 b, 8).

*Chün* bog'lovchisi Navoiy tilida juda keng qo'llanadi va turli-tuman semantik munosabatlarni ifodalaydi:

a) payt munosabati:

*Chün sihāt tāpti bo'ynig'a tumār qildi* (N., MQ, 97);

b) sabab munosabati:

*Yo'q ājāb chün ikkisidā yo'qturur aql va hayā* (N., MQ, 61).

Navoiy tilida *chün* bog'lovchisining qo'shma gapdagi munosabati bu bilan chegaralanmaydi.

«Boburnoma»da ham *chün* bog'lovchisining qo'llanish doirasi ancha kengdir. Unda ham bu bog'lovchi payt, sabab, o'xshatish, natija v. b. munosabatlari uchun ishlatiladi:

*Chün Samarqand va Hisār va Qunduzdīn qalīn el va ulug' Kabul vilayātig'a kelib edilār, maslahat andāq kērūldikim..* (BN, 170). *Sultān Ali mirzā rāzi bolmadi, chün ājāl yetib edi, qutulmadi* (BN, 99). *Chün ahd qililib edi (Uzun Hasanga) jān va mālig'a zārār va nuqsan tegürmäy...*(BN, 83).

*Chün* hatto to'ldiruvchi ergash gapni ham biriktirgan:

*Qāsimbek mubālag'alar bilā arzg'a yetkürdikim, chün bu Kishi bāradur, Jahāngir mirzāg'a mahsusān o'z kiygāniyizni yubāriq* (BN, 117).

*Chün* bog'lovchisi so'nggi davr yozma adabiyotida juda kam uchraydi («Shajarai tarokima»da uchramaydi), hozirgi zamon o'zbek tilida butunlay qo'llanmaydi.

### *tā* bog'lovchisi

*Tā* bog'lovchisi ham tojik-fors tilidan qabul qilingandir. Bu bog'lovchi ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun xizmat qiladi:

1. Payt ergash gap. Bu xil ergash gaplar bosh gapdan oldin keladi va kesimi mustaqil shaklda bo'ladi:

*Tā buyrug'uchida silā va in'am bar, alar mulāzimdurlar va*

*xizmatkār* (N., MQ, 37). *Va anga tā ājāl qafası eshigi achilmas, sayyād dāmu dānasig'a māyl qilmas* (N., MQ, 129). *Bisyār shāqq va dushvār keldi. Ne üçünkim, tā pādshāh bolub edim, bu nav' navkar va vilāyattin ayrılmāydür edim, tā özimni bilib edim, bu yusunluq, rānj va mashaqqatni bilmāydür edim* (BN, 73). *Tā tirikmiz ushbu aytilg'an sözlärдин qaytmas biz* (Sh.tar., 38).

Bu xil ergash gaplarda shart ma'nosi ham bo'ladi.

*Tā* bog'lovchisi **-kim** bog'lovchisi bilan birikib, payt munosabati ifodalanishi mumkin; bunday qurilma ko'proq so'nggi davr yozma adabiyotiga taalluqlidir:

*Saqla ishqiñ, tākim jānlar tändädür* (Muqimiy).

2. Maqsad ergash gap:

*...tilägäykim anga jān fidā etkäy, tā shafqati huquqin adā etkäy* (N., MQ, 53). *Toqquz ulum güzärlärni yaxshi ehtiyāt qilie, tā bu nechä yil özbek tafriqasidin dilishkästtä bolg'an ellärnie Kəñli qaviy bolub, umidvār bolg'aylar äri* (BN, 146). *...Qilich birlä chapib ikki bəläk qilmāq keräk tā kərgängä kəz va eshitgängä qulāq bolg'ay* (Sh.tar., 37).

*Tā* yordami bilan tuzilgan maqsad ergash gapning kesimi kelasi zamon fe'li (**-gay**) yoki buyruq fe'li orqali ifodalanadi va bu xil ergash gaplar bosh gapdan so'ng keladi.

Hozirgi zamon tilida *tā* yordami bilan tuzilgan ergash gapli qo'shma gaplar kam qo'llanadi.

Yuqoridagilardan tashqari, Navoiy tilida aniqlovchi ergash gap bilan bosh gapni bog'lash uchun yoyi ishorat vosita sifatida qo'llanilgan:

*Masidur ältun bilä rokash, tāshi xush* (N., MQ, 59).

### **-kim (-ki) bog'lovchisi**

Bog'lovchi vazifasidagi **-kim (-ki)** ning ergash gaplar tuzishda va bosh gapga bog'lashda roli kattadir. Bu bog'lovchi hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida ko'p ergash gapli qo'shma gaplarda qo'llanadi. **-kim (-ki)** bog'lovchisi tarixiy yodnomalarda katta o'rinni egallaydi. Bu bog'lovchi **-kim** shaklida dastlab «Qutadg'u bilig» asarida uchraydi, so'nggi davrlarda, ayniqsa, Navoiy tilida va undan so'nggi

yodnomalarda ham **-kim**, ham **-ki** tarzida uchrab, tilda juda keng qoʻllanadi va ergash gaplarning deyarli hamma turlarini bosh gapga bogʻlash uchun xizmat qiladi. Hozirgi zamon tilida esa asosan bu bogʻlovchining **-ki** shakli qoʻllanib, uning vazifa va qoʻllanish doirasi, oldingi davrlarga nisbatan chegaralangandir.

Ammo ozarbayjon va turk tillarida bu bogʻlovchi hozir ham keng qoʻllanadi, turli-tuman qoʻshma gap qurilmalarini tashkil etadi.

**-kim (-ki)** bogʻlovchisi turli-tuman ergash gapli qoʻshma gaplarni va ayrim hollarda bogʻlangan qoʻshma gapning baʼzi turlarini shakllantirishda vositalik qilishi bilan birga, turlicha murakkab bogʻlovchilar yaratishda ham xizmat qiladi: *kimki, tãki(m), negãki, nechã ki, hãr kimki, hãr nechã ki, qachãnki, qayerdaki, hãr zamãnki, hãr neki(m), hãr kimki, mägãrki, chũnki, hãr kim, kimsã v. b.*

**-kim** va **-ki** ning kelib chiqishi toʻgʻrisida turli fikrlar mavjuddir. **-kim** ning asli turkcha ekanini olimlar tan oladilar. **-ki** ning kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Koʻp tekshiruvchilar **-ki** ni fors-tojik tilidan qabul qilingan deb hisoblaydilar. Ammo baʼzi olimlar **-ki** bogʻlovchisining **-kim** dan kelib chiqqani, asli turkcha ekanini qayd etadilar. T. I. Grunin **-ki** bogʻlovchisining turk tilida ikki xil vazifasiga toʻxtaydi: bir oʻrinda **-ki** asli turkchadir, boshqa bir oʻrinda (turkcha qurilma bilan almashtirish mumkin boʻlmagan qurilmalarda) bu bogʻlovchi fors-tojiknikidir.

Hozirgi zamon oʻzbek tili materiallari va tarixiy yodnomalar tilining tahlili **-kim** bogʻlovchisining asli oʻzbekcha (turkiy) va **-ki** bogʻlovchisining fors-tojik tilidan qabul qilinganini eʼtirof etishga olib keladi. Oʻrxun yodnomalari va hatto soʻnggi XIII—XIV asr yodnomasi «Qissasul anbiyo»ning qoʻlyozmasida ham **-ki** bogʻlovchisi uchramaydi, keyingi davr qoʻlyozmalarida **-ki** keng ishlatiladi va **-kim** bogʻlovchisiga vazifadosh boʻladi yoki turli sifatdosha va boshqa qurilma oʻrnida qoʻllanadi. Hozirgi zamon tilida esa **-ki** bogʻlovchisi kam qoʻllanadi va u tamoman **-kim** shaklini siqib chiqargandir. Eski oʻzbek va hozirgi zamon tilidagi **-ki** turkiy **-kim** va fors-tojikcha **-ki** bogʻlovchisining vazifalarini oʻzida birlashtiradi.

O'rxun yodnomalarida **-kim** bog'lovchi vazifasida qo'llanishi bilan birga, **-kim** o'zining asosiy leksik ma'nosini saqlab qoladi.

«Devon»da va «Qutadg'u bilig» asarlarida ham **-kim** ning bog'lovchi vazifasida ishlatilishi juda chegaralangan (hozirgi zamon tili nuqtayi nazaridan **-kim** ishlatilishi zarur bo'lgan o'rinlarda bog'lovchisiz qurilmalar ishlatiladi):

*Neni kim tilädi yildi* (QB, so'zboshi). *Söz ol söz turur kim ol aymish, demish* (QB, 521). *Baqa ker bu sözlär kim aydim sana* (QB, 341).

Rabg'uziyning «Qissasul anbiyo» asarida **kim** olmoshi bog'lovchi vazifasida keng qo'llanadi.

**-kim (-ki)** turli-tuman ergash gaplarni bosh gap bilan bog'lash uchun xizmat qiladi. Yozma yodnomalarda bu bog'lovchining eng ko'p va xarakterli qo'llanish o'rni to'ldiruvchi ergash gapni bosh gapga bog'lashdir (bu holat hozirgi zamon tili uchun ham xarakterlidir).

Bunday qurilmalarning eng oddiy turi bosh gap kesimining xabar bildiruvchi fe'llar (*aytmoq, demoq, so'ramoq* v. b.) orqali ifodalanishidir. Bu holda ergash gap ko'pincha ko'chirma gap shaklida bo'ladi (bu xil qurilma «Qissasul anbiyo» va «Tafsir»da ko'proq qo'llanadi). Bosh gap kesimining biror narsani tushunish yoki kishining ruhiy holati va fikrlash jarayonini anglatuvchi fe'llar orqali ifodalanishi «Qissasul anbiyo» va «Tafsir»da ozroq, so'nggi davr adabiyotlarida ko'proq uchraydi. «Boburnoma» va «Shajarai tarokima»da bu turdagi qo'shma gaplarning yana boshqa bir turlari uchraydi: bu xil qurilmalarning bosh gapi tarkibida to'ldiruvchi vazifasidagi olmoshlar qo'llanadi, ergash gap ana shu olmoshlarning ma'nosini aniqlash yo'li bilan bosh gapdan va uning kesimidan anglashilgan mazmunni to'ldiradi. Hozirgi zamon tilida to'ldiruvchi ergash gapning har uch turi keng qo'llanadi.

• Misollar; 1) *Ismail atasig'a aytii kim, bir-bir'kelib mana tashvish bera turar* (QA, qyo, 147). *Bitikda andaq dedi kim...*(QA, qyo, 19). 2) *Anlarni tilädi kim, ölmäsälar. Daqyanus mälikkä aydikim, bular marzädalar tururlar* (Tf., XVIII sura). *Andäg' aydilar kim, biräkü kelmish turur mundag' söz sözlär teb* (Tf., XVIII sura). 3) *Bu vasila bilä xiyal qildi kim ul äliy maqsadg'a yetilgäy* (N., MQ,

16). *Bir türk bu ma'nida debdur kim, dām bu dāmdür* (N., MQ, 164). 4) *Andāq rivāyat qıldilarkim, bir qirg'avulni üskünāsini tørt kishi yeb tūgata almaydur* (BN, 18). *Zāhirda muni sanad qıldikim, Xālifā va Ibrāhim Xāja qāziniḡ havādārlaridur* (BN, 91). *Dedikim, muncha g'avg'ā va urush bolub, ne e'timād bilā bāray* (BN, 140). 5) *Āndaq aytib tururlar kim...*(Sh.tar., 34). *Munga qoydilar kim Og'uzni...oltürgäylär* (Sh.tar., 16). 6) *Āgār sorsalar kim...*(TVG, № 1, 1903)... *alardin iltimās qıldim ki, xalqlarni eźläriḡiz tarqātmaḡni tādarakini qiliḡlar* (TVG, № 85, 1913).

*-kim (-ki)* bog'lovchisining til tarixida qo'llanishidagi yana bir xarakterli xususiyat shundaki, bu bog'lovchi aniqlovchi ergash gapni bosh gapga bog'lashda xizmat qiladi. *-kim (-ki)* bog'lovchisi bosh gap tarkibidagi izohlanayotgan so'zga qo'shiladi, bu so'z gapning bosh yoki ikkinchi darajali bo'lagi bo'lishi mumkin.

Bu turdagi aniqlovchi ergash gapli qo'shma gaplar ikki xil ko'rinishga ega.

1. Aniqlovchi ergash gap bosh gapdan, o'z aniqlanmishidan oldin keladi va aniqlanmishning belgi-xususiyatini ko'rsatadi:

*Bu ishhlär kim manim haqimda qildiḡiz eźgälär haqinda qilmaniz* (QA, qyo, 225)...*qaysi yemäk-ichmäk kim maḡa seviklürkärak turur ani eźümga harām qilg'ay men* (QA, qyo, 185).

Aniqlovchi ergash gapning bu turi hozirgi zamon o'zbek tilida asosan qo'llanmaydi, ammo ba'zan unga yaqin bo'lgan qurilma she'riyatda uchrab qoladi:

*Ko'rgan zamoniyοq meni eltdi jalb, Yoqut donalarkim, sersuv va bo'la, Go'yo yuboribsan haroratli qalb, Go'yo bir quti kim, la'lilar to'la* (Uyg'un).

2. Aniqlovchi ergash gapli qo'shma gapning ikkinchi xil qurilmasida ergash gap bosh gapdan so'ng keladi va aniqlanmish bo'lakni izohlabgina qolmay, u haqda qo'shimcha ma'lumot ham ifodalaydi:

*Därd ähliniḡ nāfəsi bir o'tdur kim, qattiq köḡulni yumshätur va qurug' közni yig'latur* (N., MQ, 118).

Aniqlovchi ergash gapning bu turi hozirgi zamon tilida qo'llanadi.

Aniqlovchi ergash gapning har ikki turi, ayniqsa, birinchi turi,

yozma yodgorliklarda keng ishlatiladi. Ammo XIX asr yozma adabiyotlarida aniqlovchi ergash gapning birinchi turi deyarli uchramaydi.

Misollar: *Ul guruhlar kim, Isā yalawach dini üzā erdilār anlar aydilar* (Tf., XVIII sura). *Ālamda hech kishi yoqtur kim bir nav' murādi bolmag'ay* (N., MN, 20). *Shāirki hārzāsi külmakkā läyiq öz xayālida Sa'diy va Xisrāvg'a fayiq* (N. MQ, 100). *Āmaliq va Ālmatu va Yaḡi kim, kutublarda Otrar kent bitirlar, mog'ul va oʻzbek jihātdin bu tarixda büzülibtūr, aslā ma'mura qālmabdur* (BN, 17). *Temurbek sālg'an āliy imāratlardin biri Kōk sarāydukim, Samarqandnin arkida vāqi bolubtur* (BN, 54). *Ahmadbekkim, xānnin og'li sultān Muhammadniḡ bek atkasi va xānniḡ ulug'riāyat qilg'an begi edi, Tānbālniḡ tuqqan ābāg'asi edi, Bek telbākim, xānniḡ eshik ag'asi edi Tānbālniḡ tuqqan āg'asi edi...* (BN, 91). *Yāy va oqni ki tāpiḡ keltürdinizlār ul kishidin bo'lmadi* (Sh.tar., 28)...*xatun ne yerdin tapilurki kelib ātaḡniḡ ornin tutg'ay* (Sh.tar., 52).

- **kim (-ki)** bog'lovchisi ega ergash gapni bosh gapga bog'laydi. Bu xil qurilma ham ikki xil ko'rinishga ega bo'lgan (hozirgi zamon tilida har ikki qurilma ham ishlatiladi):

1. Ergash gap bosh gapga nisbatan ega vazifasida keladi: *Māl bergil ul māllarni xarj qilayin bolg'ay kim tilāḡiḡā yetkāy sen* (QA, qyo., 245).

2. Ergash gap bosh gap tarkibidagi ega ning mazmunini izohlaydi:

*Arabnuḡ ādati bār kim...* (QA, qyo., 143). *Bolg'ay kim idisi kelgāy qo'lg'ay* (Tf., 28 b, 23)... *bo'lg'ay kim o'l pānd aling'ay qo'rqqay* (Tf., 30, 24). *Ani desā bolg'ay kim valiyi mutlāqdur* (N., MQ, 18). *Muqarrarkim niyāz va hākisārlig'lari... kōprāk kerāk* (N., MN, 20). *Sultānali mirzā bilā kōrūshgündā andāq muqarrar bolub edikim, yāz ul Buxārādīn, men Andijāndin kelib, Samarqandni muhāsara qilg'aybiz* (BN, 56) *Xayālig'a bu kechib türkim, Sultān Ahmad mirzā ulug'pādshāhdur, qalin cherik bilā kelsā, beklār meni va vilāyatni tāpshurg'ularidur* (BN, 31). *Nechā jahāttin mumkin emās edikim, alarg'a berilgay* (BN, 70). *Rāsm turur kim qāra ulusnin barchasi seḡni bütün ayta bilmās* (Sh.tar., 34).

-**kim (-ki)** bog'lovchisi kesim ergash gapni bosh gapga bog'lash

uchun xizmat qiladi (bu holat hozirgi zamon tilida ham keng qo'llanadi):

*Biri ol turur kim meniñ elkim ayäg'imni birik bag'lag'il* (QA, qyo, 147). ...*ul bolur kim...* (Tf., L., 47 b, XVIII sura). *Taqi aytildi o'l mu erur kim siz mudda' alik qilur erdiniz anin birlä* (L. 98 b, 160). ...*Biri ulkim ilm ärganürgä ranj tartti va ämäl qilmadi* (N., MQ, 60). *Murädi bu kim janini ästanadäg'i itlär äldida fidä qilg'ay* (N., MN). *Aybi budurkim ulug' suyi yo'qtur* (BN, 66). *Munäsib ul turur kim pädashhliqni ang'a berib...* (Sh.tar., 49).

-*kim (-ki)* bog'lovchisi natija ergash gapni bosh gapga bog'lashi mumkin (bu xil qurilma hozirgi zamon tilida ham qo'llanadi).

Bu turdagi qo'shma gaplar ergash gapining kesimi buyruq fe'li shaklida bo'ladi:

...*ancha mäl beräyin kim urug'un urug'ung'a yetsün* (QA, qyo, 174).

Bu xil ergash gaplarning kesimi aniqlik fe'li orqali ham ifodalanadi (bu xil qurilma kam uchraydi):

*Yarliq boldikim qanäti birlä...urdi* (QA, qyo, 192). *Meniñ qoldashlarim andag' saqing'aylar kim, Daqyanus keldi erki teb qorqarlar* (Tf., XVIII sura). *Mubtalag'a baläyi tushgäyki, ölümni közüga totiya qilg'ay* (N., MQ, 103) ...*zäling'a andäq siyäsät qililsa kim özgä zälimlarg'a...* (N., MN, 21). *Axir ätaliq og'ulluq ärasida bu güftü gelär änhä munjar boldikim, ätasi og'li üstigä Balx va Astrabädqa cherik tärtilar* (BN, 59).

-*kim (-ki)* bog'lovchisi payt ergash gapni bosh gapga bog'lashda xizmat qiladi. Bu xil qurilma hozirgi zamon tilida kam qo'llanadi («Shajarai tarokima»da ham uchramadi).

Bu xil qurilmalarning ergash gapi bosh gapdan oldin keladi va kesimi, odatda, aniqlik fe'li orqali ifodalanadi (ko'pincha ergash gapning tarkibida payt anglatuvchi so'zlar ishtirok etadi):

*Saksan yil boldi kim meni bu umid ilä tutar erdin* (QA, qyo, 136). *Bizgä uch yüz yil artuqräq bolmush kim, bir* (biz) *munda ermishmiz* (Tf., XVIII sura). *Här qatla kim biravni tärtib chiqarg'aylar anda qalg'anlar özläridin barg'aylar* (N., MQ, 43). *Täj ätib edikim, rabäti Xojadin quyiräq Ko'häq süyina kechib yana yer yayläq kelduk* (BN, 102). *Barg'än kishi kelib dedikim,*



*müddatidürkam, Jahāngir mirzā chiqib ketibtur* (BN, 135).

**-kim (-ki)** bog'lovchisi sabab ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun qo'llanadi. Ergash gap bosh gapdan so'ng keladi (bu xil qurilma hozirgi zamon tilida ayrim hollardagina qo'llanadi):

*Nechük xushnud bolmayin kim payg'ambarlar urug'i turur* (QA, lit., 54). *Qorqarman kim meni öldürgäylar* (Tf., 29 b, 26). *Ishiniz ehtiyatin andin yaxshirāq qiliniz kim, nāxush ish vāq'e bolsa pushaymānlig'din sud yoqtur* (N., MQ, 15). *Dushman firibin yemā va maddāh xushāmadin chin demü kim aniy arzi öz maqsudig'a kāmduur* (N., MQ, 135). *Nechā mahal Tashkand va Sayram ham Mirzāniy tasavvufida edikim, āg'asi Sultān Ahmad mirzā berib edi* (BN, 24). *Nefāydakim, ish andin otub edi* (BN, 82).

«Shajarai tarokima»da **-kim // -ki** bog'lovchisining bu vazifasi uchratilmadi.

**-kim (-ki)** bog'lovchisi maqsad ergash gaplarni bosh gapga bog'lashda xizmat qilishi mumkin. Bu xil qurilmalarda ergash gap bosh gapdan oldin yoki so'ng keladi. Ergash gapning kesimi yoki bog'lovchi vazifasidagi **deb** ravishdoshi bilan birikadi, yoki buyruq fe'li orqali ifodalanadi (hozirgi zamon tilida ikkinchi holat ba'zan qo'llanadi):

*...qonuq kelishin bilsünlar deb o't yaqti* (QA, qyo, 180). *Ikki minj tājā berdi kim bularni ātanizg'a berin* (QA, qyo, 190). *Tolun Xojani yūbārib edikim, elgā nāsihāt qilib tavahhumni xātiralaridindin chiqārg'ay, tā el qorqunchtin sār babād bermag'aylar...* (BN, 71).

Maqsad ergash gapning bu turi yodnomalarda kam qo'llanadi. Keyinroq bu xil ergash gap bosh gap tarkibidagi biror bo'lakni (odatda, maqsadni ifodalovchi bo'lakni) izohlaydi: ... *shung'a mānānd hār nav' xābārlāri gazetimazg'a shul arz ilān tahrir āylārmiz kim...* (TVG, № 10, 1899).

**-kim (-ki)** bog'lovchisining vazifasi ergash gaplarnigina bosh gapga bog'lash bilan chegaralanmaydi. Bu bog'lovchi ergash gaplar bilan bog'langan qo'shma gaplarning orasida turgan ayrim qurilmalar tuzilishida ham xizmat qiladi. Bu xil qurilmalarni tashkil etgan qismlarning ikkinchisi birinchi qism tarkibidagi ayrim bo'laklarni aniqlamaydi, izohlamaydi, mazmunini to'ldirmaydi, balki birinchi qismning umumiy mazmuniga oid bo'lib, bu umumiy

mazmunni izohlaydi, to'ldiradi:

*Ikkisidin ikka qiz bo'lib ediki, mäkzur bo'ldi* (BN, 45). *Alqissa, mirzä tahäratga kirgän üyiniñ ärqa täräfidä xisht bilä tig'a qopärg'an eshigi bär ekändürkim, hävlidin tashqari chiqg'an ekändur* (BN, 54). *Däräniñ peshgähidä qorg'ani bir tumshuqniñ ustida tushubturkim, ikki täräfidin ruddur* (BN, 157). *Känigil Siyähäb yäqasidadurkim, bu qära suvni Äbiraħmat ham derlar* (BN, 66).

Bu xil qurilmalar yodnomalarda kam uchratildi, u asosan «Boburnoma» va XIX asr tilida uchraydi. Hozirgi zamon tilida, ayniqsa, yozma nutqda bu xil qurilma ko'p qo'llanadi.

**-kim (-ki)** bog'lovchisining tarixiy taraqqiyoti o'zbek tili ergash gaplarining shakllanish va takomillanish tarixi bilan jips bog'langandir. Bu bog'lovchi **-kim** shaklida ma'lum bir doirada qo'llangan bo'lsa ham, so'ngra fors-tojikcha **-ki** ning qabul qilinishi va shunday qurilmalarga taqlid qilinishi bilan uning vazifasi kengaydi va hatto boshqa qurilmalar o'rnini ham egalladi. Bu holat ayniqsa, Navoiy va Bobur asarlarida aniq ko'zga tashlanadi. «Shajarai tarokima» va XIX asrning oxirida nashr etilgan, xalq tiliga yaqin bo'lgan yozma yodgorliklar tilida **-kim(-ki)** bog'lovchisining qo'llanish doirasi chegaralanganini va ayrim sof tojikcha qurilmalar qo'llanishdan chiqa boshlagani ko'rinadi, hatto prof. A.N. Kononov «Shajarai tarokima»da **-kim (-ki)** bog'lovchisining ikki vazifadagina — aniqlovchi, to'ldiruvchi vazifasida kelishini ko'rsatadi (A.N. Kononov «Shajarai tarokima», 172-b.).

Ergash gaplarni bosh gapga bog'lashda ko'makchilar, kelishik qo'shimchalarining katta rol o'ynashi ko'rib o'tildi. Bu vositalar ergash gapni bosh gapga bog'lovchi yagona vosita bo'lmasdan, ular biriktirib kelayotgan ergash gap kesimlarini hamda ergash gapni shakllantirishda va bosh gapga bog'lashda xizmat qiladi; bunday kesimlar vazifasida sifatdosh, shart fe'li yoki buyruq fe'li shakllari keladi.

Shu bilan birga, ko'makchilar, kelishik qo'shimchalari yolg'iz o'zlari ergash gapni shakllantirishlari va bosh gapga bog'lashlari ham mumkin. Masalan: *...ulug' kotäl bilä Parvän ärasida yetti kotäl bär uchun Häftbächchä derlär* (BN, 154). Bu qo'shma gapning

birinchi qismi «*ulug' ketäl bilä Parvân ârasida yetti ketäl bär*» bo'lib, u ikkinchi gapga *üchün* ko'makchisi yordami bilan bog'lanadi va unga nisbatan sabab ergash gap bo'ladi. Agar bu ko'makchi bo'lmasa edi, birinchi qism alohida mustaqil gap bo'lar edi. Ko'makchi birinchi gapni ergash gapga aylantiradi, ikkinchi (bosh) gapga bog'laydi.

Ko'makchi yordami bilan bog'lanish O'rxun yodnomalarida va so'nggi davr yozma adabiyotida ham qo'llanadi (bunday vazifada *üchün* ko'makchisidan boshqa ko'makchi uchramadi):

(6) *Beklari buduni tüzsiz üchün, ...türk budun illädük ilin ichg'ïnu idmis...* — Beklari, xalqi to'g'ri bo'lmagani uchun, turk xalqi o'z davlatini (C.B. Малов: племенной союз) yemirib tashladi (KT, kt). (29) ...*Qutim bar üchün ülügim bar- üchün öltächi budunig' tirigrü igitim* — Baxtim bor uchun, o'ladigan xalqni tiriltirdim (KT, kt). *Sultân qabri anda üchün Ravza derlar* (BN, 163). *Temurbekniñ zädu budi Keshitin üchün, shähr va päytaxt qilurig'a köp säy va ehtimâmlar qildi* (BN, 67).

Kelishik shakli *-da* ham ergash gapni shakllantirishda va bosh gapga bog'lashda xizmat qilgan:

(47) (7) ...*Tongra bir o'g'ush alpog'u on erig, Toñja tigin yog'inta, egirip öürtimiz* — Tongra qabilasiga qarashli o'n bahodirni, Tongra teginni ko'mishda (ko'mganda), quvlab, o'ldirdik (KT, kt). *Og'uz kishi yoqda, qizg'a aytdi* (Sh.tar., 198).

Bu turdagi ergash gaplarning kesimi *bor* yoki *yo'q* so'zi orqali ifodalanadi.

Shunday qilib, kelishik qo'shimchasi yangi vazifa va sifatga ega bo'lib, ergash gapning bosh gapga bog'lovchi vositaga aylanadi.

Bundan tashqari, ergash gapni shakllantirishda va bosh gapga bog'lashda turli leksik vositalarning ham roli katta bo'lgan.

Masalan: *Yusunluq: Suv üzä ördäk üzüb yürig'än yusunluq yuyung'il* (QA, lit., 45). *Jihätdin: Äta-äg'asidin umidvârlig'i bär jihätdin dârâñ qilur edi* (BN, 150).

Shunday qilib, tobe bog'lovchilar til taraqqiyotining so'nggi davrlarida vujudga keldi. Uning vujudga kelishi ichki imkoniyatlari asosida (mavjud mustaqil so'zlarning bog'lovchiga o'tishi) va chet tillardan (asosan, fors-tojik va arab tilidan) bog'lovchi vositalar

qabul qilish yo‘li bilan ro‘y berdi; qabul qilingan bog‘lovchiga yangi vazifalar yuklandi.

Dastlab mustaqil so‘zlar (olmosh yoki ravishdosh) o‘z vazifalariga ko‘ra bog‘lovchi vazifasida ham qo‘llana boshladi (*aniy üchün*), shu bilan birga bu so‘zlar o‘z ma‘no va vazifasida ham ishlatilgan. *Deb* ravishdoshi esa bizga ma‘lum yodnomalardayoq (O‘rxun yozuvlari) bog‘lovchiga o‘tgan, u o‘z ma‘no va vazifasida kam qo‘llanadi.

Tarixiy taraqqiyot natijasida ba‘zi bir bog‘lovchi va shu vazifadagi vositalar ishlatilmay qolib ketdi (*nechükkim, nechünkim, zeräki, chün, bāvujudi ulkim, yoyi ishārat*), ba‘zilari, shakllarini biroz o‘zgartib, yana qayta mustaqil so‘z sifatida ham qo‘llana boshladilar (*aniy üchün — shuning uchun*), ba‘zi birlarining vazifasi kengaydi (*deb*), ayrimlarining vazifasi esa toraydi (*chünki, -kim // -ki, to*).

Ergash gapni bosh gapga bog‘lashda ayrim ko‘makchilar va kelishik belgilari ham xizmat qilgan. Bu usul hozirgi zamon tilida keng qo‘llanadi.

Tobe bog‘lovchilar tarixini o‘rganar ekanmiz, har bir davrda o‘ziga xos bog‘lovchi vositalar bo‘lganini ko‘ramiz. Qadimgi turkiy tilda shart bog‘lovchilar (*qalti, qali, apam/abam, birük*), sabab (*aniy üchün, antag‘i jin üchün*), maqsad (*teb, teyin*), qiyos (*tek, netäk*) bog‘lovchilari mavjud bo‘lib, ular ergash gaplarni bosh gapga birlashtirishda xizmat qilgan.

O‘rta Osiyo turkiy yodnomalar tilida tobe bog‘lovchilar kengroq qo‘llanadi. Shart bog‘lovchilardan *qalti* ishlatilmay qolib ketadi, *qali* kam qo‘llanadi, bularning o‘rnini *ägär* egallaydi, ayniqsa so‘nggi davrga oid eski turkiy yodnomalar tilida (ayniqsa QA. da) asosan *ägär* ishlatiladi. Sabab bog‘lovchilarining doirasi ham biroz kengayadi: *aniy üchün* bog‘lovchisi ko‘proq *kim* bog‘lovchisi bilan qo‘llana boshladi, *ne üchün (kim), ne üchün, nechük (kim)* bog‘lovchilari kelib chiqdi, kamroq bo‘lsa ham *chün* bog‘lovchisi qo‘llana boshladi (QA da). Maqsad bog‘lovchisi asosan *deb* shaklida bo‘lib, qo‘llanish doirasi kengaydi, *täki* bog‘lovchisi qo‘llandi (QA da). Qiyos bog‘lovchilari *tek // dek, ne tek* qo‘llanishi bilan barobar, *aniy tek kim, andag‘ kim* shakllandi.

O'рта Osiyo o'zbek tilida shart bog'lovchisi *ägär* bo'lib, u keng qo'llanadi va eski shart bog'lovchilarini (*qalti, qali, birük*) tamom siqib chiqaradi. Shart bog'lovchilarining yangi turlari *mägär, mabädä, mädämiki, basharti* qo'llanadi, *ägär* ning boshqa bog'lovchilar bilan birga qo'llanishi ko'rinadi: *va ägär ne, värnä. Ägärchi, gär, härchänd, bävujudi // kim* bog'lovchilari to'siqsiz ergash gaplarni tuzadi.

Sabab bog'lovchilar doirasi ham birmuncha kengaydi. O'рта Osiyo turkiy adabiy tilida bog'lovchilar qo'llanish bilan birga *chün, chünki, nechükkim, negäki, zerä, zeräki, chu, ne säbäbdin* bog'lovchilari qo'llanadi. Eski o'zbek tilida *deb* maqsad bog'lovchisi qo'llanish bilan birga, *täki* bog'lovchisi keng qo'llana boshladi. Bu davrda qiyos bog'lovchilarining ham doirasi kengaydi, *tek (dek)* bog'lovchisidan tashqari, yangi *geyä (kim), boylakim (o'ylakim)* bog'lovchilari qo'llana boshlaydi.

O'рта Osiyo o'zbek tilida payt munosabatini ifodalovchi bog'lovchilar xarakterlidir. Bunga eng avvalo *ersä (er + sä)* fe'l shakli kiradi. Bu bog'lovchi vosita mustaqil kesim shakllariga qo'shilib keladi va payt (ba'zan shart-payt) ergash gaplarni tashkil etadi: *yag'in boldi ersä usal bolmag'il* (QB, XLII, 1984. W. Radloff) — Dushmaning bo'lgandan keyin, sen beg'am bo'lmagin. *Ersa* bog'lovchisi qadimgi turkiy tilda *erinch, erkän, erki* shaklida uchraydi, bu bog'lovchi *ersä* shaklida dastlabki eski turkiy obidalar tilida kamroq, O'рта Osiyo o'zbek tilida ko'proq qo'llanadi.

Eski o'zbek tilida payt munosabatini ifodalash uchun yana *chu, tä(ki)* bog'lovchilari va *qachän, härnechü* nisbiy olmoshlari ham ishlatiladi.

Tobe bog'lovchilarning taraqqiyotida *-kim/-ki* bog'lovchisining tarixi xarakterlidir. Turkiy bo'lgan *-kim* bog'lovchisi aslida so'roq olmoshi bo'lib, qadimgi turkiy tildayoq nisbiy olmoshga o'tgan edi. O'рта Osiyo turkiy tilda *-kim* tamoman bog'lovchiga o'tadi va ilk yodnomalar tilida ishlatiladi. U aniqlovchi, to'ldiruvchi, kesim, ega ergash gaplarni bosh gapga biriktirib keladi. QB va HH asarlarida *-kim* yordami bilan tuzilgan qurilma juda kam uchraydi. *Bu soz kim sen aydiy bag'irsaq'lig'ol* (QB, XLII, 194/1, W. Radloff) — Sen aytgan bu so'z iltifotdir. *Ol erkim ulug'sindi men men dedi*

(HH) — U kishiki, man-man deb kattalik qiladi. ... *Ayur kim ey Əgdūlmish* (QB, Namangan nusxasi, 70 a/z) — Aytdeki, o O'gdulmish... *Bu az sōz ol ol kim ayitmishqa օz, jevab bersā—* (QB, XVI, 172/29. W. Radloff) — Oz so'z shuki, aytilgan savolga (bevosita) javob berilsa (Aytilgan savolgagina javob berilgan so'z qisqa so'z hisoblanadi). *Ulug'lar kerāk kim kichigkā salam, ashundursa* (QB, IX, 142/35 W. Radloff) — Kerakki, ulug'lar (katta amaldorlar) kichiklarga (xalqqa) salom qilsa.

O'rta Osiyo turkiy adabiy tilning so'nggi namunasi bo'lmish «Qissasul anbiyo»da *kim* yordami bilan tuzilgan qurilma keng qo'llanadi. Eski o'zbek tilida esa *-kim* va asosan *-ki* bog'lovchisi juda keng ishlatilgan. Bu davrda tojik tilining ta'siri bilan *-ki* bog'lovchili butun qurilmalar o'zbek tiliga ko'chadi, tojikcha qurilmalarga o'xshash o'zbekcha qoliplar shakllanadi.

*-ki* bog'lovchisi deyarli butun ergash gaplarni, ba'zi bog'langan qo'shma gaplarni, ko'chirma gapli qurilmalarni tuzishda keng qo'llaniladi. *-ki* bog'lovchisi yordami bilan tuzilgan tojik tiliga xos ba'zi qurilmalar xalq tiliga singmadi, hatto keyingi davr yozma adabiyotda ham bu xil qurilmalarning qo'llanishi kamaya boradi. Hozirgi zamon o'zbek tilida ham *-ki* bog'lovchisi yordami bilan tuzilgan ergash gaplar juda kam qo'llanadi. Ammo hozirgi zamon turk va ozarbayjon yozma adabiyotida *-ki* bog'lovchisi ancha keng qo'llanishini ko'ramiz

Shunday qilib, bog'lovchili ergash gaplarning shakllanishi tobe bog'lovchilarning kelib chiqishiga bog'liq. Tobe bog'lovchilar mustaqil so'zlardan kelib chiqadi. Mustaqil so'zlar o'z leksik ma'nosini to'liq yoki qisman yo'qotib so'zlarni va gaplarni bir-biriga biriktiruvchi grammatik vositaga aylanadi. Bog'lovchiga aylanuvchi so'zlar olmoshlar, ravishlar hamda o'rin, payt, vosita va modal munosabat ifodalovchi so'zlar bo'ladi. Ba'zi bog'lovchilar boshqa tillardan tayyor holda olinadi. Ayrim so'roq olmoshlarining bog'lovchiga o'tishi uchun u avval nisbiy olmoshga o'tishi kerak (*-kim // -ki*). Ba'zan ayrim so'zlarigina o'z leksik ma'nosining susayishi natijasida bog'lovchiga o'tib qolmay (*deb, bolib, qilib, ersä esü*), butun bir birikma va gaplar ham gaplarni biriktiruvchi vositaga aylanadilar (*negä desäniz, yoqsa, bolmasa, shunday bolsa-da*).

Bog'lovchilarning qo'llanishi gap tarkibidagi ayrim korrelyativ so'zlarni qo'llashni chegaraladi, natijada jumla ancha ixchamlashadi. Paydo bo'lgan birinchi bog'lovchilarning vazifasi juda keng va turli-tuman bo'ladi. Yangi bog'lovchi va bog'lovchi vositalar kelib chiqishi bilan bog'lovchining vazifasiga differensiallashadi, aniqlashadi, ma'lum bir mazmun bilangina bog'lanadi. Bu jarayon doimo ro'y beradi, uzluksiz davom etadi.

## I. Tekshirish uchun savollar

1. Ergash gaplarning ajralish jarayoni.
2. Sifatdosh ergash gapni tuzuvchi vosita sifatida.
3. Ravishdosh ergash gaplarni tuzuvchi vosita sifatida.
4. Shart fe'li ergash gaplarni tuzuvchi vosita sifatida.
5. Nisbiy olmoshlar ergash gapni tuzuvchi vosita sifatida.
6. Ergash gapni tuzuvchi ergashtiruvchi vositalar.
7. Kim, chün, chü bog'lovchilarning ergash gaplarni tuzishi.
8. Qadimgi ergashtiruvchi bog'lovchilarning ergash gaplarni tuzishi.
9. Ergash gaplarning so'z birikmalaridan farqi.

## II. Tayanch tushunchalar

*Ergash gap va so'z birikmasi. Ergash gapli qo'shma gap va bog'langan hamda bog'lovchisiz qo'shma gaplar. Sifatdoshli, ravishdoshli, nisbiy olmoshli, shart fe'lli qurilmalar va ergash gaplar. Ergash gap tuzuvchi qadimgi ergashtiruvchi bog'lovchilar.*

### Lug'at

Quyidagi so'zlarning ma'nosini aniqlang:

af'al	—	nadomat	—
axi	—	otru	—
äbra	—	qabuq	—
ava	—	rishvat	—
barzish	—	sag'ar	—
basal	—	tafavut	—
bebak	—	xil'at	—
dahr	—	yag'i	—
muhäl	—	G'ani	—

## KO'CHIRMA GAP

1. Ko'chirma gapli qurilmalar qadimgi davrdan boshlab tilimizda qo'llanib keladi: 712–716-yili toshga bitilgan Tongyuquq yodnomasida bunday gap turlari 30 foizni tashkil etadi.

Odatda, ko'chirma gap muallif gapi bilan birga qo'llanadi.

Ko'chirma gapli qurilmalar umumiy bir fikrni ifodalagani uchun qo'shma gapning bir turi bo'ladi. Agar muallif gapi kesimi *aytdi, dedi, so'radi* kabi fe'llar bilan tugallansa, biror xabar mazmuni ifodalanadi. Agar muallif gapi kesimi *do'q qildi, shivirladi, to'ng'illadi* kabi fe'llar bilan ifodalansa, ko'chirma gap shu fe'llardan anglashilgan ma'noning uslubiy mazmuni ifodalanadi. Uslubiy mazmun muallif gapidagi ayrim so'zlar orqali ham ifodalanadi: *jahl bilan, muloyim, sevinib, duduqlanib* kabi.

Demak, ko'chirma gap muallif gapidagi ayrim bo'laklarning ma'nosini ochuvchi uslubiy vositadir.

Uslubiy mazmunni ifodalovchi vositalarning xabar beruvchi turlari qadimgi davrlardan ma'lum bo'lsa-da, uning uslubiy mazmun ifodalovchi vositalari adabiy til tarixining keyingi – XIX asrda drammaturgiya, roman, hikoya, reportaj kabi adabiy janrlarning shakllana boshlashiga bog'liqdir.

2. Muallif gapi bilan ko'chirma gapni **bog'lovchi vositalar**, qadimgi turkiy tilda *tep, teyin, teyü* ravishdoshlari bo'lsa, keyingi davrlarda *deb, -kim/-ki* bog'lovchilari va muallif gapi tarkibida konnonativ ma'noni ifodalovchi so'zlar qo'llana boshlaydi.

*Beklarim, budunim kuzi qashi yablaq bo'ltachi tep saqindim (KT, kt)* – Beklarim, xalqim ko'zi, qoshi yomon bo'ladi, deb g'amga botdim. *Budunig' igitayin teyü ... ulug'su eki yegirmi sünyüşdüim. (KT, kch)* – Xalqimni ko'tarayin deb, o'n ikki (marta) katta qo'shin bilan urushdim.

*Saqinch qadg'u bag'in buzayin teyü (QB, 292)* – Sog'inch, qayg'u bog'ini buzayin, deb. *Bitikda andaq dedi kim (QA, qyo)*. Daqyunus malikkä aydikum (Tf, XVIII sura).

*Bir türk debdur kim, däm bu dämdu. (N., MQ, 164). Dedikim: Ishq o'ndin de fasāna! Dedi: kuymäy kishi topmas nishāna (A. Nav.) Tanbalga qo'shulmasun deb, aralay ätlanduq. (BN, 93)*



*Agar so'rsalar kim* (TVG, № 85, 1913) ... alardan iltimās qıldımki (TVG, № 85, 1913)

3. Ko'chirma gap o'zganing aynan gapi bo'lishi yoki muallifning tilagi, fikri bo'lishi mumkin. Bu turdagi qurilmalar qadimgi davr yozma manbalarida va so'nggi davr yodnomalarida qo'llanadi.

a) bodun ancha temis: “*ellig bodun ertim elim amti qanı? – tep ermis (KT, kt)*” – Xalq shunday debdi: “*Davlati xalq edim, davlatim qanı endi?*” Ismāil ātasig'a aytti kim: “*bir-bir kelib maņa tashvish beratur*”. (QA, qyo, 147) Sāz aytib birisi hār saridin, Qutulduq deb farangiy lashkaridin., (Furq.).

b) “*Negā tuzār biz ukūsh teyin...*” (Toj.) – Nega ularni ko'p deb qochamiz? Qonuq kelishini bilsünlar deb o't yaqdi. (QA, qyo., 180). Nechā yilliq g'amlarin yesünlār teb. (Sh.tar., 23). Qilishib anda minnatdorlig', Debonkim: “*Qıldınızlar g'amxo'rlig'lar*”. (Furq.).

4. Muallif o'ziga fikran murojaat qilganda, muallif gapi va ko'chirma gapni muallif gapiga bog'lovchi vosita tushib qoladi. Bunday gap qurilmasi eski o'zbek adabiyot tili davridan boshlab qo'llana boshlagan:

*Navāiy, o'ylā tirilkim, uyatdin o'lmägäysen. Agar Rasul alayhissalom bo'lsa shafe'* (Nav.).

*Dedimki mundäg' dushvarlik bila tirilgunchä bāsh ālib eltsām yaxshi* (BN, 112).

5. Ko'chirma va muallif gapining o'rinlashishi qadim adabiy til davridan erkin bo'lgan va bu hol ma'lum uslubiy mazmun tashigan.

Ko'chirma gap muallif gapining o'rtasida: *Budun ancha temis: «ellig budun ertim, elim emti qanı», – tep ermis (KT). Buņatur qag'an: yelu ker, temis* (Toj.). – Shunday qilib, xoqon: «*Yelib ko'r*», – debdi.

Ko'chirma gap muallif gapi bilan bo'linadi: *Ol sabug'esidip, qag'anım: «ben ebgeru tuseyin, tedi, qatım yoq bolmis erti, ani yog'latayin, tedi, su bariņ, tedi., Altun yishda oluruņ, tedi, su basu Inal qag'an barzun, tedi»* (Toj.) – Bu so'zni eshitib, xoqonim: men uyga borayin, xotinim o'libdi, uni yo'qlatay, sizlar qo'shin bilan boringlar, Oltin yaylovida turinglar, qo'shin boshlig'i bo'lib xoqon borsin, – deb aytdi.

## O'zlashtirma gap

Muallif o'zgalarning gapini keltirmay, o'z so'zi bilan o'zgalar gapi mazmunini beradi. Bunda albatta muallif o'zgalar gapining kesimining shaklini o'zgartiradi:

*Ayto 'ldi o'zi davlat erdukin ayur* (QB, 148). *Adam o'g'li ag'irlig'i bilik birla erdu gun ayur* (QB, 67).

Bu xil gap qurilmalari sarlavhalarda qo'llanib, XI asrlarda va keyingi davrga oid adabiy asarlarda uchraydi.

Kesim shakli o'zgargan qurilma o'zlashtirma gap bo'lmasligi ham mumkin:

*Yaqub o'g'lanlarnin tewä birlä kelürin kordi* (QA, qyo, 148).

## Umumiy xulosalar

I. Qo'shma gap ma'lum bir fikrni ifodalash uchun birdan ortiq predikativ birliklar birikmasidan tuzilib, grammatik, mazmun ohang jihatdan bir butunlikni tashkil etadi.

Qo'shma gap sodda gapdan o'zining mazmuni, grammatik qurilishi va ohang xususiyatlari bilan farqlanadi. Qo'shma gapda fikr mukammalroq, to'laroq ifodalanadi, albatta murakkab fikr yoyiq sodda gaplarda ham ifodalanishi mumkin. Ammo qo'shma gapda murakkab fikr ifodalanishi bilan birga, shu fikr, maqsadlar orasidagi mazmun munosabatlari ham o'z aksini topadi.

Qo'shma gapning sodda gapdan farqlanishi, ayniqsa, uning tarkibida aniq ko'rinadi. Qo'shma gap tarkibida o'z ega va kesimi mavjud bo'lgan predikativ birliklardan tuziladi (agar bu qismlar bir sostavli yoki to'liqsiz gaplar shaklida bo'lsa, grammatik ega yoki kesim bo'lmasligi ham mumkin).

Qo'shma gapni tashkil etgan gaplarning oddiy mustaqil sodda gaplardan farqi ayniqsa sifatdosh yoki ravishdosh qurilmalardan tashkil topgan ergash gapli qo'shma gaplarda yaqqol ko'rinadi. Tarkibida o'z ega va kesimi bo'lgan sifatdosh va ravishdosh qurilmalari mustaqil qo'llanmaydi.

Bunday holda, ayniqsa, qo'shma tap qismlari o'zaro jips bog'lanadi. O'zbek tili (umuman turkiy tillar) qo'shma gaplari ana shu xususiyati bilan Hind-yevropa tillaridan farqlanib turadilar.

O'zbek tilida Hind-yevropa tillaridagi kabi bog'lovchili qurilmalar kam. Ularning o'rnini sifatdosh, ravishdosh qurilmali spetsifik qo'shma gaplar tashkil etadi.

II. Qo'shma gap boshqa bir o'rinda sodda gaplarning birikishi yo'li bilan tuziladi. Qo'shma gapni tashkil etgan sodda gaplarning mazmun, grammatik va intonatsion xususiyatlari o'zgaradi, ular umumiy fikrni ifodalovchi murakkab qurilmaning bir bo'lagi bo'lib qoladi.

Sodda gaplarning qo'shma gapni hosil qilishda o'zaro birikishi, qo'shilishi turli grammatik vositalar — yordamchi so'zlar, kelishik qo'shimchalari, fe'l shakllari orqali bo'ladi. Ammo qo'shma gap tuzilishini ana shu vositalarning o'ziga bog'lab qo'yish to'g'ri emas. Qo'shma gap tuzishda ohangning roli kattadir. Ohang har qanday qo'shma gap qurilmasini tashkil etishda xizmat qiladi. Bundan tashqari, qo'shma gap tuzishda qo'shma gap qismlari tarkibidagi ayrim gap bo'laklarining va maxsus leksik vositalarning mazmuni va kesimlarning zamon munosabatlarining roli kattadir. Ana shu leksik va grammatik vositalar qo'shma gap qismlari orasida ma'lum mazmun munosabatlarni belgilaydilar. Bir xil bog'lovchi orqali turli xil qo'shma gap turlarining yaratilishi ana shu leksik va grammatik vositalar orqali bo'ladi.

III. Hozirgi zamon o'zbek tili qo'shma gaplari uzoq yillik tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Qo'shma gap qurilmalari ko'p asrlar mobaynida taraqqiy etdi, takomillashdi. Bu jarayon ijtimoiy hayot va ijtimoiy ongning rivojlanish ta'siri bilan bo'ldi. Qo'shma gap taraqqiyotida boshqa tillar bilan — fors-tojik va arab tili bilan bo'lgan munosabat, o'zaro ta'sir katta rol o'ynadi.

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tili qo'shma gaplari haqida gap borar ekan, uning tarixiy takomilini hisobga olmaslik, ana shu tarixiy jarayondan ajratib tekshirish masalani to'la anglash va izohlash imkoniyatini bermas edi. Shuning uchun ham ma'lum davrlarga oid bo'lgan eng mashhur yodnomalar olinib, ular tilidagi qo'shma gap qurilmalari tekshirib chiqildi va qo'shma gap taraqqiyotiga taalluqli ba'zi umumiy masalalarga to'xtab o'tildi. Qo'shma gaplarning tarixiy taraqqiyoti masalasi alohida masaladir. Hatto har bir yodnoma tilidagi qo'shma gaplar alohida ilmiy

tekshirish ishlarini talab etadi.

IV. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida qo'shma gaplarning har uch turi, ayniqsa, bog'lovchisiz qo'shma gaplar keng qo'llanadi.

Bog'lovchisiz qo'shma gaplar qo'shma gapning alohida bir turini tashkil etadi. Ular bog'lovchili qo'shma gaplarning turlari bo'la olmaydi, chunki ko'p o'rinda ularni bog'lovchili qurilma bilan almashtirib bo'lmaydi. Qo'shma gaplarning bu turi o'zining mazmun munosabati, ohang va tuzilishi bilan o'ziga xoslikka egadir.

Bog'lovchisiz qo'shma gapni tashkil etgan qismlar o'zaro uch xil mantiqiy munosabatga kirishadilar: 1) payt munosabati, 2) qiyoslash munosabati, 3) izohlash munosabati. Bu mazmun munosabatlarning har biri bir qancha ma'no turlarga ega. Har bir ma'no turi maxsus ohang, ayrim leksik vositalar, ba'zi gap bo'laklarining mazmuni, kesimlarning zamon munosabati orqali ifodalanadi.

Bu mazmun munosabatlar va uning ichki ma'no turlari bizga ma'lum bo'lgan birinchi yodnomalardayoq ma'lum edi (VIII, XI asr yodnomalari). Ammo bu munosabatlarning bir turi (payt munosabati) ko'proq, boshqasi ozroq qo'llanar edi. Shu bilan birga, qo'shma gap qismlarining tuzilishi, kesimlarining shakli va zamon munosabatida, qo'shma gapning umumiy tuzilishi hamda qismlar orasida ifodalangan ba'zi bir ma'no turlarida farq seziladi. Qadimgi yozma yodgorliklar tilida qo'shma gaplarning o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri shuki, hozirgi zamon tilida qo'shma gap qismlari orasidagi mazmun munosabatlar shu qism tarkibidagi ayrim gap bo'laklarining orasidagi mazmun munosabatlarga asoslansa, qadimgi yodnomalar tilidagi qo'shma gaplarda mazmun munosabat qismlarining umumiy mazmuni orasida bo'ladi. Bunday munosabat hozirgi zamon tilida bo'lsa ham, u asosiy o'rinni egallamaydi. Qo'shma gap qismlari tarkibidagi ayrim bo'laklarning ma'nosini qiyoslash orqali qo'shma gap qismlari orasida ma'lum mazmun munosabatlarning o'rnatilishi hozirgi zamon tilida birdan kelib chiqmadi. Bunday usul qisman N, BN, Sh.tar. asarlari tilida ham uchraydi, uning ba'zi vositalari VIII—XI asr tilida ham qo'llanadi.

Umuman, bog'lovchisiz qo'shma gaplar qadimgi yodnomalarda

asosiy o‘rinni egallaydi. Bu yodnomalardagi bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar mazmunan ancha murakkab mazmun munosabatlarni ifodalaydi. Keyinroq bog‘lovchisiz qo‘shma gap qurilmasi bog‘langan qo‘shma gaplar uchun, ergash gapli qo‘shma gaplar uchun asos bo‘ladilar: shu bilan birga, bog‘lovchisiz qo‘shma gaplar o‘z taraqqiyot yo‘liga ega bo‘lib, yangi mazmun gruppalariga ajraladi, yangi grammatik tuzilishli belgilarga ega bo‘la boradi.

Qo‘shma gap qismlari orasidagi mazmun munosabat hozirgi zamon tilida ancha zich bo‘lsa-da, qadimgi yodnomalarda (ayniqsa, VIII–XI asr yodnomalarida) bunday zichlik bo‘lmagan: har bir qismning mazmun mustaqilligi kuchli bo‘lgan. Shuning uchun ham bu xil qismlarni qo‘shma gap qismlarini tashkil etmagan mustaqil sodd gaplar deb tushunish ham mumkin (KT, To‘g‘). Bu turdagi qo‘shma gap qismlarining kesimlari ko‘pincha ot kesim bo‘ladi, sifatdosh va ravishdoshlarning ot xususiyati ham kuchli bo‘ladi, hatto ravishdoshlar mustaqil gaplarni tashkil eta oladi. Bora-bora qo‘shma gap qismlarining kesimlari fe‘l kesim shaklida ko‘proq qo‘llanadi. Bu hol ravishdosh va sifatdoshning fe‘llik xususiyati kuchli bo‘la borishi bilan izohlanadi.

Bundan qadimgi yodnomalarda fe‘l kesimlar qo‘llanmas ekan, degan xulosa kelib chiqmaydi. Qo‘shma gapni tashkil etgan qismlarning kesimlari fe‘l kesim shaklida ham bo‘lgan. Ammo kesim vazifasidagi fe‘llar asosan konkret harakat, holatlarni ifodalovchi darak-xabar ma‘nosida bo‘lgan so‘zlardir.

Hozirgi zamon tilida bog‘lovchisiz qo‘shma gapning turli mazmun turlari keng qo‘llanadi. Ammo qadimgi yodnomalarda bu mazmun turlarining ko‘plari juda kam uchraydi yoki asosiy mazmun munosabatlari payt va qiyoslash bilan bog‘lanadi. O‘rxun yodnomalarida sabab, shart-payt, izohlash munosabatlarning ayrimlari (qismlari ega, hol vazifasida bo‘lgan va umumiy izoh munosabatlari) kam uchraydi; ma‘lum bir mazmun turning hamma variantlari va shakllari ham qo‘llanavermaydi. Ayniqsa, qo‘shma gapning bir ko‘rinishi bo‘lgan ko‘chirma gaplarning ayrim turlari (muallif gapining ko‘chirma gap orasida yoki har ikki tomonida kelishi) so‘nggi davr yodnomalari (BN, Sh.tar.)da ham uchramaydi.

Bog‘lovchisiz qo‘shma gaplarning ayrim turlarining qo‘llanishi

tobora ortishi bilan barobar, bu tipdagi qo'shma gaplarning ayrim turlari kam qo'llana boshladi (Masalan: payt munosabati, ayniqsa, uning tobe munosabat ifodalovchi turi).

Hozirgi zamon o'zbek tilida bog'lovchisiz qo'shma gaplarning tuzilishi turli-tuman usullar yordami bilan bo'ladi. Qismlarning hech qanday grammatik bog'lovchisiz birikishi turli ohang, ayrim leksik vositalar; gap bo'laklarining ma'nosi, «gaplarning tuzilishi» yordami bilan bo'ladi; bog'lovchisiz qo'shma gap qismlari orasida ma'lum mazmun munosabatning belgilanishida shu qism kesimlarining zamon munosabati ham katta rol o'ynaydi.

Bog'lovchisiz qo'shma gap tuzishda xizmat qilgan bu usullar qadimgi yodnomalarda ham qo'llanadi, ammo farq shu yerdaki, qo'shma gap tuzishda xizmat qilgan usullarning ayrimlari kengroq qo'llangan bo'lsa, ayrimlarining qo'llanishi juda chegarali bo'lgan. Bunday keng qo'llanuvchi vositalarga eng avvalo ohang va gaplarning umumiy mazmun munosabatlari kiradi. Shuningdek, ba'zi hollarda gaplar tarkibida ayrim leksik vositalarning qo'llanishi yoki ayrim gap bo'laklarining mazmun munosabati ham gaplarni birlashtirib, qo'shma gap tuzishda, qo'shma gap qismlari orasida ma'lum mazmun munosabatlarining o'rnatilishida xizmat qiladi. Ammo qadimgi yodnomalar (KT, QB, QA, DLT) tilida qo'shma gapni tuzishda asosan sodda gaplarning mazmun munosabati asosga olinadi.

Shuni hisobga olish kerakki, har bir davrga oid bo'lgan yozma yodgorlik tilida (o'rxun yodnomalarida ham) arxaik qurilmalar bilan barobar, yangi, hozirgi zamon tilida qo'llanuvchi qurilmalarga yaqin bo'lgan qurilmalar ham mavjuddir.

V. Bog'langan qo'shma gap qurilmalari, qo'shma gapning boshqa turlariga nisbatan, hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida kamroq qo'llanadi. Bu turdagi qo'shma gaplarni tuzishda asosan teng bog'lovchilar va ayrim yuklamalar (*-u// -yu, da; faqat, hatto*) ishlatiladi. Bog'langan qo'shma gap qismlari orasida ma'lum mazmun munosabatlar o'rnatilishida boshqa qo'shimcha leksik va grammatik vositalarning ham roli katta. Bunday vositalarga qo'shma gap tarkibidagi ayrim gap bo'laklarining mazmuni, ba'zi leksik vositalar, kesimlarning zamon munosabati kiradi. Bu

grammatik va leksik vositalar orqali qiyoslash, payt, ayiruv, sababnatija, izohlash kabi mazmun munosabatlari ifodalanadi.

Bu mazmun munosabatlari bizga ma'lum bo'lgan eng qadimgi (VII – X asr) yozma yodgorliklarida ham mavjud edi. Ammo bu mazmunlarni ifodalash usuli, ichki mazmun guruh va ma'no turlarda ma'lum darajada farq bo'lgan. Bu farq ko'proq qo'shma gap qismlarini biriktirish — bog'langan qo'shma gap tuzish usulida ko'rinadi. Hozirgi zamon tilida bog'langan qo'shma gap tuzishda xizmat qilgan teng bog'lovchilar ko'pdan beri qo'llanib kelsa ham, ularning vazifasi toraygan yoki ayrimlariniki kengaygan. Masalan, *va* bog'lovchisi QB (XI asr) tilida ikki vazifada (payt va payt-qiyos) qo'llansa, Navoiy va Bobur tilida (XV–XVI asr) vazifa doirasi juda kengayib, 6 dan ortiq vazifada qo'llanadi (payt, qiyos, izoh, sababnatija, qo'shimcha ma'lumot, ishorat). Shunisi xarakterliki, *va* bog'lovchisining vazifa doirasi hozirgi zamon tilida chegaralangan.

Hozirgi zamon tilida ***ammo, lekin, biroq*** bog'lovchilari qo'shma gap tuzishda keng qo'llansa ham, yozma yodgorliklarda uning qo'llanishi birmuncha tor bo'lgan, shuningdek, ayiruv va inkor bog'lovchisining qo'shma gap tuzishdagi roli juda chegarali bo'lgan, ***balki*** bog'lovchisi bu vazifada qo'llanmagan. Yuklamalarning qo'shma gap tuzishdagi vazifasini deyarli uchratmaymiz. Shu bilan birga qadimgi davrga oid yozma yodgorliklar tilida ayrim leksik vositalar ham bo'lganki, ular bog'langan qo'shma gapga yaqin qurilmalarni tuzganlar. Bunday vositalarga ***azu, yemä, taqi, ab...ab*** vositalari kiradi. Bu vositalarning ichida ***taqi // dag'i*** vositaning vazifasi ayniqsa keng bo'lib, uning qo'llanishi XX asrning boshlarigacha davom etadi.

Hozirgi zamon tilida ko'rsatib o'tilgan vositalar yordami bilan tuzilgan qo'shma gaplar boshqa bog'lovchili (***yoki, na.. na, va***) bog'langan qo'shma gaplar bilan yoki bog'lovchisiz qo'shma gap qurilmalari bilan almashadi. Qo'shma gap qismlari orasida konkret mazmun munosabatlarni ifodalashda boshqa, yangi vositalar ham qo'llanadi, bunday vositalarga ***bo'lsa, esa, bo'lmasa*** fe'l shakllari kiradi. Shu bilan birga avvaldan ishlatilib kelgan ba'zi bog'lovchilarning (***ammo, lekin, biroq, yoki, goh, na***) qo'llanishi ortadi.

Umuman olganda, hozirgi zamon tilida bog'langan qo'shma gaplar, avvalgi davrlarga nisbatan, kengroq qo'llanadi. Buning asosiy sababi qo'shma gap qismlari orasidagi mazmun munosabatlarni aniqroq va ajratib ifodalashga intilishda, deb tushunmoq kerak. Ma'lum teng bog'lovchi yordami bilan qo'shma gap qismlari birlashtirilsa, ular orasidagi mazmun munosabat ham konkret bir tur bilan chegaralanadi yoki biror mazmun munosabat yetakchi bo'lib qoladi.

Buning boshqa bir sababi shuki, qo'shma gap qismlari orasidagi ma'lum mazmun munosabatlar qadimgi yozma yodgorliklar tilida turli leksik vositalar, hatto ayrim birikma va gaplar orqali ifodalangan bo'lsa, so'nggi davrlarda asta-sekin bu mazmun munosabatlarni ayrim bog'lovchilarni qo'llash orqali ham ifodalash mumkin ekanligi uqila bordi. Buning natijasida mavjud teng bog'lovchilar keng qo'llandi va yana yangi vositalar topildi.

Shu bilan birga, qo'shma gap qismlari orasida mazmun munosabatlarning yanada zichlanishi, o'zaro mazmun bog'liqlikning ortishi ular orasida ma'lum bog'lovchilarning ishlatilishiga yo'l ochdi.

VI. Ergash gapli qo'shma gaplarni, qismlarini tashkil etgan gaplarning tuzilishiga ko'ra, 3 xil guruhga bo'lish mumkin:

1. Qismlari ma'lum tobe bog'lovchilar yordami bilan birikkan qo'shma gaplar. Bu xil qo'shma gaplarning qismlari ma'lum mustaqillikka ega, grammatik jihatdan, oddiy gap tuzilishiga o'xshaydi.

2. Ergash gapning kesimi shart fe'li shaklida bo'lgan qo'shma gaplar. Bu turdagi ergash gaplarning ega va kesimi shaxsda moslashadi.

3. Ergash gapning kesimi sifatdosh yoki ravishdosh shaklida bo'lgan qo'shma gaplar. Bu turdagi ergash gaplarning ega va kesimi shaxsda moslashmaydi, bu xil qurilmalar mustaqil ravishda qo'llanmaydi. Shunga qaramasdan, ular ergash gapni tashkil etadi, chunki ularning tarkibida o'z ega, kesimi va ularda nisbiy fikr tugalligi bo'ladi. Tarkibida o'zining alohida ega va kesimi bo'lgan bu xil sifatdosh, ravishdosh qurilmalari so'z birikmasini emas, ergash gapni tashkil etadi.



Shunday qilib, ergash gapli qo'shma gaplar, tuzilishi jihatidan, qo'shma gapning boshqa turlariga o'xshab, bir xil bo'lmaydi.

Hozirgi zamon o'zbek tili ergash gapli qo'shma gaplar asosini sifatdosh, shart fe'li, ravishdosh boshqargan qurilmalar, tobe bog'lovchili va nisbiy olmoshli qurilmalar tashkil etadi. Ergash gapli qo'shma gaplar shakllanish jihatidan qo'shma gaplar ichida eng murakkab qo'shma gaplardir. O'zbek tilining o'ziga xos xususiyati qo'shma gaplarning ana shu bobida yaqqol ko'rinadi. Shuning uchun ham o'zbek, umuman turkiy tillarning sintaksisiga oid asarlarda asosiy diqqat ergash gapli qo'shma gaplarga qaratilgani bejiz emas.

Hozirgi zamon tilida sifatdosh qurilmasining asosini **-gan// -kan// -qan** shakli sifatdosh turi tashkil etadi. Bu holat qarqliq guruhi tillarining ko'piga xos bo'lib, bu tillar o'g'uz guruh tillaridan shu xususiyatlari bilan farqlanadilar.

Sifatdoshning **-gan// -kan// -qan** shakli keyingi davrlardagina taraqqiy etgan. Bu shakl o'rxun yodnomalari tilida uchramaydi. XI asr tilida bu shakl kam qo'llanadi. M. Koshg'ariy **-g'an// -gan** shaklli fe'llarni va ish-harakatning davomiyligini, predmetdagi mavjud doimiy xususiyatni ifodalovchi shakl — ismi foil sifatida ta'riflaydi (DLT, II, 44-bet). Sifatdoshning bu shakli keyingi davr yozma yodgorligi tilida (QA, N., BN, Sh.tar.) ko'makchilar, kelishik qo'shimchalari bilan birikib, birmuncha keng qo'llanadi. Bu shaklning turli-tuman vositalar bilan birikib, keng qo'llanishi, ayniqsa, hozirgi zamon o'zbek tiliga taalluqlidir: agar A. Qahorning «Sinchalak» povestida bu xil qurilmalar 370 marta qo'llansa, «Boburnoma»ning ana shuncha hajmdagi qismida faqat 136 marta ishlatiladi.

Shunisi xarakterliki, **-gan** shaklli sifatdoshning hech qanday boshqa shaklsiz, bosh kelishikda, aniqlovchi ergash gap maxsus turining kesimi sifatida qo'llanishi, sifatdoshning ma'lum shakllari bilan birikib kelganiga qaraganda yodnomalarda ancha ko'p uchraydi.

Bu sifatdosh shaklining turli-tuman vositalar bilan birikish imkoniyati va qo'llanish doirasining kengayishi bilan birga (va shularning ta'siri bilan), uning mazmunida ham o'zgarish ro'y berdi. Bu shakl, M. Koshg'ariy izohlagandek, ismi foilga moyil

shakliga bo'lib qolmasdan, ma'lum o'rinda, uning harakat-fe'llik xususiyati birinchi o'ringa o'tmoqda.

Sifatdoshning **-gan** shaklli turining keng qo'llana borishining sababi — bu shakl mazmunida fe'llik xususiyatining ortib borishi, demak, ma'lum gap qurilmasi, ayniqsa, ergash gap qurilmasini qo'llashga bo'lgan imkoniyatning yaratilishida deb bilmoq zarur. Yozma adabiyotlarda sifatdoshning bu shaklining keng qo'llana borishiga boshqa bir sabab — yozuv tilining xalq tiliga yaqinlashishi, forsiy-arabiy qurilmalar o'rniga, xalq tilida keng qo'llanuvchi sifatdosh qurilmalarni ishlatishga bo'lgan intilishda bo'lishi kerak.

Sifatdoshning boshqa shakllari ergash gap kesimi vazifasida hozirgi zamon tilida juda kam qo'llansa ham, yozma yodgorliklarda ergash gap kesimi vazifasida sifatdoshning **-gan // -kan // -qan** shakllaridan boshqa shakllari ancha keng qo'llanadi. Bunga avvalo sifatdoshning **-duk// -tuk** shakli kiradi. Bu shaklda KT yodnomalarida bosh kelishik, o'rin-payt kelishigi shaklida va turli vositalar bilan (*üchün, teb, erinch*) birikib, aniqlovchi ergash gapning maxsus turi, sabab, payt, to'ldiruvchi ergash gap vazifasida keladi. Sifatdoshning bu shakli Tf. va QA asarlarda ham uchraydi, ammo uning vazifasi bu yodnomalarda chegaralangan. Undan so'nggi yodnomalarda (N., BN, Sh.tar. v. b.) bu shakl uchratilmadi. Sifatdoshning **-mish// -mish** shaklining qo'llanishi KT, Toj yodnomalarida torroq bo'lsa-da, QA va Tf. da uning vazifasi ancha kengayadi. Ammo undan keyingi yodnomalarda bu shakl ergash gap kesimi vazifasida juda kam qo'llanadi. Hozirgi zamon tilida bu vazifada ishlatilmaydi. Sifatdoshning **-o'r// -ir** shaklining hozirgi zamon tilida ergash gap kesimi vazifasida kelishi juda chegaralangan. Bu shaklli sifatdoshning turli grammatik vositalar (**-da, uchun, ekan**) bilan birikib, ergash gap kesimi vazifasida kelishi QA va ayniqsa BN tili uchun xarakterlidir.

Shunday qilib, ko'rinadiki, o'zbek tilida, umuman qarluq guruhi tillarida, sifatdoshning turli shakllarini **-gan// -kam// -qan** shakli siqib chiqaradi va ularning vazifalarini ham egallaydi, bu shakllarning ba'zilari hozirgi zamon tilida butunlay qo'llanmaydi (**-duk// -tuk** va qisman, **-g'ma**), ba'zisining qo'llanishi juda chegaralangandir (**-ür, -ir**).

Hozirgi zamon tilida ravishdosh ergash gaplarning kesimi vazifasida ham ancha keng qoʻllanadi. Ravishdoshning **-(i)b**, **-gach**, **-guncha**, **-ma+y** shakllari payt, ravish, qiyoslash, shart, toʻsiqsiz ergash gaplarning kesimi vazifasida keladi.

Ravishdoshlarning ichida eng xarakterlisi **-(i)b** shaklli ravishdoshdir. Bu ravishdosh qurilmasida mazmun mustaqillik ancha kuchlidir. Shuning uchun ham shakl qismlari teng munosabatda boʻlgan qoʻshma gap qurilmalarini ham tashkil eta olgan. Hatto mustaqil sodda gapni ham tuza olgan.

Qadimgi yodgorliklar tilida **-(i)b** shaklli ravishdosh qurilmasining mustaqilligi yanada kuchli boʻlgan. U murakkab vazifalarni bajargan (KT, Toj. da payt-shart-sabab; DLT— holat-payt). Asta-sekin ravishdoshning bu qurilmasining vazifasi ajralib boradi, shu yoʻl bilan uning vazifa doirasi ham kengayadi («Boburnoma»da 7 xil vazifada keladi). Bu shaklning mazmunidagi murakkablik ayrim hollarda hozirgi zamon tilida ham saqlanadi va baʼzi bir vazifalari (shart, toʻsiqsiz, qiyoslash) qoʻllanmaydi. Buning sababi bu vazifalarni ifodalash uchun yangi va boshqa muvofiqroq vositalarning qoʻllanishidir.

Ravishdoshning **-guncha// -kuncha// -quncha** shakli hozirgi zamon tilida payt va qiyoslash ergash gapning kesimi vazifasida qoʻllanadi. Uning bunday vazifasi qadimdan (Tf., QA) maʼlum. Qadimgi yodnomalarda (XII—XIV) uning **-incha// -gʻicha// -gancha; -dukcha, -mishchā** shakllari ham uchraydi (Tf., QA). Ravishdoshning **-gach, -may** shakli haqida ham shuni aytish mumkin.

Shu bilan birga, ravishdoshning baʼzi shakllari hozirgi zamon tilida qoʻllansa ham, ular avvaldagidek, ergash gap tuzmaydi (**-a; -gali** shakllari), ergash gap kesim vazifasida qoʻllangan baʼzi ravishdosh shakllari esa hozirgi zamon tilida butunlay ishlatilmaydi (**-u// -yu, -madin**). Hozirgi zamon tilida bu shakllarning vazifasini ravishdoshning boshqa shakllari yoki boshqa bir vositalar oʻtaydi.

Hozirgi zamon tilida shart feʼli yolgʻiz oʻzi yoki nisbiy olmoshlar bilan birga turli ergash gaplarning kesimi vazifasida ancha keng qoʻllanadi.

Bu fe'li shakli yozma yodgorliklarda uchrasa ham, hozirgi zamondagi kabi keng qo'llanmagan: «Sinchafak»da 253 marta qo'llanganda, shuncha hajmdagi «Boburnoma»da 66 marta qo'llanadi, xolos. Buning sababi – avvalo ayrim mazmun munosabatlari uchun shart shaklidan boshqa vositalar qo'llangan bo'lsa, ikkinchidan, shart fe'li vazifasini aniqlik fe'li ham bajara olgan (*māndi hām ... keldi ersā*).

Shart fe'li boshqargan qurilmalar qadimda mazmunan hozirgi davrdagiga nisbatan mustaqillikka ega bo'lgan.

Shart fe'li boshqargan qurilmalarning mazmuni dastlabki yodnomalarda ancha murakkab bo'lgan: ayniqsa, shart va payt mazmuni bir-biridan ajralmaydi, birlikda ifodalanadi.

Keyinroq shart fe'li orqali payt munosabatini ifodalash ikkinchi rejaga o'tadi.

Shart fe'li to'siqsizlik munosabatini ifodalash uchun xizmat qilgan. Keyinroq *ham* yordamchisini keltirish yo'li bilan to'siqsizlik mazmuni yangi shaklga ega bo'ladi.

Ergash gaplarning shakllanishida nisbiy olmoshlarning ham roli katta bo'lgan. Nisbiy olmosh ishtirok etgan qo'shma gaplarning shakllanishida bog'lovchisiz qo'shma gaplar asos bo'ldi. Qo'shma gap qismlari orasidagi logik aloqa ayrim so'roq va ko'rsatish olmoshlarini va ba'zi ravishlarni nisbiy olmoshga aylantirdi.

Hozirgi zamon tilida nisbiy olmoshlar turli-tuman ergash gaplar tuzishda qo'llanadi. Bu xil ergash gaplarning kesimi shart fe'li shaklida bo'ladi. Nisbiy olmoshlarning ayrimlari bizga ma'lum bo'lgan eng ibtidoiy yodnomalardayoq (KT, Toj) shakllanib yetgan edi. Ammo ular juda kam bo'lib, asosan korrelyativsiz qo'llanadi. Keyingi davr yodnomalarida nisbiy olmoshlarning soni orta boradi va korrelyativ so'zlar bilan birga qo'llanishi ko'p uchraydi. Hatto Navoiy tilida nisbiy olmoshlarning qo'llanishi hozirgi davrga nisbatan ham ko'proqdir. Buning sababi qo'shma gap qismlari orasida mazmun munosabatlarini aniq ifodalashga intilishdir. Nisbiy olmoshlarning qo'llanishidagi boshqa bir xususiyat shundaki, bu xil olmosh ishtirok etgan qurilmalarning kesimi DLT, QBda shart va aniqlik fe'li shaklida bo'lsa, N., BN tilida asosan aniqlik fe'li shaklida bo'ladi. Faqat Sh.tar. ga kelib, bu xil qurilmalarning kesimi

asosan shart fe'li orqali ifodalanib, hozirgi zamon tiliga yaqinlashadi (kesim aniqlik fe'li bo'lganda, tobe munosabatni ko'rsatuvchi asosiy belgi nisbiy olmosh bo'lib qoladi).

Nisbiy olmoshlarning shakl, mazmun va vazifasida ham ma'lum o'zgarishlar ro'y beradi (*qach, qachon; ney, ne, nimä; netäk, qanday; andaq, shunday; bu, ul* olmoshlari *shunday* olmoshi ma'nosida ham qo'llangan); nisbiy olmosh ishtirok etgan ergash gap qurilmalarining miqdori ham orta boradi.

Tobe bog'lovchi yordami bilan shakllangan ergash gaplar hozirgi zamon tilida uncha katta o'rinni egallamaydi. Agar «Sinchalak» povestida bu xil ergash gap qurilmalari 81 marta uchrasa, «Boburnoma»da shunday hajmdagi matnda bunday qurilmalar 837 marta qo'llanadi. Buning sababi – fors-tojikcha va qadimgi turkcha ayrim bog'lovchilar iste'moldan chiqishi (*chün, nechünkim, hävujudi, birük, abay, qali*) va ayrim bog'lovchilarning vazifa doiralari torayishi (*-ki, -tä, chünki*) bo'ldi. Iste'moldan chiqqan va vazifa doirasi toraygan bog'lovchilar tuzgan qurilmalar o'rniga asl o'zbekcha qurilmalar (sifatdosh qurilmalari, bog'lovchisiz qurilmalar) qo'llanadi. Ayrim bog'lovchilarning esa vazifali qimmatini susayadi; *ügür, ügürchi, mägür* bog'lovchisi yozma yodnomalarda keng qo'llanib, bu xil qurilmalarning kesimi mustaqil shaklda bo'ladi (aniqlik fe'li, ot kesim). Bu holda qo'shma gap qismlari orasidagi shart, to'siqsizlik, qiyoslash kabi munosabatlarni ko'rsatib turuvchi belgi shu bog'lovchilar bo'ladi. Keyinroq, Sh.tar.dan boshlab, *ügür, ügürchi, mägür* bog'lovchilari ishtirok etgan ergash gapning kesimi shart fe'li shaklida bo'ladi. Bu holda qo'shma gap qismlari orasidagi shart, to'siqsiz, qiyoslash kabi munosabatlar shart fe'lining o'zi orqali ham ifodalanadi. Bu hol ko'rsatilgan bog'lovchilarning vazifa qimmatini susaytirishga olib keladi.

*-kim// -ki* bog'lovchisining tarixiy taraqqiyoti xarakterlidir. Bu bog'lovchi dastlabki yodnomalarda tor vazifada qo'llangan bo'lsa-da, keyinroq, asosan N. va BN tilida uning vazifa doirasi nihoyatda kengayib, yolg'iz o'zi II xil vazifada ishlatiladi. Fors-tojikcha *-ki* bog'lovchisining ham vazifasini ifodalay boshlaydi.

Agar «Boburnoma»dagi tekshirilgan bir qismda *-kim// -ki*

qurilma 678 marta qo'llansa, «Sinchalak» povestida hammasi bo'lib 11 marta qo'llanadi, xolos.

Keyingi yozma yodgorliklarda, asosan Sh.tar.da va ayniqsa hozirgi zamon tilida bu bog'lovchining vazifa doirasi juda chegaralangan.

Buning sababi — fors-tojikcha qurilmalardan voz kechilib, yozma adabiy tilning xalq tiliga yaqinlashtirilishi, xalq tilida qo'llanuvchi qurilmalar bilan almashtirilishidir. *-kim// -ki* ishtirok etgan fors-tojikcha qurilmalar o'rmini asosan sifatdosh qurilmali qo'shma gaplar va ayrim hollarda bog'lovchisiz qo'shma gap qurilmalari egallaydi.

*Deb* fe'li shakli eng qadimgi yozma yodnomalardayoq qo'shma gap qismlarini birlashtiruvchi bir vosita sifatida qo'llanadi (*tep, teyin; teyü* shakllarida). Bu vositaning qo'llanishi tobora ortib boradi va hozirgi zamon tilida keng qo'llanadi (*deb, deya, desa, degan, deganni, deganga, deganda, degandan* va boshqa shakllarida).

Tekshirish, bir tomondan, tobe bog'lovchilarning vazifasi keng bo'lganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, tobe bog'lovchili (shuningdek, nisbiy olishli) qurilmalarning kesimi mustaqil shaklda (*verbum finitum* shakli) qo'llanganini ko'rsatadi. Faqat so'nggi yodnomalarda va hozirgi zamon tilida bu xil qurilmalarning kesimi tobe shakl (sifatdosh, ravishdosh, shart fe'li)da bo'ladi. Bu hol avvalo qo'shma gap qismlarining mazmunan ancha mustaqil bo'lgani, bora-bora ikkinchi bir gapga tobe bo'lib, uning izohlovchisiga aylanib, mustaqilligini yo'qota borganini va shu mazmuniga muvofiq, tobe shaklga ega bo'lganini ko'rsatadi.

Ergash gaplarning shakllanishida kelishiklar (asosan, o'rin-payt va chiqish kelishiklari) va ko'makchilarning ham roli bo'lgan. Hozirgi zamon tilida bu vositalar juda keng qo'llanadi.

- I. Qo'shma gaplar tarixiga oid jadvallr.
- II. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi fani bo'yicha testlar.
- III. Mustaqil mashg'ulotlar uchun mavzular.
- IV. Tahlil uchun matnlar

## I. QO'SHMA GAPLAR TARIXIGA OID JADVALLAR

Qo'shma gap qurilmalarining tarixiy taraqqiyoti – uning shakllanishi, qo'llanish darajasi, shakliiy hamda mazmunan takomillanishini ko'rsatish uchun jadvallardan foydalanildi. Bu jadvallar ikki xil:

1. Boburning «Boburnoma» asaridan olingan qo'shma gaplar A.Qahhorning «Sinchalik» povestidan olingan xuddi shunday hajmdagi (8 bosma toboq) qo'shma gap qurilmalariga qiyoslab o'tildi.

2. Qiyosiy jadvallar. Bu jadvallar mazkur ish bo'yicha tekshirilgan butun til materiallarining tahlili asosida, ularning xulosasi sifatida maydonga keldi. Bunda Kultegin va Tonyuquq yodnomalari (VIII asr), «Qutadg'u bilig» (XI asr) yodnomalari, «Qissasul anbiyo» (XIII–XIV asrlar), Navoiyning «Mahbubul qulub» (XV asr) asarlari, Z.M. Boburning «Boburnoma» asari (XVI asr), Abulg'ozining «Shajarai tarokima» (XVII asr) asari, XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida nashr etilgan, jonli xalq tiligan ancha yaqin bo'lgan «Turkiston viloyati gazetisi» tilidagi qo'shma gap qurilmalari va hozirgi zamon o'zbek adabiy tiliga bir xil hajmdagi (4 b.t.) matnlar qiyoslab o'tiladi.

*Eslatma:* Jadvallardagi ayiruv ishorasi (–) qayd qilingan qurilma, bog'lovchi v.b. yo'qligini, qo'shuv ishorasi (+) borligini ko'rsatadi.

### 1. Boburning «Boburnoma» asarida va A. Qahhorning «Sinchalik» povestida qo'llangan qo'shma gaplar jadvali Sodda va qo'shma gap qurilmalari

1-jadval.

GAP QURILMALARI		MIQDORI	
Turi	Guruh	«Boburnoma»	«Sinchalak»
Qo'shma va sodda gap qurilmalari		3957	3855
Sodda gaplar		1761	1487
Qo'shma gaplar		2196	2368
	Bog'lovchisiz qo'shma gaplar	657	1222
	Ergash gapli qo'shma gaplar	1325	916
	Bog'langan qo'shma gaplar	239	230

2-jadval.

## BOG'LOVCHISIZ QO'SHMA GAPLAR

Mazmuni	Kesimlarining zamon munosabati		Miqdori	
			BN	Sinchi.
1. Payt munosabati			131	127
	1. Bir xil zamon		128	123
		O'tgan zamon	69	72
		Hozirgi zamon	54	47
		Kelasi zamon	5	4
	2. Turli zamon		3	4
2. Qiyoslash munosabati			97	135
	1. Bir xil zamon		94	125
		O'tgan zamon	58	81
		Hozirgi zamon	27	38
		Kelasi zamon	9	2
	2. Turli zamon		3	14
3. Sabab - natija munosabati			159	74
	1. Bir xil zamon		141	58
		O'tgan zamon	124	41
		Hozirgi zamon	17	8
		Kelasi zamon	-	9
	2. Turli zamon		17	16
4. Sabab - natija - payt munosabati. Birinchi qismning kesimi -ib: r/s edi	O'tgan zamon		32	-



5. Ikkinchi qism – sabab			15	113
6. Izohlash			197	609
7. Shart-payt			75	44
8. Maqsad			6	4

3-jadval.

### BOG‘LANGAN QO‘SHMA GAPLAR

Vosita	Vazifa	Miqdori	
		BN	Sinch.
Teng bog‘lovchilar::		146	155
<i>lekin, birâq, ammâ, vale</i>	qiyoslash qiyoslash	– 30	132 –
	a) zidlik, qiyos, nomuvofiqlik b) chegaralash, baholash, qiyoslash	16 14	– –
<i>bälki</i> va <i>nâ yâki</i> <i>ham</i> <i>nâ</i>	ayiruv ayiruv payt (inkor)	4 24 1 84 3	– 17 4 1 1
Bog‘lovchi vazifasidagi vositalar		93	10
<i>esa, bo‘lmasa, bo‘lsa, yo‘qsa, nega desangiz</i> <i>dâg‘i</i> <i>yana</i> <i>Yoq ersâ</i> Yuklama (-u/-yu, -da)	qiyoslash qiyoslash qiyoslash	– 15 74 4 –	12 – – – 65

4-jadval.

### ERGASH GAPLI QO‘SHMA GAPLAR

I. Sifatdosh	Shakllanishi	Miqdori	
		BN	Sinch.
	I. Sifatdosh kesimli ergash gap	215	284
	I. Bosh kelishik	31	36
<i>-gân// -kân// -g‘an// -qan</i> <i>-(u) r</i> <i>degân</i>		25 6 –	22 – 74

473

	2. Ko'makchilar bilan	17	55
-gân/-kân/-qan/-g'an	uchun, burun bilä beri dey säri, säyin, qaramay, kovä cha	6 5 1 2 2 -	19 - 6 15 11 4
-(u) r	üchtün-	1	-
	3. Yordamchi vazifasidagi so'zlar	61	66
gân/-kân/-qan/-g'an	payt, häl, kun v.b keyin	- 25	28 37
gân/-kân/-qan/-g'an	mahal, jihät, burun, fursat, chäg'	20	1
-(u) r		16	-
	4. Kelishiklar bilan	105	119
-gân/-kân/-qan/-g'an	a) O'rin-payt kelishigi	96	109
ekän		71	82
-(u) r		15 10	27 -
	b) Chiqish kelishigi bilan	9	10
-gân/-kân/-qan/-g'an	-gân/-kân/-qan/-g'an //-masdan	9 -	8 2
-gân/-kân/-qan/-g'an boshqa shakllar	ergash gaplar	171 44	272 12
II. Ravishdosh	II. Qo'shma gap turlari	133	87
-(i) b	Sabab-natija-payt munosabati Bog'lovchisiz qo'shma gap (payt munosabati) Qiyoslash ergash gap To'liqsiz ergash gap Ravish ergash gap Payt ergash gap Shart ergash gap	42 11 17 3 2 4 4 1	68 29 12 - - 18 9 -
-günchä/-küncha, - quncha/-g'uncha	Payt ergash gap Qiyos ergash gap	28 26 2	11 11 -

-g'ach/-k'ach/-q'ach/- g'ach -ma+y	Payt ergash gap Shart-payt ergash gap Bog'langan qo'shma gap	46 2 1	6 2 -
-a'ā -g'ali	Payt ergash gap Sabab ergash gap	13 1	- -
III. Shart fe'li	III. Ergash gap turlari	57	173
-sa	Shart mazmuni Shart-payt mazmuni Qiyoslash mazmuni Umumiy izoh Payt mazmuni To'siqsizlik mazmuni	27 12 4 7 2 5	84 25 17 45 2 -
-sa ham -sa edi	To'siqsizlik mazmuni Irréal shart	1 8	61 -
IV. Buyruq fe'li	IV. To'siqsizlik	1	16
V. Harakat nomi		-	16

5-jadval.

### ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

Turi	Qanday vositalar bilan qo'llanishi	Miqdori	
		BN	Sinch.
II. Nisbiy olmoshlar		111	38
Här kim	Aniqlik fe'li bilan	24	-
Här kimmikim		2	-
Här kimgakim		-	-
Nekim		7	-
Här nimakim		-	-
Nechükim		4	-
Andaqkim		1	-
Andaqe		-	-
Här necha		8	-
Ul martabadakim		3	-
Andaq, Andaq boldi		1	-
Mundaq	-kim bog'lovchisi bilan	62	16
Bu ( <i>shunday</i> o'rnida ham)		27	-
Ul ( <i>shunday</i> o'rnida ham)		4	-
O'shmuncha		9	-
		5	-

Muncha, munda		1	-
Kim-ul		17	-
Här Kim	Shart fe'li	25	22
Här kimki		1	-
Här kishi		8	-
Här ne		3	-
Här qaysi		1	-
Här yerda		3	-
Här sarig'a		1	-
Här qachan		3	-
Nima		1	-
Qanchalik, shünchälik,		2	-
qachan v.b.		-	-
		-	8
			14

6-jadval.

### ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLAR

Turi	Qanday vositalar bilan qo'llanishi	Vazifasi	Miqdori	
			BN	Sinch.
III. Tobe bog'lovchilar va vositalar			819	240
Chün	Aniqlik fe'li	Sabab ergash gap To'siqsiz ergash gap Payt ergash gap	51 2 3	- - -
Ägär, ägärchi, gärchi	Aniqlik fe'li		58	18
Ägär	Shart fe'li		13	17
	Aniqlik fe'li	Shart-payt	10	-
Ägärchi, gärchi	Aniqlik fe'li	To'siqsiz ergash gap	35	1
<i>Nechükkim</i>	Aniqlik fe'li	Ikkinchi qism-izoh Ikkinchi qism-sabab	22	-
<i>Ne tüchünkim</i>	Aniqlik fe'li		4	-
<i>Nechünkim</i>	Aniqlik fe'li	Ikkinchi qism-sabab	1	-
<i>Negäkim</i>	Aniqlik fe'li	Ikkinchi qism-sabab	1	-
<i>Bavujidi kim</i>	Aniqlik fe'li	To'siqsiz ergash gap	12	-
To	-g'ay/-qay/-käy/-gäy	Maqsad ergash gap	5	-
	Aniqlik fe'li	Payt ergash gap	3	-
	Ravishdosh(-günchä)	Payt ergash gap	1	-
		Payt ergash gap	1	-

-Kim bog'lovchisi	Mustaqil kesim	shakldagi	Aniqlovchi ergash	648 330	11 2
	Mustaqil kesim	shakldagi	gap	37 31	2 5
	Mustaqil kesim	shakldagi	Kesim ergash gap	93	
	Mustaqil kesim	shakldagi	Ega ergash gap	56	1
	Mustaqil kesim	shakldagi	To'ldiruvchi	35	2
	Mustaqil kesim	shakldagi	Maqsad --//--	22	--
	Mustaqil kesim	shakldagi	Payt --//--	17	--
	Mustaqil kesim	shakldagi	Payt --//--	2	--
	Mustaqil kesim	shakldagi	Natija --//--	4	--
	Mustaqil kesim	shakldagi	Natija --//--	19	--
	Mustaqil kesim	shakldagi	Sabab --//--		
	Mustaqil kesim	shakldagi	To'siqsiz --//--		
	Mustaqil kesim	shakldagi	Shart --//--		
	Mustaqil kesim	shakldagi	Bog'langan qo'shma gap		
Yoyi ishorat	Aniqlik fe'li		Aniqlovchi ergash gap	5	--
Deb fe'li De yordamchisi-ning boshqa shakllari	- kim bog'lovchisiz desa, degän, degändä. degängä, deyishni degänday  <i>üchün, jihatdun</i>		To'ldiruvchi ergash gap	12	50
			To'ldiruvchi, aniqlovchi, ergash gaplar		96
			payt, qiyos Sabab ergash gap	--	
Ot kesimli qurilish				5	1

## 2. Qiyosiy jadvallar

1-jadval.

### 2.1. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar taraqqiyotiga doir jadvallar

Ur	Qo'shma gap qismlari orasidagi mazmuniy munosabatlar	KT. Toj. (VIII asr)	QB (XI asr)	QA (XII-XIV asr)	MQ (XV asr)
		Xususiyati .	Xususiyati	Xususiyati	Xususiyati
I.	<b>Payt (teng munosabat)</b>	1) qismlarda mazmuniy mustaqillik kuchli 2) sifatd. yoki boshqa so'z t. ifodalangan ot kesim 3) bog'lov. leksik vazifa: <i>anta kisra amti</i>	1) +  2) fe'l kes. ham qo'llanadi  3) <i>emdi. andin kegin</i>	1) mazmuniy mustaq. saqlanadi  2) +  3) <i>anda. ul vaqtda, emdi. andin keyin v.b</i>	1) mazmuniy aloqa yaqin  2) ot va fe'l kesim  3) leksik vositalar kam
II.	<b>Qiyoslash</b>	1) kam qo'llangan: mazmuniy mustaqillik 2) qismlardagi umumiy mazmun qiyosi	1) mazmuniy mustaqillik  2) +  3) bog'lovchi vosita <i>emdi</i>	1) Mazmuniy yaqinlik  2) umumiy mazmun va ayrim bo'laklar qiyosi 3) <i>Yoq ersa: buyruq fe'li</i>	1) +  2) ayrim bo'laklar qiyosi ortadi  3) to'liqsizlik mazmuni
III.	<b>Sabab-natija</b>	1) kam qo'llanadi. Mazmuniy mustaqillik	1) +  Payt munosab. bilan bog'langan  2) natija-sabab munosabati  3) bog'. <i>emdi. buy fe'li. Fe'li: so'roq gap shakli</i>	1) +  Payt va maqsad bilan bog'lanadi  2) +  3) aniq uchun ( <i>kim. bu jihat. sabab: so'roq gap shakli</i> )	1) keng qo'llanadi  2) +  3) +
IV.	<b>Shart-payt</b>	Kam qo'llanadi	Qo'llanadi	+	+

I-jadval davomi.

V.	Payt (tobe munosabat)	1) kam qo'llanadi 2) murakkab 3) bog'l. <i>bunga</i> . aniqlik fe'li; ohang	1) kam qo'llanadi 2) boshqa mazmun munosabati bilan bog'lanadi 3) Aniq fe'li. ohang.	1) + 2) + 3) +	1) qo'llanadi 2) yolg'iz ham ifodalanadi 3) +
VI.	Izohlash	1. Aniqlash (ot yoki olmosh izohi) 2. To'ldirish (ko'chirma gap shaklida) 3. Bog'lanish: xabar anglatuvchi fe'l kesimlar —	1. + 2. To'ldirish (ko'chirma v.b.gap shakllari) 3. Bog'lanishi: xabar anglatuvchi fe'l. kesim va so'roq gap — 5. Umumiy izoh	1. + (keng qo'llanadi) 2. + 3. + 4. Ega vazifasida 5. Hol vazifasida	1. + 2. + 3. + 4. + 5.+So'nggi ikkinchisi kam qo'llanadi

I-jadval davomi.

t/r	Qo'shima gap qismlari orasidagi mazmuniy munosabatlar	BN (XVI asr)	Sh.tar. (XVII asr)	TVG (XIX-XX asr)	Hozirgi zamon tili	
		Xususiyati	Xususiyati	Xususiyati	Munosabati	Eslatma
1.	Payt (teng munosabat)	1) + 2) + 3) Ba'zi mahaf. yana. andin sonra v.b.	1) + 2) + 3) <i>andin soy. ul vaqtda v. b.</i>	1) Mazmuniy aloqa zich 2) + 3) +	1) Mazmuniy aloqa zich 2) + 3) Leksik vositalar kam qo'llanadi	Bunday qurilmalarning qo'llanish doirasi torayadi

1-jadval davomi.

II.	Qiyoslash	1) + 2) + 3) +	1) + 2) + 3) + .	1) + 2) + 3) +	1) + 2) + 3) Yangi leksik vositalar	Ayrim turlari bog'lovchili qurilma bilan almashadi. Ichki differenziya ro'y beradi.
III.	Sabab-natija	1) + 2) + 3) +	1) + 2) + 3) leksik vositalar kam	1) keng qo'llanmaydi 2) + 3) +	1) + 2) + 3) +	Ayrim turlari bog'lovchili qurilma bilan almashadi
IV.	Shart-payt	Kam qo'llan.	Qo'llanadi	+	+	Ko'p o'rinda shart va payt munosabatiga ajraladi
V.	Payt (tobe munosabat)	1) keng qo'llanadi 2) + 3) <i>unda, u fursatda</i>	1) kam qo'llanadi 2) + 3) +	1) kam qo'llanadi 2) + 3) <i>turli shakl</i>	1) + 2) + 3) +	Sifatdosh kesimli ergash gaplar bilan almashadi (asosan)
VI.	Izohlash	1. + 2. + 3. + 4. + 5. +  So'nggi ikkisi tor qo'llanadi	1. + 2. + 3. Ko'chirma gapdan boshqa shakllar qo'llanadi 4. + 5. + 6.-	1. + 2. + 3. + 4. + 5. + 6.-	1. +  Keng qo'llanadi. Olmosh turli vazifa 3. +  4. + 5. Olmosh va ravish izohi. keng 6.-	Ko'chirma gaplarning ayrimlari o'zlashtirma gap bilan almashadi. Bu turdagi gaplarning o'rinlashishida ham o'zgarish ro'y beradi.  Ko'chirma gapning yangi turlari kelib chiqadi. Ega, hol, aniqlash vazifali qo'shma gaplar tobora keng qo'llanadi



**2.2. Bog'langan qo'shma gaplar taraqqiyotiga doir jadvallar  
(Bog'lovchi vositalar taraqqiyoti)**

2-jadval.

t/r	Bog'lovchi vositalar	KT. Toj. (VIII asr)	QB (XI asr)	QA (XII-XIV asr)	N. MQ (XV asr)
		Vazifasi	Vazifasi	Vazifasi	Vazifasi
1.	<i>Yemā</i>	1. Ta'kid	1. Qo'shimcha izoh	+	+
2.	<i>Azu</i>	2. Qo'shimcha izoh Qiyos-izoh, ayiruv	+	-	-
3.	<i>Yāndā</i>	+	Qo'shimcha ma'lumot	+	+
4.	<i>Taqī//dag'ı</i> <i>//tag'ı</i>	+	1) qo'shimcha ma'lumot 2) ta'kid	1) + 2) + 3) maqsad 4) sabab natija	1) 1) + 2) 2) + 3) kam qo'llanadi -
5.	<i>Ya</i>	-	QB: 1) payt 2) payt-qiyos ( <i>lekin, bilān</i> ) kam qo'llanadi	1) + 2) + <i>vale, valekin</i> 2) qiyos	1) + 2) qiyos 3) izoh 4) sabab-natija 5) qo'shimcha ma'lumot 6) yoyi ishorat, ishora
6.	<i>Han</i>	-	QB: 1) ta'kid 2) qo'sh. ma'lumot	1) + (kam) 2) + (ko'p)	1) + 2) +
7.	<i>Lekin, ammā, birāq</i>	-	QB: <i>lekin</i> 1) zidlash 2) nomuvofiq; kam qo'llanadi	<i>Ammā</i> (asosan) 1) + 2) + 3) qo'sh. ma'lumot	<i>Ammā, vale, lekin</i> 1) + 2) + 3) + 4) to'siqsiz
8.	<i>Yā, yāki, yāhud gāh, gāha</i>	-	QB: <i>Yā</i> 1) ayiruv 2) qo'sh. ma'lumot	<i>Yā, yāhud:</i> 1) + 2) -	<i>Yā yāhud, gāh</i> 1) + 2) -
9.	<i>Ne-ne, Ab-ab (DLT)</i>	- -	1) inkor - 2) ayiruv	+ -	+ -
10.	<i>Yo'q ersā</i>	-	-	Qiyos	+

2-jadval davomi.

t/r	BN (XVI asr)	Sh.tar. (XVII asr)	TVG (XIX-XX asr)	Hozirgi zamon tili	
	Vazifasi	Vazifasi	Vazifasi	Munosabati	Eslatma
1.	-	-	-	-	<i>Ham, tag'in bilan almashadi.</i>
2.	-	-	-	-	Qo'llanmaydi
3.	1) yoyi ishora	1) +	1) juda kam qo'llanadi	Qo'shuna gap tuzmaydi	Ravishga aylangan
4.	1) + 2) + 3) kam qo'llanadi -	1) + 2) + 3) + 4) + 5) izoh	- - -	- - -	Ko'p o'rinda bog'lovchisiz qurilma bilan almashadi.
5.	1) + 2) + 3) + 4) + 5) + 6) + (juda keng)	1) + 2) + 3) - 4) + 5) - 6) + (keng qo'llanadi)	1) + 2) + 3) + 4) + 5) + 6) + (tor qo'llanadi)	Kam qo'llanadi + - - - -	Kam, ba'zan hamda shaklida qo'llanadi
6.	1) + 2) + 3) yoyi ishorat	1) + (juda kam) 2) + -	1) tor 2) + -	Asosan 2-holat	<i>Kam, ba'zan hamda shaklida qo'llanadi</i>
7.	Vale, ammâ, birâq 1) + 2) + 3) + 4) + 5) chegarlash	Ammâ (asosan) 1) + 2) + 3) + 4) + 5) +	Lekin, ammâ 1) + 2) + 3) + 4) + 5) +	<i>Lekin, aminâ, bilan barâbar, birâq keng qo'llanadi</i>	Hozirgi o'zbek adabiy tilida (vale dan tashqari) qo'llanadi
8.	+ 1) + 2) -	<i>Asosan gâh.</i> 1) + 2) -	<i>Yâ, gâh:</i> 1) + 2) - Kam qo'llanadi	Turli shakllarda qo'llanadi	Keng qo'llanadi
9	+	+	+		<i>Yo'qsa shaklini oladi</i>
10	+	+	+		<i>Yo'qsa shaklini oladi</i>

## 2.3. Ergash gapli qo'shma gaplar taraqqiyotiga doir jadvallar

### 2.3-a. Sifatdoshi qurilmalar

3-jadval.

№	Shahin	KT. Toj. (VIII asr)		QB (XI asr)		QA (XII-XIV asr)		N. MQ. (XV asr)		BN (XVI asr)		Sh. ar. (XVII asr)		TVG (XVIII asr)		Hozirgi o'zbek asabiy tili
		Qanday vosita bilan	Ergash gap	Qanday vosita bilan	Ergash gap	Qanday vosita bilan	Ergash gap	Qanday vosita bilan	Ergash gap	Qanday vosita bilan	Ergash gap	Qanday vosita bilan	Ergash gap	Qanday vosita bilan	Ergash gap	
1.	shar - ma	1) bosh k.k. 2) erinchi 3) uchun 4) -da 5) top	Asqolovchi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	Sifatdosh va samandir. Qo'llanuvchi. Ergash gap ko'pincha sifatida qo'llanuvchi
2.	shar/-lik	1) bosh k.k. 2) erinchi 3) uchun 4) -da 5) top	Sabab	+	Aniqlovchi	1)+	+	-	-	-	-	-	-	-	-	Ergash gap ko'pincha sifatida qo'llanuvchi
3.	shar - mish	1) bosh k.k.	Asqolovchi	+	+	1)+	+	-	-	-	-	-	-	-	-	Ergash gap ko'pincha sifatida qo'llanuvchi
4.	shar/-lik	1) bosh k.k.	Shart	1)- 2) bosh k.k. 3) ritar	- Aniqlovchi Pag1	1)- 2)+ 3)+ 4) uchun 5) -da	+	+	+	+	+	+	+	+	+	Aniqlovchi yoki pag1 ergash gap ko'pincha ta'riflarda kum qo'llanadi
5.	shar/-lik/-san	-	-	1) bosh k.k.	Aniqlovchi	1)+	+	1)+	+	+	+	+	+	+	+	Sifatdoshlik turli-boson shakllari ko'pincha vaqtosida kum qo'llanadi

### 2.3-b. Ravishdoshli qurilmalar

4-jadval.

t/r	Shakl	KT. Toʻq. (VIII asr)	QB (XI asr)	QA (XII-XIV asr)	MQ (XV asr)
		Vazifasi	Vazifasi	Vazifasi	Vazifasi
1.	<i>-n//b, -ibon</i>	1) bog'langan q.g. 2) payt-shart - sabab	1) +  2) - 3) holat-payt 4) shart 5) sabab-natija	+  - + + +	+  - + + +
2.	<i>-u//yü</i>	-	1) ravish-sabab- natija 2) to'siqsiz	+  -	-  -
3.	<i>-a//ä</i>	-	Ravish-payt	+	-
4.	<i>-madin</i>	-	-	Ravish-sabab, natija	-
5.	<i>inchä//ginchä// gichä//güncha// gänchä (Tf, QA: - diikcha, -mishchä)</i>	-	1) payt-shart  2) qiyos	+  +	+  +
6.	<i>-gäli//käli//qali</i>	-	-	Maqsad	-
7.	<i>-gäch//käch// qach// -g'ach</i>	-	-	Payt	+
8.	<i>-(ma) y</i>	-	-	-	1) payt 2) sabab- ravish

4-jadval davomi.

t/r	Shakl	BN (XVI asr)	Sh.tar. (XVII asr)	TVG (XIX-XX asr)	Hozirgi zamon tili	
		Vazifasi	Vazifasi	Vazifasi	Vazifasi	Eslatma
1.	<i>-p/-b, -ibon</i>	+	+	+	Bu xil ravishdosh qurilmaning mazmuni differensiyalashadi	
		-	-	-		
		+	+	+		
		+	+	+		
		6) sabab	+	+		
2.	<i>-u/-yli</i>	-	-	-	Qo'llanmaydi	
		-	-	-		
3.	<i>-a/-ä</i>	+	-	-	Qo'shma gap tuzmaydi	
4.	<i>-madn</i>	-	-	-	Qo'llanmaydi	
5.	<i>-inchä// ginchä// gichä// günchä// gänchä (TF. QA: - dükchä, -mishcha)</i>	+	+	+	Paytga moyillashadi; qiyos ko'proq qo'llanadi	
6.	<i>-gäli// käli// qalı</i>	-	-	-	Qo'shma gap tuzmaydi	
7.	<i>-gäch// käch// qach// g'ach</i>	+	+	+	Keng qo'llanadi	
8.	<i>-(ma) y</i>	+	+	+	Nisbatan keng qo'llanadi	
		+	+	+		
			(kam qo'llanadi)			



2.3-e. Tobe bog'lovchili qurilmalar

6-jadval.

t/r	Shakl	K.T. Toj. (VIII asr)	QB (XI asr)	QA (XII-XIV asr)	N. MQ (XV asr)
		Vazifa	Vazifa	Vazifa	Vazifa
1.	Birøk	Shart	-	-	-
2.	Abaj	+	-	-	-
3.	Qali		1. Shart-payt 2. Shart	- -	- -
4.	tep. teyin (VIII asr), teyii (XI-XII asrlar), deb	1. Maqsad 2. To'ldirish 3. Sabab	+ + +	+ + (kam) +	+ + (kam) +
5.	Ami uchün, antag'iqm  Üchün (VIII asr)	1. Sabab	-	1. Sabab-natija  2. Natija-sabab (-kim bilan)	+  + ne tichün (kim)
6.	Ägar (ögärchi). mägär (XIV asr)	-	QB: Shart 2. To'siqsiz	+ +	+ + 3) Qiyos 4) Nisbiy ergash gaplar (asosan, aniqlik fe'li bilan)
7.	-kim/-ki	-	Aniqlovchi  To'ldiruvchi (kam qo'llanadi)	+  +  Ega Kesim Natija Payt Sabab Maqsad Ravish	+  + + + + + + + Qiyos-Izoh

6-jadval davomi.

t/r	Shakl	BN (XVI asr)	Sh.tar. (XVII asr)	TVG (XIX-XX asr)	Hozirgi zamon tili
		Vazifa	Vazifa	Vazifa	Munosabat
1.	<i>BirØk</i>	-	-	-	Qo'llanmaydi
2.	<i>Abaj</i>	-	-	-	-
3.	<i>Qali</i>	-	-	-	-
4.	<i>Tep. teyin</i> (VIII asr), <i>teyu</i> (XI-XII asr), <i>deb</i>	+ + (kam) +	+ + +	+ + +	<i>Deb</i> va uning boshqa shakllari ham ergash gaplarni bog'lashda keng qo'llaniladi
5.	Ani uchün, antag'iqin  <i>Üchün</i> (VIII asr)	+  +	+  +	Kam qo'llanadi	Shu shaklda va shu vazifada qo'llanmaydi
6.	<i>Ägär</i> ( <i>ägärchi</i> ).  <i>mägär</i> (XIV asr)	+  + + + +	Asosan <i>agar</i> . Kam qo'llanadi  + + + Asosan, shart fe'li bilan	+  + + + +	<i>Mägär</i> shakli qo'llanmaydi   <i>Ägär</i> shart fe'li bilan ishlatiladi
7.	<i>-kim//ki</i>	+  + + + + + + - - + +	+  + + + - - - - + +	+  + + + + + + + + -	<i>-ki</i> shakli qo'llanadi; uning vazifa doirasi chegaralangan



t/r	Shakl	KT. Toj. (VIII asr)	QB (XI asr)	QA (XII-XIV asr)	MQ (XV asr)	BN (XVI asr)
		Vazifa	Vazifa	Vazifa	Vazifa	Vazifa
8.	<i>Nechükkim</i> <i>Nechünkim</i>	-	-	Natija-sabab +	+ +	+ +
9.	<i>Chün</i>	-	-	Natija Sabab Payt	+ + + O'xshatish	Izoh + + + Shart-payt. to'ldiruvchi
10.	<i>Chünki</i>	-	-	-	Nisbiy ergash gaplar	+
11.	<i>Tä/räki</i>	-	-	Payt-shart	Payt Maqsad Sabab	+ + +
a/a	Shakl	ShTm (XVII asr)	TVG (XIX-XX asr)	Hozirgi zamon tili		
		Vazifa	Vazifa	Munosabat		
8.	<i>Nechükkim</i> <i>Nechünkim</i>	+ Kam qo'llanadi	+ +	Qo'llanmaydi		
9.	<i>Chün</i>	Kam qo'llanadi	+ + Kam qo'llanadi	Qo'llanmaydi		
10.	<i>Chünki</i>	+	+	Sabab vazifasida keng qo'llanadi		
11.	<i>Tä/räki</i>	+	+	Aniqlik fe'li bilan birikmaydi; ikki vazifada qo'llanadi		
	+	+ Kam qo'llanadi	+ +			

*Eslatma.* Jadvaldagi «vazifasi» ustunida qo'shma gapning qaysi turini tuzishi tushuniladi.

## II. «O‘ZBEK TILINING TARIXIY GRAMMATIKASI» FANI BO‘YICHA TESTLAR

### KIRISH

1. «O‘zbek tili tarixiy grammatikasi» qaysi fanlar bilan aloqada?

- A. Falsafa.
- B. Kibernetika.
- D. Dialektologiya.
- E. Adabiy til tarixi.

2. XX asrgacha yashab turkiy tillarni o‘rgangan olimlarning nomlari berilgan qatorni ko‘rsating:

- A. Mahmud Koshg‘ariy, Zamaxshariy, A. Sherbak.
- B. N.P, Ostroumov, Abu Hayyan, A.K. Borovkov.
- D. S.E. Malov, S.N. Ivanov, Alisher Navoiy, B.N. Nalivkin.
- E. Muhammad Yoqub Chingiy, N.I. Ilminskiy, B.B. Radlov.

3. O‘zbek tilini XX asrdan so‘ng o‘rgangan olimlarning nomlari berilgan qatorni ko‘rsating:

- A. A. Fitrat, A.G‘ulom, B.B. Reshetov, A.N. Kononov.
- B. Fayzullaxon, Mehdixon, K.K. Yudaxin, A. Kazembek.
- D. U. Tursun, A. Nurmonov, Sulaymon Buxoriy.
- E. G. Vamberi, M. Asqarova, F.Kamol.

4. Turkiy tillarning qarluq guruhiga kiruvchi tillar qatorini belgilang:

- A. Turk, qirg‘iz, qozoq, turkman.
- B. Gagauz, tatar, turkman, altay.
- D. O‘zbek, uyg‘ur.
- E. Uyg‘ur, bashqird, bulg‘or, qumiq.

5. O‘zbek xalqi va tilining shakllanish davrlarini ko‘rsating:

- A. VII – IX asrlar.
- B. XI–XII asrlar.
- D. X–XI asrlar.
- E. XII–XVI asrlar.

- 6. Eski o'zbek adabiy tili tarixi davrini ko'rsating:**  
A. VII–IX asrlar.  
B. X–XIII asrlar.  
D. XIV–XVII asr birinchi yarmi.  
E. XVII asr ikkinchi yarmi – XX asr 20-yillar.
- 7. Eng qadimgi turkiy til davrini ko'rsating:**  
A. VII asrgacha bo'lgan davr.  
B. VII–X asrlar.  
D. VI–X asrlar.  
E. VII–XI asrlar.
- 8. Qadimgi turkiy adabiy til davrini ko'rsating:**  
A. X–XV asrlar.  
B. VI–IX asrlar.  
D. VII–XI asrlar.  
E. V–VI asrlar.
- 9. O'rta Osiyo turkiy adabiy til davrini ko'rsating:**  
A. X–XV asrlar.  
B. XI–XIII asrlar.  
D. XII–XVI asrlar.  
E. X–XIV asrlar.
- 10. Hozirgi o'zbek adabiy tili shakllanish davrini ko'rsating:**  
A. XX asrning 30-yillari.  
B. XX asrning 20-yillari.  
D. XIX asr.  
E. XIX asrning ikkinchi yarmi.
- 11. Yangi o'zbek adabiy tili davrini ko'rsating:**  
A. X–XVIII asrlar.  
B. XVI–XX asrlar.  
D. XII–XIV asrlar.  
E. XIII–XVIII asrlar.

**12. Qadimgi turkiy adabiy tilining asosiy yozma yodnomalarini ko'rsating:**

- A. «Oltin Yoruq», «Tonyuquq», «Devonu lug'atit-turk».
- B. «Kultegin», «Bilga Qagan», «O'ngin bitigi».
- D. «Oltin Yoruq», «Qutadg'u bilig», «Hibatul haqoyiq».
- E. «Kultegin», «Devonu Hikmat», «O'ngin bitigi».

**13. O'rta Osiyo turkiy adabiy til davrining asosiy yozma yodnomalarini ko'rsating:**

- A. «Tonyuquq», «Oltin Yoruq», «Hibatul haqoyiq».
- B. «Qutadg'u bilig», «Devonu lug'atit-turk», «Muqaddimatul adab».
- D. «Muhokamatul lug'atayn», «O'ngin bitigi», «Tafsir».
- E. «Boburnoma», «Qutadg'u bilig», «Shayboniynoma».

**14. Eski o'zbek adabiy tili davri asosiy yozma yodnomalarni ko'rsating:**

- A. «Tafsir», «Hibatul haqoyiq», «Shayboniynoma».
- B. «Qutadg'u bilig», «Boburnoma», «Gulistoni bit turkiy».
- D. «Muhokamatul lug'atayn», «Muhabbatnoma», «Boburnoma».
- E. «Shajarai tarokima», «Tafsir», «Mahbubul qulub».

## FONETIKA

**1. O (ota, ona) va e unilalarining shakllanish davrini belgilang:**

- A. Eng qadimgi turkiy til.
- B. Qadimgi turkiy adabiy til.
- D. O'rta Osiyo turkiy tili.
- E. Eski o'zbek adabiy tili.

**2. j (jurnal), w undoshlarining qo'llanish davrini aniqlang:**

- A. Qadimgi turkiy adabiy tili.
- B. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Eski o'zbek adabiy tili.
- E. Hozirgi o'zbek adabiy tili.

**3. *ü, o* unlilarining qoʻllanish davrlarini belgilang:**

- A. Qadimgi turkiy adabiy til.
- B. Oʻrta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Eski oʻzbek adabiy tili.
- E. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.

**4. Soʻz boshida va oxirida qoʻsh undoshlarning qoʻllanishi:**

- A. Asliy turkiy soʻzlarda.
- B. Ajnabiy soʻzlarda.
- D. Eski oʻzbek adabiy tilida.
- E. A va B.

**5. *lt, nt, nch, rt* tovush birikmalarining qoʻllanish davrlarini koʻrsating.**

- A. Qadimgi turkiy adabiy til.
- B. Oʻrta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Eski oʻzbek adabiy tili.
- E. Hozirgi oʻzbek adabiy tili.

**6. Quyidagi soʻzlarda qanday fonetik hodisa roʻy berganini aytib bering (singarmoniya, tushish, proteza, metateza, geminatsiya, assimilatsiya, dissimilatsiya):**

I. *alar, qogʻurmach, ew, bichaq, agʻzin, qilqi, avuch, qadgʻu, bolzun, ikindi, yagʻmur, ben, tufraq, qagʻan, taqagʻu, uwut.*

II. *qagʻun, adaq, qanda, emdi, sınıuq, kirpik, eki, achi, sari, öküz, yatti, allimda, qilsamen, qaduq, neräk.*

**7. *d* undoshning asrlararo oʻzgarishni koʻrsating:**

- A. z, d, s, k
- B. t, y, d, z
- D. l, m; n, d
- E. d, z, sh, s

**8. *ā* (ota) unlisining qoʻllanish davrlarini koʻrsating:**

- A. VI–IX asrlar
- B. XI–XIII asrlar

- D. XV–XVII asrlar
- E. XII–XVIII asrlar

9. Runn yozuving qo‘llanish davrlarini ko‘rsating:

- A. VI–IX asrlar
- B. XI–XIII asrlar
- D. VI–XV asrlar
- E. VI–XVII asrlar

10. Turkiy («Uyg‘ur») yozuving qo‘llanish davrlarini ko‘rsating:

- A. VI–X asrlar
- B. VI–XII asrlar
- D. VI–XV asrlar
- E. VI–XVII asrlar

11. Turkiy so‘zlarda birlamchi unilarning qo‘llanishi:

- A. VI–IX asrlar
- B. IX–XI asrlar
- D. XI–XII asrlar
- E. XI–XV asrlar

12. Turkiy so‘zlarda *f* va *w* undoshlarining qo‘llanish davrlarini ko‘rsating:

- A. VI–X asrlar
- B. VI–XI asrlar
- D. XI–XV asrlar
- E. XII–XVI asrlar

## MORFOLOGIYA

1. Quyidagi *-lar* qo‘shimchasining qo‘llanish davrlari va ma‘nolarini berilgan qatorni ko‘rsating: *Kep qayg‘ular tāpti, āfarinlar o‘qib iztirāblar qilib.*

- A. Qadimgi turkiy adabiy til, ko‘plik.
- B. Qadimgi va eski o‘zbek adabiy tili, ma‘noni kuchaytirish.
- D. Yangi o‘zbek adabiy tili, ko‘plik.

E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili, ma’noni kuchaytirish.

2. Quyidagi so‘z qo‘shimchalarining qo‘llanish davrini ko‘rsating: *budunig‘ qop almish, begig, qatunug‘ eglintirdilar, tanug‘ quritti, sezüg, sezläshyur, og‘uzg‘aru, qayg‘aru, tashqaru.*

A. Qadimgi turkiy va O‘rta Osiyo turkiy adabiy tili, jo‘nalish va tushum kelishigi.

B. O‘rta Osiyo turkiy va eski o‘zbek adabiy tili, o‘rin va chiqish kelishigi.

D. Eng qadimgi va qadimgi turkiy adabiy til, jo‘nalish va vosita kelishigi.

E. Hozirgi va eski o‘zbek adabiy tili, tushum va jo‘nalish kelishigi.

3. Quyidagi *-liq/-lik/-lig‘/-lig* yasovchi qo‘shimcha qanday so‘z turkumi yasashi qatorini ko‘rsating:

A. Ot.

B. Sifat.

D. Ot va sifat.

E. Ravish.

4. Quyidagi sifat darajasining qaysi davrga oidligini ko‘rsating: *asru keptür, tup-tuz yo‘ldur, yashimti.*

A. Qadimgi turkiy adabiy til.

B. O‘rta Osiyo turkiy adabiy tili.

D. Eski o‘zbek adabiy tili.

E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.

5. Quyidagi sonlarning qo‘llanish davrini ko‘rsating:

*yigirma dag‘i bir, iki yigirmi, uch etmish, otuz artuqi, otuz, telim, öküş, altinch, sekizinch, ikindi, ikegü, ikigün, iksher, birer-birer:*

A. Qadimgi turkiy va eski o‘zbek adabiy tili.

B. O‘rta Osiyo turkiy va eski o‘zbek adabiy tili.

D. Qadimgi turkiy, O‘rta Osiyo turkiy, eski o‘zbek adabiy tili.

E. Yangi va hozirgi o‘zbek adabiy tili.

6. Quyidagi olmosh turlari va shakllarining qaysi davrlarda qoʻllanishini koʻrsating:

*Faqir, banda, alar, anlar, biziq, bizim, sayar, manja, munuq, oshul, kendü, nelük, qanda, qamugʻ, nimarsa.*

- A. Qadimgi turkiy adabiy tili.
- B. Oʻrta Osiyo adabiy tili.
- D. Eski oʻzbek adabiy tili.
- E. Yangi oʻzbek adabiy tili.

7. Quyidagi feʼllarning qoʻllanish davrlarini koʻrsating:

*dam urmamaq – dam olmaslik, hayalgʻa kechurmemekdur – xayoldan kechirmaslik, urushgʻu – urushgani, yegü – yegani.*

- A. Qadimgi turkiy, yangi oʻzbek va hozirgi oʻzbek adabiy tili.
- B. Oʻrta Osiyo turkiy, yangi oʻzbek va hozirgi oʻzbek adabiy tili.
- D. Yangi oʻzbek, hozirgi oʻzbek adabiy tili.
- E. Qadimgi turkiy, hozirgi turkiy adabiy tili.

8. Quyidagi sifatdosh shakllari oʻzbek adabiy tilining qaysi davriga qarashligini aniqlang:

*qachmishda, suvsamish erdi, Makka achilduq kün boldı, kechiran umr, keligli kishi, qildachilar.*

- A. Qadimgi turkiy adabiy til.
- B. Oʻrta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Yangi oʻzbek adabiy tili.
- E. Hozirgi adabiy til.

9. Quyidagi ravish shakllari oʻzbek adabiy tilining qaysi davrida qoʻllanganini koʻrsating:

*qichqira – aytti, titreyu aydi, Ash bermishinchi.*

- A. Qadimgi turkiy va Oʻrta Osiyo adabiy tili.
- B. Eski va yangi oʻzbek adabiy tili.
- D. Oʻrta Osiyo turkiysi va hozirgi oʻzbek adabiy tili.
- E. Oʻrta Osiyo turkiysi va eski oʻzbek adabiy tili.



10. Vosita kelishigi *-n/-in/-ın/-ün/-un* shakllarining qo'llanish davrlarini ko'rsating:

- A. Qadimgi turkiy adabiy til.
- B. Qadimgi turkiy va O'rta Osiyo adabiy tili.
- D. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- E. Yangi o'zbek adabiy tili.

11. O'tgan zamon III shaxs qo'shimchasi *-dim, -ding, -di, -dik, -dingiz, -dilar* qanday fe'l shaklidan kelib chiqqan:

- A. *-duq/-dük/-tuq/-tük*.
- B. *-gan/-qan*.
- D. *-mish/-mish*.
- E. A va B.

12. Fe'ning *-duq/-dük/-tuq/-tük/, -g'u/-gü/-qu/-kü* shakllari qanday ma'no ifodalagan:

- A. O'tgan zamon harakati.
- B. O'tgan zamon harakat belgisi (sifati).
- D. A va B.
- E. Hozirgi zamon.

13. Fe'ning *qılalm, beraling, bāran, tilerem, aytalı, barsamiz, aytmayim* shakllari turkiy tillarning qaysi shevasiga oid:

- A. Qarluq, o'g'uz.
- B. O'g'uz.
- D. O'g'uz, qipchoq.
- E. Qarluq, qipchoq.

14. Shart fe'lining uch shaxsdagi shakllari (*barsarbiz, barsaman*) adabiy tilning qaysi davrida qo'llangan:

- A. Qadimgi turkiy adabiy til.
- B. Qadimgi turkiy va O'rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Eski o'zbek va yangi o'zbek adabiy tili.
- E. Hozirgi o'zbek adabiy tili.

15. Fe'ning *-mish/-mish* shakllarining ma'nolarini ko'rsating:

- A. O'tgan zamon.
- B. O'tgan zamon va eshitilmish ma'nolari.
- D. O'tgan eshitilmish zamon.
- E. Uzoq o'tgan zamon.

16. *Bikin, taba/tabaru, ashnu, o'tru, baqa* ko'makchilarining qo'llanish davrlarini ko'rsating:

- A. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- B. O'rta Osiyo turkiysi va eski o'zbek adabiy tili.
- D. Eski va yangi o'zbek adabiy tili.
- E. Qadimgi turkiy, O'rta Osiyo turkiysi va eski o'zbek adabiy tili.

16. O'rta Osiyo turkiy adabiy tilida qo'llangan bog'lovchilarni ko'rsating.

- A. *Taqi/dag'i, yema, vale.*
- B. *Aznu, yahud, goh, ammo.*
- D. *kim/ki, agar, garche, chun.*
- E. *bavujudi, va, to, magar.*

## SINTAKSIS

1. *tegü, ashnu, otru, taba, basa, uzu, tegra, azin, qaru* ko'makchilarining boshqaruv munosabatini shakllantirgan davrlarni ko'rsating:

- A. Qadimgi bitiklarda.
- B. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili davri adabiyotida.
- D. Qadimgi bitiklar va O'rta Osiyo adabiy tili adabiyotida.
- E. A va B.

2. Moslashuv aloqasini shakllantirgan *-timiz (bastımız)* qo'shimchasi qo'llangan asarlarni ko'rsating:

- A. Qadimgi bitiklar.
- B. «Devonu lug'atit-turk».
- D. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- E. A va B.

3. Qadimgi turk adabiy tilida qo‘llangan turkiy izofalarni ko‘rsating:

- A. Birinchi guruh.
- B. Ikkinchi guruh.
- D. Uchinchi guruh.
- E. A,B, D.

4. To‘ldiruvchining kelishiklarning *-n/-in/-un, -g/-ig/-ig‘, -garu/-g‘aru/-ra* qo‘shimchalari bilan birikkan so‘zlar bilan ifodalanish davrini ko‘rsating:

- A. Qadimgi turkiy adabiy tili.
- B. O‘rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Yangi o‘zbek adabiy tili.
- E. A va B.

5. Belgisiz to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol o‘zbek adabiy tili tarixining qaysi davrida ko‘proq qo‘llangan:

- A. Qadimgi turkiy adabiy tili.
- B. O‘rta Osiyo adabiy tili.
- D. Eski o‘zbek adabiy tili.
- E. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.

7. *-gu/-g‘u/-qu* va *-mish* qo‘shimchali harakat nomi modal so‘zi bilan qaysi asrlarda ko‘proq qo‘llanadi:

- A. Qadimgi turkiy bitiklar.
- B. «Qutadg‘u bilig», «Hibatul haqoyiq».
- D. Alisher Navoiy, «Mahbubul qulub».
- E. A, B.

8. *-gü/ku/-qu/-g‘u* va *-mish/-mush* qo‘shimchali fe‘lning *kerak, er, -maq/-mek* so‘zlari va qo‘shimchalari bilan birikib, shaxssiz gaplar tuzilgan adabiy til davrini ko‘rsating:

- A. Qadimgi turkiy adabiy til.
- B. O‘rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Eski o‘zbek adabiy tili.
- E. A, B.

9. Adabiy til tarixida *-g'uluq, -sig', -g'alir, -g'li, -g'ma, -tadchi, -di/-duk* qo'shimchali sifatdoshlarning qo'llanish davrlari:

- A. Qadimgi turkiy adabiy til.
- B. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. A, B.
- E. Yangi o'zbek adabiy tili.

10. *-gan/-gon/-kan/-qan* qo'shimchali sifatdosh qurilmalarning qo'llanish davrlarini ko'rsating:

- A. Qadimgi turkiy adabiy til.
- B. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Eski o'zbek adabiy tili.
- E. A, B.

11. Qadimgi turkiy adabiy tilida qo'llangan ravishdosh shakllarini ko'rsating:

- A. *-iban/-ban, -ib/-ub, -geli/-g'ali.*
- B. *-a/y, -matin, -u/ü.*
- D. *-guncha, -gech, -gan/-g'an, -gach.*
- E. *-guncha, -duqcha.*

12. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar qaysi adabiy til davrlarida ko'proq qo'llangan:

- A. Qadimgi turkiy adabiy til.
- B. O'rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Eski o'zbek adabiy tili.
- E. A, B.

13. O'rta Osiyo turkiy adabiy tilida bog'langan qo'shma gaplarni tuzuvchi bog'lovchilarni ko'rsating:

- A. *yeme, yana, va, taqi.*
- B. *Ham, amma, yā, yohud.*
- D. *-li, -azu, valekin.*
- E. *na, goh, lek, kim.*

**14. Eski o‘zbek adabiy tili davrida ergash gapni tashkil etgan sifatdosh turlarini ko‘rsating:**

- A. -gän/-kan, -mish, -ar/-ur.
- B. -duq/-dük, -g‘ali/-gäli, -gän/-kan.
- D. -tachi/-dachi, -ar/-ur, -mas.
- E. A, D.

**15. O‘rta Osiyo turkiy adabiy tilida ergash gapni tuzgan ravishdosh qo‘shimchalarini ko‘rsating:**

- A. -a/-ä, -u/-yu, -b/-ib
- B. -ban/-ibän, -g‘ali/-geli, -gach/-g‘ach
- D. -g‘uncha/-gunchä, mishcha, -b/-ib
- E. A, D.

**16. Eski o‘zbek adabiy tilida *-kim/-ki*, *-chun/-chü* tobe bog‘lovchilari yordami bilan tuzilgan ergash gapli qo‘shma gap xos turlarini ko‘rsating:**

- A. Aniqlovchi, kesim, qiyos, to‘ldiruvchi ergash gaplar.
- B. Ega, natija, payt, izoh ergash gaplar.
- D. Sabab, maqsad, ravish ergash gaplar.
- E. A, B, D.

**17. *-gan/-kan/-g‘an* sifatdosh shakllarining faol qo‘llanish davrlarini ko‘rsating:**

- A. Qadimgi Turkiy adabiy tili.
- B. O‘rta Osiyo turkiy adabiy tili.
- D. Eski o‘zbek adabiy tili.
- E. B, D.

**18. Ergash gap kesimlari qanday kelishiklar bilan birikadi?**

- A. Bosh kelishik.
- B. Qaratqich kelishigi.
- D. Tushum kelishigi.
- E. O‘rin-payt, chiqish kelishiklari.

### III. MUSTAQIL MASHG‘ULOTLAR UCHUN MAVZULAR

#### Kirish

1. «Tarixiy grammatika» fanining tilshunoslik sohasining boshqa fanlari bilan aloqasi.
2. O‘zbek tilining XX asrgacha bo‘lgan davrda o‘rganilishi.
3. O‘zbek tilining XX asrda o‘rganilishi.
4. A.K. Borovkovning o‘zbek tili tarixi bo‘yicha tadqiqotlari.
5. A.M. Sherbakning o‘zbek tili tarixi bo‘yicha tadqiqotlari.
6. O‘zbek adabiy tilining shakllanishi.
7. O‘zbek adabiy tili tarixini davrlashtirishda A.K. Borovkov, A.N. Samoylovich, A.M. Sherbak fikrlari

#### Fonetika

1. Qalin qorishiq sonor  $\tilde{n}$  (ning) qo‘llanish davrlari.
2. O‘zbek adabiy tilida singarmoniya qonunining qo‘llanish tarixi.
3. Cho‘ziq unililarning qo‘llanish davrlari.
4. Qo‘sh undoshlarning qo‘llanish tarixi.
5. Assimilatsiya va dissimilatsiya hodisasi ro‘y bergan so‘zlar.
6. Proteza, metateza, tushish hodisasi ro‘y bergan so‘zlar.
7. Singarmoniya va singarmoniya buzilgan so‘zlar tarixi.
8. Bo‘g‘in tuzilishi tarixi.

#### Morfologiya

1. Ko‘plik va egalik kategoriyalari tarixi.
2. Kelishiklar tarixi.
3. Ot, sifat va fe‘lni yasovchi unumli va unumsiz yasovchi qo‘shimchalar.
4. Son turlarini ifodalash tarixi.
5. Olmosh turlarini ifodalash tarixi.
6. Fe‘l zamon shakllarining qo‘llanish tarixi.
7. Sifatdosh shakllarining davrlar bo‘yicha taraqqiyoti.
8. Ravishdosh shakllarining davrlar bo‘yicha taraqqiyoti.
9. Bog‘lovchilarning davrlar bo‘yicha taraqqiyoti.
10. Ko‘makchilarning davrlar bo‘yicha taraqqiyoti.

11. Qadimgi turkiy adabiy tilda qo‘llangan teng bog‘lovchilar va ularning so‘z birikmalari hamda qo‘shma gaplarni tuzishdagi ishtiroki.

12. Qadimgi turkiy adabiy tilda qo‘llangan tobe bog‘lovchilar va ularning so‘z birikmalari hamda qo‘shma gaplarni tuzishdagi ishtiroki.

13. *Chün, chü, chünki* bog‘lovchilarining adabiy til davrlarida qo‘llanishi.

14. *Ki, kim* bog‘lovchisining adabiy til davrlari bo‘yicha qo‘llanishi.

15. *Goh, yoxud, yoki, ya, xah* bog‘lovchilarining adabiy til davrlari bo‘yicha qo‘llanishi.

### Sintaksis

1. Ergash gap va so‘z birikmasi.
2. Ergash gapning bog‘lovchisiz va bog‘langan gaplardan farqi.
3. Ergash gapni tuzuvchi sifatdosh va ravishdosh shakllari.
4. Shart fe‘li va tobe bog‘lovchilarning ergash gaplarni tuzish yo‘llari.

5. Ergash gaplarni tuzuvchi nisbiy olmoshlar.

6. Qadimgi turk adabiy tilida qo‘llangan ergash gaplar.

7. O‘rta Osiyo adabiy tilida sifatdosh va ravishdoshlarning ergash gap tuzishi.

8. Eski o‘zbek adabiy tilida tobe bog‘lovchilarning ergash gaplarni tuzishi.

9. *-kim/ki* bog‘lovchisining o‘zbek adabiy tili tarixida ergash gaplarni tuzishi.

## IV. TAHLIL UCHUN MATNLAR

*Quyida berilgan matnlarni fonetik, leksik, grammatik tahlil qiling. Tildagi o'zgarishlarni tushuntirib bering. So'zlarni transkripsiya qiling.*

### KULTIGIN KICHIK BITIGTOSHI

(VIII asr)

1. Teŋri teg teŋride bolmiş turk bilge qag'an bu ødke olurtum. Sabımın tüketi esidgil: ulayu ini yigunim, og'lanım, biriki og'ushım, bodunum, biriye Shadapıt begler yiriyä tarqat. Buyruq beglär otuz (Tangrigacha tangridan bo'lgan turk bilimdon xoqon bu dunyoga keldim. So'zimni tugal eshitgil keyinimdagi ini-jiyanim, o'g'lim, urug'im xalqim, u yerdagi Shodapıt beklar, shimolga tarqalgan. Buyruqi beklar, o'ttiz).

2. Toquz Og'uz begleri, boduni bu sabımın edgüti esid, qatıg'dı tıj la, ilgeru kun tog'sıqqa, birgeru kun ortusınaru, qurıg'aru kun batisina, yırg'aru tun ortusınaru, anta ichreki bodun qop ma bodun (To'qquz o'g'uz beklari, xalqi, bu so'zlarimni yaxshilab eshit, diqqat-la tingla, Sharqda, kun chiqarda, shimolda – orqada, kun botargacha chapda shimolgacha bo'lgan yer ichidagi xalqlar hammasini shod etdim).

### TODYUQUQ BITIGTOSHI

(VIII asr)

1. Bilgä Tonjuquq ben øzum. Tabg'ach elinjä qılıntım. Turk bodun Tabg'achqa korür erti. (Bilga To'nyuquq, men, o'zim, Tabg'ach davlatida tarbiyalandim. Turk xalqi tabg'achga qarar edi).

2. Turk bodun qanıj bolmayın Tabg'achda adrıltı qakantı qanın qodup Tabg'achqa yana ichikti teŋri ancha temis erinch qan bertim. (Turk xalqi xoni bilan bo'lmasdan Tabg'achdan ayrıldı. Xonlik bo'ldi. Xonini qo'yib Tabg'achqa yana qo'shildi. Tangri shunday degan shekilli: xon berdim).



3. Qanining qodup ichikdij ichikduk uchun tejri «ol» temis erinch. Turk bodun olti, alqinti, yoq bolti. Turk sir bodun yerinta bod qolmadi (Xoningni qo'yib taslim bo'lding. Taslim bo'lganing uchun tangri «o'l» degan, ehtimol. Turk xalqi o'ldi, tugadi, yo'q bo'ldi. Turk sir xalqi yerida (o't) qolmadi).

*Yusuf Xos Hojib*

(XI asr)  
QUTADG'U BILIG  
(Parcha)

Bilib sozlagan soz bilikka sanur,  
Biliksiz sozi oz bashini yeyur.

*(Bilib aytilgan so'z bilimga qo'shiladi, nodonning so'zi o'z boshini yeydi.)*

O'kush sozda ortuq asig' ko'rmadim,  
Yana sozlamishda asig' bulmadim,

*(Ko'p sozlashlikdan hech foyda ko'rmadim, qayta-qayta (bir so'zni) sozlagandan (ham biror) foyda topmadim.)*

O'kush sozlama, soz birar sozla oz,  
Tumon soz tugunin bu bir sozda yaz.

*(Ko'p so'zlama, oz so'zla, o'n ming so'zning tugunini bir so'z bilan yech, hal qil.)*

Kishi soz bila qobti, boldi malik,  
O'kush soz bashig' yerga qildi kulik...

*(Kishi so'z bilan yuqori martabaga ko'tarildi, shoh bo'ldi, ko'p so'z boshni quyi egib, uni masxara qilishga sabab bo'ldi...)*

O'qushga, bilikka bu tilmoji til,  
Yorutaji erni yo'riq tilin bil.

*(Til aql va bilimning tarjimonidir. Bil(ki) kishini nuroniy qiluvchi vosita (uning) ochiq va mazmundor tilidir.)*

*Ahmad Yugnakiy*

(XII asr)  
**HIBATUL-HAQOYIQ**  
(Parcha)

Biliktin ayurman, so‘zumga ula,  
Biliklikka, ya do‘st, o‘zungni ula.

*(Bilim haqida so‘zlayapman, so‘zimga quloq sol; ey do‘st, bilimli kishi bilan aloqada bo‘l).*

Bilik birla bilnur saodat yo‘li,  
Bilik bil saodat yo‘lini bula.

*(Bilim bilan baxt-saodat yo‘llari o‘rganiladi, bilimni egallab, saodat yo‘lini top, unga erish).*

Bahalik dinar ul biliklik kishi,  
Bu jahil biliksiz — bahasiz bishi...

*(Bilimli kishi qimmatli oltindir, johil, bilimsiz kishi arzimas, qalbaki (aqcha)dir...)*

Bilik bilti bo‘ldi eran belguluk,  
Biliksiz tirikla yituk kerguluk.

*(Er kishi bilim o‘rganib, bilguvchi bo‘lib qoladi, bilimsiz tiriklikda ko‘rgiliklar ichida qoladi).*

Biliklik er o‘lti, ati o‘lmati,  
Biliksiz esan erkan ati o‘lug...

*(Bilimli er o‘lsa ham, oti o‘lmaydi, bilimsiz kishi hayot chog‘ida ham uning oti o‘likdir...)*

Biliklik birla alam yuqar yo‘qladi,  
Biliksizlik erni cho‘kardi qudi...

*(Bilim bilan olam yuqori ko‘tarildi, bilimsizlik, johillik esa er kishini quyi cho‘ktirdi...)*

---

*Qutb*

(XIV asr)  
**«XISRAV VA SHIRIN»**

Kitob nazm qilmaqqa sabab bayān ayur  
Ravan, e Qutb, tarvin kech bo‘lur bil,  
Ne bilgaylar seni so‘zlatmasang til.

Qazantek qaynab ush savda pishurdum,  
Nizomiy balidin halva pishurdum.  
Xanim atingg'a ushbu parsi tilni  
Chevurdum<sup>1</sup>, tuzdum, ush nazm uzra qilni.  
Chiqordim xush yizig'liq<sup>2</sup> suv bu ko'ldin,  
Ko'ngullar qonsu teb bu saf suvdin...

Farhadni Shirin qating'a kelturg'ani, Farhod Shiringa oshiq  
bo'lg'oni:

Muningtek aymish ul so'z ayg'on ustad,  
San'atlar birla qilmish so'zga bunyad.  
Kim ul qarshi<sup>3</sup> bo'lub Shiringa zindon,  
Turar erdi bo'lub ko'ngli parishan.  
Hamisha sut edi aning g'izasi<sup>4</sup>,  
Tilamaz erdi andin so'ng egasi<sup>5</sup>,  
Agar yuz turli halva bo'lsa yo osh,  
Yo'q erdi anda bir luqma yegu ash.

---

<sup>1</sup> *Chevurdum* — tarjima qildim.

<sup>2</sup> *Yizig'liq* — davoli, shifoli.

<sup>3</sup> *Qarshi* — saroy.

<sup>4</sup> *G'iza* — ovqat.

<sup>5</sup> *Ega* — yegulik.

---

*Xorazmiy*

(XIV asr)

## MUHABBATNOMA

Avvalg'i nomasin aytur

Ayo ko'rk ichra olam podshohi,  
Jahon tutti sening husnung sipohi.  
Pari ruxsoralarning ko'rkaboyi<sup>1</sup>,  
Yuzung navro'zu qoshing bayram oyi.  
Ko'ngul shirin so'zungga bo'ldi Farhod,  
Ko'zung Kashmir jodusiga ustod.

Qaro meng<sup>2</sup> al<sup>5</sup> yangoqingga<sup>4</sup> yaroshur,  
 Boshim doyim adoqingga<sup>5</sup> yaroshur.  
 Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil,  
 Vafo qilg'on kishilarg'a vafo qil.  
 Aqiqing suhbatindin jon bo'lur so'z,  
 Qamartek<sup>7</sup> chehrangga boqsa qamar ko'z.  
 Urur nargislaring<sup>8</sup> novakni<sup>9</sup> jong'a,  
 Kular chehrang chechaktek arg'uvong'a.  
 Saroydin bordi Chin-Moching'a choviq<sup>10</sup>,  
 Qiyo boqsang bo'lur arslonlar oviq<sup>11</sup>.  
 Tabassum qilsangiz shakkar uyolur,  
 Tishing injusidin gavhar uyolur.  
 Jamoling yetti olamg'a sipahlar,  
 Qatingda<sup>12</sup> yer o'parlar jumla shohlar.

<sup>1</sup> *Ko'rkaboy* — go'zal, husnga boy. <sup>2</sup> *Meng* — xol. <sup>3</sup> *O'l* — qizil. <sup>4</sup> *Yangoq* — yuz.  
<sup>5</sup> *Adoq* — dargoh. <sup>6</sup> *Aqiq* — qimmatbaho qizil tosh. Bu misrada suhbatningning qimmatbaho toshidan so'z jonga aylanadi, deyilmoqchi. <sup>7</sup> *Qamar* — oy. <sup>8</sup> *Nargis* — ko'z ma'nosida. <sup>9</sup> *Novak* — o'q. <sup>10</sup> *Choviq* — tez. <sup>11</sup> *Oviq* — oving ma'nosida. <sup>12</sup> *Qatingda* — qoshingda.

## RABG'UZIYNING «QISSASUL-ANBIYO»SIDAN

(XIV asr)

### Qissai Hobil va Qobil

Ul qissa andog' tururkim, odamning so'ngra tug'qon o'g'lonlarinda bir o'g'ulg'a Abdulmag'ish ot qo'ydi, qizg'a Amatulmag'is otadi. Bu egiz ul vaqtda turdilar kim, odamning urug'i qirq mingga yetishib erdi... Qachon Qobil turdi, ersa aning birla bir qiz tug'di. Bis'yor ko'rklik, Iqlima otlig'; ikki yildin keyin Hobil tug'di. Aning birla tug'qon qiz bag'oyat ko'rsiz — Labuda otlig'. Odam o'z shariatinch a Qobil birla tug'qon qizni Hobilga berayin, Hobil birla tug'qonni Qobilga berayin tedi, ersa Qobil unamadi. Aydi: «Mening birla tug'qonni men olurmen». Odam aydi: «Senga ravo ermas». Qobil aydi: «Bu natong qarindosh bo'lsa,

ul ham mundog‘ qarindosh bo‘lur», tedi. So‘z talashtilar. Odam aydi: «Qurbon qiling, kimung qurboni qabul bo‘lsa, bu Iqlimani ul olsun». Hobil bordi: bir ulug‘ qo‘y kelturdi, Qobil bordi: bir pora cho‘pluk bug‘doy kelturdi. Qurbon qilur yerda qo‘ydilar. O‘t keldi, Hobilning qurbonini kuydurdi. Aning uchunkim iziga yovuq bo‘lsa qurboni qabul bo‘lur. Otasi Odam ham Hobilni sevar erdi. Bu holda Iblis kelib Qobilga vasvasa beraboshladi, aydi: «Bilurmusan, Hobil qurboni ne uchun qabul bo‘ldi?»

Qobil aydi: «Bilmasman». Iblis aydi: «Hobilni mavlo taolo<sup>2</sup> sevar, otang ham sendin ani ortuq sevar. Yana otang Odamning xayoli ul tururkim, xalifalig‘ni anga bersa». Bu so‘zga Qobilning achchig‘i keldi. Aydi: «Hobilni o‘lturoyin, qiz ham, xalifalig‘ ham menga bo‘lsun», tedi. Qobil Hobilga qasd qila boshladi, vale Qobil o‘lturmakni bilmas erdi. Bir kun o‘lturgali borib yurur erdi, Iblis keldi odam surati birla, ilginda bir qush tutub, Qobilning o‘nginda bu qushni tosh birla urdi, o‘lturdi. Qobil ani ko‘rub o‘lturmakni o‘grandi. Hobilga aydi: «Men seni o‘ltururman». Hobil aydi: «Men eyzi azza va jalladin qo‘rqarman»...

---

*A. Navoiy*

(XV asr)

### «MUHOKAMATUL-LUG‘ATAYN»DAN

Andok ma‘lum bo‘lurki, turk sortdin<sup>1</sup> tez fahmroq va baland idrokroq va xilqati sofroq va pokrok mahluq bo‘lubtur. Va sort turkdin taakkul va ilm<sup>2</sup>da daqiqroq<sup>2</sup> va kamolu fazl fikratida amiqroq<sup>3</sup> zuhur qilibdur. Va bu hol turklarning sidq va safo va tuz niyatidin, va sortlarning ilm va funun va hikmatidin zohir durur, lekin tillarida kamolu nuqson haysiyatidin fohish<sup>5</sup> tafovutlardurki; alfoz va iborat vaz‘ qilurda turk sortka foyiq kelibdur. Va o‘z alfozida ishorat iboratig‘a maziyatlar ko‘rguzubtur...

Sort orasida ahli tab‘ va donish va zumrayi<sup>6</sup> ilm va zihn va benish ko‘proqdur. Va turk elida ajlof<sup>7</sup> va sodda el sortdin ziyodadur. Ammo turkning ulug‘idin kichigiga dekincha va no‘karidin bekiga

deguncha sort tilidin bahramandurlar. Andoqkim o‘z xo‘rdi ahvolig‘a<sup>8</sup> ko‘ra aytalurlar. Balki ba‘zi fasohat va balog‘at bila ham takallum qilurlar<sup>9</sup>. Hatto turk shuarosikim, forsi til bila rangin ash‘or va shirin guftor zohir qilurlar. Ammo sort ulusining arzolidin ashrofig‘acha<sup>10</sup> va omesidin donishmandig‘acha hechqaysi turk tili bila takallum qilaolmaslar va takallum qilg‘anining ma‘ninin ham bilmaslar. Agar yuzdin, balki mingdin biri bu tilni o‘rganib, so‘z aytsa ham, har kishi eshitsu bilur va aning sort ekanin fahm qilur. Va ul mutakallim o‘z tili bila o‘z rasvolig‘ig‘a o‘zi iqror qilgandekdur. Va turkning asli xilqatda sortdin tab‘i muloyimroq erkanga mundin bul‘ajabrak<sup>11</sup> tonug‘ yo‘qdurki, hechqaysi munung muqobalasida dam uraolmaslar. Va sort biamhim<sup>12</sup> agar turk iborati orasida oqizdur, muhuq<sup>13</sup> ham bor. Ne uchunki turk alfozi voz‘i<sup>14</sup> usru ko‘p vaqt mubolag‘a izhori qilib juzviy mafhumot uchun alfoz vaz‘ qilibdurki, sohibi vuquf kishi to zohir qilmasa, inonsa ham bo‘lmas...

---

<sup>1</sup> Navoiy sort so‘zini – fors-tojik ma‘nosida ishlatadi. <sup>2</sup> Daqiq – ingichka, nozik. <sup>3</sup> Amiq – chuqur. <sup>4</sup> Haysiyat – jihat. <sup>5</sup> Fohish – yomon. <sup>6</sup> Zumra – to‘da, guruh, turkum. <sup>7</sup> Ajlof – bilimsiz, ongsiz. <sup>8</sup> Xo‘rdi ahvol – ahvoliga yarasha. <sup>9</sup> Takallum – so‘zlash. <sup>10</sup> Arzol – tubanlar. Ashrof – yuksaklar. <sup>11</sup> Bul‘ajab – juda ajib. <sup>12</sup> Biamhim – hammasi birdan. <sup>13</sup> Muhuq – haqli. <sup>14</sup> Voz‘i – va‘z qiluvchi, yaratuvchi.

---

## ALISHER NAVOIY RUBOIYLARIDAN NAMUNALAR

Adl aylaki<sup>1</sup>, ul xalq hayoti bo‘lmish<sup>2</sup>,  
Xush ul kishikim, adl sifoti bo‘lmish,  
Ham mulk bila adl jixoti<sup>3</sup> bo‘lmish,  
Ham adl bilan mulk saboti<sup>4</sup> bo‘lmish.

Jondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz,  
Sandin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.  
Har nechaki sevmak ondin ortuq bo‘lmas,  
Ondin seni ko‘p sevarmen, ey umri aziz.

Yillar tutubon shayx maqolotig'a go'sh<sup>5</sup>,  
Ne ko'ngluma zavq yetti, ne jonima jo'sh<sup>6</sup>.  
Jonimg'a navo soldiyu ko'nglima xurush,  
Bir jur'a<sup>7</sup> bila murbachai bodafurush.

G'urbatda<sup>8</sup> g'arib shodmon bo'lmas emish,  
El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish.  
Oltun qafas ichra gar qizil gul butsa<sup>9</sup>,  
Bulbulg'a tikandek oshyon<sup>10</sup> bo'lmas emish.

El qochsa birovdin, el yomoni bil oni,  
Ahvolida idbor<sup>11</sup> nishoni bil oni,  
Fe'l ichra ulus baloyi joni bil oni,  
Olam elining yomon-yomoni bil oni.

To hirsu havas xirmanı barbod o'lmas,  
To nafsu havo<sup>12</sup> qasri baraftod<sup>13</sup> o'lmas,  
To zulmu sitam jonig'a bedod<sup>14</sup> o'lmas,  
El shod o'lmas, mamlakat obod o'lmas.

Har kimsaki, so'z demak shiorida durur,  
Ma'vo guli nutqining bahorida durur,  
So'zkm demasun ulki ixtiyorida durur,  
So'z yaxshiligi chu ixtisorida<sup>15</sup> durur.

So'zdurki, nishon berur o'lukka jondin,  
So'zdurki, berur jong'a xabar jonondin,  
Insonni so'z ayladi judo hayvondin,  
Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondın<sup>16</sup>.

---

<sup>1</sup> *Adl aylaki* — adolat qilki. <sup>2</sup> *Ul xalq hayoti bo'lmish* — xalq o'sha adolat bilan tirik (hayot)dir. <sup>3</sup> *Jihot* — qurol, asbob. <sup>4</sup> *Sabot* — qaror, ishonch. <sup>5</sup> *Go'sh* — quloq. <sup>6</sup> *Jo'sh* — zavq-shavq. <sup>7</sup> *Jur'a* — qultum. <sup>8</sup> *G'urbat* — birovlar yurti, g'ariblik. <sup>9</sup> *Butsa* — bitmoq, o'smoq. <sup>10</sup> *Oshyon* — uya, qush uyasi. <sup>11</sup> *Idbor* — orqaga ketish, baxtsizlik. <sup>12</sup> *Nafsu havo* — nafs va martaba orzusi. <sup>13</sup> *Baraftod* — yiqilmoq. <sup>14</sup> *Bedod* — zulm. <sup>15</sup> *Ixtisor* — qisqalik. <sup>16</sup> Misraning mazmuni: Bilgilki, undan (so'zdan) sharafliroq, afzalroq gavhar yo'q.

**Zahiriddin Muhammad BOBUR**  
(XVI asr)  
**BOBURNOMA**

Farg'ona viloyati beshinchi iqlimdir<sup>1</sup>. Ma'muraning kanorasida<sup>2</sup> voqi' bo'lubtur. Sharqi Qoshg'ar, g'arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi<sup>3</sup> tog'lar, shimolida agarchi burun shahrlar bor ekandur, misli: Olmoliq va Olmotu va Yangikim, kutublarda<sup>4</sup> O'trokent bitirlar, mo'g'ul ... jihatdin<sup>5</sup> bu tarixda buzulubtur, aslo ma'mura qolmabdur. Muxtasar<sup>6</sup> viloyattur, oshliq va mevasi farovon. Girdo-girdi tog' voqi' bo'lubtur. G'arbi tarafidakim, Samarqand va Xo'jand bo'lg'ay, tog' yo'qtur. Ushbu jonibtin o'zga hech jonibtin qish yog'i<sup>7</sup> kela olmas. Sayhun daryosikim<sup>8</sup>, Xo'jand suyig'a mashhurdur, sharq va shimoli tarafidin kelib bu viloyatning ichi birla o'tub, g'arb sori oqar. Xo'jandning shimoli Fanokatning janubi tarafidinkim, holo Shohruxiyag'a mashhurdur, o'tub yana shimolg'a mayl qilib, Turkiston sori borur. Turkistondin xiyli quyiroq bu daryo tamom qumga singlar<sup>9</sup>, hech daryog'a qotilmas.

Yetti pora qasabasi<sup>10</sup> bor, beshi Sayhun suyining janubi tarafida, ikki shimoli janubida. Janub tarafidagi qasabalar biri Andijon-durkim, vasatta<sup>11</sup> voqi' bo'lubtur, Farg'ona viloyatining poytaxtidur. Oshlig'i vofir<sup>12</sup>, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Qovun mahalida poliz boshida qovun sotmoq rasm emas. Andijonning noshpotisidan yaxshiroq noshpoti bo'lmas. Movarounnahrda Samarqand va Kesh<sup>13</sup> qo'rg'onidin so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. Arki janub tarafida voqi' bo'lubtur. To'qqiz tarnov suv kirar. Bu ajabturkim, bir yerdin ham chiqmas. Qal'aning girdo-girdi xandaqning tosh yoni sangrezalik, shohroh tushubtur. Qal'aning girdo-girdi tamom mahallottur. Bu mahalla birla qal'aka fosila<sup>14</sup> ushbu xandaqtur va yoqasi dori shohrohtur. Ovi qushi dog'i ko'p bo'lur, qirg'ovuli behad semiz bo'lur.

---

<sup>1</sup> *Iqlim* — quruqlik qismi. <sup>2</sup> *Ma'muraning kanorasi* — mamlakatning (Movarounnahr) cheti. <sup>3</sup> *Sarhad* — chegara. <sup>4</sup> *Kutub* — kitoblar. <sup>5</sup> *Mo'g'ul* ...



*jihatin* — mo'g'ullar urushi natijasida. <sup>6</sup> *Muxtasar* — kichik. <sup>7</sup> *Yog'i* — dushman.  
<sup>8</sup> *Sayhun daryosi* — Sirdaryo. <sup>9</sup> Bu davrning boshqa manbalarida ham Sirdaryoning  
qumga batamom singib ketishi haqida ma'lumotlar uchraydi. <sup>10</sup> *Qasaba* —  
shaharcha. <sup>11</sup> *Vasat* — o'rta, o'rtalik, <sup>12</sup> *Vofir* — mo'l-ko'l. <sup>13</sup> *Kesh* — Shahrizabz.  
<sup>14</sup> *Fosila* — orani ochuvchi, ora yo'l.

\* \* \*

Charxning men ko'rmagan javru jafosi qoldimu?  
Xasta ko'nglum chekmagan dardu balosi qoldimu?

Meni xor ettiyu, qildi muddaiyg'a<sup>1</sup> parvarish,  
Daxri dunparvarni<sup>2</sup> o'zga muddaosi qoldimu?

Meni o'lturdi jafou javr birla ul quyosh,  
Emdi tirguzmak uchun mehru vafosi qoldimu?

Oshiq o'lg'ach ko'rdum o'lumni o'zumga, ey rafiq,  
O'zga ko'nglumning bu olamda harosi<sup>3</sup> qoldimu?

Ey ko'ngul, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,  
Tengri uchun de, bu olamning safosi qoldimu?

## RUBOIYLARIDAN NAMUNALAR

\* \* \*

Yod etmas emish kishini g'urbatda kishi,  
Shod etmas emish ko'ngulni mehnatda kishi,  
Ko'nglum bu g'ariblikda shod o'lmadi, oh,  
G'urbatda sevunmas emish albatta kishi.

\* \* \*

Toli' yo'qi jonimg'a balolig' bo'ldi,  
Har ishniki ayladim xatolig' bo'ldi,  
O'z yerni qo'yib hind sori yuzlandim,  
Yorab netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

\* \* \*

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,  
O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.  
Men tolibi ilmu tolibi ilme yo'q,  
Men bormen ilm tolibi, ilm kerak.

\* \* \*

Davlatka yetib mehnat elin unutm,  
Bu besh kun uchun o'zingni asru<sup>1</sup> tutma,  
Borg'onni kel emdi yod qilmay, ey do'st,  
Borish-kelishingni lutf etib o'ksutma.

\* \* \*

Sen gulsenu men haqir bo'lbudurmen,  
Sen shu'lasenu ul shu'lag'a men kuldurmen.

---

<sup>1</sup> *Asru* — ko'p, g'oyatda, bu yerda yuqori ma'nosida.

---

*Turdi Farog'iy*

(XVII ASR)

**SUBHONQULIXON VA UNING AMIR-AMALDORLARI  
TO'G'RISIDA HAJVIYA**

(M u x a m m a s)

Joyi osoyish emas hech kima bu ko'hna ravoq,  
Yog'durur boshimiza sangi jafo, gardi firoq..  
Yo'qolib rasmi vafo, bo'ldi hamma boshu oyoq,  
Mulkdin adlu karam ketti, kelib kinu nifoq,  
Yaxshiliq qilma tama', zulm ila duldi ofoq.

Fitnayu sho'r hama rub ila maskun<sup>1</sup> dutdi,  
Xublar masnadini sifla<sup>2</sup> bila dun<sup>3</sup> dutdi,  
Tah-batah ko'nglimi bu fikr bila xun dutdi,  
Joyi shahbozlari qarg'avu quzg'un dutdi,  
Hamnishin o'lg'ali shunqor ila doim yapaloq.

Shoh ham bazmi ulub xojasarolar bila yor,  
Hukmi baraks surub, bo'ldi yomonlar sardor,  
Xor o'ldi ulamovu, fuzalo, ahli viqor,  
Ko'ringizkim, yurt ishi topti na yerlarga qaror?  
Xon jilovi iki badragga<sup>4</sup> tegib, bo'ldi inoq...

Hukmidur jumla libosiyu ishidur amali,  
So'zidur betagu farmoni nishoni jaali<sup>5</sup>.  
Mumsiku<sup>6</sup> siflavu dundurki bag'oyat qabali,  
Anga o'xsharki qolon burung'ilarining masali:  
«Yog' ishqordin oluru qora suvdin qaymoq».

---

<sup>1</sup> *Rub ila maskun (rub'i maskun)* — yer yuzi demak. <sup>2</sup> *Sifla* — past. <sup>3</sup> *Dun* — tuban. <sup>4</sup> *Badrag* — asli past ma'nosida bo'lib, bu yerda Subhonqulixon bilan inoqlashgan qipchoq va saroy urug'larining beklariga ishora qilinadi. <sup>5</sup> *Jaali* — qalbaki, soxta. <sup>6</sup> *Mumsik* — xasis.

---

*Abulg'azi Bahodirxon*  
**«SHAJARAYI TAROKAMA»dan**  
**(XVII ASR)**

Bas necha ming kishilar mening bu so'z aytqaning'a bilmaganlarin bilib ko'ngillari xush bo'laturur. Xudoyi taolodin umidim bor kim uning savobi agar ul qatl'omda gunoh bo'lg'an bo'lsa, ang'a g'olib kelgay teb va taqi ul kim bir kun bir kishi bu kitobni o'qub bilmaganini bilsa, bizning ruhimizga fotiha o'qug'ay teduk taqi kitobni aytmaqqa ruju' qilduqi taqi bu kitobg'a «Shajarayi tarokima» teb ot qo'yduq. Barcha bilingkim, bizdin burun turkiy tarix aytqanlar arabiy lug'atlarni qo'shub tururlar va forsiyni ham qo'shub tururlar va turkiyni ham saj' qilib tururlar, o'zlarining hunarlarin va ustodliqlarini xalqg'a ma'lum qilmaq uchun biz munlarning hech qaysisini qilmaduk, aning uchun kim, bu kitobni o'qug'uchi va tinglag'uchi albatta turk bo'lg'usi turur. Bas, turklarga turkona aytmak (aytmoq) kerak, to ularning barchasi fahm qilg'aylar bizning aytg'an so'zimizni bilmasalar andin ne hosil

agar anlarning ichlarida bir va yo ikki o'qug'an aql kishi bo'lsa ul bilsa, bilmagan ko'pning qaysi birini aytib bildurur. Bas, andaq ayتماق kerakkim, yaxshi va yomon barchalari bilib ko'ngillariga ma'qul bo'lg'ay.

*Gulxaniy*

## ZARBULMASAL (XVIII asr)

Anda Ko'rqush Kuykunakning takabburona so'zini anglab aydi: «Ey bolam, sen so'z so'rg'uvchi bo'lg'uncha va men javob berguvchi bo'lg'uncha, ikkimiz ham g'oyib bo'lsak yaxshidir».

Anda Kuykunak aydi: «Yaxshilar topib so'zlar, yomonlar qopib so'zlar» degandek, ya'ni bizni arkoni davlat arosida kichkina ko'rdingizmu? «Kichkina demang bizni, ko'tarib urarmiz sizni», yoinki «Kuykunak o'z yerida g'oz olur ham o'rdak»... «O'zingni er bilsang, birovni sher bil».

Ko'rqush aning xud donoligini anglab aydi: «Ey bolam, burung'ilar masalidurkim: «Sigir suv ichguncha, buzoq muz yalar». Mehmon bo'lsam ta'zim va tavozu qilsang lozim erdi».

Anda Kulonkir mehmonga ozor berganini anglab, Kuykunakni jerkib, ko'zidin andog' nari soldikim, qayta ko'rmaklik nomumkin bo'ldi. Bas Ko'rqushni imlab olib, yonidan joy berib, aydikim: «Ey bobo, xush kelibsiz. Ma'zur tutung, o'zingizdek kishilar debdurlarki: «Tanimasni — siylamas».

Anda Ko'rqush so'zga daraftod bo'ldi!. Va aydiki: «Ulurning, borgohida ahli donish<sup>2</sup> va xiradmandi bohush har qancha ko'p bo'lsa ham, oz bo'lur...»

...Kulonkir sultonning ilgarigi mehmonidin qolg'on oshi bor erdi, ani Ko'rqushning oldig'a qo'ydi, aydi: «Oz oshga imdod<sup>3</sup> yo'q».

Anda Ko'rqush aydi:

*Karam na erdi baxillik so'zin deding, e shoh,  
«Oz oshni berguncha mundin ziyod o'tu olov».*

Anda Kulonkir sulton aydi:

*«Az karam nest baxili kardan,  
Xon nihodan taomi xud xurdan»<sup>4</sup>.*

Anda Ko'rqush aydi: «Osh egasi bilan totlig'».

Kulonkir sulton «Xo'b bo'lur, oshga deganda quruq kalla yugurur», deb qo'l uzata berdi. Bir yemog'lik qildikim, tabaq tubiga tushdi. Ko'rqush har qancha taraddud qildi, oshni tabaq tagida topmadi...

...Alqissa, Ko'rqush jiddu jadal birla Boyo'g'li sarmanziliga ravona bo'lub... muddao devorig'a boshi va istid'o hadafiga<sup>5</sup> murod o'qi tegdi. Zamondin so'ng Boyo'g'li Ko'rqush kelganidin ogoh bo'lub, aning oldiga chiqib, «...Xush kelibsiz, safo kelibsiz», deb ta'zim va tavozu birla ko'rushub, bir-birining yuzini cho'qushib, Boyo'g'li Ko'rqushni uyasiga qo'ndurdi va oldig'a mohazar<sup>6</sup> qo'ydi. Ko'rqush so'zlamasdan burun taomga tusha berdi, Boyo'g'li aydi: «Taom yemakda so'zlab yemak yaxshidur, hayvondek xomush taom yemak, ozoda mardum shevasidan ermas».

---

<sup>1</sup> So'zga daraftod bo'ldi — so'zga kirishib ketdi. <sup>2</sup> Ahli donish — bilim ahli. <sup>3</sup> Imdod — bu yerda: taklif ma'nosida. <sup>4</sup> Baxillik qilish karamdan emas, dasturxon qo'ygach, taom yemoq yaxshidir. <sup>5</sup> Hadaf — mo'ljal, joy. <sup>6</sup> Mohazar — ovqat.

*Maxmur*

(XVIII asr oxiri—1844)

*SHE'RLARIDAN NAMUNALAR*

**HAPALAK<sup>1</sup>**

Ey jahondori zafar kavkabai davri falak,  
Go'sh qil qissai qishlog'i xarobi Hapalak<sup>2</sup>.

Turfa<sup>3</sup> qishlog'i g'azabkardaki<sup>4</sup>, parrandalari,  
Tovug'i — ignachi-yu, urdagu g'ozi — kapalak.

Boru yo'q uylarini banda<sup>5</sup> bayon gar qilsam,  
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq<sup>6</sup>, to'rt katalak.

Dema uy, balki zamin kandir agar kirska kishi,  
Har taraf betiga urgaylar ani(ng) ko'rshapalak.

Xalqini ko'rsang agar o'lasi-yu qoqu xarob,  
Ochlikdin egilib qomati misli kamalak.

Ajirig' tomirini o'g'urida mayda tuyub,  
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.

Yo'rgagida onasi ul o'ragan lattalari  
To hanuz ustidadur, uch mingu yuz yetti bo'lak.

Gar tahorat qilsa qavme suv topolmay nochor,  
Betini qum bila yub, (ko'zi)ga surgay guvalak.

Ey falak qadru adolat shiyami mulku malak,  
Marhamat chog'ida rahm ayla ba holi<sup>7</sup> Hapalak.

Kecha go'yo eshitib shuhrati tilla pulini,  
Hapalak qo'rqusidan uchdi misoli kapalak.

Hurmating yo'lida bir tilla karomat qilg'il,  
Kapalak boz qo'nib joyig'a bo'lg'ay Hapalak.  
Zor Maxmur talab qildi kechishni shohdin  
Hapalak yurtiga tushgan pul agarchi lak-lak.

---

<sup>1</sup>Hapalak – Farg'ona viloyatidagi bir qishloqning eski nomi. <sup>2</sup>Bu baytning mazmuni: «Ey falak davrining zafar yulduzli podshohi, xarob bo'lgan Hapalak qishlog'i haqida bir qissa eshit». <sup>3</sup>Turfa – qiziq, ajoyib. <sup>4</sup>G'azabkarda – g'azab qilingan, g'azab ostida qolgan. <sup>5</sup>Banda – men. <sup>6</sup>Olachuq – chayla. <sup>7</sup>Ba holi – holiga.

---

*Muqimiy*

(XIX asr)

\* \* \*

Soch oqardi, tish tushib, quvvat belimdan ketti, hayf,  
Toatim yo'qtur, matoimdur<sup>1</sup> gunoh, yuk bitti, hayf,  
Ayladim zoye yigitlik, ko'z rihlat<sup>2</sup> yetti, hayf,

Pur<sup>3</sup> xatar vodiya sargardon abas umr o'tti, hayf,  
Yig'lamaymu, yo'lg'a solmas rahnamolardin<sup>4</sup> biri.

Ey muhabbat shu'lai, ur dilg'akim, tinmay kuyay,  
Qonlik ashkimdin libosimni qizil guldek bo'yay,  
Fe'lbadlarga pushaymonlar qilib, yuzni yulay,  
Holati lutf<sup>5</sup> etki, yorab ko'z yoshim birlan yuvay,  
Qolmaguncha nomada jurmu<sup>6</sup> xatolardin biri.

Shamdek jonlar kuyub, jism o'rtanur monand xas,  
Yetkudek dodimga ko'rmay boramen faryod ras,  
Yo'q asar nolamda, manzillar yiroqdir chun jaras<sup>7</sup>,  
Ishq yo'lida Muqimiykim, dema, ey bulhavas<sup>8</sup>,  
Shavqida bir sarv qad qumrinalovoldin biri,

### TOLEIM

Ohkim, afsus, emas hech ishda rahbar toleim,  
Vojgundur<sup>9</sup> imtihon qildimki, aksar toleim...

Yuz tarafdin yetkurub gardi kudurat<sup>10</sup> zangi g'am,  
Aylagay oinani tab'im mukaddar<sup>11</sup> toleim.  
Har necha qilsam tavallo — zori qilmas iltifot,  
Ro'ygardon<sup>12</sup>, teskari, tobora battar toleim.

Ro'zgorim tiyra<sup>13</sup>, iqbolim zabun<sup>14</sup>, baxtim qaro,  
Bo'lsa ravshan, bormukin tadbiri digar<sup>15</sup> toleim.

Nogahon bersam, Muqimiy, bir musulmonga salom,  
Daf'atan ikki qulog'ini qilur kar, toleim.

---

<sup>1</sup> *Mato* — mol, ashyo, shoir bu yerda topgan dunyoim gunohdan iboratdir, gunohimdan boshqa dunyoim yo'q demoqchi. <sup>2</sup> *Rihlat* — uzoq safarga jo'nash. <sup>3</sup> *Pur* — ko'p. <sup>4</sup> *Rahnamo* — yo'l ko'rsatuvchi, yetakchi. <sup>5</sup> *Lutf* — muloyimlik, rahmdillik. <sup>6</sup> *Jurm* — gunoh. <sup>7</sup> *Jaras* — qo'ng'iroq. <sup>8</sup> *Bulhavas* — ko'ngli nimani havas qilsa, shuni qilmoqni orzu qiladigan, sabotsiz, sayoq. <sup>9</sup> *Vojgun* — teskari. <sup>10</sup> *Gardi kudurat* — qayg'u to'zoni. <sup>11</sup> *Mukaddar* — xira, qayg'uli. <sup>12</sup> *Ro'ygardon* — teskari aylangan. <sup>13</sup> *Tiyra* — qorong'i. <sup>14</sup> *Zabun* — oyoq osti. <sup>15</sup> *Digar* — boshqa.

(XIX–XX asr)

Mingu sakkiz yuzu to‘qson edi yil,  
Ikkinchi sentyabr oyi yana bil.

Kirib vistavkani qildik tamosho,  
Hama ashyo ekan anda muhayyo.

Ajab bog‘iki, ruh afzo<sup>1</sup> havosi.  
Eram<sup>2</sup> rashki nasimi<sup>3</sup> jonfizosi<sup>4</sup>.

Oqib har soridin obi ravonlar  
Edi andog‘ikim ul jism ichra jonlar.

Muattar<sup>5</sup> bog‘ sahni ochilib gul,  
Tamoshobinlar erdi anda bo‘lbul.

Imoratlar hama zeboyu oliy,  
Desam bo‘lg‘ay jahonda yo‘q misoli.

Muningdek xushhavo xushtarh bog‘i,  
Kimi ko‘rmas qolur ko‘ksida dog‘i.

Qayu shahridakim bo‘lsa hunarmand,  
Hama keldi, yiroq erdi agarchand.

Jahonda ko‘rmagan asboblardin,  
Ajoyib nodiru noyoblardin.

Samarqandu Buxorodin matoi  
Keturdilar hama o‘z ixtiroi.

Hama o‘z ixtiyori birla keldi,  
Bu yerda naf‘ ko‘rmog‘ini bildi.



Bu naf'ikim bo'lur ko'p yerga mashhur,  
Neko'lig<sup>6</sup> vasf<sup>7</sup> ila har tilda mazkur.

Gazetlar ichra bo'lg'ach nomi marqum<sup>8</sup>,  
Ulug'lar ichra bo'lg'ay boz<sup>9</sup> ma'lum.

Hunarkim vasf bo'lsa har zabonda<sup>10</sup>,  
Qilur ko'p qadrlar paydo jahonda.

---

<sup>1</sup> *Ruh afzo* — ruhlantiruvchi, hayotni uzaytiruvchi. <sup>2</sup> *Eram* — afsonaviy bog'.

<sup>3</sup> *Nasim* — shabada. <sup>4</sup> *Jonfizo* — oromijon, shodlantiruvchi, jonga rohat beruvchi.

<sup>5</sup> *Muattar* — xushbo'y hidli. <sup>6</sup> *Neko'lig'* — yaxshilik. <sup>7</sup> *Vasf* — ta'riflash, maqtash.

<sup>8</sup> *Marqum* — yozish, bitish, <sup>9</sup> *Boz* — yana, tag'in. <sup>10</sup> *Zabon* — til.

---

*Fitrat*

(XX asr)

## O'ZBEK KLASSIK MUSIQASI VA UNING TARIXI

«Tuhfat us surur» (Hofiz Darvesh Ali Changiy asari)da aytishiga ko'ra, mashhur Ulug'bek Mirzoning o'zi ham musiqa olimlaridan sanalgan. Temur bolalari zamonida qonunchi Darvesh Ahmadiy (samarqandlik) ... musiqada bir risola egasi bo'lg'on qorako'lilik Hisomiy, musiqada bir kitobcha yozg'on xorazmlik Abu Vafo Tabib ham musiqiy olimi bo'lg'on balxlik Mavloni Sohib, o'z zamonida atoqli bastakorlardan sanalgan shahrisabzlik Abdul Baraka kabi kishilar yetishib chiqib, musiqamiz uchun xizmat qildilar. Nog'orachi ham shoir bo'lg'on Qadimiy, Navoiyning tog'asi Muhammad Ali G'aribiylar ham shu zamonning mashhur musiqashunoslaridan edilar...

Bobur Mirzo o'zining mashhur asarida Navoiyning asarlarini sanar ekan, «Yana ilmi musiqa yaxshi... «naqsh»lari, yaxshi» peshravlari bordir deb Navoiyning usta bir bastakor bo'lg'onini ko'rsatadir.

Bu kun O'zbekistonning ko'b o'rinlarida «Qari Navoiy» («Qari-

Navo») nomli bir kuy bor. Buxoroning eski musiqashunoslari orasida bu kuyning Navoiy asari bo'lg'onini so'ylanadir.

Bobur Mirzo o'zining «Boburnoma»sida «Ustod Qulmuhammad va Shayx Noyiy va Husayn Udiykim sozda saromad (ilgari bosqan) edilard, Bekning (Navoiyning) tarbiyat va taqbiyati bilan shuncha taraqqiy va shuhrat qildilar».

«O'zbekiston adabiyoti va san'ati»  
gazetasi, 22-mart 1991-yil.

---

A. Qodiriy

(XX asr)

### OTABEK YUSUFBEK HOJI O'G'LI

1264-nci hijriya, dalv oyining 17-ncisi, qishqi kunlarning biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...

Darbozasi sharqi-janubiga qaratib qurilgan bu dong'dor saroyni Toshkand, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to'la. Saroy ahli kunduzgi ish kuchlaridan bo'shab hujralariga qaytqanlar, ko'b hujralar kechlik osh pishirish ila mashg'ul, shuning uchun kunduzgiga qaraganda saroy jonliq: kishilarning shaqillashib so'zlashishlari, xaholab kulishishlari saroyni ko'kka ko'targundek.

Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamrak bir hujra, anovi hujralarga kiyiz to'shalgani holda, bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda<sup>2</sup> bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarda qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham'yonadir, o'zga hujralarda yengil tabi'atlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida *bu* hujraning egasi ham boshqacha yaratilishda.

Og'ir tabi'atlik, ulug' gavalik, ko'rkam va oq yuzlik, kelishkan qora ko'zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog'idan, ham ega jihatidan diqqatni o'ziga jalb etarliq edi. Qandog'dir bir xayol ichida ulturg'uchi bu yigit Toshkandning mashhur a'yonlaridan bo'lg'an Yusufbek hojining o'g'li — Otabek.

Saroy darbozasidan ikki kishi kelib kirgach, ulardan biravi darboza yonidag'i kimdandir so'radi:

— Otabek shu saroyga tushkanmi?

Bizga tanish hujra ko'rsatilishi bilan ular shu tomong'a qarab yurdilar. Bu ikki kishining bittasi gavgaga kichik, yuzga to'la, ozroqqina soqol-murtlik, yigirma besh yoshlar chamalik, bir yigit bo'lib, Marg'ilonning boylaridan Ziyo shohichi deganning Rahmat otliq o'g'lidir, ikkinchisi: uzun bo'ylik, qora cho'tir yuzlik, chag'ir ko'zlik, chuvoq soqol, o'ttuz besh yoshlarda bo'lg'an ko'rimsiz bir kishi edi.

---

<sup>1</sup> *Daly* — 22-yanvar — 22-fevral

<sup>2</sup> *Utta* — u yerda

---

*Abdulhamid Cho'lpon*

### QO'ZG'ALISH

Ey! Sen meni haqir ko'rgan, tuban degan afandi!

Ey! Ustimda bir umrga xo'ja bo'lmoq istagan.

Ey! Bo'ynimga kishan solib, halokatga sudragan,

Ko'zlaringni zaharlatib o'ynatmagil, bas endi!

Kishanlaring zang bosgandir, sergak bo'lkim, uzilur:

Tomirimda qo'zg'alishning vahshiy qoni gupirdi.

Eski fikr, an'analar endi butkul uzildi.

Yo bitarman, yoki sening saltanating buzilur!

Ey! Sen, meni qul o'rnida ishlatguvchi afandi!

Titra, ko'rkim, bog'liq quling bosh ko'targan kuch endi!..

### QALANDAR ISHQI

Muhabbatning saroyi keng ekan, yo'lni yo'qotdim-ku,

Asrlik tosh yanglig' bu xatarlik yo'lda qoldim-ku.

Karashma dengizni koʻrdim, na nozlik toʻlqini bordir,  
Halokat boʻlgʻusin bilmay qulochni katta otdim-ku.

Ajab dunyo ekan bu ishq dunyosi, ayo doʻstlar,  
Bu dunyo deb u dunyoni bahosiz pulga sotdim-ku.

Uning gulzorida bulbul oʻqib qon ayladi bagʻrim,  
Koʻzimdan yoshni joʻ aylab alamlar ichra botdim-ku.

Qalandardek yurib dunyoni kezdim, topmayin yorni,  
Yana kulbamga qaygʻular, alamlar birla qaytdim-ku.

Muhabbat osmonida goʻzal Choʻlpon edim, doʻstlar,  
Quyoshning nuriga toqat qilolmay yerga botdim-ku.

*Baku, 1920.*

## MUNDARIJA

Mualliflardan .....	3
Transkripsion belgilar .....	4
Shartli qisqartmalar .....	5

### KIRISH

Turkiy xalqlarning, xususan, o'zbek xalqining etnogenezi va tilining shakllanishi .....	10
O'zbek xalqi va tilining shakllanishi .....	18
Turkiy tillar, xususan, o'zbek tilining o'rganilishi .....	22
Turkiy tillar va ularning tasnifi .....	24
O'zbek adabiy tili tarixini davrlashtirish masalasi .....	28
O'zbek adabiy tilining asosiy yozma manbalari .....	34
XV, XVI va XVII asr boshlaridagi adabiy til .....	35

### FONETIKA

Tovushlar tizimining taraqqiyoti .....	41
Fonetik hodisalar .....	62

### MORFOLOGIYA

Ot .....	75
Ko'plik shakllari .....	75
Egalik shakllari .....	78
Qarashlilik .....	79
Otlarda tuslanish va kesimlik affikslari .....	81
Otlarda bo'lishsizlik shakli .....	83
Kelishik shakllari .....	83
Ot yasalishi .....	109
Sifat .....	118
Sifat yasalishi .....	118
Sifat darajalari .....	121
Son .....	125
Sanoq son .....	125
Tartib son .....	128
Jamlovchi son .....	130
Dona son va numerativ so'zlar .....	132
Chama son .....	134
Taqsim son .....	135
Kasr son .....	137

<b>Olmosh</b> .....	137
Kishilik olmoshlari .....	138
O'zlik olmoshlari .....	143
Ko'rsatish olmoshlari .....	146
So'roq olmoshlari .....	152
Birgalik olmoshlari .....	159
Belgilash olmoshlari .....	162
Gumon olmoshlari .....	164
Bo'lishsizlik olmoshlari .....	167
<b>Fe'l</b> .....	170
Fe'l aspektlari .....	170
Fe'lning funksional shakllari .....	172
Fe'l tuslanishi .....	198
Mayl va zamon .....	199
Shaxs-son affikslari .....	201
Buyruq-istak mayli .....	205
Shart mayli .....	219
Aniqlik mayli .....	233
O'tgan zamon .....	233
Hozirgi zamon .....	253
Hozirgi-kelasi zamon .....	259
Kelasi zamon .....	262
Fe'l yasalishi .....	267
Fe'l darajalari .....	270
<b>Ravish va yordamchi so'zlar</b> .....	274
Ravish .....	274
Ko'makchilar .....	284
Bog'lovchilar .....	302
Yuklamalar .....	317
Undovlar .....	320

## SINTAKSIS

<b>So'z birikmalari</b> .....	323
Tobe birikmalar .....	324
Turkiy izofa .....	333
Teng birikmalar .....	338
<b>Gap bo'laklari</b> .....	339
Ega .....	339
Kesim .....	341

To'ldiruvchi .....	345
Aniqlovchi .....	348
Hol .....	350
Uyushiq bo'laklar .....	353
Gap bo'laklarining tartibi .....	355
<b>SODDA GAP</b>	
<b>Sodda gap turlari .....</b>	<b>359</b>
Bir tarkibli gaplar .....	359
Ajratilgan bo'laklar .....	364
Sifatdosh qurilmalari .....	366
Ravishdosh qurilmalari .....	374
Harakat nomi qurilmalari .....	379
<b>Undalma .....</b>	<b>382</b>
<b>Kirishlar .....</b>	<b>382</b>
<b>Qo'shma gap .....</b>	<b>385</b>
Bog'lovchisiz qo'shma gaplar .....	385
Bog'langan qo'shma gaplar .....	389
<b>Ergash gapli qo'shma gaplarning shakllanish taraqqiyoti</b>	
<b>haqida .....</b>	<b>397</b>
Sifatdosh .....	400
Ravishdosh .....	414
Shart fe'li .....	422
Nisbiy olmoshli qurilmalar .....	428
Tobe bog'lovchilar va bog'lovchi vazifasidagi so'zlar .....	434
<b>Ko'chirma gap .....</b>	<b>456</b>
<b>O'zlashtirma gap .....</b>	<b>458</b>
<b>Umumiy xulosalar .....</b>	<b>458</b>
<b>ILOVA</b>	
Qo'shma gaplar tarixiga oid jadvallar .....	471
«O'zbek tilining tarixiy grammatikasi» fani bo'yicha testlar .....	490
Mustaqil mashg'ulotlar uchun mavzular .....	502
Tahlil uchun matnlar .....	504

## **O‘ZBEK TILINING TARIXIY GRAMMATIKASI**

*Universitetlar va pedagogika institutlarining filologiya fakulteti bakalavriat  
ta’lim yo’nalishi talabalari uchun darslik*

O‘zbekiston faylasuflari milliy jamoatini nashriyoti, 100083,  
Toshkent, Matbuotchilar ko’chasi, 32.

Tel: 236-55-79; faks: 239-88-61

Muharrir: *Z. Mirzahakimova*

Musahhah: *H. Zokirova*

Dizayner: *N. Mamonov*

Bosishga ruxsat etildi 10.07.2000. Bichimi 60 x 84 V, h-Ofset qog  
‘oz. bosma tabog ‘i 32,3. Nashriyot-hisob tabog ‘i 33,0. Adadi  
2000 nusxa

buyurtma.

«AVTO-NASHR» bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent shahri, 8-mart ko’chasi, 57-uy.